

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

JAHON TARIXI

1-QISM

QADIMGI VA O'RTA ASRLAR DAVRI

TOSHKENT 2013

Mualliflar: E.Qosimov, E.Nuriddinov, R.Mulladjanova, F.Ismatullayev, N.Rasulova, Sh.Zokirov, A.Abduazimov, T.Ponomaryova, M.Nasriddinova

Mas'ul muharrir: **Tarix fanlar doktori, professor E.Z.Nuriddinov**

Taqrizchilar: TDSHI Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedreasi mudiri
tarix fanlari nomzodi, dotsent **Sh. Saidov**
O'zMU Jahon tarixi kafedراسи dotsenti
tarix fanlari nomzodi **R. Tursunov**

Ushbu darslikda jahon tarixining qadimgi dunyo hamda o'rta asrlar davri tarixiga oid eng muhim mavzular qamrab olingan. O'rganilayotgan davrda jahon mamlakatlari rivojlanishining alohida va umumiy xususiyatlari, jumladan, shakllanishi, taraqqiyoti, inqirozga yuz tutishi kabilar tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Tarixiy jarayonlardagi eng muhim voqealar, xususan urushlar va qo'zg'olonlar, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hayotdagi o'zgarishlar yoritib berilgan. Darslikda keltirilgan materiallar o'zlashtirilishi oson bo'lishi uchun glossariy, bibliografiya hamda illyustrativ materiallar bilan boyitilgan.

Oliy o'quv yurtlarining "Tarix o'qitish metodikasi" yo'nalishi talabalari va o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2013-yil 13-martdagi
82-sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat etilgan.**

Mundarija

KIRISH.....	5
I BO'LIM. QADIMGI SHARQ TARIXI.....	9
1-§. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi	9
2-§. Antropogenez jarayonining yakunlanishi. Ibtidoiy jamoa va sivilizatsiya	19
3-§. Qadimgi Sharq tarixi	26
4-§. Er. av. 3-ming yillikda Mesopotamiya. Qadimgi Ossuriya. Babil davlati	30
5-§. Qadimgi Misr. Qadimgi va O'rta shohliklar davri. Qadimgi Misr madaniyati	41
6-§. Kichik Osiyo. Suriya, Finikiya, Falastin qadimgi davrda. Xett podsholigi	51
7-§. Qadimgi Kavkazorti. Urartu davlati.....	59
8-§. Qadimgi Elam, Midiya va Ahamoniylar davlati	63
9-§. Qadimgi Hindiston. Maurya va Guptalar davlati.....	81
10-§. Qadimgi Xitoy. Shan In davlati. Chjou, Sin davlati	97
II BO'LIM. QADIMGI YUNONISTON	109
11-§. Qadimgi Yunoniston. Krit-miken davri.....	109
12-§. Er. av. IX-VI asrlarda Attika. Yunon-Eron urushlari	119
13-§. Afina quldorlik demokratiyasining ravnaqi.....	135
14-§. Peloponnes urushi. Afinaning mag'lubiyati va uning sabablari.....	138
15-§. Aleksandr Makedonskiy saltanatining vujudga kelishi va uning parchalanishi	143
III BO'LIM. QADIMGI RIM	147
16-§. Qadimgi Rim tarixiga kirish. Manbalar va davlatchilikni paydo bo'lishi.....	147
17-§. Rimning Sharqiy O'rta yer dengizidagi ekspansiyasi. Karfagenning yengilishi	155
18-§. Rim Respublika tuzumi inqirozi va uning qulashi.....	169
19-§. Oktavian Avgust pritsipiati. Er.av. I asr boshlarida Rim imperiyasi inqirozining tugatilishi va byurokratik apparatning mustahkamlanishi.....	177
20-§. Rimdagi qul egaligi va qullarning Sitsiliyadagi birinchi qo'zg'oloni. Eramizning IV-V asrlarida so'ngi Rim imperiyasi. Dominat	186
21-§. Qadimgi Rim hududida german qabilalari bosqini.....	203

IV BO'LIM. JAHON XALQLARI ILK O'RTA ASRLARDA.....	212
22-§. Jahon tarixida o'rta asrlar davri	212
23-§. Rim imperiyasining inqirozi. Varvar qirolliklarining tashkil topishi.....	217
24-§. Franklarda imperiyaning shakllanishi. Karolinglar.....	224
25-§. VI–XI asrlarda Vizantiya imperiyasi	235
26-§. O'rta asrlarning ilk davrida Hindiston va Xitoy.....	258
27-§. IX-XI asrlarda Ispaniya.....	271
28-§. IX-XI asrlarda Germaniya va Italiya.....	279
29-§. IX-XI asrlarda Angliya.....	290
30-§. Fransiya IX-XI asrlarda	300
31-§. VI–XI asrlarda slavyan xalqlarining ijtimoiy ahvoli va ularda ilk davlatlarning vujudga kelishi	314
32-§. VI – XI asrlarda arablar.....	322
33-§. VI-XI asrlarda G'arbiy Yevropada ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar	341
V BO'LIM. RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA JAHON MAMLAKATLARI.....	356
34-§. Salib yurishlari va ularning ahamiyati.....	356
35-§. XI - XV asrlarda Fransiya.....	372
36-§. XI - XV asrlarda Angliya.....	388
37-§. XI–XV asrlarda Germaniya davlatchiligining rivojlanishi.....	403
38-§. XI – XV asrlarda Chexiyada siyosiy kurashlar.....	411
39-§. XI – XV asrlarda Ispaniya va Portugaliya.....	428
40-§. Usmoniylar davlati va uning istilolari	438
41-§. O'rta asrlarda Amerika va Afrika xalqlari	445
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	454

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgach, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berishiga keng imkoniyatlar ochildi. Respublika rahbariyati, jumladan, Prezident I.A.Karimov boshchiligida mamlakat taraqqiyotining barcha sohalarida chuqur islohotlar o'tkazilishiga qadam qo'yildi.

“Bugungi zamon, hozirgi hayotimiz shunday tez o'zgarib bormoqdaki, har kuni shu qadar ulkan, olamshumul voqealar yuz bermoqdaki, bu vaziyatni tushunish va undan to'g'ri, jamiki xalqimizga ma'qul siyosat yo'lini tanlab olish, uni ro'yobga chiqarish, ya'ni hayotga tadbiq qilish juda ham murakkab ish bo'lib qolmoqda”¹.

Aynan shuning uchun ham mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab barkamol avlod yaratish maqsadida ta'lim sohasida tub islohotlarning o'tkazilishi, davlat oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanmoqda. Shu asosda 1997-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va “Ta'lim to'g'risida”gi qonun qabul qilindi.

Ushbu dasturiy hujjatlarda ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida ta'lim tizimida yangi avlod darsliklarini yaratish vazifasi ilgari surildi. Shunga binoan bugungi kunda tarix fani oldida tarixiylik, xolislik va zamonaviy metodologik yondashuvlarga asoslangan holda o'qitilish talab etilmoqda. Bu o'z navbatida, yangi avlod darsliklarini va o'quv qo'llanmalarini yaratilishini taqozo etmoqda.

Jahon tarixi bilan hamohang xalqimizning tarixi o'z ildizlari bilan asrlar qa'riga borib taqaladi va uch ming yildan ko'proq davrni o'z ichiga oladi. Qadimiy Turon,

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 275.

Movarounnahr, Turkiston hududida ravnaq topgan davlatlar jahon madaniyatini rivojlantirishda yorqin iz qoldirgan.

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari juda qadim zamonlardan dunyoga mashhur bo'lgan. O'lis asrlarda bu shaharlar Xitoydan Ispaniyagacha, Yevropadan Hind okeanigacha aloqa bog'lagan.

Ma'naviy, ilmiy va estetik qadriyatlar xalqimizning turmush tarzida, an'anaviy madaniyatida muhim o'rin olgan. Biz o'zimizning tariximizni va jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz - Sharqning mutafakkirlari Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug'bek va boshqalarni e'zozlaymiz hamda ular bilan faxrlanamiz.

Bugungi kunda, O'zbekiston o'zining ma'naviy qadriyatlarini va aqliy salohiyatini qayta tiklash davriga, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda tub o'zgartirishlar davriga qadam qo'ydi.

Biz barpo etayotgan davlat eng avvalo, umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslanishi lozim.

IX asrdayoq Yevropaliklar "Algebra" deb atagan fanga asos solgan buyuk vatandoshimiz Al-Xorazmiyning; Xristofor Kolumbdan qariyb besh asr oldin okean ortida quruqlik, ya'ni keyinchalik Amerika deb nom olgan qit'a borligini bashorat qilib, ilmiy asoslab bergan qomusiy bilim sohibi Abu Rayhon Beruniyning; "Tib qonunlari" nomli mashhur asarining o'ziyoq lotin tilida 30 martadan ziyod nashr etilib, o'rta asrlarda butun dunyo, shu jumladan Yevropa tibbiyot institutlarida qo'llanma sifatida o'qitilgan ulug' ajdodimiz Ibn Sino kabi ko'plab allomalarning nomlari va ilmiy ishlari bilan dunyo ahli tan olgan va e'tirof etishgan.

"Jahon tarixi" fanidan tavsiya etilayotgan darslik jahon andozalariga rioya qilgan holda yangicha metodologik va sivilizatsion yondashuv asosida tayyorlangan.

Ushbu darslik ikki katta bo'limdan iborat. Uning birinchi bo'limi "Qadimgi davr" xronologik jihatdan ibtidoiy jamoa tuzumidan to Rim imperiyasining parchalanguniga, ya'ni eramizning III – VI asrlariga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga

oladi. Bu davrni o'rganishda asosiy e'tibor – ibtidoiy jamoa tuzumining evalyutsion jarayonlariga, dastlabki sivilizatsiya markazlarining yuzaga kelishi jarayonlariga, quldorlik davlatlarini shakllanish va ularning yuksalishi va turg'unlikka yuz tutish sabab-oqibatlarini, ushbu davlatlardagi siyosiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy holat, madaniyat va ilm sohalarida erishilgan yutuqlariga, qadimgi davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarga, quldorlik tizimining parchalanish holatlarini o'rganishiga qaratiladi.

Darslikning ikkinchi bo'limini “O'rta asrlar davri” tashkil etadi. Ushbu bo'lim yangicha metodologik va sivilizatsion yondashuvlarga binoan xronologik jihatdan IV – V asrlardan XV asrga qadar, ya'ni buyuk geografik kashfiyotlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi shuni ham alohida ta'kidlash joizki bugungi kunda ushbu bo'lim ilk va rivojlangan o'rta asrlar davriga ajratilgan holda o'rganilmoqda. Shunga binoan, evalutsion taraqqiyot asosida jahonda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi jarayonlari, buyuk imperiyalar o'rnida yangi davlatlarning barpo etilishi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yangicha shaklini yuzaga kelishi, markazlashgan davlatlarning paydo bo'lishi va ular o'rtasidagi siyosiy qarama – qarshiliklar, inson taraqqiyotida fan va madaniyatning o'rni kabi masalalar ko'rib chiqilinadi.

Darslik “Tarix” fakulteti mavjud pedagogik oliy o'quv yurti talabalariga mo'ljallangan bo'lib unda har bir mavzuga oid mustahkamlash savollari, tayanch iboralari, glossariy va adabiyotlar ro'yhati keltirilgan. Bunday tarzda darslikning yaratilishi talabalar tomonidan o'rganiladigan mavzularni puxta o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, mualliflar guruhi “Jahon tarixi” birinchi qism (“Qadimgi va o'rta asrlar davri”) ideal tarzda yaratilgan darslik bo'lishiga da'vo etmaydi. Darslikni yaratishda albatta “Jahon tarixi” fanidan, jumladan “Qadimgi dunyo tarixi” hamda “O'rta asrlar tarixi” bo'yicha avvallari yaratilgan darslik va o'quv qo'llanma shuningdek yangi ilmiy maqolalar va tarixiy ma'lumotlarga tayanilgan. Yaratilgan darslik yuzasidan neki taklif va mulohazalar mavjud bo'lsa mualliflar guruhi minatdorchilik bildirib ularni to'g'ri qabul qilgan holda albatta kelgusi ishlarida inobatga oladilar.

Darslik Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix kafedrası mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlandi. Jamoa rahbari tarix fanlari nomzodi, dotsent Erkin Qosimov (1,2,3-§, illyustratsiya materiallari), mas'ul muharrir tarix fanlari doktori, professor Erkin Zuhriddinovich Nuriddinov (kirish), pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Ra'no Mulladjanova (10,11,12,27,37,38-§), tarix fanlari nomzodlari: Farhod Ismatullaev (7,8,9,34,35,36-§), Nodira Sardorovna Rasulova (22,23,24-§), katta o'qituvchilar: Shavkat Shukurovich Zokirov (19,20,21,28,29-§), Aziz Abduazimov (16,17,18,26,39,40-§), Tatyana Lvovna Ponamaryova (4,5,6,25,30,31-§) va o'qituvchi Munira Nasritdinovalar (13,14,15-§) tomonidan tayyorlandi.

Aziz talaba! Davlat mustahkamligi va qudrati uning jahon jamoatchiligining oldidagi ma'naviy-axloqiy qiyofasi va nufuzi bilan ham bog'liq. Tarix esa ma'naviyat ko'zglasidir. Aynan shuning uchun ham jahon tarixini bilish ila xalqimizning, millatimizning ma'naviy jihatdan uyg'onishi, jahon ma'naviy ta'limotidan, xalqimizning tinch hayot kechirishiga, do'stlik va hamkorlikka, o'zaro jipslik va sabr toqatga o'rgatuvchi omilga ega bo'lamiz. Oldimizda xalqimizning aqliy boyliklarini, jahon fani va madaniyatini eng yaxshi yutuqlarini o'ziga singdirib oladigan yangi avlodni kamol toptirishdek buyuk vazifa turibdi. Bunga millatning ongli vatanparvar birligi ruhini vujudga keltirish bilan amalga oshirish mumkin.

Yodingda tut, bizning diyorumiz buyuk allomalarni yetishtirgan. Butun jahon ilm ahli ular bilan faxrlanadi. Ular asos solgan milliy, ilmiy tafakkurning an'analarini davom ettirish va boyitish uchun bizda hamma shart-sharoitlar bor.

Madomiki, fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vosita deb qaralmoqda ekan. Tarix fani odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo'lmagan millatning kelajagi yo'qligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlovchi, asoslovchi fandır.

I BO'LIM. QADIMGI SHARQ TARIXI

1-§. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi

O'tmish yodgorliklari tarixiy manba, ma'naviy qadriyatdir. Ibtidoiy jamoa davri insonning dastlab tabiat bilan kurashi, sivilizatsiya va madaniy manbalar tarixi bo'lib, bu davrni o'rganmasdan jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini anglashi, to'g'ri tasavvurga ega bo'lish, hozirgi zamon xalqlarini tushunish qiyin.

Insoniyat tarixidagi voqea-hodisalarni tahlili va tiklashda tarixchi olimlarning xizmatlari katta. Shu bilan birgalikda yordamchi tarix fanlari: arxeologiya, etnografiya, antropologiya, tarixiy tilshunoslik kabi fanlar yutuqlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or fan yutuqlari insoniyat olamining taraqqiyotidagi o'ziga xos jihatlarini asoslab berish bilan bir qatorda tarixiy manba sifatida xizmat qiladi.

Tarixiy manbalar — o'tmishda odamzod qo'li bilan bunyod etilgan tarixiy jarayon izlarini o'zida aks ettiruvchi va kishilik jamiyati tarixini o'rganish imkonini beruvchi hozirgi kungacha saqlangan har qanday osori atiqqa, yozma manba, ma'naviy (til, e'tiqod, urf-odat) qadriyatlar. Manbalar tarixiy tadqiqotlarning asosiy poydevori hisoblanadi. Ularni keng ko'lamda sinchiklab o'rganmasdan turib kishilik jamiyatining tadrijiy taraqqiyoti tarixini tahlil qilib bo'lmaydi. Manbalarning xili nihoyatda ko'p, ammo ma'lum darajada aniq va to'la ma'lumotlarga ega. Manbalar majmuasi cheklangan. Yozuv hali yuzaga kelmagan ibtidoiy jamoa davridan faqat moddiy madaniyat qoldiqlari (turar joy, makon, manzil, mehnat qurollari) saqlangan xolos. Ulardan, asosan, ibtidoiy jamiyat davri hayotini, qisman qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixini tadqiq etishda foydalaniladi.

Ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik), savdo-sotiq munosabatlari yuzaga kelib rivoj topgan sivilizatsiya davri tarixini o'rganishda esa yozma manbalar birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bu davr manbalarning soni va sifati kishilik jamiyatining ma'naviy kamoloti, xususan, yozuv va xat-savodning yuksakligi-yu qanchalik tarqalgani va yozma manbalarining saqlanish holatiga bog'liq bo'lgan. Shu boisdan bizning davrimizgacha, ayniqsa, qadimgi yozma manbalar oz saqlangan bo'lsa, keyingi tarixiy davrlar uchun xos

hisoblangan tosh, sopol, qayin po'stlog'i, pergament va qog'ozga bitilgan, shuningdek, bosma asarlar keng tarqalgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi haqidagi fanning rivojlanish tarixi. Yozma tarixiy manbalar kishilik jamiyatining ijtimoiy va shaxsiy faoliyati natijasida yuzaga kelgan. Ular 8 turkumga bo'linadi: yozma, ashyoviy, etnografik, lingvistik, toponomik, og'zaki (folklor), kino, fono, fotomateriallar. Manbalarni turkumlarga bo'lish, ularning yuzaga kelishi, tadqiqot qilish, mualliflarini aniqlash, haqqoniyligi va to'liqligini belgilash kabi masalalar bilan manbashunoslik fani shug'ullanadi.

Insoniyat taraqqiyotida eng uzoq davom etgan davr qadimgi tosh davri – paleolit hisoblanadi. “Paleolit” so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, “paleos”– “qadimgi”, “litos”–“tosh”, ya'ni qadimgi tosh davri degan ma'noni beradi. Paleolit davri xronologik jihatidan milloddan avvalgi 2 million yillikdan to 12 ming yillikkacha davom qiladi va uch davrga– ilk, o'rta va so'nggi davrlarga bo'linadi.

Paleolitning uch davri ham o'zining rivojlanish darajasiga qarab, mehnat qurollaridagi o'zgarishlar asosida turli davrlarga bo'linadi. Ilgari ilk paleolit davri shellgacha, shell, ashel davrlariga bo'lingan edi. Lekin keyingi davrlarda qilingan tadqiqotlar natijasida, uni olduvay va ashel davrlariga bo'lish muvofiq deb topildi. Chunki ilgarilari olduvay davri yodgorliklari kam bo'lib, uni davr tariqasida ajratish imkoni bo'lmagan. Shuning uchun shell va ashel davrlari qo'lcho'qmorlaridagi vazn jihatidan farqini e'tiborga olib ularni davrlarga ajratishgan. Keyingi yillarda esa, olduvay davri mehnat qurollarining ko'plab topilishi uning davr sifatida ajratib ko'rsatishga imkon tug'dirdi.

Tarix fanining bir yo'nalishi tarixshunoslik (istoriografiya) bo'lib, har bir davr tarixining o'rganilganlik darajasini tadqiq va tahlil qilishdan iborat. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini o'rganishda Gerodot, Ksenofont, Strabon, Sezar va Tatsit, Demokrit, Lukretsiy Kar, Foma Akvinskiy, Smit va Rikardo, Baxofen, Morgan, Spenser, Teylor, Lebbok, Bastian, Mak – Lennan, Lippert juda katta hissa qo'shishgan.

Sovet etnograflari dialektik va tarixiy materializm mavqeida turib, inqilobgacha bo'lgan etnografiyaning boy merosiga tanqidiy nazar bilan qarab, uni qaytadan baholadilar va shu merosni yangi tadqiqotlar bilan boyitdilar. Sovet etnograflar

maktabining asosiy tadqiqot ob'ekti – konkret xalq – o'zi yaratgan madaniyatning ijodkori va uning yoyuvchisidir. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi ham boshqa davrlarga nisbatan keng o'rganilgan. Bu davrga oid makonlarning tadqiq qilinishi o'rta paleolit davri xo'jalik madaniy hayotining barcha tomonlarini yoritdi. Bu davr O'.Islomov, K.Kraxmal, A.Okladnikov, V.Ranov, M.Qosimov, R.Sulaymonov, T.Mirsoatov, N.Toshkenboev, M.Jungorov, Z.Abramova va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Odamning kelib chiqish jarayoni va avstralopitekalar, pitekanthrop, sinantrop, geydelberg kabilarning shakllanishi. Ibtidoiy odamlarning paydo bo'lishidan to davlat yuzaga kelguniga qadar bo'lgan davr ibtidoiy davr hisoblanadi. Jamoa bo'lib mehnat qilish va jamoa bo'lib istemol qilish ibtidoiy jamiyatning o'ziga xos xususiyatidir. Eng oddiy mehnat qurollariga ega bo'lgan ibtidoiy odam yakka-yakka holda tabiat kuchlariga va hayvonlarga qarshi kurasha olmas edi. Shuning uchun ibtidoiy odamlar jamoa ravishda mehnat qilib, o'z mehnatlarining mahsulini teng taqsimlar edilar. Ibtidoiy jamoa iborasi juda buyuk kashfiyot hisoblanib, u birinchi navbatda etnograf olim L. G. Morgan nomi bilan bog'liq. L. G. Morgan o'zining «Qadimgi jamiyat» (1877) asarida juda boy etnografik materiallarga asoslangan holda ilmiy olamga birinchi bo'lib, kishilik tarixining dastlabki sinfiy jamiyatga qadar bo'lgan davrini ikki bosqichga bo'lgan: 1-bosqich «ibtidoiy to'da», 2-bosqichi esa «ibtidoiy urug'chilik jamoasi» deb atadi. Ibtidoiy to'da bosqichi o'z mazmun va mohiyati bilan ilk ajdodlarimizning «hayvonot» olamidan ajralib insoniyat olamiga o'tish davri bilan harakterlanadi. L.G.Morgan bu bosqichni Ibtidoiy jamoaga kiritmagan.

Arxeologik jihatdan ilk va o'rta paleolit davriga muvofiq keluvchi ibtidoiy to'da davrida yashagan ajdodlarimizning odamsimon maymun podalariga xos xatti-harakatlari, ularni fan olamida eng oliy tipdagi odamsimon maymunlardan tarqalgan, degan tasavvurni keltirib chiqardi. Aslida, hech bir odamsimon maymunlardan (shimpanze, gibbon, orangutan, gorillalardan) odam tarqalmagan. Odamzotning ilk ajdodlari o'zlarining oziq tishlaridagi naqshlari va bosh miyasining maymun bosh miyasidan kattaligi bilan farq qiluvchi maymunsimon odam ajdodi (Goranna

driopiteki)dan tarqalgan. Bu tipdagi odamzot ajdodlarining qoldiqlari Janubiy Afrikada *zinjanthrop*, Indoneziyaning Yava orolida *pitekanthrop* (1-rasm), Xitoyda sinantrop, O'zbekistonda *fergantrop*, Germaniyada *neandertallar* (2-rasm) nomlari ostida topib o'rganildi. Fan olamining xulosasiga ko'ra, ular to «aqli odam» («Homo sapiens») holatiga kelguniga qadar (mil.av. 40—35 ming yillikka qadar) o'zining tadrijiy shakllanish taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Ular eng oddiy tosh qurollardan va olovdan foydalanishni o'rgandilar. Madaniyatning dastlabki kurtaklari vujudga keldi, ma'noli nutq paydo bo'ldi. Inson asta-sekin biologik jihatdan takomillasha bordi, eng ibtidoiy (pitekanthrop, sinantrop va neandertal) tiplari yuksak taraqqiy etgan va ijtimoiy mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan odam darajasiga yetdi. Avvalo mehnat, go'shtni pishirib iste'mol qilish, so'ngra so'zlash kabi muhim sabab bo'ldiki, bu sabablar ta'siri ostida eng ilk ajdodlarimizning miyasi sekin-asta aqli odam miyasiga aylandi. Ilk va o'rta paleolitdan uning so'nggi bosqichiga o'tish davrida tosh qurollarni yasashda, ovchilikda ancha yutuqlarga erishildi.

Mehnat va mehnat qurollarining roli, fikr, nutqning vujudga kelishi.

Ibtidoiy to'dadan so'nggi paleolitga o'tish davrida ijtimoiy munosabatlar va odam qiyofasi ancha o'zgardi va taraqqiy etdi. O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda ibtidoiy jamoaning har bir davriga mansub mehnat qurollari Farg'ona vodiysidagi Selungur g'orida va boshqa joylarda topildi. Arxeolog A. P. Okladnikov tomonidan 1938-39- yillarda tekshirilgan *Teshiktosh g'ori* yodgorliklari ham mazkur davrning must'e bosqichiga mansubdir.

Yuqori paleolit davri odamlari xo'jaligining asosini ovchilik tashkil etgan. Asosan bug'u, yovvoyi ot, sirtlon, arxar, qulon, tuya kabi yirik hayvonlar ovlangan. Daraxt mevalari, don va ildiz mevali o'simliklarni ham terib-terib ovqat sifatida ishlatganlar. Baliqchilikning ham dastlabki kurtaklari paydo bo'lgan. Bu davrda ov va mehnat qurollarining turi ko'paygan. Tosh qurollari ishlash uslubi o'zgargan. Bunga esa tosh qurollarini yasash texnikasidagi yangilik sabab bo'lgan. Yorma texnika usuli ilk bosqichda keng qo'llanilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda retushlash usuli ixtiro qilingan. Bu qurollar turini ko'paytiribgina qolmay, ularning mayda, ya'ni ixchamlashtirishga olib kelgan.

Retushlash deganda chaqmoqtosh qurolni suyakdan yasalgan ingichka va uzun tayoq bilan bir necha ming marta urib yupqa tosh paraqalar uchirib, kerakli shaklga keltirish tushuniladi. Bu usul juda murakkab bo'lib, salgina ehtiyotsizlik qilinsa, qurol sinib ketgan.

Retushlangan nukleuslar to'g'ri pichoqsimon shaklga kirgan va yupqalashgan. Pichoqlar paydo bo'lgan. Bu davrda eng muhim mehnat qurollari tosh kesgich va tosh qirg'ich bo'lgan. Tosh kesgich qattiq materiallarni ishlashda foydalanilgan. Tosh qirg'ich uzunchoq parrakcha bo'lib, bir uchi yoysimon tig' bo'lgan, muste davridagi qirg'ichdan ancha farq qilgan, undan yumshoq materiallarni ishlashda foydalanganlar. Asosiy ov quroli chaqmoqtoshdan yasalgan nayza bo'lgan.

Teshiktosh g'or makoni butun O'rta Osiyoda muste davrining eng nodir namunasi hisoblanadi. U Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi Boysun tog'ining janubiy yon bag'ridagi Turgandaryoning Zovtalashgan darasida, dengiz sathidan 1500 m balandlikda joylashgan. G'or shimoliy-sharqqa qaragan bo'lib, kengligi old qismida 20 m, chuqurligi 21 m, balandligi 9 m. bo'lgan. G'or 1938–1939 yillarda Parfyonov va A.P.Okladnikov tomonidan tekshirilgan va tadqiqotlari natijasini 1939–1949 yillarda nashr qildirgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida g'orda 5 ta madaniy qatlam aniqlangan. Ulardan toshdan yasalgan mehnat qurollaridan 339 tasi, 2520 ta singan, uchrindi tosh qurollar, 101 ta turli shakldagi nukleuslar topilgan. Shu jumladan, o'tkir uchli sanchiqlar, tosh pichoqlar, paraqalar, sixcha, qirg'ich, kurakcha, chopper, chopqi va hakoza. Teshiktoshdan topilgan mehnat qurollarning aksariyati qirquvchi va tarashlovchi vazifalarni bajargan. Bu yerdan yana faqat neandertal odamiga xos rapidasimon nukleuslardan (o'zaklar) bir necha nusxa topilgan. Ularning diametri 10–15 smni tashkil etgan. Bu kabi o'zaklardan neandertallar tosh bolg'alar yordamida uchburchaksimon uchrindilar uchirib olganlar. Uchrindilar o'tkir uchli bo'lganligi sababli ulardan terilarga ishlov berish, yog'ochlarni kesish, randalash kabi ishlarda foydalanganlar. Bunday mehnat qurollar eng ko'p Teshiktoshdan topilgan. Teshiktosh g'orining eng qimmatli topilmasi

yuqorida qayd qilib o'tilgandek, neandertal odamning suyak qoldiqlarining topilishidir. U eng pastki madaniy qatlamdan topilgan. Bular kalla suyagi, yelka va yo'g'on o'ng son suyagining parchalari, ikkala kichik boldir suyagi hamda umurtqa pog'onasining ba'zi qismlaridir. Bu voqea o'z vaqtida antropologlarda juda katta qiziqish uyg'otdi. Antropologlar xulosasiga ko'ra, neandertalning bosh suyagining hajmi 1490 sm³ bo'lgan. Neandertal bola suyagining o'rganilishi 1970 yilgacha davom etdi. Taniqli antropolog olim akademik V.A.Alekseev antropologiyaning keyingi davr yutuqlariga tayanib, Teshiktosh odamini qayta o'rgandi va uning 10 yashar bola emas, balki ayol kishi ekanligini, Yevropa va Old Osiyo guruhiga kirishini ko'rsatdi.

Zamonaviy odamning paydo bo'lishi, irqlar, urug'chilik, ishlab chiqarish, xo'jalikning vujudga kelishi. So'nggi paleolit davrida suyak va shoxdan yasalgan buyumlar — igna, bigiz, qarmoq, kamon o'qi, turli xil bezaklar va boshqalar keng qo'llanilgan. Bu davrda parma ham paydo bo'ldi. Ibtidoiy to'da o'rnini ijtimoiy jamoaning ancha mukammallashgan shakli — ona urug'i jamoasi (matriarxat) oldi. Bir urug' ichida nikoh qilish man etildi, natijada ibtidoiy odamlarning jamoa bo'lib uyushishi kuchaydi.

Irqlar paleolitning so'ngi davrlarida bundan 40-30 ming yil avval odam Yer yuzini egallashi bilan shakllana boshladi. Ularning izlarini Ispaniya, Fransiya hududlarida ko'rish mumkin (4-5-rasmlar). Har bir irq o'ziga xos irsiy belgilari bilan farqlanadi. Hozirgi odamlar 3 ta ekvatorial (negroid, avstraloid), yevroosiyo (yevropoid), osiyo-amerika (mongoloid) yoki 5 ta (negroid, avstraloid, yevropoid, mongoloid, amerkanoid) yirik irq'larga bo'linadi. Har bir irq ichida kenja irq bo'ladi. Masalan: ekvatorial irq negr, negrill, bushmen, avstraliya va boshqa irq'larga; yevropoid irq esa Atlantika-Boltiq, Hind-O'rta dengizi, O'rta Yevropa va boshqalarga; mongoloid irq Shimoliy Osiyo, Arktika, Janubiy Osiyo va boshqalarga ajraladi.

Barcha irq Homo sapiensga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarga ega: ularning barchasi biologik va psixik jihatdan teng bo'lib, evolyutsion rivojlanishning bir xil pog'onasida turadi. Barcha irq madaniyat va sivilizatsiya eng yuqori darajada

rivojlanishida bir xil imkoniyatiga ega. Irq bir xil qobiliyatga ega emasligi, ular evolyutsiyaning turli bosqichlarida turganligi to'g'risidagi irqchilik g'oyalarini inkor etadi. Odam Irqni "millat", "til guruhi" tushunchalari bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Bitta millat tarkibida har xil irq va aksincha, bitta irqning o'zi turli millatlar tarkibiga kirishi mumkin.

Ibtidoy jamoa tuzumining parchalanish davri. Arxeologik jihatdan so'nggi paleolit, mezolit va neolit davriga muvofiq keluvchi matriarxat davrida urug'chilik jamoasi ancha uyushqoq ijtimoiy-iqtisodiy kurtak bo'lib kishilar birgalikda mahsulot tayyorlar va iste'mol qilar edi. Ular ovchilik. Baliqchilik bilan shug'ullanganlar, keyinchalik esa motiga bilan er haydab, dehqonchilik qilib va uy hayvonlarini boqib, tirikchilik o'tkazishgan. Matriarxatning rivojlangan davrida mehnat taqsimoti tufayli xo'jalikda va jamiyatda ayollar muhim rol o'ynay boshladi. Ibtidoiy guruh-guruh oiladan aloxida xo'jalikka ega bo'lmagan beqaror juft-juft oilaga o'tildi. Matriarxat davrida qishki turar joy, kiyim va bezaklar, qurolning murakkab turlari (o'q yoy, sanchiq va b.), terini qayta ishlash, mato to'qish, kulolchilik vujudga kela boshladi.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish davri va metallurgiya (mis, jez, temir) ning vujudga kelishi. Neolit davri iqlimi hozirgi iqlim sharoitiga yaqin bo'lgan. O'rta Osiyoning janubiy—g'arbiy hududining iqlimi issiq, dehqonchilik uchun qulay bo'lgan. Markaziy va shimoliy viloyatlarida ham iqlimning isishi yaylov va cho'l zonalarini vujudga keltirgan. Bu esa neolit davri jamoalarining hudud bo'ylab keng tarqalishiga olib kelgan. Shuningdek, ular mezolit davridagidek daydi hayot kechirmay, o'troq turmush tarziga o'tadilar. Doimiy yerto'la, kulba va loy, guvaladan qurilgan uylarda yashay boshlaydilar. O'troq turmush tarzi janubiy hududlarda dehqonchilikning kelib chiqishiga, cho'l mintaqalarda esa o'troq ovchilik xo'jaligining qaror topishiga olib keldi. Keyinchalik uning zamirida chorvachilik paydo bo'ldi.

Neolit davrida toshni ishlash texnikasida yangi usullar - silliqlash, pardozlash, arralash va parmalash usullari ixtiro etiladi. Bu esa ibtidoiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni yanada tezroq rivojlanishiga olib keldi. Lekin bu usullar hamma qurollarga nisbatan qo'llanilavermas edi. O'tkir tig' beruvchi qurollar

yasashda hali kertma va yorma uslubidan foydalanilar edi. Mezolit davrida o'q-yoy kashf etiladi, it,bug'u qo'lga o'rgatiladi.

Ilk neolit davrida makrolit qulollar keng tarqalgan. Ular og'ir katta hajmdagi chaqmoqtoshdan ishlangan qurollar bo'lgan. Qurollarni silliqlash keyingi neolit davriga to'g'ri keladi. Qurollar maxsus tosh ustidagi qumtosh taxtada silliqlangan. Tosh taxta tayanch vazifasini o'tagan. Qurollar ko'l kvars qumi bilan uzoq vaqt ishqalash jarayonida silliqlangan. Silliqlangan tosh qurollar neolit oxiriga kelib parmalangan. Unda suyak parma vazifasini bajargan. Suyak parmani qalqon ipiga o'rab aylantirganlar, unda suyakning uchiga nam qum sepib turilgan. Parmalangan qurolga dasta o'rnatish mumkin bo'lgan.

Oldingi davrlarda ro'zg'or buyumlar yog'ochdan yoki novdadan yasalgan bo'lsa, ilk neolit davrida dag'al, chala kuydirilgan sopol buyumlar tarqaldi. Ularning tuxumsimon tagi dumaloq bo'lib, maxsus chuqurchalarga o'rnatilgan. So'nggi neolit davriga kelib sopol buyum shakli o'zgaradi. Tuvaksimon, osti tekis idishlar paydo bo'lib, ular maydalashadi. Idishlar loy lentalar asosida qo'lda ishlangan. Idishlar naqshi ham oddiydan murakkabga o'zgarib boradi. Shuningdek, idishlarda tarnovsimon yoki trubasimon jo'mraklar paydo bo'ladi. Idishlar bir yarusli xumdonlarda pishirilgan. Lekin idishlar qo'pol, mo'rt bo'lgan.

To'qimachilik, hunarmanchilikning vujudga kelishi ham neolit davrining buyuk kashfiyoti hisoblanadi. Neolit davri odamlari hayvon yungi va o'simlik tolasidan mato to'qishni o'rganganlar. Shuningdek, yigirilgan ipdan baliq to'ri ham to'qilgan. Bu esa baliq ovlash ahamiyatini keskin ravishda oshirib yuborgan. Bunga suvda suzuvchi qayiqlar yaratilishi ham imkon berdi.

Bronza davri yutuqlaridan biri bu juft oilaning vujudga kelishi bo'lib, u urug' ichida oilaviy munosabatlarning izga tushishi olib keldi va jamiyat taraqqiyotini yanada olg'a siljitdi. Bronza davriga kelib ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi xususiy xujalikning paydo bo'lishiga, urug'ning yemirilishiga, o'ziga to'q yuqori tabaqaning ajralib

chiqishiga olib keldi, bu tabaqa dastlab harbiy asirlar, so'ng qashshoqlashgan qabiladoshlarini qullarga aylantirdi.

Mehnat qurollari yasash chaqmoqtosh xom ashyosini qidirish yo'lida neolit davrida shaxtalar paydo bo'ldi. Ular Angliya, Fransiya, Daniya, Shimoliy Germaniya va Belorussiya kabi davlatlarda o'rganilgan. O'zbekistonning tog'li hududlarida, masalan, Navoiy viloyatining Uchtut degan joyida topilgan. Mehnat qurollari yasashda temirning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishiga olib keldi.

Mazkur jarayonlar natijasida ibtidoiy jamoa tuzumi inqirozi kuzatilgan.

Tayanch tushunchalar: Qadimgi dunyo, tarixiy davrlanish, ibtidoiy jamoa, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlar, o'tmish yodgorliklari, tarixiy manba, tarixshunoslik, paleolit, olduvay, ashel, mehnat qurollari, tarxshunoslik, arxeologiya, antropologiya, etnografiya, etnologiya, insonning kelib chiqish jarayoni, avstralopiteklar, zinjanthrop, pitekanthrop, sinantrop, geydelberglar, tosh qurollari, mehnat qurollari, madaniy qatlam.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Nima uchun ibtidoiy jamoa tuzumi davri tarixini o'rganish uchun zarurat tug'ildi?
2. Tarixshunoslik fani nimani anglatadi va nimani o'rganadi?
3. Moddiy va ma'naviy manba ularning tarixiy ahamiyati?
4. Tarixshunoslik qanday fan va uning mohiyati nimaga qaratilgan?
5. Tarixshunos olimlarning ibtidoiy jamoa tuzumiga oid bo'lgan qanaqa asarlarini bilasiz?
6. Moddiy va ma'naviy manba ularning tarixiy ahamiyati?
7. Odamning paydo bo'lishi va uning shaklanishi to'g'risida qanday qarashlar mavjud?
8. Insoniyatning nutqi va fikrining rivojlanishida qanday omillar bosh rolni o'ynagan?

9. Antropologiya fani va uning o'rganish sohasi nimaga qaratilgan?
10. Avstralopitek, pitekanthrop, sinatroplar – bu...?
11. Paleolit davri mehnat qurollari nimalardan iborat?
12. Eneolit va bronza davri odamlari mehnat qurollari nimalardan iborat va ularning insoniyat tafakkurining rivojlanishiga qo'shgan roli qanday?

Glossariy

Paleolit – lot. “qadimgi tosh” ma'nosini anglatadi. Fanga Paleolit, Mezolit, Bronza tushunchalarini Daniyalik olim K.Yu. Tomson kiritgan.

Antopogenez jarayoni – bu odamning shakllanish jarayoni hisoblanib, ilk paleolit davridan boshlanib, so'ngi paleolit davrigacha bo'lgan jarayon tushuniladi.

Patriarxat davri – qarindoshlik ota tomonidan belgilanadigan davr (er. av. 3 ming yillikda boshlangan), 1861 yilga qadar ya'ni nemis olimi F. Baxovenning “Oila huquqi” asari e'lon qilungunga qadar har doim erkaklar jamiyat hayotida hal qiluvchi rol o'ynagan, degan fikrni hatto ekanligi aksincha dastlab ayollar, ya'ni matriarxat davr ancha avval va uzoq vaqt (er. av. 40 ming yillikdan er. av. 3 ming yillikka qadar bo'lgan) davom etganligini isbotlab berdi.

2-§. Antropogenez jarayonining yakunlanishi. Ibtidoiy jamoa va sivilizatsiya

Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik sohalarining ixtisoslashuvi.

Sinfiy jamiyat asoslarining paydo bo'lishi. Neolitning so'nggi bosqichi va jez davrining boshlarida ona urug'chilik jamoasining ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyotida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Chorvachilik omoch bilan yer haydash, baliq tutish, metallni oddiy usulda qayta ishlash yuzaga keldi. Natijada ayollarning xo'jalik yuritishdagi roli pasayib, erkaklarning roli oshdi. Kishilar tabiat kuchlariga qarshi kurashish uchun turli qurollardan foydalandilar. Erkaklar o'zlari topgan boyliklarini umumiy jamoaga emas, o'z bolalariga berishga intildilar. Shu tariqa matriarxatdan patriarxat davriga o'tildi, urug'chilik oilalariga ota boshchilik qiladigan bo'ldi. Ota urug'i asosida katta patriarxat oilalar tashkil topdi. Patriarxat oilada urug'chilik tuzumining kurtagi saqlangan bo'lsa-da, uning yemirilayotgani sezilib turardi. Barqaror nikoh vujudga kelishi bilan ayol kishi erkak turgan joyga borib yashaydigan bo'ldi. Bolalar ota ismining va mulkining merosxo'ri bo'ldilar, uyda ota hukmronligi yuzaga keldi.

Qabila ittifoqlarining paydo bo'lishi. Qabilalararo xo'jalik va madaniy aloqalarning rivoji tufayli etnik birlikning yangi shakli — elat vujudga keldi. Natijada sinflar va davlatlar paydo bo'ldi. Urug'-qabila boshliqlaridan davlat hokimiyati tashkil topa boshladi.

Dastlabki davrlarda ibtidoiy odamlar qoyalarda ko'rinib yotgan chaqmoqtoshlarni sindirib olganlar. Keyinroq chaqmoqtoshni qidirib, tog' yonbag'irlarida chuqurchalar qaziganlar. Neolit davrida esa xom ashyo olish uchun 4,5 va 5 metrli o'ralar kovlanganlar. Kerakli xom ashyoni olish uchun o'ra (shaxta)ning pastki qismidan har tomonga qo'shimcha yo'laklar ochib borilgan. O'ralar maxsus tosh, suyak va yog'ochdan yasalgan kurakchasimon qurollar yordamida qazilgan. O'ralarning devorlaridagi kurakchalarning izlari xaligacha o'chmagan. O'ra kovlangan vaqtda ishga yaroqli xom ashyoga duch kelinsa, konchilar ularni tosh boltalar yordamida kovlab olganlar. Shuningdek, u yerda o't yoqib toshni qizdirishgan va sovuq suv quyib, portlatganlar. Ular keragicha xom—

ashyodan olib, keyinchalik o'ralar og'zini xarsang toshlar bilan yopib qo'yganlar. Arxeologlar bu yerda 100 dan ortiq bunday o'ziga xos o'ralar-shaxtalarni topganlar, ularning 35 tasi Uchtut shaxtasida o'rganilgan. Uchtut yodgorligi singari shaxtalar faqat neolit davri yodgorliklarida uchraydi.

O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda rangli bo'yoqlar–oxra bilan ishlangan rasmlar juda kam topilgan. Asosan urib–o'yib, chizish usuli bilan ishlagan rasmlar, ya'ni petrogliflar juda keng tarqalgan.

Sinfy jamiyatning vujudga kela boshlashi va bu jarayonning notekis rivojlanishi. Aslida ibtidoiy jamoa urug'chilik jamoasini vujudga kelishi bilan boshlanadi. L. G. Morgan fikriga ba'zi jamiyatshunos olimlar F.Engels va V.I.Lenin kabilar qo'shilsada, ammo ular urug'chilik jamoasi davrini «ibtidoiy kommuna», «Qadimgi kommunizm» iboralari bilann almashtirib, katta nazariy xatoga yo'l qo'yadilar. I. V. Stalinning «Dialektika va tarixiy materializm haqida» asari paydo bo'lgach, masala yanada chalkashib ketdi. U ibtidoiy jamoa tushunchasiga kishilik tarixini ibtidoiy to'da bosqichini ham qo'shib yubordi. Stalincha kontseptsiya keyinchalik sobiq sovet tarixshunosligida asosiy yo'l-yo'riq bo'lib qoldi. Aslida tarixan birinchi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya ibtidoiy urug'chilik jamoasi edi. U urug' jamoalarining paydo bo'lishidan to birinchi sinfiy jamiyatning shakllanishiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ibtidoiy to'da davrida esa ishlab chiqarishning o'zi bo'lmagan. Bu davr odamzodning uzoq davom etgan tadrijiy shakllanish bosqichi bo'lib, u haqiqatan Ibtidoiy jamoaga o'tish davri hisoblanadi. L. G. Morgan o'z vaqtida Ibtidoiy jamoani 2 bosqichga bo'lgan: birinchisini «ibtidoiy urug'chilik jamoasi», ikkinchisini esa «harbiy demokratiya bosqichi» deb ataydi. XX asr davomida etnologiya va arxeologiya sohalarida fan olamida qo'lga kiritilgan yutuqlar harbiy demokratiya davrini sinfsiz jamiyatdan birinchi sinfiy jamiyatga o'tish bosqichi sifatida qarashni, shuningdek, «ibtidoiy urug'chilik jamoasi» davrini ikki fazaga bo'lishlikni taqozo etadi. Ibtidoiy urug' jamoasining har ikkala fazasi davomida inson hayotida juda katta sifat o'zgarishlari yuz berdi. Bu davrda dastlabki jamoa bo'lib yashash kurtagi paydo bo'ldi. Bu kurtak urug' jamoasining tarkib

topishiga asos solgan onalar atrofida yuz berdi. Shuning uchun ham urug'chilik jamoasining bu fazasi — ona urug'i — *matriarxat* deb ataldi.

Urug'chilikning birinchi tadrijiy rivojlanish fazasida ishlab chiqarish munosabatlari to'laligicha urug' manfaatiga mos tushadi, jamoada ijtimoiy ishlab chiqarish hukmron. Endi ibtidoiy urug'chilik jamoasining ikkinchi fazasida ishlab chiqarish munosabatlari asta-sekin urug' manfaati doirasidan chiqa boshlaydi. Bunday ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlar ibtidoiy jamoa xo'jaligida dehqonchilik va chorvachilikning kelib chiqishi, rivojlanishi bilan jamoada ortiqcha mahsulotning paydo bo'lishi va bozor munosabatlarning tarkib topishi bilan bog'liq edi. Bu jarayonlar, albatta, ishlab chiqarishda erkaklar mehnatiga talabning ortishi va urug'lararo guruhliy nikohning buzilishi va urug' jamoasidan tashqarida patriarxat juft oilaning qaror topishi bilan bog'liq edi. Ibtidoiy urug'chilik jamoasi zamonida ro'y bergan bu o'zgarishlar matriarxat urug' jamoasining patriarxat urug' jamoasiga o'z o'rnini bo'shatib berishiga olib keldi. Ota urug'i (patriarxat) shakllandi.

Jamoada erkaklar rolining kuchayishi tabiiy ravishda patriarxat juft oilani keltirib chiqardi. Patriarxat urug' jamoasidagi juft oila nikohiy va uning tarkibida monogam nikoh tizimining qaror topishiga olib keldi. Ilk urug'chilik jamoasi davrida odamzod birinchi bor amaliy san'atni kashf etdi, ya'ni san'at dastlab ayol haykallarini yasashdan, birinchi homilador ayol tasvirini ishlashdan boshlandi. Bu davrning boshqa bir buyuk o'zgarishi odamzodning biologik jismoniy tuzilishida ro'y berdi, ya'ni yevropeoid, negroid va mongoloid irqalar shakllandi va nihoyat, eng qadimgi ajdodlarimiz tabiiy g'ordan chiqib, ma'lum mintaqalarda o'zlari uchun kulba yasash yo'lini kashf etdilar. Ibtidoiy ajdodlarimiz hayotidagi bu inqilobiy o'zgarishlar ona urug'i — matriarxatning dastlabki ming yilliklari davomida, ya'ni er. av. 40-30-ming yilliklarda sodir bo'ldi. Ibtidoiy to'da davrida ilk ajdodlarimiz o'rtasida biologik aloqalar cheklanmagan, tartibsiz holda yuz bergan bo'lsa, ibtidoiy urug'chilik jamoasi tarkib topishi bilan odamlar o'rtasidagi biologik aloqalar ma'lum tartibga tushdi, ya'ni biologik aloqalar endi ikki urug' jamoasi a'zolari sodir bo'ladigan bo'ldi. Bu nikoh tartibi guruhliy nikoh deb yuritildi.

Keyinroq, ona urug'i davrining so'ngi fazasida ana shu guruhli nikoh doirasida ayollar farzandlarining otalaridan o'z urug'i uchun ishlab berishni, o'z urug'i yumushlariga yordam berishni talab qila boshlaydilar. Bu talablar, albatta, iqtisodiy muammolar bilan bog'liq bo'lib, ona urug'i jamoasi zaminida matriarxat juft oilani rasmiylashishiga olib keldi. Onalar, endi, o'z farzandlariga o'z otasini tanishtira boradi. Uzoq davom etgan bu nikoh tartibi va axloq normalari ona urug'i doirasida erkaklar rolining kuchayishiga olib keldi. Iqtisodiy hayot tashvishlari endi erlar qo'liga jamlandi. Erkaklar iqtisodiy xo'jalik jilovni o'z qo'llariga oladilar va ularning farzandlari oldidagi nufuzi ortib boradi. Ibtidoiy urug'chilik jamoasining ikkinchi fazasida urug' jamoalari xo'jaligida qo'shimcha daromad paydo bo'ladi, u esa navbatdagi, mol ayirboshlashni keltirib chiqaradi. O'sha davrdan boshlab urug'larning qabilalalarga birlashishi boshlanadi. Qabilalararo iqtisodiy aloqalar vujudga keladi va ularning oqibat natijasi sifatida kishilik tarixida harbiy demokratiya davri boshlandi. Bu inqilobiy o'zgarishlar otalar urug'i (patriarxat)ga xos bo'lib, ular ibtidoiy urug'chilik jamoasi zaminida dehqonchilik va chorvachilikning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Bu davrning so'nggi bosqichida etnik birlik — qabila tarkib topdi.

Temir qurollar keng tarqalishi tufayli dehqonchilikda, kosibchilikda, chorvachilikda mehnat unumdorligi osha borib, ana shu negizni tubdan o'zgartirdi va o'sha vaziyatda ancha progressiv bo'lgan individual ishlab chiqarishga – xususiy o'zlashtirish manbaiga o'tish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Ilgari faqat katta jamoaning qo'lidan keladigan ishni endilikda ayrim oilaning bajara olishi mumkin bo'lib qoldi. Jamoa mehnatga xojat qolmadi.

Xususiy xo'jalik va xususiy mulkning vujudga kelishi taraqqiyparvar tarixiy rivojlanish jarayonidan iborat bo'lib, u shaxsiy tashabbusni kuchaytirishga, mehnatning tobora taqsimlanishiga va unumdorligining osha borishiga imkon bergan. Mehnatning kuchaya borgan individuallasuvi sharoitida iqtisodiy jihatdan mustahkamlar oilalar alohida holda yashab, urug'doshlaridan ajralib chiqar edilar. O'sha zamonga kelib patriarxat uy jamoalari kuchli ravishda o'sib kengayib ketgan.

Sharqda sug'oriladigan yerlardagi dehqonchlik bilan bog'liq bo'lgan qishloq jamoalari juda barqaror bo'lib, uzoq yashaganlar, chunki irrigatsiya tarmog'i qurilishi va uni tartibli saqlash ishlari doimo birgalikda zo'r berishni talab qilgan. Qo'shni jamoa universal bosqich bo'lib, dunyoda sinfiy jamiyatlar yaratgan barcha xalqlar shu bosqichni bosib o'tishgan. Qo'shni jamoa birinchi ibtidoiy jamoa oxirgi davrining boshlanishini ko'rsatadi.

Odamning tabiat bilan juda og'ir kurashida mehnat qurollari murakkablasha va takomillasha borgan; bunda so'yiltayoqlar va qo'pol tarashlangan tosh parchalaridan kamon va o'qlar, silliqlangan tosh boltalar va suyak buyumlar, metallardan foydalanish, juda oddiy dastgohlar ixtiro qilish sari rivojlanish yo'li bosib o'tilgan.

Ibtidoiy munosabat va tasavvurlar. Inson faoliyatining barcha sohalaridagi tajribalar saqlanmay turib progressiv tarixiy taraqqiyot mumkin bo'lmagan bo'lur edi. Urug'ning, qabilaning zo'r berishlari tufayli orttirilgan bilimlarni keksa avlod ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan ta'lim vositasi bilan yosh avlodga berib kelgan. Ilk yoshidagi bolalar kattalarning ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etilgan. Lekin jamoaga moslashuv (initsiatsiya) vaqtida yigit va qizlarga chinakam ta'lim berilgan.

Din – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, u odamlarning g'ayri tabiiy kuchlar mavjudligiga ishonishlari bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarini, ularning ish harakatlari va qarashlar tizimini aks ettiradi. Demak, inson ongi o'sib, endi unda o'z kundalik hayotida uchraydigan tabiat hodisalarining sabablarini izohlashga urinishlar paydo bo'lgan vaqtdagina dinning vujudga kelishi mumkin bo'lgan. Abstrakt tafakkur paydo bo'lishi natijasidagina ana shu darajaga erishish imkoniyati tug'ilgan.

Eneolit davrining o'ziga xos xususiyatlari. Eneolitning ilk bosqichida aholi bir-biriga zich qilib qurilgan bir xonali uylardan iborat qishloqlarda istiqomat qilganlar. Uylar tor, kvadrat shaklida xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, xona devorlari somonli loy bilan suvalgan. O'rta bosqichida esa qishloqlarning markaziy qismi mudofaa devori bilan o'ralib, ko'p xonali uylar ham uchraydi. Ularning orasida doira shaklidagi xonalar ham bo'lib, tadqiqotchilar fikricha bu ibodatxona bo'lib, ular bu yerda olovga sig'inishgan. Eneolitning so'nggi bosqichida qishloqlar hududi kengayadi va ko'p xonali uylarning soni oshadi.

Ularda dahlizlar va hovlilar vujudga keladi. Hovlilarni birlashtiruvchi tor ko'chalar rasmiylashgan va ularning hammasi qishloqning markazidagi maydonga chiqqan. Har bir uyda xo'jalik kompleksi—omborxonalari bo'lgan.

Bronza davriga kelib qishloqlar yiriklashib, shaharlar qiyofasiga o'ta boshlagan. Shu jihatini inobatga olib, arxeologlar uni shaharlargacha (protogorod) bo'lgan davr madaniyati belgilari deb hisoblaydilar.

Eneolit davri yodgorliklari. Neolitdan keyingi davr eneolit deb ataladi. Lotincha “asneus”-mis va yunoncha “litos”-tosh so'zlaridan olingan bo'lib, mis—tosh davri ma'noni anglatadi. Eneolit miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. U ko'p hududlarda neolit davri jamoalari bilan bir vaqtda hukmron bo'lgan. B.A.Kuftin va V.M. Massonning janubiy Turkmanistonda olib borgan arxeologik tadqiqotlari asosida eneolit davrining rivojlanish bosqichlarini aniqladilar va eneolit davri rivojlanishi ilk, o'rta, so'nggi bosqichlarga bo'ldilar. Ular tadqiqodi natijasiga ko'ra, Namozgoh-1—ilk eneolit davriga, Namozgoh-2— o'rta eneolit davriga, Namozgoh-3—so'nggi eneolit davriga xosdir. Eneolit davrida sug'orma dehqonchilik va xonaki chorvachilik ibtidoiy xo'jalikning asosini tashkil etgan

Eneolit davri iqlim sharoiti hozirgi davrdan ancha farq qilgan. Yog'ingarchilik ko'p bo'lgan. Tog' oldi soylari, daryolar sersuv bo'lib, ular cho'l zonalarining ichkarisigacha kirib borganlar. Eneolit jamoalari shu suv etaklarida o'zlariga manzilgohlar qurib, yangi yyerlarni o'zlashtirganlar.

Eneolit davrida mehnat qurollari Asosan toshdan, hayvon suyaklaridan va qisman misdan yasalgan. Mis mehnat qurollari mavjud bo'lganligi eng qadimgi mehnat qurollarini ximiyaviy analiz qilish asosida isbotlandi. Dastlabki mis qurollar sof misdan yasalgan. Odamlar dastlab misni toshning bir turi deb, sovuq holda ishlov berganlar. Miloddan avvalgi IV ming yilliklardagina uning olovda erish xususiyati kashf etilgan. Mis qurollari yumshoq va egiluvchan bo'lganligi sababli tosh qurollarni siqib chiqara olmagan.

Tayanch tushunchalar: qishloq ho'jaligi sohasining rivojlanishi, qabilalar ittifoqi, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchiliklar, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, sinfiy jamiyat, antropogenez. Qadimgi dunyo, tarixiy davrlanish, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlar, sinfiy jamiyatning notekis rivojlanishi, etnik va xo'jalik aloqalari, ibtidoiy munosabat va tasavvurlar, arxeologik davrlashtirish, eneolit davri, arxeologik yodgorliklar, mis qurollar, kashfiyotlar.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Mehnat taqsimoti deganda nimani tushunasiz?
2. Birinchi mehnat taqsimoti qanday holatda sodir bo'ldi?
3. Ikkinchi mehnat taqsimoti bu....?
4. Sizing fikringizcha, qabila ittifoqi va uyushmasi o'rtasidagi farqlar nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Etnik jarayon tushunchasi nimani anglatadi va nimani o'rganadi?
6. Ibtidoiy tasavvur va munosabat nimani anglatadi?
7. Sinfiy jamiyatning paydo bo'lishi nimalarga olib keldi?
8. Xo'jalik munosabatlari – bu...?
9. Ibtidoiy dinning qanday shakllarini bilasiz?
10. Eneolit davri yodgorliklarining tarixiy ahamiyati nimalarda ko'rinadi?

Glossariy

Diniy tasavvur – O'rta paleolit davrida (er. avv 100 – 40 ming yilliklar) vujudga kelgan.

Mis – dastlabki metal hisoblanib, u dastlab Old Osiyo hududida topilgan.

Animizim – ibtidoiy dinlardan biri bo'lib, jon va ruxni o'lmasligiga ishonchni anglatadi. Bu tushunchani fanga E.B. Taylor kiritgan.

3-§. Qadimgi Sharq tarixi

Qadimgi sharq sivilizatsiyasi. Insoniyat tarixida ibtidoiy jamoadan sivilizatsiyaga o'tish shaharlarning paydo bo'lishi, ularning hokimiyat va diniy markaz sifatida shakllanishi ibodatxona, saroylar qurilishi, yozuvni paydo bo'lishi bilan va shuningdek jamiyatda turli sinflar va davlatchilikni paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Tabiiyki, sivilizatsiyalar tarixi Qadimgi Sharqda er.av. IV ming yilliklardan jamiyatning taraqqiyoti natijasida turli ijtimoiy qatlamlarni paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi turli geografik hududlarda, turli davrlarda tugallandi. Jumladan Old Osiyoda Qadimgi Sharq tarixi Makedoniyalik Iskandarning yurishlari (er. av. IV asr.) bilan tugallandi, Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari uchun eramizning II ming yilligining ikkinchi yarmigacha davom etdi. "Qadimgi Sharq" geografik tushunchasi shimoliy-g'arbiy Afrikadan Tinch okeanigacha va buyuk cho'ldan Hind okeani va Saxaragacha bo'lgan ulkan hududni qamrab oladi. Asosan bu hudud subtropik iqlimli, yozi juda issiq va quruq, yumshoqligi bilan ko'zga tashlanadi. Qadimgi Sharq xalqlarining sivilizatsiyalari Asosan buyuk daryolar Nil, Dajla va Frot, Hind, Gang, Xuanxe, Yantszi, Amudaryo kabi daryo havzalarining unumdor vodiylarida sun'iy sug'orishga asoslangan xo'jalik hayotini samarali rivojlanishi bilan ajralib turadi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi jahon xalqlari taraqqiyotining keyingi rivojlanishiga smarali ta'sir ko'rsatadi va uning poydevori hisoblanadi.

Qadimgi qabilalarning kelib joylashishlari, yuksalish va dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi. Qadimgi Sharqning ko'p sonli etnik guruhlarining muntazam ravishda harbiy-siyosiy, savdo va madaniy aloqalari tufayli turli etnik guruhlarini aralashib ketishiga va yana murakkab etnik birliklarni paydo bo'lishiga olib keldi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasini yaratishda turli xalqlar, etnik guruhlar turli davrlarda faol ishtirok etdilar.

Eng qadimgi zamonlarda Kichik Osiyo yassi tog'ligida yashagan qabilalarni protexetlar deb atash rasm bo'lgan. Protexetlar va ularga til jihatidan yaqin turgan palaylar Old Osiyoning boshqa eng qadimgi qabilalariga qarindosh bo'lgan bo'lishi

ham mumkin; bu qabilalarni hozirgi zamon tadqiqotchilari «azianik» qabilalari deb ataydilar. Kichik Osiyodan topilgan qadimgi yozuvlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, yagona xett xalqi maydonga kelishidan oldin kichik-kichik dialekt (sheva)lar hamda qabilaviy tillarda so'zlashgan qabilalardan iborat bo'lgan. Eramizdan avvalgi II ming yillikda, Xett davlatining paydo bo'lish arafasida Kichik Osiyoda yashagan eng qadimgi aholi orasida eng keng tarqalgan til protexett tili bo'lgan.

Qadimgi Sharqdagi turli xil tillarni qadim zamonlarda Shimoli-Sharqiy Afrikada va Osiyoning ko'p yerlarida yashagan ko'pdan-ko'p qabila va xalqlar tillarini va yozuvlarini o'rganish asosida ko'proq ana shu asosda Qadimgi Sharq tarixi o'rganiladi.

Qadimgi Sharq xalqlarining ijtimoiy tuzumi ibtidoiy jamoa tuzumiga qaraganda ancha taraqqiy qilgan tuzum bo'lgan. Qadimgi Sharq jamiyatida birinchi marta despotik (mustabid) davlat vujudga kelgan, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida esa bunday davlat bo'lmagan.

Qadimgi Sharqdagi katta-katta quldorlik xo'jaliklarida qullar mehnatidan foydalanishning dastlabki uyushgan shakllari paydo bo'lishi bilan bir qatorda, bu xo'jaliklarda uy qulchiligi shakllari uzoq vaqt saqlanib qolgan. Murakkab va keng quloch otgan amaldorlik apparatidan iborat markaziy hokimiyat organlari mavjud bo'lishiga qaramasdan, Sharqda jamoa turmushining qadimgi shakllari ham ko'p vaqtgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yerning anchagina qismi amalda jamoalarga qaragan, bu yerlarga ko'pincha erkin jamoatchilar ishlov bergan.

Qadimgi Sharq xalqlarining xo'jaligi, ijtimoiy tizimi va madaniyati sekin rivojlanib borishi va nisbatan turg'un holatda qolib ketishi, qabila yoki jamoat mulkchiligining mavjudligi bilan bog'liq. Shu bilan birgalikda dinning Qadimgi Sharq dunyosidagi kishilar ongi dunyosi ustidan hukmronligi, barqarorligida o'z ifodasini topgan.

Qadimgi Sharq mamlakatlarining iqtisodiyoti bilan Yunoniston va Rimning antik xalqlari xo'jaligining rivojlanishi o'rtasida muhim farqlar bo'lgan. Tanga shaklidagi pullar va savdoning jadal taraqqiyoti bilan bog'liq shahar tuzumning

Qadimgi Sharq davlatlarning antik davr oxirlarida paydo bo'lgan. Madaniyati ham ancha sodda bo'lgan.

Qadimgi Sharq mutloq hokimligi faqat tashqi jamoadagina qudratli va mustahkam davlatlar bo'lib ko'ringan. Aslida esa ular ichki tomondan ancha zaif davlatlar bo'lgan. Misr, Ossuriya va Eron podsholari biror istilochi vafotidan keyin o'z tarkibiy qismlariga bo'linib, tarqalib ketgan davrlarini birlashtirib, yana tiklash uchun doimo qurol ishlatishga majbur bo'lganlar.

Qadimgi Sharq davlatlari ichki tomondan zaif bo'lib, ko'pincha tashqaridan qilingan zarbaga bardosh bermay qulab tushardi. Kayxusrav yoki Aleksandr tuzgan buyuk davlatlarni ham inqiroziga asosiy sabab tasodifan bir-biri bilan yaqin bog'langan qurama guruhlardan tashkil topganligi edi. Ular ham o'z iqtisodiy bazasiga ega bo'lmagan muvaqqat va tagi bo'sh harbiy ma'muriy birlashmalardan iborat bo'lganligidan edi.

Kichik Osiyo va Shimoliy Suriya hududlaridagi qadimgi qabilalar bilan bir qatorda er.av. II ming yillikda nesiylar deb atalgan qabilalar ham tarix sahnasida paydo bo'la boshlagan (Nesiy degan nom, Galis daryosining janubida joylashgan Nesiy yoki Nesha degan mamlakat va shaharning nomidan olingan). Nesiylar protoxett qabilalaridan til jihatdan farq qilganlar. Keyingi tekshirishlarning, jumladan B.Grozniy tadqiqotlarida ko'rsatishicha, nesiylar tili hind-Yevropa guruhidagi xalqlar tillariga juda yaqin bo'lgan. So'nggi xett (nesiy) tilidagi bir qator so'zlarni yunon, lotin, qadimgi hind va qadimgi slavyan tillaridagi ayni ma'noli so'zlar bilan solishtirsa bo'ladi.

Tayanch tushunchalar: Qadimgi Sharq, uning tabiiy sharoitlari, geografiyasi, tarixiy-etnografik ma'lumotlar, qadimgi qabilalarning kelib joylashishlari, dastlabki davlatlarni paydo bo'lishi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Sharqning tabiiy sharoitida o'ziga xos muhim narsalar nimalarda namoyon bo'ladi?

2. Qadimgi Sharq hududlariga qanday va qaysi qadimgi qabilalar ko'chishi sodir bo'ldi?

3. Qadimgi Sharq – bu...?

4. Qadimgi Sharqning geografik joylashuvi xususida nimalarni bilasiz?

5. Qadimgi qabilalar bu...?

6. Etnik jarayon deganda nimani tushunasiz va bu holat Qadimga Sharq hududida yashab kelgan xalq turmush tarziga qay darajada ta'sir ko'rsatdi?

Glossariy

Despotik davlat - Qadimgi Sharq jamiyatida vujudga kelgan davlatlar despotik ya'ni mustabid xarakterga ega bo'lgan.

Qadimgi Sharq - eng qadimgi davlatlar aynan shu mintaqada shakllanib rivojlagan.

Nesiy - Kichik Osiyo xudularida er. av. 2 ming yilikda yashagan qadimiy xalqlardan birini nomi

4-§. Er. av. 3-ming yillikda Mesopotamiya. Qadimgi Ossuriya. Bobil davlati

Shimolda Armaniston tog'laridan janubda Fors qo'ltig'igacha, sharqda Eronning tog'li viloyatlaridan g'arbda Suriya-Mesopotamiya cho'llarigacha qadimgi yunon geograflari tomonidan Mesopotamiya deb nomlangan bepoyon hudud joylashgan bo'lib, u tarjimada "Daryolar oralig'i"ni bildirsa, lekin ko'proq "Ikki daryo oralig'i" (ikki daryo – Dajla va Frot) nomi qo'llanilgan. Hozir bu Iroq Respublikasi hududi hisoblanadi. Mesopotamiya yerlari o'zining o'ta hosildorligi bilan ajralib turgan, lekin Daryolar oralig'i vodiysida dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun yil bo'yi amalga oshirilgan butun boshli sug'orish ishlari kompleksi zarur bo'lgan.

Mesopotamiya aholisi qadimgi davrlardan boshlab kanallar qazib, ularning holatini doimiy ravishda kuzatib turganlar, dambalar, to'g'onlar, shlyuzlar, quduqlar va shu kabilar qurganlar. Mesopotamiyaga aholi o'rtnashishi qadimgi davrlardan boshlangan. Shumerlarning Dajla va Frot vodiysida paydo bo'lganlarining aniq vaqtini aniqlash qiyin. Asta-sekin shumerlar Mesopotamiyaning katta qismini egallaganlar. Mesopotamiyaning shimolida er.av. III ming yillik boshida g'arbiy som chorvador qabilalari yashaganlar. Ularning tillari akkad deb nomlangan va bir necha lahjadan iborat bo'lgan: Janubiy Mesopotamiyada bobil lahjasi, shimolda Dajla vodiysining o'rta qismida esa ossuriy lahjasi tarqagan edi. Er.av. III ming yillik oxirida Mesopotamiya hududiga yangi istilochilar – g'arbiy som bo'lagining qabila guruhi – amoreylar kirib kela boshladilar. Er.av. II ming yillikning ikkinchi yarmida Shimoliy Arabistondan Suriya cho'lga va undan nari Shimoliy Mesopotamiyaga oromiylarning g'arbiy som qabilalarining katta guruhi surilib bordi. Er.av. I ming yillikning boshiga kelib ular Suriya va Shimoliy Mesopotamiyaning xurrit va amorey aholisi bilan aralashib ketdilar. Oromiy tili bu hududda keng va mustahkam tarqadi. Er.av. IX asrdan boshlab Janubiy Mesopotamiyaga oromiylarga qarindosh xaldey qabilalari bostirib kirib, o'troqlasha boshladi.

Mesopotamiya hududida er.av. III ming yillik boshida mamlakatning janubiy qismi, tarixiy Shumer viloyatida, dastlabki kichik davlatlari yuzaga kela boshladi. Er.av. XXVIII – XXIV asrlarni qamrab oluvchi davr **erta sulolaviy** deb nom olgan.

Keyingi davr (er.av. III ming yillikning oxirgi uchdan biri) ko'lamli mustabid deb atalgan monarxiyalarning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Er.av. XXIV –XXV asrlarda siyosiy markaz Mesopotamiyaning markaziy qismiga ko'chib, u yerda o'z hokimiyati ostiga shuningdek Shumer va Mesopotamiyaning shimoliy viloyatlarini birlashtirgan Akkad davlati paydo bo'ladi.

Er.av. II ming yillikning boshida Dajla va Frot daryolari oralig'ida bir nechta davlat mavjud bo'lib, ularning orasida o'z qo'l ostiga katta mamlakatni to'plagan Bobil shohligi yuqori turar edi. Uning tarixi bir necha davrlarga bo'linadi: eski Bobil yoki amorey (er.av. XIX – XVI asrlar), o'rta Bobil yoki kassit (XVI-XII asrlar), Bobilning siyosiy jihatdan kuchsizlanishi davri va mustaqillik uchun kurash davri (er.av. XII-VII asrlar) va, nihoyat, mamlakatni forslar (er.av. 539 yil) zabt etishi bilan tugagan qisqa muddatli ko'tarilish va qayta tug'ilish yangi Bobil davri (er.av.VII-VI asrlari). Er. av. XVI asrdan XVIII asrgacha Shimoliy Mesopotamiyaning g'arbiy qismidagi Mitanni davlati muhim rol o'ynagan. Uning sharqiy qismida er.av. III ming yillikdayoq markazi Ashshur shahrida joylashgan Ossuriylar davlati paydo bo'ldi. Bu davlatning tarixi keyincha quyidagi davrlarga taqsimlandi: eski Ossuriy (er.av.XX-XVI asrlar), o'rta asrlar (er.av.XV-XI asrlar) va yangi Ossuriy (er.av.X-VII asrlar) davrlari. Er.av. 3 ming yillikning birinchi yarmidayoq Eredu, Ur, Larsa, Uruk, Lagash, Umma, Shuruppak, Issin, Nippur, Kish kabi shahar-davlatlar mavjud bo'lgan Shumyerlar janubi Mesopotamiyaning tarixida etakchi rol o'ynagan. U yoki bu markazning siyosiy jihatdan yuqori turishidan kelib chiqqan holda er.av. 3 ming yillikning birinchi yarmidagi Shumer davlatining tarixini Erta sulolaviy davrni tashkil etuvchi uchta tadrijiy bosqichga bo'lish qabul qilingan. **Birinchi bosqich (er.av. XXVIII – XXVII asrlar)** Kish shahrining ko'tarilishi bilan xarakterlanadi. Erta sulolaviy davrning birinchi bosqichi oxirida Uruk ko'tarila boshlaydi. Erta sulolaviy davrning **ikkinchi bosqichi (er.av.XVII-XXVI asrlar)** Kishning kuchsizlanishi bilan boshlanadi. Shumerlar, keyinchalik esa akkadlar eposining sevimli qahramoni hisoblangan Gilgamish boshqarishni boshlagan Uruk bundan foydalanib qoladi.

Er.av. XXV-XXIV asrlarni o'z ichiga olgan Erta sulolaviy davrning uchinchi bosqichida 1 sulola hukm surgan Ur ko'tariladi. Marhum hukmdorlar va ularning

oila a'zolariga narigi dunyoga hamrohlik qilish uchun qo'yilgan boy dafn ashyolari topilgan shohona maqbaralar Ur I sulolasi qudratining dalili hisoblanadi. Uning hukmdorlari ustunlikni er.av. XXVI asrdan boshlab Ur-Nanshe asos solgan sulola hukmdorlik qilgan Lagashga berishga majbur bo'lganlar. Keyinroq Lagashda o'ta qaltis vaziyat yuzaga kelib, davlat to'ntarishi bo'ladi va natijada "ensi" Lugalanda ag'darilib, hokimiyatga uning qarindoshi Uruinimgina keladi. Uruinimgina o'zining 6 yillik boshqaruv davrida (er.av. 2318-2312 yillar) o'zini hukmdorlikka keltirgan ijtimoiy qatlamlarni qanoatlantirgan islohotlar o'tkazdi. Ammo bir vaqtning o'zida Umma ham kuchayib borayotgan edi. U Lugalzagesi hukmdorlik qilgan vaqtda deyarli butun Shumerga hukm o'tkazdi. Natijada Lugalgesi umri chorak asrga etgan Shumer shahar-davlatlarining, ehtimol, Uruk shahri poytaxti bo'lgan, birlashmasini yaratishga erishdi. Ammo u po'k siyosiy tuzilma sifatida tez orada o'zidan kuchliroq va markazlashgan davlat – Akkada tazyiqi ostida yakson bo'ladi. Akkada podsholigining asoschisi Sargon (Sharrum-ken) bo'lib, uning ismi "shoh rostdir???" deb tarjima qilinadi. Butun Mesopotamiyani bir hukmdor qo'l ostiga birlashtirish va Old Osiyoda poytaxti Akkada bo'lgan o'sha davrlar uchun eng katta davlatni tuzish Sargonning 55 yillik (er.av. 2316-2261 yillar) hukmdorligi natijasi bo'ldi. Yagona markazlashgan davlatni tashkil etish iqtisodga va eng avvalo xo'jalikning asosiy sohasi – dehqonchilikka jiddiy asoratlari bor edi. Butun Janubiy va O'rta Mesopotamiya miqyosidagi yirik sug'orish tarmog'ini bunyod etish, yo'llar va bandargohlar qurish, umumdavlat o'lchov va taroz tizimini kiritish davlatda tovar-pul munosabatlarining, dengiz, daryo va quruqlikdagi savdoning (Fors qo'ltig'i orollari sohillari, Hindiston, g'arbiy cho'l ko'chmanchilari va tog'li aholisi bilan) rivojlanishiga olib keldi. Shumer-akkad podsholigi Uning 3 sulolasi (er.av.2106-2003 yillar) davrida quldorchilikni yuzaga keltiradi. O'shanda davlat boshida cheksiz hokimiyatga ega, "Ur shohi, Shumer va Akkad shohi" unvoniga ega, ba'zan esa "dunyoning to'rt o'lkasi shohi" deb tilga olingan shoh turgan.

Bobil podsholigi. Uning III sulolasining qulashi markazlashgan davlatning vaqtincha tanazzulga yuz tutishiga va mamlakatning siyosiy jihatdan parchalanishiga olib keldi. Er.av. XX-XIX asrlarda davlatlar o'zaro mashaqqatli urushlar olib

borganlar. Bunday kurashlar davomida asta-sekin Bobil (Bobil - “Iloh eshigi”) shahri mustaqillikka erishib, ko’tariladi. U yerda I Bobil yoki Amorey sulolasi taxtga keladi va bu hukmdorlik yillarini eski Bobil davri (er.av. 1894-1595 yillar) deb ataladi. Bobilning yuksalishi I Bobil sulolasining oltinchi shohi – Xammurapi (er.av.1792-1750 yy.) hukmdorlik qilgan yillarga to’g’ri keladi.

Xammurapining 35 yillik podsholigi Mesopotamiyaning butun hududiga yoyilgan ulkan Bobil davlatini bunyod etishga ketdi. Bu yillarda Bobil kichik bir shahardan nafaqat katta davlat poytaxti, balki Old Osiyoning eng yirik iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaziga aylandi. Bosib olingan bir qancha viloyatlar va bir vaqtlar mustaqil bo’lgan davlatlardan tashkil topgan Bobil davlati, dastlabki muvaffaqiyatlariga qaramay, mustahkam emas edi. Ayniqsa jamiyat a'zolari, askarlar, soliq to’lovchilar va davlat himoyachilarining qashshoqlashuvining kuchayishi bilan bog’liq ichki nizolarning kuchayishi va tashqi siyosiy qiyinchiliklar Xammurapining o’g’li – Samsuilun (er.av. 1749-1712 yy.) hukmdorligi paytidayoq o’zini namoyon etdi.

Bobil uchun tashqi siyosiy vaziyat ham borgan sari noqulay bo’lib borayotgan edi. Uning hududiga jangari kassit qabilalarining kirib kelishi kuchayib bormoqda edi. Mesopotamiyaning shimoliy-g’arbida Bobilni Kichik Osiyo va Sharqiy O’rta Yer dengizi sohiliga olib boruvchi asosiy savdo yo’llaridan uzib qo’yayotgan xurritlar joylasha boshlagan edilar.

Nihoyat, er.av. 1595 yilda xetlarning Bobilni zabt etish va talon-taroj qilish, uning xudo-homiysi Mardukning qimmatbaho haykalini olib ketish bilan tugagan Bobilga bosib kirishi I-Bobil sulolasining boshqaruviga chek qo’yadi va uch yuz yillik eski Bobil davrini tugatadi.

Bobil dalatining Xammurapi hukmdorligi vaqtidagi iqtisodi, ijtimoiy va siyosiy tuzumi ushbu shohning bizgacha saqlanib qolgan qonunlar majmuasi, uning noiblari va amaldorlar bilan olib borgan yozishmalari tufayli ma'lumdir. Qonunlarning barcha moddalarida mulkdorlarning xususiy mulki quldorlarning manfaati himoya qilingan. Bobil jamiyatida ozod shaxslardan tashqari mushkenum deb ataluvchi toifa ham bo’lgan. “Mushkenum” termini “yerga bukiluvchi” deb

tarjima qilinadi. Mushkenumlar shoh xo'jaligida ishlaganlar. Jamiyat bilan aloqasi uzilgan bunday shaxslar yerga va mulkka ega emas edilar. Bularni shohga xizmat uchun shartli ravishda olar edilar, undan tashqari cheklangan fuqarolik huquqlariga ega edilar. Bobil jamiyatining quyi tabaqasini qullar ("vardum") tashkil etgan. Urushlar, qarz domiga tortuvchi mulkiy tabaqalanish, otaning patriarxal hokimiyati ostida bo'lgan oila a'zolarining tengsiz mavqei, bu esa ularni garovga berib yoki sotib yuborish huquqini ham bergan, o'zini qullikka sotish, ba'zi jinoyatlar uchun qulga aylantirish, qullarning tabiiy o'sishi kabilar qullarning kelib chiqish manbai bo'lib xizmat qilgan.

Bobil davlati qadimgi sharqiy zolimlikning ma'lum belgilari paydo bo'ldi. Davlat tepasida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud va diniy hokimiyatga ega shoh turar edi. Markazlashgan Bobil davlatining yaratilishi va Bobilning yuksalishi keyinchalik diniy hayotda ham o'z aksini topdi: panteon (xudolar nomlarining umumiy nomi) boshiga mahalliy xudo, Bobil shahri homiysi Marduk qo'yildi.

Kassitlar – Eronning shimoliy-markaziy tog'li qabilalarining guruhlaridan biri – Mesopotamiya chegaralarida Xammurapi vafotidan keyin paydo bo'ldilar. Taxminan er.av. 1742 yilda kassitlar sardori Gandash Bobilga bostirib kirib, mamlakatni to'liq bosib olmay turib, o'ziga viqorli "dunyoning to'rt o'lkasi shohi, Shumer va Akkad shohi, Bobil shohi" unvonini o'zlashtirib oldi.

Faqatgina xettlarning tor-mor qilishi kassit shohlarining Bobil taxtiga batamom o'tirishiga yordamlashdi.

Er.av. XVI asrning boshidan kassitlar sulolasining hukmdorligi va o'rta Bobil davri boshlanib, u taxminan er.av. 1155 yilda tugaydi. Kassitlar Bobilning yuqori madaniyatini qabul qildilar, kassit xudolarini Bobil xudolari bilan tenglashtirdilar, Mesopotamiya dinining an'anaviy sanamlariga homiylik qildilar.

Kassitlar Bobiliga halokatli zarbani elamliklar berdilar. Er.av. XII asrning ikkinchi choragida Mesopotamiyaga bir nechta halokatli hujumlar qildilar va Bobilni butunlay bosib oldilar.

Taxminan er.av. 1150 yilda ular tomonidan Gandashlar uyining oxirgi shohi ag'darilib, shu bilan kassitlar sulolasi o'z umrini tugatdi. Mamlakat asta-sekin kuch

to'play boshlab, Navuxodonosor 1 davrida (er.av. 1125-1104 yy.), qisqa bo'lsa ham, yuksalishga yuz tutdi.

Der qal'asi yaqinida elamliklar ustidan g'alaba qozongan bobilliklar Elamga bostirib kirib, ularga shunday zarba berdilarki, u bundan keyin uch asr davomida (er.av.821 yilgacha) manbalarda esga olinmadi.

Er.av. VIII asrning o'rtasida qudratli Ossuriylar davlati Bobil uchun katta xavf tug'dira boshladi. Er.av. 744 yilda shoh Tiglatpalasar III Bobilga bostirib kirdi va Sippardan Fors qo'ltig'i botqoqlarigacha bo'lgan hududda xaldey qabilalarini engib, "Shumer va Akkad shohi" unvonini qabul qildi. Bobilga Ossuriy hukmdorligini tan olishga to'g'ri keldi. Er.av. 729 yilda Tiglatpalasar 3 Bobilni egallab olgach, Bobil o'z mustaqilligidan butun bir yuz yilga mahrum bo'ldi. Bobilda mustaqillikka erishish harakati susaymas edi. Er.av. 626 yilda ossuriylar hukmronligiga qarshi xaldeylar sardori Nabopalasar boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tarildi. Er.av. 626 yilning oktyabrida Bobil Nabopalasar tomoniga o'tdi va er.av. 626 yilning 25 noyabrida u tantanali ravishda shoh deb e'lon qilindi va xaldeylar (yoki yangi Bobil) sulolasiga asos soldi. Midiyaliklar va bobilliklar o'zaro ittifoq tuzib, uni Nabopalararning o'g'li Navuxodonosor va midiyaliklar shohi Kiaksar qizining sulolaviy nikohi bilan mustahkamlaydilar. Midiyaliklar va bobilliklar Nineviyani ishg'ol qiladilar va uch oydan so'ng, er.av. 612 yilning avgustida shahar taslim bo'lib, g'orat qilinadi. Er.av. 605 yilda Nabopalararning o'limidan so'ng Navuxodonosor Bobil shohi deb e'lon qilinadi.

Navuxodonosor II ning shohligi Bobilning iqtisodiy yuksalishi va madaniy tiklanish davri bo'ldi. Bobil o'zining taxminan 200 000lik aholisi bilan Qadimgi Sharqning eng katta shahriga aylandi. Navuxodonosor II paytida Bobil zabt etib bo'lmas harbiy qal'aga aylandi. Navuxodonosor II ning vafotidan so'ng er.av. 562 yilda Bobilning zodagon va koinlari siyosatga faol aralasha o'zlariga to'g'ri kelmagan shohlarni yo'qota boshladilar.

Uzoq davom etgan o'zaro kurashlardan so'ng taxt Nabonidga nasib etdi (er.av. 556-539 yy.). Nabonid atrofiga Old Osiyoning ko'psonli oromiylar qabilalarini to'plab, kuchli davlat tuzishga harakat qiladi. Uning Marduk o'rniga Sinni oliy davlat

xudosi deb e'lon qilishi Bobil koinlari bilan ixtilofga olib keladi. Bobilning sharqiy chegaralarida qudratli dushman – Midiya, Lidiya va Hindiston chegarasigacha bo'lgan boshqa barcha mamlakatlarni bosib olgan forslar paydo bo'ladi.

Nabonidning diniy siyosatidan norozi koinlar mamlakat ichkarisida turib, uning har qanday dushmanini qo'llab-quvvatlashga tayyor edilar.

Er.av. 539 yilning 12 oktyabrida fors qo'shinlari Bobilga kiradi va 17 kundan so'ng u yerga Eron shohi Kir II tantanali ravishda kirib keladi. Bobilni egallagan Kir 2 o'zining bu Yer hukmronligiga shaxsiy ittifoq tusini berdi, Bobil podsholigini Eron davlati tarkibida alohida siyosiy birlik sifatida rasman saqlab qoldi va malakat ijtimoiy tuzilmasida hech narsani o'zgartirmadi.

Bobilda ko'p marta, masalan er.av. 522-521 yillar, 484 va 482 yillarda forslarning hukmronligiga qarshi qo'zg'olonlar bo'lib turdi.

Bu qo'zg'olonlarning oxirgisidan keyin er.av. 482 yilda Bobil davlati yo'qotilib, oddiy satrap darajasiga tushirib qo'yiladi.

Qadimgi Ossuriya. Er.av. 2 ming yillik boshida xalqaro vaziyat Ossuriya uchun nobop holat kasb etgan edi. Amorey qabilalarining Shimoliy Mesopotamiyada joylashishi, O'rta Evfratda Mari davlatining ko'tarilishi osuriylar uchun g'arbda savdo qilishga jiddiy to'g'anoq bo'ldi. Ashshur o'z savdo tizimini tiklash uchun g'arbg, Evfratga va janubga Tigr oqimi bo'ylab dastlabki yurishlarini amalga oshiradi.

O'ta faol tashqi siyosat amorey sardori, Xammurapining katta zamondoshi Shamshi-Adad I (er.av. 1824-taxm. 1780 yy.) vaqtida olib boriladi. Er.av. XIX-XVIII asrlar bo'sag'asida Ashshur Old Osiyoning yirik davlati markaziga aylandi va Shamshi-Adad I "ko'pchilik shohi" unvonini o'zlashtirib oldi.

Er.av. XV asrning o'rtasida 1 Bobil sulolasining ag'darilishidan so'ng Ossuriya yosh davlat Mitanniga o'lja bo'ladi. Er.av. XV asrda ossuriylar o'z davlatlarining avvalgi holatini tiklashga harakat qiladilar. Er.av. XIII asrda Ossuriya davlati rivojining cho'qqisi bo'lib, tashqi siyosatda ham eng ko'p muvaffaqiyatlarga erishadi.

Er.av. XII asrda Ossuriya to'xtovsiz janglar bilan holdan toyib, kuchsizlanib qoladi. Ammo Tiglatpalasar 1 hukmronligi paytida (er.av. 1114-1076 yy.) unga yana

avvalgi qudrati qaytib keladi va bu xalqaro vaziyatga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi: Xett podsholigi qulaydi, Misr siyosiy tarqoqlik yo'liga kiradi, Bobilning janubi xaldeylar qabilalari to'ldirib yuboradi.

Ossuriylar jamiyatining yuqori tabaqasini quldorlar sinfi tashkil etib, ular katta xususiy meros yerlarga, xizmatlari uchun olgan noxususiy yer bo'laklariga ega, shohdan tortiqlar va sovg'alar, majburiyatlardan ozodlik olgan, qullarga ega yirik er egalari, savdogarlar, kohinlar, mansabdor a'yonlardan iborat edi.

O'rta assuriy qonunlari aynan "kiborlar" huquqlarini himoya qilar edi. Aholining asosiy qismi – mayda ishlab chiqaruvchilar sinfi ozod er egalari-jamoachilardan tashkil topgan edi.

Er.av. IX asr Ossuriyaning iqtisodiy va harbiy-siyosiy ko'tarilishi davri bo'lib, uni ko'pincha "ikkinchi ko'tarilishi" deb ataydilar.

Er.av. IX asrning oxiri va 8 asrning birinchi yarmida Ossuriya davlati bir qator sabablarga ko'ra yana inqiroz va tushkunlik pallasiga kiradi. Er.av. IX asrdagi ko'psonli urushlar yurishlarda ishtirok etgan mamlakatningoddiy xalq ommasini ishlab chiqarishdan uzoq vaqtga ajratib qo'yardi va bu Ossuriyaning iqtisodining pasayib ketishiga va mayda hunarmandlarning kasodga uchrashiga olib kelardi. Xalq ommasining nochor holiga tabiiy falokatlar: hosil bo'lmasligi, epidemiyalar qo'shilib, ular mamlakatning ichki siyosiy ahvolini og'irlashtirib, quyi sinflarning qo'zg'olonini keltirib chiqardilar.

Ossuriyaning tanazzuliga er.av. VIII asrda yuzaga kelgan xalqaro vaziyat ham sababchi bo'ldi. Old Osiyoning podsholiklari ichida birinchi o'ringa Urartu ko'tarildi. Er.av. 746-745-yillarda taxtga harbiy partiya yordami bilan yangi shoh Tiglatpalasar III keladi va u davlatning mustahkamlashishiga olib kelgan bir qator muhim islohotlar o'tkazadi.

Islohotlardan biri ma'muriy bo'lib, u mayda yerlarni yiriklashtirib, ularning viloyat boshliqlari deb nomlangan hokimlarini markaziy hokimiyat tomonidan nazorat qilinishiga va ularning vazifalarini cheklashga qaratildi.

Tiglatpalasar III ning boshqa islohoti harbiy soha va armiyada o'tkazdi. Yirik va ajoyib tashkil etilgan armiyaga ega bo'lgan, yangi bosib olingan yerlarni talab

qilayotgan harbiy partiyaga suyanan Tiglatpalasar III (er.av. 745-727 yy.) bosqinchilik siyosatini tikladi.

Tiglatpalasar III er.av. 737-yilga kelib sharqda Midiyaning ba'zi tumanlarida o'rnashib olishga, janubda Bobilni keskin kurashda nafaqat engdi, balki er.av. 729-yilda ushbu muqaddas shaharda taxtga o'tirishga muvassar bo'ldi.

Bu barcha muvaffaqiyatlar Ossuriyani Old Osiyoning eng yirik davlatiga aylantirdi. Uning tarkibiga Mesopotamiya, O'rta er dengizi sharqiy sohilining katta qismi, Midiyaning bir qator viloyatlari kirdi. Tiglatpalasar 3 paytida birinchi marta xalqlarni osuriylar egallagan bir viloyatdan boshqa viloyatga yoki bevosita Ossuriyaga tizimli ravishda ko'chirishni amalga oshirdilar.

Tiglatpalasar III ning vorisi – Salmanasar V (er.av. 727-722 yy.) davrida saroydagi harbiy partiyaning kuchayishi davom etdi.

Kohinlar va savdogarlarning noroziligi, shuningdek Isroil podsholigi bilan urushning cho'zilib ketishi Salmanasar V ning ag'darilishi va sulolaning kichik vakillaridan biri – Sargon II ning (er.av.722-705 yy.) taxtga kelishiga yordam berdi.

Sargon II hukmdorligi vaqtida Ossuriya Isroil podsholigini yakson qildi. Uning qo'shinlari er.av. 722 yilda uch yillik qamaldan so'ng hujum bilan uning poytaxti Samariyani egallaydilar va yakson qiladilar, aholisini esa yangi yyerlarga ko'chiradilar

Sargon II boshqaruvi yillari Ossuriyaning yangi poytaxti – shohning ajoyib saroylar, bog'lar va ibodatxonalarga ega qarorgohi joylashgan Tigrdagi Dur-Sharrukin shahriga asos solinadi (hozirgi Xorsobodga yaqin).

Sargon II ning o'g'li – Sinaxxerib (er.av.705-681 yy.) meros sifatida katta, ammo unchalik tinch bo'lmagan davlatni oladi. Uning boshqaruvi butunlay Ossuriya zabt etgan davlatlarning qarshiligini bostirish bilan o'tadi.

Er.av. 681 yilda u suiqasd tufayli vafot etadi. Uning o'limidan so'ng Sinaxxeribning kichik o'g'li Asrxaddon (er.av.681-669 yy.) taxtni egallaydi. U harbiy partiya manfaatlarini savdo-sudxo'r va kohin doiralari manfaatlari bilan ustalik bilan birlashtirish orqali mamlakat ichidagi vaziyatni barqarorlashtirishga muvaffaq bo'ladi.

Asrxaddon o'z podsholigining asosiy vazifasi - Misrni bosib olish deb bilar edi. Er.av. 671 yilda Asarxaddon Misrni bosib oladi va an'anaviy Misr fir'avnlari unvonlarini qabul qiladi.

Ossuriya davlati Nilning birinchi ostonalaridan Kavkaz ortigacha, Eron yassi tog'liklaridan Kichik Osiyogacha, O'rta er dengizidan Fors qo'ltig'igacha yoyilgan edi.

Ashshurbanapal (er.av. 669-taxm. 633G`27 yy.) o'sha davrdagi Ossuriya poytaxti Nineviyada Qadimgi Sharqdagi 30 000dan ortiq loy taxtaga yozilgan eng katta kutubxonani yaratadi.

Ossuriya jamiyatini titratib turgan ijtimoiy ziddiyatlar, siyosiy birlikning yo'qligi, ulkan davlatni boshqaruv tizimini tashkil etishdagi xatoliklar, mute davlatlar va xalqlarning kun sayin kuchayib borayotgan kurashi Ossuriyani falokatga olib kelgan asosiy sabablardandir.

Er.av. 626 yilda Bobil qulaydi, 625 yilda Midiya podsholigining skiflardan mustaqilligi tiklanadi. Bobil va Midiya tomonidan Ossuriyaga qarshi boshlangan urush Ossuriyaning harbiy mag'lubiyatiga, uning yirik markazlari: Ashshur (er.av. 614 y.), Nineviya (612 y.)ning egallanishiga va yakson qilinishiga olib keldi.

Tayanch iboralar: Armaniston, Fors qo'ltig'i, Suriya-Mesopotamiya cho'llari, Mesopotamiya, Frot va Dajla, Iroq Respublikasi, Ur, Bobil Amorey, Xammurapi, Old Osiyo, Samsuilun, Shamshi-Adad, Ashshur, Tiglatpalasar 1, Xett, Misr, xaldeylar, Urartu, Tiglatpalasar 3, Midiya, Salmanasar, Sargon II, Isroil, Samariya, Sinaxxerib, Asrxaddon, Ashshurbanapal, Nineviya.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Mesopotamiyaning geografik joylashvi va axolisi haqida nimalarni bilasiz?
2. Mesopotamiya xudularida ilk davlat uyushmalari qachon vujudga keldi?
3. Mesopotamiyada vujudga kelga shaxar davlatlar va ularning siyosiy boshqaruvi xaqida ma'lumot bering?

4. Qadimgi Bobil davlati va uning markashlashgan davlatga aylanishidagi asosiy omillar nimalardan iborat bo'ldi?
5. Xamurapi davrida amalga oshirilgan islohotlar va ularning amaliy natijasi haqida ma'lumot bering.
6. Xamurappi qonunlari asosida Qadimgi Mesopotamiyadagi ijtimoiy va iqtisodiy axvolni taxlil qilishga xarakat qiling.
7. Ossuriya davlati va uning boshqaruv shakli xaqida ma'lumot bering.
8. Ossuriyaning Old Osiyo mamlakatlari bildan munosabatlarini qo'shimsa manbalardan foydalanib kengroq yoritib bering.
9. Qadimgi Mesopotamiyadagi diniy e'tiqodlar va ularning xalqning turmush tarziga tasirini ochib bering.
10. Mesopotamiya madaniyatini jahon madaniyatiga ta'sirini misollar yoradamida tahlil eting.

Glossariy

Mesopotamiya – bu ibora ilk bor qadimgi yunon manbalarida Mesopotamiya ya'ni ikki daryo oralig'i (Frot va Dajla) ma'nosida ishlatilgan.

Xamurappi – er.av. 1792-1750 yillarda Bobilni boshqargan hukumdor. Uning davrida 247 moddadan iborat ilk yozma qonunlar Mesopotamiya hudularida paydo bo'ldi.

Ilk kutubxona – Ossuriya xukumdori Ashurbanipal (er.av.669-630 y) davrida ilk kutubxonaga asos solingan. Ushbu kutubxona XIX asrda topilgan va u yerdan 30 mingta sopol kitoblar topilgan.

5-§. Qadimgi Misr. Qadimgi va O'rta shohliklar davri. Qadimgi Misr madaniyati

Qadimgi misrliklar dunyo tarixidagi eng qadimiy, paydo bo'lishi er.av. IV asr o'rtasiga borib taqaladigan sivilizatsiyani yaratdilar. Qadimiy Misr Nil daryosi vodiysida, uning birinchi ostonasidan to O'rta er dengizi sohillarigacha yoyilgan hududda joylashgan edi.

Gerodot Misrni "Nil tuhfasi" deb atagan edi. Qadimgi Misrning uch ming yillik tarixi bir nechta yirik tarixiy davrlarga bo'linib, ularning har biri qadimiy Misr sivilizatsiyasining o'ziga xos oyoqqa turish, ko'tarilish va rivojlanish paog'nasi bo'lgan.

Qadimgi podsholik davridagi Misr (er.av.XVIII-XXIII asrlar). Mahsuldor dehqonchilik Qadimgi podsholik davridagi Misr davlati iqtisodi va boyligining asosi bo'lgan. Hunarmandchilik va texnikaning asosiy uch sohasida sezilarli yutuqlarga erishilgan. Bular: mis quyish, toshga ishlov berish va kulolchilik. Ishlab chiqarishda misni qo'llash katta ahamiyatga ega bo'lib, u insonning texnik imkoniyatlarini kengaytirdi. Qadimgi podsholik davri toshdan ulug'vor inshootlar (piramidalar, ehromlar, qal'a devorlari) qurishning boshlanishi bo'lib, u toshga ishlov berishning yuksak san'atiga ehtiyoj tug'dirdi. Hukmdor tabaqaning imtiyozlarini himoya qilishga, sug'oriladigan dehqonchilikni tashkil etishga, jamoat tartibini saqlab turishga zarurat ko'psonliva yaxshi tashkil etilgan davlat boshqaruvini yaratishga olib keldi. U uchta asosiy bo'g'indan iborat edi: markaziy, viloyat va mahalliy (jamoat-yashash joylari darajasida) boshqaruvi. Markaziy boshqaruv tepasida shoh turib, u Yuqori va Quyi Misr shohi, Gor xudosining timsoli unvonlarini olgan. Fir'avn Misr davlatining alohida qudratining timsoli hisoblanib, to'liq hokimiyatga ega, ya'ni o'z qo'l ostida qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatlarini ushlab turar edi. Fir'avnning Yuqori va Quyi Misr shohi unvonidan kelib chiqqan holda davlat boshqaruvi ham ikki xil tuzilmaga ega edi: har bir idora amaliy jihatdan ikki bo'limga bo'lingan bo'lib, Yuqori yoki Quyi Misrga xizmat qilar edi.

Butun Misr ulkan manbalarining markaziy hukumat qo'l ostida to'planganligi tashqi siyosatda ham muvaffaqiyatlarga olib keldi. To'rtinchi sulolaning asoschisi Snofru (er.av. XXVIII asr) o'ta faol bosqinchilik faoliyati yuritdi. Uning boshchiligida Misr tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari ishlab chiqildi: 1. Janubga, Nubiyaga. 2 Shimoliy-sharqqa, Sinay va Falastinga. 3. G'arbga, Liviya qabilalari tomonga. Bu yo'nalishlarda u katta g'alabaga erishdi.

Ammo 4-sulolaning boshqaruvi oxirida Misrda ichki vaziyat murakkablashdi. Ulkan piramidalarni qurish va faol bosqinchilik siyosatini o'tkazishda davlatning barcha kuchlarini agressiv harakatini talab qildi, bu esa ulkan insoniy va moddiy vositalarining sovurilishiga va nihoyat mamlakatning kuchsizlanishiga olib keldi. Aholini ekspluatatsiya qilish norozilik keltirib chiqarar, ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelar edi. 5 sulola fir'avnlari (er.av. XXVI-XXV asrlar) mamlakatdagi ichki vaziyatni mustahkamlashga intilib ulkan piramidalar qurishdan voz kechadilar. Ular markaziy boshqaruvga mahalliy va mansabdor a'yonlar vakillarini jalb etadilar. Bu bilan kiborlarning keng doiralariga yuqoriga yo'l ochib berib, Misr zodagonlarining umumiy ahvolini mustahkamlaydilar. 4 sulola vaqtida (er.av. XXV-XXIII asrlar) kichik shaharlar boylari (nomalar) va mansabdor shaxslarnig yiriklashuvi jarayoni davom etadi. Moddiy va insoniy boyliklarning mahalliy hokimiyat foydasiga qayta taqsimlanishi yuz beradi. Markaziy hukumatning Misrning tashqi siyosiy ta'siri kabi iqtisodiy va siyosiy qudrati ham qulaydi. 6-sulolaning tugashidan so'ng (er.av. XXIII asr) Memfis podsholarining hokimiyati nomigagina bo'lib qoladi. Mamlakat bir yoki bir necha nomalardan iborat talay mustaqil knyazliklarga bo'linib ketadi.

Qadimgi podsholik davri tugaydi. Misrning Qadimgi Misr tarixining birinchi o'tish davri deb nom olgan tushkunlik va tarqoqlik davri boshlanadi.

O'rta podsholik davrida (er.av. XXI-XVIII asrlar) umummisr davlati. Markazlashgan davlatning yarim mustaqil, bir-biriga muxolif nomalarga bo'linib ketishi umummisr sug'orish tizimining buzilib ketishiga, iqtisodning va eng avvalo butun qishloq xo'jaligining inqiroziga olib keldi. Xo'jalikning parchalanishi va ocharchilik Misr aholisning eng qashshoq qatlamlari e'tirozi va xatto ochiq qo'zg'olonida namoyon bo'lgan xalq ommalarining noroziligiga olib kelar edi.

Ko'pchilik misrshunoslar yirik xalq qo'zg'olonini (deyarli mamlakatning turli qismlaridagi bir necha qo'zg'olonni) aynan 1 O'tish davrinining oxiriga tegishli, deb hisoblaydilar. Bular haqida "Ipuser matali", "Neferti matali"da hikoya qilinadi.

Ammo og'ir vayronagarchilikni bartaraf etish zarurati Misr hukmdorlarining oldiga kuchli Misr davlatini qayta tiklash muammosini qo'yadi. Misrning yangi birlashishi uchun kurash ham shimolda, ham janubda boshlanadi. Shimolda birlashtiruvchi markaz bo'lib Gerkleopol, janubda Fiva bo'lgan.

Fiva hokimi Mentuxotepning g'alabasi Gerakleopol bilan Fiva o'rtasidagi ayovsiz jangning yakuni bo'lib, u 6 umummisr sulolasining asoschisi bo'ldi (er.av. XXI asr). Misr jamiyatining, davlatining va madaniyatining yangi taraqqiyoti boshlanib, u uch yuz yilcha davom etadi va O'rta podsholik nomini oladi (er.av. 2005-1715 yy., 11-13 sulolalar).

11- va ayniqsa 12- sulola fir'avnlari markaziy hukumat qo'l ostida mamlakatning insoniy va moddiy boyliklarini to'plab, Qadimgi podsholik davridagi umummisr sug'orish tizimini tiklaydilar.

Bu vaqtga kelib, misrliklar nisbatan yumshoqroq hisoblangan misdan o'z sifatiga ko'ra yuqori turgan bronzani o'zlashtiradilar.

Rivojlanayotgan iqtisod nafaqat butun aholining ehtiyojini qondirishga, balki mahsulotning ancha ortiqcha qismi: bug'doy, hunarmandchilik mahsulotlarini ham berar edi.

O'rta podsholik davri Misr iqtisodining o'ziga xos xususiyati xususiy xo'jalik munosabatlari, bozor bilan aloqalar, qullar mehnatidan foydalanish keng taraqqiy topgan o'rta xo'jaliklarni mustahkamlash edi.

O'rtacha yer-joylar bilan birga mayda yer egalarining mavqei oshib boradi. Kichkinagina yer uchastkasiga ishlov berish bilan an'anga ko'ra qishloq aholisi shug'ullanar edi. Mayda yer egalari bevosita ishlab chiqaruvchilarning asosiy qismini tashkil qiluvchi mayda yer egalari O'rta podsholik hujjatlarida "xemuuni-sut"—"shoh odamlari" iborasi bilan belgilangan. O'rta podsholik davrida qullar soni Qadimgi podsholik davridagiga nisbatan ko'payadi. Qullarni keltirib chiqaruvchi asosiy manba muvaffaqiyatli urushlar bo'lib, ulardan Misrga o'n minglab asrlar haydab kelinar edi.

Ular esa shohning, ehromlar, zodagonlar xizmatiga, ba'zan o'rta xo'jaliklarga ham tushar edilar.

O'rta podsholik davridagi xususiy quldorchilikning rivojlanishi Misr ijtimoiy munosabatlarining xarakterli belgisidir.

Misrning markazlashgan davlatga birlashtirilishidan keyin Qadimgi podsholik davridayoq yuzaga kelgan ko'psonli byurokratik boshqaruv apparati qayta tiklandi. Butun boshqaruvning eng yuqorisida fir'avn, "Raning jismidan bo'lgan o'g'li", xudo odam turib, u mutlaq hokimiyatga ega edi. Lekin O'rta podsholik fir'avnlari mahalliy zodagonlardan kelib chiqqan nomarxlar qo'lida bo'lgan nomalarni boshqarishni uddalay olmadilar.

13-sulolaning hukmdorlari (er.av. 1789-1645yy.) mamlakatdagi ichki vaziyatni barqarorlashtirish muammosini echishga qurlari etmadi.

Murakkab ichki va tashqi vaziyat, markaziy hokimiyatning kuchsizlanishi sharoitida xalq ommasining noroziligi mavud tuzum va uning hukmdorlariga qarshi ochiq xalq qo'zg'oloniga aylanib ketadi. Mamlakatda kelib chiqqan og'ir ichki vaziyatdan giksoslar birlashmasi foydalanib qolib, ular er.av. XVII asrda avval butun Nil deltasini egallaydilar, keyin esa o'z hokimiyatlarini Yuqori Misrga tarqatishga muvaffaq bo'ladilar. Shu bilan Misrda O'rta podsholik davri tugaydi va o'zga erliklar-giksoslar hukmronligi davri boshlanib, uning hukmdorlari 15-16-Misr sulolalarini (er.av.1675-1554 yy.) tashkil etdilar.

Misr nafaqat uni, balki Sinay yarim orolini, Falastinni va Suriya cho'lini birlashtirgan bepoyon Giksos davlatining bir qismiga aylandi. 13- sulolaning qulashidan so'nggi nomalarning mustaqilligi davri va er.av. 18 asr oxiri - XVI asr o'rtasini qamragan giksoslar hukmdorligi vaqti ikkinchi O'tish davri nomini oldi.

Yangi podsholik davrida buyuk Misr davlati (er.av.XVI-XII asrlar). Giksoslar bilan kurashga Misrning avvalgi poytaxti – Amon xudosi sanamining umummisr markazi joylashgan Fiva shahri hukmdorlari bosh bo'ldilar.

Janubiy sulolaning fir'avnlaridan biri Kamesu bosqinchilarni Misrdan haydab chiqarish uchun bo'lgan kurashga bosh bo'ldi. Ajnabiylar bilan bo'lgan kurashni Kamesuning ukasi fir'avn Yaxmos tomonidan davom ettirilib, tugallanadi. Qadimgi

Misrning ajoyib davri – qariyb besh yuz yil davom etgan Yangi podsholik davri 18-20-sulolalarni (taxm.er.av.1554 – 1075 yy.) qamrab olgan. Aynan shu davrda hududi bo'yicha katta Misr davlati bunyod etildi, qadimgi Misr sivilizatsiyasi (tamadduni) esa o'z taraqqiyotining eng baland cho'qqilariga ko'tarildi. Fir'avnlr, ulkan kuch va moddiy boyliklarga ega bo'lgan holda, xo'jalik hayotini jonlantirishga va eng avvalo qishloq xo'jaligini gullab-yashnatishga yordam beruvchi siyosatni o'tkazar edilar.

Mehnat qurollarini yasash uchun (ayniqsa 19-sulola davridan) eng ko'p qo'llana boshlagan narsa bronza bo'ldi.

Yangi podsholik davrida Misr iqtisodi qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik mahsulotlarini ilgarigi vaqtlardan ko'ra ko'proq ishlab chiqara boshlagan edi.

Misrning ijtimoiy hayotidagi muhim o'zgarish bu quldorchilik munosabatlarining tarqalishi va mustahkamlanishi bo'ldi. Qullar qatori zafarli bosib olishlardan so'ng haydab kelinadigan yuz minglab asrlar hisobiga o'sib borar edi. Qullarning katta qismini o'zga yurtlilar: Falastin, Suriya, Finikiyadan, livanliklar, nubiyaliklar va boshqalar tashkil qilar edi. Zodagonlar, saroy a'yonlari va oliy kohinlar, armiyaning qo'mondonlik tarkibida, markaziy va noma boshqaruv apparatining amaldorlari qo'l ostida to'planar edi. Qullarni boy er egalari va hunarmandlar sotib olishlari mumkin edi. Quldorchilik munosabatlari Qadimgi Misr ijtimoiy munosabatlarining umumiy tizimida muhim rol o'ynay boshlaydi. Dastlabki vaqtlarda 13-sulola Misr fir'avnlarni qo'llab turgan noma zodagonlari va oliy kohinlar yuqori qatlami bosqinchiliklardan katta foyda ko'rdilar. Ulkan insoniy va moddiy boyliklarga ega bo'lgan noma zodagonlari va oliy Fiva kohinlari, o'z ta'sir kuchlaridan foydalanib, fir'avnlr siyosatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishga harakat qilar edilar.

Noma zodagonlari va Fiva kohinlari bilan shohxizmatidagilar orasida ziddiyatlar kuchli bo'lib, bu oxir oqibatda Exnatonni diniy islohotiga olib keldi.

Fir'avn Amenxotep IV tub diniy-siyosiy islohot o'tkazishga harakat qilib ko'radi. Bundan maqsad, bir tomondan, Misr dinini o'zgartirish, ikkinchi tomondan esa, oliy kohinlar, ayniqsa Fivaliklar siyosiy ta'sirini yo'q qilish edi. Exnatonning diniy-siyosiy islohoti va uning barbod bo'lishi Misr jamiyatida ijtimoiy tanglikning

kuchayishiga olib keldi. 9-sulolaning hukmdorlari oldida Misr jamiyatining ichki birlashuvining va uning tashqi qudratining tiklashdek murakkab vazifalar turar edi.

Harbiy-siyosiy jihatdan o'nglanishning boshi Xoremxeb (er.av.1334-1306 yy.) faoliyati bilan bog'liq edi. Xoremxeb dastlab hokim sinf va armiya saflarida ichki jipslashuvni masad qilib qo'ygan bir qator islohotlarga kirishadi.

Xoremxeb davrida Misr davlatining ichki va tashqi qudratini qayta tiklash uchun sharoitlar yaratiladi. Uning vorislari Ramzes I va Seti I, mustahkamlanib qolgan harbiy-iqtisodiy kuchga suyangan holda ham shimoliy, ham janubiy yo'nalishlarda kuchli tashqi siyosat o'tkazishga kirishadilar.

Misr imperiyasini qayta tiklash va uning Yaqin Sharq hayotidagi ulkan rolini tasdiqlash er.av. XIII asrda Ramzes II (er.av.1290-1224 yy.) hukmdorligi paytida yuz berdi.

Ramzes II ning uzoq yillik boshqaruvi ulkan Misr davlati va madaniyati taraqqiyoti vaqti bo'ldi, ammo uning vorisi davridayoq ahvol o'zgara boshladi. Ramzesning merosxo'ri, uning 13 yoshli o'g'li Merneptax (er.av.1224-1214yy.) mamlakatning ham ichki, ham tashqi murakkab muammolarini hal etishi kerak edi.

Taniqli amaldor Setnaxt ichki va tashqi vaziyatni barqarorlashtirishni uddalaydi. U taxtga o'tirib, yangi 20-sulolaning (taxm. er.av. 1200 y.) asoschisiga aylanadi.

Er.av.XI asr boshida Ramzes 11 (taxm. er.av. 1075 y.) o'limidan so'ng 20-sulola tugaydi. Janubda Fivadagi hokimiyat Amon xudosi oliy kohini Xerixor qo'l ostiga o'tadi. Shimolda Tanisda esa 21-sulolaning asoschisi, faqat Quyi Misrda hokimlik qilgan qandaydir Smendes (Nesubanebdjed) qo'liga o'tadi. Bunday voqealar bilan Misr tarixining eng yorqin davri – Yangi podsholik davri tugadi.

Taxminna er.av. 1075 yilda Yangi podsholikning yagona markaziy davlati yiqilishi bilan Misr o'z tarixining Keyingi (Kech) davriga kiradi (er.av. 1075-332 yy.).

Bu davrda Misrni birlashtirishlar yo Misr oq suyaklarining biror bir guruhi (24, 26 va 28 sais, 29 mendes va 30 sevensit sulolalari) ta'sirining kuchayishi hisobiga yohud mamlakat ustida o'zga erliklar (22-23 liviyaliklar, 25 nubiyaliklar va 27 fors sulolalari) hukmdorligi o'rnatilishi hisobiga bo'ladi. Mamlakatdagi butun Keyingi

davr davomidagi haqiqiy siyosiy ta'sir Misr oq suyaklarining noma guruhlarini qo'lida bo'ladi.

Taxminan er.av. 945 yilda Liviyaning taniqli qavmlaridan birining vakili Sheshonk I 22-liviya sulolalsini ta'asis etadi (taxm. er.av. 945-722 yy.). Sheshonk I taxm. er.av. 930 yilda Iudeya (Yahudiya)ga bostirib kiradi, Quddus, Iudeyaning ko'plab shaharlari va aholi punktlarini egallaydi, boyliklarni qo'lga kiritadi.

Mamlakat ichida parokandalik o'sib borib, sulolaning o'zi turli shaharlar: Bubastis, Memfis, Garkleopolda joylashgan tarmoqlarga bo'linib ketadi.

Taxm. er.av. 808 yilda Tanis hukmdori o'zini butun Misrning shohi deb e'lon qiladi va yangi 23-sulolani boshlaydi. Bu sulola ham kelib chiqishi jihatidan Liviyadan bo'lib, mamlakatni 22 sulola bilan parallel ravishda er.av. 730 yilga qadar, ya'ni maydalanib ketgan Misr nubiyadan kelgan yangi istilochilarning engil o'ljasiga aylangan vaqtgacha, boshqaradi.

Misr o'zini er.av. 664 yilga qadar boshqargan kushit fir'avnlari (25 Efiopiya sulolasi, qadimgi yunonlar kushitlarni efioplar deb ataganlar) tomonidan butunlay bo'ysundiriladi. Misr va Kush bir davlatga birlashtirilgan.

Ossuriya shohi Asarxadon er.av. 674 va 671 yillarda ikki yurishdan so'ng Misrni bo'ysundiradi. Ossuriylarning Misr ustidan hukmronligi 15 yil davom etadi (er.av.671-655 yy.). Kushitlar ustidan g'alaba qilgan ossuriylar 25-efiop sulolasining Misrdagi boshqaruviga barham beradilar. Shimoliy Misrning iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan Sais shahri ossuriylar bilan kurash va mamlakatni qayta birlashtirish tashkilotchisi bo'lib chiqadi. Er.av. 655 yilda mamlakatni birlashtirish tugaydi. Birlashgan Misr, shuningdek Lidiya, ehtimol, Bobil bilan bo'lgan ittifoqqa suyangan Psammetix I mamlakatdan ossuriylarni siqib chiqaradi. Fir'avnlarni taxtiga 26-Sais sulolasi (er.av. 664-525 yy.) keladi.

Psammetix I o'g'li fir'avn Nexo II (er.av. 610-595 yy.) Misrning Afrikadagi mavqeini mustahkamlaydi, shuningdek O'rta Yer dengizi savdosini kuchaytiradi.

Er.av. 525 yilda Eron shohi Kambiz Misrga qarshi urush boshlaydi. Misr tarixida birinchi fors hukmronligi deb nomlangan davr (er.av.525-404 yy.) boshlanadi.

Eron hukmronligi faqat er.av. 332 yil oxirida Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) qo'shinlari Misrga kirib kelishi bilan tugaydi. Mahalliy aholi uni xursandchilik bilan qarshi oladi va u fir'avn unvonini oladi. Shundan boshlab Misr antik dunyoning madaniy-tarixiy hududiga kiradi va o'z tarixining yangi, ellinistik bosqichiga qadam qo'yadi

Qadimgi Misr madaniyati. Misr madaniyati qariyb to'rt ming yil yaratilib, taraqqiyotining uzoq va murakkab yo'lini bosib o'tdi.

Qadimgi misrliklar dini Nil vodiysi tabiiy sharoitlarining xususiyatlarini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining o'ziga xosliklarini aks ettirgan.

Misrliklar quyosh, oy, Nil daryosi, halokatli sahro, odamga xavf soluvchi yirtqich hayvonlar, tabiatning turli kuchlariga sig'inar edilar. Dehqonchilikdagi sug'orish tizimi tashkilotchisi, odamlar va tabiiy kuchlar hukmdori hisoblangan podsholik qilayotgan fir'avn ham izzat-ikrom ob'ektiga aylanadi. Misr dini uzoq yo'lni bosib o'tib, Yangi podsholik davriga kelib tugallangan diniy tizimga aylanadi. Eng ko'p hurmat qilingan oliy xudolar: sig'inish markazi Geliopolda joylashgan kunduzgi osmonda samoviy otda aylanib yuruvchi quyosh xudosi Ra, sig'inish markazi Memfis bo'lgan bir so'zi bilan xudolar va butun dunyoni yaratgan xudo-xoliq Ptax hisoblangan.

Fivaliklar Ra xudosining bir qator vazifalarini qo'shgan holda Amon xudosini ilgari suradilar va u Misrning eng asosiy xudolaridan biriga aylanadi. Amon-Ra dunyoning yaratuvchisi, podsho hokimiyati, Misr qudrati homiysi hisoblanar edi.

Qadimgi Misr xudolari ichida Osiris ham mashhur bo'lib, u o'luvchi va tiriluvchi tabiatning timsoli, narigi dunyo egasi, shoh hokimiyati homiysi hisoblanardi.

Uning singlisi va ayoli Isida xudo-ona, er-xotinlik va onalik homiysi sifatida tushunilardi. Osiris va Isidaning o'g'li Xor osmon va nurning timsoli edi va fir'avnning himoyachisi, uning yerdagi tajassumi hisoblanardi. Tot donolik va hisob xudosi bo'lib, ayol xudo Soxmet qudratli kuchning timsoli, ayol xudo Xatxor osmon, muhabbat va xursandchilik xudosi hisoblanardi. Nil Xapi nomi bilan hurmat qilingan.

Podsholik qilayotgan fir'avnga sig'inish kuchli edi. Kohinlarning o'rgatishiga ko'ra, fir'avn inson qiyofasiga kirgan xudo deb hisoblangan.

Misr yozuvi er.av. IV asr oxirida paydo bo'lgan, shakllanishning uzoq yo'lini o'tgan va rivojlangan tizim sifatida O'rta podsholik davrida asos topdi. Er.av. II asr o'rtasiga kelib eng ko'p ishlatiladigan ierogliflar qariyb 700 tani tashkil qilar edi. Ular asosan tosh, loy lavhalar (ostrakon), yog'och va charmga yozilgan. Keyinchalik mashhur papiruslar kashf etildi.

Ierogliflar asosan hokim sinf vakillariga o'rgatilar edi. Joser fir'avni uchun birinchi piramida qurilib, keyincha bu keng rivoj topdi. Misr madaniyati tizimida ilm yuqori darajaga ko'tarilib, matematika, astronomiya va meditsina juda kuchaydi.

Tayanch iboralar: Qadimiy Misr, Nil, O'rta Yer dengizi, Gerodot, Nil tuhfasi sivilizatsiya, piramidalar, Misr shohi, Gor, Fir'avn, Snofru, Nubiya, Sinay, Falastin, Liviya, Ramzes, Setnaxt, Ramses 11, Fiva, Amon Xerixor, Tanisda, Smendes, Liviya, Sheshonk, Quddus, Iudeya, Isida, Osiris, Soxmet, Xatxor, Nil Xap, ostrakon, papiruslar Ieroglif, Joser matematika, astronomiya, meditsina.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Misrning geografik joylashuvi va aholisi haqida nimalarni bilasiz?
2. Qadimgi Misr hududida ilk davlat uyushmalari qachon vujudga keldi?
3. Qadimgi Misr podsholigi va uning siyosiy boshqaruvi haqida ma'lumot bering?
4. Misrda markashlashgan davlatni shakllanish jarayonlarini yoritib bering.
5. Misrga qo'shni xalqlar bosqini va uning natijasini tahlil qiling.
6. Giksoslar hukumronligi davrida Misrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida ma'lumot bering.
7. Misrning Old Osiyo mamlakatlari bildan munosabatlarini qo'shimcha manbalardan foydalanib kengroq yoritib bering.
8. Qadimgi Misrdagi diniy e'tiqodlar haqida ma'lumot bering.

9. Misrda ta'lim tizimi va uning rivojlanish holatini qo'shimcha manbalar asosida tahlil eting.

10. Misr madaniyatini jahon madaniyatida tutgan o'rniga qiyosiy baho bering.

Glossariy

Fir'avn – ulug' xonadaon egasi ma'nosini anglatadi. Uning xudoni o'g'li deb qarashgan.

Piramida – Qadimgi Misrda bunyod etilgan ehromlar shunday atalgan. Eng mashhurlari Xufu, Xafra, Menkaura hisoblanadi.

Mirzolar maktabi – qadimgi Misrda ilk tashkil topgan maktablar shunday atalgan.

6-§. Kichik Osiyo. Suriya, Finikiya, Falastin qadimgi davrda. Xett podsholigi

Er.av. XVIII asrning birinchi yarmida Kussar shohlari: Pitxana va Anitta tomonidan Sharqiy Kichik Osiyoning katta qismini birlashtirish ro'y beradi. Anitta hukmronligi Qora dengizdan Tuz ko'li basseynigacha cho'zilgan, bizga "Xett" podsholigi sifatida ma'lum bo'lgan, katta davlatning haqiqiy asoschisi bo'ldi.

Qadimgi Xett deb nomlangan davrda (er.av.XVIII-XVI asrlarda) Xett davlatida haligacha urug'chilik tuzumi an'analari kuchli edi. Xett podsholari harbiy xalq majlisi - pankusni tashkil etgan jamiyatning barcha jangga layoqatli to'la huquqli a'zolaridan tashkil topgan xalq lashkarlariga suyanib hukm yuritardilar.

Pankus faoliyatiga ma'lum jihatdan "tuliya" kengashi (pankusning cho'qqisidagilar) rahbarlik qilib, u asosan qudratli urug'dosh oqsuyaklar manfaatini himoya qilgan. Pankus va tuliya podsholar hokimiyatini sezilarli ravishda cheklardilar.

Er.av. XVIII asr yakunida Anitta sulolasi hokimiyatni Kussarda joylashgan boshqa (umuman "qadimgi Xett") podsholikka topshiradi. Bu sulolaning shohlaridan biri Labarne I davrida (taxm. er.av. 1675-1650 yy.) davlatning shakllanishi tugaydi. Uning jiyan-vorisi Xattusili I (taxm. er.av. 1650-1625 yy.) poytaxtni Xattusuga ko'chiradi (aynan shundan keyin davlat Xett deb nom oladi). O'rta Xett davrida (er.av. XV asrning birinchi yarmi) Xett shohlari Kitstsuvadnadagi ta'sir uchun Mitanniga qarshi muvaffaqiyatsiz kurash olib boradilar va Mitannining ashaddiy dushmani Tutmos III bilan do'stlashishga harakat qiladilar.

Mitannilar tahdidi xettlar tarixidagi jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Taxm. er.av.1450 yilda omadli ravishda taxtga zo'rlik bilan kelgan, Kitstsuvadni urug'idan chiqqan xurrit taxtga oid Tudxalii 2 nomini qabul qilib, yangi xett sulolasini dunyoga keltirdi. Bu sulolaning boshqaruvi vaqtini Yangi Xett davri (er.av. XV asr o'rtasi-XII asr boshi) tashkil etadi. Yangi Xett shohlari amalda Yaqin Sharqning tipik millatustir harbiy-byurokratik monarxiyasini yaratdilar. Shoh mutloq hukmdorga aylanib, o'zi o'rniga voris tayyorlardilar. Shu sababli saroy to'ntarishlari bundan keyin alg'ovdalg'ovlikka olib bormagan.

Er.av. XIV asr boshida Xattida ajoyib siyosatchi va qo'mondon Suppiluliuma I (taxm. 1380-1335 yy.) hokimiyatni zo'rlik bilan qo'lga kiritadi. Suppiluliuma I ning davlatni boshqarishdagi ajoyib talanti xetlar qo'l ostiga Xetlar podsholigi siyosiy imkoniyatlaridan ortiqroq nazorat qilinadigan bepoyon kengliklarni kiritdi. Shuning uchun Suppiluliuma I asos solgan ulkan davlatning hayot kechirishi uchun uning vorislari doimiy ravishda isyon ko'targan yerlarga hujum qilib turishiga to'g'ri kelgan. Taxtni zo'rlik bilan egallagan keyingi shoh Xattusili III (er.av. XIII asr 2 choragi) Misr bilan tinchlik va ittifoq shartnomasi tuzib, Misr-Xett urushlariga umuman chek qo'yadi va sulolalar quda bo'ladilar (Xattusilaning qizi Ramzes II ning xotini bo'ladi).

Shartnoma Sharqiy O'rta Yer dengizining o'rnashib qolgan hududiy bo'linishini mustahkamladi, tomonlarga biri-birlarini harbiy kuchlar bilan ichki va tashqi dushmanga qarshi qo'llab-quvvatlash va qochqinlarni qaytarish majburiyatini yukladi.

Oxirgi Xett shohlari – Tudxali IV va uning ikki o'g'li vaqtida Xetlar podsholigini “dengiz xalqlari”, ya'ni Egey dengizi orollaridan bo'lgan yunon qabilalari ittifoqi egallab oldilar. Shu bilan Yangi Xett davlatchiligi batamom tugatildi.

Xett iqtisodining asosi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'lgan. Chorvadorlik (ayniqsa, qo'ychilik va yirik shoxdor mol boqish) ham keng rivojlandi. Xetlar dehqonchiligi avvalambor yog'in-sochinning miqdoriga bog'liq edi. Sun'iy sug'orishning cheklangan miqdordagina imkoniyati bor edi. Bunday imkoniyatli yerlar eng qimmatbaho hisoblangan. Arpa eng asosiy mahsulot hisoblangan.

Bog'dorchilik va uzumchilik katta ro'l o'ynagan.

Bu yerda metallurgiya alohida ahamiyatga ega bo'lib, mis asosiy xom-ashyo hisoblangan, keyinroq uni bronza siqib chiqargan.

Asosiy ijtimoiy boylik – yer davlatga yoki shahar va qishloqlar jamoa yig'inlariga qarashli bo'lib, ularning yerga egaligi uzoq o'tmishga borib taqalardi. Davlat yerlari shohning bevosita yoki umumiy farmoyishi ostida edi.

O’rta er dengizi davlatlari. Taxminan er.av. XXII asrda, Akkad davlati qulaganidan keyin O’rta Evfratga yaqin yerda joylashgan Jabal Bishri tog’i va Suriya chegaralarini yangi som ko’chmanchilari – sutilar (bungacha Quyi Mesopotamiyaning janubiy chegaralarida yashagan) egallaydilar. Mesopotamiyaliklar belgilagan “amoreylar” nomi shularga taaluqli bo’lib, fanda ham shu nom bilan tanilganlar.

Er.av. XXI asrning ikkinchi yarmida suti-amoreylar butun Suriya-Falastindan o’tib, mintaqaning shimoliy qismiga zich joylashadilar. Shu vaqtdan boshlab Sharqiy O’rta yer dengizi tarixining O’rta bronza deb nomlanuvchi davri boshlanadi.

Er.av. XIX asrning oxirida suriya amoreylaridan bir qabila guruhi Yamxad deb nom chiqargan katta davlat tuzishga harakat qiladi. Uning asoschisi xatto o’z qarorgohiga ham ega emasdi, ammo Mari shohi bilan tenglarcha yozishma qilib, butun Shimoliy va qisman Janubiy Suriyani nazorat qilgan. Bobillik Xammurapi va marilik Zimrilimaning zamondoshi va ittifoqchisi ikkinchi hukmdor Yamxada podsho unvonini olib, Xalpuni (Aleppo, hozir. Xaleb) o’z poytaxti qiladi.

Yamxad Mari bilan keng savdo qilar, bu davlatni qishloq xo’jaligi mahsulotlari (non, zaytun moyi, uzum vinosi va asal) bilan ta'minlar edi. Shuningdek matolar berar va o’rniga qalay olardi.

Er.av. XVIII asr oxirida butun Sharqiy O’rta er dengizi bo’ylab shimoldan janubgacha bu vaqtga kelib Hosildor Yarim oy mamlakatlari bo’yicha keng joylashayotgan xurrit qabilalari o’tadilar. Amorey Yamxadi xurritlarning “buyuk podsholigi”, ta'sir doirasi Tavrga qadar yoyilgan Xalpa bilan almashadi.

Er.av. XVII asr boshi va XVI asr oxirida Shimoliy Suriyani xetlar nazorat qilar, XVI asr oxiriga kelib esa Mitanniga bo’ysungan.

Falastin va Janubiy Suriya giksoslar Misrdan haydalgach va Sharuxen yiqilishi bilan Misr fir'avni Yaxmos I qo’l ostiga o’tadi. Shunday qilib, er.av. XVI asr oxirida Sharqiy O’rta yer dengizi Misr bilan Mitanni o’rtasida bo’lib olingan.

Metallurgiya va boshqa hunarmandchiliklardagi o’zgarishlar (xususan, finikiyaliklar tomonidan qirmizi rang ishlab chiqarishning ochilish) keyingi bir necha

yuz yillikni (er.av. XVI-XII asrlar) Suriya-Falastin tarixining So'ngi bronza davri nomi ostida ajratib ko'rsatadi.

Uning birinchi yuz yilligi Misr va Mitanni o'rtasidagi Sharqiy O'rta yer dengizini nazorat qilish uchun bo'lgan to'xtovsiz kurash bilan o'tadi.

Er.av. XIII asrning birinchi choragidagi yangi Xett-Misr urushlaridan keyin, bir yarim asr ilgari bo'lganidek, tomonlar yana tinchlik bilan Sharqiy O'rta yer dengizini bo'lib oladilar. Suriyaning katta qismi, Kadet va Amurruni ham qo'shganda, xetlarga tegadi, Janubiy Finikiya, Damashq va Falastin esa – Misrga.

Bu davrning odatdagi shahar-davlati Ugarit hisoblanib, u Ikkidaryo oralig'i, Misr va Kichik Osiyo bilan, Falastin hamda dengiz orti mamlakatlari bilan keng savdo olib borardi.

Ugarit davlatining taraqqiyoti er.av. XV asr oxiri va XII asr boshiga kelib pasayadi. Mamlakatning barcha ozod aholisi uch tabaqaga bo'linar edi: 1. "Ugarit mamlakati o'g'illari" mavqei borgan sari pasayib borayotgan dehqon-jamoachilar. 2. Shohdan yer maydonlari oluvchi yaqinlari - "Shoh qullari". 3. O'z yerlariga ega bo'lmagan va amaldorlar yerlarida o'tirgan - "Shoh qullari qullari". Bular o'z yeri va jamoadan ajragan, kasod bo'lgan dehqonlar bo'lgan.

Er.av. XII asr boshida Sharqiy O'rta yer dengiziga egey-anatoliya xalqlari (Misr manbalarida "dengiz xalqlari" deyilgan) bosib kiradi. Kelgindilar asta-sekin mahalliy aholi "filistim"larga, ya'ni "peleset"ga qo'shilib boradilar. Shu so'zdan Falastin nomi kelib chiqqan.

Finikiya shaharlariga "dengiz xalqlari" bosqinidan so'ng o'ziga kelib olishlari uchun ko'p vaqt talab etilmadi. Er.av. XII asrdayoq Sidon qayta qurib bo'lindi, undan chiqqan bir guruh odamlar Tirni egallab, obodonlashtiradilar (shundan keyin barcha finikiyaliklarni "sidonliklar" deb ataldilar).

Er.av. XII asrda Misrning Osiyodagi hokimiyati kuchsizlanib, yo'qoladi va keyingi o'n yilliklarda finikiyaliklar (avvalo "sidonliklar"ning Tir podsholigi) mustaqil ravishda G'arbiy O'rta yer dengizini buyuk finikiya mustamlakalashtirishi deb nomlangan jarayonni amalga oshiradilar. Keyin Tir Sidonni va boshqa shaharlarni bo'ysundiradi va butun Janubiy-markaziy Finikiya va Tir-Sidon davlatini

birlashtiradi. Bu davlat o'z rivojining eng cho'qqisiga shoh Axiram (Xiram, er.av.969-936yy.) vaqtida chiqadi. Finikiyaning eng asosiy shaharlari: Tir, Sidon va Bibl Misr va Bobil mollarini Gretsiyaga, yunon mollarini esa Sharqqa sotib, tranzit savdo orqali boyir edi. Finikiya zargarlarining asboblari (tilla va kumush kosalar, taqinchoqlar, fil suyagidan yasalgan bezaklar va b.) Sharqda va antik dunyoda yuqori baholangan. Finikiyaliklarning savdosi qaroqchilik bilan barobar olib borilgan.

Mintaqaviy Suriyaning tarixi bu mintaqaga bostirib kirib, unga er.av. XI asrning ikkinchi yarmida joylashgan oromiylar bilan belgilanadi. Suriya oromiylarining asosiy markazi Damashq vohasi bo'lib, u yerda er.av. X-VIII asrlarda ularning katta davlati (Aram-Damashq) mavjud edi. Uning iqtisodi rivojlangan qora molchilik, Yaqin Sharqda mashhur qurol ishlab chiqarish va jun tranzit savdosiga asoslangan edi.

Bir muddat butun Sharqiy O'rta yer dengizi Damashq hokimiyati ostida bo'lib qolgan. Ammo Damashq podsholigi kuchi mustahkam bo'lmay, og'ir va holdan toydiruvchi urushlar tufayli Er.av. IX asr oxirida Ossuriya shohi Adad-nerari 3 tomonidan bosib olinadi va talanadi (o'lja sifatida juda ko'p miqdorda temirni qo'lga kiritadi).

Isroil – Yahud podsholigi. Isroil qabilaviy ittifoqi er.av.XIII asrda jiddiy o'zgarishlarga uchraydi. Uning o'zagi Misr shohi fir'avn Merneptax tomonidan yakson qilinib, ular Falastindan siqib chiqarilgan edi va ehtimol, tarqab ketgan edi.

Isroilliklarning boshqa bir guruhi yana ham ilgariroq Misrda o'troqlashgan bo'lib, ammo er.av. XIII asr oxirida uni tashlab chiqib ketadi va Sinayga joylashadi. Bu Misrdan rixlat (ko'chish) to'g'risidagi qadimgi yahudiy rivoyatida o'z aksini topgan.

Sharqiy O'rta er dengizi uchun notinch davr – er.av. XIII-XII asrlarda isroillik guruhlar birlashib (Misrdan chiqqan yahudiylarning anchayin madaniy va tashkiliy jihatdan kuchliroq bo'lgan), yana Falastinga Iordan ortidan bostirib kiradilar.

Er.av. XII asrda Isroil Falastin hududida o'n ikki qabila ittifoqi sifatida butunlay shakllanib bo'ladi. Saylanuvchi sardorlar – “shofetlar”(sudyalar) oliy kohin

hisoblanib, qabilaning ko'ngilli qo'shinlari ustidan qo'mondonlik qilardilar, tinchlik paytida esa qozilik qilar edilar.

Er.av. XI asr boshida Falastinda filistimlik harbiylar taxtga keladi. Isroilning qabilaviy tizimi qarshilik ko'rsatishga noqobil ekanini ko'rsatadi. Filistimliklar bilan kurashda omadli harbiy etakchilar yetishib chiqadi. Shulardan biri – Saulni yahudiy qabilalari Isroil shohi deb saylaydilar. Shoh hokimiyatining o'rnatilishi zodagonlar qarshiligiga qaramay asosiy ko'pchilik tomonidan jadal qo'llab-quvvatlanadi. Saul o'z yaqinlarini armiya mingboshisi va yuzboshisi qilib tayinlaydi, ularga dalalar va uzumzorlar tortiq qiladi. Bu mulozamat zodagonlarni noroziligini keltirib chiqaradi. Ammo Saul omadsiz qo'mondon bo'lib chiqadi. Filistimliklardan to'la mag'lub bo'lgach, o'zini joniga qasd qiladi.

Uning kuyovi Dovud shohlikni qabul qiladi (er.av. 1000-965 yy.). U markazlashgan monarxiya tashkil etish siyosatini olib boradi.

Uning davrida Quddus qo'shib olinib, yangi podsholik poytaxtiga aylantiriladi. Mamlakatni boshqarish uchun markaziy davlat boshqaruvi tuziladi. Uning boshida oliy mansabdor shaxs turgan. Dovudning tashqi siyosati yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. U filistimliklar bilan sulh shartnomasi tuzadi. Dovudning o'rniga uning o'g'li Solomon taxtga o'tiradi (taxm. er.av.965-928 yy.). An'anaga ko'ra u donoligi uchun ko'kka ko'tariladi, oqil va odil hakam qilib tasvirlanadi. Solomon hukmdorligida qurilish ishlariga katta e'tibor beriladi. Solomon Yaxva xudosi sharafiga Quddusda yorqin jilolangan ehrom qurdiradi. Bu barcha binolarni bunyod etish uchun Tir shohi Axiram Solomonga eng yaxshi ustalar va rassomlarni, qurilish materiallarini yuboradi. Buning uchun Solomon Axiramni bug'doy va zaytun moyi bilan ta'minlardi, unga yigirmata shaharni ham berib yuboradi). Quruvchilik faoliyatining keng yoyilishi va saroyni ushlab turish katta mablag'lar talab qilardi. Bu esa soliqni ko'paytirishga olib keladi.

Isroil - Yahudiy podsholigi hududi 12 viloyatga bo'linib, ularning har biri bir yilda bir marta bir oy davomida saroyga oziq-ovqat keltirardi. Mehnat majburiyati kiritilgan edi. Solomonning hukmdorligi so'ngida davlatning tashqi siyosiy ahvoli og'irlashadi. Shimoliy chegara ortida kuchli Damashq podsholigi paydo bo'ladi.

Ko'pchilik qabilalar Yahudiyadan ajralib, yangi Isroil podsholigini yaratadilar. Keyinroq (Er.av. IX asrda) uning poytaxti etib yangitdan bunyod etilgan Samariya e'lon qilinadi.

Er.av. 722 yilda Ossuriya shaharni egallab oladi va Isroil davlati tugatiladi. Janubiy podsholik yana 120 yil yashaydi. Er.av. 587 yilda bobilliklar Quddusni bosib olib, talaydilar. Uning hududida Yangi Bobil viloyati paydo bo'ladi.

Tayanch so'zlar: Kussar, Pitxan va Anitta, Xett, Pankus, Labarne I, Xattusili I, Mitan, Tutmos III, Suppiluliuma, Xattusili III, Ramzes II, Tudxali IV, Xett, Bog'dorchilik, uzumchilik, metallurgiya, Jabal Bishri, Suriya, Falastin, Yamxad, Zimrilim, Xaleb, Falastin, Yaxmos, Suriyaning Kadet, Amur, Ugarit, filistim, peleset, Finikiya, Sidon, Xiram, Adad-nerari III, Merneptax, shofetlar"(sudyalari), Saul, Dovud, Solomon, Isroil, Quddus, Yangi Bobil.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Kichik Osiyoning tabiati va aholisi haqida ma'lumot bering.
2. Ilk davlat uyushmalari shakllanish holatini yoritib bering.
3. Mitani davlati va uning boshqaruv shakli haqida nimalarni bilasiz?
4. Finikiya tabiati va aholisining asoasiy mashg'uloti haqida nimalarni bilasiz?
5. Finikiy yozuvi va uning boshqa xalqlar yozuvlarining genezisiga ta'siri qanday bo'lgan?
6. Misr-Xett munosabatlarini qo'shimchalar manbalar yordamida tahlil eting?
7. Isroil – Yaxudiy davlatining rivojlanish va inqirozga uchrash sabablarini tahlil eting.
8. Suriya, Finikiya, Falastin davlatlarining jahon tarixi va madaniyatiga qo'shgan xissasini qo'shimcha ma'lumotlar yordamida qiyosiy tahlil eting.

Glossariy

Falastin - so'zi mahalliy aholi "filistim"lar nomidan kelib chiqqan.

Dengiz xalqlari – Old va Kichik Osiyo hududlariga er. av. 13-12 asrlarda bostirib kirgan xalqlarni misr manbalarida shunday atalgan.

Shofetlar - qadimgi falastinda sudyalari shunday atalgan.

7-§. Qadimgi Kavkazorti. Urartu davlati

Urartu tabiati va aholisi. Urartu janubi-g'arbiy Osiyodagi qadimgi davlatlardan biri bo'lgan. Bu davlat kuchaygan vaqtda Kavkazorti viloyatlari Dajla va Frot daryosining boshlanishidagi yerlarni egallagan. U geografik jihatdan Ossuriya davlatining shimolida joylashgan bulib, hududini katta qismi hozirgi Turkiya hamda Armaniston tog'lariga to'g'ri keladi. Bu davlat hududidan Kura, Araks, Frot va Dajla irmoqlari oqib o'tadi. Frotning ikki irmog'i ham shu joydan boshlanadi. Bu mamlakatning eng muhim ko'llari Van, Urmiya va shimolda Sevan (Hozirgi Armaniston hududida). Arman yassi tog'liklari dehqonchilik qilishga qulay, ammo qo'shni Mesopotamiyadan unumdor yerlarning kamligi bilan farq qiladi. Mamlakatda yaylovlar ko'p bo'lib, azaldan Urartu aholisiga chorvachilik bilan shug'ullanishga qulaylik tug'dirgan. Arxeologik tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, o'lka aholisi neolit davridan (5-4 ming yilliklardan) Kura va Araks daryolari vodiylarida dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalar yashagan. Dehqonchilikning rivojiga er.av. I ming yillikda temirdan mehnat qurollarining yasala boshlanishi katta ta'sir etdi. Ayniqsa, dehqonchilik Araks vodiysida juda yaxshi rivojlangan, so'nggi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xatto ular sug'orish ishlarini ham olib borishgan. Bu tog'li mintaqada xilma-xil etnik guruhlar yashagan, ularning katta qismini urartlar tashkil etgan. Urartlar hozirgi zamonaviy xalqlar arman va gruzinlarning qadimiy ajdodlaridir.

Urartlar til jihatdan xurrit xalqlari guruhiga kirgan. Shimoli-g'arbiy viloyatda, Xayas mamlakatida, hind-Yevropa aholisi ko'pchilikni tashkil etgan. Urartlarni o'zlariga singdirib olgan arman xalqining avlod-ajdodi aynan o'sha joydan kelgan deb faraz qilinadi.

Urartu davlati tarixshunosligi. Urartu tarixiga oid Urartu hujjatlari, podsho yozuvlari, shuningdek oz miqdorda xo'jalik hujjatlari ma'lum. Urartlarning o'z ieroglif yozuvlari bo'lsada keng yoyilmagan. Urart podsholari avval Ossur tilida, so'ngra o'z tillarida, mixxat yozuvida yozganlar. Urartu tarixidan muhim ma'lumot beradigan tosh taxtalarga bitilgan mixxat matnlarini o'rganishda ko'plab olimlar

xizmat qilganlar. Bular M.V. Nikolskiy, G.A. Melikishvili, G.A. Kapantsyan, N.V. Arutyunyanlar katta rol o'ynadi. Urartu davlatiga tegishli moddiy yodgorliklarni izlab topish va tekshirishda I.A. Orbeli, B.B. Piotrovskiy, A.A. Martirosyan va boshqa olimlarning xizmati katta bo'lgan. Urartu tarixini tadqiq etgan xorij olimlari A.G. Seys, K.F. Leman-Xauptalarning o'rni alohida taxsinga loyiqdir.

Davlat uyushmalarining tashkil topishi va taraqqiyoti. Xurritlarga qarindosh bo'lgan Urartu (Uruatriy) qabilalari er. av. 1300-yillar atrofida qabilalar ittifoqiga birlashganlar. Er.av. IX asr o'rtalarida bu ittifoq Biayneli ("Van", ossurlar Urartu deb atagan) nomli davlatni barpo qildilar. Uning markazi Van ko'lining sharqida joylashgan Tushpa shahri bo'lgan.

Er. av. XV-XIV asrlarda Van ko'li atrofidagi qabilalar Urartu atrofiga birlashdi. Ushbu davlatning birinchi hukmdori Aramu (milloddan avvalgi 864-845 yillarda hukmronlik qilgan) bo'lgan. Uning davrida Ossuriya xukmdori Salamansar 111 ning Urartuga bosqini muvoffaqiyatsizlik bilan tugagan.

Podsho Sarduri I (milloddan avvalgi 835-825 yillarda) davrida Urartu davlati kuchayadi. Ossur qo'shinlari ustidan bir necha bor g'alabaga erishadi. Uning hukmronligi davrida Urartu sarhadlari kengaydi. Poytaxt shahar Tushpani ham Van ko'li soxilida bunyod ettiradi va poytaxt deb e'lon qiladi.

Menua (810-786y.) davrida Urartu davlati o'z taraqqiyotining gullab-yashnagan davri hisoblanadi. Mamlakat poytaxti Tushpa shahrini mustahkamlab, ko'plab suv inshootlari, xususan "Menua kanali" ni qurdiradi. U Mamlakat sarxadlarini kengaytirish maqsadida Araks va Frot daryosi atrofidagi xududlarga zafarli yurishlarni amalga oshirib, ko'plab boyliklar va asirlarni olib keladi.

Menuaning vorisi (Argishti II er.av. 786-764 yillar) davrida Urartu Janubi-G'arbiy Osiyodagi eng qudratli davlatga aylanadi. Hatto qudratli Ossuriya Urartu tazyiqi ostida Yaqin sharqdagi ikkinchi darajali davlatga aylanib qoladi.

Podsho Rusa I (er.av. 735-714 yillar) davrida mamlakat ichida ichki g'alayonlar kuchayadi. Bundan foydalangan Ossuriya podshosi Tiglapalasar III Urartuga yurishni amalga oshirib, g'alabaga erishadi.

Tinimsiz bosqinlar Urartu davlatining qudratini zaiflashtirdi. Shimoldan kimmeriylar, skiflar, sharqdan midiyaliklar bosqini natijasida Urartu o'z mustaqilligini yo'qotdi. Er. av. 590 yilda Midiya davlati tomonidan zabt etilib, uning qaram xududiga aylanadi

Urartuning madaniyati va iqtisodi to'g'risida arxeologik qazishmalar boy ma'lumot beradi. Teyshebaini (Karmir Bilur), Eribuni (qadimgi Erevan) va Argishtihinil (podsho Argimshi qurgan) shaharlari kuchli fortifikatsiya inshootlari bilan o'rab olingan.

Olimlarning ma'lumot berishicha, Urartu mix-ponasimon shakldagi o'z yozuviga ham ega bo'lgan.

Qadimgi Urartuda tibbiyot, veteranariya, dehqonchilik ilmi, yilnomalar yozish, astronomiya ilmi taraqqiy etgan.

Urartu qabilalari Ossuriya, Misr, Mesopotamiya, Xetlar bilan doimiy madaniy aloqoda bo'lib, bir-birlarining madaniyatlaridan bahramand bo'lish bilan birga boshqa xalqlar madaniyatiga ham sezilarli ta'sir o'tkazganlar. Buning natijasida o'ziga xos uyg'un madaniyat tarkib topgan.

Tayanch tushunchalar: Frigiya, Bolqon qabilasi, Qora dengiz bo'yi friglari, assimillatsiya, Ilion, Troya, Kichik Osiyo, Tavr, Gordiy, Midas, Kimmeriy, ma'buda Attisa, Sard, Gig, Mermnad qabilasi, Ashurbanipal, Skif, Ossuriya urug'i, Urartu, Van ko'li, Menua, Rusa 1, Ossuriya, Teyshebaini, Musasir, Argishti, Eribuni, fortifikatsiya, Menua, Sarduri, Menua kanali, tibbiyot, veteranariya, dehqonchilik ilmi, yilnomalar yozish, astronomiya, uyg'un madaniyat.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Urartu tabiati va aholisi qanday bo'lgan?
2. Urartlarning xo'jalik tarzi va mashg'ulotlari nimalardan iborat bo'lgan?
3. Urartu tarixiga tegishli moddiy va yozma manbalarni tahlil eting.
4. Qadimgi Urartu xududida ilk davlat birlashmalari qanday shart-sharoitda paydo bo'lgan?

5. Urart – Ossuriya munosabatlari va uning Yaqin sharqdagi xalqaro axvolga ta'sirini tahlil eting.

6. Urartu davlati taraqqiyoti va uning qo'shni davlatlarga ta'siri?

7. Urartu davlati inqirozi va uning sabablari?

8. Urartu madaniyati va uning jahon madaniyatiga ta'sirini qo'shimcha adabiyotlar yordamida keng yoritib bering.

Glossariy

Tushpa – Urartu davlatining poytaxti. Menua (810-786y.) davrida Mamlakat poytaxti mustahkamlangan. Urartu davlati o'z taraqqiyotining gullab-yashnagan davri hisoblanadi

Menua kanali – suv inshooti xisoblanib, mamlakatda dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida bunyod etilgan.

Teyshebaini – Qadimgi Urartu tarixidan ma'lumot beruvchi, hozirgacha saqlanib qolgan noyob qal'a yodgorligidir.

Ashurbanipal kutubxonasi – er. av. 669-630 yillarda hukmronlik qilgan Ossuriya podshosi Ashurbanipal davrida bunyod etilgan sopol kitoblardan iborat eng qadimgi kutubxona hisoblanadi. Ushbu kutubxonada Urartu tarixiga oid ko'plab ma'lumotlar saqlangan.

8-§. Qadimgi Elam, Midiya va Ahamoniylar davlati

Tabiiy sharoiti. Mesopotamiyadan sharq tomonda atrofi tog' tizmalari bilan qurshab olingan bepayon Eron qirlari yoyilib yotadi. Eronni Dajla va Frot havzasidan Zagros tog' tizmasi ajratib turadi. Shimol tomondagi Elburs tizma tog'i Kaspiy dengizining janubiy qirg'og'i bo'ylab o'tadi, shimoli-g'arbda esa Kopetdog' va Pomir tog'lari Eron bilan O'rta Osiyoning chegarasini tashkil qiladi.

Markaziy Eronning ancha qismi, sharqiy Eronning ko'p viloyatlari sekin-asta cho'lga va ba'zi joylari suvsiz sahroga aylanib borgan. Bunda ko'chma chorvachilik ustun bo'lgan, ammo ikki o'rkachli tuyalar (Baqtriya tuyasi) yetishtirish alohida o'rin tutgan. Bu tuyalar er.av. I ming yillikda Osuriyada ham juda oz bo'lsa-da paydo bo'lgan. Dehqonchilik o'choqlari Eronning chekka o'lkalarida, erni soy suvlari bilan sug'orish mumkin bo'lgan joylarda tashkil topgan. O'rta Osiyoda, Erondan farqli ravishda past tekkislik keng joyni egallagan.

Lekin Dajla, Frot va Nil suvlarini jilovlashdan ko'ra Amudaryo suvini o'zlashtirish ancha qiyin kechgan va bunda irrigatsiya ishlari ancha keyin (er.av. I ming yillikdagina) boshlangan. Dehqonchilik madaniyatining eng qadimgi o'choqlari Orol dengizi bo'ylarida emas, balki ancha janubroqda, Eronga chegaradosh rayonlarda, (hozirgi O'zbekiston territoriyasida) bo'lganligi aniqlandi. Arheologlar bunda er.av. V ming yillikdayoq dehqonchilik bo'lganidan dalolat beruvchi arpa, bug'doy donlari va uy hayvonlarining suyaklarini topdilar, ammo ayni zamonda Amudaryo havzasida hali ovchilik va baliqchilik hukm surgan.

Eron bepoyon tog'li va ko'p cho'llardan iborat kontinental iqlimli mamlakat. Dehqonchilik uchun qulay vodiylar, tog' oldi hududlari juda ko'p. Shimolda Elburs tog' tizimi va unga Turkman, Xuroson tog'lari qo'shiladi. G'arbdan va janubdan Zagros va janubiy Eron tog'lari o'rab turadi. Janubi g'arbiy Eronda (Huziston) Korun va Kerxa daryolari vodiysida yuqori hosil beradigan yerlar mavjud.

Aholisi. Eron bilan O'rta Osiyoning qadim zamondagi etnik tarkibini aniqlash juda qiyin. Faqat bir narsani komil ishonch bilan aytish mumkinki, er.av. II ming yillikkacha bundagi tillarda na semit va na hind-Yevropa tillariga o'xshashlik

bo'lgan. Bundagi tillardan bizga ma'lum bo'lgani elamiy tilidir, bu til Eronning janubi-g'arbida ustunlik qilgan, ammo uzoq qadimda elamiy tili ancha nari, sharq va sharqi-shimolda ham tarqalgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Faqat er.av. II ming yillikda, ayniqsa I ming yillikda etnogenez manzarasi oydinlashib borgan. Sovet davri ilmiy adabiyotlarida O'rta Osiyo va Eronda hind-eron qabilalari paydo bo'lgan. Ular shimol tomondan kelgan deb faraz qilinadi. Ammo eroniy tillar shimoldan janubga kirib kelgan degan fikrlar asossizligi haqida yangi fikrlar bor, ya'ni fors ko'rfazi hududida eroniy tillarning dariy lahjasi bo'lgani haqida farazlar bor.

Er.av. I ming yillik boshlarida g'arbiy Eronda eron tilida so'zlashuvchi qabilalar yashagan. Buni Ossur yilnomachilaridan bizga etib kelgan bir qancha rayonlarning onomastika va toponimikasi isbotlaydi. Eronda mezolit va neolit davriga oid manzilgohlar, arxeologik topilmalar, kulolchilik buyumlari Suza shahrining ilk qatlamlari yodgorliklari, Eron poytaxt shaharlari Suza, Ekbatana, Pasargad harobalaridan topilgan ulug'vor haykallar, qoyatosh releflari, qimmatbaho metallardan qilingan buyumlar-riton-qadahlar, harbiy qurollar va taqinchoq-bezaklar topib o'rganilgan. Yevropa olimlari J. de Margo va Grishman bu qadimgi shaharlar xarobalarini o'rganib, eronshunoslik faniga muhim hissa qo'shdilar.

Er. av. VII -VI ming yilliklarda g'arbiy Eronda dehqonchilik bilan shug'ullanadigan o'troq va chorvador qabilalar er.av. VI -V ming yilliklarda Eronning boshqa hududiga tarqaladi. Er. av. III ming yillik boshlarida janubi-g'arbiy Eronda Elamtu (bobil va ossur tilida «mamlakat») yoki Elam ilk davlat birlashmasi shakllanadi. Elam Mesopotamiya hamda shimoliy va sharqiy Eron bilan bog'langan Korun va Kerxa daryolari vodiylarida joylashgan. Suza shahri poytaxtga aylandi.

Manbalar. Midiya va Eron tarixi bo'yicha ma'lumot beradigan manbalardan biri bu yunon mualliflarining asarlari hisoblanadi. Gerodot (er. av. V asr)ning tarixi, Fukidid (er. av. V asr) tarixi, Ksenofontning «Yunon tarixi» asari, uning «Anabasis» memuari, sitsiliyalik Diodorning «Tarixiy kutubxona»si kabi asarlar

qadimgi fors tarixiga oid boy siyosiy, ijtimoiy, harbiy-diplomatik ma'lumotlar beradi.

Eron va O'rta Osiyoning xo'jaligi va undagi ijtimoiy munosabatlar to'g'risida biz asosan arxeologiya yodgorliklaridan bilib olamiz. Uzoq o'tmishning aks sadolari Eronda keng tarqalgan diniy asar – "Avesto"ning ilk qatlamlarida saqlangan.

Hilma-hil hujjatlardan iborat butun bir arxiv bizgacha faqat Elam davridan etib kelgan. Er.av. VI asrdan boshlab Ahmoniylarning yozuvlari paydo bo'la boshlagan. Ko'p masalalarni hal etishda Gerodot, qisman Ktesiy va boshqa antik dunyo mualliflarining asarlari yordam beradi.

Elam. Eron xalqlaridan yuqorida bir necha marta tilga olingan elamiylar hammadan oldin tarix sahnasiga chiqqan. Elamiylar mamlakati fors qo'ltig'iga quyadigan ikki daryo - Kerxa bilan Karuna daryolari havzasini va shimol tomonda unga tutushgan tog'li Anchan o'lkasini ishg'ol qilgan. Elamning poytaxti Suza (Kerhi bo'yidagi) tekislikda joylashgan bo'lgan. Arxeologlar bundan (er.av. IV-III asrlardagi) eneolit yodgorliklarini ayniqsa badiiy jihatdan yuksak, naqsh solingan sopol buyumlarini topganlar.

Shu narsa muhimdirki, Elam butun tarixi davomida Ikki daryo oralig'i bilan maxkam aloqada bo'lgan va bu aloqa uning iqtisodiyoti hamda madaniyatiga ta'sir ko'rsatgan. Shu narsa ham ibratlidirki, Elamda paydo bo'lgan o'ziga xos yozuv tizimini mahalliy piktografiya asosidagi ieroglifikani g'arbiy qo'shnilardan o'zlashtirib olgan mixxat er.av. III ming yillikda siqib chiqargan. Dastlab mixxat matnlari akkad tilida yozilgan, er.av. II ming yillikda esa elamiy tilida yozila boshlagan. Elamning Ikki daryo oralig'idagi davlatlar bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari ko'p o'zgarib turgan. Vaqti-vaqti bilan Elam Akkadga (er.av. XXIII asr) va Shumerga (Urning III sulolasi vaqtida - er.av. XXI asrda) qaram bo'lib qolgan. Ammo buning aksi yuz bergan hollar ham bo'lgan, Elam podsholari g'arbiy qo'shinlarning kuchsizlanib qolganliklaridan foydalanib, ularga qarshi hujumga o'tgan. Masalan, eramizdan avvalga XX-XVIII asrlarda tarqoqlik va o'zaro urushlar davrida Elam, Dajla va Frot havzasida o'z nazoratini o'rnatgan.

Er.av. II ming yillikda elamiylar yana kuchayib ketib, Bobilga yurishlar qilgan.

Elamning ijtimoiy munosabatlarida qo'shni Ikki daryo orlig'iga o'xshagan joylari ko'p bo'lgan. Ammo, shu bilan birga, mahalliy xususiyatlari ham bo'lgan, albatta. Bunda tarkib topgan sinfiy jamiyat sharoitida har xil matriarxat qoldiqlari Ikki daryo oralig'idagidan ko'ra uzoqroq saqlangan, bu qadimgi Misrda ro'y bergan shu singari ahvolni eslatadi. Chunonchi, er uchastkalari tamomila ayollar ihtiyorida bo'lgan. Taxt merosligining o'ziga xos tartibi ham ibratlidir, taxt otadan o'g'ilga o'tmagan, balki akadan ukaga o'tgan (fratlarxat).

Er.av. VIII-VII asrlar Elam bilan Osuriya o'rtasida juda qattiq va keskin kurash borgan va bu kurash Ashshurbanipal qo'shinlarining Suzni tor-mor keltirishi bilan tugagan. Shundan keyin Elam mustaqil o'rin tutmagan, ammo elamiy tili fors va babil tillari bilan birga yashayvergan. Behistun yozuvining uch tilda bo'lganligi bunga dalildir.

Elamning qulashi yangi xalqlarning, endi bu gal eron tili guruhidagi midiy va forslarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Midiya. Midiya shimoli-g'arbiy Eronda joylashgan edi. Mamlakatning g'arbiy qismi Zagros tog'i hududi bo'lib, keyinchalik Midiya Atropatenasi deb atalgan. Atropatenadan sharqda Midiyaning tekislik qismi joylashgan. Er. av. III-II ming yilliklarda bu hududlarda kassit, kutiy, xurrit tillarida so'zlashadigan o'troq va chorvadorlar yashaganlar.

Yunon an'analariga ko'ra, Midiya davlatini podsho qilib saylagan Deyok degan kishi barpo qilgan va yakka hokimlik o'rnatgan. Midiya poytaxti Ekbatana (hozirgi Hamadon) ni barpo qilgan kishi ham o'sha deydilar. Ekbatana oddiy bir qishloq bo'lib, Deyok uni bir necha devor bilan qurshab olingan mustahkam qal'aga aylantirgan.

Midiya hukmdorlaridan eng atoqlisi va Midiya davlatining ayni tashkilotchisi Kiaksar bo'lgan (er.av. 625-585 yillar). U Osuriyaning Babil va Elamga qarshi kurashi natijasida zaiflashib qolganligidan, butun Old Osiyoga skiflarning bosqinchilik xujumidan imkon boricha foydalangan. Urushqoq shimoliy qabilalarning bu harakatidan garchi qisman bo'lsa-da, Midiyaning o'z territoriyasi

ham zarar ko'rgan bo'lishiga qaramay, Kiaksar skiflarni tinchitgan va hatto o'z xizmatiga og'dirishga muvaffaq bo'lgan.

Ossuriya Elamni tor-mor keltirgani bilan uni o'zlashtirishga kuch va imkoniyati qolmagan, keyin Elam Midiyaning ta'sir doirasiga kirib ketgan. Kiaksar o'zini tiklab olgan Bobil bilan inoqlashgan. Qadimgi mualliflar Kiaksarning qabilalardan terilgan lashkarlardan iborat avvalgi terma qo'shini o'rniga muntazam armiya barpo qilishi uning eng katta muvaffaqiyati deb hisoblaydilar.

Ossuriya bilan kurash ajoyib yutuq bilan tamom bo'lgan. Kiaksar er.av. 612 yilda Ossuriyaning poytaxti Nineviyani egallagan va osur merosini Bobil podshosi Nabupalasar bilan bo'lishib olgan. Urartu territoriyasining kattagina qismi va Kichik Osiyoning sharqiy qismi – Kappadokiya ham Midiya davlati tarkibiga kirgan.

Midiya er-mulklarning g'arbga qarab kengayishi shu bilan tugagan. Lidiya bilan urush Kiyaksar uchun juda og'ir bo'lgan va u (Bobilning vositachiligida) sharq bilan yunon olami o'rtasidagi savdo-sotiq ishlarini o'z qo'lida ushlab turgan qudratli va boy davlat bilan bitishishni afzal ko'rgan. Kiaksar bilan Lidiya podshosi Aliatt o'rtasidagi bitimga muvofiq Galis daryosi ikki davlatning chegarasi bo'lib qolgan.

Kiaksarning o'g'li, Midiyaning oxirgi podshosi Astiag davrida Yangi Bobil podsholigi bilan bo'lgan do'stona munosabatlar buzilgan. O'rtada nizo chiqishiga har ikki tomon da'vo qilgan chegaradagi Xarran shahri sabab bo'lgan. Midiya qo'shinlari g'arbda Bobil podshosi Nabonidga qarshi juda shiddatli janglar bilan band bo'lib turganida Eronning janub qismi-Midiya podshosining oliy hukmronligi ostidagi fors podsholigi Astiagga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Er. av. 585-550-yillarda podsholik qilgan Astiag davrida Midiya katta va qudratli davlatga aylanadi. Bu vaqtda Elam ham qo'shib olinadi..

Qo'zg'olonga Axmoniylar xonadonidan bo'lgan va Midiya hukmronligi ostidagi boshqa hokimlar kabi podsho unvoni olgan Kayxusrav II boshchilik qilgan. Gerodotning aytishicha (u ancha ishonchli ananadan foydalangan bo'lsa kerak), Kayxusrav Astiagning (ona tomonidan) nevarasi bo'lgan. Bunda shu narsani ham nazarda tutish kerakki, midiylar bilan forslar bir biriga yaqin qarindosh xalqlardir. Yunon mualliflari ba'zan hatto forslarni midiylar deb ataydilar, ularning bunday

deyishi tasodifiy narsa emas, albatta. Eronning asosiy halqini tashkil etgan forslar bilan midiylarning tillari va madaniyatlarida umumiylik ko'p bo'lgan Kayxusravning qo'zg'oloni er.av. 553 yilda boshlanib 3 yil davom etgan. Astiag bu kurashda katta g'ayrat ko'rsatgan, lekin armiyaning bir qismi g'arbda band bo'lganligi va o'z ichidan xoinlar chiqqanligi tufayli ish pachava bo'lgan. 550 yilda Astiag taxtidan ag'darilib, bir qancha vaqtdan keyin o'ldirilgan (manbalarga ko'ra Kayhisrav bundan behabar bo'lgan) va Midiya forslarga tobe qilingan.

Ahmoniyar davlatining tashkil topishi. Kayxusravning Astiag ustidan qilgan g'alabasi natijasida qadimiy fors davlati vujudga keltirilgan va (Ahman barpo qilgan podsho xonadonining nomi bilan) Ahmoniyar davlati deb yuritilgan. Bu davlat (er.av. 330 yilgacha) ikki asrdan ziyodroq yashagan. Eronliklarning janubiy avlodi bo'lmish forslar bu davlatda asosiy o'rin tutganlar. Midiylar ikkinchi o'rinda bo'lganlar, ularning ko'pchiligi Kayxusrav tomoniga o'tib, evaziga anchagina imtiyozlarga ega bo'lganlar.

Midiylarning mag'lubiyatidan Bobil podshosi Nabonid xursand bo'lgan, negaki midiylar taxtid solib turgan oy xudosi Sinaning muqaddas shaxri Harranning xavfsizligi ularning mag'lubiyati bilan ta'min etilgan. Lekin yangi davlatning barpo qilinishi Kayxusravning bundan keyingi istilochilik rejalaridan havf olgan g'arbiy qo'shinlarini tashvishga solgan.

Forslar podshosiga qarshi katta bir ittifoq tuzilib, bunga Eronning bevosita qo'shnilari (Yangi Bobil podsholigi, Lidiya)gina emas, balki ancha olis Misr ham qo'shilgan. Shuningdek, Gretsiyadan ham yordam kelishi kutilgan.

Turli davlatlarning bunday keng ko'lamdagi (Ossuriyaga qarshi ittifoqni eslatadigan) ittifoqning tuzilishi qadimgi dunyoda xalqaro aloqalarning mustahkamlanib va rivojlanib borishidan guvohlik bergan.

Bu davlatda hunarmandchilik g'oyat taraqqiy qilgan, undagi bo'yoqchilik ustaxonalari ayniqsa shuxrat qozongan, ular jun gazlama va fil suyaklarini to'q qizil rangga bo'yashda Finikiya ustaxonalari bilan raqobatlashgan.

Lidiyaning so'nggi podsholari Aliyatt va Krez davrida mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti siyosiy qudratning kuchayishi bilan qo'shib borgan. Kichik Osiyoning

katta qismi, shu jumladan, yunonlarning dengiz bo'yidagi (Milet dan boshqa) koloniyalari ham Lidiya hukmronligi ostiga tushib qolgan.

Kayxusrav Lidiyaga qarshi o'tlanib ularning tanlagan otliq qo'shinini tor-mor keltirgan. Kayxusrav lidiylarga qarshi ularga ma'lum bo'lmagan tuya minib jang qiladigan askarlarni yuborgan. Shundan keyin fors podshosi jadal zarba bilan Lidiyaning poytaxti Sardni ishg'ol qilgan.

Lidiyadan keyin Bobilga navbat kelgan. Bobil podsholigining ichki nizolar tufayli kuchsizlanib qolganligini yuqorida aytib o'tgan edik, U endi o'zining qudratli mudofaa inshootlarini Kayxusrav qo'shiniga qarshi ishlata olmagan. Kayxusravning o'zi (bizgacha etib kelgan yozuvlarda) "Bobilga osoyishtalik bilan kirib keldim" degan va muqaddas shaharning barcha imtiyozlarini tasdiqlab uning xudolariga hurmatini izhor qilgan. Ikkinchi tomondan Kayxusrav toqatsizlik bilan uning kelishini kutib turgan yaxudiylarni o'z tomoniga og'dirgan. Bir vaqtlar bobilliklar haydab olib kelgan bu yahudiy aholisining umidi puch bo'lmagan. Kayxusrav ularni "Bobil qulligi" dan qutqazib Falastinga qaytib ketishlariga va qaytib Quddusni tiklashlariga ruxsat bergan. Misrga mo'ljallanayotgan hujum uchun zarur platsdarm ana shunday qilib Kayxusrav qo'lga kirib qolgan. Kayxusrav xuddi shu maqsadini amalga oshirish va O'rta dengiz sohillarida o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun Finikiyaning savdo-sotiq shaharlari bilan murosa qilishga harakat qilgan, chunki bu shaharlarning flotidan foydalanishni mo'ljallagan.

Dehqonchilik madaniyatining ikkinchi o'chog'i (hozirgi Turkmaniston tuprog'idagi Murg'ob vodiysi) Marg'iyonada bo'lgan.

O'sha dehqonchilik zonalari atrofidagi bepayon cho'llarda podachi sak-massaget qabilalari ko'chmanchilik qilgan. Kayxusrav shimoli-sharqiy o'lkalarni qat'iy o'ziniki qilib va unumdor Amudaryo vodiysiga olib boradigan yo'llarni qo'lga kiritish niyatida mana shu urushqoq qabilalar ustiga o'zi uchun fojeali yurush qilgan. Shu bepayon cho'llarda forslar qo'shinini dushman qurshab olgan va undagi janglarning birida Kayxusrav halok bo'lgan. Gerodotning aytishicha, massagetlar malikasi istilochining tanasidan judo qilingan kallasini qon bilan to'ldirilgan meshga solgan va mana endi qonga to'y, deb xitob qilgan. Mahalliy ananalardan olib chiqqan

afsonada Qora dengiz bo'ylaridagi va Tog'li Oltoy skiflariga qarindosh erkin sak qabilalarining doim istiloga intilgan bosqinchi fors podshosiga qarashlari ifoda etilgan.

Lekin Kayxusravning mag'lubiyati va halokati Ahmoniylar davlatining kengayib borishiga to'siq bo'lmagan. Misrga bostirib kirish niyatida Kayxusrav tayyorlagan ishni uning o'g'li Kambiz (er.av. 529-523 yillar) amalga oshirgan. U ham otasiga o'xshab harbiy tadbirlar bilan birga diplomatiya usullarini ham ishlatishga harakat qilgan. Kambiz o'zining qo'shinlarini Falastinga to'plab, Sinay sahrosi orqali Misr chegaralariga boradigan yo'llarga egalik qiluvchi arablar bilan bitishishga kirishgan. Shu orqali u o'z qo'shinini tuyalarda tashiladigan suv bilan ta'min qilgan. Dengizda forslarning o'z floti bo'lmagan, ammo ular finikiyaliklarning va qisman yunonlarning kemalaridan to'la foydalanganlar. Buning ustiga XXVI sulolaning so'nggi fir'avnlari vaqtida dengiz kuchlariga qo'mondonlik qilgan mansabdor xoinlik qilgan degan gap ham bor. Bundan tashqari Misrdagi yunon yollanma askarlarining komandiri Fanat ochiqdan-ochiq Kambiz tomoniga qochib o'tib, unga g'oyat katta xizmatlar ko'rsatgan. Fors qo'shinlari Misr chegaralariga yaqinlashib qolgan paytda Misrning g'ayratli fir'avni Amasis to'satdan o'lib qolgan.

Mana shu hamma noqulay vaziyatlarga qaramay, Misr qo'shinlari Pilusiya yonidagi chegara janglarida istilochilarga qattiq qarshilik ko'rsatgan. Shundan 70 yil o'tib Gerodot shu erga kelib jang maydonini tomosha qilgan va unda g'oyat ko'p o'ldirilgan kishilarning suyaklarini ko'rgan. Forslar bu jangda Misr askarlarining mardligini bukishga muvaffaq bo'lganlar, keyin ularning muvaffaqiyatiga hech nima to'sqin bo'lmagan. Memfis bosib olingan va Amasisning o'g'li fir'avn Psammetix III faqat bir necha oy podsholik qilib asir tushgan (keyinroq qatl qilingan).

Kambizning Efiopiyani bo'ysundirishga urinishi muvaffaqiyatsiz bo'lgan. U tabiiy g'ovlardan o'tolmagan va o'z mustaqilligini himoya qilayotgan aholining qattiq qarshiligini sindira olmagan.

Fors davlatining o'zidan ham ishkallik tug'ilgan. Kayxusrav vaqtida qilingan eski patriarxal odatlar bilan Kambizning hisoblashmay qo'yganligidan va uning mustabidlik xatti-harakatlaridan harbiy zodagonlar doirasida norozilik tug'ila

boshlagan. Kambiz o'zining ukasi Bardiyanini xoinlikda shubha qilib, fitnachilar unga tayanib ish ko'radi deb o'ldirishga maxfiy buyruq bergan. Ammo bu hol voqeaning tezlashishiga sabab bo'lgan, xolos. Shahzodaning o'ldirilganini deyarli hech kim bilmagan va afti-basharasi Bardiya juda o'xshagan Gaumata degan bir midiy kohin bundan foydalanib, qo'zg'olonga boshchilik qilgan. Fors davlati, Midiya va boshqa mamlakatlar uning tomoniga o'tgan.

Kambiz qo'zg'olonni tinchitish niyatida shosha-pisha Misrdan vataniga jo'nagan, lekin qaytishda juda sirli va shubhali vaziyatda halok bo'lgan (ovozalarga ko'ra, u tasodifan qoqilib o'z hanjariga o'zi qadalib o'lgan emish).

Lekin Bardiya nomini olgan Gaumata mamlakatni uzoq vaqt idora qila olmagan. U istilo qilingan mamlakatlar aholisiga tayanib ish ko'rgan, ularni bir necha yil oldin soliqlaridan ozod qilgan. Biroq Eronning o'zida qarshilikka duch kelgan va agar unga dushman (Behistun yozuvlarini yozgan) yilnomachilarning gapiga ishonadigan bo'lsak, u bir qancha zo'rliklar qilgan, jamoa yerlari va uydagi kishilarni (qullarni bo'lsa kerak), qabila ibodatxonalarini vayron qilgan.

Fors xarbiy zodagonlari orasida yangi podshoning qallobligi to'g'risida ovozlalar tarqalib ketgan. Ettita mansabdor fitna uyushtirib, natijada Gaumata o'ldirilgan. Fitnachilar taxtni Ahmoniyalar xonadoning urug'-aymog'idan bo'lgan Gistasping o'g'li Doroga topshirishgan. Doroning taxtga ega bo'lish huquqi to'g'risida qarshiliklar va bahslar bo'lgan, ana shu bahs va qarshiliklarni bartaraf qilib, taxtga bo'lgan huquqini mustahkamlash uchun u Kayxusravning qiziga uylangan.

Doro I (er.av. 522-486 yillar) hukmronligi davrida Axamoniylar davlati.

Doro I taxtga o'tirishi bilanoq mamlakatning turli burchaklarida (Bobilda, Elamda, Lidiya va boshqa joylarda) boshlangan qurolli qo'zg'olonlarga qarshi shiddatli kurash olib borishga majbur bo'lgan. Eramizdan avvalga 522 yil butunlay o'sha qo'zg'olonlarni bostirish bilan o'tgan.

Doro I taxtga mustahkam o'tirib olgach, ko'p qabilali davlatning butun boshqarish tizimini qayta qurishga kirishgan, ma'muriy va moliyaviy ishlarga doir bir qancha islohotlar o'tkazgan. U mamlakatni 20 ta satrapga bo'lgan. Har birining

tepasiga noib (satrap) qo'yilgan. Bu viloyatlarda joylashtirilgan qo'shin qismlariga alohida harbiy boshliqlar qo'mondonlik qilingan. Shu bilan birga, satraplar bilan harbiy boshliqlarning bir-biri ustidan chaqimchilik qilishlari rag'batlantirilgan. Har ikkalasining ham chaqimchiligi, ularni o'z vazifalarini vijdonan halol bajarganliklarining alomati hisoblangan.

Bundan tashqari butun mamlakatga "podshoning ko'zi va qulog'i" deb g'alati nom olgan nazoratchilar yuborilgan. Istagan bir kishi ustida shubha tug'ilishi bilanoq ushlab olinib, garchi satrap bo'lsa ham qatl qilinishi mumkin bo'lgan.

Juda keng davlatning turli qismlari o'rtasida aloqani osonlashtirish maqsadida tosh terilgan keng yo'llar qilingan. Bu yo'llarning eng kattasi (Persepol, Ekbatan va Bobil bilan bir qatorda Axmoniylarning rezidentsiyasiga aylantirilgan) Suza (Elamning sobiq poytaxti)dan Egey dengizi qirg'og'odagi yunonlar koloniyasi Efesga olib borgan. Bu yo'llarda bir-biriga yaqin ot bekatlari qo'yilgan. Chopqir ot mingan chavandozlar podshoning xatlari va posilkalarini (estafeta tartibida) bir bekatdan ikkinchisiga olib borganlar.

Soliqlar tizimiga alohida e'tibor berilgan. Doro I ni "savdogar" deb ataganlari bejiz emas. Avvalgi tasodifiy va tartibsiz yigimlar ("tortiqlar") o'rnida ham pul bilan ham mahsulot bilan to'lanadigan badallarning aniq miqdori belgilangan. Mamlakatning fors qabilalari joylashgan asosiy qismi Persidadan boshqa butun hududiga xiroj solingan. Xirojning umumiy miqdori 1400 talant (400 tonna) kumushga etgan. Uning eng og'ir qismi eng boy satraplarga, ya'ni Bobil bilan Misr o'lkalariga tushgan.

Soliqlarni to'plash uchun vositachilardan foydalanganlar. Bu olg'ir korchalonlar soliqlarni sotib olib tegishli pulni oldindan xazinaga topshirganlar, keyin aholidan ortig'i bilan shilib olganlar. Bobildagi savdogar-sudxo'r "Murashu xonadoni" ning yirtqichliklari to'g'risidagi hujjat saqlangan. Bu korchalonlar kompaniyasining vakillari fors amaldorlariga ochiqdan-ochiq pora berganlar uning evaziga amaldorlar talangan aholining shikoyatlarini natijasiz qoldirganlar.

O'z davlatining turli qismlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish savdosotiqni va pul xo'jaligini jonlantirishni ko'zlab, Doro I Lidiya va Gretsiyadagi kabi

tanga pul tartibini o'rnatgan. Oltin darik (8 gramm oltin) asosiy tanga pul bo'lib, uni faqat podsho zarb qildirgan (kumush tanga pullarni esa satraplar ham zarb qildirishi mumkin bo'lgan).

Doro I g'ayrat bilan samarali tashqi siyosat olib borgan. U bir zamonlar Kayxusravni tor-mor qilgan sak-massagetlarni engishga muvaffaq bo'lgan va O'rta Osiyoga chiqadigan yo'lni ochgan.

Keyinchalik, Gerodotning aytishicha, fors podsholari Amudaryodagi shlyuzlarni o'z qo'llariga olganlar va bu ularga dehqonlarni suvdan mahrum qilish bilan qo'rqitib, ulardan "tortiq" lar olib turishga imkon bergan.

Doro I sharqda Hindistonning bir qismini (Hind havzasidagi qismini), g'arbda esa, Kirenaikani (Afrikada) Egey dengizidagi ba'zi orollarni (jumladan, Samos orolini), shuningdek, Frakiya bilan Makedoniyani o'ziga bo'ysundirgan. Ammo Qora dengiz bo'yidagi skiflarni va Yevropadagi yunonlarni ham o'z hukmronligi ostiga olish yo'lidagi intilishlari tamomila muvaffaqiyatsizlikka uchragan va bu Ahmoniyalar davlatining zaiflashish tamoniga burilish payti bo'lgan.

Er. av. 559 yilda fors podshosi bo'lgan Kayxusrav II keyingi ikki yil davomida Parfiya va Girkaniyani bosib oladi. Er. av. 545 va 539 yillarda Kayxusrav hozirgi Afg'oniston, O'rta Osiyo yerlarini bosib oladi. Fors davlat hududi Hindistonning shimoliy-g'arbiy chegaralarigacha, Hindikushning janubiy yonbag'irlari va Sirdaryo havzalarigacha etdi. Kayxusrav shimoli-sharqiy yo'nalishlarda o'z ta'sirini mustahkamlagach, Bobilga yurish qiladi. 539 yilda ikki oy davomida avgust-sentabr oylari Bobil yerlari bosib olinadi. Bobil podsholigi rasman saqlab qolinadi, uning ijtimoiy tuzilmasi o'zgartirilmaydi. Bobil shahri fors podsholari turadigan qarorgohlardan biriga aylanadi. Bobil davlat apparatida bobilliklar etakchi o'rinda qolaveradi, bobilliklarning qadimgi diniy e'tiqodlariga fors podsholari homiylik qiladilar. Amalda Bobil mustaqil siyosiy birlashmadan ahmoniyalar satrapiyasi (viloyatiga) aylanadi, mamlakat mustaqil siyosat yuritishdan mahrum bo'ladi, ichki siyosatda oliy harbiy va ma'muriy hokimiyat fors podshosi noibi qo'lida bo'lgan.

Bobil bosib olinganidan so'ng, barcha g'arbiy mamlakatlar (Suriya, Falastin, Finikiya) Misr chegarasigacha forslar qo'lga o'tadi. Finikiya, Bobil va Kichik

Osiyoning savdo-hunarmandlar qatlamlari tranzit savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minlaydigan kuchli markazlashgan davlatdan manfaatdor bo'lganlar. Shu sababli ular fors davlatini qullab-quvvatlaydilar.

Kayhusrav Yaqin Sharqdagi Misr chegaralarini bosib olgach, fors davlatining shimoli-sharqiy chegaralari xavfsizligiga jiddiy xavf solib turadigan O'rta Osiyodagi ko'chmanchi qabilalar ustiga yurish boshlaydi. Kayxusrav er. av. 530 yilda Amudaryoning shimoliy qismiga o'tadi. Massaget qabilalari fors bosqinchilarini o'z yerlarida tor-mor qiladilar. Kayxusrav ham bu jangda halok bo'ladi.

Er. av. 530 yil avgust oyida fors taxtiga Kambiz (Kombiz) o'tiradi. Misr ichki nizo-g'alayonlar girdobida qolgan edi. Forslar Misrga yurish qilib, uning qo'shinini tez tor-mor qiladilar. Flot urushsiz taslim bo'ladi, fir'avn Psammetix asirga tushadi. Bu voqea er. av. 525 yilda yuz beradi.

Misrni bosib olgach, Kambiz Efiopiyaga qarshi urush boshlaydi. Etarlicha oziq-ovqatga ega bo'lmagan qo'shin suvsiz sahroga tushib qoladilar. Qo'shinda odamho'rlik boshlanib, Kambiz chekinishga majbur bo'ladi. Kambiz Memfisga qaytib, Misrda boshlangan qo'zg'olonni bostiradi. Kambizning vorisi Doro 1 ning Behistun qoya yozuvlarida bayon qilingan (rasmiy farazlariga ko'ra), Kambiz Misrga kelguniga qadar o'zining ukasi Bardiyadan shubhalanib, uni maxfiy ravishda o'ldirishga buyruq beradi. Mag Gaumata ismli kimsa bundan foydalanib, o'zini Bardiya deb e'lon qiladi va u 522 yil 2 martda Bardiya nomi bilan taxtga o'tiradi. Bardiya Gaumata qaram xalqlarni o'ziga moyil qilish uchun soliq va harbiy majburiyatlarni uch yilga bekor qiladi. U fors urug'-zodagonlarining imtiyozlarini bekor qilish, ularning iqtisodiy va siyosatdagi hukmronligini o'rni tugatish siyosatini yuritadi. Shu sababli u mamlakatdagi keng xalq ommasining qo'llab-quvvatlashiga erishadi.

Hozirgi tadqiqodchilarning fikriga ko'ra, Gaumata to'g'risidagi faraz yolg'on, hokimiyatga haqiqiy Bardiya kelgan. U etti oylik boshqaruvdan so'ng, 522 yil 29 sentabrda etti fors urug'i aslzoda vakillari bo'lgan fitnachilar tomonidan o'ldiriladi. Fitnachilardan biri 28 yoshli Doro 1 (er. av. 522-486 yillar) podsho bo'ladi. U urug' aslzodalari oliy tabaqasiga mansubligi tufayli Bardiya bekor

qilgan imtiyozlarni qayta tiklaydi. Doro 1 taxtga O'tirishi bilan unga qarshi Bobilda ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirayotgan bir vaqtda Fors, Midiya, Elam, Marg'iyona, Parfiya, Sattagidiya (hozirgi Afg'onistonda) O'rta Osiyoning sak qabilalari va Misr qo'zg'olon ko'taradilar. Forsda o'zini Bardiya deb e'lon qilgan Vaxayazdata nomli kimsa Doroga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, sharqiy Eron viloyatlari va Afg'onistongacha bo'lgan hududlarni bosib olgan. Er. av. 521 yil 16 iyulda Doro Vaxayazdata qo'shinlarini tor-mor qilgan.

Midiyada o'zini Midiya podshosi Kiaksar urug'idan deb hisoblagan Fravartish (Fraorti II) hokimiyatni qo'lga oladi. Doro bu qo'zg'olonni ham bostiradi. Er. av. 521-yil yoziga kelib Doro qo'shinlari besh jangdan so'ng, Afg'onistonni tinchlantiradi. Doroning qaynotasi Dadarish Parfiya va Girkaniyadagi g'alayonlarni bostirgan. Bu vaqtda Bobilda so'nggi qo'zg'olon boshlanib, er. av. 521 yil 27 noyabrigacha davom etadi. Doro II taxtga chiqqanidan so'ng bir yil o'tgach, o'z hokimiyatini mustahkamlab oladi. Fors davlatini Bolqon Yunonistonida g'olibona boshlagan urushi Kserks (er. av. 486-465-yillar) uchun mag'lubiyat bilan tugatdi. Er. av. 449yil "Kalliy" sulhiga ko'ra forslarni Yevropadagi mulklari, Kichik Osiyodagi yunon shaharlaridan voz kechildi. U Kayxusrav, Kambiz hukmronligi davridagi eski chegaralarda qayta tiklaydi.

Keyingi podsholik davrida ichki ziddiyatlar, satraplarning o'zboshimchaligi, O'rta Osiyo saklaring Misrdan ajralib chiqishi yuz berdi. Lekin davlat chegaralari o'zgarmay qolaverdi. Faqat er. av. IV asrda g'ayratli Artakserks III er. av. 404 yilda ajralib ketgan Misrni er. av. 343-342-yillarda yangidan bosib oldi. Kichik Osiyodagi yunon shaharlari ustidan yana nazorat tikladi. So'nggi Eron podshosi Doro III jur'atsiz, qo'rqqoq er. av. 334-330-yillarda yunon-makedonlar hujumini qaytara olmadi. U Issa yonidagi jangda (er. av. 333-yil) va Gavgamela yonidagi hal qiluvchi ikki jangda Iskandardan yengildi. Doro III engilgach Baqtriyaga qochib ketdi va u yerda o'z yaqinlari tomonidan o'ldirildi. Shu bilan ahmoniyalar Eroni davlati quladi.

Satrapliklar ro'yxati Bexistun qoyatoshlari va boshqa qadimgi fors yozuvlarida keltirilgan. Ularda 23 mamlakat sanalgan. Gerodot tarixida yigirma satraplik keltirilgan. Gerodot 20 satraplik tarkibida ahmoniyalar davlati tarkibiga kirgan 70 ta

shaharni sanaydi. Gerodot va ahmoniylar yozuvlaridagi farqlarning mavjudligining sababi satrapliklar soni va chegaralari yangi bosqinchilik urushlari eki ma'muriy islohotlar natijasida o'zgarib turgan. Fors podsholari muntazam ravishda satrapliklarni bo'lib turganlar, ularning soni oshib, hududlarning hajmi kichraygan. Misol uchun Doro II davrida Kichik Osiyo to'rt satraplikka, Doro III davrida etti satraplikka bo'lingan.

Satrap va harbiy boshliqlar markaziy hokimiyatni, podshoning va ayniqsa uning maxfiy xizmatining doimiy nazorati ostida bo'lganlar. Chunki viloyatlar satraplari doimo mustaqillikka intilishga harakat qilib, ajralib chiqish xavfini tug'dirganlar. Davlat boshqaruvi va barcha amaldorlar ustidan oliy nazorat xazorapat deb atalgan mansabdor qo'lida bo'lgan. U bir vaqtni o'zida «O'n ming o'lmas» podsho shaxsiy gvardiyasining boshlig'i bo'lgan.

Fors podsholigi qudratining asosi fors va midiyaliklar tashkil qilgan jangovar qo'shin belgilagan. Qo'shinnig jangovar qobiliyatini tashkil qilishda fors va midiyaliklardan tashqari O'rta Osiyoning sak jangovar qabilalari, baqtriyaliklar muhim o'rin tutganlar. Saklar asosan imtiyozli otliq qo'shinlarda xizmat qilganlar. Xarbiy qal'a, garnizon, tayanch punktlarda odatda oliy harbiy mansabni forslar egallaganlar. Qo'shin otliq va piyoda qismlardan tashkil topgan. Otliq qismlar, zodagonlardan, piyodalar dehqonlardan olingan. Bu ikkala qismlarning uyg'un harakati urushlarda g'alabani qo'lga kiritishga sabab bo'lar edi. Piyoda qo'shining asosiy quroli kamon, suvoriyning qurol-aslahasi temir sovut, jez qalqon va ikki temir nayza bo'lgan.

Misr Yunonistonga g'alla, polotno eksport qilib, vino va zaytun moyi sotib olgan, boshqa viloyatlarni oltin, fil suyagi bilan ta'minlagan. Hindistondan oltin, fil suyagi, xushbo'y moylar, Arabistondan oltin, So'g'diyonadan lazurit, serdolik, Xorazmdan feruza chiqarilgan. Bolqondagi yunon shaharlari kulolchilik mahsulotlari, Bobil g'alla, Kichik Osiyo temir va boshqa rudalarni ishlab chiqaradi. Xalqaro dengiz savdosi finikiyaliklar qo'lida qoladi.

Qadimgi jamiyatda qullar mehnatidan foydalanish yuqori darajada edi. Qullar oldi-sotdi qilingan va turli ishlarda ishlatilgan. Asir qullar soni juda ko'p edi, fors

podsholarining markazlashgan yirik xo'jaliklarida ishlaydigan ishchilar (kurtashlar deb atalgan), boshqa joylardan qul qilib olib kelingan. Kurtashlarning bir qismi davlat fuqarosi deb hisoblangan.

Ahmoniyar davlati uchun turli xalqlarning madaniyati va diniy qarashlarni sinkretizmi xarakterli edi. Mamlakat turli hududlarining doimiy iqtisodiy - ijtimoiy va siyosiy aloqasi, madaniyatlarining o'zaro ta'siriga ijobiy turtki beradi. Turli xalqlarning yagona davlat hududiga yashab turishi xalqlarning, ilmiy bilimlari, san'at va adabiyotlarning bir-birini boyitishiga olib keldi.

Forslar va boshqa xalq-elatlar Babil, Misr va Elamning qadimiy madaniyatlarini o'zlashtirib oladilar. Forslarning eng katta madaniy yutuqlaridan biri o'ziga xos mixxatning yaratilishi bo'lgan. Fors mixxati akkad alifbosidan farq qilgan holda bor-yo'g'i 40 belgidan iborat bo'lib deyarli alifboli yozuv bo'lgan.

Qadimgi fors san'ati, Eron madaniyati an'analari Babil, Misr, Ossuriya va boshqa xalqlarning badiiy an'analari va texnika usullarining sintezi edi. Qadimgi fors san'ati namunalari ishida nozik did bilan toshdan ishlangan vazalar, metall qadah, fil suyagidan yasalgan riton qadahlar, zeb-ziynat buyumlari, lazurit haykallar mavjud. Badiiy buyumlar ishida agat, xalqidon, yashma kabi qimmatbaho toshlardan ishlangan silindrsimon muhrlarda podsholar, afsonaviy qahramonlar va afsonaviy mavjudotlar tasviri tushirilgan. Ular nihoyatda mohirlik bilan yasalgan bo'lib, haqiqiy san'at asari xisoblanadi. Fors san'atida ayniqsa o'simlik va xayvonlarni hayotiy tasvirlari bo'lgan badiiy buyumlar bizni hozirgacha hayratga soladi.

Ahmoniyar davlatining madaniyati. Ahmoniyar davlati tarkibida hilma-hil madaniy yutuqlarga ega bo'lgan ko'pdan-ko'p xalqlar bo'lgan. Forslar hukmron xalq bo'lib olib, bu madaniy xazinadan keng foydalanganlar. Shu bilan birga ular bu madaniyatlarni ijobiy ravishda qayta ishlab o'zlashtirganlar. Forslar mixxatni o'zlashtirganliklari va takomillashtirganliklari to'g'risida gapirgan edik. Ular mixxatdagi juda ko'p ortiqcha alomatlarni yo'qotib faqat 42 alomat qoldirganlar. Idoralardagi (ko'nga, papyrusga, sopol taxtalarga yoziladigan) yozishmalar uchun oromiylarning alifbosini ishlatganlar.

Fors podsholari o'sha davrda eng o'tkir deb hisoblangan Misr tabiblarini o'zlarining xizmatiga jalb qilganlar. Ammo Doro I podsholik qilgan davrda Misr tabiblari o'rniga yunon tabiblari keltirila boshlangan.

Forslar Bobil va yunonlarning kalendar hisobi bilan tanish bo'lgan, degan ma'lumot bor.

Yuqorida aytib o'tilgan "Avesto" Eron tili guruhi halqlarining ajoyib badiiy asaridir, u O'rta Osiyoda vujudga kelib, keyinchalik Midiya va Persiyaga tarqalgan, shu bilan birga, dastlabki nushasiga (Gatiga) ko'p qo'shimchalar qo'shib borilgan.

"Avestoda" targ'ib qilingan diniy ta'limot qadimgi payg'ambar Zaratushtra (yoki yunonlar ataganicha Zoroastra)ga mansub deyilgan, ammo uning to'g'risida bizga hech nima ma'lum emas. Bu ta'limotning mohiyati ikki ilohiy manbani, yaxshilik xudo Ahuramazda bilan yovuzlik xudo Ahrimanni bir-biriga qarama qarshi qo'yishdan iborat.

Axuramazda uy hayvonlari va madaniy o'simliklar to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan tinch mehnat homiysidir. Uni aziz bilganlar erga ishlov berishi, chorva mollarini ko'paytirishi, yovvoyi hayvonlarni yo'q qilmog'i kerak. Ahriman inson ijodiy faoliyatining dushmani, yirtqich hayvonlarning homiysi, urushqoq ko'chmanchilarning tinch hayot kechiruvchi o'troq aholini talashiga ko'maklashuvchi qilib ta'riflanadi.

Zoroastra dinining karakterli alomati shuki, bu din murdani erga ko'mishni ham, kuydirishni ham taqiqlaydi. "Murda erni va o'tni xarom qiladi" deb hisoblangan. O'liklarni yirtqich qushlarga em qilib tashlash lozim ko'rilgan. Hindistonda, Bombeyning bir rayonidagi uncha katta bo'lmagan fors mazhabi hozir ham shu odatni saqlaydi. "Avesto" matnini ham xuddi o'sha forslar saqlaganlar.

Shu narsa diqqatga sazovorki, Ahmoniylar Ahuramazdani aziz bilganlari holda "Avesto"ni tan olmagan bo'lsalar kerak. Qadimgi fors podsholarining hech bir yozuvida Zaratushtra tilga olinmaydi. Shuningdek, fors podsholarining (Kayxusravdan boshlab) maqbaralari saqlangan, bu esa „Avesto"ning taqiqiga hech ham to'g'ri kelmaydi. Zorastrizm faqat Parfian va Sosoniylar podsholigi vaqtidagina davlat dini bo'lgan.

Doro I ning o'g'li va taxt vorisi Kserks vaqtida diniy islohot qilishga urinilgan. Devlarga ibodat qilish taqiqlangan, Ahuramazda forslarning birdan-bir samoviy tangrisi deb e'lon qilingan.

Lekin bu monoteistlik (bir xudolik) g'oyasi qaror topmagan va Kserks vorislari vaqtida quyosh xudosi Mitra bilan hosildorlik ma'budasi Anaxitga sig'inish keng yoyilgan.

Ahamoniylar san'atining yodgorliklari sinkretizm xarakteridadir. Doro I ning Persepoldagi saroyini qurishda Bobil, Misr, Lidiya va boshqa qaram mamlakatlarning ustalari ishlagan .

Tayanch so'zlar: Kopettog', Dajla, Pomir, Frot, xind-Yevropa, Elbrus, Turkman, Xuroson, Zagros, Horun, Kerxa, Elam, Lulubbey, mixxat, Rersopol, Posagard, Kserks, Geradot, Fukidid, Ksenefont, „Avesto", Elam, kassit, kutey, hurrit Suriya, Falastin, Finikiya, Lidiya, Ossuriya, Diador, Grishman, Zorastrizm, Parfiya, Sosoniylar, Gaumata, Bardiya, Behustun, Elamtu, Midiya, Suza, Kayxusrav, Kambiz, Doro I, Kserks, Arteseks, Doro III, Astiag, Vaxayazdata, satrap, Iskandar, Fravortish, Ahamoniylar, Oromiy, zardushtiylik, sinkretizm, Mitra, Ahriman, Ahuramazda, Naqshi Rostam, Bobil, Persopol, monotistik, Mitra, Got, yunon-makedon.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Eron tabiati va aholisi haqida ma'lumot bering.
2. Qadimgi Eronda ilk davlatlarning paydo bo'lish shart- sharoitlarini tushintirib bering.
3. Eron tarixiga oid manbalar va ularning tavsifi.
4. Eron tarixi tarixshunosligini yoritib bering.
5. Elam davlati va uning shakllanish jarayoni.
6. Midiya davlati va uning taraqqiyoti.
7. Kiaksar va Astiag davrida ijtimoiy, siyosiy va madaniy axvol.
8. Ahamoniylar davlatining boshqaruv tizimi.
9. Doro I davrida olib borilgan istilochilik yurishlari va geografiyasi.
10. Qadimgi Eron madaniyati va uning jahondagi tutgan o'rni.

Glossariy

Suza, Ekbatana, Pasargad - Qadimgi Eron xududida mavjud bo'lgan davlatlarning poytaxt shaharlari.

Midiya – Eronning shimoli-g'arbida joylashgan qadimgi davlat.

Fratixat – taxt merosligining o'ziga xos tartibi bo'lib, taxt otadan o'g'ilga o'tmagan, balki akadan ukaga o'tgan shakli.

Oltin darik – Doro I davrida joriy etilgan 8 grammlik oltin tanga shunday atalib, asosiy pul vazifasini o'tagan.

Kalliy sulxi – Eron va Yunoniston o'rtasidagi er. av. 492-449 yillarda bo'lib o'tgan urushning tugallanishi bilan er. av. 449 yil imzolangan sulh shartnomasi.

9-§. Qadimgi Hindiston. Maurya va Guptalar davlati

Tabiiy sharoiti. Hindiston hududining hajmi va aholisining soni jihatidan qadimdan Osiyoning eng katta mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Hindistonning g'oyat katta qismi ulkan bir yarim orol, deyarli bir materikdan iborat bo'lib, okean va dunyoda eng katta tog' tizmasi bo'lmish Himolay tog'lari uni dunyoning boshqa qismlaridan ajratib turadi. Bir necha tog' yo'llari, dara va vodiylar, xususan, Qobul daryosining vodiysi orqaligina Hindiston qo'shni mamlakatlar bilan tutashgandir.

Yog'ingarchilikning etarli bo'lmasligi qadim zamonlardayoq aholini sug'orib ekin ekishga majbur etgan, Shimoliy Hindistonning tumanlari sersuv Hind, Gang daryolari va uning irmoqlaridan yaxshi suv ichgan bo'lib, bu yerda sug'orib ekin ekish ayniqsa keng yoyilgan.

Hindiston inson xayoti uchun zarur tabiiy boyliklar bilan juda yaxshi zamin etilganligidan, chetdan mahsulot olib kelishgan extiyoj bo'lmagan. Mamlakatning o'simlik va hayvonot dunyosi nihoyat darajada boy. Bunda arpa bilan bug'doydan tashqari qadim zamonlardayoq sholi yetishtirganlar. Bundan tashqari Hindiston paxta, shakarining ham vatani hisoblandi.

Qadimgi Hindistonda hayvonlarning mahalliy turlarini qo'lga o'rgatganlar (masalan, o'rkachli ho'kiz – zebura, Ikki daryo oralig'iga va Misrga Hindistondan olib kelingan). Fillar ham dastlab Hindistonda qo'lga o'rgatilgan va ular asosan harbiy ishda foydalanilgan. Aleksandr Makedonskiy yurishlaridan e'tiboran Yevropa xalqlari kuchli jangovor fillarni jangda ishlatishni hindlardan o'rgana boshlaganlar.

Ikki azim daryoning vodiylari Hindistonning eng qadimgi dehqonchilik zonalaridir. Biri - 5 irmog'i (Panjob) bo'lgan Hind daryosining vodiysi bo'lsa, (o'sha 5 ta irmoq oti bilan vodiya ham Panjob deb nom berilgan), ikkinchisi, bir qancha irmog'i bo'lgan Gang daryosining vodiysidir. Keyinchalik qishloq ho'jaligi mamlakatning janubida ham rivoj topgan.

Aholisi. Eng qadimgi hind adabiy yodgorliklari, shuningdek, antik dunyo avtorlarining guvohliklari qadimgi Hindiston aholisi nihoyat darajada zich bo'lganligi

haqidagi xotiralarni saqlab qoldirgan. Hindiston aholisining etnik tarkibi qadimda (hozirgidek) juda xilma - xil bo'lgan. Janubda qora balandlik qabilalar ko'pchilikni tashkil etgan. Mamlakatning eng qadimgi aholisi dravit tilida, qisman undan ham burungi, dravitdan oldin o'tgan mund tili va boshqa tillarda so'zlashgan. Janubiy Osiyoning hozirgi aholisining katta qismi asosiy evropoid irqiga mansubdir. Faqat yarim orolning janubiy qismi va Shri-Lankaning aholisi irqiy belgilariga qarab (badani, sochini qora rangi va boshqalar) avstroloidlarga yaqin turadi. Shimoli sharqning qator qabilalari janubiy mongoloid irqiga mansubdir.

Shimolda Hind-Yevropa tillari (hind, bengal va boshqalar), janubda dravid (masalan, tamil.) tillarida so'zlashadilar.

Janubiy Osiyoga xos jihat taraqqiyotning merosiyligi va davomiyligidir. Qadimgi va o'rta asrlarda bu yerda keskin etnik o'zgarishlar yuz bermadi. Ijtimoiy munosabatlarda kasta tuzumi va madaniy an'analarning barqarorligi ko'rinib turadi. Qadimgi Hindistonning ko'pgina asarlari hozirgacha hinduizm va buddizmning muqaddas kitoblari hisoblanadi. Yozma manbalar bizgacha juda ko'plab yetib kelgan. Qadimgi Hindiston aholisi xilma-xil bo'lgan, antik davr yunon tarixchilarining asarlarida ham, qadimgi hind eposida, jumladan, «Maxabxarata» da ham ko'rsatilgandir.

Chitaldrug yonida (Janubiy Hindistondagi Maysorda) o'tkazilgan qazishlar vaqtida ustma-ust taxlangan oltita madaniy qatlam topilgan, bu qatlamlarning pastkisidan er. av. IV ming yillikka oid tosh qurollar va geometrik ornamentli keramika, yuqorigi qatlamdan esa eramizning XIII asriga oid buyumlar chiqqan. Bu hol ayrim madaniy qal'alarning eng qadimdan mavjud bo'lganligini hamda Hindistondagi qabila va xalqlarning madaniyati mustaqil ravishda rivojlanib kelganligini ko'rsatadi.

Manbalar. Dunyodagi eng katta mamlakatlardan biri bo'lgan Hindis-tonning qadimiyati haqida ma'lumot beradigan manbalar juda ko'pdir.

Tadqiqotlar taxlili shuni ko'rsatadiki, qadimgi Hindistonda katta davlatlar mavjud bo'lganligidan dalolat beruvchi eng qadimgi yodgorliklar er. av. III ming yillikka oiddir. Qazishlar vaqtida shu narsa aniqlandiki, Hindiston tarixining shu

davridayoq Hindistonda katta shaharlar mavjud bo'lgan, mamlakatda o'ziga xos hieroglif yozuviga ega bo'lgan qabilalar yashagan. Qadimgi Hindiston madaniyati ravnaq topib, er.av. 1 ming yillikda eng yuksak darajaga etgan. Qadimgi hind madaniyati qo'shni xalqlarning madaniy taraqqiyotiga anchagina ta'sir ko'rsatgan, bunga, xususan, Osiyodagi ko'p mamlakatlarda buddizmning yoyilganligi dalildir□.

Qadimgi Hindistonning tarixini o'rganishda qadimgi hindlarning Vedalar deb ataladigan diniy to'plamlari katta ahamiyatga egadir. Qadimgi Hindistonning bu muqaddas kitoblari er. av. ikkinchi ming yillikka oid bo'lib, Rigveda, Samaveda, Yajurveda va Atxarvaveda deb ataladigan to'rtta katta to'plam (samxita)dan iboratdir. To'rtinchi to'plam, ya'ni Atxarvaveda eng keyin vujudga kelgan bo'lib, keyinchalik dastlabki uch to'plam qatoriga kirgan. Bu to'plamlarning eng qadimiysi Rigveda bo'lib, u xudolarga bag'ishlangan diniy madhiya (gimn)lardan iboratdir.

Vedalarning qayin po'stlog'iga va palma barglariga yozilgan eng qadimgi tekstlari saqlanib qolmagan. Eng qadimgi qo'l yozmalar anchagina keyingi davrga, xristian erasiga yaqin paytga oiddir. Borgani sari tushunilishi qiyinlashib borgani tufayli, er. av. VIII asrdan boshlab Vedalarga izohlar beriladigan bo'lgan, bular orasida diniy marosimlarni tushuntirib beruvchi «Braxmanlar», har xil diniy-filosofik fikrlardan iborat bo'lgan.

Hindistonning er. av. 1 ming yillikdagi tarixi va madaniyatini o'rganishda ikkita katta epik doston — «Ramayana» va «Maxabxarata» muhim manba hisoblanadi. Bu manbalarda xalq og'zaki badiiy ijodining ko'p elementlari bor. Bu dostonlarning birinchisi — «Maxabharata» («Bxarata avlodlarining kurashi haqida buyuk qissa»)ning asosiy syujeti podsho urug'laridan bo'lgan kavruklar va pandular degan ikkita qardosh urug'ning oliy hokimiyatni talashib o'zaro qilgan kurashi haqidagi qissadan iborat bo'lib, uning avtori afsonaviy donishmand va shoir Vyasa hisoblanadi. Bu asosiy qissa birinchi marta er. av. I ming yillikda tuzilgandir. Keyinchalik unga ko'pgina qadimgi afsonalar, ertaklar, masallar, ibratli hikoyalar kiritilgan, bular ko'p jihatdan xalq badiiy ijodi negizida vujudga kelgan.

“Artxashastra” degan siyosiy-iqtisodiy traktat qadimgi Hindiston tarixi yuzasidan eng qimmatli manba sifatida juda katta ahamiyatga egadir. Buni Maurya

sulolasidan bo'lgan podsho Chandraguptaning Qautilya nomli bir vaziri yozgan. Bu traktatda davlatni idora qilishning taraqqiy etgan tizimi mufassal bayon etilgan bo'lib, podsho va amaldorlarning faoliyati, davlatchilik negizlari, ma'muriy idora ishlari, sud ishlari, davlatning tashqi siyosati va pirovardida, o'sha davrdagi harbiy san'at har taraflama tasvirlab berilgandir.

Asosan ilk buddizm davriga oid yozuvlar bir qadar kamroq ma'lumot beradi. Podsho Ashoka zamonasidan ko'pgina yozuvlar saqlanib qolgan. Ashoka ediktlari deb atalmish bu yozuvlar diniy-axloqiy nasihatlarini hamda ilk buddizmni xarakterlovchi bir qancha faktlarni, butun Hindistonda buddizmning keng yoyilishini (Afg'onistonning ayrim oblastlari ham shuning ichiga kiradi), shuningdek, Ashokaning jo'shqin diniy faoliyatini tasvirlaydi.

Er. av. I ming yillikning ikkinchi yarmida Shimoliy Hindiston davlatlari Eron, Gretsiya va Makedoniya bilan turli aloqalar bog'lay boshlaydilar. Shu tufayli bu davrni o'rganishda chet el manbalari, ajnabiylarning Hindiston haqida aytganlari katta ahamiyatga egadir. Chunonchi, Ahmoniyalar zamonidagi eron yozuvlari, xususan, Behustun, Persepol va Naqshi Rostamdagi Doro yozuvlari shular jumlasidandir. Yunon tarixchilarining qadimgi Hindiston haqida yozgan asarlari ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Gerodot (er. av. V asr) o'zining katta tarixiy asarida Hindiston, uning aholisi, hind qabilalarining turli madaniy darajalari hamda Hindistonning Eron podsholigi bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari haqida bir qancha ma'lumotlarni bayon qiladi. Yunon geografi va siyosiy arbobi Megasthen ancha ko'p material to'plagan; Megastheni Selevi Nikator Hindiston podshosi Chandragupta huzuriga elchi qilib yuborgan va u Hindistonda uzoq vaqt yashagan. Megasthen o'zining «Indika» degan asarida Hindistonning ekanomikasini, ijtimoiy va davlat tuzumini tasvirlagan va, eng muhimi, o'zi yashagan davrdagi Hindistonning kasta tizimini ta'riflab bergan. Afsuski, Megasthen asarining o'zi yo'q bo'lib ketgan va so'nggi davrdagi yunon yozuvchilarining, asosan, Strabon va Arrianning kitoblarida bu asardan kichkina-kichkina parchalargina saqlanib qolgan.

Qadimgi Hindistonning geografiyasi, shuningdek, uning tabiiy boyliklari, aholisining urf-odatlarini va shaharlari to'g'risidagi bir qancha qimmatli ma'lumotlar

Strabonning katta tarixiy-geografik asarida (er. av. I acp — eramizning I asri) saqlanib qolgan. Strabonniig asari, ayniqsa, qimmatlidir, chunki bu asar undan oldin o'tgan tarixchilarning - Megasfen, Nearx, Eratosfen va boshqalarning maxsus asarlariga asoslanib yozilgandir.

Qadimgi Hindiston to'g'risida yozgan yunon yozuvchilarining asarlari orasida Arrianning bizning davrimizgacha saqlanib qolgan va Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlariga, jumladan, uning Hindistonga qilgan harbiy yurishiga bag'ishlangan «Anabazis» degan kitobi, shuningdek, bu kitobga qo'shimcha qilingan va kichkina bo'lsada, lekin qadimgi Hindiston tarixi uchun muhim bo'lgan «Hindiston» degan asari ham katta ahamiyatga egadir. Arrian o'z asarlarida Hindistonni juda yaxshi tasvirlaydi, o'sha davrdagi Hindistonning iqtisodi va ijtimoiy tuzumi to'g'risida ma'lumotlar beradi, jumladan, u sun'iy sug'orish va kasta sistemasini tasvirlaydi. Arrian ko'pgina muhim manbalardan, shu jumladan Lagning o'g'li Ptolemey bergan ma'lumotlardan, Aleksandr Makedonskiyning boshqa harbiy komandirlari bergan axborotlardan, makedon qo'shinining Hindistondan dengiz orqali qaytishini tasvirlagan Nearx asaridan, shuningdek, yunon elchilarining er. av. IV asrga oid hind hujjatlari asosida tuzgan yozuvlaridan, jumladan, Megasfen asarlaridan tanqidiy nazar bilan foydalangan. Arrianning asarlari eramizning II asrida yozilgan bo'lib, hozirgi zamon tekshiruvchilari uchun g'oyat qimmatlidir. Ularda qadimgi Hindistonga doir ko'pgina qimmatli ma'lumotlar bo'lib, bu ma'lumotlar ishonchli manbalardan olingan.

Nihoyat, qadimgi Hindiston tarixini o'rganishda Xitoy tarixchilari va yozuvchilarining asarlari, jumladan Sim Szyanning xronologiyani aniqlash uchun muhim bo'lgan qimmatli asari, shuningdek, er. av. II asrda yashagan Xitoy yozuvchilarining asarlari shubhasiz muhimdir.

Eng qadimgi Hindiston. Arxeologik topilmalarga qaraganda Xindistonda odamlar qadimgi tosh davridayoq yashaganlar. Mamlakatning bir qancha tog'lik joylarida Paleolit manzillari topilgan. Undan keyingi Neolit bosqichlari avvalari kishilar yashamagan katta daryolarning vodiylari o'zlashtira boshlangan. Hindistonning g'arbiy rayonlari tobora oldingi o'ringa chiqa boshlaganlar, bu

yerlarda Enolit davriga kelib va ayniqsa Bronza davrida o'ziga hos pro'to'xind madanyati tarkib topkan, uning gullagan davri eramizdan avvalgi ularning asosiy markazlari (Panjobdan) va Mahenjodaro (sinda) xarobalari topilgan shaharlar bo'lgan. Hindistonda eng qadimgi shaharlar va davlatlar bo'lganligi haqida fikr yuritishga imkon beradigan eng qadimgi va eng muhim yodgorliklar Shimoli-G'arbiy Hindistondan, Hind daryosi havzasidan topilgandir. Mohenjodarodan (Sind viloyati) va Xarappadan (Panjob) qadimgi katta shaharlarning kattakon xarobalari chiqqan. Yana shunga o'xshash bir qancha qal'alar Hind daryosining quyi oqimidagi havzadan, Belujistonning shu havzaga yaqin tumanlaridan topilgan, eng shimoliy qal'a Setlaj daryosi bo'yidagi Rupara qishlog'iga yaqin joydan topilgan.

Qadimgi Mohenjodarogi shahar xarobalari ayniqsa yaxshi saqlangandir, bu shahar juda katta maydonni, 260 gektarga yaqin erni egallagan. Bu yerda o'tkazilgan arxeologik qazishlar natijasida ustma-ust joylashgan 9 ta arxeologik qatlam topilgan, bularning eng pastkisi 12 metr chuqurlikdadir. Qazish natijalariga ko'ra, Mohenjodaro shahri o'sha zamondagi eng yirik shaharlardan biri bo'lgan. Bu yerdan juda ko'p ko'chalar va pishiq g'ishtdan qurilgan binolar topilgan, bu binolarning balandligi hozir ham 7,5 metrga boradi. Ko'chalari to'g'ri, ko'pincha sharqdan g'arbga va janubdan shimolga qarab parallel ketgan bo'lib, bu narsa shahar eng qadim vaqtdayoq bilib-netib rejalashtirib qurilgan deb fikr yuritishga imkon beradi.

Mohenjodarodagi shahar yirik hunarmandlik va savdo markazi bo'lgan. Saroyda metallurgiya ustaxonasi uchun maxsus bir bino bo'lgan. Markaziy tepalikdan janubroqda birttekis qator ketgan mustahkam rastalardan iborat kattakon bostirmali bozor topilgan. Bu yerda katta bino (51 X41 m) topilgan, bu bino xo'jalik jihatidan katta ahamiyatga ega bo'lganligi shubhasizdir, unda turli tovarlar, balki don yoki paxta saqlangan.

Xo'jalikning eng muhim turlaridan biri dehqonchilik bo'lgan. Hind daryosi vodiysidagi juda ko'p dalalarda bug'doy va arpaning qadimgi navlari ekilgan, no'xat, qovun etishtirilgan, nihoyat, mato to'qish uchun paxta etishtirilgan. Xurmo mevalaridan ham foydalanilgan. Yerlar juda qo'pol omochlar bilan ishlangan, bu omochlarning tishlari kremniy slanetsidan qilingan. O'rim vaqtida mis o'roqlar

ishlatilgan. Donlar katta omborlarda saqlangan, bu omborlarning qoldiqlari Xarappadan topilgandir.

Mohenjodaro va Xarappa xarobalaridan ko'p miqdorda qattiq tosh, yumshoq, steatit, fil suyagi va sopoldan qilingan muhrlar topilgan bo'lib, bular tarixchilar uchun ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Bu muhrlarda muqaddas hayvonlarning (ayniqsa ho'kizning) diniy suratlari va yozuvlar o'yilgandir.

Bu yozuvlarga qaraganda, o'sha davrda qadimgi Hindistonda misrliklarning eng qadimgi ieroglif yozuvi bilan shumerliklar yozuvini eslatuvchi suratli ieroglif yozuvi bo'lgan. Chex olimi B. Grozniy va boshqa tekshiruvchilar bu yozuvlarni o'qib chiqishga urinib ko'rdilar, ammo ularni o'qishning hali iloji topilgani yo'q.

Er. av. XV-VII asrlarda qadimgi Hindiston. Shimoliy Hindiston xududlariga bosqinchilik er. av. II ming yillikning o'rtalarida yuz bergan, shu sababdan ba'zi tadqiqotchilarlar buni Shimoliy Xindistonning oriy qabilalari tomonidan bosib olinishidir, deb hisoblaydilar, Oriylarning Shimoliy Hindistonni bosib olish voqeasi qadimgi Hindistonning tarixiy va adabiy qissalarida mustahkam saqlanib qolgan.

Shimoliy Hindistonni bosib olgan qabilalar er. av. ikkinchi ming yillikning o'rtalarida Hindikush va Pomir tog'laridan tushib, Panjob va Gang daryosining yuqori havzasidagi unumdor tekisliklarga o'rnamshib olganlar. Bu qabilalar odatda oriy qabilalari deb ataladi. Qadimgi hind tilida (sanskritda) «oriy» («oriya») so'zining, shuningdek qadimgi fors tilidagi «ayriya» so'zining ma'nosi: «yaxshi oiladan», «aslzoda», «aristokrat» demakdir, xususan, bu— ijtimoiy termindir. Shimoli-G'arbiy Hindistonga bostirib kirib, mahalliy aholini bo'ysundirgan istilochilar dastlab o'zlarini shunday deb atagan bo'lsalar kerak. Rigvedada Shimoliy Hindistonning tub qabilalari «mlechxasa» (varvarlar) va «dasa» (dushman) deb yuritiladi. Keyinchalik «dao» so'zi «qul» degan ma'noni anglatadigan bo'lib qolgan, bu istilochilarning Xindistonning bo'ysundirilgan tub qabilalarining mehnatkash aholisining anchagina qismini qulga aylantirganligini ko'rsatadi. Shu davrdan boshlab, hindlarda ilgari ma'lum bo'lmagan temir qurollar ishlatila boshlangan. Temirdan bolta, belkurak, turli qishloq xo'jalik, ro'zg'or va jangovor qurollar ishlangan. Temir tishli omochning paydo bo'lishi dehqonchilikning rivojlanishiga katta yordam bergan. Natijada,

dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanib aholi o'rtasida tabaqalanishining kuchayishiga olib kelgan.

Hindistonda er. av. I ming yillikning birinchi yarmida tepasida podsho turgan bir nechta davlatlar tashkil topa boshlagan. Mulkiy tengsizlikning kuchayishi jamoaning turli varnalarga – toifalarga bo'linishiga olib kelgan. Bular braxmanlar, kohinlar, kshatriylar, vayshilar va shudralardir.

Er. av. VI – milodning V asrlarida Hindiston. Er. av. taxminan VI asrda Shimoliy Hindistonda 20 dan ortiq mayda davlatlar bo'lib, bular orasida ikkita katta davlat: Magadxa bilan Koshala davlati ajralib turardi. Magadxa podsholigi Gang (hozirgi Bixar) daryosi o'rta oqimidagi havzada joylashgan. Magadxa davlatining poytaxti Rajagrxaxa (hozirgi Rajgir) shahri bo'lgan. Magadxadan shimoli-g'arbda Koshala podsholigi (hozirgi Aud) bo'lgan. Koshala davlatining poytaxti Shravasti (hozirgi Savattxi) shahri bo'lgan. Bu ikkita ancha katta davlat er. av. VI—V asrlarda Shimoliy Hindistonning Gang daryosi havzasidagi keng territoriyada ustunlik va hukmronlik qilish uchun o'zaro qattiq kurash olib borganlar. Koshala podsholigi yuksalib borayotgan davrda podsho Kamsa Kashi knyazligi va uning asosiy shahri Kashini (hozirgi Banorasni) ham bosib olib, o'z davlat chegarasini kengaytirgan. Magadxa podsholigi esa Shayshunag dinastiyasi podsholik qilgan davrda yuksala boshlagan. Bu dinastiyaning beshinchi podshosi bo'lgan Bimbisara (er. av. 519—491 yillar) ayniqsa mashhur bo'lib, Gang daryosining quyi oqimidagi havzada joylashgan Anga podsholigini bo'ysundirgan. Bimbisara diplomatik ittifoqlar tuzish siyosatini keng qo'llagan.

Er. av. V asrda Magadxa podsholigi Shimoliy Hindistonning eng kuchli davlati bo'lib qoladi. Gang daryosi bo'yida g'oyat katta Pataliputra (hozirgi Patna) shahri quriladi. Er. av. V asrda Magadxa podsholari Koshala podsholigini bosib oladilar va IV asrda Himolay tog'lari bilan Gang daryosi o'rtasidagi viloyatlarni o'z davlatlariga mustahkam qo'shib oladilar. Bu davr Magadxa davlatining gullab-yashnagan davri bo'lgan.

G'arbiy Hindistonda tarqoqlik uzoqroq saqlangan. Bu tarqoqlik holati Ahmoniylarning, keyinroq, Aleksandr Makedonskiyning g'arbiy Hindistonni bosib

olishlarini osonlashtirgan, Aleksandr Makedonskiy ikki yil ichida (eramizdap avvalgi 327-325 yillarda) (Hind daryosining etaklarigacha butun G'arbiy Xindistonni egallagan.

Xind qirg'oqlarida yunon-makedon hukmronligi uzoqqa cho'zilmagan. G'arb istilochilariga qarshi keng xalq ommasining harakatiga mashhur hind arbobi Chandragupta boshchilik qilgan. Chandragupta (er. av. 321-298 yillar) butun shimoliy Hindistonni birlashtirishga muvaffaq bo'lgan. Yunon-makedon garnizonlari Hind vodiysidan haydab chiqarilgan.

Istilochilik siyosati Chandraguptaning vorislari vaqtida ham, ayniqsa uning nevarasi Aiyuka vaqtida (eramizdap avvalgi 273-236 yillar), davom etgan. Janubiy Hindistondagi Kaling davlati Ashoka podsholik qilgan vaqtda bo'ysundirilgan. Agar Ashoka yozuvlariga ishonish mumkin bo'lsa, shu davlatni istilo qilish uchun bo'lgan janglarda 100000 kishi o'ldirilgan va 150 000 kishi asir qilib haydab ketilgan.

Mamlakatning eng janubiy xalqlarni istilo qilganda bugun Hindistonni o'z ichiga olgan g'oyat katta Maurya davlatining iqtisodi ancha rivoj topgan. Bunda chig'iriqlar vositasi bilan sun'iy sug'orish keng qo'llanilgan. Ba'zi yerlardan yiliga ikki marta hosil olingan. Shahar hayoti taraqqiy topgan.

Pataliputrada va boshqa markazlarda hunarmandlar to'plangan, ular podsho va zodagonlar xizmatida bo'lib, ularga zeb-ziynat buyumlari ishlab berganlar.

Ashoka hukmronligi davri Qadimgi Hindistondagi quldorlik davlatining oxirgi ravnaq topgan davri Ashoka (er. av. 272—232 yillar) podsholik qilgan davr edi. Ashoka Bindusaraning o'g'li va Chandraguptaning nevarasi bo'lib, katta tarixiy rol o'ynagan. Ashokaga o'z otasi va bobosidan katta va qudratli davlat meros bo'lib qolgan. Bindusara hayot vaqtidayoq Ashoka Shimoli-G'arbiy va so'ngra G'arbiy Hindistonda podshoning noibi vazifasini o'tab turgan va shu tariqa butun davlatni idora qilish uchun yaxshi tayyorgarlik ko'rgan. Ashokaning Ujayni va Taksila kabi katta shaharlarda turganligi uning shaxsiga, xarakteriga va kelgusidagi butun faoliyatiga yaxshi ta'sir ko'rsatgan. Shimoli-G'arbiy Hindistonning bu katta shaharlari muhim madaniy markazlar bo'lgan, ularda san'at va fan, jumladan astronomiya fani taraqqiy etgan.

Er. av. II asr boshlarida Maurilarning so'nggi vakili hukmronligi tugab, shu vaqtdan mamlakatda uzoq siyosiy tushkunlik boshlandi.

Shimoli-g'arbiy Hindistonda yunon-baqtriyaliklar paydo bo'ldi va ular Gandxarada o'rnatilib qoldilar. Er. av. II asrlarda sak qabilalari kirib kelib, shimoli-g'arbida bir necha davlatlarni barpo qiladilar. Sak podsholari o'zlarini «buyuk podsholar podshosi» deb ataydilar. Yirik davlat birlashmalarida noiblik, satrapliklar joriy qilinib, hududlarda satrap (kshatrap) ancha mustaqil bo'lgan.

Eramizning boshlarida shimoli-g'arbiy Eronning ba'zi viloyatlari parfiyaliklarga bo'ysundi. Eramizning II asrida Markaziy Osiyoda Kushon davlati yetakchi rol o'ynaydi. Kushonlar Hindistonning shimoli-g'arbiy qismida o'rnatilib oladilar.

Eramizning IV-V asrlarida Magadxa Gupta sulolasi hukmronligi ostida yana rivojlana boshladi. IV asr o'rtalarida Samudragupta (335-380-yillar) davrida Magadxa qudratli davlatga aylanadi. Samudragupta shimoliy Hindistonda unga yaqin davlatlarni, Dekanda o'n besh davlatlarni tugatadi. Magadxaga janubda Tamish shahri Kanshini, shimolda Nepal va Assam kabi chegara viloyatlar ham qaram bo'ladilar. Dekan viloyati g'olibona yurishga qaramasdan Gupta davlati tarkibiga kirmaydi. Chandragupta II (380-415 yillar davrida) Gupta davlati gullab-yashnadi. Uning davri hind tarixining "oltin davri" hisoblanadi. Uning vorislari davrida o'zaro urushlar kuchayib ketadi. O'rta Osiyodan kelgan eftalitlar V asrda Gupta davlatini qulatdi. V asrda Shimoliy Hindiston kichik davlatalarga bo'linib ketadi.

Buddizm va uning tarixiy roli. Mauriya sulolasi davrida hind jamiyatining diniy mafkurasida anchagina siljishlar yuz bergan. Xukmronlik qilayotgan din tizimi - Braxmanizm - mamlakatni idora qiluvchi sulolani tobora qoniqtirmay borgan. Uning aqidalari qabila tarqoqligi sharoitida tarkib topganligidan shahar hayoti taraqqiy qilib borayotgan davlat markazlashtirilgan vaziyatga mos kelmay qolgan. Braxmanizmning eski tizimi bilan davr ruhiga mos keladigan yangi diniy ta'limot o'rtasida raqobat tobora kuchayib borgan.

Yangi dinlardan buddizm ayniqsa muhim o'rin olgan. Bu din etiqodchilar jamoasiga kiradigan kishining nasl-nasabi bilan mutlaqo qiziqmagan. Kishining

muayyan qabila va varnaga mansubligi yangi dinga kirishiga to'siq bo'lmagan. An'analarda budda diniy-falsafiy ta'limotini eramizdan avvalgi VII -VI asrlarda yashagan shahzoda Sidxartx Gautama yaratgan deyiladi. Bu ta'limot unga berilgan Buddha («ma'rifparvar») laqabi bilan atalgan. Bu shahzoda kishilar chekayotgan azob-uqubatlarning sabablari haqida yosh chog'idayoq xnlam boshlagan, deydilar. Ojiz gadoning, badanini yara bosgan kasal odamning ayanchli ko'rinishi, janoza manzarasi, mana shularning hammasi unda chuqur g'amginlik tug'dirgan.

U o'zining oliy martabasidan kechib elma-el kezgani jo'nagan, so'ngra va'zgo'y bo'lib ketgan. U o'zining ta'limotiga hayotning o'zi yovuz degan fikrini asos qilib olgan. Kishining har qanday istagi ham azob-uqubatga olib keladi. Buning birdan-bir chorasi har qanday ehtiros va har qanday urinish-istakni bosishdir. Kishi bunga erishar ekan, u o'lgandan keyin yangi azob-uqubatlarni boshidan kechirish uchun boshqa bir qiyofada qaytib tirilmaydi. Mana shu uzluksiz o'zgarish protsessini to'xtashi nirvana, ya'ni yuksak farog'atdir.

Mana shu o'ziga xos ta'limotdan g'oyat katta amaliy xulosalar chiqqan. Najot yo'lini kishining o'zi, istaklarini bosish irodasi bilan topganligidan diniy e'tiqod va qohinlar ortiqli bor narsa bo'lib qoladi. Kishining o'zini-o'zi kamolga etkazishi, boylik va dunyo farog'atidan voz kechishi nasl-nasabiga va jamiyatda tutgan o'rniga bog'liq emas. Bu tashqi momentlar tadqiqodchining yuksak farog'atga erishishiga monelik qilmaydi. Buddachilar toifaviy va qabilaviy to'siqlarni yoki mulkiy tengsizlikni zo'rlik yo'li bilan yo'qotishga hech qachon da'vat qilmaganlar, ularning hammasini ahamiyatsiz hisoblaganlar. Zotan, bir masalada ular tenglik printsipiga rioya qilishdan nazariy jihatdan ham bosh tortganlar. Ozod kishilargina najot topa oladi, deganlar ular. Sangxiga (ilk buddachilar jamoasiga) qullar qabul qilinmagan. O'z taqdiriga o'zi ega bo'lmagan va o'z irodasi bilan ishni tark qilolmaydigan qulga yuksak farog'at yo'li berk deb hisoblangan.

Mauriya sulolasining podsholari uchun buddizmning Braxmanizmga nisbatan bir qancha ustunligi bo'lgan. U imtiyozlarni yemirib o'zgartirishga yordam bergan. Aslidalik va etnik holatga asoslangan bu imtiyozlar keng mustabid davlatni idora qilish ishiga g'ov bo'lib turgan. Bu imtiyozlar mamlakatning ayrim qismlarini

birlashtirishga va davlat tuzumini yagona shaklga keltirishga xalaqit bergan. Sustkashlikka da'vat qilish quldorlarga juda ham qo'l kelgan, ayniqsa buddachilar qullarning huquqsizligini etirof qilganlar.

Yangi din Ashoka davrida ayniqsa muvaffaqiyat qozongan. Ashokaning o'zi buddizmni qabul qilib, Pataliputrada uning aqidalarini rasmiylashtirgan kengash chaqirgan. Bir qancha budda monastirlari ta'xis etilgan.

Lekin shu bilan Braxmanizm tugatilgan ekanda deb o'ylash yaramaydi. Ashoka uni xayoliga ham keltira olmagan. Yangi din asosan qabiladan va qishloq jamoasidan ajralib ketgan aholining aralashib ketish protsessi kuchli bo'lgan katta-katta shaharlarda tarqalgan, etnik, toifaviy va boshqa ijtimoiy g'ovlar hiyla mustahkam bo'lgan qishloqlarda Braxmanizm o'z mavqeini saqlab qolgan. Lekin har holda Braxmanizm quvg'in qilinmagan.

Hindistondagi barcha davlatlarning hukmdorlari noan'anaviy dinlarga, asosan budda diniga homiylik qilganlar. Mauriylar budda dini targ'ibotiga jiddiy e'tibor berganlar. Turli mamlakatlarga budda g'oyalarini targ'ib qilish uchun missionerlar yuborilgan. Ayniqsa, Hindiston bilan yaqin aloqa bo'lgan viloyatlarda budda ta'limoti tez qabul qilinadi. Shri-Lankada bu jarayon tez yoyiladi.

Buddaviylik e'tiqodi yirik davlatlar hukmdorlarining homiyligi ostida bo'ldi. Chunki budda matnlarida jahon hukmronligi g'oyasini ilgari surilib, qaysiki, bu hukmdor orqali adolat podsholigiga asos solinadi degan tushuncha mavjud edi. Adolatni tarqalishi bir vaqtning o'zida hukmdorning hokimiyatini kuchayishi bu diniy g'oyaga to'g'ri kelishini bildiradi. Dastlab, budda dini xudosizlar dini edi. Keyinchalik Buddaga nisbatan munosabat o'zgardi. Uning tasviri paydo bo'ldi. Ibadatxonalar qurilib, budda ilohiy mavjudot ekanligi aytila boshlandi. Dunyoning ohirati va uning kelajagida qutqaruvchi Buddaning kelishi tushunchasi shakllana boshlaydi. Budda maktablari ikki asosiy yo'nalish: «kichik arava» («yoki qutilishning tor yo'li») va «buyuk arava» («yoki qutilishning keng yo'li») dan iborat edi. Ularning birinchisi eng qadimiylikka da'vo qilib, Ashoka davridayoq Lanka orolida va keyin janubi-sharqiy Osiyoga tarqaldi. «Buyuk arava» ta'limoti yanada

kattaroq yutuqlarga erishdi. Kushon podsholari homiyligi ostida bu yo'nalish O'rta Osiyo orqali Eron, Xitoy, Tibet, Mongoliya va Yaponiyaga tarqaldi.

Hindiston madaniyati. Dastlabki vaqtlarda tildan tilga o'tib kelgan qadimgi hind lirikasi (vedalar) va dostoni (Maxabxarata bilan Ramayona) yangi era boshiga kelib, to'lik shakllangan va yozib olinganligini biz yuqorida aytib o'tgan edik.

Shuningdek, xalq masallari to'plami (Panchatantra, ya'ni Besh kitob) ham paydo bo'lgan. Eramizning V asrida qadimgi Hindistonning g'oyat zo'r dramaturgi Kalidasa maydonga keladi. Uning dramalari ichida «Shakuntala» eng mashhuridir. Drama asarning bosh qahramoni tarki dunyo qilgan va podsho yaxshi ko'rib qolgan qalandar ayol nomi bilan atalgan.

Qadimgi Hindistonda har xil falsafiy oqimlar, shu jumladan. materialistik oqim tarkib topgan. Masalan, charvak talimotiga ko'ra, bilishning birdan-bir manbai tajribadir. Ruxning tandan ajrashi to'g'risida Hindistonda keng tarqalgan ta'limot inkor qilingan. Ruh tandan ajralmaydi, degan fikr ilgari surilgan.

Sug'orib dehqonchilik qilinadigan boshqa mamlakatlardagi kabi Hindistonda ham astronomiya va matematika ancha ravnaq topgn. Bunda o'ziga xos Quyosh kalendari tuzilgan. Yil 360 kundan iborat bo'lib, astronomik yilga moslash uchun har 5 yilda bir marta kabisa oy qo'shilgan.

Eramizning V-VI asrlarnda Hindistonda Erning sharsimon ekanligini va yerning o'ziga tortish qonunini, shuningdek, yerning o'z o'qi atrofida aylanishni juda yaxshi bilganlar. Bu ilmiy kashfiyotlarni o'rta asrlarda arablar hindlardan o'rganib olganlar.

Keyinchalik hindlar matematikada ba'zi jihatdan boshqa sharqiy davlatlardan o'zib ketgan. Masalan, nolni bildiradigan alomat faqat Hindistonda ishlatilgan. Biz rim raqamlaridan farq qilib arabcha raqamlar deganimizni aslda qadimgi hindlar ixtiro qilgan va keyin bu raqamlar arablarga o'tgan. Arab algebrasida ham hindlar algebrasining ta'siri bor.

Qadimgi hind kimyogarlari sulfat, xlorat va azot kislota ishlashni bilganlar. Tabiblar kasalliklarni muayyan sistemaga solishga uringanlar va organizmdagi asosiy

shiralar nazariyasini yaratganlar. Hindistonda juda ko'p til va shevalar bo'lgani filologiya sohasida tadqiqotlar olib borilishini talab qilgan.

Hind madaniyati Markaziy va Sharqiy Osiyo mamlakatlariga (asosan buddizmning yoyilishi munosabati bilan) katta ta'sir ko'rsatgan. Hindiston g'arb olamiga arablar orqali ta'sir ko'rsatgan.

Qadimgi hindlar mantiq, til falsafasida katta yutuqlarga erishdilar. Matematika, astronomiya fanlari bo'yicha V asrda mashhur olim Ar'iyabxattaxa harakatning nisbiyligi asosida yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va uning quyosh atrofida aylanishini faraz qiladi. Matematikada nolni kiritilishi, arab raqamlari deb aytiladigan raqamlar Hindistondan kelib chiqdi.

Eramizning II asrlarida turli adabiy janrlar mavjud bo'lgan. Bu davrda mashhur dramaturg Shakun Kalidasa ijod qiladi. «Panchatatra» deb atalgan kitobda masallar to'planadi, uning arabcha tarjimasi «Kalila va Dimna» deb ataladi.

Maurilar davridan so'ng, g'isht va toshdan qurilishda keng foydalaniladi. Hozirgacha saqlangan obidalar g'arbiy Hindistondagi budda monastirlari diqqatga sazovor.

Yer ustidagi monastirlardan biri Sanshida bunyod qilingan. Sanshida tepalik ustida ulkan budda monastiri qurilgan. Yana bir noyob san'at yodgorligi Ashoka yozuvlari bitilgan tosh ustunlardir.

Maurilardan so'ng, haykaltaroshlikning mahalliy maktablari vujudga keladi. Ulardan eng mashhurlari shimoli g'arbiy Hindistondagi Gandxara, shimoliy Hindistonning markaziy qismidagi Madxura va Dekan viloyatidagi maktablardir. Eramizning birinchi asridan Gandxara maktabi ellin va Rim madaniyati ta'siri ostida shakllangan. Gandxara uslubi kushonlar davrida markaziy va sharqiy Osiyoning budda madaniyatiga ta'sir qildi.

Madxura va Dekan maktablari Hind tasviriy san'ati an'analari bilan ko'proq bog'langan. Ana shu maktablar asosida o'rta asrlar hind va janubiy sharqiy Osiyo mamlakatlari madaniyati shakllandi.

Maurilar davridan keyin ming yil davomida hind tasviriy san'atining noyob yodgorligi g'ordagi Ajanta ibodatxonasi va budda monastirlari yaratildi.

Monastirlarning ba'zi zallari devorlarida budda afsonalaridan manzaralar tasvirlangan. Ajantadagidek noyob tasvirlarga o'xshash tasvirlar Shri-Lankadan ham topilgan.

Qadimgi Hind adabiyoti asarlarining katta qismi veda, epik va budda adabiyotlari an'anaviy janrlarga tegishli bo'lib, asrlar davomida og'zaki shaklda yashab keldi. Aynan muqaddas matnlarni eslab qolish, uzatish va talqin qilish, lingvistika, falsafa va mantiq kabi fanlarning rivojiga sabab bo'ldi. Janubiy Osiyoda Maurilardan so'ng, turli davlatlarni gullab-yashnashi dunyoviy adabiyot-drama, poeziya va proza, me'morchilik hamda tasviriy san'atning noyob yodgorliklarni yaratilishiga sabab bo'ldi. I ming yillikning o'rtalarida (shimoliy Hindiston Guptalar davri) qadimgi janubiy Osiyoda madaniyat taraqqiyotining asosi bo'ldi.

Tayanch iboralar: Xind, Gang, Himolay, Panjob, antik, dravid, mund, Zebu, Shri-Lanka, Mahabxarat, Veda, Ramayana, Samaveda, Yajurveda, Atxarvaveda, Buddizm, Artxashastra, Chandragupta, Sidxartxa Gautama, ma'rifparvar, Geradot, Megasfen, Arrian, Strabon, Sima Szyan, hinduizm, Vishna, Shiva, Braxmanizm, Gupta, Shakuntala, Kalidasa, Panchatatra, sanskrit, Ar'iyabxattaxa, Kalila va Dimna, xind raqamlari, arab raqamlari, Sangi monastiri, Chandragupta, Ashoki ustunlari, Gandxara Ashoki ibodatxonasi, oqsoqollar, mantiq, Shakun Kalidasi, «Panchatatra», «Kalila va Dimna», Ajanta, Maxinjo-Daro, lingvistika, falsafa

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Hindistonning tabiiy joylashuvi va aholisi haqida nimalar bilasiz?
2. Qadimgi Hindistonda qaysi davrlardan odamlar yashay boshlagan?
3. Hindistonda davlatchilikning vujudga kelish shart-sharoitlarini tushuntirib bering?

4. Hindistonga chet ellik bosqinchilarni (Oriylar, Ahamoniylar, Makedonlar, Kushonlar, Eftalitlar) amalga oshirgan yurishlari va uning oqibatini yoritib bering?
5. Xindiston tarixini o'rganishda qaysi manbalardan ko'proq foydalaniladi?
6. Er. av. XV-VII asrlarda qadimgi Hindistonda qanday davlat birlashmalari tashkil topdi?
7. Braxmanizm va Hinduizm dinlarining qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda farqli xususiyatlarini ochib bering?
8. Nima deb o'ylaysiz Buddizm nima uchun Hindistonda Hinduiylik dinini surib chiqara olmadi?
9. Qanday yo'l bilan Buddizm jahon diniga aylandi?
10. Qadimgi Hindiston madaniyatini jahon madaniyatiga ta'siri qanday bo'lgan?

Glossariy

Panjob – Xindistonning eng qadimgi dehqonchilik vodiylaridan biri bo'lib, forschadan tarjimasida besh irmog' degan ma'noni bildiradi.

Dravit tili – Hindiston axolisi gaplashgan eng qadimiy tillardan biri

Veda – Qadimgi Hindistonni er. av. ikkinchi ming yillikka oid muqaddas diniy kitobi. Bu muqaddas kitob Rigveda, Samaveda, Yajurveda va Atxarvaveda deb ataladigan to'rtta katta to'plam (samxita)dan iborat.

Maxabharata – Bu qadimgi Hindiston tarixiga tegishli doston hisoblanib, bunda Bxarata avlodlarining kurashi haqida ma'lumotlar o'z aksini topgan, uning avtori afsonaviy donishmand va shoir Vyasa hisoblanadi

Ar'iyabxattaxa – V asrda yashagan mashhur olim. Matematika, astronomiya fanlari bo'yicha harakatning nisbiyligi asosida yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va uning quyosh atrofida aylanishini faraz qiladi.

10-§. Qadimgi Xitoy. Shan In davlati. Chjou, Sin davlati

Tabiiy sharoiti, aholisi, manbalar. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi er.av. V-III ming yilliklarda Xuanxe daryosining o'rta oqimida uzoq vaqt yopiq holda shakllanadi. Er. av. I ming yillik o'rtalaridan boshlab Yantszi daryosi havzasini ham qamrab oladi.

Xuanxe daryosi havzasi qadimda qalin o'rmonlar bilan qoplangan. Er. av. IV-II ming yilliklarda Xuanxening o'rta oqimlarida karkidon, tapir, bambuk kalamushlari yashagan, bambuk daraxti o'sgan. Vodiyning yumshoq tuprog'i dexqonchilik uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Er. av. IV-III ming yilliklarda Xuanxe havzasida Yanshao madaniyatini bu yerda yashagan poliosiy o'rtasida qolgan aholisini siqib chiqargan protosinotibetliklar yaratadilar. Er. av. I ming yillikda Xuanxening o'rta oqimida inlar va chjoularning o'zaro ta'siri natijasida qadimgi Xitoy etnosi vujudga keladi. Bu etnosning shakllanishida shimolda poliosiy va avstroosiy, janubiy Osiyo tillarida so'zlashuvchi etnoslar ishtirok etadilar.

An'anaviy Xitoy tarixnavisligi fanida Xitoy tarixini sulolalar bo'yicha davrlashtirish xarakterlidir. Shunga ko'ra, afsonaviy «besh imperatorlar» davridan so'ng, «uch sulola» Sya, Shan-In va Chjou davrlari boshlandi. An'ana bo'yicha Chjou davri Chunsyu va Chjango davrlarini o'z ichiga olgan ikki qism g'arbiy Chjou (er. av. XI-VIII asrlar) va Sharqiy Chjou (er. av. VIII-III asrlar) ga bo'linadi. Sin sulolasi (er. av. III asr) o'rniga hukmronlik vaqti g'arbiy va sharqiy davrlarga bo'linadigan Xan sulolasi keladi. Sulolaviy davrlashtirish hozirgi tadqiqot talablariga javob bermaydi. Shu sababli jamiyat taraqqiyotini ishlab chiqarish kuchlari va mehnat qurollari, tayyorlangan asosiy buyumlar bo'yicha jamiyat taraqqiyotini bosqichlarga bo'ladigan arxeologik davrlashtirishdan foydalanamiz. Demak, Xitoyda «uch sulola»dan oldingi davr neolit davriga to'g'ri keladi. Shan-In davrida qadimgi Xitoy jamiyati jez davriga kiradi. Chun-syu davri (er. av. VI-V asrlar) oxirida qadimgi Xitoyda temir davri boshlanadi. Sima Syanning tarixnavislik usulidan «Xan tarixi» muallifi Gu Garbiy Xan (er. av. 206 yil) sulolasining tarixini yozishda

foydalanadi. Ban Gu Xitoy tarixnavisligining yangi «sulolalar tarixi» nomini olgan janr asoschisi bo'lgan.

Xitoy tarixini arxeologik o'rganishda amalga oshirilgan ishlar muhim ahamiyatga ega. Arxeologik qazishmalar natijasida ilk Shan davriga oid Ermitou shahri, Chansha yaqinida boy qabrlar (er. av. III asr) topilgan.

An'anaviy Xitoy tarixnavisligida ikki o'ziga xos xususiyat:

- Xitoy madaniyatining boshqa qo'shni madaniyatlardan ustunligi;
- Xitoy davlatchiligini kelib chiqishini afsonalarga bog'lab o'ta qadimiylashtirish ajralib turadi.

Qadimgi Xitoy tarixini o'rganishni o'rta asrlarda Yapon olimlari boshlab berdilar. Yaponiyada Xitoy tarixini barcha davrlari o'rganildi. Mashhur xitoyshunos olim Kaydzuka Sigeki qadimgi Xitoy davlatlarini shakllanishiga oid katta tadqiqotlar muallifi hisoblanadi.

Yevropada Xitoy tarixini o'rganishda fransuz tadqiqotchilari katta yutuqqa erishdilar. XX asr boshlarida E. Shavann «Sima Syanning «Tarixiy yozishmalar»»ni tarjima qila boshladi. Mashhur sharqshunos olim fransuz A. Maspero «Qadimgi Xitoy» nomli asarini yaratdi.

AQShda XX asrning 60-yillari oxirida «Qadimgi Xitoy tarixini o'rganish» xalqaro jamiyati tashkil topdi. AQShda Xitoy tarixini kelib chiqishi Xitoydan bo'lgan olimlar o'rganadilar.

Xitoy tarixining davrlashtirilishi. Shan(In') davlati va uning qulashi. Qadimgi Xitoy tarixini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mezonida qo'yidagi davrlashtirishda ko'rish mumkin:

1. Ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishi va ilk davlatlarning vujudga kelishi. (er. av. II ming yillik)
2. Er. av. VIII-III asrlarda Qadimgi Xitoy
3. Xitoyda birinchi markazlashgan davlat Sin imperiyasi (er.av. 221-207 yillar)
4. Qadimgi Xitoy I-III asrlarda.

Qadimgi Xitoy tarixiga oid juda ko'p aniq davrlashtirilgan yozma yodgorliklar mavjud. Bu bizgacha kitob holida etib kelgan tarixiy asarlardir.

Yozma manbalar ichida Qadimgi Xitoy yilnomalari eng avvalo Lu podsholigi davrida tuzilgan er. av. VIII-V asrlar voqealari yoritilgan «Chunshu» yilnomasi muhim ahamiyatga ega. «Chunshu» matni bilan an'anaviy ravishda uning muallifi qadimgi Xitoy faylasufi Konfutsiy nomi bog'lanadi.

Yilnomalar bilan yaqin bog'langan eng avvalo, «Shan-shu» («Shiszin»-qo'shiqlar kitobi) nomli kitob va boshqa qadimgi Xitoy tarixiy asarlari janridir. Bu asarlarda hukmdorlar va ularning yaqinlarining so'zlari mavjud. Bizgacha etib kelgan «Shan-shu» matni qismlarigina haqiqiy deb hisoblash mumkin. Chunki bu manbaning ba'zi boblari keyingi davrlarga oid.

Er.av. I asrda qadimgi Xitoyda yangi tarixiy asarlar paydo bo'ldi. Bu asarlar Xitoy tarixnavisligida katta o'rin tutadi. Ana shunday asarlardan biri Sima Syanning (er. av. 105-90 yillar) «Tarixiy yozishmalar»i edi. Bu asar qadimgi Xitoy ijtimoiy-siyosiy va madaniy xayoti to'g'risida boy ma'lumotlar beradi. Sima Syan tarixiy voqealarni bayon qilishda kishilar faoliyatini bayon qilish usulini tanlaydi.

Er. av. V-III ming yilliklarda Xuanxe daryosi o'rta oqimida Yanshao madaniyati tipidagi neolit manzilgohlari vujudga keladi. Dehqonchilik, cho'chqa va it boqish asosiy mashg'ulot bo'ladi, kulolchilik rivojlanadi.

Er.av. III ming yillikning ikkinchi yarmida kulolchilik charxi yordamida kulrang va qora rangli idishlar tayyorlanadi, dehqonchilikda o'roq va pichoqning takomillashgan shakli vujudga keladi. Ijtimoiy tabaqalashuv jarayoni tezlashadi. Bu davr Lunshan madaniyati deb ataladi.

Eng qadimgi jez davri buyumlari (er.av. II ming yillik birinchi yarmi) Ermitou tipidagi manzilgohlarda topilgan. Er. av. XIV-XI asrlarda o'rta Xitoyda In davrida ilk shaharlar paydo bo'ladi. Bu davrdagi ijtimoiy tabaqalanish izlarini In qabrlarida ko'rish mumkin. In davlati tepasida Van (hokim) turgan. Hukmdorning yagona hokimiyati shakllanganidan dalolat beradigan «Men kishilar orasida yagonaman» degan so'zini keltirish mumkin. Van bir vaqtni o'zida oliy koxin vazifasini ham bajargan. In davlatining eng qudratli davri er. av. XIII asrning ikkinchi yarmida hukmronlik qilgan Van U Di davriga to'g'ri keladi. Uning davrida Shan shahrida saroy va ibodatxonalar quriladi, mamlakat hududi kengayadi.

Er. av. 1027 yilda chjoular boshchilik qilgan g'arbiy qabilalar In davlatini ag'darib tashlaydilar. Chjoular Inlardan jez quyish san'atini, yozuvni o'zlashtiradilar. Ular harbiy jang aravalarini ham inlardan o'rganadilar. Chjou davrida jamiyat besh ijtimoiy qatlamga ajralgan:

1. Van - «kishilar orasida yagona» hukmdor.
2. Chjou - merosiy hudud hokimlari, Chjou oliy aslzodalari.
3. Dafu - urug' qabila guruhlari boshliqlari.
4. In - katta oila boshliqlari.
5. Oddiy kishilar

Chjou davlati, Xitoy shohlari o'rtasidagi kurash. Van Osmon mamlakatida eng oliy mulkdor, boshqalar esa uning xizmatkori edi. Shu bilan birga «Van Chjouni o'z xizmatkori deb xisoblaydi, Chjou o'z xizmatkori deb dafuni hisoblaydi, dafu o'z xizmatkori deb inni hisoblaydi» tushunchasi mavjud bo'lgan. Bu davrda asirlar ko'plab qullarga aylantira boshlanadi.

Er. av. VIII asr boshlarida chjoularning Xuanxe daryosi yuqori oqimi havzasida yashagan lun qabilalari bilan to'qnashuvi kuchayadi. Junlar kelib chiqishi chjoularga qarindosh edilar, lekin turmush tarzi va xo'jalik yuritish shakli bilan farq qilganlar. 10 – van davrida (781-771 yillar) yarim ko'chmanchi junlar bilan hal qiluvchi to'qnashuv yuz beradi. Merosiy er mulklarni ko'payishi, ijoxou (merosiy hudud hokimlari) mustaqilligini kuchayishi Van hokimiyatini zaiflashtirdi. Chjou Pix-van isenchi Chjouxoular va junlar hujumini qaytara olmadi. U poytaxt hududini tashlab ketishiga majbur bo'ladi. Bu voqea Xitoy an'anasida g'arbiy Chjou davrini tugashi deb hisoblanadi.

Er.av. 770 yil poytaxt sharqqa hozirgi Loyan hududiga ko'chiriladi. Shu sababli er. av. VIII-III asrlar Sharqiy Chjou davri deb ataladi. Junlardan qochish vanning obro'-e'tiborini keskin tushirib yubordi. Endilikda u Chjoular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga aralasha olmadi. Chjoxoular amalda mustaqil hokimlarga aylandilar Vanning yerlari kamaytirilib, unga o'lpon to'lanmay qo'yildi. Er. av. VIII asr oxirida Xitoy mingdan ziyod bir-biri bilan urushayotgan mustaqil mulklarga bo'linib ketdi, ammo ular mamlakatning an'anaviy birligini ramzi sifatida Chjou vanini oliy

hokimiyatini rasman tan oldilar. Bu davrda ijtimoiy tabaqalanish murakkablashdi, qullarning va qaram aholining soni o'sdi. Pul-tovar munosabatlari, ishlab chiqarish kuchlari o'sadi. Van tomonidan er-mulklar zodagonlar, harbiylarga taqsimlab beriladi. Erga xususiy mulkchilik paydo bo'ladi.

Er.av. VII asrdan boshlab separat kayfiyatlar kuchayib ketdi. Chjoularning Xuanxening yuqori oqimidagi jun qabilalari bilan to'qnashuvi kuchayadi. Ko'chmanchilar birlashib chjoularga katta xavf tug'diradilar va Chjou podsholiklari ichki kurashida ishtirok etadilar.

O'rta Xitoy tekisligida birinchilik uchun bo'lgan kurashda Xuanxe quyi qismi Sin podsholigi (Er.av. 650 yil), keyinroq Szin podsholigi (er. av. 630 yil) etakchi o'ringa chiqadi. Szin va janubiy Chu podsholiklari raqobati er. av. VII-VI asrlar siyosiy tarixida asosiy davr bo'ladi. Raqobatda Chu engib chiqdi va er. av. 575 yilgacha u etakchi o'ringa chiqib oladi. Shundan so'ng, boshqa podsholiklar ham o'zaro urushda ishtirok etadilar. Er. av. 403 yilda Tsizin davlatini emirilishidan Xitoy an'anasi shartli hisobi bilan Chjan'go (Urushayotgan davlatlar er. av. 403-221 yillar) davri boshlandi.

Xitoyda er. av. VI-IV asrlarda temir tarqaldi. Temir mehnat qurollarini keskin ko'payishi aholini tez o'sishiga olib keldi. Hayvonlardan yerni haydashda foydalanila boshlandi. Mahsulotni, ekin yerlarini ko'payishi va umumiy beqarorlik ijtimoiy siljishlarga olib keldi. Yerga jamoa mulkchiligi tizimi tugadi. Er. av. 1000 yillik o'rtalaridan yerni sotish va olish huquqi bilan yerga xususiy mulkchilik paydo bo'ldi. Davlat yer egalaridan yer solig'ini olishni joriy qildi, boy hunarmand-savdogarlar tabaqasi shakllandi. Shaharlarni va shahar aholisini ko'payishi kuzatildi. Er. av. IV-III asrlarda metal tanga tarqaldi.

Bu davrda qadimgi Xitoyni asosiy ta'limotlari konfutsiylik, legizm, daosizm vujudga keldi. Konfutsiy (Kun-size er. av. 551-479-yillar) ta'limoti bo'yicha inson tabiatan ezgulik hislatiga ega va o'z burchini sidqidildan o'tashga tayyor. Konfutsiy barcha ijtimoiy munosabatlar uchun oilani namuna hisoblaydi. Oilada kattalar kichiklarga g'amxo'rlik qiladilar va ularni tarbiyalaydilar, kichiklar ularni hurmat qiladilar va ularga bo'ysunadilar. Davlatga xalq farzandlar o'rnida, hukmdor ota

o'rnida bo'ladi, hukmdor o'z shaxsiy manfaati emas xalq farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi lozim.

Sin davlatining tashkil topishi. Er. av. IV asrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni barqaror holatga keltirish uchun ko'pgina podsholiklarda islohotlar o'tkaziladi. Ana shunday islohotlardan biri er. av. 350 yilda Sin podsholigida oliy amaldor Shan Yan tomonidan o'tkaziladi. Mamlakat uezdlarga bo'linadi, er sotib olishga ruxsat beriladi, o'lchov birliklari unifikatsiya qilinadi, urug' zodagonlarning ayrim imtiyozlari bekor qilinadi.

Er. av. 246 yil Sin taxtiga o'n yoshli Chjen chiqdi. Er. av. 238 yil yosh podsho Chjen o'ziga qarshi fitnani fosh qiladi. Er. av. 230 yil asosiy raqib Xan podsholigini, er. av. 228-221 yillarida esa, boshqa beshta podsholiklarni bosib oladi. Er. av. 221 mamlakatni birlashtirish tugallanadi. 28 yoshli In Chjen «Sin sulolasining birinchi imperatori» Sin Shixuandi unvonini qabul qiladi. U «Bizning avlodimiz vorislik tartibiga ko'ra ershi («ikkinchi»), san'shi («uchinchi») va toki o'n ming avlodgacha ular nihoyasiga merosxo'r bo'ladilar deb tantanali e'lon qiladi. Ammo bu davlat bor yo'g'i 14 yil yashadi.

Mamlakat hududi 36 yirik ma'muriy okrugga bo'lingan, har bir okrug uezdlarga, uezdlar volostlarga, volostlar esa bir necha jamoadan iborat edi. Okrug boshlig'i va okrug qo'shin boshlig'i imperator tomonidan tayinlangan. Okrug boshlig'i esa uezd boshlig'i va ularning muovinlarini tayinlagan. Imperatorning ikki maslahatchisi bo'lib ular markaziy davlat apparatini boshqarganlar.

Markazlashgan davlat apparati harbiy, moliya, sud, imperator oilasi bo'limi va inspeksiya nazorat bo'limlaridan tashkil topgan. Qat'iy markazlashgan davlat boshqaruvi aparatida eng quyi bo'g'inda jamoa oqsoqollari turar edi. Davlat aholi hayotini barcha jabhalarini qat'iy bir qolipga soldi: aholidan barcha qurollar tortib olinib, qo'ng'iroqlar qo'yildi. Mamlakat bo'yicha yozuv, pul, tanga, o'lchov birliklari unifikatsiya qilindi, beqiyos, shavqatsiz ruhda bo'lgan yagona qonunchilik tizimi joriy qilindi. Jinoyati uchun butun oila jazolangan, o'lim jazosi barcha ayblar uchun qo'llanilgan. Ommaviy ravishda katorga ishlariga surgun qilingan. Odamlar Sin davridan oldingi davrlarni xotirasidan chiqarishi uchun Sin podsholigidan oldingi

yo'zuvdagi asarlarni yo'q qilishga buyruq berilgan. qadimiyatga e'tiqod qilganlari uchun yuzlab Konfutsiy ta'limoti muxlislari, olimlar jismoniy yo'q qilingan. Butun Xitoy aholisi og'ir mehnatga duchor qilindi. Misli ko'rilmagan qurilish: 5 ming km. uzunlikdagi buyuk devorni bunyod qilishga kirishildi (6-rasm). Xitoy imperator saroyi va tog' ishida o'yilgan imperator sog'onasi qurilib, sog'onaga balandligi o'rtacha odam o'lchovida bo'lgan 6 ming jangchi haykallari joylashtirildi va Xitoyni butun hududi aholisi bu qurilishlarga zo'rlik bilan haydab kelindi. Imperator qo'shinni shimolga xunlarga qarshi va Yanszi daryosi va Janubiy Xitoy dengizi oralig'i havzasidagi mamlakatlarni ishg'ol qilishga yuborildi.

Er. av. 207 yilda xalq qo'zg'oloni Sin sulolasini ag'darib tashladi. Qo'zg'olon boshliqlaridan biri mayda amaldor Lyu Ban er.av. 202 yil «Xan vani» unvonini qabul qilib, Xan imperiyasiga asos soladi. Bu sulola Xitoyda eramizning III asrigacha hukmronlik qiladi. Imperator Gao-szu (Lyu-Van) (er. av. 202-195 yillar) xalqni ahvolini engillashtiradigan tadbirlarni amalga oshiradi. Qarzi uchun qul qilinganlar qullikdan ozod qilinadilar, jamoalarga vaqtinchalik imtiyozlar berilib, soliqlar Sin davridagidan 10 marta kamaytirilib, hosilni 1G`15 qismini tashkil etdi. Keyingi imperator Syao Ven-di (er. av. 180-165 yillar) xalqni ahvolini yana engillashtirdi. U saroy xarajatlarini kamaytiradi, dehqonlardan olinadigan er solig'ini kamaytiradi. Qarindoshining jinoyati uchun jazo berishni, imperatorni haqorat qilgani uchun jazoni bekor qiladi. Iqtisodiy taraqqiyot er. av. II asrda Sariq dengizdan boshlanib O'rta er dengizigacha borgan Buyuk ipak yo'li shakllandi.

Xan imperiyasini yuksalishi, islohotlar. Imperator U-di (Eramizdan avvalgi 104-87 yillar) boshqaruvi yillari Xan imperiyasining eng gullab - yashanagan davri edi. U-di markazlashtirish siyosatini olib boradi. Vanlarga meros mulkni faqat katta o'g'li emas, balki barcha o'g'illari o'rtasida taqsimlash joriy etiladi. Natijada merosiy mulklarning hajmi keskin qisqarib ular amalda hokimiyatdan maxrum bo'ladilar. Markaziy davlat apparati mustahkamlanadi. Okrug amaldorlari faoliyatini nazorat qiladigan nazorat inspektori qayta tiklanadi. Okrug boshliqlari tomonidan amaldorlik vazifasiga qobiliyatli kishilarni muntazam tavsiya etish tizimi joriy qilinadi. Imperatorning birinchi maslahatchisining vakolat doirasi cheklanadi.

Imperator kantselyariyasi tashkil etilib, U-di joylarni boshqarish tizimlarini faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Konfutsiylik davlatning yagona mafkurasi sifatida qabul qilingan. U-di faol istilochilik siyosatini olib boradi. U shimolda ko'chmanchi xunlar hududini bosib olishga harakat qiladi. Xunlar bilan urush yillarida Xitoy hozirgi Sinszyan va O'rta Osiyo bilan birinchi aloqalarni o'rnatadi. U-di er.av. 139 yilda o'z elchisi Szyan Syanni O'rta Osiyo («g'arbiy o'lka»)ga yuborgan, elchi o'n yildan keyin Xitoyga qaytib keladi. Xitoyliklar Farg'ona, Baqtriya va Parfiya to'g'risida bilimga ega bo'ladilar va bu mamlakatlar bilan aloqa o'rnatadilar. Ana shu vaqtda Xitoy O'rta Osiyodan uzum, poliz ekinlari, musiqa asboblari, idish-tovoqlarni o'zlashtirib oladi. Keyinchalik Xitoy O'rta Osiyodan budda dinini qabul qiladi.

Xitoy Hindistonga boradigan yo'lda Yuanyan va Suchuanni bosib oladi. Er.av. 109 yilda Koreya yarim orolidagi Choson davlatini bosib olgan.

Imperator U-dining hukmdorlik yillari qadimgi Xitoy tarixida «oltin davr» deb hisoblandi. Xan davrida qullarning soni oshdi. Xususiy, davlat qullari, qarz uchun qul qilingan qullar mavjud edi. Manbalar bu davrdagi yirik quldor xo'jaliklari, qul bozorlari to'g'risida ma'lumot beradi. Er. av. II-I asrlarda xalqning iqtisodiy ahvoli yana og'irlashadi, er va boshqa boyliklar oldi-sottisi keng tus oladi. Qarzi uchun o'zi va oila a'zolarini qul qilish yana rivojlanadi. Er katta er egalari qo'lida to'plana boshlaydi, qaram dehqonlar ko'payadi. Er ijara haqi juda yuqorilab ketadi. Yollanma mehnat keng tarqaladi.

Eramizning I yillarida yirik amaldor Van Man imperator hokimiyatiga ega bo'lib er egaligi va quldorlik munosabatlarida islohot o'tkazadi. Bu vaqtda dehqonlarning ersizlanishi kuchayib, katta-katta er maydonlari alohida qo'llarda to'planib qolgan edi. Van Man barcha yerlarni imperator mulki deb e'lon qilib, erni sotishni ta'qiqlaydi. Qul savdosi ham ta'qiqlanadi, ammo bu islohotlar amalga oshmaydi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti toboro tushkunlikka yuz tuta boradi. Xalq harakatlaridan so'ng, Xitoy III asr boshlarida uch mustaqil davlat Vey, Shu va U ga bo'linib ketadi.

Qadimgi Xitoyda dinning rivojlanishi. Qadimgi Xitoy mifologiyasi to'g'risidagi manbalar asosan er. av. XI asrga oid. Bu afsonalar mazmuniga ko'ra ikki guruhga bo'linadi.

Kosmogonik miflar ichida ilk, tartibsiz holatdan tabiat va insonning paydo bo'lishi to'g'risidagi asosiy kontseptsiya, bo'linish va aylanish berilgan. Ulardan birinchisi jonsiz va tirik mavjudotlar tartibsizligi, ikki ilk unsur (erkak)ning boshlanishi, Yan va qorong'ulik (ayol)ning boshlanishi - In paydo bo'lgan. Ikkinchi kontseptsiya barcha mavjudotlarning paydo bo'lishi bu transformatsiya natijasidir deb tushuntiradi. Odam Nyuy ismli ma'buda tomonidan loydan yaratilgan.

Tabiat stixiyalari va ulardan odamlarni qutqargan qahramonlar to'g'risida afsonalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Toshqin va qurg'oqchilik hodisalari afsonalarda ko'p tilga olinadi. Qadimgi qahramonlar to'g'risidagi afsonalarda qahramonlar odamlarni olovdan foydalanishga o'rgatgan; ilk bor shox-shabba chaylani ko'rgan. Baliq ovi va ovchilik usulini kashf qilgan; ilk dexqonchilik qurollarini yasagan, donni bug'da pishirishni o'rgatgan qahramonlar mavzusi etakchi o'rinni tutadi. Ko'pgina qahramonlar ilon gavdali, buqaning kallasi bilan yarim hayvon, yarim odam qiyofasida tasvirlanganlar. Bu qadimgi totemistik tasavvurlarni aks ettirishdir.

Qadimgi xitoyliklar u dunyo to'g'risidagi tuchunchalarida yerda mavjud bo'lgan tartib-qoidalar aks ettiriladi. Yerda hokimiyat Vanga tegishli, osmonda xamma jismlar Oliy xudo (Di)ga buysunadi. Di qudratli, u odamlarga marxamat qiladi yoki ularni baxtsizlik bilan jazolaydi. U odamlarga hosilni sovg'a qiladi, qurg'oqchilik yuboradi, yomg'ir va shamol Diga bog'liq. Dinning yaqinlarini Vanning vafot qilgan ajdodlari tashkil qiladi. Vanning ajdodlari Dinning topshiriqlarini bajaradi va ular Vanning yordam berish to'g'risidagi iltimosini Diga etkazadi. Vanning oliy koxin sifatidagi vazifasi odamlar va xudolar dunyosi o'rtasida vositachi bo'lgan o'z ajdodlari bilan muloqotni amalga oshirishdir.

Konfutsiylikni paydo bo'lishi va tarqalishi ajdodlarga e'tiqod qilishni kuchaytirdi. Konfutsiy (er. av. 551-479 yillar)ning axloqiy-syosiy ta'limotida markaziy o'rinni «oliyjanob kishi» (Szyanszi) to'g'risidagi tushuncha egallaydi.

Konfutsiylik gumanizm (Jen), sadoqat (Chjun), kattalarga hurmat (Syuo), kishilar o'rtasidagi munosabatlarga rioya qilish (Li)dan iborat. Konfutsiy ochko'zlik, zo'ravonlikga qarshi axloq va burchni qarama-qarshi qo'yadi.

II-III asrlarda Xitoyga budda dini kirib keldi. Afsonalarga ko'ra, birinchi budda sutralari (matn yoki qoida) Xitoyga oq otda olib kelingan: bunga xotira sifatida Loyan shahri yonida budda «oq ot ibodatxonasi» qurilgan va hozirgacha saqlanib qolgan. Xitoyda sutralarni tarjima qilish va budda dinini tarqalishi IV-VI asrlarga tegishlidir.

Ilk Xitoy yozuvining eng qadimgi yodgorliklari er. av. XIV-XI asrlarga oid fol ko'rish yozuvlaridir. In yozuvlarining ko'pchilik qismi buyumlar tasviridir. In belgilari buyumlar tasviri yoki murakkab tushunchalarni ifodalaydigan ko'pgina tasvirlar qo'shilmasi ideogramma ko'rinishidadir.

In belgilarining hozirgi Xitoy ierogliflaridan 3 xil farqli tomoni bor. Birinchidan, har bir elementar belgi qandaydir buyumning konturini tasvirlagan, ikkinchidan bir belgilini yozilishida ko'p xilma-xillik mavjud. Uchinchidan belgini qatorning nisbiy yo'nalishiga tomon harakati hali barqaror bo'lmagan. In yozuvining er. av. I ming yillikda Chjoular tomonidan o'zlashtirilishi, uning taraqqiyotini uzib qo'ymadi. Er. av. II-I ming yilliklarda ierogliflarning mahalliy variantlari unifikatsiya qilindi, belgilarni yozishning yangi husnixati paydo bo'ldi.

Qadimgi Xitoyda odatda yupqa yog'och yoki bambuk taxtachalariga yozilgan. Tukli mo'yqalam bilan yozuv ana shu taxtachalarga tushirilgan va yozuvlar metall pichoq bilan tozalangan. Er.av. I ming yillikning o'rtalarida ipak matoga ham yozilgan. Yangi era boshida qog'oz kashf qilinib ishlatila boshlandi va qog'oz boshqa materiallarni siqib chiqardi.

Eng qadimgi Xitoy she'riyati namunalari er.av. XI-VI asrlarda jez ko'zalardagi yozuvlarda etib kelgan. «Shiszin» («qo'shiqlar kitobi»)-qadimgi Xitoy adabiyotining haqiqiy xazinasidir. Bu yodgorlik 4 bo'limga bo'lingan («Podsholik axloqi», «Kichik odalar», «Buyuk odalar», «Madhiyalar») 305 poetik asarlar majmuasidan iborat.

«Shiszin» an'analari er.av. IV asrda poetik asarlar mualliflari tomonidan o'zlashtirib olindi. Bizgacha bu asarlar do'mbira shaklini eslatadigan tosh uyumlarda etib kelgan, shu sababli ular «Tosh do'mbiralar»dagi matnlar deb ataladi. Er.av. IV asrda mashhur Syu Yuan, Xan davrida Sima Syan-Ju kabi shoirlar ijod qilgan.

Musiqqa, poeziya va raqs kabi san'at janrlari Xitoyda yuqori darajada shakllangan. Musiqqa asboblari uch asosiy guruhga: torli, tovush va urib chalinadigan asboblarga bo'lingan. Ko'pgina musiqqa asboblari eramizning birinchi, ikkinchi asrlarida O'rta Osiyodan o'zlashtirib olingan.

Xitoy me'morchilik san'atida yog'och asosiy xom-ashyo edi. Xan davrining noyob me'morchilik yodgorligi imperiya poytaxti Shanyan shahri 12 darvozali devor bilan o'rab olingan. Baland ko'p xonali imperator saroyi, ma'muriy binolar va ibodatxonalar shaharning ko'rki edi. Ma'muriy binolar sariq rangda, imperator saroylari qizil rangda bo'yalgan. Xan davrida portret san'ati yuksak darajada bo'lgan, saroylar portret freskalari bilan bezatilgan.

Qadimgi Xitoyda ilmiy bilimlar ayniqsa, matematika rivojlangan. Er.av. ikkinchi asrda to'qqiz kitobdan iborat «matematika» traktati tuzildi. Bunda oldingi olimlarning bilimlari proportsiya, progress, bo'lishlar bayon etilgan. Pifagor teoremasi va boshqalar to'plangan. Matematika bilan yonma-yon astronomiya fani ham rivojlandi. Er. av. 104 yilda bir yil 365,25 kun hisoblab chiqildi. Shu yil qabul qilingan kalendar eramizning 85-yiligacha foydalanildi. Bu kalendar bo'yicha yil 12 oyga bo'lindi. Qo'shimcha oy kabisa yiliga qo'shilib 3 yilda bir marta belgilangan. Qo'yosh-oy kalendari qishloq xo'jalik ishlariga moslashtirilgan. Qadimgi Xitoyda tibbiyot sohasida katta yutuqlarga erishildi. Er. av. III asrda Xitoy vrachlari igna bilan davolashni kashf qilganlar. Tabiblar 52 kasallikni davolashni bilganlar. 280 davolash usulini qo'llaganlar.

Tayanch iboralar: Van, Xitoy mifologiyasi, Konfutsiylik, Ok ot ibodatxonasi, In yozuvi, Sima Syan, musiqqa, poeziya, portret san'ati, Pifagor teoremasi, igna bilan davolash, sutralar, tosh do'mbiralar, Shanyan, ierogliflar, kabisa yili, oliy xudo.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi er. av. V-III ming yilliklarda qaysi hududda shakllangan?
2. Nechanchi yilda In davlati inqirozga yuz tutdi?
3. Xitoyda nechanchi asrda temir keng tarqaldi?
4. Qadimgi Xitoyda qaysi fan rivojlandi?
5. In belgilarining hozirgi Xitoy ierogliflaridan nechchi xil farqli tomoni bor?
6. Xitoy O'rta Osiyodan qaysi dinni qabul qilib oldi?

Glossariy

G'arbiy o'lka- U-di (er.av. 139 yil) davrida O'rta Osiyo "G'arbiy o'lka" deb yuritilgan.

Chjun – konfutsiylik ta'limotida "sadoqat" deb nomlangan.

Syuo – kattalarga xurmat.

Li – kishilar o'rtasidagi munosabatlarga rioya qilish.

Di – oliy xudo.

Tosh do'mbiralari – do'mbira shaklidagi toshga yozilgan asarlar.

Budda sutralari – matn yoki qoidalar.

II BO'LIM. QADIMGI YUNONISTON

11-§. Qadimgi Yunoniston. Krit-miken davri

Yunonistonning joylashish o'ri, aholisi. Yunoniston geografik jihatdan 3 qismga bo'linadi: Fessaliya va Epir, shimolda Moli va Pagasey ko'rfazlari, janubdan Korinf va Saronika bilan cheklangan, markaziy qismi Peloponnes yarim orolidan iborat janubga bo'linadi. Shimoliy qismida Fessaliyani Epir dan Pind tog'lari zanjiri ajratib turadi. Qadimda bu ikki viloyat yunon madaniyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu yerda ilk bor shimoldan janubga tomon yunon qabilalari siljib kelgan.

Fessaliyada qadimgi yunon afsonalari paydo bo'ldi. Uning janubidagi Sperxa daryosi vodiysidagi axey Ftiotidasi axil va mirmidonlar vatani. Fessaliyadan afsonaviy Yason uzoq Kolxidaga oltin mo'yna uchun jo'nab ketgan. Dodonda Sella koinlari muqaddas dub daraxtining barglarini shitirlashiga qarab fol ochganlar. Epir yunon madaniyatiga aloqasi bo'lmagan yovvoyi o'lka bo'lib, uni markaziy Yunoniston bilan faqat xaon, tesprot, moloss va oresta kabi epir qabilalari joylashgan Axeloy daryosi bog'lab turgan.

Fessaliya barcha tomondan tog'lar bilan o'ralgan bo'lib, bu yerda ikki tekislikni Fessaliyalik bosqinchilar ishg'ol qilganlar. Ular mahalliy aholini qaram penestlarga aylantirganlar. Qisman ularni vodiyaning tog'larga siqib chiqarganlar. Fessaliya g'arbiy qismida g'alla va chorvachilik rivojlangan. U yerda qulay qirg'oq va qo'ltiqlar yo'q. Shimoliy Yunonistonni markaziy Yunonistondan dengiz va Oyta tog'lari orasida yotgan Fermopil daryosi ajratib turadi.

Markaziy Yunonistonda kam sonli tog'lik qabilalar joylashgan. Egey dengizi qirg'og'ida Evbey oroli qarshisida Opunt lokrlari joylashgan. Er. av. V asrda afinaliklar uchun lokrlar qoloqlikning namunasi bo'lgan.

Parnas (2450 m) va Kifris tog'larida joylashgan vakiy qabilalari yanada qoloq bo'lgan. Markaziy Yunoniston yo'lidagi eng muhim joy bu Elateya shahri bo'lgan. Delfa qadimgi Elladaning diniy markazi vazifasini o'tagan. Parnasdan shimolda

Yunonistonning eng kichik viloyati – Dorida (185 kv.km) bo'lgan, aftidan doriylar shu yerdan kelib chiqqanlar.

Fokidadan g'arbga Agra, evitan nomidagi illiriya qabilalari yashagan tog'li va ozroq unumdor vodiya ega bo'lgan Etoliya viloyati joylashgan.

Shimolda Epir bilan tutashgan Abrakiy qo'ltig'igacha bo'lgan hudud Akarnaniyada illiriya qabilalari yashagan. Janubda 3000 kv. km. hududni egallagan Beotiya viloyati birdaniga 3 dengiz bilan tutashgan. Poytaxti Fiva bo'lgan Beotiyada g'allachilik, chorvachilik va baliqchilik kuchli rivojlangan.

Beotiyani janubdan Kiferon va Parnas tog'lari o'rab turadi. Yunonistonning markazida tuprog'i dexqonchilikka noqulay bo'lgan Attika viloyati joylashgan. Qadimgi Attikada suv tanqis bo'lsa-da, ammo marmar, loy, kumush va zaytun daraxtlariga boy bo'lgan.

Afinaning dengiz yo'lini Salamin oroli to'sib turadi. Salamin uchun Afina Megara va Egina bilan uzoq urush olib borgan, faqat Eginaning bo'ysundirilishi Afinaning dengiz savdosiga yo'l ochdi. Korinf va Saronik qo'ltiqlari orasidagi tog'lik hududda Megara shahri joylashgan. Korinf qo'ltig'idan so'ng Peleponnes yarim oroliga o'tish mumkin. Uning markazida Arkadiya balandligi turadi.

Lakoniya va Messeniya viloyatlari yarimorol g'arbida joylashgan. Bu viloyatlarda g'alla ekilgan. Messeniya shimolda Elida viloyati joylashgan bo'lib, Alfey va Kladey daryolari qo'shilish joyida har 4 yilda bir marta Olimpiya o'yinlari o'tkaziladigan olimpiada joylashgan. Ellidadan shimolda Axeya viloyati turadi.

Yunonistonning iqlimi yumshoq, harorati 16 S ni tashkil etadi. Landshafti qadimda hozirgidan farq qilgan. Qalin o'rmonlar ko'p bo'lib, tuproq hozirgidek toshloq bo'lgan. Faqat ozgina er unumdor bo'lgan. Er. av. VI asrgacha faqat bug'doy va tariq ekilgan. Keyin esa uzum va zaytun bu ekinlarni siqib chiqargan.

Yunonistonda oltin yo'q. Mis juda ko'p. Xalqida shahrining nomi ham "mis" degan ma'noni bildiradi. Bu yerdan mis qazib chiqarilgan. Beotiya va Lakoniyada sifati past temir, Tasos va Sifnos orollaridan er. av. VIII-VI asrlardan kumush qazib olingan.

Er. av.VI asrdan Lavrion kumush koni ochilgan. Bu konlardan olingan daromad er. av.V asrda Afinani qudratli flot qurishga va Yunonistonda etakchilik rolini o'ynashga imkon berdi.

Afinada tog'-konchilik sohasida ulkan yutuqlarga erishildi. Konlarning chuqurligi 100 m. ga etgan. Qimmatli metallarni qidirib topish san'ati yuqori darajada bo'lgan. Kulolchilikda yunonlar haqiqiy san'atkor bo'lganlar. Tosh juda yuqori baholangan. Hamma joyda tosh mo'l-ko'l bo'lgan. Marmarning vatani Pentelikon Afinadan bor-yo'g'i 10 km masofada joylashgan. Mashhur Parfenon va Propiley pentelikon marmaridan bunyod etilgan.

Yunoniston tarixini o'rganishga oid manbalar. Qadimgi Yunoniston tarixiga oid manbalar ko'pligi va yaxshi saqlanib qolganligi bilan boshqa hududlar tarixidan farq qiladi. Yunoniston tarixi manbashunosligida qadimgi tarixchilarning asarlari muhim o'rin tutadi. Er. av. VI-V asrlarda tarix fani gullab yashnagan davridir. Bu davr tarixchiligini g'arb olimlari "Aholida polislar tarixi" deb atashadi. Bu davrdagi ko'zga ko'ringan tarixchilardan: Gerodot, Fukidid va Ksenofontni olish mumkin.

Makedoniyalik Aleksandrning sharqqa yurishlaridan so'ng Yunoniston tarixida yangi tarix maktabi – Arastu maktabi shakllandi. Bu davrning eng ko'zga ko'ringan asari Arastuning "Politiya" asaridir. Bu asar Arastu va uning shogirdlari tomonidan yozilgan bo'lib, yunon polislari, O'rta er dengizi qirg'oqlaridagi yunon koloniyalari haqida muhim ma'lumot beradi. Asar juda ko'p bo'limlardan iborat bo'lsa-da, uning faqat bizgacha "Afina politsiyasi" qismi etib kelgan.

Ellin davriga kelib yunon jamiyatidagi keskin o'zgarishlar, katta davlatlarning vujudga kelishi bilan umumiy tarixga asos solindi. Bu davrning eng ko'zga ko'ringan tarixchilaridan biri Timey bo'lib, u o'zining asarida Bolqon Yunonistoni, g'arbiy yunon mustamlakalari haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Qadimgi yunon tarixi bo'yicha eng muhim manbalardan biri arxeologik topilmalar hisoblanadi. Arxeologlar Bolqon Yunonistoni va Egey dengizi orollaridagi qadimgi ibodatxonalar, saroylar, mudofaa inshootlarini qazib ochdilar. Ayniqsa, Krit orolida ingliz arxeologi E. Evans 40 yildan ko'proq vaqt Knoss saroyini qazib ochdi.

Kichik Osiyoda nemis arxeologi G. Shlimanning Troya xarobalarini qazib ochishi qimmatli ma'lumotlarni berdi.

Bu davrda me'muar asarlar xam yozilgan. Polislarning emirilishigacha yunonlar tarix va adabiyotga oid asarlarni me'muar shaklda yozishgan. Er. av. IV asrdagi eng yirik me'muar asar Ksenofontga tegishli. U asosan harbiy sohaga oid ma'lumotlarni beradi.

Ellinizm davrida me'muar va avtobiografik asarlar yozish odat tusiga kirdi. Ellin davri siyosatchilaridan Pirra va Arata eng yirik tarixiy asarlar mualliflari hisoblanadilar. Ular "Axey ittifoqi" haqida keng ma'lumotlarni yozib qoldirishgan.

Antik jamiyatda xatlar muhim o'rin tutgan. Ular ikki xil shaklda ochiq va yopiq shaklda yozilgan. Platon, Isokrat va Sallyustiylar yozgan ochiq xatlarida falsafiy muammolar haqida fikr yuritilgan. Yopiq xatlar davlat ahamiyatiga molik xatlar bo'lib, maxsus kishilar nomidan yozilgan. Ularda asosan siyosiy va mahfiy ma'lumotlar yozilgan.

Yunon she'riy adabiyotining shakllanishi er. av. IX–VIII asarlarga tegishli bo'lib, bu davrni "Gomer davri she'riyati" deyishadi. Gomer, Gesiod va dramaturglar Esxil, Sofoklning asarlari juda yaxshi saqlangan. Gesiod o'zining "Mehnat va kunlar" asarida yunon jamiyatidagi ijtimoiy ziddiyatlar haqida yozadi.

Yunon tarixiy manbashunosligiga shahar qoldiqlari muhim o'rin tutadi. Shaharlardagi saroylar, ibodatxonalar yaxshi saqlangan. Krit-Miken davri saroylari, inshootlari juda ko'plab topilgan. Yunon me'morchigining asosiy yodgorliklaridan bu Palestlar va Gimnasiylardir. Palestlar – bu sport inshootlari jumlasiga kirib, u yerda asosan yosh bolalar muntazam sport bilan shug'ullanishgan. Gimnasiy – sport inshooti bo'lib, bu yerda asosan kattalar sport va fan bilan shug'ullanganlar. Bizgacha Afinaning ikki katta gimnaziyasi saqlanib qolgan. Ulardan biri qahramon Akadem bog'ida joylashgan, ikkinchisi likeylik Appolon dala hovlisida joylashgan.

Krit-Miken madaniyati ingiliz arxeologi Artur Evansning (1851-1941) Krit orolida olib borgan arxeologik qazishmalari, G. Shliman (1822-1892)ni Kichik Osiyodagi Xissorlik tepaligida Troya shahri xarobalarini qazib ochishi, Yunoniston janubida Mikena va Tirinf shaharlarini qazishmalari natijasida ma'lum bo'ldi. Artur

Evans Krit orolidagi Knoss saroylarini ochib Kritning afsonaviy podshosi Minoy nomi bilan atalgan ajoyib Minoy madaniyati manzarasini yaratdi.

Krit-Mikena davri. Yunon tarixi qadimgi dunyo tarixining bir qismi hisoblanadi. Qadimgi yunon tarixi doirasida Bolqon yarim oroli, Egey dengizi havzasi, janubiy Italiya, Sitsiliya oroli va shimoliy Qora dengiz bo'yi, Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'idagi qadimgi jamiyatlarning shakllanishi, gullab-yashnashi va tushkunlik davrini o'rganadi. Yunon sivilizatsiyasi tarixi uch bosqichga bo'linadi: birinchisi - bu er. av. II ming yillikda Krit va Mikenada ilk sinfiy jamiyatlar va davlat birlashmalarining paydo bo'lishi va halokati. Ikkinchi bosqich - bu Krit-Miken sivilizatsiyasining halokatidan keyin antik Yunonistonning er. av. XII asrdan er. av. IV asrning so'ngi choragigacha bo'lgan taraqqiyot davrini o'z ichiga oladi. Qadimgi Yunon jamiyati taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy davlat tuzilmasi bo'lgan yunon polislarining tug'ilishi, yuksalishi va tushkunligi bosqichi bo'ldi.

Er. av. IV asrning so'ngi choragida yunon-makedonlar tomonidan Ahamoniylar Eroni davlatining bosib olinishidan yunon tarixining uchinchi so'ngi bosqichi boshlanadi. Bu bosqich qariyb uch yuz yilni o'z ichiga olib, sharq va g'arb madaniyati unsurlarini o'z ichiga olgan Ellin davlatlarining tashkil topishi, ellin madaniyatining rivojlanishi davridir. Bu bosqich er. av. I asr so'ngida ellin davlatlarining g'arbdan Rim, sharqdan Parfiya tomonidan bosib olinishi bilan tugaydi.

Bolqon Yunonistonida davlatchilik taraqqiyotining yangi davri taxminan er. av. XI asrdan boshlanadi. Bu davrdan antik Yunoniston taraqqiyotining polis davri boshlanadi. U o'z ichiga ushbu davrni oladi:

1. Er. av. XI-IX asrlar - Gomer yoki polis arafasi ("qorong'i asrlar"). Bu bosqichda Bolqon Yunonistoni hududida urug'-qabila munosabatlari hukmron bo'ladi.

2. Arxaika davri (er. av. VIII-VI asrlar) - polis-davlatlarning shakllanishi, Buyuk Yunon kolonizatsiyasi va ilk Yunon tiraniyalari davri.

3. Klassik Yunoniston (er. av. V-IV asrlar.) - Qadimgi yunon polislari, ularning iqtisodiyoti va yunon madaniyatining gullab-yashnagan davri.

Makedoniyalik Iskandarning Sharq yurishlaridan keyin Ellin davlatlarining tashkil topishi bilan qadimgi yunon tarixida yangi ellin davri (er. av. IV asrning so'ngi choragi - er. av. 30-yillar) boshlanadi. Er. av. 30-yilda so'ngi ellin davlatlaridan biri ptolomeylar Misr mustaqilligini yo'qotib Rimga tobe bo'ladi. Shu bilan antik Yunoniston tarixi tugallanadi.

Eramizdan avv.III-II ming yilliklarda Dunay ortidan yunonlarning keyingi avlodlari Bolqon yarim oroliga bostirib kirdilar. Bu davrda Bolqon yarim orolida va unga yaqin orollarda kariylar, leleg va pelasglar yashaganlar.

Bundan tashqari Amogros, Paros, Sifnos, Siros, Naksos, Tera, Melos, kabi Egey orollaridagi ko'pgina madaniy yodgorliklar ochildi. Natijada er.av. ikkinchi ming yillikgacha xalqlar yaratgan va bu xalqlar yutuqlarini ijodiy o'zlashtirgan yunonlargacha bo'lgan axeylarning Miken madaniyati deb atalgan madaniyatini yaxlit ko'rinishi shakllantirildi.

Qadimda Egey havzasida uch madaniy birlik: eng qadimgi Krit yoki Minoy deb nomlangan (er. av. 3000-1200 yillar) markazi Krit bo'lgan orollardagi Kiklad, Bolqon Yunonistonidagi Ellada madaniyatlari mavjud bo'lgan.

Gomer davri, shahar davlatlar. Er. av. XII-VIII asrlarda jamoa tizimidan polis shaklidagi davlat tashkilotiga o'tish boshlanadi. Yunonlar oqsoqollar saylab qo'yiladigan urug' jamoasida yashaganlar. Ayrim paytda urug'lar biror bir umum masalani echish uchun kattaroq tashkilot – fratriyaga birlashadilar. Undan kattaroq qabila – fil edi. Fratriya va urug'ni kelib chiqishi bir umumiy ajdoddan bo'lgan. Urug' boshliqlari bilan bir qatorda fil va fratriyaning Gomyerda – filobasilevs deb eslatiladigan yo'l boshchilari bo'lib, urug' boshliqlari ularga bir qism o'z hokimiyatlarini berganlar.

Gomer poemalariga ko'ra er. av. VIII asrda qadimgi yunon adabiyotining noyob namunalarini "Iliada" va "Odiseya" dostonlari ko'r baxshi Gomer tomonidan yaratildi. Dostonlar Mikena davridagi jang qilayotgan qahramonlar dunyosi tasvirini beradi. Axill qalqoni, finikiya ko'zalarining ajoyib tasvirlari, jangchilarning qurol –

aslahalari yunon tarixini arxaik davri to'g'risida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

“Odisseya” va “Iliada”ni o'qiganda yunon jamoasidagi mulkiy tabaqalanishini, urug'chilik munosabatlarini zaiflashganini, basilevlar bilan hokimiyatga intilayotgan ko'p sonli zodagonlar qatlamini shakllanayotganini kuzatish mumkin. Poemalarda temirchi, tosh teruvchi, duradgor va kema yasovchilar to'g'risida hikoya qilinadi. Erkin kishilar bilan bir qatorda qullar ham mehnat qilganlar.

Qulchilik hali xonaki shaklda bo'lgan. Xo'jalik natural holatda, xo'jayin qul bilan yonma – yon jismoniy mehnat qilishdan hali jirkanmagan. Odisseyning otasi Laert xam yerda ishlaydi, xotini Penelopa kalava yigiradi, Navsakiya kir yuvadi, Odissey sol, Paris butun bir saroy quradi. Odisseyning xo'jaligida 50 qul bor. Gomer o'tmish qahramonlarini sharaflab o'zi yashagan davrning mavjud ijtimoiy tabaqalanishning real tasvirini chizadi. Troyani qamal qiluvchilar bilan yo'l boshchi Agamemnon o'rtasida unga qarshi norozilik tug'diruvchi o'jar Tersit obrazini kelib chiqishi Olimp xudolariga borib taqaluvchi yo'l boshchi podsholar bilan oddiy xalq ommasi o'rtasidagi etilib kelayotgan qarama – qarshilikda o'z aksini topgan.

XIX asrdan so'ng Egey dengizi orollarida ham faol arxeologik qazilma ishlar olib borildi. Ingliz arxeologik ekspeditsiyasi Antikoros orolida bronza davri yodgorliklarini topdi. Shundan so'ng Melos, Seros, Spornos, Loros, Naksos orollarida arxeologik qazish ishlari olib borildi. 1967 yil arxeologlar Fera orolig'idan Akrotir shahrini topishdi. Uni Egey Pompeyasi deb atashgan. 1932 yil yosh yunon arxeologi Spiridan Marinotos Minos orolining yirik porti Amnissni topdi. U arxeologik ishlarda Strabonning “Geografiya” asaridan keng foydalandi.

Kiklada Krit shimolidagi Egey dengizidagi ko'pgina orollar majmuasidir. Ularni yunonlar “kikladalar” ya'ni aylana deyishgan. Kiklada madaniyati uch yirik davrga bo'linadi: Qadimgi kiklad davri (2700-2300), O'rta kiklad davri (2300-1500), So'ngi kiklad davri (1500-1100).

Kiklad madaniyati bronza davri madaniyati bo'lib orollardan bronzadan yasalgan mehnat qurollari, sopol buyumlar, zeb-ziynatlar topilgan. Rassomchilikda freska tasvir san'ati yuksak rivojlangan. Eng mashhur freskalar “Ikki ayol jangi” va

“antilopalar” tasviridir. Kiklad madaniyati shakllarida Kichik Osiyo orollari muhim ahamiyat kasb etgan.

Buyuk Yunon mustamlakachiligi. Er. av. I ming yillikning boshlarida ilk bor finikiyaliklar begona hududlarda o'zlarining yangi manzilgohlari (Koloniya)larini barpo qila boshladilar. Finikiyaliklardan keyin yunonlar ham bu jarayonda faol ishtirok etadilar. Koloniyalar begona hududlarda ularni tashkil etgan finikiyalik va yunon savdogarlari uchun tayanch nuqtalari bo'lib xizmat qilgan. Yunonlarning koloniyalarni barpo qilish faoliyati er. av. VIII-VI asrlarga to'g'ri keladi. Bu vaqt buyuk yunon kolonizatsiyasi davri deb aytiladi.

Koloniyalarni barpo qilishning bir necha sabablari bor edi. Birinchi navbatda Yunonistonning bir necha viloyatlarida aholining haddan tashqari ko'payib ketganligidir. Arxaik davrining boshlanishida aholi sonining keskin o'sishi natijasida, demografik portlash yuz berdi. Ishlab chiqarish kuchlarning zaif rivojlanishi oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni taqchilligiga olib keldi. Yunonistonning o'zida dexqonchilik qilish uchun yaroqli bo'lgan yerlar deyarli yo'q edi. Aholining ortiqcha qismi shu sababli begona hududlarga borib yangi yerlarni o'zlashtirishga majbur bo'ldi.

Buyuk yunon kolonizatsiyasining yana bir ijtimoiy sababi bor edi. Kambag'allashgan jamoachi dehqonlar o'zlarining boyib ketgan zodagon qarindoshlariga qarzi uchun qul bo'lishni xoxlamadilar, ular o'zlarini qarzlari uchun garovga qo'yilgan bir parcha yerlarini tashlab ketishga majbur bo'ladilar. Ular uchun yagona yo'l begona joylarga ketish edi. Arxaik Yunonistonning shaharlari bu vaqtda yirik iqtisodiy markazlarga aylandilar, savdo iqtisodiyotning asosiy sohalaridan biriga aylandi. Bu shaharlarning boy savdogarlari chet mamlakatlarga boradigan yo'llarda o'rnashib qolish uchun savdo koloniyalari barpo qilishga harakat qildilar.

Yunon shaharlaridagi tabaqaviy ijtimoiy-siyosiy kurash kolonizatsiya jarayonini yana bir sababi edi. Shaharlarning iqtisodiy taraqqiyoti tabaqalanishni kuchaytirdi. Shahar aholisining turli tabaqalari o'rtasida ijtimoiy-siyosiy kurash kuchayib ketdi. Yengilgan guruh shaharni tashlab ketishga majbur edi. Shuningdek savdo-

hunarmandchilikni rivojlanishi xom ashyoga bo'lgan ehtiyoj va tayyor mahsulotni sotish uchun yangi hududlarni izlab topish zaruriyatini tug'dirdi.

Bundan tashqari arxaik davrda Yunonistonning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan viloyatlarida fuqarolarni qarzi uchun qul qilish qonun bilan taqiqlangan edi. O'sib borayotgan iqtisodiyot uchun arzon ishchi kuchi qullarga bo'lgan talabni qondirish uchun begona hududlardan qullarni olib kelish boshlandi. Yunon koloniyalari ko'p hollarda yangi qul bozorlarining tashkilotchilari bo'ldilar.

Buyuk kolonizatsiya deb atalgan jarayon bilan bog'langan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar qadimgi Yunonistonning keyingi taraqqiyotini belgilab berdi. G'arb va Sharqda ko'p sonli yunon kolonniyalarining barpo qilinishi, O'rtayer dengizi savdosidan finikiyaliklarni siqib chiqarilishi, yunon savdosini o'sishi, hunarmandchilikning yuksak taraqqiyotiga olib keldi. Tovar sotish bozorlari, hunarmandchilik mahsulotlari hajmi kengaydi, ishchi kuchiga yana ehtiyoj kuchayib, qullarni soni o'sdi. Ellada iqtisodiyotining barcha sohalarida qul mehnati etakchi o'ringa chiqq boshladi. Zodagon oligarxiya ayrim polislarda boshqaruvni xalq tomonidan hokimiyat tepasiga chiqarilgan, o'z shaxsiy hokimiyatini o'rganishga erishgan kuchli va faol shaxslar bo'lgan tiranlarga topshirishga majbur bo'ldi. Eramizdan avv. VI asrda arxaik davrning tugashi davrida ba'zi bir polislarda demokratiyaning ilk asoslari qurildi.

Yunon shaharlarida demos ma'lum darajada kuchga to'lganidan so'ng o'zlari yoqtirmagan tiranlarni hokimiyatidan yengil qutildilar. Tiraniya urug' zodagonlari bilan kurashda yetakchi rol o'ynab, er. av. V asr boshlarida deyarli hamma joyda polis tuzumini o'rnatilishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berdilar va hokimiyatni topshirib, siyosiy sahnadan chiqib ketdilar.

Har bir yunon polisi suveren davlat bo'lib, o'z fuqaroligi, qonunlari, hokimiyat organlari, ibodatxona, teatr, xalq yig'ini o'tadigan maydoni, palestar, gimnasey, stadion kabi jamoat inshootlariga ega edi. Yunon polislarning barchasi Spartadan tashqari shahar atrofida birlashgan bir necha qishloq majmuasi edi. Sparta 5 qishloq birlashgan polis edi. Har bir polisdagi vaqt o'tishi bilan polis

tuzilmasi tugallangan shaklni oldi va barqaror fuqarolik siyosiy tashkiloti (demokratiya yoki oligarxiya) shaklida faoliyat ko'rsata boshladi.

Tayanch iboralar: Kiklad, Fessaliya, Beotiya, Kiferon, Ellinizm, memuar asar, poleslar, shahar-davlat, olimp xudolari, Freska tasviri, suveren davlat.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Nima uchun yunon tarixini o'rganish uchun zarurat tug'ildi?
2. Krit-Miken madaniyati nimani anglatadi va nimani o'rganadi?
3. Tabiiy sharoiti xususida qanday fikrdasiz?
4. Gomer kim va uning qanday asarlari mavjud?
5. Qadimgi yunon mustamlakachiligi tarixi xususida nimalarni bilasiz?
6. Yunoniston tarixiga oid qanday memuar asarlarni bilasiz?
7. Kiklad madaniyati qaysi davrga oid?

Glossariy:

Palestlar – sport inshooti, yosh bolalar muntazam sport bilan shug'ullanadigan joy.

Gimnasiy – sport inshooti, asosan kattalar sport va fan bilan shug'ullanganlar.

Minoy madaniyati – Kritning afsonaviy podshosi Minoy nomi bilan atalgan.

Fratriya – katta tashkilot, bu yerda muhim umummasalalar echilgan.

Kiklada – ya'ni, aylana. Kiklada yunonlar ularni orollar majmuasi deyishgan.

12-§. Er. av. IX-VI asrlarda Attika. Yunon-Eron urushlari

Er.av. VII-VI asrlarda qadimgi Attika. Manbalar. Boshqa savdo-hunarmandchilik polislariga nisbatan tarixiy traditsiyada eng shuhrat qozongan. Afina polisini boshliq Attikaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan tez taraqqiyoti bir muncha keyinroq boshlangan. Lekin tez orada Afina ulardan o'zib va uzoq vaqtgacha Gretsiyaning savdo-hunarmandchilik va madaniy markazi bo'lib kelgan.

Er.av. VII asrlardan boshlab Afinaning davlat tuzumi taraqqiyoti tarixini Aristotel o'zining "Afina politiyasi" degan mashhur traktatida tasvirlagan. Geradot bilan Fukidit ham bu davr haqida o'z "Tarix"larida qisqacha yozib qoldirgan. Plutarx er. avv VI asrning boshlarida yashagan Afina qonun chiqaruvchisi Solonning tarjimai holini yozgan. Obidalardagi birmuncha yozuvlar, tangalar va boshqa arxeologik manbalar ham saqlanib qolgan.

Attika O'rta Gretsiyaning Egey dengizi sohilidagi toshloq yarim oroldan iborat. Attikada serhosil yerlar kam, ammo kulolchilik buyumlari yasaladigan yaxshi gilvata, kumush, qo'rg'oshin, marmar serob. Tabiiy sharoiti tokzorlar, zaytunzorlar barpo qilish uchun juda qulay. Bir necha qulay buxtasi ham bor. Oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligi azaldan Attika aholisini hunarmandchilik va dengiz savdosi bilan o'z hunarmandchilik buyumlarini jumladan, sopol idishlarini arpa va bug'doyga almashtirib olish bilan shug'ullanishga majbur etgan.

Krit-mikena va gomer davrlariga borib taqaladigan rivoyatlar bizga ko'pdan-ko'p urushlar bo'lganligini va bu urushlar davomida Afina atrofida Attikada yashovchi ion qabilalarining asta-sekin birlashuvi (yunoncha-"sinoykism") yuzaga kelganligini xabar qiladilar. Afsonalarga ko'ra er. av. II ming yillikdayoq sinoykismni (birlashuvni) Tesey amalga oshirgan. Shu bilan birga Tesey erkin aholini uch toifaga: yevpatritlarga (ya'ni, nasl-nasabi olijanob bo'lgan aristokratlarga), geomorlarga (yer uchastkalariga egalik qiluvchi dehqonlarga) va demiurug'larga (xalq uchun ishlovchi hunarmandlarga) bo'lgan. Bu toifaviy bo'linishda mehnat

taqsimoti va qadimgi jamoaning parchalanishi aks ettirilgan edi. Xaqiqatda sinoykism keyinroq er. av. VII asrda, qo'shni Elevsin shahrini Afinaga qo'shib olish bilan tamomlangan edi.

Rivoyatlarga ko'ra, eng qadim zamonlarda Afinada basileylar xokimlik qilgan. Basileylarning qarorgohi dengizdan bir necha chaqirim naridan joylashgan qoya tepasida istexkom bilan o'ralgan Akropolda bo'lgan (11-rasm). Basileylar hokimiyati asta-sekin zodagonlar kengashi tomonidan cheklanib borilgan. Bu zodagonlar kengashi sinfiy jamiyatga o'tayotganda kuchayib ketgan nasl-nasabli aristokratlarning –yevpatridlarning manfaatlarini himoya qilgan.

Biroq basiley mansabi Afinada hech qachon bekor qilinmagan bo'lsada, u o'z siyosiy ahamiyatini asta-sekin yo'qotib borgan. Ijtimoiy taraqqiyot ilgarilab borgan sayin tobora murakkablashgan boshqarish funksiyalari yangi vazifalarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Zodagonlar kengashi bu vazifalarni endi basileylar zimmasiga yuklamagan, balki ularni bajarish uchun yangi lavozimlar ta'sis etgan. Harbiy ishning murakkablashuvi munosabati bilan mahsus askarboshilik – polemarxlik lavozimi ana shu tariqa paydo bo'lgan. Basileyning vazifalari doirasidan harbiy qo'mondonlik lavozimining olib tashlanishi uning obro'sini juda to'kib qo'ygan.

Yangi mansabdor shaxs arxond (ya'ni, boshliq yoki el og'asi) er. av. IX – XIII asrlar davomida Afina aristokratiya polisining boshlig'i bo'lib qoladi, ikkinchi o'ringa tushib qolgan basiley mansabi esa vaqt o'tishi bilan faqat diniy vazifalarni bajaradigan bo'lib qoladi. Bu mansablarning hammasiga xalq yig'ini avval umrbod, so'ngra o'n yillik muddati bilan aristokratlar urug'idan bo'lgan shaxslarni saylab qo'yadi. Er. av. VII asrning birinchi choragida bu mansablar bir yillik bo'lib qolgan.

Qonunlarni yozish uchun bir yil muddatga olti fesmofetdan iborat kollegiya saylanganligi haqidagi xabarda demos bilan aristokratiya o'rtasida boshlangan kurashga sal ishora qilib o'tilgan. Biroq, qonunlar uzoq vaqtgacha hamon yozilmay qolgan. Bunga og'izdan o'tib boruvchi an'analarga binoan sud ishlarini olib borgan yevpatridlar qarshilik ko'rsatishgan. Hukmronlik qiluvchi aristokratlar, agar qonunlar yoziladigan bo'lsa, bizning cheksiz hokimiyatimizga

putr yetadi, deb o'ylaganlar. Olti fesmofet bir yillik muddatga muntazam ravishda saylanadigan sudyalarga aylanganlar. Arxont basiley va polimarxdan iborat eski kollegiya ular bilan to'ldirilgan va bu kollegiya endi to'qqiz arxont kollegiyasi deb atala boshlagan. Birinchi arxont arxont-eponim nomini olgan, ya'ni u saylangan yil uning nomi bilan belgilanadigan bo'lib qolgan.

Afinadagi xalq yig'ini ham, boshqa polislardagi singari, mustaqil emas edi. Afina aristokratlarining oliy qonun chiqaruvchi va sud organi yuqorida aytib o'tilgan zodagonlar kengashi bo'lib, bu kengash urush xudosi Aresga atalgan Akropol yaqinida joylashgan tepa ustida – Areopogda majlis qilgan. Shuning uchun kengashning o'zini ham arxontlikka navbatdagi nomzodlarni tavsiya qilgan. Arxontlar saylanganlaridan keyin o'z faoliyatlarida mazkur organ oldida javobgar bo'lganlar, hokimiyat tepasida bir yil turganlaridan keyin, ular kengashning yangi a'zolari bo'lib qolganlar.

Demosning aristokratiyaga qarshi kurashining boshlanishi. “Kilon g'alayoni”. Jamoa uyushmasi batamom buzilgan vaqtga kelganda, yevpatridlar vodiylardagi deyarli hamma eng yaxshi yerlarni bosib olib, sobiq jamoa a'zolari geomorlarga ko'pincha tog' etaklarida, ozgina, kam hosil yer va yer uchastkalarini qoldirganlar. Yer uchastkalarining oz miqdorda bo'lishi ko'p o'tmay geomorlarni boy qo'shinlari yevpatridlarga qaram ahvolga solib qo'ygan. Yangi hosilgacha bir amallab kun kechirish uchun geomorlar o'z uchastkalarini yoki hatto o'zlarini garovga qo'yib, natura bilan qarz olishga majbur bo'lganlar. Olingan qarz o'z vaqtida qaytarilmasa, geomor o'z ulush yerining bir qismidan yoki hammasidan mahrum qilingan, yer uchastkasi qarz beruvchiga o'tgan, qarzdor esa qaram ijarachiga aylanib qolgan. Agarda geomor qarzni o'zini garovga qo'yib olgan bo'lsa, qarzni muddatida to'lay olmagan taqdirda, u qarz evaziga yevpatritning quli bo'lib qolgan.

Er. av. VII asrda Afinada hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlana boshlagan (12-rasm). Evpatridlar orasida mulkiy tabaqalanish yuz beradi. Ulardan ba'zilari hunarmandchilik ustaxonalari tashkil etib, savdo-sotiq bilan shug'ullana boshlaydilar. Ularning manfaatlari yevpatridlarning asosiy hukmron gruppasi

bo'lgan, geomorflarning yer uchastkalarini bosib olib, qarz badaliga ularni qulga aylantirgan katta yer egalarning manfaatlariga ters bo'lib qoladi. Hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan yevpatridlar o'z manfaatlari jihatidan shahar demosining boy qatlamlariga yaqin edilar (13-rasm).

Olimp o'yinlarida g'olib kelib Afinada mashhur bo'lgan yevpatrid Kilon Afina tirani bo'lib olmoq uchun aristokratiya bilan demos o'rtasida keskinlashib ketgan munosabatlardan foydalanib qolishga ahd qilgan. Er. av. qariyb 640 yilda u Zevs sharafiga qilingan bayramda o'z tarafdorlari bilan birgalikda Akropolni bosib olgan. Biroq, Afina demosi yevpatridlarga qarshi aktiv harakat qilishga hali tayyor bo'lmagan. Alkmeonidlar urug'idan bo'lmish arxont Megakl rahbarligida yevpotridlar Akropolni qamal qilishga muvoffaq bo'lganlar. Kilon qochib qutulgan, uning tarafdorlari esa ochlikdan butunlay holdan toygach, ularni qurshab olgan afinaliklarga taslim bo'lishga majbur bo'lganlar. G'oliblar ularga hayotlarini saqlab qolishga va'da berganlar, chunki qamaldagilar ochlik va tashnalikdan Akropl ustida Afina mehrobi yonida o'ladilar va bu bilan muqaddas joyni harom qiladilar, deb qo'rqqanlar. Ammo Megaklning tarafdorlari o'z so'zlarida turmaganlar va Kilon tarafdorlarining muqaddas joydan chiqishlari bilan qirib tashlaganlar.

Yunon Eron urushlarining sabablari. Er. av. VI asrning ikkinchi yarmida Eron sharqning eng qudratli davlatiga aylanadi. U qisqa vaqt ichida Qora dengizdan Hind okeanigacha, O'rta yer dengizining sharqiy sohillaridan Hindistongacha bo'lgan yerlarni bosib oladi. Endi eronliklar Yunonistonga ham ko'z olaytira boshlaydilar. Eron qo'shinlari Yunonistonning Qora, Marmar va Egey dengizlari sohillaridagi mustamlakalarini, ular orasidagi yo'llarni va undagi bo'g'ozlarni ham egallaganlar. Bu bilan eronliklar Yunonistonning Qora dengiz sohillaridagi xalqlar bilan aloqasini uzib qo'yganlar. Eron qo'shinlari ilgariroq Misrni ham zabt etgan edi. Natijada, Qora dengiz va Misr tomondan Yunonistonga kelib turadigan g'alla va boshqa mahsulotlar kelmay qo'ygan. Eron qo'shinlari Egey dengizidagi orollarning ko'pchiligini, shuningdek, uning shimolidagi yerlarni ham istilo qilganlar. Yunoniston sharq va shimoli-sharq tomondan dushman bosqini xavfi ostida qolgan.

Bu vaqtda Yunoniston polislari o'rtasida birlik yo'q bo'lib, ko'pgina polislar Eron xukmronligini tan olishga tarafdor edi. Ammo ikki polis - Afina va Sparta Eronga itoat etishni xohlamagan. Yunonistondagi bu vaziyat Eron shohi uchun muhim ahamiyatga ega edi.

Er. av. 492 yilda Eron shohi Doro I o'z kuyovi Mardoniy qo'mondonligi ostida ham quruqlikda, ham dengizda Yunonistonga katta qo'shin yuborgan. Quruqlikdagi qo'shin Gellespont bo'g'ozidan o'tib, yo'l-yo'lakay shahar va qishloqlarni vayron qilib, Egey dengizining Frakiya sohili bo'ylab harakat qilgan. Eronliklarning harbiy dengiz kuchlari sohil bo'ylab suzib, Fasos orolini bosib olganlar.

Frakiyalik jangovar qabilalar o'zlarini mudofaa qilib, Xalkidika yarim oroliga yaqinlashib qolgan dushman qo'shinlarini bir muncha kuchsizlantirgan. Buning ustiga dengizda dahshatli bo'ron ko'tarilib, Eron harbiy kemalarining ko'p qismi yakson bo'lgan. Eron qo'shinlari Yunonistonga yetolmay, dengiz falokatidan omon qolgan kuchlari bilan orqaga chekinishga majbur bo'lgan. Eron qo'shinlari orqaga chekingach, Doro I Yunoniston polislari elchi yuborib, ularning Eronga tobe bo'lishlarini talab qilgan. Ko'pchilik yunon shahar-davlatlari Eron shohining talabiga rozi ekanliklarini bildirganlar. Fessaliya va Beotiyadagi ayrim polislardagi xoin aslzodalar o'z hukmronliklarini saqlab qolish uchun Eron yordamiga umid bog'laganlar. Ammo Afina va Sparta Doro I ning taklifini rad etgan. Afinada Eron elchilari qoyadan uloqtirilgan. Spartada esa elchilarni yerni ham, suvni ham shu yerdan olsinlar, deb quduqqa tashlaganlar. Shu tariqa Doro I ning butun Yunonistonni o'ziga tobe etish yo'lidagi birinchi urinishi natijasiz tugagan.

Eron shohi Doro I katta tayyorgarlikdan so'ng er. av. 490 yilda Yunonistonga qarshi ikkinchi yurishini boshlagan. Eronning harbiy dengiz floti Kilikiya qirg'oqlaridan suzib, Egey dengizini kesib o'tgan. Eron harbiy dengiz flotiga tajribali qo'mondon Datis va shohning jiyani Artaferilar boshchilik qilgan. Eronliklar Evbiya oroliga qo'shin tushirib, tezda Eretriyani bosib olganlar. Datis o'z qo'shinlarini Attikaning shimoli-sharqidagi Marafon qishlog'i yaqiniga tushirgan. Marafon Afinadan 42 km masofada joylashgan manzil edi. Eron qo'shinlarining Marafonga tushganliklari haqidagi xabar Yunoniston bo'ylab tez tarqaladi. Yunonistonning

ko'pgina polislaridagi aslzodalar dushmanga qarshi hech qanday chora ko'rmaydilar. Ammo Afina demosining ko'pchilik qismi vatan uchun hayot-mamot kurashiga otlanganlar. Attikada safarbarlik e'lon qilingan. Og'ir qurollangan jangchi-goplitlar lashkari va yengil qurollangan barcha yordamchi qo'shinlar jangovar holatga keltirilgan.

Xalq yig'ini eronliklarning Afinaga hujum qilishini kutib turmasdan jang boshlashga qaror qilgan. Qo'shni Betsiyadagi kichkina Plateya shahrining mingta jangchidan iborat askarlari ham Afina qo'shinlariga kelib qo'shiladilar. Afina qo'shiniga 10 sarkarda va bir arxontpolemark navbat bilan qo'mondonlik qilgan. Afina yordam so'rab, Spartaga chopar yuborgan. Ammo spartaliklar to'lin oy chiqmasdan turib, yordamga kela olmasliklarini bildirganlar. Afinaning jangovar qo'shiniga Miltiad qo'mondonlik qilgan kun u butun lashkarni jangovar tartibda saflagan va eronliklarga qarshi hujumga o'tgan. Marafon yonida hayot-mamot jangi bo'lgan. Yunon qo'shinlari Eron qo'shinlariga qaraganda kam bo'lishlariga qaramay, bu jangda g'olib chiqqanlar. Yunonlar Eron qo'shinlarini Egey dengizining sayozligida batamom yakson etganlar. Yunon qo'shinlari eronliklarning yetti kemasini qo'lga tushirganlar, boshqa kemalar qochib qolgan.

Marafon yonida g'alabani Afinaga yetkazish uchun bir chopar 42 km masofani chopib o'tgan. Chopar Afina ostonalariga yugurib kelib, "Quvoning, biz yengdik!", deb shu zahoti yuragi yorilib, jon bergan. Rivoyatlarga ko'ra, marafoncha yugurish ana shundan qolgan ekan.

Marafon mag'lubiyatidan keyin eronliklar Afinaga yana hujum qilishga harakat qilgan bo'lsada, afinaliklarning kuchli mudofaasini ko'rib bunga jur'at qilmaganlar.

Er. av. 486 yili Eron shohi Doro 1 vafot etadi. Shundan keyin Eron taxtiga uning o'g'li Kserks o'tiradi. Kserks mamlakatdagi qo'zg'olonlarni bostirib, Yunonistonni bosib olishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Bu davrda Yunonistondagi polislar va siyosiy guruhlar orasida parokandalik davom etardi. Lekin Afina urushga tayyorgarlik ko'rib, quruqlikdagi qo'shinni va dengiz flotini jangovar holatga keltirib qo'ygan edi. Eron bilan urush xavfi yaqinlashgach, yunon polisleri o'zaro janjallarni

yig'ishtirib, birlashishga ahd qilganlar. Er. av. 481 yilda Afina bilan Sparta o'rtasida ittifoq tuzilib, unga boshqa polislar ham qo'shiladilar.

Er. av. 480 yilning ko'klamida eronliklarning Yunonistonga qarshi uchinchi yurishi boshlanadi. Qo'shinga Kserksning o'zi boshchilik qiladi. Uning qo'shini eronliklardan tashqari, turonliklar, ossuriyaliklar, bobilliklar, misrliklar, Kichik Osiyo yunonlari va boshqa xalqlardan olingan jangchilardan iborat edi. Finikiyaliklar esa eronliklarga harbiy kemalar yasab berganlar.

Er. av. 480 yilda Eron qo'shini va floti ham quruqlikdan, ham dengizdan Yunoniston ustiga bostirib kiradi. Kserks qo'shini jang qilmay Shimoliy Yunonistonni ishg'ol qiladi. Chunki Fessaliya bilan Makedoniya Kserksga jangsiz itoat etadi. Yunonlar bilan Eron qo'shinlari Fermopol yonida bir-birlariga to'qnash keladilar, Fermopol mudofaasiga Sparta podshosi Leonid boshchilik qiladi va eronliklarning O'rta Yunonistonga o'tadigan yo'lini to'sib turadi.

Eron qo'shinlari Shimoliy Yunonistondan o'tib, Shimoliy va O'rta Yunonistonni bog'lab turuvchi Farmopol yo'lagiga yetib keladi. Leonid o'z qo'shinlari bilan ikki kun davomida eronliklarning son jihatdan ortiq bo'lgan qo'shinining hujumlarini qahramonona qaytarib turgan. Lekin katta boylikka sotilgan fessaliyalik bir xoin eronliklarni aylanma tog' so'qmoqlari orqali yunon qo'shinlarining orqa tomoniga boshlab borgan. Leonid dushmanlarning orqa tomondan o'rab olayotganini sezib, 300 spartalikdan boshqa hamma yunon jangchilariga chekinishni buyurgan. U 300 spartalik va serg'ayrat yunon jangchilari bilan birga eronliklarga qarshi beomon jangga otlangan. Jang ikki kechayu ikki kunduz to'xtovsiz davom etgan. Ayovsiz jangda Leonid va u bilan qolgan askarlar qahramonlarcha halok bo'lganlar. Shundan keyin eronliklar O'rta Yunonistonga bostirib kirganlar va Afinani ishg'ol qilganlar. Shaharga o't qo'yilib, vayron qilingan. Afinaliklar shaharni tashlab ketishga majbur bo'lganlar. Afinaliklardan jang qilishga qurbi yetadigan erkaklar qo'shin va harbiy kemalarga boradilar. Ayollar, qariyalar, bolalar va qullarni afinaliklar flot himoyasida Peloponnesga va Salamin oroliga o'tkazib qo'yadilar. Afinaliklar Kserks buyrug'i bilan o't qo'yilgan jonajon shaharlari alanga ichida qanday yonayotganligini kemalardan va oroldan kuzatib turadilar.

Yunonlar oldida eronliklarga zarba berishdek ulug' vazifa turardi. Ular Attika bilan Salamin oroli oralig'idagi bo'g'ozga 200 dan ortiq harbiy kemalarini joylashtirganlar. Yunonlar xuddi shu Salamin bo'g'ozida dushmanga zarba berish rejasini tuzganlar. Bu jang er. av. 480 yilning ko'klamida boshlanib, jangga har ikki tomondan juda ko'p qo'shin qatnashgan. Bo'g'ozda turgan yunon harbiy kemalarining har bir tomonida uch qatordan eshkaklar bo'lgan, shuning uchun ular trieralar deb atalgan. Ularning har birida 180 tadan eshkakchi va 20-30 tadan jangchi bo'lgan. Eronliklarning ochiq dengizda yurishga moslashgan kattakon, og'ir kemalariga qaraganda, trieralar bo'g'ozda ancha tez harakat qila olardi.

Yunon dengizchilari tor Salamin bo'g'ozining qayeri sayoz, qayerida qoya toshlar borligini yaxshi bilishardi. O'zining ko'p sonli flotining g'alaba qilishiga ishongan Kserks unga bo'g'ozga kirib, yunonlar bilan jang qilishni buyuradi. Kserks o'z a'yonlari bilan Attikaning baland qirg'og'idan o'z kemalari yunonlar kemalariga yaqinlashib borayotganini kuzatib turadi. Oroidan esa afinalik qariyalar va ayollar jangning borishini kuzatib turardilar.

Afinaliklar va boshqa polislardan kelgan yunonlar yo g'alaba, yoki qahramonlarcha halok bo'lishni shiori ostida jangga kirganlar. Chunki ular uchun chekinadigan joyning o'zi yo'q edi, chekinsalar oilalari qullikka tushardi. Eron floti bo'g'ozga kirishi bilan yunon eshkakchilari eshkaklarini ishga solib, kemalarini shitob bilan dushman ustiga haydab boradilar. Yunonlarning trieralari dushman kemalarining eshkaklarini sindirib, burni bilan urib kemalarning yonlarini tesha boshlaydilar. Natijada Eron kemalarining saflari buziladi. Ayni paytda Eron kemalari qo'ltiqning sayoz joylarida o'tirib qumlab qoladi. Ba'zilari suv osti toshlariga, ba'zilari bir-birlariga urilib, tilka-pora bo'ladi. Jangda yunon floti g'olib chiqib, eronliklarning 200 dan ortiq kemasi suvga g'arq bo'ladi. Mag'lubiyatdan omon qolgan eronliklar flotining qolgan qismi chekinishga majbur bo'lgan. Eron flotining Salamindagi mag'lubiyati Kserksni o'z qo'shinining bir qismi bilan Yunonistonni shosha-pisha tashlab qochishga majbur qilgan.

Er. av. 479 yilda Mardoniy qo'mondonligidagi Eron qo'shinilari Attikaga bostirib kirib, Afinani vaqtincha ishg'ol qilganlar. Sparta, Afina, Megara, Plateya va

boshqa polislarning birlashgan kuchlari eronliklarga qarshi kurashga otlangan. Mardoniy qo'shinlari Beotiyaga chekingan. Shu yili Plateya yonida yunonlar g'alaba qozongan. Eron qo'shini qo'mondoni Mardoniy ham jangda halok bo'lgan. Forslar Yunonistonni tashlab chiqishga majbur bo'lganlar. Shu tariqa yunonlar qahramonona kurashib o'z vatanlarini dushmandan tozalaganlar.

Er. av. 478 yilda Afina eronliklar ustidan uzil-kesil g'alaba qilish uchun eronliklarga qarshi kurashda ishtirok etgan barcha polislari, Kichik Osiyodagi yunon shaharlari va Egey dengizi orollari bilan harbiy ittifoq tuzgan. Bu Delos yoki 1-Afina dengiz ittifoqi deb nom olgan. Bu ittifoqda Afina rahbarlik qilgan. Uning Delos ittifoqi deb atalishining sababi shunda ediki, ittifoq xazinasini yunonlar muqaddas deb bilgan Delos orolida saqlangan. Ittifoqchilar qo'shinni harbiy kemalar, askarlar va pul mablag'i bilan ta'minlab turishlari kerak edi.

1-Afina ittifoqi yunon qo'shinlarini harbiy jihatdan kuchaytirgan. Shundan keyin Eron shohi qo'l ostida qolgan yunonlarni ozod qilish uchun olib borilgan urush yana 43 yil davom etgan. Kichik Osiyoning g'arbiy sohilida joylashgan yunon shahar-davlatlari ham o'zaro ittifoq tuzganlar. Ittifoqchilardan eng kuchlisi Afina edi. Afinaliklar boshchiligida yunonlar eronliklarning flotini bir necha bor mag'lubiyatga uchratib, Kichik Osiyo sohillariga bir qancha hujumlar qilganlar. Kichik Osiyodagi va Egey dengizi sohilidagi aholi eronliklar zulmidan ozod qilingan. Forslar bilan urush er. av. 449 yilga qadar davom etgan.

O'sha yili yunonlar bilan sulh tuzganlar. Bu sulh yunonlar tomonining vakili afinalik Kalliy nomi bilan "Kalliy sulhi" deb ataladi. Sulh ahdlariga ko'ra, eronliklar Kichik Osiyodagi yunon shaharlari va Egey dengizidagi barcha orollar mustaqilligini tan olgan. Eron harbiy flotiga Egey dengizida suzish taqiqlangan.

1-Afina dengiz ittifoqidan foydalanib, Afina yunon dunyosida eng qudratli davlat bo'lib qoladi (13-rasm). Yunoniston-Eron urushlari o'z vatanining mustaqilligini va ozodligini Eron asoratidan saqlab qolgan yunonlarning g'alabasi bilan yakunlangan. Bu urush ular uchun adolatli, ozodlik urushi edi.

Er. av. V-IV asrlarda Yunonistonning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi. Yunon Eron urushlarida etakchilik qilib, butun mamlakat shahar-davlatlarini bosqinchilarga

qarshi kurashga otlantirgan, hamda g'alabalarga salmoqli hissa qo'shgan Afina davlati katta obro'-e'tiborga sazovor bo'ldi. Urushdan so'ng butun O'rta er dengizi havzasidagi eng kuchli davlatga aylandi.

Yunon shahar davlatlarining Afina boshchiligidagi ittifoq Kalliy sulhidan keyin ham saqlanib qoladi. Bu ittifoqning a'zolari 200 dan oshgan edi. Ittifoqning umumiy harbiy floti va qo'shini yanada kuchaytiriladi. Uning pul xazinasini ham boyib boradi.

Afina harbiylari ittifoq floti va qo'shiniga qo'mondonlik qiladilar. Afinaliklar ittifoq xazinasini Delosdan shaharlariga ko'chirib, unga xo'jayinlik qila boshlaydilar. Xazinaga to'lanadigan a'zolik badali miqdorini ham afinaliklarning o'zlari belgilaydigan bo'ladilar. Afina butun Egey dengizida hukmronlikni o'z qo'liga oladi. Shuning uchun afinaliklarni "dengiz egalari" deb atashadigan bo'ladilar. Shu davrda Afina o'z qudratining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan.

Er. av. V-IV asrlarda Yunoniston polislarida dehqonlar uzumchilik bilan shug'ullanib, zaytun, piyoz, sarimsoq, meva, sabzavot ham ekkanlar. Yunonistonda bug'doy, arpa va boshqa don ekinlari kam ekilgan. Yunonlar Lakoniya, Messeniya, Beotiya va Fessasliya kabi sug'oriladigan yerlarda bug'doy, arpa va suli ekkanlar. Bu joylar Yunonistonni g'alla bilan ta'minlay olmas edi. Shuning uchun g'alla Sitsiliya va Shimoliy Qora dengiz bo'ylaridan keltirilgan. Dehqonlar g'allakorlikda omoch, toklarga ishlov berishda motiga, tok qaychi va daraxtlarning tagini yumshatishda belkurakdan foydalanganlar. Yunonistonda er. av. V asrdan boshlab uzumdan musallas, zaytundan moy olish ancha rivoj topgan edi. Chunki uzum va zaytun qishloq xo'jaligidagi asosiy maxsulotlar edi. Uzum musallasi va zaytun moyi Yunonistondan tashqarida ham yuqori baholangan.

Yunonistonda katta er egalari ham bo'lgan ammo oz erli dehqonlar ko'pchilikni tashkil qilgan. Chorvachilik qishloq xo'jaligida katta o'rin tutmagan, chunki keng yaylovlarning kamligi chorvachilikning rivojlanishiga imkon bermagan. Go'sht va sut qadimgi yunonlarning asosiy ozuqasi emas edi. Yunonlar jun olish maqsadida qo'y boqqanlar. Jundan har xil kiyim-bosh tayyorlaganlar. Ular yirik shoxli qoramol, eshak va xachir boqqanlar. Ulardan qishloq xo'jaligida va aravalarga qo'shishda

foydalanganlar. Yunonistonda ot kam boqilgan. Undan xo'jalikda ham, harbiy maqsadlarda ham kam foydalanilgan.

Er. av. V-IV asrlarda butun Yunonistonda hunarmandchilik rivojlanadi. Afina va boshqa shaharlarda to'qimachilik, zargarlik, kulolchilik, tikuvchilik, qurolsozlik va me'morchilik avj oldi (14 rasm). Har xil hunarmandchilik ustaxonalari va ishxonalar ergatseriyalar deb atalgan. Ularda 20-30 kishi ishlagan va asosiy qismini yollanma ishchilar hamda qullar tashkil etgan edi.

Er. av. IV asrda yashagan mashhur notiq Demosfenning yozishicha, otasining qurolsozlik ustaxonasida 33 ta qul ishlagan. Hunarmandchilikning rivojlanishi natijasida Yunoniston shaharlari, xususan Afina juda boyib ketgan.

Yunonistonda hunarmandchilikning rivojlanishi ichki va tashqi savdoning ravnaq topishiga olib kelgan. Qo'ltiqlarga yaqin shaharlar, xususan Afina savdo-sotiqning muhim markaziga aylangan. Afinadan 5-6 km masofada joylashgan Pirey Attikaning asosiy savdo-sotiq porti hisoblangan. Bu portda mol saqlanadigan omborxonalar, kema quradigan va ta'mirlaydigan ustaxonalar bor edi. Portga o'zga mamlakatlarning savdo kemalari tez-tez kelib turgan. Afinaliklarning dengizda hukmronlik qilishlari tufayli ularning savdo-sotiq ishlari ham tez rivojlanib ketgan. Afinaning savdo kemalari harbiy flot himoyasida O'rta yer va Qora dengizlarda suzib yurar edi (13-rasmga qarang).

Yunoniston savdogarlari O'rta yer dengizi havzasidagi Sitsiliya, Italiya, Misr, Kichik Osiyo, Finikiya, Frakiya, Sparta mamlakatlari Qora va Marmar dengizlari sohilidagi shaharlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borganlar.

Yunonistonga asosan g'alla, asal, mum, mo'yna va boshqa mahsulotlar, shuningdek, qullar ham keltirib turilgan. Bu yerdan chetga esa kulolchilik buyumlari, zaytun moyi, xar xil matolar, qurollar, tayyor kiyimlar chiqarilgan. Yunonistonning ichki va tashqi bozorlar bilan bo'lgan savdosi quruqlik va dengiz yo'llari orqali amalga oshirilgan.

Yunoniston-Eron urushi qulchilik munosabatlarining kuchayishini tezlashtiradi. Yunonlar urushda asir tushgan jangchilarnigina emas, balki boshqa mamlakatlarda qo'lga olingan ayollar va bolalarni ham cho'ri va qullarga aylantirganlar. Kichik

Osiyo sohillariga qilingan hujumlardan birida afinaliklar 20 mingdan ortiq kishini asir olganlar va ularni qul qilib bozorlarda sotganlar. Frakiya, Kichik Osiyo va Qora dengiz sohillarida yashagan mahalliy qabilalar o'z qo'shnilariga hujum qilib, asirga tushganlarni yunonlarga qul qilib sotar edilar.

Yunonistondagi qullarning ko'pchiligi o'zga yurtlardan bo'lib, ular orasida kam miqdorda yunon qullari bo'lgan. Barcha orollar va shaharlarda qul bozorlari bor edi. Ularning eng kattasi Xios orolida edi. Qul bozorlarida ayollar, erkaklar va yosh bolalar qul qilib sotilgan va sotib olingan. Ularning ko'kraklariga taxtachalar osib qo'yilib, unga qulning qaerlik ekanligi, yoshi va kasb-kori yozib qo'yilgan. Xaridorlar qullarni har tomonlama ko'rib, sinab olganlar.

Yunonistonning tosh va ma'danlarini qazib chiqaradigan shuningdek, hunarmandchilik rivoj topgan viloyatlarida qullar juda ko'p edi. Chunki ma'dan va marmartosh konlarida faqat qullar ishlaganlar. Hatto eng kambag'al erkin yunonlar bunday joylarda ishlamas edilar.

Savdo va harbiy kemalarning eshkakchilari qullar bo'lganlar. Qullar qulolchilik ustaxonalarida suv va o'tin tashir, loy qorar, kulolchilik charxlarini aylantirar edilar. Kulolchilik buyumlarini yasash va ularga naqsh solish, bezash ishlarini erkin kishilar bajarganlar. Garchi kichik erli dehqonlar yerlarida o'zlari ishlasalarda, katta-katta yerlari bo'lgan dehqonlar qul mehnatidan foydalanganlar. Qullar yorg'uchoqlarda ishlab, arpa-bug'doyni yanchib un qilar, uzum va zaytun mevalarini oyoqlari bilan bosib, suvini chiqarganlar. Ular qishloq xo'jalik mahsulotlari to'ldirilgan katta-kichik savatlarni bozorlarga olib borganlar. Yunonlar qullardan uy xizmatkorlari sifatida ham foydalanganlar. O'zlariga to'q kishilar va boylarning uylarida 3-4 dan 50 tagacha qullar va cho'rilar xizmat qilgan.

Qadimgi Yunonistonda qullarga barcha insoniy huquqlardan mahrum bo'lgan mavjudot deb qaralgan. Qullar o'z mehnatining samaralaridan ko'p manfaatdor emasdilar. Shuning uchun qulni qo'rqitish va jazolash yo'li bilan mehnat qilishga majbur qilish mumkin edi. "Odisseya" dostonida qullar haqida shunday deyilgan: "Qul ishyoqmas bo'ladi: xo'jayin qattiq turib uni ishlashga majbur etmasa, uning o'z hohishi bilan ishga qo'l urgisi kelmaydi...".

Qullarga o'tkazilgan jabr-zulm ularni o'z xo'jayinlariga qarshi kurashga undagan. Quldorlarning jabr-zulmidan norozi bo'lgan qullar ularga zarar keltirishga harakat qilganlar. Chunonchi, ular asbob-uskunalarni sindirganlar, mollarni mayib qilganlar, quldorlarga suiqasd kilib, hatto ularning uy-joylariga o't qo'yganlar. Ba'zan qullarning quldorlarga qarshi qo'zg'olonlari ham bo'lib turgan.

Er. av. V asr o'rtalarida yuz bergan qattiq zilzila natijasida Sparta shahari vayron bo'lgan. Qullik girdobiga tashlangan mahalliy aholi-ilotlar quldorlarga qarshi kurashga otlanganlar (18-xarita). Ular Spartaga yopirilib, hujum boshlaganlar. Spartaliklar bilan ilotlar hujumlarini qaytara olgan bo'lsalar-da, ammo qo'zg'olonni o'z kuchlari bilan bostira olmaganlar. Ular boshqa shahar davlatlarning quldorlaridan yordam so'rashga majbur bo'lganlar. Ba'zi shahar-davlatlar spartaliklarga yordam berganlar. Ammo shunga qaramay ilotlarning hujumini sindirish mumkin bo'lmagan. Bu kurash natijasida ilotlarning bir qismi spartaliklar zulmidan xalos bo'lib, ozodlikka erishganlar va Spartadan chiqib ketganlar.

Shunday qilib, Yunon-Eron urushlaridan keyin Yunoniston qulchilik davlati o'z taraqqiyotining eng yuqori darajasi - klassik qulchilikka etdi. Arzon va mo'l-ko'l qul mehnati natijasida iqtisodiy hayotda katta yutuqlarga erishildi, ko'plab moddiy ne'matlar yaratilib, erkin fuqarolarning turmushi yaxshilandi. Biroq qullar huquqsiz va eng ayanchli ahvolda qolaverganlar.

Afina quldorlik demokratiyasi. Afina quldorlik demokratiyasi quldorlarning qullar ustidan hukmronligini ta'minlaydigan idora usuli edi. Yunonistondagi boshqa shahar-davlatlarning aksariyatida Afina demokratiyasi singari demokratiya o'rnatilgan.

Er. av. V asrda quldorlik demokratiyasi o'zining eng yuqori pog'onasiga ko'tariladi. Hamma yerda bu demokratiya erkin kishilarning qullar ustidan bo'lgan hokimiyatini ta'minlaydi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu xokimiyatdan Attikadagi aholining ozgina qismi foydalangan, xolos. Otasi ham onasi ham tub afinalik bo'lgan erkak kishilargina Afina quldorlik davlatining to'la huquqli fuqarosi hisoblangan. Ular xalq yig'inida faol qatnashib, saylash va saylanish huquqiga ega edilar.

Ammo boshqa viloyatlardan Attikaga ko'chib kelgan kishilar va ularning avlod-ajdodlari Afina fuqarolari ega bo'lgan huquqlardan mahrum bo'lgan. Ular Attikada yashayotganliklari uchun alohida soliq to'lashlari kerak edi. Odamlarni va ma'muriyatni aldab o'zini Attika fuqarosi qilib ko'rsatgan yoki ko'rsatishga harakat qilgan kishilar qul qilingan. Afinalik ayollar xalq yig'inlarida qatnashtirilmagan, ularning asosiy vazifasi - "uy-ro'zg'orni yaxshi tutish va eriga itoatda bo'lish" dan iborat edi.

Afina fuqarolari qatoriga kirish juda qattiq cheklab qo'yilgan. Ammo qadimgi dunyoning hech bir joyida davlatni idora etish ishlarida va ijtimoiy hayotda kishilar Afinadagidek, faol qatnashmaganlar. Erkin afinaliklar eng og'ir ishlarini qullar zimmasiga yuklab, ko'p vaqtlarini shaharning jamoat joylarida madaniy, ma'rifiy va maishiy ishlar bilan o'tkazganlar (15-rasm).

Afinada odamlar eng ko'p to'planadigan va eng gavjum joy - bu agora edi. Ertalab bu erga savdo-sotiq qilinadigan peshtaxtalar qo'yilgan va kechgacha savdo-sotiq ishlari olib borilgan. Kechgacha borib savdo-sotiq tugagach, peshtaxtalar yig'ib olingan.

Agoraning bir tomonida Afina davlatining qonunlari o'yib yozilgan tosh taxtalar turgan. Unda xalq eg'ini bo'ladigan kun va sudda qanday ishlar ko'rinishi to'g'risidagi bildirishlar osib qo'yilgan. Xalq yig'ini bo'ladigan kuni boylar ham, hunarmandlar ham, bozorda buyumlarni sotib bo'lgan savdogaru dehqonlar ham, xullas hamma agorada to'planishgan.

Afinaliklar agorada turli yangiliklardan xabardor bo'lishgan. Qadimgi yunonlar uchun agoraga borish, bizning zamondagi odamlar uchun gazeta, radio va televideniya qanday ahamiyatga ega bo'lsa, xuddi shunday ahamiyatga ega edi. O'spirinlar, yigitlar va katta yoshdagi erkaklar gimnaziylarda to'planishar edilar. Bu yerda mashhur olimlar ma'ruzalar o'qigan, suhbatlar o'tkazib turilgan. Shu erning o'zida yunonlar tajribali muallim rahbarligida kurash, har xil o'yin va mashqlar bilan shug'ullanganlar.

Kontsertlar quyiladigan katta binoda Yunonistondagi eng yaxshi sozanda va xonandalar musobaqalari o'tkazilgan. Musobaqalarda ko'plab musiqa ishqibozlari

ham to'plangan, kim yutib chiqqanligini ham shular belgilagan. Yiliga bir necha marta teatr tomoshalari qo'yilib, turilgan va bu tomoshalarda o'ng minglab tomoshabinlar hozir bo'lishgan.

Shunday qilib, Afinadagi ijtimoiy hayot erkin kishilarning aqliy va jismoniy jihatdan kamol topishi uchun keng imkoniyatlar yaratib bergan edi. Ayni paytda Afina iqtisodiy va siyosiy jihatdan ham ravnaq topadi. Afinaning savdo-sotig'i Egey, Marmar, Qora va Ioniya dengizlarida juda avj olib ketgan. Er. av. V asrning birinchi yarmida Afina O'rta er dengizi havzasidagi eng kuchli davlatga aylangan edi.

Tayanch tushunchalar: Mardoniy, Doro I, Sparta, Marafon, Miltiad, Kserks, Leonid, Salamin, Triyerlar, Afina dengiz ittifoqi, Kaliy sulhi, Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, ergatseriya, Pirey, savdo, qullarni jazolash, Xalq yig'ini, demos, Perikl, strateg, shahar-davlatlar ittifoqi, Quldorlik demokratiyasi, gelieya, eklessiya, fetlar, areopag, agora.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Yunon-Eron urushlaridan keyingi xo'jalik taraqqiyoti qanday edi?
2. Qishloq xo'jaligi haqida so'zlang.
3. Hunarmandchilik va savdo qanday edi?
4. Qulchilikning kuchayishi sabablarini ayting.
5. Afinada quldorlik demokratiyasining rivojlanishi haqida so'zlang.
6. Perikl faoliyati qanday faoliyat edi?
7. Quldorlik demokratiyasining cheklanganligini nimada ko'ramiz?

Glossariy:

Gimnaziya - ma'ruza o'qiladigan joy. Bu yerga mashhur olimlar yig'ilib ma'ruzalar va suhbatlar o'tkazganlar.

Agora – odamlar eng ko'p to'planadigan va eng gavjum joy, bu yerda savdo-sotiq ishlari amalga oshirilgan.

Demos - xalq xokimiyati demakdir.

Afina quldorlik demokratiyasi – quldorlarning qullar ustidan xukmronligini ta'minlaydigan idora usuli.

Fetlar – Afinaning kambag'al fuqarolari.

Strateg – davlatni boshqaradigan yuqori mansabdor.

Ergasteriyalar – hunarmandchilik ustaxonalari va ishxonalari.

Kalliy sulhi – ikki o'rtada tuzilgan sulh, yunonlar tomonining vakili afinalik Kalliy nomi bilan sulh tuzganliklari uchun shunday atalgan.

Evpatriklar - ya'ni, nasl-nasabi olijanob bo'lgan aristokratlar.

Geomorlar - yer uchastkalariga egalik qiluvchi dehqonlar.

Demiurug'lar - xalq uchun ishlovchi xunarmandlar.

Sinoykism – birlashuv.

Polemarxlik lavozimi – askarboshilik.

Arxond - ya'ni boshliq yoki el og'asi.

13-§. Afina quldorlik demokratiyasining ravnaqi

Yunon-Eron urushlaridan keyin Afinaning dengizchilik qudrati yanada o'sdi. Er. av. VI asrda Solon islohotlari natijasida mulkiy mavqega ko'ra siyosiy huquqlarga ega bo'lgan fuqarolar orasida Afina dengiz ittifoqining tayanchiga aylangan fetlar - Afinaning kambag'al fuqarolari mavqei yanada oshdi. Urushlar vaqtida ko'pchilik demokratik qatlamlari Afinada yo'qligi paytida aslzodalar hokimiyati va ularning tayanchi areopag kuchaygan bo'lsa, urushlardan so'ng demokratik qatlamlar kuchayib, siyosiy kurashlar avj oldi. Er. av. 462 yilda demokratik guruhlar yo'lboshchisi Efialt o'tkazgan islohotlar natijasida areopag - Afina Oliy sudi faoliyatini chekladi. Buning uchun aslzodalar Efialtni o'ldirganlar. Shunga qaramay Afinada demokratik qatlamni siyosiy mavqei mustahkamlanib borgan. Perikl davrida esa aslzodalar guruhi rahbari Fukidid (tarixchi emas) mamlakatdan badarg'a qilingach demokratik jarayonlarni yanada takomillashtirish imkoniyatlari paydo bo'lgan.

Qadim zamonlardan boshlab Afinada, shuningdek Attikaning boshqa joylarida ham xalq yig'inining ta'siri kuchli edi. Xalq yig'ini bir oyda 4 marta chaqirilgan. Oliy hokimiyat xalq yig'ini ixtiyorida edi. Xalq yig'inida qonunlar qabul qilingan, urush, sulh va davlat ahamiyatiga molik masalalar hal etilgan. Ayni paytda xalq yig'ini davlatni boshqaradigan strateglarni va har xil mansabdor shaxslarni saylagan va o'rnidan olib tashlagan.

Er. av. 443 yilda xalq yig'ini Periklni davlatning oliy lavozimi bo'lgan birinchi strategi qilib sayladi. U aslzoda va badavlat oiladan chiqqan bo'lib, unga qarashli yerlarda va ustaxonalarda o'nlab qullar, yollangan ishchilar ishlaganlar. Perikl iste'dodli va bilimli kishi bo'lib, ajoyib notiq ham edi. U minbarga chiqqanda o'zini vazmin va ulug'vor tutgan, dona-dona qilib, so'zlagan. Lekin u ba'zan g'azab bilan so'zlaganda yunonlar uni xuddi dushmanlarga yashin va chaqmoq otayotgan Zevsga o'xshab ketadi deyishgan.

Perikl ko'p hollarda Attika demosini manfaatlarini ko'zlab ish tutgan. Shuning uchun ham demos va xalq yig'ini 15 yil surunkasiga uni birinchi strateg lavozimiga

saylangan. Bu lavozimda u umrining oxirigacha ishlagan. U o'z faoliyati davomida butun Yunonistonni Afina qo'l ostida birlashtirishga harakat qilgan. U butun choralar bilan dengiz ittifoqini mustahkamlaydi. Unga yangi-yangi ittifoqchilarni jalb qiladi. Ittifoqda afinaliklarning hukmronlik qilishidan norozi bo'lgan ba'zi shahar-davlatlar ittifoqdan chiqishga uringankar. Perikl bunday urinishlarga qarshi kurashib, turli yo'llar bilan ularni ittifoqda qolishga undagan. Ittifoqdan chiqib ketishga astoydil harakat qilganlarni esa qurol kuchi bilan ayovsiz bostirib turgan.

Perikl ittifoqchilarni itoatda tutish maqsadida ularning yerlarida afinaliklarning mustamlakalarini tashkil qilgan. U Afina davlatini mustahkamlash uchun harbiy dengiz kuchlari va quruqlikdagi qo'shnlarni kuchaytirishga ham alohida e'tibor bergan. Perikl qishloq xo'jaligi, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishiga ham katta ahamiyat bergan. Afinada jamoat binolar qurish borasida xalq yig'iniga qator takliflar kiritgan. U yunon madaniyatining rivojlanishiga o'zining katta hissasini qo'shgan davlat arbobi edi.

Tayanch so'zlar: Yunon-Eron urushlari, Afina, Solon, fetlar, areopag, Efialt, Perikl, Fukidid, Xalq yig'ini, strateg, Zevs, Attika demos, yunon madaniyati.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Yunon- Eron urushlari tugagandan so'ng Afinadagi siyosiy vaziyatni yoritib bering.
2. Salon islohotlari va uning amaliy natijasi qanday bo'ldi?
3. Gerodot asarlarida Afinadagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy axvolni yoritilish holatini izohlang.
4. Perikl davrida Afinaning qudratli davlatga aylanishi va uning qo'shni davlatlarga ta'siri qanday bo'ldi?
5. Fukidid asarlarida yunon dunyosiga berilgan baxo va uning tahlili qanday?

Glossariy

Afina – qadimgi davrdagi eng go'zal shahar, bu shahar oliy xudo Zevsning qizi Afina sharafiga qurilgan. Hozir ham zamonaviy Gretsiya poytaxti hisoblanadi.

Fetlar - Afinaning kambag'al fuqarolari shunday atalgan.

Areopag – sudlar kengashi shunday atalgan.

14-§. Peloponnes urushi. Afinaning mag'lubiyati va uning sabablari

Yunoniston shahar-davlatlari o'rtasida er. av. 431-404-yillarda bo'lib o'tgan urushlarni Peloponnes urushlari deyilib, uni Fukidid "Tarix"idan, Ksenofontning "Gretsiya tarixi", Diodorning "Tarixiy kutubxona" asarlari, Plutarx va Aristofan ma'lumotlari orqali bilib olamiz.

Urushlar qadimgi Yunoniston quldorlik jamiyatida ichki ziddiyatlarning jamlanishi va keskinlanishi natijasida kelib chiqqan ediki, bu ziddiyatlarga viloyatlarning notekis rivojlanishi asos bo'lgan.

Yunonistonda 1-Afina dengiz ittifoqi bilan bir qatorda Peloponnes ittifoqi ham bor edi. U er. av. VI asrning ikkinchi yarmida tuzilgan bo'lib, unga Megara, Korinf, Agros, Tirinf kabi shahar-davlatlar a'zo edilar. Bu ittifoqqa Sparta boshchilik qilgan. O'tmishda 1-Afina ittifoqi bilan Peloponnes ittifoqi o'rtasida sulh shartnomasi ham tuzilgan edi. Sulh shartnomalarida ittifoqchilarning bir-birlariga qo'shin tortmasliklari, tinch-totuv yashashliklari ta'kidlangan.

Ammo keyingi voqealar 1-Afina ittifoqi bilan Peloponnes ittifoqi o'rtasida qator ziddiyatlar va kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu ziddiyatlarning tagida u yoki bu ittifoqning butun Yunonistonda hukmronlikni qo'lga kiritish masalasi yotardi. Bu masala urushni keltirib chiqaradigan bosh omil edi. Urushning boshlanishini tezlashtirgan birinchi mojaro, bahona qadimgi yunon dunyosining g'arbiy chekkasidagi Epidami koloniyasi va Kerkira orolida yuz bergan edi. Bu joylar Yunonistondan Janubiy Italiya va Sitsiliya oroliga boriladigan dengiz yo'llaridagi ikki muhim bekat edi. Shu ikki joydagi mojarolar tufayli Peloponnes ittifoqiga a'zo bo'lgan Korinf bilan Afina o'rtasida ham nizo chiqqan. Urushni tezlashtirishga sabab bo'lgan ikkinchi bahona Xalkidika yarim orolidagi Korinf koloniyasi Potideyada ham yuz bergan. Bu yerda ham 1-Afina ittifoqi bilan Korinf o'rtasida mojaro chiqqan. Megara shahar davlati Korinf tomonini olgan. Megara va Korinf Peloponnes ittifoqining boshlig'i Spartani Afinaga qarshi urushga undagan. Shundan keyin uchinchi mojaro ham yuz bergan. Afina xalq yig'ini 1-Afina ittifoqi a'zolarining Afinaga qarashli barcha buxtalarida Megara savdo-sotiq kemalarining to'xtashlarini

taqiqlagan. Shu tariqa Afina bilan Megara o'rtasida keskinlik kuchaygan. Endi urushning boshlanishi muqarrar edi.

Er. av. 431-yilda Korinf va Megaraning tezlashi bilan Sparta Afinaga qarshi urush harakatlarini boshlab yuborgan. Urushga Sparta podshosi Arxidam II boshchilik qilgan. Shuning uchun bu urush Arxidam urushi ham deyiladi. Bu Peloponnes urushining birinchi bosqichi bo'lib, urush er. av. 431 yildan 421-yilgacha davom etgan.

431-yilda Sparta qo'shinlari Attikaga bostirib kirganlar va dehqon xo'jaliklarini vayron qilib, dehqonlarni talaganlar. Natijada ularning o'zlari oziq-ovqat masalasida og'ir ahvolga tushib qolganlar. Afinaliklarni qat'iy jangga torta olmagan spartaliklar Peloponnesga qaytishga majbur bo'lganlar. Er. av. 430-yilda spartaliklar Attikaga yana hujum qilganlar. Shu yili Afinada vabo tarqalib, ko'p odam qirilib ketgan. Urushda har ikki tomon ham jiddiy g'alabaga erisha olmagan. Xalq va aksariyat dehqonlar Afina boshiga tushgan kulfatlarning aybdori Perikl deb hisoblangan. Xalq yig'ini er. av. 430-yili uni hokimiyatdan chetlashtirgan. Ammo bir yildan keyin uni oqlab, qaytadan birinchi strateg qilib saylaganlar. Qartayib qolgan Perikl ko'p o'tmay yuqumli kasallikdan vafot etgan. Uning vafotidan keyin hokimiyat tepasiga Kleon saylangan. Shu davrda 1-Afina ittifoqi a'zolari orasida Afinaga qarshi guruhlarining harakati kuchaygan. Bu guruhlariga Sparta yordam berib turgan.

Er. av. 429-yilni hisobga olmaganda, spartaliklar har yili Attikaga hujum qilib turganlar. Ular bog'-rog'larni, uzumzorlarni va boshqa ekinzorlarni kesib, qirqib, vayron qilib tashlaganlar.

Er. av. 428-yilda Lesbos orolidagi Mitilena shahrida Afinaga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan. Afinaliklar Mitilenadagi qo'zg'olonni shavqatsizlik bilan bostirganlar. Ayni paytda 100 triyerdan iborat Afina kemalari Peloponnes sohillariga yuborilgan. Ular Spartadan Lesbosga yordam uchun yuborilishi mumkin bo'lgan harbiy kemalarning yo'llarini to'sib turishlari kerak edi. Spartaliklarning Beotiya, Attika va boshqa joylarda olib borgan janglari yaxshi natija bermagan.

Er. av. 421-yilda Afina bilan Sparta o'rtasida 50 yilga mo'ljallangan sulh tuzilgan. Bu sulhning tashabbuskori Nikiy bo'lganligi uchun u Nikiy sulhi nomini

olgan. Sulh shartlariga ko'ra, tomonlarning qo'shinlari ishg'ol qilgan yerlarini bir vaqtda bo'shatib chiqishlari lozim edi. Agar Spartalik ilotlar qo'zg'olon ko'tarsalar, afinaliklar spartaliklarga yordamga borishlari kerak edi. Ammo sulh shartlari to'la bajarilmagan. Afinaliklar Meseniya pilosida, spartaliklar esa, Frakiyadagi Amfiopolda qolganlar. Spartaning ittifoqchilari Korinf, Megara va Fiva Nikiy sulhini tan olmagan. Nikiy sulhi bilan Peloponnes urushining birinchi bosqichi tugagan.

Er. av. 415-404-yillar Peloponnes urushining ikkinchi bosqichi hisoblanadi. Urushning bu bosqichida afinaliklarning Sitsiliyada muvaffaqiyat qozonsalar, bu Spartani mag'lubiyatga olib kelishi va Afinani ulug' Yunonistonning etakchisi qilib qo'yishi mumkin edi.

Er. av. 415-yilda afinaliklar 260 ga yaqin harbiy va yuk kemasini, 32 ming kishidan iborat qo'shinlarini Sitsiliyaga jo'natishga tayyorlab qo'yganlar. Afina floti Alkiad, Nikiy va Lamaxlar rahbarligida Sitsiliyaga jo'nab ketgan.

Afina qo'shinining qo'mondonlaridan biri Alkiad xoinlik qilib, spartaliklar tomoniga qochib o'tgan. U spartaliklarga afinaliklarning barcha sirlarini aytib, Attikaga muntazam qo'shin yuborib, uni vayron qilish kerak degan taklif kiritgan. Alkiad qochganidan keyin Afina flotiga Nikiy, Demosfen va Lamaxlar boshchilik qilganlar. Nikiy urushning to'xtashiga umid bog'lab, urush harakatlarini paysalga solgan. Bu bilan sitsiliyaliklarga mudofaaga tayyorgarlik ko'rishlari uchun katta imkoniyat yaratib bergan. Ayni paytda Sitsiliyadagi yunonlar ham afinaliklarga dushmanlik munosabatida bo'lganlar.

Er. av. 404 yili ochlikdan madori qurigan afinaliklar spartaliklarga taslim bo'lganlar. Afinani Sparta qo'shinlari egallaganlar, uni Pirey bilan bog'lagan devorlar qulatilgan. Afina arxesi tarqatilgan, u Spartaga qaram davlatga aylantirilgan. Oligarxlar Kritiy va Feramen boshchiligida o'ttizlar tiraniyasini tuzib, hokimiyatni o'z qo'llariga olganlar. Kritiy va boshqalar o'zlariga yoqmagan kishilarni jazolab, quvg'in ostiga olganlar, aholini talaganlar. Feramen unga norozilik bildirganida uni qatl etganlar.

Sobiq demokrat Frasibul Beotiyaga qochib bekingan. U afinalik qochoqlardan otryad tuzib, chegaradagi Filani egallagan. Frasibul Pireyga yaqinlashar ekan, uning

tarafdorlari ko'payib boradi. Bir necha janglardan so'ng oligarxlar va spartaliklar mag'lubiyatga uchraganlar. Kritiy ham o'ldirilgan.

Er. av. 403-yili Afinada demokratiya qayta tiklangan. Ammo Afina Peloponnes ittifoqiga a'zo bo'lib qolgan. Shunday qilib, to'xtab-to'xtab 27 yil davom etgan Peloponnes urushi Spartaning g'alabasi bilan tugagan. Bu urush butun yunon olamiga, xususan Afinaning iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotiga va harbiy qudratiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu hol Yunonistonning butunlay zaiflashishiga olib kelgan.

Peloponnes urushi er. av. V asrdayoq yuzaga kela boshlagan jarayonni tezlashtirib, xo'jalik tarmoqlarida ishlatilayotgan qullar sonini ko'payishiga olib keldi. Ularning mehnatidan foydalanish hunarmandlar, yuk tashuvchilar va batraklarning ahvoliga halokatli ta'sir ko'rsatib, ularni qashshoqlashtirib, o'zining doimiy ishidan mahrum qildi. Ishlab chiqarish ishiga qullarning ishi deb qarash ana shu davrdan keng rasm bo'ldi, buning natijasida esa halol mehnat qilib pul topishga bo'lgan rag'bat susaydi.

Tayanch iboralar: Yunoniston, Peloponnes urushi, Fukidid, Tarix, Ksenofont, Gretsiya tarixi, Diodor, Tarixiy kutubxona asarlari, Plutarx, Aristofan, 1-Afina dengiz ittifoqi, Peloponnes ittifoqi, Megara, Korinf, Agros, Tirinf, Sparta, Epidami koloniyasi, Kerkira, Sitsiliya, Lesbos oroli Mitilena, Beotiya, Attika, Nikiy sulhi, Alkviad, Nikiy, Lamax, Kritiy, Feramen, Frasibul.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Afina va Sparta rivojlanishidagi umumiy va xususiy belgilar nimalardan iborat?
2. Ikki davlat o'rtasidagi kelishmovchiliklarni sababi nimalardan iborat?
3. Peloponnes urushi vaqtida xalqaro vaziyat qanday edi?
4. Peloponnes urushida Eron Axamoniylari davlati qanday rol o'ynadi?
4. Nima uchun hamma davrlarda ham bir dinli va bir tilli xalqlarni urushlari uzoq davom etadi?

5. Arxidam urushi va uning natijasi qanday tugadi?
6. Alkviad faoliyatiga qanday baho berasiz?
7. Nikiy sulxi va uning xalqaro ahamiyatini ochib bering
8. Urushning yakunlari va undan keyingi xalqaro vaziyatni yoritib bering.

Glossariy

Afina dengiz ittifoqi – Tarixda ikki shunday nomdagi ittifoqlar mavjud bo’lgan, birinchisi er. av. 478-yil, ikkinchisi esa er. av. 378-yil tashkil topgan.

Peloponnes urushi – qadimgi dunyo tarixida eng uzoq davom etgan Afina ittifoqi va Sparta ittifoqi o’rtasidagi (er. av. 431-404-yillarda) urush hisoblanadi. Urush 27 yil davom etib, Spartaning g’alabasi bilan tugagan.

Spartacha tarbiya – Qadimgi Spartada yigitlar yoshligidan harbiy tayyorgalikka majbur etilgan. Ularni tayyorgarligini sinovdan o’tkazish ayovsiz kaltaklash bilan amalga oshirilgan, shundan spartacha tarbiya kelib chiqqan.

15-§. Aleksandr Makedonskiy saltanatining vujudga kelishi va uning parchalanishi

Filipp II Yunonistonni butunlay o'ziga qaratib, olish niyatida edi. Shuning uchun u dastlab Fessaliyani ishg'ol qiladi. U shu yerdan turib, O'rta Yunonistonni bosib olishni ko'zda tutadi. Fiva va Afina xavf ostida qoladi. Makedoniyaga qarshi Afinada, Fiva, Korinf Megara va boshqa shahar-davlatlardan iborat harbiy ittifoq tuziladi. Uning g'oyaviy rahbari ajoyib notiq Demosfen edi. U o'zining otashin nutqlarida Filipp II ning bosqinchilik siyosatini fosh qilib yunonlarni o'z ozodligini qattiq turib himoya qilishga chaqiradi. Er. av. 338-yili Makedoniya qo'shinlari Beotiyaga bostirib kiradi. Shu yili Filipp II qo'shinlari yunon shaharlarining birlashgan qo'shini bilan Xeroniya shahri yonida uchrashadilar. Bu jangda Demosfen afinaliklar qatorida oddiy jangchi bo'lib jangga kiradi. Bu jang shiddatli bo'lib, ancha vaqt davom etadi. Avval boshda ittifoqchilar Makedoniya qo'shinlarini siqib borishga muvaffaq bo'ladilar, hatto chekintiradilar. Jangga Filipp II ning 18 yoshli o'g'li Iskandar rahbarligidagi otliq qo'shinning kirishi urush oqibatini makedoniyaliklar foydasiga hal qiladi. Jang Makedoniya qo'shinlarining porloq g'alabasi bilan yakunlanadi. Xeroniya yonidagi jangdan keyin butun Yunoniston Makedoniyaga itoat etishga majbur bo'ladi. Zamondoshlardan birining iborasi bilan aytganda: "Xeroniya yonida xalok bo'lganlarning jasadlari bilan birga yunonlarning ozodligi ham ko'miladi".

Filipp II Xeroniya jangidan keyin yunon shahar-davlatlarini xonavayron qilmay, ularni erkin deb e'lon qiladi. U er. av. 337-yili Korinfda yunon shaharlarining kongressini chaqiradi. Bu kongressda Spartadan boshqa barcha shahar davlatlar ishtirok etadilar. Ular kongressda tinch-totuv yashash, bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik va o'zaro urush olib bormaslik to'g'risida bir qarorga kelganlar. Ayni paytda barcha yunon shaharlari Eronga qarshi urushga tayyorgarlik ko'rishlari lozim edi. Korinfda Filipp II Makedoniya va shahar, davlatlar qo'shinlarining bosh sarkardasi qilib tayinlangan. Shu tariqa u Eronga qarshi harbiy yurish qilishga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

Iskandar Yunonistonni o'ziga qaytadan itoat ettirgandan so'ng sharqqa yurishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. U er. av. 334-yilda 30 ming piyoda, 5 ming otliq askar va harbiy dengiz kuchlaridan iborat katta qo'shin bilan Gelleopond bo'g'ozidan kechib o'tadi. Tog'li Granik daryosi bo'yida Iskandar qo'shinlarini Eronliklarning otliq va piyoda askarlari kutib turardi.

Kech kirishiga qaramay, boshlangan qattiq jangda Iskandar qo'shinlari g'alaba qilib, ularni Kichik Osiyoning ichkarisiga yurish uchun yo'llar ochiladi.

Bu g'alaba Iskandarga Kichik Osiyoning ichkarisini bosib olish uchun imkoniyat yaratadi. Uning qo'shinlari Kichik Osiyo sohili bo'ylab janub tomon yuradilar. Eron shohi Doro III yunonlardan bo'lgan Memnonni qo'shiniga bosh qo'mondon qilib tayinlaydi. U Miletni mustahkamlashga kirishadi. Lekin u to'satdan vafot etadi. Milet sabot-matonat bilan mudofaa qilinadi. Biroq ham quruqlikdan, ham dengizdan qamal qilinib, ishg'ol qilinadi.

Er. av. 333-yilda Iskandar Kichik Osiyo markazidagi Kappadokiyani ishg'ol qilib, qishni o'sha yerda o'tkazadi. Shu vaqtda Eron qo'shinlari Iskandar tomon yo'l oladilar. Iskandar o'z qo'shinlarini Kilikiyaga olib o'tib, Tars shahrini ishg'ol qiladi va Suriyaga qo'shin tortadi.

Iss Kilikiya shaharlaridan biri bo'lib, dengiz bo'yida joylashgan edi. Er. av. 333 yilda Eron va Makedoniya qo'shinlari shu shahar yonida uchrashadilar. Eron sarkardalari Doro III ga Iskandar qo'shinlari tor daradan chiqib olgandan keyin hujum boshlaylik, deb maslahat beradilar. Shoh esa buning aksini qilib, Eron otliqlari va jang aravalari uchun qulay bo'lgan tog' darasida jang qilishni buyuradi. Har ikki o'rtada qattiq jang boshlanadi. Jang Iskandar qo'shinlarining g'alabasi bilan tugaydi. Eronliklar chekinishga majbur bo'ladilar.

Iskandar Bessni ta'qib qilib, So'g'diyonadagi Navtaka degan joyda uni qo'lga tushiradi va qatl ettiradi. Shu bilan ulkan Eron davlati tugatiladi. Iskandar Turonga bostirib kirib, uni egallashga kirishadi. Turonliklar dushmanga qarshi ayovsiz jang qiladilar. Iskandar qattiq janglardan so'ng Navtaka, Marokand va Kiropol kabi shaharlarni bosib oladi.

Iskandar uzoq vaqt mobaynida erksevar so'g'dliklar, baqtriyaliklar va saklarga qarshi kurash olib boradi. So'g'd xalqining erksevar farzandi Spitamen makedoniyaliklarga qarshi ayovsiz va tinimsiz kurash olib boradi. Ammo vatan xoinlari Spitamenga xiyonat qilib, uni o'ldiradilar. Iskandar So'g'ddagi yuzlab qishloq, o'nlab shaharlarni vayron qiladi. Necha yuz ming tinch aholi qirib tashlanadi. Uch yillik jangu-jadaldan so'ng bir guruh sotqinlarning xiyonati tufayli Baqtriya va So'g'diyona Iskandarga bo'ysundiriladi.

Iskandar Baqtriya bilan So'g'diyonani itoat ettirgach, er. av. 227 yilda Hindikush tog'laridan oshib Hindistonga bostirib kiradi. Bu davrda Sind vohasi va Panjob viloyatida bir necha mayda davlatlar bor edi. Iskandar Panjobdagi mayda podsholarning bir qismini o'ziga og'darib oladi. Ammo podsho Por Iskandar bilan qattiq kurash olib boradi. Sind vohasida ko'p qonli janglar bo'ladi. Nihoyat Gidasp yonidagi jangda Iskandar qo'shinlari hindlar ustidan g'olib chiqadi. Sind vohasi va Panjob yunonlarga bo'ysundiriladi.

Er. av. 325 yildan boshlab yunon-makedonlar Hindistonni tark etib orqaga qayta boshlaydilar. Markazi Bobil bo'lgan Iskandar saltanati er. av. 323 yilda Jahongirning o'limidan so'ng uning harbiy sarkardalari o'rtasidagi toj-taxt talashlari natijasida bo'linib ketadi.

Tayanch iboralar: Filipp II, Yunoniston, Fessaliya, Afina, Fiva, Korinf, Megara, Demosfen, Makedoniya, Xeroniya, Eron, Gelleopond bo'g'ozi, Granik daryosi, Doro III, Milet, Tars, Suriya, Iss, Kilikiya, Bess, So'g'diyona, Navtaka, Marokand, Kiropol, Hindikush Sind vohasi, Panjob, Gidasp, Bobil.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Makedoniya davlatining Yunon dunyosida gegemon davlatga aylanishining obektiv sabablari nimalarda ko'rindi?
2. Filip II ning ichki va tashqi siyosatini yoritib bering.
3. Iskandarning markazlashgan davlat tuzish uchun olib borgan istilochilik yurishlari va uning natijasi qanday bo'ldi?

4. Iss jangi qanday yakun topdi?
5. Xeroneya jangi va uning xalqaro ahamiyati nimadan iborat?
6. Por davlati va uning jasorati haqida nimalarni bilasiz?
7. Iskandar vafotidan so'ng diadoxlar o'rtasidagi kurash va uning natijasi qanday bo'ldi?

Glossariy

Aristobul – Aristotelning jiyani, u doimo Iskandarning harbiy yurishlarida ishtirok etib, voqealarni yozib borgan tarixchi

Korinf kongresi - er. av. 337 yil Filip II tashabbusi bilan chaqirilgan, bu bevosita Yunon dunyosida Makedoniyani hukumronligini e'tirof etilishi edi.

III BO'LIM. QADIMGI RIM

16-§. Kadimgi Rim tarixiga kirish. Manbalar va davlatchilikni paydo bo'lishi

Qadimgi Rimning joylashishi, tabiati va aholisi. Yevropa janubida Apennin yarim oroli joylashgan. Yarim orolning uct tomoni Adriatik, Tirren va Ioniya dengizlari, shimoli esa qorli Alp tog'lari bilan o'ralgan. Yarim orolning katta qismi yassi tog'liklardan iborat bo'lib, yam-yashil o'rmon va o'tloqlar bilan qoplangan. Qadimgi yunonlar bu yerda oziqbop o't, o'simlik va chorva mollarining ko'pligini ko'rib hayratga tushganlar. Shuning uchun bu joyni «buzoqlar mamlakati», ya'ni Italiya deb ataganlar. Keyinchalik yarim orolning hammasi Italiya deb nomlangan.

Yarim orol hayvonot va er osti qazilmalariga ham boy. Iqlimi yumshoq, yoqimli va seryomg'ir. Yarim orolning qulay geografik muhiti qadim zamondan boshlabq ibtidoiy odamlar e'tiborini o'ziga tortgan. Arxeolog olimlar yarim orolning ko'p joylaridan qadimgi tosh asriga mansub odamlarning makonlarini, qurollarini, suyaklarini va g'or devorlariga chizilgan rasmlarini topishgan. Bu ashyolar Apennin yarim orolida odamlar qadim zamonlardan boshlab yashay boshlaganini bildiradi. Quldorlik davlatlari orasida Italiyada tarkib topib er. av. II asr o'rtalaridan boshlab butun O'rta dengiz atroflarida hukmronlikni qo'lga kiritgan davlat Rim davlati nomi bilan ataladi. Bu davlat birorta shahar - Rim polisi asosida paydo bo'lib, keyin butun Italiyani O'rta er dengizi atrofidagi o'lkalarni, Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrika Yevropaning katta qismini o'ziga bo'ysundirdi. Er. av. I va er. av. II asrlar davomida uning chegaralari g'arbda Piriney yarim orolidan Sharqda Kaspiy bo'ylarigacha, Shimolda Britan orollaridan Janubda Fors qo'ltig'igacha bo'lgan joylarni o'z ichiga olar edi. Bu davlat ulkan quldorlik saltanatiga aylanib, qariyb 500 yil umr ko'rgan.

Rim davlatida qulchilik munosabatlari beqiyos darajada taraqqiy qilib, o'zining klassik darajasigacha etgan. Dunyoning biror mamlakatida qullarni qattiq ezish va ularga shafqatsizlarcha munosabat Rimdagidek bo'lmagan.

Zamon o'tishi bilan quldorlik xo'jaligi va qulchilik tizimiga asoslangan ijtimoiy munosabatlar ham o'z umrini yashab bo'lgan, natijada qudratli saltanat quladi.

Boshqa quldorlik davlatlaridan farqli tarzda Rim quldorlik davlati tarixini o'rganish natijasida bu munosabatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va halokatga uchrash jarayonlarini bir davlat qiyofasida kuzatish mumkin.

Yana Rim tarixini o'rganish natijasida qullar mehnati va erkin kishilar mehnati samaralaridan bahramand bo'lib o'ziga xos madaniyat yaratilganligi, bu madaniyatdan keyingi zamonlarda butun dunyo xalqlari ham bahramand bo'lganliklarini bilib olamiz.

Qadimgi Italiya Apennin yarim oroli, Sitsiliya, Korsika, Sardiniya va boshqa mayda orollarni o'z ichiga olgan mamlakatdir. Uni shimol tomondan Alp tog'lari o'rab turadi. Yarim orolni sharqdan Adriatika, Janubdan Ioniya, g'arbdan Tirren dengizlari yuvib turadi. Dengiz qirg'oqlarida kemalar to'xtashi uchun qulay buxtalar bor. Italiya hududida inson xo'jalik faoliyati uchun qulay bo'lgan tekislik va unumdor yerlar ko'p.

Yarim orol qadimda qalin o'rmonzorlar bilan qoplanib, u yerda dub, qayrag'och, qora qayin, kashtan va boshqa daraxtlar o'sib yotgan qadimgi Rimda azaldan boshlab olma, anor va boshqa mevali daraxtlar ham yaxshi meva bergan.

Qadimgi Rimning hayvonot dunyosi o'rta Yevropanikiga o'xshash bo'lib, u yyerda bug'u, tog' eskisi, yovvoyi cho'chqa, yovvoyi mushuk, ayiq, bo'ri, tulki, mayda yirtqichlar, sudralib yuruvchilar, parrandalar ko'p bo'lgan. Yarim orol va dengizlarda baliqlar va har turli dengiz hayvonlari serob bo'lgan.

Apennin yarim orolida er osti qazilma boyliklari ham ko'p bo'lgan. U yerdan va orollardan oltin, kumush, temir va mis, turli rangdagi marmartoshlar qazib chiqarilgan. Yarim orolning janubidagi Sitsiliya orolining iqlimi issiq bo'lib, o'simliklar olamiga boydir.

Apennin yarim orolining qulay geografik muhiti juda qadim zamonlardayoq ibtidoiy odamlarning diqqat e'tiborini o'ziga tortgan. Arxeolog olimlar Apennin yarim orolidan qadimgi tosh asriga mansub odamlarning makonlari, mehnat qurollari, g'or devorlaridan esa qadimgi rasmlarni topganlar. Ayni paytda yarim oroldan 80-100 ming yillar muqaddam yashagan qadimgi odamlarning bosh suyagi va mehnat qurollari ham topilgan. Ular asosan termachilik va ovchilik bilan shug'ullanganlar.

Neolit davriga kelib Italiya va orollarda aholi ko'paya boshlagan. Bu davrga kelib odamlar g'orlarni tark etib, chaylalarda yashaganlar, dastlabki chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaganlar.

Er. av. III ming yillikda Italiya aholisi misdan, II ming yillikda jezdan va II ming yillikning oxirida – I ming yillikning boshidan boshlab temir qurollardan foydalana boshlagan. Temir qurollardan foydalanish qishloq xo'jaligining rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Er. av. I ming yillikda Italiyada etrusk, ligur, lotin, venet, osk, va samniy (samnit) kabi turli qabilalar yashar edilar.

Ligurlar va etrusklar mamlakatning qadimgi qabilalaridan bo'lib, ular Italiyaning shimoli-g'arbiy tomonlarida yashaganlar. Mamlakatning shimoli-sharqiy chekkasida venetlar, uning janubi bilan Sitsiliya orolida italiyalik qabilalar yashaganlar. Ayni paytda yarim orolda lotin qabilalari ham yashaganlar. Ular yashagan joy Latsiya deb atalgan. Latsiyaga yondosh Kampaniya tekisligida okslar yashaganlar.

Er. av. II ming yillikdan boshlab yunon dengizchilari Apenin yarim oroli va Sitsiliya oroli sohillariga kelib o'rnasha boshlaganlar. qadimgi rivoyatlarga ko'ra, Krit podshosi Minos Sitsiliyada halok bo'lgan ekan. Sitsiliyada sikanlar, elimlar, Korsika va Sardiniyada sardlar yashaganlar.

Rim davlati er. av. II asrdan ya'ni, o'rta er dengizi bo'ylaridagi qudratli davlatga aylangan zamondan boshlab Rimda yunonlar ta'siri kuchaygan. Yunon tili, fani va madaniyati Rimga ta'sir qila boshlagan.

Rim tarixini davrlashtirish. Qadimgi Rim tarixini quyidagi davrlarga bo'lib o'rganiladi.

1. Podsholik davri. Er. av. 509 yilgacha bo'lgan davr.
2. Respublika davri. Bu davr er. av. 509 yildan er. av. 30-yilgacha davom etgan.
3. Imperiya davri. Er. av. 30 yildan -- milodiy 476 yilgacha davom etgan.

Imperiya davrini o'zini 284 yildan boshlab alohida Dominat bosqichiga ham ajratiladi.

Qadimgi Rim tarixining asosiy manbalari. Qadimgi Rim tarixini o'rganish uchun asosiy manbalar Rim tarixchilarining tarixiy asarlari, arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlari, epigrafika va numizmatika ma'lumotlaridir. Rimning ilk tarixchilari yilnomachilar bo'lib, voqea va hodisalar kalendar tarzida yozib borilgan. Bu ish bilan er. av. VI-V asrlardan boshlab fastlar-ibodatxonalarining bosh kohinlari shug'ullanib borganlar. Dastlabki yilnomalar er. av. 390 yilda Rimga gallar hujumi va istilosi vaqtida yo'q qilib yuborilgan.

Keyingi zamonlarda yaratilgan yilnomalarni er. av. 130 yilda Publiy tomonidan to'planib, nashr qilinib, «Buyuk yilnomalar» deb ataldi.

Er. av. III-II asrlardagi yilnomachilarni tarixida katta yilnomachilar deb atash rasm bo'lib, Tsitseronning aytishicha: “ular qisqa qilib yozishni bayonotning birdan-bir fazilati deb bilib, faqat kunlar, kishilar, voqea va u yuz bergan joyni ko'rsatib yozganlar, xolos”.

Katta yilnomachilarning eng mashhuri Kvint Fabiy Piktordir. U er. av. III asr oxirida yashab, o'z asari “Yilnomalar”ni yunon tilida yozgan. Asarda Italiyada Eneyning paydo bo'lishidan boshlab, ikkinchi Puni urushigacha bo'lgan Rim tarixi bayon qilingan.

Lotin tilidagi birinchi tarixiy asarni esa Mark Portsiy Katon (er. av. 234-149 yillar) yozgan. Katon haqida Tsitseron: “Yunoniston va Rim tarixida u bilmagan biron bir voqeani topish qiyin” deb yozgan edi.

Er. av. II asrning 30 yillaridan boshlab Rim respublikasida «yangi» yoki «kichik» yilnomachilar deb atalgan mualliflar – Lutsiy Seliy, Antipatr, Semproniy Azellionlarning asarlari paydo bo'ldi.

Rim respublikasi davrining eng yirik tarixchilaridan biri, er. av. II asrning ikkinchi yarmida yaratilgan “Umumiy tarix” asarining muallifi Polibiydir. Asarda er. av. 264-146 yilda manbalarni sinchiklab tekshirgan, mamlakatlarning geografik holati va iqlimini o'rgangan. Polibiy tarix chinakam voqealarni izohlashga va bu voqealarning keyinchalik taraqqiyot yo'lini belgilashga imkon beradi, ya'ni tarix “nasihat berishi”, “o'rgatishi” mumkin, amaliy jihatdan foydali bo'lishi mumkin deb faraz qiladi.

Er. av. I asr Respublikaning qulashi va imperiyaning qaror topishi davridir. Davlat shaklining o'zgarishi keskin kurashlar sharoitida yuz bergan. Bu davr manbalari shu zamonda yashagan Mark Tulliy, Tsitseron, Gay Yuliy Tsezar, Gay Salyustiylarning asarlaridir. Katon va Varronlarning asarlari esa Italiya qishloq xo'jaligini o'rganishda yordam beradi.

Rim imperiyasi davri va Dominat davri tarixini o'rganishda, Valeriy Paterkul, Korneliy Tatsit, Svetoniy Trankvill, Dion Kassiy, Ammian Martsellin, Strabon, Katta Pliniylar yaratgan asarlar asosiy manbalar bo'lib xizmat qiladi.

Qadimgi Italiya va O'rta dengiz bo'ylarida o'tkazilgan arxeologik tekshirishlar natijasida ochilgan obidalar, shaharlar (Pompey, Tingad shaharlari) ham muhim tarixiy–ashyoviy manbalardir.

Qadimgi yozuvlardan Etrusk yozuvlari er. av. VIII-VII asrlarga mansubdir. Bunday yozuvlar to'qqiz mingdan ortiq bo'lib, uzoq vaqtdan beri o'qilmay kelinmoqda. 1988 yilda Rossiyadagi Chelyabinsk Unisersiteti olimi, filolog Tubert etrusk yozuvlarini o'qib chiqishda katta muvaffaqiyatga erishdi.

Er. av. VI asrga mansub ilk lotin yozuvi namunalari Prenestin tuqasi va Romul qabri joylashgan yerdan topilgan «qora tosh» dagi yozuvlardir.

Tangalarni o'rganish esa afsonaviy manzaralar, e'tiqodlar, san'at, arxitektura tarixini o'rganishga yordam beradi.

Apennin yarim orolining markaziy qismidan Tibr daryosi oqib o'tadi. Daryoning yuqori qismi tog'liq yaylovlar, quyi qismi esa tekislikdan iborat bo'lgan. Uning har qayerida katta-kichik tepaliklar qad ko'tarib turadi. Tibr daryosi tekisligida qadimdan boshlab lotin qabilalari yashar edilar. Er. av. XI–X asrlarda bu tepaliklarda lotinlarning qator qishloqlari bor edi. Xo'jalikning rivojlanishi va aholining ko'paya borishi tufayli qishloqlar birlashib, lotinlar jamoasini – davlatini tuzganlar. Er. av. VIII asrda Rim shaharchasi bunyod etilgan. Tibrning baland qirg'og'idagi Kapitoliy tepaligida qurilgan qo'rg'on shaharning markazi bo'lgan. Rim shahrini barpo bo'lishi bilan Rim davlati ham tashkil topgan. Rim va uning atrofida lotin, etrusk va boshqa qabilalar yashaganlar. Ular birlashib Rim davlatiga asos solganlar. Bular Rimning qadimgi tubjoy aholisi bo'lib, ular patritsiylar deb atalganlar. Patritsiy lotincha «pater»

so'zidan olingan bo'lib «ota» degan ma'noni bildirgan. Ular Rimning erkin aholisi bo'lib, ota-bobolari Rimga asos solganliklari bilan faxrlanib yurganlar. Ular o'zlarining er-mulklariga ega bo'lganlar. Jamoa yerlarida chorvalarini boqqanlar. Patritsiylar o'zlari ishlash bilan birga qullar mehnatidan ham foydalanganlar. Patritsiylarning nufuzli keksalaridan «oqsoqollar kengashi» tuzilgan bo'lib, uni lotinchada senat deyilgan. Dastlab Rimni podsho va senat boshqargan. Rim kuchaya borib asta-sekin Etruskiya, Kampaniya va Markaziy Italiyadagi bir qancha joylarni bosib olgan. Shundan so'ng Rim shaharlarining kuchli ittifoqi vujudga kelgan. Rim bu ittifoqning etakchisiga aylangan. Rimliklar atrofdagi qishloq va viloyatlarni o'zlariga itoat ettirib, u yerlardagi begona aholini Rimga ko'chirganlar. Italiyaning boshqa joylaridan Rimga ko'chib kelgan odamlarni va ularning avlodlarini plebeylar deb ataganlar. Plebeylar asosan qo'shinda xizmat qilganlar. Ularga jamoa ekin maydonidan er berilmagan. Ular orasida boy-badavlat kishilar va kambag'allar bo'lishgan. Rimda qarzdor kishilar va urushda asir tushganlar qul qilinganlar. Er. av. 510–509-yillarda Rim fuqarolari qo'zg'olon ko'tarib podshohni taxtdan ag'darib tashlaganlar. Rimda respublika davlat hokimiyati o'rnatilgan. Respublika – ma'lum muddatga saylab qo'yiladigan kishilar idora qiladigan davlatdir. Rimliklarning xalq yig'ini har yili patritsiylar orasidan ikkita hokimni – konsullarni va unga yordam beradigan boshqa mansabdor kishilarni davlatni boshqaruv ishlariga saylagan. Bu amaldorlar yil davomida Rim davlatini idora qilganlar, urush e'lon qilib, sulh tuzganlar. Ular sud ishlarini ham bajarganlar. Konsullar yangi qonunlar qabul qilib eskisini bekor qilganlar. Urush vaqtida esa qo'shinga qo'mondonlik qilganlar. Rimda senat ham katta huquqqa ega bo'lgan. Senatga a'zo qilib patritsiylarning oqsoqollari orasidan vakillar saylangan. Konsullar davlat ishining barcha masalalarida senat bilan bamaslahat ish olib borganlar. Patritsiylar davlat ishlariga plebeylarni aralashtirishga qarshi bo'lganlar. Plebeylar esa patritsiylar bilan teng bo'lish, davlat ishlarida qatnashish uchun qattiq kurash olib borganlar.

Rimda plebeylar va patritsiylar o'rtasidagi kurash. Rimda tabaqalarga – patritsiylar va plebeylarga ajralish va ular o'rtasidagi kurash podsholik davrida boshlangan edi. Podsholik ag'darilib, respublika o'rnatilgach, patritsiylar bilan

plebeylar o'rtasidagi kurash yanada keskinlashib ketadi. Plebeylar davlatni boshqarish ishlarida qatnashish, jamoa yerlaridan foydalanish va boshqa masalalarda patriitsiyar bilan teng huquqli bo'lishga harakat qilganlar. Rim qo'shinining asosiy qismini plebeylar tashkil etar edilar. Plebeylar qo'shinda xizmat qilishdan bosh tortar, o'zlarining alohida shaharlarini barpo qilmoqchi bo'lib, patriitsiyalarni qo'rqitardilar. Nihoyat patriitsiyalar qo'shinining kuchsizlanishidan cho'chib, plebeylarga yon berishga majbur bo'lardilar.

Tayanch tushunchalar: Antik davr, klassik qulchilik, Italiya atamasi. Etrusk, ligur, lotin, venet, osk, samnit. Yilnomachilar, Fastlar. Publiy, Piktora, Katon, Polibiy, Tsitseron, Salyustiy, Tsezar, Tit Liviy, Diodor asarlari, Tatsit, Svetoniy, Trankvill, Strabon. qadimgi yozuvlar, numizmatik ashyolar.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Rim tarixini yorituvchi manbalar va ularning turlarini ko'rsatib bering.
2. Rim tarixi necha davrga bo'linadi va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Antik mualliflar asarlarida Rim tarixini yoritilishi.
4. Qadimgi Rim yozuvi va uning zamonaviy tarixchilar tomonidan o'rganilishini taxlil eting.
5. Numizmatik materiallar yordamida Rim tarixini o'rganishning amaliy ahamiyatini tushintirib bering.
6. Rim arxitekturasi xaqida nimalar bilasiz?
7. Rim tarixini o'rganishda arxeologik materiallarni o'rni va ahamiyati qanday?

Glossariy

Rim Respublikasi – er avv. 509 yilda Jaxon tarixida birinchi Respublika (tarjimasi omma ishi) boshqaruv shakli Rimda paydo bo'ldi. Hozir dunyoda 150 yaqin davlat aynan Respublika boshqaru shaklida boshqariladi.

Numizmatika – tangalar to'g'risidagi fan bo'lib, qadimgi Rim tarixini o'rganishda ahamiyati juda kattadir.

Pompey - milodiy I asrda zilzila oqibatida ko'milib ketgan shahar, keyinchalik u erni arxeologik tadqiq etish, rim tarixiga oid ko'plab ma'lumotlar olish imkoniyatini berdi.

Konsul – Respublika davrida Rimdagi oliy siyosiy lavozim. Har yili saylangan ikki nafar konsul Senat va armiyaga rahbarlik qilgan.

Legion – Rim armiyasida eng yirik jangovar birlik.

Patritsiylar – senatorlarning avlodlari.

Pleybeylar – oddiy xalq, shaharliklar, kambag'allar.

Respublika – «umumiy ish» ma'nosini, Senat – «Oqsoqollar kengashi» ma'nosini anglatadi.

17-§. Rimning Sharqiy O'rta yer dengizidagi ekspansiyasi. Karfagenning yengilishi

Tashqi siyosatdagi asosiy yo'nalishlar. Er. av. II asrda Rim olib borgan urushlar natijasida O'rta er dengizi havzasidagi mamlakatlarning ko'pchiligi vayron etilib, boyliklari shafqatsizlik bilan talangan. Rimliklar qarshilik ko'rsatgan qishloq, shahar va mamlakatlarning aholisini beomon qirib, qolgan qismini esa harbiy asir sifatida haydab ketib qullarga aylantirganlar. Bosib olingan viloyatlarga harbiylar ketidan qul savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogarlar-qul (jalloblari) ham borganlar. Ular harbiylardan arzon garovga asirlarni sotib olib, Italiya yoki boshqa o'lkalardagi qul bozorlariga olib borib, katta foydasiga sotganlar. Bu hol Rim va Italiyada qulchilikning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratgan.

Dengiz qaroqchilari ham Italiyaning qul bozorlarini qullar bilan ta'minlab turgan. O'sha vaqtlarda Italiya va joylardagi bozorlarga kunida 10-12 ming qul sotiladigan bozorlar bo'lgan. Masalan, Egey dengizining Delos orolidagi qul bozorlarida har kuni 10 mingdan oshiq qul sotilganligini qadimgi yunon geografi Strabon hikoyalari bilan bilish mumkin. Rim, Italiya va Yunonistondagi bozorlarda qullarni "jonli buyum" deb ataganlar.

O'rta er dengizi havzasidagi mamlakatlar orasida Italiya qulchilik yuksak darajada rivojlangan davlat edi.

Er. av. II-I asrlarda Rimda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, chorvachilik, savdo-sotiq ancha rivoj topgan bo'lib, qullar bu sohalarning hammasida mehnat qilganlar. Ammo juda ko'p qullar qishloq xo'jaligida ishlatilgan. Ular davlatga qarashli yerlarda og'ir mehnat qilganlar. Rim aslzodalari katta-katta ekin maydonlariga ega edilar. qullar aslzodalarning yerlarida omoch bilan er haydar, mola bilan tekislar, jo'yak ochar, ekin ekar edilar. Hosil pishganda esa ularning hosilini yig'ishtirib olish, uzumlarni ezib sharbatini olish ishlari bilan ham mashg'ul bo'lganlar. Rim va undan tashqaridagi oltin, kumush va ma'dan konlarida 100 minglab qullar mehnat qilganlar.

Apennin yarim orolida tashkil topgan Rim davlati er. av. III asr o'rtalarigacha butun Italiyani istilo qilib, O'rta er dengizi bo'ylarini ham o'ziga qaratib olish uchun yangi harakatlar boshladi.

Biroq bu zamonda O'rta er dengizining g'arbiy qismida boshqa bir quldorlik davlati – Karfagen hukmronlik qilar edi.

Karfagen Afrikaning shimoliy sohillari, Malta, Sardiniya, Korsika, Balear orollari, Sitsiliyaning g'arbiy qismini o'z ichiga olgan qadimiy quldorlik davlati edi. Karfagen bu quldorlik davlatining markaziy shahri bo'lgan. Bu shahar katta va o'ziga xos bo'lib, Shimoliy Afrika sohilidagi kichik yarim orolda joylashgan. U Finikiyaning koloniyasi bo'lib, finikiyaliklar uni Kar. Xadashiy –«Yangi shahar» der edilar. Shahar geografik jihatdan g'oyat qulay yerda joylashgan.

Er. av. IX asrda Finikiyaning Tir shahri bu yerda o'z koloniyasini tashkil etgan bo'lib, er. Av. V asr o'rtalarida Karfagen katta bir davlatning markaziga aylangan. Karfagen O'rta er dengizi havzasidagi ko'p mamlakatlar bilan qizg'in savdo ishlarini olib borgan. Uning chuqur va qulay qo'ltiqlarida ko'pdan-ko'p kemalar turgan, ularga ko'plab yuk ortilgan va tushirilgan. Sohil bo'yida xilma-xil mollar saqlanadigan katta-katta omborxonalar bo'lib, ular yuklar bilan to'lib turgan. Kemalardagi yuklarni qullar tushirganlar, ular kemalarda eshkakchilik ham qilganlar. Karfagenliklar hayotida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, ayniqsa, savdo-sotiq katta o'rin tutgan. Karfagenning kuchli harbiy dengiz floti va yollanma askarlardan iborat katta qo'shini ham bo'lgan.

Shahar mustahkam tosh devorlar va minoralar bilan o'rab olingan. Karfagen er. av. III asr o'rtalariga kelib, iqtisodiy va siyosiy jihatdan bir oz zaiflashib qolgan. Karfagen aslzodalari va katta er egalari bosqinchilik siyosati yurgizilishini, Sitsiliya va boshqa joylarda o'z mavqelarini mustahkamlashni talab qilganlar. Bu hol Karfagen va Rim respublikasi o'rtasida O'rta er dengizida hukmronlikni qo'lga kiritish uchun kurash boshlanishiga olib kelgan.

Birinchi va ikkinchi Puni urushilari. Rimliklar Karfagenni Puni deb atar edilar. Shuning uchun bu urushlar Puni urushlari deb nom olgan. Birinchi Puni urushi Rim bilan Karfagenning Sitsiliya oroli uchun olib borgan kurashidan boshlangan.

Sitsiliya orolining kichik sharqiy qismi Sirakuza podsholigiga qarar, katta g'arbiy qismi esa Karfagen ixtiyorida edi.

Sirakuza shohi vafot etgach, uning xizmatida bo'lgan kampaniyalik yollanma askarlarning Sitsiliyaning shimoli-sharqiy burchagida joylashgan Messanani bosib olishlari urushning boshlanishiga bahona bo'lgan. Sirakuzaning yangi hukmdori Gieron II Messanani qamal qilib, kampaniyalik yollanma qo'shinlarga qarshi chiqqan. Yollanma qo'shinlarning bir qismi Karfagenga bir qismi Rimga yordam so'rab murojaat qilganlar.

Rimliklar yollanma qo'shinga yordamga kelib, Karfagenga urush e'lon qiladilar. Rim-Karfagen urushi er. av. 264-241 yillarda bo'lib o'tadi. Har ikki tomon ham dengizda, ham quruqlikda urush olib boradi. Rim qo'shinlari Sitsiliyaga tushib tez orada Messanani ishg'ol qiladilar. Ular quruqlikdagi janglarda birmuncha g'olib keladilar. Ammo Karfagen floti dengizda rimliklarni mag'lubiyatga uchratadi. Chunki bu vaqtda rimliklarning kuchli harbiy dengiz floti yo'q edi. Rimliklar tez vaqt ichida qarg'a tumshuqli 120 ta harsbiy kemani jihozlab, jangga hozirlaydilar.

Er. av. 260 yilda Mila burni va shahri yaqinidagi dengiz jangida rimliklar Karfagen floti ustidan g'alaba qozonadilar. Bu g'alaba Karfagen qo'shinlarini Sitsiliyadan surib chiqarib, urush harakatlarini Karfagenga ko'chirishga majbur etadi.

Er. av. 256 yilda rimliklarning 360 ta harbiy kemasi Karfagenga yo'l oladi. Eknom burni yonidagi jangda Rim floti Karfagen floti ustidan yana g'alaba qozonadi. Rimliklar qirg'oqqa chiqib, karfagenliklarga ketma-ket zarba beradilar. Rim qo'shinlarining bir qismi behisob o'lja va asirlarni olib Rimga qaytadi. Ammo ular qaytishda dengiz dovuliga uchrab butunlay halok bo'ladilar.

255 yilda Karfagenning yollanma qo'shinlari Karfagenda qolgan rimlik qo'shanlarni tor-mor etadilar. Rim sarkardasi asir tushib, asirlikda vafot etadi. Urush harakatlari yana Sitsiliyaga ko'chadi. Karfagen qo'shiniga Gamilkar Barka lashkarboshi bo'lgach, Karfagen qo'shinlari Sitsiliyaning ko'p joylarini qaytadan ishg'ol qiladi. Rimliklar yangidan flot tuzib, Egata oroli yonidagi jangda Karfagen flotini qattiq mag'lubiyatga uchratadi.

Er. av. 241 yilda Birinchi Puni urushi sulh shartnomasi bilan yakunlanadi. Sulhga ko'ra Karfagen Rimga katta tovon to'lab, Sitsiliyadagi o'z mulklarini ham Rim hokimiyatiga topshiradi.

Birinchi Puni urushidan keyin Karfagenda ahvol og'irlashgan. Iqtisodiy qiyinchilik yollanma qo'shin, Liviya qishloq ahli va qullarning birlashib qo'zg'olon ko'tarishlariga olib keladi. Gamilkar Barka boshliq qo'shin qo'zg'olonni bostirib, qo'zg'olonchilarni qirib tashlaydi.

Rimliklar Karfagenning zaifligidan foydalanib, er. av. 238 yilda Sardiniya va Korsika orollarini bosib olganlar. Karfagenliklar Rimga qarshi yangidan kurashga tayyorlanish uchun Iberiyani tanlaganlar. Er. av. 237 yilda Gamilkar Barka qo'l ostidagi Karfagen qo'shinlari Iberiyaga kelib joylashadilar. U yerdagi ko'p qabilalarni engib, katta yutuqlarga erishganlar. Ular Iberiyaning janubi-sharqiy burchagidagi Yangi Karfagen shahrini barpo qilganlar.

Er. av. 229 yilda ibyerlar bilan bo'lgan janglarning birida Gamilkar Barka halok bo'ladi. qo'shin qo'mondoni qilib, uning kuyovi Gasdrubal tayinlanadi. Er. av. 221 yilda Gasdrubal keltlar bilan bo'lgan urushlarning birida o'ldiriladi. Uning vafotidan keyin qo'shinga Gamilkarning 25 yoshli o'g'li Gannibal qo'mondon etib tayinlanadi. U mohir lashkarboshi va qo'rqmas jangchi edi. Uning lashkarboshilik qobiliyati va misli ko'rilmagan mardligiga dushmanlari ham tan berganlar. Qadimgi Rim tarixchilaridan biri: «Gannibal xavf-xatarga tashlaganda qanchalik jasur bo'lsa, shu xavf-xatar ostida qolganda shunchalik ehtiyotkorlik bilan ish ko'rar edi. U mehnat qilganda a'zoyi badani sira charchash bilmas va aslo ruhi tushmas edi. U jazirama issiqqa ham, sovuqqa ham bardosh berardi. U yumshoq o'rinda yotmasdi, harbiy chakmonga o'ralib olib, qorovullikda turgan jangchilar orasida uxlardi. U birinchi bo'lib jangga otilar va jangdan maydonidan eng keyin chiqar edi. Jangchilar Gannibal boshchiligida o'z kuchlarga shunchalik qattiq ishonganlarki va shunchalik mard bo'lganlarki, boshqa hech bir kishi boshchiligida bunday bo'lmas edi», - deb yozgandi.

Rim bilan Karfagen o'rtasidagi Ikkinchi Puni urushi er. av. 218–201 yillarda bo'lib o'tadi. Karfagen qo'shinlarining yangi sarkardasi Gannibal er. av. 219 yili Rim

bilan ittifoqda bo'lgan Iberiyaning Sagnut shahrini ishg'ol qilib, uni tor-mor keltirgan, shahar aholisini qul qilib sotib yuborgan. Bundan norozi bo'lgan Rim Yangi Karfagenga elchilar yuborib, Gannibalni Rim qo'liga topshirishni talab qiladi.

Er. av. 218 yilning bahorida Gannibal o'z qo'shinlari va jangovar fillari bilan Yangi Karfagendan yo'lga chiqadi. U Pireney tog'laridan o'tib, gallarning ba'zi qabilalari bilan jang qilib. Alp tog'lari etaklariga etib boradi. Gannibal juda og'ir mashaqqatlar bilan 33 kun deganda Alpning qorli tog'laridan oshib o'tib, Shimoliy Italiya tomon harakat qiladi. qorli dovondan o'tish og'ir bo'lib, askarlar tog'ning tikka va tog' so'qmoqlaridan o'rmalab borganlar. Muzlagan sirg'anchiq yo'llaridan borayotgan jangchilar, otlar va fillarning ko'pchiligi tubsiz jarga qulab halok bo'lgan. Tog' so'qmoqlaridan charchab, holdan toygan qo'shin Shimoliy Italiyaga etib kelganda Gannibalning 20 ming piyoda va 6 ming otliq askari, oz sonli fillari qolgan edi. Lekin kelt qabilalari Gannibalga kelib qo'shilib, unga bir oz madad beradilar. Gannibal Shimoliy Italiyada turgan Rim qo'shinlarini navbatma-navbat tor-mor qilib, janub tomon qo'shin tortadi.

Er. av. 217 yilda rimliklar Etruriyadagi Arritsiy shahri yonida Gannibalning yo'lini to'sganlar. Lekin Gannibal qo'shinlari rimliklar kutmagan botqoqlikdan kun davomida kechib o'tib, ularning orqa tomonida paydo bo'lganlar. Kechib o'tish vaqtida Gannibal ko'zidan ajralgan, u minib yurgan yagona fil ham halok bo'lgan. Gannibal qo'shinlari Rim qo'shinlariga orqa tomonidan hujum qilib, Traziman ko'li yonida Rim qo'shinlarining ko'p qismini qirib tashlaganlar.

Er. av. 216 yilda Gannibal rimliklarning ayrim hujumlarini qaytarib, Rimni chetlab o'tib, Janubiy Italiyaga yo'l olgan. Chunki Gannibal u yerda janubiy Italiya aholisidan va Karfagendan madad olishi mumkin edi. U o'tish davrida rimliklarning ko'plab qishloqlarini vayron qilgan. Gannibal Rimga dushman, tobe qabilalarni o'ziga og'dirib olishni ko'zda tutib, ularni o'ldirmaslik haqida buyruq beradi.

Er. av. 216 yili Gannibal qo'shinlari Italiya janubidagi Kanna qishlog'iga kirib kelganida uning 40 ming piyoda jangchisi va 10 mingga yaqin otliq askarlari bor edi. Rim qo'shinida esa 80 ming piyoda va 6 ming otliq jangchi bo'lgan. Gannibal qo'shinlari 70 ming Rim piyoda askarlarini qurshab olib, ularning ko'p qismini qirib

tashlaganlar, bir qismini esa asir olganlar. Jangda Rim sarkardalaridan Emiliy Pavel halok bo'lgan, ularning ikkinchi sarkardasi Varron qolgan-qutgan qo'shin bilan Rimga qarab qochgan.

Kanna yonidagi mag'lubiyat Rimni og'ir ahvolga solib qo'ygan. Jangda butun Rim qo'shinlarining uchdan bir qismi halok bo'lgan. Karfagenliklarining bu g'alabasi Italiya markazi va janubida yashab, Rimga tobe bo'lgan samnit, lukan va apul qabilalarining Gannibal tomoniga o'tishi uchun imkon beradi. Shu vaqtda kapuyaliklar ham karfagenliklarga kelib qo'shiladilar. Ammo Gannibalning Rimni olish uchun qilgan harakati zoe ketadi.

Kanna mag'lubiyatidan so'ng Rim senati shoshilinch chora ko'rib, 17 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan barcha erkaklarni qo'shinga safarbar qilgan. Tez orada rimliklar 250 ming askar to'plab, ularni qurollantirganlar. Rim sarkardalari qo'shinni mayda bo'laklarga bo'lib, katta janglarga chap berib, kichik janglar bilan karfagenliklar tomonga o'tgan shaharlarini qamal qila boshlaydilar. Bunday urush Gannibal uchun halokatli edi. Garchi Karfagendan jangchilar kelib qo'shilgan bo'lsa ham Gannibal qo'shinida ahvol og'ir bo'lib qolavergan, qo'shin kundan-kun kamayib bormoqda edi. Yangi Karfagendan qo'shin tortib kelayotgan Gannibalning ukasi Gasdrubal Metavra daryosi bo'yidagi jangda rimliklar tomonidan tor-mor etilib, uning o'zi o'ldirilgan.

Er. av. 204 yilda urush harakatlari Karfagenga ko'chiriladi. Rimliklar Stsipion qo'mondonligidagi katta qo'shini Karfagenga jo'natadilar. Gannibal Karfagenni himoya qilish uchun Italiyadan chaqirtirib olinadi. Er. av. 202 yilda Karfagendagi Zama shahri yaqinida Gannibal boshliq karfagenliklar bilan Stsipion boshliq Rim va Numidiya podshosining otliq askarlaridan iborat qo'shin o'rtasida ayovsiz jang bo'ladi. Bu jangda rimliklarning otliq askarlari ko'p edi. Rim bilan Karfagen piyoda askarlari qizg'in jang olib borayotgan vaqtlarida rim va numidiyaliklarning otliq askarlari karfagenliklarning orqa tomonlariga o'tib olib, zarba beradilar. Birinchi Puni urushlari vaqtida engilish nimaligini bilmagan Gannibal armiyasi o'z vatanini mudofaa qilayotib, tor-mor etiladi. Shu bilan Ikkinchi Puni urushi ham tugaydi. Karfagen Rimga taslim bo'ladi.

Ikkinchi Puni urushi natijasida Rim o'zining eng kuchli raqibi Karfagenni mag'lubiyatga uchratgan edi. Italiyaning bosib olinishi, Karfagen ustidan erishilgan g'alaba Rimni O'rta er dengizi xavzasidagi eng qudratli quldorlik davlatiga aylantirgan. Rimdan sharq tomonda Makedoniya, Yunoniston, Epir, Salavkiylar podsholigi va Misr kabi juda boy mamlakatlar joylashgan edi. Bu mamlakatning boyliklari Rim quldorlari va harbiylarini doimo o'ziga jalb qilib kelardi.

Rim sharqqa yurishni Makedoniyadan boshlaydi, Makedoniya ellin davlatlaridan biri bo'lib, Rimning ashaddiy dushmani edi. Rimliklar Makedoniyaga qarshi kurashmoq uchun ustalik bilan ish yuritib, yunonlarga o'zlarini xaloskor qilib ko'rsatadilar. Ular Fessaliyaga o'z qo'shinlarini keltirib joylashtiradilar. Shu yerdan ular Makedoniyani istilo qilishni mo'ljallab qo'yadilar. Ular ayrim polislar bilan ittifoq tuzib, er. av. 197 yilda Fessaliyaga qo'shin tushirib Kinoskefali qishlog'idan Makedoniyaga hujum boshlaydilar. Bu yerda qattiq jang bo'lib, Rim legionlari g'alabaga erishadilar. Mag'lubiyatga uchragan Makedoniya barcha mulklaridan ajralib, Rimga tobe bo'lib qoladi.

Makedoniyada erishilgan g'alabadan keyin Rim senati yunon shaharlarining erkinligini tan olgan. Bu xabarni yunonlar xursandchilik bilan kutib olganlar. Lekin ularning xursandchiliklari uzoqqa bormagan. Rimliklar yunonlarning ko'p ishlariga aralashib, ularning erkinligini yo'qqa chiqara borganlar. Bu hol Yunonistonda Rimga qarshi kuchli norozilik uyg'otgan.

Er. av. 146 yilda Axeya ittifoqi rimliklarga qarshi qo'zg'olon ko'targan. qo'zg'olonchilar qarzlarning bekor qilinishini va boylarga ham soliq solishni talab qilganlar. qo'zg'olonni bostirish uchun Rim qo'shinlari yuborilgan. Ular qo'zg'olon markazi Korinf shahrini ishg'ol qilganlar ikki o'rtada qattiq jang boshlanib ketgan. Ko'p odamlar halok bo'lgan. Shahar vayron qilinib, unga o't qo'yilgan. Aholining ko'p qismi qul qilib sotib yuborilgan. Yunon shaharlarining ittifoqi tarqatib yuborilgan, ko'pgina shaharlar Rimga itoat ettirilgan.

Er. av. 190 yilda Rim qo'shinlari Kichik Osiyoga bostirib kiradilar. Suriya qo'shinlari dushmanni Magneziya shaharchasi yonida qarshi oladilar. Har ikki tomon

ayovsiz jangga kirishadi. Bu jangda suriyaliklarning qo'shini ko'p edi. Lekin shunga qaramay Rim legionlari jangda g'alaba qozonadilar.

Er. av. 188 yilda rimliklar bilan suriyaliklar o'rtasida sulh shartnomasi tuzildi. Sulh bitimiga ko'ra Antiox III Yevropa va Osiyodagi Tavr tog'larining shimolidagi mulklaridan voz kechadi. U barcha jang fillarini va flotini Rimga berishi, shuningdek tovon to'lashi lozim bo'lgan. Ayni paytda rimliklar o'zlarining eski raqibi, Suriyada yashayotgan Gannibalni rimliklarga tutib berishni talab qilganlar. Shunday qilib, rimliklarning zarbalari natijasida Suriyaning qudrati puturdan ketgan. Rim esa O'rta er dengizdagi eng qudratli davlatga aylangan.

Ikkinchi Puni urushi davrida vayron qilingan Karfagen tez orada o'zini tiklab, mustahkamlanib olgan. Karfagenliklar dehqonchilik, hunarmandchilik va savdosotiqni rivojlantirishga katta ahamiyat berganlar. Rimliklar esa Karfagenning qayta kuchayishini istamas edilar. Uni doimo asoratda tutmoqchi bo'lganlar.

Er. av. 153 yilda Karfagenga kelgan Rim senatori va yozuvchisi Mark Katon shaharning iqtisodiy faravonligini ko'rib, hayratga tushgan edi. U karfagenliklarning ashaddiy dushmani bo'lib, senatda o'z nutqini «Karfagenni vayron qilish kerak», degan so'zlar bilan tugatardi. Rimliklar Karfagen bilan yangidan urush chiqarishga bahonalar izlar edilar. Karfagen bilan Numidiya o'rtasidagi janjallar urush boshlanishiga sabab bo'ladi.

Er. av. 149-146 yillarda bo'lib o'tgan urushlar natijasida Karfagen yana vayron qilinib, aholi qul qilib sotib yuborilgan. Uning o'rnida Rimning Afrika viloyati tuzilgan.

Rimning Sharqiy O'rta yer dengizidagi istilolari. Sharkiy O'rta yer dengizi bo'ylari itoat ettirilib, Rimga qo'shib olingandan so'ng endi navbat Ispaniyani bosib olishga etgan. Bunday harakatlar er. av. 206 yildayoq boshlangan edi, biroq Rimliklar mahalliy ibyerlarning qarshiligiga duch kelgan edi. Er. av. 154 yilda Iberiya, er. av. 150 yilda Luzitaniya aholisi Rimga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Natijasida qo'zg'olon boshlig'i Virnat Luzitaniya podshosi deb tan olindi. Er. av. 139 yilda Virnat sotqin ayol tomonidan o'ldirilgan bo'lsa ham tog'lik Numantsiya aholisi kurashni davom ettirgan.

Er. av. 133 yilda Rim qo'shinlari Numantsiya shahrini qamal qilib, uni ishg'ol qilinganlar. Natijada Ispaniya va Luzitaniya ham bo'ysundirilib, Rim hududlari Iberiyadan Kichik Osiyogacha, Makedoniyadan Misrgacha cho'zilgan. Makedoniyaning istilo qilinishi. Italiyaning bosib olinishi va Karfagen ustidan erishilgan g'alaba natijasida Rim nihoyatda boyib O'rta yer dengizining g'arbidagi eng kuchli quldorlik davlatiga aylangan. Rimdan sharq va janubi-sharq tomonda juda ko'p boy mamlakatlar bor edi. Bu mamlakatlarning boyliklari ochko'z Rim quldorlari, harbiylari va savdogarlari diqqatini o'ziga tortib kelar edi.

Yunonistondagi davlatlar, xususan Makedoniya yerlari Rim uchun quruqlikdan sharqqa o'tadigan ko'prik edi. Rimliklar ayrim yunon polislari bilan ittifoq tuzib er. av. 197 yili Fessaliyaga qo'shin tushiradilar. Rim qo'shinlari Fessaliya tuprog'idan turib Makedoniyaga hujum boshlaydilar. Qattiq janglardan so'ng rim qo'shinlari g'alaba qozonib, Makedoniya Rimga tobe bo'lib qoladi. Er. av. II asrning 70-yillarida Makedoniyada bosqinchilarga qarshi norozilik kuchayadi. Makedoniyaning yosh podshosi Persey mamlakatdagi kuchlarni birlashtirib rimliklarga qarshi kurash boshlaydi. Er. av. 168 yilda Persey qo'shinlari bilan rim legionlari o'rtasida qattiq jang bo'lib, makedoniyaliklar engiladilar. Persey rimliklar qo'lga asir tushib halok bo'ladi. Rim qo'shinlari-legionlari Makedoniyaning shahar va qishloqlarini vayron qilib o't qo'yadilar, boyliklarini talaydilar. Rimliklar Makedoniyaning hamma ittifoqchilaridan, shuningdek Epir shohligidan ham qattiq o'ch olib, uning 70 ta shahrini vayron qiladilar va boyliklarini talaydilar.

Makedoniya tor-mor etilgach, Rim senati uni to'rt qismga bo'lib, har birini alohida respublika deb e'lon qiladi. Makedoniya Rimga katta miqdorda tovon to'lab, aholisining bir qismi asir olinib, qul qilib sotib yuboriladi. Ko'p o'tmay, Makedoniyada hunarmand Andrisk boshchiligida qo'zg'olon boshlanadi. Andrisk o'zini Perseyning o'g'li Filipp deb elon qiladi. Frakiya va boshqa qo'shni davlatlarda yashovchi qabilalar Andriskni qo'llab-quvvatlaydilar. qo'zg'olonchilar rimliklar bilan to'qnashib, ularga qattiq zarbalar berib, hatto ular ustidan bir necha bor g'alaba qozonadilar. Rim qo'mondonligi senatdan yangi qo'shin yuborishni so'raydi. Yangi qo'shin kelgach, qo'zg'olonchilar bilan rimliklar o'rtasidagi kurash yanada kuchaydi.

qattiq janglarning birida Andrisk qo'shinlari rimliklardan engiladi. Frakiyalik xoinlar esa Andriskni rimliklarga ushlab beradilar.

Rimliklar g'alaba qozongach, Makedoniya Rim viloyati deb e'lon qilinadi. Ular Epir shohligi bilan Janubiy Illiriyani Makedoniya viloyatiga qo'shib yuboradilar. Endi Makedoniya viloyati Bolqonga va Sharqqa rimliklarning botsirib kirishlari uchun tayanch joyga aylanadi.

Axeya ittifoqi qo'zg'oloni. Axeya ittifoqi yunon shahar-davlatlarining uyushmasidir. U er. av. 280-yilda tashkil topgan. U Axeya davlatida tashkil topganligi uchun shunday deb atalgan. Ittifoqqa Korinf, Megara, Agros va Peloponnesdagi boshqa yunon shahar-davlatlari a'zo bo'lganlar. Bu ittifoq Makedoniyaga qarshi qaratilgan uyushma edi.

Makedoniya ustidan erishilgan g'alabadan keyin Rim senati yunon shahar-davlatlarining erkinligini tan olgan edi. Yunonlar bu xabarni xursandchilik bilan kutib olganlar. Lekin ularning xursandchiligi uzoqqa bormagan. Chunki rimliklar Makedoniyani o'ziga tobe qilib bo'lgach, yunon shahar-davlatlarining ichki ishlariga aralasha boshladilar. Rimliklar yunon shahar-davlatlari ustidan o'z hukmronliklarini o'rnata boshladilar. Bu hol butun Yunonitsonda Rimga qarshi kuchli norozilik uyg'otishga sabab bo'lgan.

Er. av. 146-yilda Axeya Ittifoqi davlatlari rimliklarning jabr-zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'taiganlar. Qo'zg'olonchilar qarzlarni bekor qilinishini, soliqlarni kamaytirilishini va rimliklarning zo'ravonligiga bartiam berilishini talab qilganlar. Qo'zg'olonni bostirish uchun Rim senati qo'zg'olonchilar ustiga katta qo'shin yuborgan. Rim legionlari qo'zg'olon markazi Korinfga hujum qilganlar. Ittifoqchilar bilan bosqinchilar o'rtasida shiddatli jang boshlangan. Ko'p odamlar qirilgan. Rim askarlari Korinfni ishg'ol qilib boyliklarini talab, unga o't qo'yganlar. Aholining ko'p qismi qul qilib olib ketilgan. Axeya Ittifoqi tarqatib yuborilgan. Yunonistonning ko'pgina shahar-davlatlari Rimga itoat ettirilgan. Sparta bilan Afinaning mustaqilligi nomigagina saqlanib qolgan. Rimliklar Makedoniya va Yunonistonning juda ko'p boyliklarini Italiyaga tashib ketganlar. Rim varvarlari Yunonistondagi ajoyib obidalarni vayron etganlar.

Rimliklarning sharqdagi istilolari. Rimliklar Karfagen, Makedoniya va Yunonistonda o'z hukmronliklarini o'rnatib olganlaridan so'ng, O'rtaer dengizining sharqidagi mamlakatlarga ko'z olaytira boshlaganlar. Bu davrda Salavklar podsholigi, O'rta yer dengizi sharqidagi eng kuchli davlatlardan biri bo'lib qolgan edi. Rim tomonidan urush xavfini sezgan Salavka podshosi Antiox III ham urushga jiddiy tayyorgarlik ko'radi.

Karfagendan qochib Antiox III saroyidan panohtopgan Gannibal Salavka podshosiga Rimga qarshi ittifoq tuzib, urushni Italiya tuprog'ida olib borishni taklif etadi. Ammo Antiox III yunon shahar-davlatlari va'da qilgan yordamlarga ishonib urush harakatlarini Yunonistondan boshlagan. Ammo urush boshlangach, faqat Etoliya va Beotiyagina Salavka podsholigiga yordam berib, qolganlari o'z va'dalarini bajarmaganlar. Salavka podshosi Antiox III ixtiyorida piyoda, otliq qo'shin, o'tkir chalg'ilar o'rnatilgan jang aravalari va urushga jihozlangan fillardan iborat katta qo'shin bor edi. Qattiq janglardan so'ng rimliklar salavkalar qo'shinini Yunonistondan surib chiqarganlar va Kichik Osiyo sohillariga hujum boshlaganlar.

Er. av. 190 yilda rimliklar bilan Salavka podsholigi qo'shinlari Magnesiya shaharchasi yonida to'qnashganlar. Jang shiddatli bo'lib, rimliklarning g'alabasi bilan tugagan. Er. av. 188 yilda ikki o'rtada sulh tuzilgan. Sulh bitimiga muvofiq Antiox III G'arbiy Osiyo va Tavr tog'larining shimolidagi mulklaridan voz kechgan. Hamma jangovar fillarni va harbiy-dengiz flotini Rimga berishi hamda tovon to'lashi lozim bo'lgan. Ayni vaqtda rimliklar Antiox III dan Gannibalni tutib berishni ham talab qilganlar. Voqeadan xabardor bo'lgan Gannibal Vifaniyaga qochib ketgan. Antiox III qo'shinlari rimliklardan mag'lub bo'lsa ham Salavka davlati o'z mustaqilligini saqlab qolgan. Ammo uning kuch-qudrati puturdan ketgan edi.

Uchinchi Puni urushi. Ikkinchi Puni urushidan keyin ko'p o'tmay Karfagen o'zini tiklab oladi. Rim esa Karfagenning kuchayib ketishini istamas edi. Er. av. 153 yilda Karfagenga kelgan Rim senatori va yozuvchisi Mark Katon Karfagendagi iqtisodiy farovonlikni ko'rib hayratga tushgan ekan. U karfagenliklarning ashaddiy dushmani bo'lib, o'z nutqida «Karfagenni vayron qilish kerak», degan iborani ko'p ishlatar edi. Rim Karfagenga qarshi urush chiqarish uchun bahonalar izlar edi. Rim

urush chiqarish uchun Numidiya podshosini Karfagen tuprog'iga bostirib kirishga undaydi. Numidiya qo'shinlari Karfagenga bostirib kirib aholini talay boshlaydilar. Karfagenliklar o'z vatanlarini himoya qilishga o'tlanadilar. Ikki o'rtada jang boshlanganligini bilgan Rim Karfagenga urush e'lon qiladi. Karfagenliklar sulh so'raydilar. Rimliklar sulhga rozi bo'lmay, karfagenliklarni bu yerdan ko'chib ketishlarini talab qiladilar. Karfagenliklar bu taklifni rad etib, urushga tayyorgarlik ko'radilar. Er. av. 149-yili uchinchi Puni urushi boshlanib, rimliklar Karfagen shahrini qamal qilishga kirishadilar. Karfagenliklar jonajon shaharlarini qattiq mudofaa qiladilar. Mudofaada ayollar ham jasorat ko'rsatadilar. Karfagen ayollari uzun sochlarini qirqib, undan tosh otuvchi mashinalarga arqon to'qib berganlar. Qamal uch yil davom etgan. Rimliklar Karfagenning dala qo'shinlarini engib, shaharni tashqari bilan bo'lgan aloqasini uzib qo'yganlar. Shaharda ochlik va kasallik boshlangan. Er. av. 146-yili rimliklar shaharga har tomondan hujum qilib yorib kirganlar. Shahar ichida ayovsiz jang olti kecha-kunduz davom etgan. Dushman shaharni vayron etgan, boyligini talagan va imoratlariga o't qo'ygan. Karfagenliklardan 50 ming kishi asir olinib qul qilib sotilgan. Rimga tobe bo'lgan Afrika viloyatining tuzilishi bilan uchinchi Puni urushi ham tugagan.

Ispaniyaning istilo qilinishi. Iberiya-Periney yarim orolining janubida joylashgan mamlakat. Iberiyaning temir, kumush va qimmatli ma'danlarga boy konlari rimliklarni ko'pdan beri o'ziga jalb qilib kelar edi.

Er. av. III asrda rimliklar Iberiyani itoat ettirish uchun ko'p yillar davomida qonli urushlar olib borganlar. Rimliklar er. av. 206-yilda Iberiya sohillarini egallash uchun kelganlarida, mahalliy aholining qattiq qarshiligiga duch kelganlar.

Er. av. II asrning birinchi yarmida rimliklar Iberiyaga bir necha bor bostirib kelganlar. Er. av. 154- yilda Iberiyaliklar Rimga qarshi qo'zg'olon ko'targanlar. Iberiyadagi bosqinchilarga qarshi qo'zg'olon ikki yil davom etib, so'ng qiyinchilik bilan bostirilgan. Er. av. 150 yili Periney yarim orolining g'arbidagi Luzitaniya viloyatida Viriat degan kishi rahbarligida rimliklarga qarshi juda katta qo'zg'olon boshlangan. Qo'zg'olon 9 yildan ortiq davom etib, luzitanlar rimliklarni ko'p marta mag'lubiyatga uchratganlar. Qo'zg'olonni kuch bilan bostira olmagan rimliklar

Viriati Luzitaniya podshosi deb tan olishga majbur bo'lganlar. Rimliklar xoinlik yo'liga o'tib Viriati o'ldirish payiga tushganlar. Katta boylik evaziga sotilgan xoinlar er. av. 139-yilda Viriati chodirda uxlab yotgan vaqtida o'ldirganlar. Viriati o'ldirilgach, Numansiya shahri rimliklarga qarshi kurashning markaziga aylangan. Bu shahar Duro daryosining boshidagi tog'lik yerda joylashgan edi. Numansiyaliklar bir necha yil mobaynida rimliklarga qarshi mardonavor kurash olib borganlar.

Er. av. 133-yilda Ispaniyaga Rimning mashhur sarkardasi Publiy Korneliy Stsipion yuborilgan. Rim sarkardasi shaharni qamal qilib, tashqi aloqalardan mahrum etgan. Shaharliklarni holdan toydirib rim askarlari shaharga bostirib kirganlar va uni ishg'ol qilganlar. Rimliklar avval shaharni talaganlar, so'ng vayron qilib o't qo'yganlar. Numansiya qarashli yerlarni rimliklarga bo'lib berganlar. Aholining katta qismi qul qilib sotib yuborilgan. Shunday qilib, Rim qo'shinlari Ispaniyani ham bosib olib, Rim davlatining chegaralarini Atlantikaning sharqiy sohillarigacha kengaytirganlar. Shu davrda Rim Yevropadagi va jahondagi eng yirik va kuchli quldorlik davlatiga aylangan edi

Tayanch iboralar: Punilar, Karfagen, Sirakuza, Gieron, Messana, Mila burni, Egata oroli, Barka va barkidlar siyosati, Gannibal, Sagnut shahri, Kanna jangi, Zama jangi, Makedoniyani istilo qilish, Yunoniston, Suriyani olinishi, Mark Katon, uchinchi Puni urushi, Iberiya.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Rim qo'shinlaridagi harbiy tartib va majburiyatlarni izohlab bering.
2. Birinchi Puni urushi natijalarini izohlang.
3. Ispaniya yerlarining istilo qilinishidagi qiyinchiliklar nimalarda ko'rindi?
4. Uchinchi Puni urushining yakunlari haqida ma'lumot bering.

Glossariy

Karfagen - er. av. 814- yil Finikiyaliklar asos solgan kaloniya. Rimliklar uni Puni deb atashgan.

Ganibal – Rimga qarshi kurashgan Karfagaen sarkardasi, bir nechta g'alabaga erishgan, er. av. 183 yili Vifiniyada zaxar ichib o'lgan.

Gasdrubal – Gannibal sarkarkardalaridan biri

Shahar-davlat (polis) – tevaragidagi hududlarni tasarrufiga olgan o'zini-o'zi boshqaruvchi shahar; qadimgi Yunoniston va Rimdagi kichik mustaqil davlat; polisda hokimiyat teng huquqli fuqarolar qo'lida bo'lgan.

Diktator – favqulodda vaziyatlar ro'y bergan taqdirda tayinlanuvchi yakkaboshchi hukmdor.

Dinastiya (sulola) – birin-ketin hukmronlik qiluvchi podsholar urug'i; sulola vakillari ko'pincha bitta nom bilan aytilgan

Zikkurat – tepasida ibodatxonasi bo'lgan zinapoyali minora.

Imperiya – hukmdorning cheklanmagan hokimiyati joriy etilgan davlat.

Italiylar – Apennin yarimorolida itsiqomat qilgan qadimiy qabilalar.

Kapitoliy tepaligi – Rimdagi eng baland tepalik.

18-§. Rim Respublika tuzumi inqirozi va uning qulashi

Rimda harbiylar hokimiyatining kuchayishi. Istilochilik urushlari natijasida Rim respublikasining yerlari kengayib qullar soni oshib bormoqda edi. Sezar o'z qo'shinlarini Bolqonga olib o'tib, Pompey qo'shinlarini tor-mor keltiradi. Pompey qo'shinining qolgan qismi taslim bo'ladi. Pompey boshpana izlab Misrga qochib boradi va Misr malikasi Kleopatra tomonidan o'ldiriladi. Sezar Misr malikasi Kleopatraga hayrixohlik bildirib, Kichik Osiyo va Shimoliy Afrikada va Ispaniyada uch yil g'olibona urushlar olib boradi. Sezar tarafdorlari bilan Pompey tarafdorlari o'rtasida bo'lgan urushlar Rim fuqarolari o'rtasidagi urushlar edi. Bu urush tarixda Rimdagi fuqaro urushlari nomi bilan atalgan.

Yuliy Sezar – Rim saltanati hukmdori. Sezar viloyatlardagi zafarli yurishlardan qaytib kelgach, o'ziga sodiq qo'shinga tayanib cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib qoldi. Senat va konsullar uning buyruqlarini so'zsiz bajarishga majbur bo'ldilar. Sezar Rimda birinchi bo'lib imperator – hukmdor degan nom olishga muvassar bo'ldi. U imperator nomini olgach, rasmi tushirilgan oltin pullar zarb etildi, haykallari ishlanib, uni xudolar haykali yoniga qo'yishadigan bo'ldilar. U senat majlislarida fil suyagi va oltindan yasalgan taxtda o'tirar edi. U o'z askarlariga va tarafdorlariga saxiylik bilan pul va er-mulklar in'om qiladi. Ammo kambag'allarga e'tiborsiz qarab, ularga non va don ulashishni kamaytiradi. U o'z davrining mohir lashkarboshisi va tadbirkor davlat arbobi bo'lgan. U saltanatda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiqni rivojlanishiga katta e'tibor berib, saltanatni mustahkamlash uchun harakat qilgan. U har qancha mashhur bo'lmasin uning dushmanlari ham ko'p edi. Rim aslzodalari va senatorlarning bir qismi uning yakka hokimligidan norozi bo'lib, respublika tarafdori edilar. Shuning uchun ular Sezarni o'ldirish uchun bir necha suiqasd uyushtirdilar. Er. av. 44 yilda Sezar Sharq yurishi oldidan Yupiter bayrami kuni senat majlisiga boradi. Kassiy va Brut boshliq fitnachilar Sezarni o'rab olib, kiyimlari ostiga yashirgan hanjar bilan 23 joyidan chavaqlab o'ldiradilar. Fitnachilar Rim qafasi Kapitoliyga borib yashirinadilar.

Shunday qilib, Sezar va tarafdorlarining yakka hokimiyat o'rnatish uchun harakatlari qarshilikka uchraydi.

Sezar vafotidan so'ng Rimdagi ahvol. Sezar o'ldirilgach, uning dushmanlari Rimda va viloyatlarda respublikani qayta tiklash uchun kurash boshlaganlar. Ammo Rim aholisining ko'pchiligi respublika tarafdorlarini qo'llab-quvvatlamaganlar. Fitnachilar sharq tomon qochib Makedoniyada kuch to'play boshlaganlar. Ammo Rimda Sezarning yordamchisi Antoniy, imperatorning qarindoshi va merosxo'ri Oktavian respublikachilarga qarshi chiqib, ulardan bir necha ming kishini qirib tashlaganlar. Er. av. 40–30-yillarda imperator tarafdorlari bilan respublika tarafdorlari o'rtasida qattiq kurash davom etadi. Bu mamlakatda navbatdagi fuqarolar urushining avj olishiga sabab bo'ladi.

Antoniy baland bo'yli, baquvvat, tajribali lashkarboshi va jangchi edi. Oktavian kasalmand va nimjonroq odam bo'lib, unda tajriba ham, lashkarboshilik qobiliyati ham yo'q edi. Ammo u juda aqlli, ehtiyotkor va iste'dodli yordamchilarni tanlay bilar edi.

Dastlab, Antoniy Oktavian bilan chiqisha olmay Galliyaga ketadi. Oktavian esa qo'shin to'plab Galliyaga bostirib kirib, Mutina yaqinidagi jangda Antoniy qo'shinlarini tor-mor etadi. Shu davrda Sezarning qotillari Brut va Kassiyalar sharq tomondan Rimga xavf solmoqda edilar. Respublikachilarga qarshi kurash zaruriyati Oktavianni Antoniy bilan yarashishga chorlaydi.

Uchlar ittifoqining tashkil topishi. Er. av. 43-yilda Oktavian, Antoniy va Lepidlardan iborat uchlar ittifoqi tashkil topadi. Er. av. 42-yili Oktavian va Antoniy qo'shinlari Makedoniyaga yo'l oladilar. Makedoniyadagi Filippa shahri yaqinida Oktavian-Antoniy qo'shinlari bilan Kassiy-But qo'shinlari o'rtasida qattiq jang bo'ladi. Jangda respublikachilar qo'shini tor-mor etiladi. Jang vaqtida Kassiy o'z chodirida o'ldiriladi, Brut esa dushmanlariga asir tushishni xohlamay o'zini qilich tig'iga tashlab halok bo'ladi. Shu jangdan so'ng Rim uch sarkarda o'rtasida taqsimlanadi. O'rtayer dengizining sharqidagi o'lkalar Antoniyga, Galliya, Illiriya va Ispaniya Oktavianga, Shimoliy Afrika esa Lepid hukmronligiga topshiriladi. Italiya uchlik ittifoqi boshqaruvida bo'lsa ham, u yerda Oktavian hukmronlik qiladi.

Oktavian va Antoniy o'rtasidagi kurash. Uchlar ittifoqi o'rtasidagi birlik mustahkam bo'lmagan va uzoqqa cho'zilmagan. Antoniy Sharqdagi o'z mulkiga kelgach, katta davlat tuzishni ko'zda tutib Parfiya va Midiya ustiga yurish qilgan. Ammo u jiddiy g'alabaga erisha olmagan. U Misr malikasi Kleopatra bilan ittifoq tuzib, Rimga qarshi urushga tayyorgarlik ko'rgan, hatto malikaga uylangan. Uning asosiy maqsadi butun Rimni qo'lga kiritish edi. Antoniyning bu harakatlari Oktavianga yoqmagan va unga qarshi urush e'lon qilgan.

Er. av. 31-yilda Yunonistonning g'arbidagi Aksiy burni yaqinidagi joyda Oktavian va Antoniy qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi dengiz jangi bo'lgan. Jangda Oktavian floti porloq g'alabaga erishgan. Mag'lubiyatga uchragan Antoniy Iskandariyaga qaytgan. Oktavian qo'shinlari Suriya va Palastinni ishg'ol qilib, Misrga bostirib kirgan. Shu vaqtda Antoniyga Kleopatra o'zini o'zi o'ldirdi degan xabar kelgan. Bu xabarni eshitgan Antoniy o'zini qilich tig'iga tashlab jarohatlanib o'lgan. Aslida malika o'lmagan edi. Rim qo'shinlari Misrni ishg'ol qila boshlaydilar. Malika rimliklarga asir tushib zanjirband holda Rimga borishdan o'limni afzal ko'rib, o'zini o'zi o'ldirgan. Misr rimlik qo'shinlar tomonidan bosib olinib, Rimga itoat ettirilgan. Shu bilan Rimdagi fuqarolar urushi tugab, Oktavianning tanho hukmronligi boshlangan.

Oktavian imperatorligi davrida Rim. Misr istilo etilishi, Oktavian imperatorlik unvonini va qo'shinga qo'mondonlikni saqlab qolib er. av. 29-yilda Rimda o'zining yagona hukmronligini o'rnatgan va g'alaba bayramini o'tkazgan. Rim respublika deb atalavergan. Oktavian senatni saqlab qolgan. Xalq yig'ini har yili konsullarni, xalq tribunlarini va boshqa mansabdor kishilarni saylar edi. Ammo yig'in Oktavianning o'zini yoki u ko'rsatgan kishilarni saylardi. Imperatorga yoqmagan kishilar konsullikka yoki boshqa mansabga saylansalar, qamoqqa tashlanib, o'sha yerda o'lib ketar edilar. Senat a'zolari, konsullar, tribunlar va boshqa amaldorlar Oktavianning buyruqlarini so'zsiz bajarishlari shart edi.

Rimda senat faoliyat ko'rsatib turardi. Oktavian senatdan o'z dushmanlarini haydab o'ziga yaqin odamlarni tayinlaydi. Senatda ovoz berish vaqtida u birinchi bo'lib o'z fikrini aytar edi. Senatorlar imperatorga yoqadigan qarorlarni qabul

qildilar. Senat Oktavianga Avgust – Muqaddas kishi – degan faxriy nom bergan. U qo'shinga alohida e'tibor berib, uning sonini 300 mingga etkazgan. Rimda tungi soqchilar va o't o'chiruvchilar guruhi tuzilib faoliyat ko'rsatgan. U shahar aholisiga homiylik qilib, kambag'allarga non, g'alla, pul ulashgan va sirk tomoshalari uyushtirgan. U tasodifan qul qilinganlarni ozod qilish uchun senat qarorini chiqartirgan. Italiyaning Rimdan boshqa shaharlarida yashovchi aslzodalarga Rim fuqarosi nomi berilgan. Oktavian davrida me'morchilik, madaniy va diniy ishlarga ham alohida e'tibor berilgan.

Oktavian fitnachilardan qo'rqib, kiyimi ichidan tig' o'tmas sovut kiyib yaqinlari qurshovida yurgan. Oktavian davridan boshlab Apenin yarim oroli Italiya deb atala boshlangan.

Oktavian davridagi istilochilik urushlari. Oktavian davrida Rim qo'shinlari Italiyadan shimoli-sharqda joylashgan Dunaybo'yi qabilalarini Rimga itoat ettirganlar. Ayni paylda Sitsiliya, Sardiniya va Korsikada marhum Pompeyning o'g'li Sekts Pompeyning orol davlati bor edi. Rim qo'shinlari va floti g'olibona urushlar olib borib, Sitsiliya, Sardiniya va Korsika orollarini bosib olganlar. Sekts Pompeyning oroldagi davlati Rimga qo'shib olinadi. Oktavian davrida Rim saltanatining yerlari Ispaniyadan Suriyagacha, Galliyadan Shimoliy Afrikagacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olar edi. Oktavian hukmronligining so'nggi yillarida Rim saltanati asta-sekin zaiflashadi. Rimga tobe bo'lgan joylarda ozodlik va mustaqillik uchun qo'zg'olonlar boshlanadi. Ayni paytda Rimga shimoldagi jangovar qabilalar hujumi boshlanadi. Bu davrda Rim istilochilik urushlaridan voz kechib, o'z-o'zini mudofaa qilishga o'tadi. Er. av. 14 yili Oktavian Rim shahri yaqinidagi Nole shaharchasidagi qarorgohida vafot etadi. Avgustning jasadini unga bag'ishlab qurilgan maxsus maqbaraga dafn etadilar.

Oktavian vafotidan so'ng Rimdagi ahvol. Imperator vafotidan so'ng mamlakatda og'ir vaziyat boshlanadi. Viloyat, itoat ettirilgan o'lkalarda qo'zg'olonlar va ozodlik harakatlari kuchayadi. Saltanatda esa imperatorlikka da'vogar kishilar ko'payib, ular o'rtasida toju-taxt uchun qonli janglar boshlanadi.

Oktavian vafotidan so'ng taxtga o'tirgan uning o'gay o'g'li Tiberiy saltanatni mustahkamlash uchun bir qator choralar ko'radi. Aholi jon boshiga solinadigan soliqlarni oshiradi. Bunga javoban Shimoliy Afrika, Galliya, Frakiya va Italiyaning ko'p joylarida qo'zg'olonlar bo'lib, ular shafqatsizlik bilan bostiriladi.

Tiberiydan so'ng taxtga o'tirgan Gay Sezar-Kaliguli 37–41-yillarda imperatorlik qilgan. U o'zboshimchalik bilan ish yuritib senat a'zolari, harbiylar va aslzodalar orasida norozilik keltirib chiqargan. U 41- yili fitnachilar tomonidan o'ldirilgan. Bu davrda senatning faoliyati kuchayib mamlakatni respublika deb e'lon qilganlar. Ammo bir guruh harbiylar Klavdiyini taxtga o'tqizganlar. U o'ziga qarshi suyuqasd uyushtirgan fitnachilarni fosh etib, ularning ba'zilarini qatl ettirgan, ba'zilarini o'zga yurtlarga surgun qilgan. U aholi keng qatlamini o'ziga qaratish uchun, kambag'allaiga non, don ulashgan va idoralarning ishini birmuncha yaxshilagan. Klavdiy davrida Bosfor, Britaniya, Frakiya, Dunay bo'ylari, shimoliy Afrikadagi Mavritaniya Rimga itoat ettirilgan. U Parfiya bilan muvaffaqiyatsiz urushlar olib borgan. Ammo u ikkinchi xotini tomonidan zaharlab o'ldirilgan. 54- yili Klavdiyning o'gay o'g'li Neron imperator deb e'lon qilingan. U ham yengil-yelpi hayot kechirib boylar va aslzodalar bilan kelisha olmay ozod qilingan qulining chorbog'ida o'zini o'zi o'ldirgan,

Rim taxti uchun kurash va fuqarolar urushi. Neron 68-yilda o'lgach, mamlakatda toj-taxt uchun kurash avjiga chiqqan. Bu kurashda quldorlar, aslzodalar va lashkarboshilar faol ishtirok etib, ular o'z nomzodlarini imperator deb e'lon qilganlar. Mamlakat fuqarolar urushi girdobiga tortilgan. 69 -yilda sharqiy viloyatlarning aslzodalari Flaviy Vespasianni imperator etib saylaganlar. U senatga tayanib, saltanatni biroz mustahkamlashga muvaffaq bo'lgan. Vespasian Parfiya bilan munosabatni yaxshilagan. Vespasian vafot etgach o'g'li Tit Flaviy imperator deb e'lon qilingan. U 79- yilda taxtga o'tirib uni 81- yilgacha boshqargan va otasining ishini davom ettirgan.

79- yili Italiyada tabiiy ofat yuz berib Vezuviy vulqoni otilgan. Vulqondan chiqqan olov, kul, lavalalar Pompey, Gerkulanum va Staviy kabi shahar va ko'pgina qishloqlarni bosib ketgan. Vulqon otilishi natijasida juda ko'p odamlar o'lgan.

Domisian davrida Rim. Tit Flaviy vafot etgach, Vespasianning ikkinchi o'g'li Domisian imperator deb e'lon qilingan. U otasi va akasi izidan bormay, fitnachi ig'vogarlarni atrofiga to'plab senat bilan hisoblashmay ish yuritgan. U hamfikrlariga sovg'a-salomlar ulashib xazinaga katta zarar keltirgan. U senatorlar mulkini musodara qilib, dehqonlarga ko'proq don ekishni buyurib, tokzorlarni kengaytirishni man etgan. Bu davrda Rim qo'shinlari Reyn, Dunay daryolarining yuqori qismini Germaniyaning janubi-g'arbiy viloyatlarini bosib olganlar. U Quyi Dunay qabilalari bilan muvaffaqiyatsiz jang olib borgan. U Dakiya sardori Desebal bilan sulh tuzib, ularga katta sovg'a-salomlar berishni va'da qilgan. U Britaniya va Sharqda ham muvaffaqiyatsiz urushlar olib borgan. Domisianning bu ishlari oddiy fuqarolar, aslzodalar va quldorlar orasida norozilik keltirib chiqargan. 96 -yilda suiqasd uyushtirilib, Domisian ham o'z saroyida fitnachilar tomonidan o'ldirilgan.

Trayan imperatorligi davrida Rim. 96- yilda, Domisian o'ldirilgach, senator Nerva imperator deb e'lon qilinadi. U 98- yilgacha hokimiyatni boshqaradi. 98- yilda Rim taxtiga kelib chiqishi ispanlardan bo'lgan Trayan o'tiradi. U senat bilan bamaslahat ish olib borib mamlakatda osoyishtalik o'rnatadi. 101-yilda Trayan Dakiya shohi Desebal bilan urush olib borib, uni mag'lubiyatga uchratadi. Trayan Desebal bilan sulh tuzib Dakiyaning ba'zi joylariga Rim qo'shinlarini joylashtiradi. Ammo Desebal sulhga xiyonat qilib Rim qo'shinlari joylashgan istehkomlarga hujum qiladi. 106–107-yillarda Trayan qo'shinlari Dakiyani qaytadan istilo qiladi. Trayan Dakiyada yangi manzilgohlar ochib, u yerga Italiyadan odamlarni ko'chirgan va harbiy istehkomlarni mustahkamlagan. Trayan Dakiyadagi g'alabasiga bag'ishlab Rimda baland minora, qurdiradi.

114-yili Trayan dastlab Armanistonni bosib olib, 115-yilda esa Mesopotamiyaga qo'shin tortadi. Rim qo'shinlari Parfiya poytaxti Ktesifonni egallab, Mesopotamiyani Rimga qo'shib oladilar. 116–117-yillarda Sharqiy viloyatlarda Rim zulmiga qarshi qo'zg'olon boshlanadi. Parfiyaliklar qo'zg'olonchilar bilan birlashib rimliklarni mag'lubiyatga uchratadilar. Bu mag'lubiyat Trayanni Italiyaga qaytishga majbur etadi. Trayan Rimga qaytayotib, 117-yili Kichik Osiyoning Kilikiya viloyatida kasallanib oiadi.

Adrian davrida Rim. Imperator Trayan vafotidan so'ng 117-yili Rim taxtiga uning o'gay o'g'li Adrian o'tiradi. U bosqinchilik urushlarini to'xtatib har qanday janjalli masalalarni muzokaralar yo'li bilan hal etishni afzal ko'rgan. Adrian parfiyaliklar bilan yarashib, tinch-totuv yashashga harakat qilgan. U davlat chegaralarini mustahkamlab, ular bilan tinch munosabatda bo'lgan. Ammo qo'shinni kuchaytirgan. Adrian davlatni boshqarish va sud ishlarini izga solish uchun idoralar sonini ko'paytirgan. U viloyatlardagi o'lpon va soliqlar yig'ishni bekor qilib, eski soliq va qarzar kechib yuborilgan.

Adrian qullarni xo'jayinlar tomonidan jazolanishlarini bekor qilib, ularni sud hukmi bilan jazolash tartibini joriy qilgan. 132– 135-yillarda Quddusda bo'lgan Simon boshliq yahudiylar qo'zg'oloni shafqatsizlik bilan bostirilgan. Aholining ko'pchiligi qul qilib sotib yuborilgan. Quddus rimliklarga qaram bo'lib qolgan. Adrian saltanatning qishloq xo'jaligi, madaniy va savdo-sotiq ishlariga ham katta e'tibor bergan. Adrian Misr, Yunoniston va boshqa mamlakatlarga sayohat qilgan. Uning davrida Afinada Yangi Zevs ibodatxonasi qurilib, Afina akropoli qayta tiklangan.

Frakiyada esa Adrionopol shahri bino qilingan. Adrian davrida Rim har jihatdan yuksalgan davlatga aylanadi. U 138-yili vafot etadi. Uni Rimdagi katta maqbaraga izzat-ikrom bilan dafn etadilar. Adriandan keyin Rimda Antoniy, Avreliy, Lusiy Ver va Kommodlar imperatorlik qilganlar. Ammo ularning hech biri Adrian singari ish olib bora olmadilar. Adriandan keyingi imperatorlar davrida Rimda va viloyatlarda katta-katta xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tgan. Bu qo'zg'olonlar shafqatsizlik bilan bostirilgan. 192-yilda Kommod fitnachilar tomonidan o'ldirilgan. II asr oxiri – III asr boshidan boshlab Rim saltanati tushkunlikka yuz tutgan.

Tayanch tushunchalar: Spartak qo'zg'oloni, Gney Pompey, Sezar Krass, uchlar ittifoqi, Sezar diktaturasi, fuqarolar urushi, Oktavian Avgust, ichki va tashqi siyosat.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Rim Respublikasi nima uchun inqirzga uchradi?
2. Pompey va uning bosqinchilik yurishlari?
3. Sezarning hokimiyatga chiqishi va uning kuchli tashqi siyosati?
4. Aktavian Avgust davrida Rimning ichki va tashqi siyosati?
5. Avgust davrida amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlar va ularning natijasi?
6. Mark Antoniy va uning mag'lubiyati sabalari

Glossariy

Oktavian Avgust – Rim imperiyasi asoschisi er. av. 14 – eramizning 30 yilida hukumronlik qilgan. Unga berilgan Avgust laqabi muqaddas avgurlar nomidan olingan. Hozirgi avgust oyi nomi ham shundan olingan.

Printsiyat – Printseps so'zi «birinchi kishi» demakdir. U mamlakatni viloyatlarga bo'lib, u ellarga o'ziga sodiq bo'lgan kishilardan noiblar tayinlagan. U senatni saqlagan holda davlat ishlarini o'z qo'lida tutib turgan.

Yuliy Sezar – er avv. I asr oxirida Brut boshchiligidagi fitnachilar tomonidan o'ldirilgan.

Koloniya – o'z yurtini tark etgan odamlar o'z mamlakatidan tashqarida, yangi yerlarda asos solgan manzilgoh.

Termlar – qadimi Rim shahridagi jamoat hammomlari.

19-§. Oktavian Avgust printsipiati. Er.av. I asr boshlarida Rim imperiyasi inqirozining tugatilishi va byurokratik apparatning mustahkamlanishi

Printsipat tartibotini yuzaga kelishi. Oktavian Avgust boshqaruvi. Avgustning Antoniy va Kleopatraga qarshi olib borgan urushi er. av. 30-yili Misrni zabt etilishi bilan tugallangandan so'ng u butun Rim imperiyasining yagona hukmdori bo'lib qoladi. Keyingi yili u Rimga qaytib kelib g'oyatda dabdabali g'alaba tantanalarini o'tkazadi.

Avgust o'zining triumvir lavozimini tantanali ravishda bo'ynidan soqit qilib, senat va kamitsiyalardan umrbod imperator unvonini oladi. U sensor sifatida senatga tozalash o'tkazib, uning tarkibidan Mark Antoniyning do'stlari va boshqa o'ziga dushman deb bilgan kishilarni chiqarib yuboradi.

Er. av. 27- yil 13- yanvarda Oktavian senatning alohida kengashini chaqirib, unda mamlakatni qanday boshqarayotganligi to'g'risida hisobot beradi, fuqorolar urushi tugab, butun Rim xududida tinchlik-osoyishtalik o'rnatilganligi haqida axborot bergandan so'ng sog'lig'i yomonlashganligi munosabati bilan senatdan o'z zimmasidagi lavozimlardan ozod etishni iltimos qiladi. Biroq senat Oktavianga hokimiyatdan ketmaslik buyurilsin deb qaror chiqaradi. Senat qarori bilan Oktavian Avgust senatning printsepsi, yagona prokonsul, legionlarning qo'mondoni deb e'lon qilinadi. Unga ilgari xudoga qilingan murojaatlarda tilga olingan Avgust taxallusi berildi.

Viloyat xokimlari-ilotlar va prokuratorlar butunlay imperatorga bo'ysunar va Avgustning farmoni bilan chaqirib olinishlari mumkin edi. U yagona prokonsul sifatida legionlarga qo'mondonlik qilish va viloyatlardan noiblarning ishiga rahbarlik qilish bilan birga qo'shinlar saflarini to'ldirish uchun askar to'plash, chet davlatlar bilan muzokara olib borish, urush e'lon qilish va sulh tuzish xuquqiga ega edi.

Harbiy xarajatlarni ta'minlash uchun Avgust imperiya g'aznasi – fisk tuzish xuquqini oladi, bu g'azna oltin va kumush pullar zarb qilar, shaharning eski g'aznasi erariy esa faqat mis chaqalargina zarb qilishga haqli edi.

Shunday qilib, harbiy va fuqoro xokimiyatini eng muhim funksiyalarini o'z qo'liga olgan, urush o'ljalaridan to'plagan va o'zi boshqarib turgan viloyatlardan keladigan daromadlardan yuzaga kelgan benihoya katta boyliklarni tasarruf etgan Avgust Rim davlatining to'la xokimiyatli xukmdori sifatida mamlakat ichki va tashqi siyosatini belgilab beradigan bo'ldi.

Lekin Avgust Sezarning fojiali qismatini yoddan chiqarishi mumkin emasdi. U tutingan otasidan farq qilib, davlatdagi o'zining yuqori mavqeini turli yo'llar bilan niqoblashga urinardi. U kamtarona kiyinar, xech qanday daraja belgilari taqmas, kamdan-kam nutq so'zlar, bu ishni u o'zining eng yaxshi do'stlariga topshirishni afzal ko'rardi.

Oktavian Avgust obro'-e'tiborining dastagi printseps qo'lidagi g'oyat katta moddiy boyliklar, shu bilan birga fuqoro urushidan so'ng o'zi tashkil qilgan ulkan armiya ustidan mutloq xokimiyatga ega ekanligida edi. Yaxshi uyushtirilgan texnikaviy jihatdan o'z zamonasining talablari darajasida qurollantirilgan legionlar guruh-guruh qilib harbiy va iqtisodiy jihatdan eng muhim viloyatlarga joylashtirilgan. Har bir legionda 10 tadan piyoda kogorta (birinchi kogorta 1000 kishidan, qolganlari esa 500 kishidan iborat bo'lgan), texnika kogortasi, har birida 300 ta alsuvoridan iborat otliq otryad va ittifoqchilar kogortasi deb atalgan yordamchi otryadlar, shuningdek jangchilari viloyatlarning aholisi orasidan olinadiganlar allar bo'lgan.

Har bir legion raqamlangan va nomlangan, masalan III-legion – Avgust nomidagi legion, IV-Makedonskiy, VI-Temir legion, XV- yashinday tez legion va xokozo. Legionlarning qo'mondonlari-ilotlar va katta qo'mondonlar-harbiy tribunlarni imperator tayinlardi. Legionlarning xizmat muddati 20 yil bo'lib, ular xizmat davomida yillik maoshlar, harbiy xizmatdan bo'shagandan so'ng ularga maxsus in'om (donativa) va chek yer bo'lib berilardi. Harbiy xizmatdan iste'foga chiqqan katta yoshdagi jangchilar veteran deb atalganlar. Mahalliy magistratlar ko'p hollarda yana shu veteranlardan saylanganlar.

Italiyada o'z hukmronligini saqlash va shaxsiy muhofaza uchun Oktavian 9 ta kogorta tashkil etadi. Pretoriylardan tarkib topgan bu kogortalarning har birida mingtadan (300 ta otliq va 700 ta piyoda) jangchi bo'lgan. Bu kogortalarning uchtasi

Rim shahrini o'zida qolgan, oltitasi Shimoliy Italiya shaharlariga joylashtirilgan. Pretoriy jangchilarining maoshlari legionlarning maoshlaridan uch marta ko'p bo'lgan. Pretoriylar 16 yil xizmat qilganlar. Pretoriylar kogortasiga faqat Italiyada tug'ilib o'sgan kishilargina olinganlar.

Dengiz yo'llarini qaroqchilardan qo'riqlash uchun O'rta dengizda harbiy kemalarning ikkita doimiy eskadrasi tashkil qilingan. Bundan tashqari Galliya qirolligini qo'riqlab turgan flotiliya bilan birga Evksin Pontida ham yana bir flotiliya faoliyat ko'rsatgan.

Oktavian Avgust davrida Rim imperiyasidagi qurolli kuchlarning umumiy soni 300 ming kishiga etkaziladi. U tashkil qilgan doimiy Rim armiyasi qariyb to'rt yuz yil mavjud bo'ldi. Ta'kidlash joizki, bu tarixda birinchi muntazam armiya bo'lib, Rim hukmdorlari o'z ichki va tashqi siyosatlarida shu armiyaga tayanib ish ko'rgan edilar.

Avgustning ichki siyosati. Avgustning ichki siyosati qulchilik tuzumini mustahkamlashga qaratilganligi yaqqol ko'rinib turar edi. Er. av. 36 – yildayoq senat Pompeyning orol davlatini tor-mor qilgandan so'ng Avgust Sitsiliyada qo'lga tushgan qochoq qullarni jazolash uchun o'z egalariga qaytarishni buyuradi. Keyinroq u senatdan qulni sotib olgandan so'ng 20 yil o'tmay turib ozod etishni taqiqlovchi qonun chiqartiradi. Agar qulni ozod qilgudek bo'lsa, qul egasi uning bahosini 5 foizi miqdorida soliq to'lashi shart edi.

Avgust taklifiga binoan senat er. av. 10- yilda go'yo unutilib ketgan qonunni tiklash bahonasi bilan shunday qaror chiqarganki, bu qarorga muvofiq qul o'z egasini o'ldirgan taqdirda, voqea sodir bo'lgan paytda uyda bo'lgan barcha qullar va ozod qilingan sobiq qullarning hammasi qatl etilishi kerak edi.

Fuqorolar urushi tugagandan so'ng Avgust Rim senati aristokratlarining imtiyozli xolatini turli yo'llar bilan ta'kidlab, qadimgi patriitsiyalar xonadonlariga har jihatdan homiylik qiladi.

Suvoriylar toifasini Avgust o'z hokimiyatining tayanchi deb hisoblaydi. U suvoriylar uchun 400 ming sestretsiy miqdorida mulkiy senz belgilaydi. Rimda har yili suvoriylarning ko'rigi o'tkazilib turilgan. Oktavian Avgustning eng yaxshi qarindoshlari suvoriylarga bir necha marta boshliq qilib tayinlangan edi. Avgust

ko'pincha harbiy qo'mondonlik va viloyat prokuratorligi lavozimlariga suvoriylardan tayinlardi. Bu vaqtda viloyatlarda soliq to'plash ishi avvalgidek suvoriylar qo'lida bo'lib, ularning saflari asta-sekin harbiy faxriylar bilan to'lib boraveradi, oqibatda ular Rim imperiyasining harbiylar tabaqasiga aylanib ketadi.

Avgust bepul g'alla tarqatish, sovg'alar ulashish, sirklarda gladiatorlarning ko'plab o'yinlarini (hatto bir marta esa Rimga yaqin yo'llardan birida dengiz urushi mashqi - noumaxiya) o'tkazish vositasida Rim plebsining ko'nglini ovlash bilan birga Rim fuqarolarining eng kambag'al tabaqasi kayfiyatini diqqat bilan kuzatib borgan. U Rimda tinchlik, osoyishtalik va jamoat tartibini saqlash uchun uchta soqchilar kogortasini tuzadi, bu qismlar ayni vaqtda yong'in o'chirish ishlarini ham amalga oshirar edi. Bundan tashqari alohida tungi soqchilar otryadlari ham faoliyat ko'rsatgan.

Shahar magistratlarini saylash vaqtida majlisga nomzodlarni Avgustning o'zi tavsiya qilar edi. Ba'zi Rim tarixchilari Avgust viloyatlarda tug'ilgan kishilarga Rim fuqorolik huquqlarini berishda qizg'anchilik qilishgan desalar-da, yozuvchilardan ma'lumki, viloyatlardagi ko'pgina zodagonlarga, ayniqsa ellinlashgan aristokrat quldorlar nomoyondalariga bunday huquqlar berilgan.

Avgust italiya shaharlarining aholisiga ayniqsa ko'p xomiylik qiladi. Bu davrda butun Apenin yarim oroli Alp tog'larigacha Italiya deb atala boshlandi. Italiya shaharlaridagi aholining hukmron tabaqalariga Rim fuqorolik huquqlari beriladi. Ularning ba'zi nomoyondalari suvoriylar toifasiga va hatto senat toifasiga kiritiladilar.

Avgust davrida katta qurilish ishlari amalga oshiriladi. Rimda 82 ta ibodatxona tiklanadi va yangidan quriladi. Forum yonida maxsus me'morchilik majmuasi Avgust forumi, Avgustning jiyani Marsel nomiga qo'yilgan muhtasham teatr binosi, barcha hudolarga atab ibodatxona – Pantion, g'oyatda go'zal, "jahon qurbongohi" va boshqa me'morchilik obidalari bunyod qilinadi. Rimning Palatin tepaligida Avgust xashamatli bir uy qurdiradi, u shaharning siyosiy va madaniy hayot markaziga aylanadi.

Bir necha yuz ming aholi istiqomat qiladigan Rim shahrining suv va oziq-ovqat bilan ta'minoti Avgust davrida jiddiy yaxshilanadi. Rimning g'alla ta'minoti bilan annona prefekti, suv ta'minoti bilan esa suvlar prefekti shug'ullanar edi. Shaharning butun idora ishlarini yo'lga qo'yish uchun shahar prefekti tayinlanadi. Tarixchi Tatsitning yozishicha, uning eng muhim vazifasi "qullar va fitnachi fuqorolar"ning adabini berish va ularni jazolashdan iborat bo'lgan.

Biroq Avgust o'z xokimiyatini faqat zo'rovonlik yo'li bilan saqlab qolishga intilmaydi. Uning atrofidagi shaxslar o'z uylariga Rimdagi shoirlarni to'plab, ularga moddiy yordam ko'rsatganlar va xomiylik qilganlar, ular Avgustni, uning ishlarini maqtab asarlar yozishga shoirlarni majbur etganlar.

Avgust qadimgi diniy e'tiqodlar va axloqni tiklash yo'li bilan taasublik kayfiyatini mustahkamlashga intiladi. Emiliy Lepidning o'limidan so'ng oliy kohin (ulug' pontifik) bo'lib olgach, Avgust ko'plab ibodatxonalarni va qadimgi bayramlarni tiklaydi. Bu bayramlarda uning o'zi oilasi, yaqin kishilari va juda ko'p Rim fuqorolari qatnashganlar. Er. av. 17- yilda yuz yillik o'yinlar (sekulyar) ayniqsa juda dabdabali o'tkaziladi. Tungi namoyish va tunda qurbon berish bilan tugallangan bu bayram rimliklarga yangi asr boshlanganligini bildirishi lozim edi.

Rimda ilohiy Yuliy kulti o'rnatiladi, ko'plab viloyatlarda Avgustning donoligi madh etiladi, unga ibodat qilish uchun maxsus kohinlar kollegiyasi tashkil qilinib, ibodatxonalar, qurbongohlar quriladi.

Avgust jamiyatda barkarorlik bo'lishida axloq va odobni o'rni beqiyos bo'lishini yaxshi anglagan edi. Avvalo u shoirlar (xususan Goratsiy) yordamida nikohsizlikka qarshi kompaniya tashkil qilgan va keyinroq uch va undan ortiq farzandi bo'lgan fuqorolarga bir qator imtiyozlar berish yuzasidan qarorlar chiqartirgan va oilani mustahkamlashga qaratilgan qat'iy, huquqiy meyorlarni senat tomonidan o'rnatilishiga erishgan edi.

Tashqi siyosat. Tashqi siyosatda nixoyatda ehtiyotkorlik bilan ish ko'rish Avgust siyosatining xarakterli jihatlaridan biri bo'lib, albatta bu siyosat Rimga tobe xududlarni kengaytirish va ko'plab asirlarni qo'lga kiritish yo'li bilan qullar sonini to'ldirib turish maqsadini ko'zlar edi.

Er. av. 30-yillardayoq Illiriya va Pannoniyada Avgust o'z bosqinchilik urushlarini boshlagan edi. Rimliklar illiriy va pannon qabilalarining tarqoq bo'lsada, qahramonona qarshiliklarini engib, Adriatika dengizining shimoli – sharqiy qirg'oqlaridan asta-sekin siljib borganlar. Mark Antoniyga qarshi urush tufayli bu siljish to'xtab qolgan edi, ammo urush tugashi bilan rimliklar avvalgi yurishlarini yana davom ettiradilar. Ular er. av. 12- yilga kelib, Dunay daryosining boshlanishidan to Qora dengizga quyiladigan etagigacha bo'lgan xududda xukmronlikni qo'lga kiritdilar.

Rimliklarning istilochilik yurishlari Pireneya yarim orolining shimoli–g'arbiy yo'nalishida ham olib borildi. Rimliklarning katta qo'shini iber qabilalari, kantabr va asturlar yashaydigan xududga bostirib kiradilar. Avgust o'zi boshchilik qilgan armiya Pireneya tog'liklari qattiq qarshiligini yengib er. av. 25- yil oxiriga kelib, mamlakatni ishg'ol qiladi. Qullik asoratiga solingan minglarcha kantabr va asturlar rimliklar bunyod etgan konlarda metal ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Biroq bir necha yildan so'ng erksevar kantabr va asturlar rimliklar zulmiga qarshi mustaqillik uchun ozodlik qo'zg'olonini ko'taradilar. Rimliklar bu safar ularga ham dengizdan, ham quruqlikdan hujum qilib, nixoyat er. av. 19-yili Vipsaniy Agrippa boshchiligida qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ladilar. Rimliklar ayni paytda Galliyaning fuqorolar urushi davrida Sezarning o'limidan so'ng Rim xukmronligidan ozod bo'lib olgan janubi –g'arbiy qismini qayta bo'ysundirdilar. Shundan bir necha yil keyin Rim qo'shinlari Alpning tog'lik viloyatlarini istilo qilib, axolisini qul qilib sotib yubordilar.

Er. av. 16-yilda german qabilalarining drujinalari Reyn daryosining so'l qirg'og'iga chiqib olib, Rim lashkarboshisi Loliyni mag'lubiyatga uchratgandan so'ng Rimliklar buning qasdiga german qabilalari yashagan xududning ichkarisiga bir necha marta bosqinchilik yurishlarini uyushtiradilar va bu yerda yashaydigan german qabilalarini bo'ysundiradilar. Lekin pirovardida rimliklar bu rayonlarda mustahkam o'rnanib qola olmadilar.

Imperiya sharqida – Armaniston va Parfiyada jiddiy muammolar kelib chiqadi: armanlar Rimliklar tayinlagan xukmdorni xaydab yuboradilar, Parfiyada o'zaro

siyosiy nizolar boshlanib ketadi. Er. av. 4- yili Yaxudiyada ozodlik qo'zg'oaloni ko'tariladi. Suriyaning noibi Kvintiliy Var bu qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirsada, siyosiy muammolar murakkablashib borayotgan edi.

German yo'l boshchilaridan biri Marobod rahbarligida Dunaydan shimolda german qabilalari ittifoqining yuzaga kelishi rimliklarni katta xavotirga soladi. Er. av. 6-yilda Avgustning asrandi o'g'li Tiberiyning Marobodga qarshi urush qilishi uchun pannon va illiriy qabilalari orasidan qo'shin to'plashi butun Illiriya va Pannoniyada katta qo'zg'olonni keltirib chiqaradi. Xatto qo'zg'olonchilar rimliklarning ba'zi otryadlarini tor-mor qiladilar. Rimliklar qo'zg'olonni uch yil davomida katta kuchlar yordamidagina keyinroq shafqatsizlik bilan bostirishga muvaffaq bo'ldilar.

Er. av. 9-yili Rimda illiriy – pannon qo'zg'olonini bostirish munosabati bilan tantanalar o'tkazishganida shaharga mudxish xabar etib keladi. Germaniyada Rim qo'shinlarini kuchsizlanib qolganidan foydalanib germanlar oqsoqol Arminiy boshchiligida qo'zg'olon kutarib Rim noibi Kvintiliy Varning uch legiondan iborat qo'shinni qirib tashlagan edi.

Kvintiliy Varning o'ldirilishi, legionlarning halokati to'g'risidagi xabar rimliklarni sarosimaga soldi. Ular germanlarning Galliyaga bostirib kirishi va qullarni qo'zg'oalon ko'tarishidan vahimaga tushadilar. Lekin german drujinalari bosqinchilarni xaydab yuborib, o'z yurtlariga qaytib ketadilar. Galliya vahimasi bosilgan bo'lsa-da, endilikda ilgaridan Avgust xukmronligidan og'irsinib, senat respublikasining tiklashni niyat qilib yurgan Rim zodagonlarining noroziligi qaytadan kuchayib ketadi.

Imperiya germanlar zarbasidan asta-sekin o'ziga kelsada, endi keng ko'lamda istilochilik siyosati yurgizish to'g'risida gap bo'lishi ham mumkin emas edi.

Oktavian Avgust hayotining so'ngi yillari notinch va muvaffaqiyatsiz kechadi. Shaxsan o'z oilasida ham chinakam fojia hukm suradi. Avval sevimli o'gay o'g'li Druz vafot etadi, keyinchalik keksayib qolgan printseps o'ziga voris qilmoqchi bo'lgan ikki nevarasidan ham judo bo'ladi. Avgustning imperiyaga 44 yil davom

etgan hukmronligining xotimasi shunday kechgan edi. Eramizning 14 yili keksa printseps Rimga yaqin kichkina Nole shahrida vafot etadi.

Avgust vafotidan so'ng yuzaga kelgan vaziyat shu qadar hafli ediki, printsepsning xotini Liviya Druzilla erining o'limini voris bo'lib qolgan o'gay o'g'li Tiberiyni Italiya shimolidan qaytib kelgunicha atrofdagilardan birmuncha muddat yashirishga majbur bo'ladi.

Tayanch iboralar: Triumvir, printsipat, senat, komitsiya, senezor, prokonsul, avgust, legat, imperator, fisk, erariy, legion, kogorta, allar, donativa, veteran, magistrat, pretoriy, imperiya, muntazam armiya, fukarolik xukuki, aristokrat, suveren, prokurator, panteon, jaxon qurbongohi, annona prefekti, ulug' pantifik, sekulyar, ilohiy yuliy kulti respublika

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Oktavian Avgustning sog'lig'i yomonlashganligi munosabati bilan senatdan o'z zimmasidagi lavozimlardan ozod etish to'g'risidagi iltimosi nima uchun qondirilmadi?

2. Yuliy Sezarning fojiali qismati Avgust faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatgan deb o'ylaysiz?

3. Avgust obro' -e'tiborining asosiy dastaklari nimada va ular qanday yuzaga keltirilgan edi?

4. Avgust yaratgan harbiy tizimning mohiyati va ahamiyati nimada?

5. Oktavian davrida qulchilik munosabatlarini mustahkamlash uchun qanday chora tadbirlar amalga oshirilgan?

6. Avgust davrida qanday bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi?

7. Jamiyatda oilaning o'rni masalasida Avgustning qarashlari mohiyati nimada deb o'ylaysiz?

8. Oktavian Avgust tashqi siyosatining mohiyati va yo'nalishlari haqida fikr yuriting.

Glossariy

Legion -(lot) qadimgi Rim armiyasidagi asosiy tashkiliy birlik (4,5-10ming kishi)

Aristokratiya - (yun) 1.Davlat idora usuli. 2.Quldorlik va feodal jamiyatda imtiyozli tabaqa.sestretsiy qadimgi Rimda pul birligi.

Naumaxiya – dengiz urushi mashqi.

Plebs – (lot.) qadimgi Rimda dastlab urug' jamoasiga kirmagan, jamoa yeridan foydalanish huquqiga ega bo'lmagan ozod aholi tarkibi.

Kogorta - kamida 450 nafardan kam odam bo'lmagan qo'shin.

Komitsiya – xalq majlisi.

Sukulyar – yuz yillik o'yinlar.

Fisk – imperiya g'aznasi.

Erariy- shaharning eski g'aznasi.

20-§. Rimdagi qul egaligi va qullarning Sitsiliyadagi birinchi qo'zg'oloni.

Eramizning IV-V asrlarida so'ngi Rim imperiyasi. Dominat

Rim tajovuzini so'nggi uchquni. Trayan printsipati. (Milodning 98-117 yillari). Damitsion o'ldirilgandan so'ng keksa senator M.Koktsey Nerva imperator deb e'lon qilinadi. Bu harbiylarning kattiq g'azabini qo'zg'atgan edi. Harbiylarning noroziligidan nafaqat yangi imperator, balki uning tarafdorlari bo'lgan senatorlar ham xavotirga tushganlari bois, Nerva o'z atrofida g'ilarning maslaxati bilan yuqori Germaniya legionlarini legati Mark Ul'niy Trayanni o'ziga o'g'il qilib oladi (eramizningning 96-yili).

Trayan Pireney yarim orolida joylashgan Rim kalonniyasi bo'lgan Italikdan kelib chiqqan bo'lib, asli ispan millatiga mansubdir. U Rim taxtiga o'tirgan birinchi ajnabiy xisoblanadi.

Trayan ikki yil davomida (milodning 96-98 yillari) Nervaga xokimdosh bo'lib, u o'lgandan so'ng (milodning 98- yili) imperator taxtini egallaydi. Trayan senat bilan do'stona munosabatda bo'ladi. Endilikda senat eski Rim va italiya nobillari vakillaridan ko'ra viloyatlik zodagonlardan tashkil topgan edi. U senatorlarga erkin fikr aytish uchun imkoniyat yaratib bergan bo'lib, Senatning huquq va vakolatlarni noiblarini tayinlash, ularning faoliyatini nazorat qilish va ularni sud qilish huquqini oladi.

Imperiyani Damitsian boshqaruvi davrida pasayib ketgan Rim armiyasining obro'sini tiklash va o'zidan oldingi xukumdorlar davrida kamayib ketgan qullar sonini ko'paytirishga intilib, Trayan o'zi boshqaruvning dastlabki oylaridayoq urushlarga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

Uning istilochilik rejalarining dastlabki maqsadi quyi Dunayning shimoliy qirg'oqlariga joylashgan va Damitsianning rimliklarga qaram qilish yo'lidagi urushlarni qaytarishga muvaffaq bo'lgan daklar podisholigini bo'ysundirishga qaratilgan edi.

Milodning 101 yili Trayan Dakiyaga urush e'lon qiladi. Rimliklarning katta qo'shini Dunayni kechib o'tib, Dakiya davlati poytaxti Sarmixegetuza tomon

yo'naladi. Daklar aholi yashagan har bir joyni, har bir tog' tepaligini, poytaxtga olib boradigan yo'l ustidan har bir darani qattiq himoya qilib mardlarcha qarshilik ko'rsatishadi. Shiddatli janglardan keyin Rim qo'shinlari Dakiya shohi Datsebalni taslim bo'lishga majbur qiladilar.

Imperator qabul qildirgan sulx shartlariga ko'ra Dakiya podishosi qochib kelgan qullarni va jangchilarni qaytarib berish, bundan keyin Rim imperiyasidan kelgan biron bir qochoqqa boshpana bermaslik, qo'rg'onni ko'mib tashlash, harbiy otliq lashkarlari va muayyan miqdordagi qulga qulga ushlaydigan qurol-yarog'larni rimliklarga berish majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Dakiyaning ba'zi joylarida Rim qo'shinlari joylashtiriladi.

Biroq Detsebal og'ir sulh shartlarini qabul qilib, shaxsan bo'ysunishini bildiradi, fursat poylab yana kurash boshlashga harakat qiladi. Rimliklar mamlakatdan qo'shinlarini olib ketgan zaxoti Dakiya podishosi yana Rim imperiyasidan kelgan qochoqlarni qabul qila boshlaydi, qo'shni qabilalarni Rimga qarshi kurash uchun birlashishga chaqiradi va xatto olisdagi Parfiya bilan ittifoq tuzishga harakat qiladi. Lekin rimliklar daklarni yangidan urush boshlash niyatlaridan xabardor bo'lib, Dunayga katta ko'prik solib, ko'prik oldi kuchli istehkomlar bilan mudofa tuzishni yo'lga qo'yadilar.

Milodning 105- yili daklar katta kuch to'plab to'satdan ko'prik oldidagi istehkomlarga hujum qiladilar. Lekin ularning bu hujumi qaytariladi. Shundan keyin 106-yilning boshida Trayan Dunay bo'yida yana ham ko'p kuch to'plab Dakiyaga bostirib kiradi. Uning armiyasi daklar qarshiligini sindirib ular poytaxti Sarmizegetuzaga yaqinlashib keladi. Kuchlar teng emasdi. Shahar aholisining ko'pchiligi qul bo'lishdan ko'ra o'limni afzal ko'radi. Minglab odamlar o'z jonlariga qasd qiladilar. Detsebal tog'larga yashirinmoqchi bo'ladi, lekin ba'zi dak oqsoqollari o'z xukumdorlariga xiyonat qilib uning yashiringan joyini dushmanga ko'rsatib bergach Detsebal dushmanga taslim bo'lishdan ko'ra o'z joniga qasd qilishni afzal ko'radi. Shundan keyin Dakiya Rim viloyatiga aylantiriladi. (Milodning 107-yili) Trayan Daniyani bosib olib, u yerda yangi kolonniyalar ochadi va u yerga Italiyadan ko'plab odamlarni ko'chirtirib joylashtiradi.

Trayan Daniyani istelo qilgandan so'ng Parfiya urushiga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Ayni vaqtda Rim qo'shinlari Senay yarim orolini va (Arabistonning toshloq Arabiston deb ataladigan) shimoli-g'arbiy qismini bosib oladilar. Ular bu bilan janubi-sharqdan Misr va Suriyani havfsizligini, shuningdek qizil dengizdan Arabistonni o'rab turadigan janubi Osiyo mamlakatlariga o'tadigan dengiz yo'llarini xavfsizligini taminlaydilar.

Milodiy 114-yili Trayan Arabistonga bostirib kiradi. Va uni ishg'ol etib, Rim viloyati deb e'lon qiladi va o'z qo'shiniga dam berish uchun Suriyaga olib ketadi. Ular armiyasi bilan Antioxiyada ekanida qattiq zilzila bo'lib necha ming kishini shu jumladan juda ko'p kishi halok bo'ladi. Keyingi yili u Parfiyaga hujum qilib, uning poytaxti Ktesefon shahrini egallaydi. Rimliklar Fors qo'ltig'igacha bo'lgan yerlarni egallab, ikki daryo oralig'idagi Ossuriya, Mesapatamiya va Bobilni Rim viloyatlari deb e'lon qiladilar. Rimliklar mahalliy hukumatlarni tugatib aholini o'zlarini viloyat mamuriyatlariga bo'ysundirdilar.

Rim senati sharqda olib borilgan urush tugaganidan hisoblab, Trayanga yangi faxirli unvonlar beradi. Trayan flot qurib, kemalarda fors qo'ltig'iga chiqadi. Juda katta hududlarni egallagan Rim saltanati shon-shavkat va qudratini cho'qqisiga chiqqanday tuyilgan paytda, Trayan va Rimliklar uchun mutlaqo kutilmaganda ular bosib olgan ikki daryo oralig'idagina emas, balki imperiyaning o'zining sharqiy viloyatlarida ham boshlanadi. (milodning 116-yil oxiri 117-yil boshlari) Shimoliy Mesopatamiyaning yahudiy knyazligidagi boshlangan qo'zg'olon shimoliy Misrga, Kirenamkaga va Kipr oroliga yoyiladi.

Saltanatning sharqiy viloyatlardagi qo'zg'olonlarni bartaraf etish uchun Trayan o'zining sharqdagi qo'shinidan salmoqli qismini ajratib berishga majbur bo'ladi. Bu esa Parfiyaliklarning yangi qo'shinlari paydo bo'lgan ikki daryo oralig'idagi urush harakatlarini borishiga ta'sir ko'rsatmay qolmas edi. Parfiyaliklar va qo'zg'olonchilar bilan bo'lgan janglar Rimliklar qo'shinini tinkasini quritgan edi. Soni juda kamayib, ruhiy tushkunlikka tushib qolgan Rim qo'shinlari Front daryosining narigi tomoniga o'tib ketishga majbur bo'ladi.

Ammo Trayan mag'lubiyatni tan olgisi kelmaydi. U yana sharqqa yurish qilish niyatidan voz kecholmaydi. Lekin buning uchun imkoniyat qolmagan edi. U qaytadan kuch to'plash uchun 117- yili Rimga qaytayotib Kichik Osiyodagi Kliniyada kasalga chalinib vafot etadi.

Sharqdagi urush muvaffaqiyatsiz bo'lsada, Trayan Rimning xukumron doiralari nazarida mukammal xokim namunasi bo'lib qoladi. Unga eng yaxshi pretsens laqabi beriladi.

Imperiya xukumatning mudofaa siyosatiga o'tishi. Imperator Adrian boshqaruvi. Trayan xayotining so'ngi oylarida xotining qarindoshi bo'lgan Publiy Eliy Adrianni o'ziga yaqin tutib yurgan edi. Trayanning vafotidan so'ng Adrian unga o'g'il qilishgan va voris etib tayinlangan, deb e'lon qilinadi.

Yangi imperator Misrda Kirenamkada qo'zg'olonlar davom etgan, Yaxudiyya, Britaniya va Mavritaniyada g'alayonlar boshlangan, Dunay chegaralarida sarmetlar va roksolonlar xavf solib turgan sharoitda Parfiyaliklar bilan yarashishni avzal biladi. Adrian bosqinchilik yurishlarini to'xtatib har qanday janjalli masalalarni muzokoralar ishi bilan xal etishga harakat qiladi. U imperiya chegaralarini mustahkamlab qo'shni davlatlar bilan teng munosabatlarni o'rnatadi. Umuman butun boshqaruvi davomida o'zidan oldin o'tgan imperator olib borgan tajavvuzkor siyosat natijasida saltanat duch kelgan g'oyat tang ahvolni tugatishga uringan edi.

Viloyatlardagi g'alayonlarni bostirgandan so'ng Adrian davlat aparatini mustahkamlash ishiga e'tibor beradi. U Rim davlat muassasasi sifatida printseps kengashini rasmiy yo'lga qo'yadi.

Adrian davlatni boshqarish va sud ishlarini izga solish uchun idoralar sonini ko'paytiradi. Ularga boshliq qilib ozod etilgan qullar o'rniga zodagon suvoriylar qo'yiladi. Adrian viloyatlardagi aholidan o'lpon va soliqlar to'plash huquqini sotish tartibini bekor qiladi. Uning davrida ko'p o'lponlardan qarzdorlikni kechib yuborgan. Adrian xo'jayinlarning o'z qullarini o'zlari jazolashni ham bekor qilib, qulni faqat sud xukmi bilan jazolash tartibini o'rnatadi. Meriaz bilan imifiya viloyatlari o'rtasidagi aloqa ishlarini mustahkamlash uchun davlat pochasi tashkil qilinadi. Soliq to'lovchilar, yig'uvchilar, sudyalar va boshqa ma'muriyat

vakillarining xatti-harakatlarini nazorat qilib turish uchun Adrian viloyatlarga “Murabbiylar” (“kuratorlar”) tayinlaydi.

Viloyatlardagi aholi ahvolining yengillashuvi Falastindagi yahudiy aholisidan Isrusalim – Quddusi sharif diniy jamoasini tiklash uchun umid tug'dirgan edi. Lekin bu umidlar puchga chiqqandan so'ng Yahudiyada qo'zg'olon boshlanib ketib salkam uch yil (milodning 132-135 yillar) davom etadi. Qo'zg'olonga Ber–Koxba (“Yulduz farzandi”) laqabini olgan Simon degan kishi boshchilik qiladi.

Rimliklar juda katta qo'shin to'plab shiddatli janglardan keyingina qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ladilar. Juda ko'plab qo'zg'olonchilar va Yaxudiyaa aholisi qul qilib sotib yuboriladi. Ierusalim o'rnida rimliklarning Eliya Kamitolinya deb nomlangan kalonniyasi tuziladi.

Adrian imperiyasining ko'pgina viloyatlariga, xususan Afinaga, Misrga sayohat qiladi. Uning imperatorligi davrida Afinada yangi katta Zevs ibodatxonasi quriladi, Akropolning qadimgi binolari Fivada, Memnon kolosslari tiklanadi. Firakiyada esa Adrianopol' shahri barpo qilinadi.

Adrian milodning 138-yil vafot etadi. Uning jasadi katta maqbaraga dafn etiladi. Bu maqbara o'rta asrlarda Rim papasining qo'rg'oni va Rim papasiga aylantirilgan edi.

Rim saltanatining “Oltin davri” (Antonin Piy printsipati). Adrianning o'z farzandi bo'lmaganligi bois o'lim to'shagida yotgan chog'ida eng zodagon va g'oyat boy senatorlardan birini, galliyalik Tit Avreliy Antoninni o'ziga voris qilib qoldirishga qaror qiladi. Adrian vafot etgach, Tit Avreliy Antonin imperator etib saylanadi va unga Antonin Piy deb nom beriladi.

Rim tarixchilari keyinroq ularga ergashib Yevropa tarixchilari ham Antonin Piy davrini (milodning 138-161 yillari) “Oltin davr” deb ataganlar. Biroq hozirgi vaqtda obidalardan materiallarni o'rganish natijasida Rim imperiyasining II asri o'rtalaridagi ahvoliga berilgan bu tavsifni shartli ravishdagina qabul qilishga to'g'ri keladi.

Imperator Antonin Piyning xatto ko'klarga ko'tarib yozilgan tarjimai holidagi ham “u o'zining legatlar vositasi bilan juda ko'p urushlar qilgan” deb yozilgan. Uning davrida Rim qo'shinlari Britaniyada, Mavritaniyada istilochilik urushlari olib

boradilar. Rimliklar daklar qo'zg'olonini bostirib, chegaradagi alan va german qabilalarining hujumlarini qaytarib turadilar. Bu ishlarning barchasi katta harbiy kuch, moddiy resurslarni talab qilardi.

O'rta dengiz sharqiy qismi sohillaridagi viloyatlarni xonavayron qilgan tabiiy ofat ham katta qiyinchiliklar tug'dirib, kuchli zilzila Egey arxipelagi orollarini va kichik Osiyoni ham tebratib o'tgan. Rodos shahri va Kichik Osiyodagi shaharlar qattiq vayron bo'lgan. Bundan tashqari Rim, Narbon, Antioxiya, Karfagen shaharlari katta yong'inlardan qattiq zarar ko'rganlar.

Milodning 152-yili Misr, Falastin, Rimning boshqa viloyatlarida qo'zg'olonlar, Rimda esa oziq-ovqat yetishmovchiligi oqibatida g'alayonlar boshlanadi. Antoniy ijtimoiy himoya choralarini belgilab poytaxt aholisining eng kambag'al qismiga ko'plab bepul vino, un va yog' tarqattiradi. Xayr ehson fondi kengaytiriladi. Ijtimoiy keskinlik muhitini yumshatish maqsadida xo'jayinlarning o'z qullariga nisbatan mavjud huquqini cheklaydi, u qulni o'ldirishni erkin fuqaroni o'ldirish bilan baravar qo'yadi va xo'jayinning jabr-zulmidan qochib, ibodatxonalardan boshpana qidirib kelgan qullarni egalariga qaytarmaslik to'g'risida qaror chiqaradi.

161- yili Antonin Piy vafot etgach, taxtga uning o'gay o'g'illari Mark Avreliy va Lutsiy Vyerlar o'tirganlar. Lutsiy Ver vafotiga qadar (milodiy 169-yili) imperiyani ular rasman birgalashib idora qilishgan bo'lsa-da, aslida ularning kattasi Mark Avreliy saltanatga xukmdorlik qilgan edi. (169-180 yillar).

Imperiyada ichki va tashqi ziddiyatlarning kuchayib borishi. Mark Avreliy, Kommod boshqaruvi. Mark Avreliy imperiyani idora qila boshlashi bilan jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi va bu qiyinchiliklar uning printsipatini oxiriga qadar davom etib, shiddatli urushlar va iqtisodiy jihatdan zaiflashib borish davriga aylantiradi.

Antonin Piy o'limidan so'ng ko'p o'tmay imperiyaning chegarasida Parfiya bilan ikki o'rtada shiddatli urush chiqqan. Parfiya podshosi Vologaz Armanistonni ishg'ol qiladi. Bu yerlardagi janglarda rimlik legionlar mag'lubiyatga uchraydilar. Parfiya podshosi ko'p o'tmay Suriyani ham bosib oladi.

Biroq ko'p o'tmay rimliklar kuch to'plab, parfiyaliklarni Armanistondan surib chiqarishga muvoffaq bo'ladilar. Ular o'z hujumlarini davom ettirgani holda, Shimoliy Mesopotamiyani ishg'ol qilib, Ktesifon bilan Salavkiyagacha etib boradilar. Ikki daryo oralig'idagi xududda yuqumli kasallik tarqalib Rim qo'shinini bir qismi kasallikdan qirilib ketadi. Shundan keyin rimliklar sulh tuzib Italiyaga qaytib ketishga majbur bo'ladilar. Mesopotamiyada tarqalgan kasallik Italiyaga ham yoyilib ko'p odamlarning hayotiga zomin bo'lgan edi.

Buning ustiga 167-yildan boshlab Dunay ortidagi qabilalar Rim istehkomlariga tez-tez hujumlar qilib turishlari katta muammolar tug'dirgan.

Milodning 172-yili shimoliy Misrda mahalliy aholining qo'zg'oloni boshlanadi. Suriya noibi Avidiy Kassiy kuchli armiyasi bilan urush maydoniga etib kelgandan so'nggina qo'zg'olon bostiriladi. Lekin shundan keyinoq Avidiy Kassiyning o'zi oliy hokimiyatni qo'lga olmoqchi bo'lib o'zini imperator deb e'lon qiladi. Mark Avreliy fitnachi lashkarboshiga qarshi qo'shin tortib borishga majbur bo'ladi. Biroq uning qo'shinlari fitnachilar qo'shini bilan to'qnashishidan oldin Avidiy Kassiy o'ldiriladi va shu tariqa imperiya birligi yana tiklanadi.

Milodning 180-yili Rim qo'shinlari ichida yana yuqumli kasallik avj oladi. Kasallik juda ko'p odamlarning shu jumladan imperatorni ham o'lim girdobiga tortgan edi. U chegaradagi Vindobon (hozirgi Vena) qo'rg'onida vafot etadi.

Milodning II-asrida o'tgan imperatorlar senatdagi quldor zodogonlar bilan mustahkam aloqada bo'lib, ular bilan kelishib ish yuritishga harakat qilganlar. Ularning ko'pi o'z zamonasining ilimli kishilari edi. Adrian yunon ilm-fani va san'atining muxlisi bo'lib, o'zi ham xaykaltaroshlik bilan shug'ullangan. Mark Avreliyning "Yolg'izlikdagi o'ylar" nomli kitobi tamomila stoitsizmga xos falsafiy asar hisoblanadi.

Lekin antik ziyolilarning bu bilimdon namoyondasi qullar va qashshoq bo'lib qolgan erkin kishilarning huquqsiz ahvolini jiddiy o'zgartirish uchun deyarli hech bir ish qilolmagan edi.

Mark Avreliy vafotidan so'ng imperiya taxtiga uning o'g'li Kommod chiqadi. U milodning 180-192 yillari Rim saltanatini idora qiladi. Kommod otasining tamomila

aksi bo'lib, qo'pol, shavqatsiz odam edi. U sirk tomoshalarining muhlisi bo'lgani holda, yengilmas jangchi-gladiatorlikni orzu qilgan. U Gerkulesni ideal bilib, unga ergashib xaloyiq oldiga faqat arslon terisiga burkanib chiqar ekan.

Kommod otasi o'lgan vaqtda 19 yoshda bo'lib, kvadlar va markomanlar bilan urush olib borayotgan edi. U nima bo'lsa ham urushni to'xtatib Rimga qaytishni orzu qilardi. Urush yana bir necha oy davom etadi va nihoyat Kommod shoshilib markoman va kvadlar bilan sulh bitimini tuzadi, tinchlikni saqlash evaziga ularning oqsoqollariga katta pul to'lab turishni o'z zimmasiga oladi. Poytaxtga qaytib kelgach, Kommod butunlay o'yin-tomoshaga berilib ketadi. Zamondoshlar uning qiyofasida Yuliy-Klevdiylar xonadonining yomon xotira qoldirgan vakillari: Kaligula va Neronni ko'ra boshlagan edilar.

183 yildayoq imperatorga qarshi uning xotini Kristina va onasi ishtirok etgan fitna fosh qilinadi. Fitnaga javoban zadogonlarni ommaviy qatl qilishlar boshlanib ketadi. Oliy tabaqa qo'llab quvatlashidan maxrum bo'lgan Kommod umumiy norozilikni yumshatish uchun jangchi pretoriylarning maoshini oshiradi, dabdabali o'yinlar qilib beradi. Rimdagi xaloyiqqa juda ko'p sovg'alarva bepul oziq-ovqatlar tarqatadi. Bu ishlarga sarf bo'ladigan mablag'larni imperator zodagonlarning mol mulkini musodara qilib topishga harakat qiladi. Biroq xokimiyatning inqirozi borgan sari ko'zga yaqqolroq ko'rina boshlagan edi. Rimda oziq-ovqat yetishmovchiligi boshlanadi. Saltanatning turli qismlarida aholining quyi tabaqalari g'alayonlari vujudga kela boshlaydi.

Umumiy norozilik navbatdagi yangi fitna uyushtirishiga sabab bo'ladi. Fitnaga pretoriya prefekti Emiliy Leta bosh bo'lib unda imperatorning yaqin kishilari ham qatnashadi. Kommod 193-yil 1-yanvarda konsullik lavozimiga gladiator libosida kirishishni niyat qiladi. Biroq bu tan-tanali voqea arafasida 192 yil 31 dekabr kuni kechasi u gladiatorlar kazarmasida o'ldiriladi.

Kommodning halokati bilan Antoninlar sulolasi tugaydi. Rim O'rta dengiz imperiyasining nisbatan tinch tarixiy taraqqiyoti davri o'tib ketgan, endilikda u iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlarning keskinlashish davri eramizning III asriy inqiroz davriga kirgan edi.

Quldorlik iqtisodiyotining inqirozi. Milodning II asri oxirlaridan boshlab, Rim iqtisodiyoti katta qiyinchiliklarga duch keladi. Barcha qaram aholi qatlamlarini ekspluatatsiya qilishning kuchayishi, zodogon va amaldorlarning suiste'mollari bevosita ishlab chiqaruvchilarning o'z mehnatlari natijasidan manfaatdorlikni yo'qqa chiqarar edi. Juda keng tarqalgan yuqumli kasalliklar qullar va aholining oddiy tabaqalariga juda katta qirg'inlar keltirardi.

Erkin dehqonlarning xonavayron bo'lishi, qullar va kolonlarning soni kamayishi natijasida ish kuchining tanqisligi kuchaygan. Ekilmay tashlab qo'yilgan yerlar juda ko'paygan. Mayda yakka xo'jaliklarning qimmatbaho qurollarni, chunonchi og'ir pluglarni, preslar va o'rish mashinalarini ishlatishga qurbi yetmasdi. Jamoa o'rmonzorlari va o'tloqlarning qo'ldan ketganligi ham mayda xo'jaliklarni yurg'izish negiziga putur etkazdi.

O'z ustaxonalarini shahar hunarmandlari tashlab katta amloklarga ish qidirib keta boshlaydilar. Marmar va ruda qazib chiqarish kamayadi. O'rta dengiz mamlakatlarining Sharq, Markaziy va Sharqiy Yevropa bilan odatdagi savdo aloqalari saqlansada, savdo umuman pastlashib ketadi. Rim iqtisodiyotida natural unsurlar kuchaya boshlaydi. Melodiy butun III asr mobaynida pul muomalosida asl metall kamchiligi hukm suradi. Pulning qiymati tushgan sari narh-navo ortib boradi.

Rim iqtisodiyotida ro'y bergan o'zgarishlar chuqur ijtimoiy inqiroz bilan bog'liq bo'lib, kuldorlik tartibining buzilishi esa o'sha inqirozning ifodasidir. Unumdor mehnatda band bo'lgan qullar soni kamayib ketgan ularning ba'zilari qo'yib yuborilgan, boshqalari yerga birkutilib, kolonlarga aylantirilgan edi. Shu narsa xarakterliki, milodning II asri oxirlaridan boshlab urushda mag'lub bo'lgan aholi qullarga aylantirilmay, balki davlat yerlarida ishlaydigan kolonlarga aylantirilgan.

Kolonlar va kulbali qullar. Qullar mehnatining samarasizligini ko'rgan ko'pgina yer egalari o'z xo'jaliklaridagi yerlarni kichik-kichik qismlarga bo'lib, yersiz erkin qambag'allarga beradilar. Kichik-kichik yerlarni ijaraga olgan kishilar Rimda kolonlar deb atalganlar.

Qoloq yerdan chiqqan hosilning muayyan bir qismini yer egasiga berib, qolganini o'zi tasarruf etishi mumkin edi. O'z mehnatidan manfaatdor bo'lgan kolon

qulga qaraganda bir necha bor yaxshiroq va umumliroq ishlardi. Binobarin u erkin mehnat qilganidan uni nazorat qilib turish shart emasdi. Ayni paytda kolonlar chorva mollar yer va mehnat quollariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lardilar.

Ko'p hollarda yer egasi kolonlarni urug'lik, ish hayvoni va mehnat quollari bilan ta'minlar edi. Agar kolon yer egasidan qarzdor bo'lib qolsa, u xo'jayin yeridan boshqa yoqqa ketib qola olmasdi. Yer egalari bundan foydalanib, ijara haqini oshirar edilar.

Italiyada Yunonistonga nisbatan unumdor yerlar va sersuv daryolar ko'p bo'lib, astoydil mehnat qilgan dehqonlar yerdan mo'l-ko'l hosil olishlari mumkin edi. Italiyada sero't yaylovlar keng maydonlarni egallab yotgan. Shu bois Italiyada chorvachilik ham ancha rivojlangan. Yirik yer egalari va badavlat chorvadorlarning ko'plari qullar mehnatining unumsizligini ko'rib, qullariga mustaqil xo'jalik yuritishga ruxsat berganlar. Ular o'z qullariga yer, chorva, mehnat quollari va boshqa anjomlar berib, mustaqil ish yuritishga imkoniyat yaratganlar. Bunday sharoitda qullar oilali bo'lib ancha erkin yashaganlar. Bunday qullarni kulbali yoki uy joyli qullar deb atalgan. Ular bola chaqalari bilan astoydil mehnat qilib, yerdan mo'l hosil ko'tarar edilar. Yer egasi xo'jayinga hosilning bir qismi berilsa, qolgan qismi qulning o'z ixtiyorida qolardi.

Ayni vaqtda bu qullar boshqa yoqlarga qochib ketmas, mehnat quollari va ish hayvonlariga zarar etkazish u yoqda tursin, ularni asrab avarlar yaxshi parvarish qilardilar.

Kulbali qullarning ahvoli oddiy qullarning ahvoliga nisbatan ancha yaxshi bo'lsada, biroq qullarning taqdiri avvalgidek, o'z xo'jayinlari qo'lida edi.

Shaharlarda yashovchi quldorlarning bir qismi o'z qullariga ustaxonalar ochib, xunarmandchilik bilan shug'ullanishiga ruxsat berganlar. Ba'zi qullar kichik do'konchalar ochib tijorat ishlari bilan shug'ullanganlar. O'z mehnatlari evaziga anchagina mablag' to'plab olgan qullar pul, va mol-mulk evaziga o'z ozodliklarini sotib olib, erkin kishilarga aylanardilar.

Milodning III asri birinchi yarmida Rim imperatorlarining ichki siyosati. Rim jamiyatidagi xukmron tabaqalarining ijtimoiy qarama-qarshiliklari askar va senator

imperatorlari deb atalganlarning kurashida o'z aksini topadi. Askar imperatorlari armiyadagi keng munitsipiya doiralarning manfaatini ifodalagan bo'lsa, senat imperatorlari yirik yer egalari bo'lmish zodagonlar manfaatlarini aks ettirar edi.

Milodning II asri oxirlarida Rim imperiyasi taxtini Severlar sulolasi egallaydi (milodning 193-235 yillari). Sulolaning asoschisi Septimiy Sever 193-211 yillarda xokimiyat tepasida turadi. U o'z qo'shinini Fransiya, Reyn va Dunay bo'yi qabilalaridan olingan jangchilar hisobidan qo'paytiradi. Bu viloyatlardagi aslzodalar Rim armiyasi va xokimiyat idoralarida yuqori lavozimlarni egallaydilar. Ular Rim fuqorosi huqqini ham oladilar, qo'shinga tayanib imperator xokimiyatini mustahkamlaydilar. Septimiy va uning o'g'illari davrida senat va senatorlarning obro'-e'tibori tushib ketadi. Mamlakatda ichki ziddiyat nixoyat darajada kuchayadi. Shu qadar bir-biriga zid ijtimoiy kuchlarning barchasiga yoqishga urunish milodning III asrida imperatorlarni ko'pincha halokatli oqibatlariga olib kelgan, ular legioner jangchilar tomonidan o'ldirilgan. Sulolaning so'nggi vakili Aleksandr (222-235 yillar) saltanatning ichki ahvolini yaxshilash uchun bir qator tadbirlar ko'rgan. U shaharlarga alohida xomiylik qiladi. Soliqlardan tushgan daromadning bir qismini shahar qurulishi va shahar kambag'allariga nafaqa uchun ajratadi. Moliyaviy ishlarni tuzatish uchun xatto o'zining shaxsiy xarajatlarini ham kamaytiradi.

Aleksandr Sever toifalar tafavutini tiklaydi va katta yer egalari bo'lmish zodagonlarga nisbatan dushmanlik siyosatidan voz kechish bilangina cheklanmay, balki imperator ixtiyoridagi yerlarning ko'p qismini ular ixtiyoriga bergan. U armiyani yordamchi qismlar va mahaliy militsiya otryadlari bilan to'ldirib va jangchilarga chegara viloyatlardan yer bo'lib bera boshlaydi. Biroq Aleksandrning bu yangi tadbirlari muntazam qo'shinlardagi legionyerlarning kuchli noroziligiga sabab bo'ladi, chunki ular iste'foga ketganlarida yer ololmay qolishlaridan xavotirga tushadilar. Aleksandr Sever bir rivoyatga ko'ra veteranlar tomonidan o'ldirilgan deyilsa, boshqa rivoyatga ko'ra lashkar boshi Maksiminning yangi olingan askari tomonidan o'ldirilgan.

Rim saltanatida siyosiy inqirozning keskinlashuvi. Aleksandr Sever o'ldirilgandan so'ng harbiylar frakiyalik Maksiminni imperator deb e'lon qiladilar. Bu askar imperatorlari deb atalgan imperatorlardan birinchisi edi.

Senat hamda viloyatlardagi yerdor va minitsiya zodagonlari Maksiminning siyosatiga tashkiliy qarshilik ko'rsatishadi. Foqarolar urushi boshlanib imperator halok bo'lib uning bqo'shinini tor-mor qilganlar. Shimoldan frank, dunay qabilalarining tazyiqi Rimga keltirilganida senat minnatdorchilik ibodatini o'tkazadi. Biroq senat tayinlagan imperator siyosati ham munitsipiya doiralarida kuchli norozilik uyg'otadi.

Xukmron doiralarning bir-biri bilan kurashayotgan guruhleri o'rtasidagi ziddiyatlarning kuchayib borishiga milodning III asri 30-yillari o'rtalaridan boshlangan siyosiy inqiroz sabab bo'lgan edi. Senat, viloyatlar, va legionlar birining qo'lidan biri hokimiyatni tortib olib, imperatorlarni almashtiraverishgan. 235 -yildan 284- yilgacha Rim taxtiga 19 imperator va 30 dan ortiq uzurpator kelib ketadi.

Rimdan siyosiy tushkunlik Rim qo'shinlarining ham kuchsizlanishiga olib keladi.

Imperiya chekkasidagi qo'shni davlatlar ham Rimni mensimay qo'yadilar. Sharqda fors qo'shinlari Mesopotamiya, Suriya va Kichik Osiyodagi shahar va qishloqlarni talon-taroj qiladilar. Milodning III asr o'rtalarida Armaniston Rim ta'siridan chiqib ketadi. Tez orada Antioxiya ham qo'ldan ketgan. Bir necha janglardan so'ng Eron qo'shinlari rimliklarni kuchayadi. Sormatlar, alanlar, ilk slavyan qabilalari Qora dengiz sohillariga, Bolqon va Kichik Osiyo viloyatlariga hujum qilib bu yerlarni xarob qiladilar. Shimoliy Afrikada varvar qabilalari Mavritaniya va Numidiyaning bir qismini bosib olishadi. Bu voqealar o'sha davr kishilariga falokat bo'lib tuyulgan.

G'oyat qobiliyatli va bilimdon kishi bo'lmish imperator Gallienning (milodning 253-268 yillari). Rim davlatini inqirozdan qutqarish yo'lidagi urinishlari natija bermaydi. III asr o'rtalarida Rim imperiyasida ajralishi yuz bera boshlaydi. G'arbda Ispaniya, Galliya va Britaniyani o'z ichiga olgan Galliya saltanati tashkil topadi. III

asrning ikkinchi yarmiga kelib Sharqda Misr va Pammira davlatlari ajralib chiqadilar. Shu tariqa bir vaqtlar qudratli bo'lgan Rim imperiyasi parchalanib keta boshlaydi.

Imperiya markazidagi tushkunlik, qullar va xalq ommasining ezilishi joylarda katta-katta ommaviy harakatlarning boshlanishiga sabab bo'ladi. III asr o'rtalarida imperiyaning ko'p joylarida qo'zg'olonlar kuchayib ketadi. Mavritaniya va Numidiyadagi qo'zg'olonlar ayniqsa daxshatli tus oladi. Galliyadagi bagauzlar o'z sardorlari Amand va Elian rahbarligida rimliklarga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Ular otliq va piyoda qo'shinlar tuzib, mustahkamlangan shaharlarni ishg'ol qilganlar, zodogonlarning uylariga o't qo'yib, ularni o'ldirganlar va mol-mulklarini talon-taroj qilganlar.

Rimning o'zida ham dehqonlar, hunarmandlar, kolonlar va qullarning qo'zg'olonlari bo'lib o'tgan. Shiddatli janglar natijasida bu qo'zg'olonlar Rim legionlari tomonidan bostirilgan.

Imperiyani qayta tiklash uchun kurash. Saltanatdagi og'ir vaziyat, markaziy xokimiyat zaiflashib, siyosiy inqiroz davom etayotgan bir sharoitda bosib kelayotgan kuchli xalq harakati to'liqini oldida ojizlik qilayotgan Rim jamiyati xukmron tabaqalari noiloj imperator xokimiyati bilan murosqa qilishga majbur bo'ladilar. O'z navbatida milodning III asr oxirlarida imperiyani idora qilgan "askarlar" imperatorlaridan Avrelian (milodning 270-275 yillari) va Prob (milodning 276-282 yillari) yer aristokratiyasining moddiy manfaatlari bilan xisoblasha boshlaydilar va mahaliy qabilalardan askar to'plab ularni chegaradagi yerlarga joylashtiradilar. Murosaga kelish natijasida ko'p qiyinchiliklar bilan bo'lsada, viloyatlardagi separatizmni sindirishga, xalq harakatini bostirishga va imperiya birligini tiklashga muvaffaq bo'linadi. Avrelian gotlarni Dunay bo'yi viloyatlaridan xaydab yuboradi va Italiyaga bostirib kirishga urinayotgan alemanlarning hujumlari ham muvaffaqiyatli qaytariladi.

Avrelian Rimni dushmanlardan ximoya qilish maqsadida shaharni g'oyat katta qal'a devorlari bilan o'rattiradi. Bu devor hozirgacha qisman saqlangan.

273-yili Avrelian qo'shinlari sharqiy separatistik davlatining markazi Palmirani ishg'ol etib, bu boy shaharni vayron qiladilar. Separatistik Galliya davlatining

xukmdori Tetrik bagaudlarning kengayib ketgan harakatidan cho'chib, "osoyishtalikni tiklovchi" (restitutor orbis) degan iftixorli unvon olgan. Avrelianga o'z xohishi bilan itoat etadi.

Avrelian imperiya birligini saqlash maqsadida "Engilmas quyosh" degan yangi umumdavlat dinini joriy qilib, hammaning shu xudoga sig'inishini talab qiladi. Mazkur din marosimlarida qatnashishdan bosh tortgan kishilar fitnachi hisoblanib, o'zgacha fikrlovchilar, shu jumladan xristianlar ham ta'qib va jazoga duchor etiladilar. Shu tufayli Avrelian o'ziga ko'p dushman orttiradi va 275-yili fitnachilar tomonidan o'ldiriladi. Avrelian siyosatini Prob (276-282) davom ettiradi. U Rim imperiyasi chegara sarhadlarini muvaffaqiyatli ravishda himoya qilishni tashkil qiladi. Biroq u qo'shin orasidagi tartibsizlikni yenga olmaydi, nihoyat armiya saflarida intizom o'rnatishga urinayotganida harbiylar tomonidan o'ldiriladi.

Diokletian va uning islohotlari. Rim imperiyasi ichida va tashqarisida Prob halokatidan so'ng o'zaro kurashlar va isyonlar yana avj olib ketadi. Germanlar va boshqa varvarlarning to'dalari mamlakat xududiga yopirilib kelib hujum boshlaydilar (xaritaga qarang). Italiya va viloyatlardagi qo'shinlar, quldorlarning asosiy qismi imperiyani saqlab qolishdan juda ham manfaatdor edilar.

284-yilda jangchilar imperator gvardiyasining qo'mondoni Diokletianni imperatorlik taxtiga o'tqizdilar. U asli aslzodalardan bo'lmay ozod qilingan qulning o'g'li edi. Dastlab oddiy askar sifatida xizmat qilgan. Xizmati yuzasidan o'zini ko'rsatib, imperator soqchilarining boshlig'i qilib tayinlangan. U g'oyat katta Rim imperiyasini yakka o'zi idora qila olmasligini tushunib, o'ziga xokimdoshlari tayinlaydi. Ulardan biri Maksimian Galliyadagi bagaudlar harakatini va Afrikadagi mavritan qabilalarining qo'zg'olonini bostiradi. Diokletian va uning xokimdoshlari har biri muayyan xududda imperatorlik xokimiyatiga ega bo'lganlar, u yerda ularning har qaysisining o'z qarorgohlari bo'lgan.

Diokletian dabdabali marosimlar rasm qilib, imperator xokimiyatining obro'sini mustahkamlashga harakat qilgan. Imperator bilan salomlashishning alohida tartibi uning alvon libosi etagini o'pib, dominus (uy egasi, xo'jayini) deb murojaat qilish tartibi joriy etilgan. Diokletian o'rnatgan boshqaruvning butun tizimi tarixda

“dominat” deb nom olgan. U juda aqlli va ajoyib iste'dod egasi edi. Diokletian davlatni o'zi tayinlagan amaldorlar orqali boshqarib, saltanatda saqlanib kelayotgan respublikaga xos amaldorlik lavozimlarini tugatadi.

Dominatning siyosiy negizini mustabid xokimiyat (monarxiya) va rivojlangan byurokratik idora apparati tashkil qilardi. Imperatorning aytgani hamma uchun qonun hisoblanar, “Sinchkovlar” deb atalgan ko'plab josuslar Italiyada va imperiya viloyatlarida norozi odamlarga ko'z-quloq bo'lib yurardilar. Diokletian o'zini Yupiterning o'g'li deb e'lon qilgan. Ibodatxonalarda uning xaykallari o'rnatilgan. U qo'shinni ko'paytirish va isyonchilarga qarshi kurashish maqsadida varvar qabillaridan yollanma qo'shin tuzgan. Katta armiyani boqish uchun aholidan olinadigan soliqlar oshirilgan. Imperator isyonchi jangchilarni, shafqatsizlik bilan jazolab, qo'shin ichida intizomni birmuncha mustahkamlagan.

Diokletian davrida senat o'z ahamiyatini yo'qotadi, ammo senatorlar aholining eng nufuzli toifasi bo'lib qolaveradilar. U shahar hayotini tiklash va jonlantirish ishiga ham alohida e'tibor beradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining narxi oshib ketishi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan g'alayonlarni oldini olish maqsadida ijtimoiy ximoya choralari ishlab chiqiladi. 301-yili iste'mol buyumlarining eng yuqori baholari va har xil mehnatga to'lanadigan haqlar to'g'risida edikt chiqarilgan edi.

Imperiyani ichki birligini mustahkamlash maqsadida Diokletian bir necha islohatlar o'tkazadi. U saltanatni 12 diotsezga (o'lka) va diotsezlar esa 114 ta viloyatga bo'lingan.

Soliq siyosati ham tartibga keltiriladi. Jon boshi solig'i bilan birga yangi yer solig'i joriy qilinadi, bu soliqning xajmini belgilashda yer, ishchi kuchi va uy xayvonlarining soni xisobga olinar edi.

Diokletianning moliya sohasidagi isloxati narh-navoning oshishini to'xtata olmaydi. Chunki muomalaga chiqarilgan, to'la qimmatga ega bo'lgan pullar muomaladan chiqib ketgan edi.

Aholining ma'naviy birligini mustahkamlash maqsadida Diokletian monixeychilik va xristianlikni ta'qiqlab qo'yadi (303-yil), lekin uning xristianlikni ta'qiqlash yo'lidagi barcha harakatlari bexuda ketadi.

Diokletianning siyosati garchi Rim saltanatining siyosiy tashkilotini mustahkamlashga yordam bersa-da, ijtimoiy-siyosiy inqiroz bilan bog'liq ziddiyatlarni xal qila olmaydi. Xukumatga nisbatan muxolifatning (ayniqsa sharqiy viloyatlarda) kuchayib borganligidan Diokletning 305-yili hokimyatdan voz kechishga majbur bo'ladi.

Tayanch iboralar: Damitsion, senator, M.Koktsey Nerva, imperator, legion, legat, Mark Ul'niy Trayan, Dunay, daklar, Dakiya, Datsebal, Parfiya, Senay yarim oroli, Misr, Suriya, Adriyan, Trayan, Publiy Eliy, Misr, Kirenamka, Yaxudiyya, Britaniya, Mavritaniya, Simon, Zevs, Fiva, Tit Avreliy

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Trayanning tashqi siyosati qanday maqsadlarni ko'zlar edi?
2. Adrian davrida mudofaa siyosatiga o'tilishining omillari nimalardan iborat?
3. Antonin Piy davri "Oltin davr" deb atalishini nima uchun shartli ravishda qabul qilish mumkin?
4. Qanday siyosat imperator Kommodni halokatga yetaklagan edi?
5. Rim imperiyasida milodning II asri oxiridan boshlangan iqtisodiy tushkunlikning siyosiy, ijtimoiy sabablari nimada?
6. Aleksandr Sever toifalar sohasida qanday siyosat olib boradi?
7. Rim xukumdori Diokletianning dominan tartibining majburiyatini tushuntirib bering.

Glossariy

Diotsez - o'lka, xudud shunday atalgan.

Bagaud – Galliyada qo'zg'olon ko'targan dehqonlar, kalonlar va qullar harakati

Edikt – imperator farmonlari.

Kuriyallar – shahar aholisi.

Noumaxiya – dengiz urushi mashqi.

Plebs – (lot) qadimgi Rimda dastlab urug' jamoasiga kirmagan, jamoa yeridan foydalanishga xaqqi bo'lmagan ozod aholi.

Kogorta – kamida 450 nafardan kam bo'lmagan qo'shin.

Komitsiya – xalq majlisi.

Ulug' pontifik – oliy kohin.

Sekulyar – yuz yillik o'yinlar.

Legatlar – imperator noiblari (viloyatlarda)

21-§. Qadimgi Rim hududida german qabilalari bosqini

Konstantinning imperatorlik taxtiga chiqishi (milodning IV –V asrlar).

Diokletian xokimiyatdan voz kechgandan so'ng imperator taxtini egallash uchun yana qonli kurashlar boshlanib ketadi. Bu kurashlardan sezorlardan birining o'g'li Konstantin (306-337) g'olib chiqadi. U o'zining faoliyatida sharqiy viloyatlardagi asilzodalar va harbiylarga tayanib ish ko'radi. Kanstantin xokimyatni bosib olish va qo'lda saqlab qolish uchun xech narsadan qaytmagan, ichgan qasamini ham buzgan, o'ziga ittifoqchi bo'lganlarni kerak bo'lsa xiyonatkorona o'ldirgan. Hatto u "o'g'lim mening taxtimni egallab olmoqchi" deb uni ham o'ldirishni buyurgan.

Konstantin qullarga va kolonlarga nisbitan o'ta shafqatsiz bo'lib, u katta yer egalari ishchi kuchi bilan ta'minlash uchun u qullar va kolonlarning ular yeridan qochib ketishlarini taqiqlab qo'yadi, qochib ketgan kolon ushlab olinsa, kishanga solinib xo'jayin ixtiyoriga topshirish tartibini o'rnatadi. Bunda o'z xo'jayinidan qochib ketgan qul tutib olinsa, u qamchi, darra bilan o'las qilib kaltaklanar va kishanga solinar edi. Imperator ustaxona, korxonalar va konlarda ishlovchi ishchi – xizmatchilar tanasiga qullar kabi tamg'a bosishni buyuradi.

Konstantin davrida xalqqa solinadigan soliqlar miqdori oshiriladi. Soliq to'lashdan bosh tortgan yoki uni to'lashga qurbi yotmagan kishilar kaltaklanar, fuqarolarning u shahardan bu shaharga ko'chishi taqiqlangan edi.

Xristian dinini xukumron dinga aylanishi. Imperator Konstantin faqat qattiq qo'llik, zulm bilan xalqni itoatda ushlab turish mumkin ekanligini tushunardi. U din sohasida islohat o'tkazib imperiya xududida xristian dinning tarqalishi uchun imkoniyat yaratadi hamda ommani itoatda tutib turish uchun bu dinning yordam berishini yaxshi anglagan edi.

Xristian dini va cherkovi kambag'allar va qullarga katta ruhiy ta'sir ko'rsatgan va ularga "Iso xochga tortilib mixlab tashlanganda azob – uqubatlarga sabr-toqat qilgan va sizga ham sabr-toqat qilishni buyurgan. Buning evaziga siz nargi dunyoda

jannatda roxat ko'rasiz. Imperator xokimyatini xudoning o'zi o'rnatgan. Qullar, o'z xo'jayinlaringizga har jihatdan itoat qilingiz", - deb ta'lim berar edi.

Konstantin 313-yili xristianlarning oshkora tarzda to'planishlariga va ibodatxona qurishlariga ijozat beradi. Shu vaqtdan boshlab imperator va boshqa quldorlar xristian cherkoviga sahiylik bilan yer, pul va qimmatbaxo narsalar in'om eta boradilar. Saltanat shahar va qishloqlarida ko'plab ibodatxonalar qurilib, xristian dining muxlislari tobora orta boradi. Ibodatxonalar tasarrufida juda ko'p boyliklar to'planadi. Imperator Kanstantin xristian dinining xomiysiga aylanadi, cherkov esa uni avliyo deb e'lon qiladi.

Saltanat poytaxtining ko'chirilishi. Imperator Kanstantin Bosfor bo'g'ozi sohilida Vizantiyadagi yunonlar koloniyasi o'rnida yangi poytaxt tasis qiladi. Imperator bu shaharni o'z nomi bilan Konstantin shahri – Konstantinapol deb atagan. Bu poytaxt sharqdagi savdo-sotiq bilan bog'liq zamindor zodagonlarning siyosiy va iqtisodiy markazi bo'lib qolgan. Shahar o'n yil davomida quriladi, 330 yili imperiya poytaxti Rimdan Konstantinapolga ko'chiriladi. Bu yerda g'oyat katta inshootlar: imperator saroyi, ko'shklar, kutubxona va katta otchopar (ippodrom) maydoni barpo qilinadi. Konstantinapolni bino qilishdan siyosiy maqsadlar ham ko'zda tutilgan: birinchidan, yangi poytaxt Bosforda strategik jixatdan tayanch punkti bo'lgan, ikkinchidan, uning bino bo'lishi bilan imperiyaning ma'muriy sohadagi islohoti tugallangan, natijada Italiya bilan Rim boshqarish tuzumidagi imtiyozli mavqeni yo'qotgan. Sharq bo'lsa, o'zining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va diniy xususiyatlariga ko'ra saltanatning G'arbi bilan teng mavqega ega bo'lgan.

Xristianlarning san'at yodgorliklarining vayron qilishi va fanni ta'qib etishlari. Saltanat xukumdorlarining qo'llab-quvatlashi natijasida xristianlik keng yoyilib kuchga kirib boradi. Shundan boshlab mutaassib xristianlar ibodatxonalarni vayron qilib, undagi qadimgi xudolarning xaykallarini sindirib tashlaydilar. Buzilmay qolgan ibodatxonalarga esa xristian cherkovlari joylashtiriladi. Ana shunday vayronkorlik muhitida juda ko'plab san'at obidalari, ilm fan, madaniyat durdonalari yo'q qilib tashlanadi. Milodning IV asr oxirlariga kelib esa Zevsga bag'ishlangan Olimpiya o'yinlarini o'tkazish ta'qiqlab qo'yiladi.

Xristianlar ilm-fanga qarshi kurash boshlaganlar. Ular Iskandariyadagi mashhur kutubxonaning ko'plab qo'lyozma asarlarini yondirib, boshqa shaharlardagi kitoblarni ham yo'q qilib yuborganlar. O'sha davrning ko'plab mashhur olimlari sazoyi qilingan, ularning ba'zlari o'ldirilgan yoki o'z vatanlaridan badarg'a qilinganlar. Iskandariya ko'chalarida mutaassib xristianlar olomoni o'sha davrning mashxur olimasi Ipatiyani chavaqlab tanasini burda-burda qilib tashlaganlar. U ilm-fan yo'lida qurbon bo'lgan mutaassib xristianlar qo'lida vahshiyona o'ldirilgan dastlabki ayollardan biri edi.

IV asrda ommaviy harakatlarning avj olishi. Rim imperiyasining milodiy IV asr tarixi ommaviy harakatlarning o'tgan asrlardagiga nisbatan ko'lamining kengligi va daxshatliligi bilan tavsiflanadi. Rim aslzodalar va harbiy qo'mondonlardan jabru-jafo chekkan kambag'al dehqonlar, kolonlar va qullar junbushga kelib bosh ko'targanlar. Bunday harakatlar faqatgina Rimda yoki Italiyada emas, balki chekka o'lkalarda ham yuz bergan. Milodiy IV asrning 30-40 yillarida Numidiyada, 70-yillarda esa Shimoliy Afrikadagi Mavritaniyada, g'oyat katta qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'olonlar Rim legionlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostiriladi. Ayni vaqtda Galliyada bog'uzlar harakati dahshatli ko'lam kasb etib, surunkali tus oladi. Bu harakat III asrda boshlanib, V asrgacha qariyb 200 yil davom etadi. Bu harakat Ispaniyaga ham yoyilgan. Bu harakat Rimning yollanma qo'shinlari yordamida tobora katta qiyinchiliklar bilan bostiriladi.

Milodning IV asr ikkinchi yarmidagi Rim saltanatidagi ijtimoiy-ivtisodiy, siyosiy inqirozli jarayonlar Rim, Konstantinopol, Antioxiya, Iskandariya va saltanatning boshqa shaharlarida tez-tez bo'lib turgan g'alayon va qo'zg'olonlarda ifodalandi. IV asrning 60-70 yillarida Rim saltanatining sharqiy viloyatlari – Kichik Osiyo, Bolqon yarim oroli va Konstantinopol shahrida ham ommaviy harakatlar keng avj olib ketadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, harakatlarning bir qismi Rim imperiyasiga qarshi milliy ozodlik urushlari bo'lib, bunday harakatlarda mahalliy yuqori tabaqa vakillari ham faol qatnashganlar. Bu ommaviy harakatlar Rim imperiyasining inqirozidan darak berar edi.

Imperiyada ahvolning og'irlashuvi. Rim saltanatida IV asr o'rtalaridan boshlab ahvol tobora yomonlashish asnosida oliy xokimyat uchun kurash kuchayib, poraxo'rlik, davlat mulkini talon-taroj qilish avjiga chiqadi. Rim armiyasida intizomning bo'shashib ketishi tashqaridan bo'ladigan hujumlardan saltanatni himoya qilish ishiga katta zarar etkazadi. Bu davrga kelib eronliklar imperiyasining sharqiy xududlariga bostirib kirib shahar va qishloqlarni talab, xonavayron qilib keta boshlaydilar. Shimoliy Afrikadagi mavrlar, G'arbiy Yevropaning Reyn ortidagi frank va boshqa qabilalar ham imperiyalar hujumlar boshlaganlar. Italiyaning o'zida ham shu vaqtda aholining quyi qatlamlarining noroziligi tobora kuchayib borib, imperiya har tomondan tobora siqib kelayotgan dushmanlar halqasi girdobiga tushib qolayotgan edi.

Saltanatning shimol va shimoli-sharqidagi varvar qabilalari ittifoq bo'lib chegara istehkomlariga tez-tez hujumlar uyushtira bordilar. Imperatorlar esa varvarlarning tajavuzlaridan xalos bo'lish maqsadida ularga ko'p miqdorda oltin va qimmatbaxo buyumlar berishar yoki katta pul evaziga boshqa jangovor qabilalar jangchilarini yollab o'z chegara xududlarini mudofaa qilishga majbur bo'lar edilar. Tobora ortib borayotgan bu mablag'larni imperiya mehnat ahli zimmasiga yuklashlari, imperiyadagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni og'irlashtirib berayotgan edi.

Gotlarning Rim saltanatiga bostirib kirishlari. Milodiy IV asr ikkinchi yarmida ichki Oliy va Kaspiy bo'yi dashtlarida ko'chib yurgan xunn qabilalari Volga daryosini kechib o'tib Eropaga bostirib kiradilar. Xunnlarning bu xududga bostirib kirmaslaridan 100 yilcha muqaddam gotlar nomi bilan mashxur bo'lgan german qabilalari Skandinaviyadan Qora dengizning shimolidagi yerlarga kelib joylashagan edilar. Xunlar g'arbgga shiddat bilan siljib borar ekanlar, gotlarning ostgotlar deb atalgan sharqiy qismini o'zlariga bo'ysundiradilar. Gotlarning vestgotlar deb atalgan g'arbiy qismi xunlarning shiddatli zarbalariga bardosh bera olmay Dunay daryosi bo'ylariga chekinishga majbur bo'lib, Rim imperatori Valitdan xavfsizroq Meziya va Frakiyaga o'tib joylashishga ruxsat so'raydilar. O'ng minglab gotlar bola-chaqalari bilan qayiqlar va sollarda Dunay daryosining o'ng sohiliga

kechib o'ta boshlaydilar. Ulkan daryodan kechuv vaqtida juda ko'p kishilar daryoga g'arq bo'lib ketadilar. Gotlar daryodan o'tib Meziya va Frakiya bo'ylab joylashadilar. Imperator odamlari gotlarni oziq-ovqat bilan ta'minlashni o'z zimmalariga oladilar. Lekin ular o'z va'dalarini bajarmaganlari bois gotlar orasida ocharchiliklar boshlanib ketadi. Rim amaldorlari bundan foydalanib gotlarga oziq-ovqat mahsulotlarini yuqori bahoda sotadilar, yoki ularni qimmatbaxo buyumlar, qullarga va xatto bolalarga ayirbosh qilganlar. Gotlar tarixchisi Iordanning aytishicha istalgan bir qulni bitta nonga yoki un poya mol go'shtiga sotishgan, so'ngra gotlar o'zlarini bir qultum bemaza vinoga, bir burda nonga qul qilib sotishga majbur bo'lganlar. Gotlarning qahr g'azabi qo'zg'olonga aylanib ketdi: Fritegern bilan Alaviva qo'zg'olonga boshchilik qildilar. Qo'zg'olonchilarga gotlarning qul qilib sotilgan qabiladoshlari, mahalliy kalonlar, kon ishchilari darhol qo'shiladilar. Ular notanish joylarda qo'zg'olonchilarga yo'l boshlab, bekitilgan g'alla o'ralarini, boylarning maxfiy joylarini ko'rsatib, o'zlarini tutib beradilar.

Goh u tomon, goh bu tomon g'alabasi bilan nihoyalangan bir necha jangdan so'ng imperator Valit Rim armiyasining eng yaxshi qismlariga bosh bo'lib, qo'zg'olonchilarga qarshi o'tlanadi. 378-yili Adrianopol yonida jang bo'lib, bu yerda Rim qo'shinlari tor-mor qilinadi, jangchilarning asosiy medlari, 35 nafar tribun-siyosatchi xamda Valitning o'zi ham halok bo'ladi. Fritegern var-var qabilalaridan katta birlashma tuzib, ittifoqqa xun va alon qabilalarini ham jalb qilgan edi. Uning armiyasi butun Bolqon yarim orolini ishg'ol qilib Konstantinopolga yaqinlashib qoladi. Shu vaqtda german qabilalari bo'lgan alamonlar Galliyaga bostirib kiradilar. Imperator deb e'lon qilingan lashkarboshi Feodosiy gotlar bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi. Gotlar rimliklar qo'shinida hizmat qilish majburiyatini oladilar. Gotlarning Imperiyada joylashishi saltanat uchun ham xavfli edi. IV asr oxirida boshqa varvar qabilalari ham Rim chegaralariga yaqinlashib, ularga taxdid sola boshlaganlar. Katta boylik berish evaziga rimliklar ular bilan shartnoma tuzib, ulardan yollanma qo'shin sifatda foydalanganlar. Ko'p o'tmay imperator saroyi va qo'shinidagi nufuzli o'rinlarni varvar zodagonlari va harbiylari egallab ola boshlaydilar.

Imperiyaning bo'linib ketishi. Gotlarning Italiyaga bostirib kirishlari. Rim saltanatining varvarlashuvi viloyatlardagi separatilik harakatlarini yanada kuchaytirdi, xukumron doiralar ichida ziddiyatlarni chuqurlashtirdi va imperiyani bo'linib ketishiga zamin tayyorlaydi.

Imperator Feodosiy I (379-335) ko'p kuch sarf etib, saltanatning g'arbiy qismida o'z xokimiyatini arang tiklab oladi. Uning o'limidan so'ng imperiya poytaxti Konstantinapol shahri bo'lgan sharqiy qismga va avval poytaxti Mediolan, so'ng esa Ravens bo'lgan g'arbiy qismga uzil-kesil ajralib ketadi. Feodosiy I ning o'g'illari – Ganoriy g'arbda, Arkadiy sharqda imperator edilar. Saltanatni bo'linib ketishi uni yanada zaiflashtirib yuboradi. Shu munosabat bilan G'arbiy saltanatning ko'p joylarida qo'zg'olonlar boshlanib ketadi. Imperiyaning har ikkala qismida ham varvar aslzodalari va harbiylarning ta'siri kuchayib boradi.

Saltanatning zaifligidan foydalangan gotlar Italiyaga uch maratta hujum qiladilar. Ularning Italiyaga birinchi hujumi 402 yilda bo'lgan edi. Ammo vandal sarkardasi Stilixon boshchiligidagi Rim qo'shinlari gotlarning hujumini qaytarganlar. Tez orada Stilixon armiyasining ancha qismi unga qarshi bosh ko'tarishi natijasida o'g'li bilan birga (408-yili) qatl qilinadi.

Stilixon o'ldirilgandan keyin varvarlarga qarshi partiya kuchayib ketib Alarix bilan tuzilgan sulh bitimini bekor qildiradi. Shundan keyin vestgotlar yana Italiyaga bostirib kirib, 408 yili Rimni qamal qiladilar. Rim qamali vaqtida Alarixning talabi bilan vestgotlarga 40 ming qul ozod qilib beriladi, shu bilan birga katta tovon to'laydi.

Ammo 410 yili Alarix o'z qo'shinlari bilan yana Rimga yaqinlashib keladi. Afsonaga ko'ra qullar Rim darvozasini qochib qo'yib, vestgotlarni shaharga kirgizganlar. Varvarlar va ularga qo'shilgan qullar uch kun davomida shaharni talaganlar, so'ng Italiya janubiga yo'l olganlar. Ular o'rta va janubiy Italiya shaharlarini talab xonavayron etganlar. Alarix Bruttiyada to'satdan o'lib qoladi. Vestgotlar Alarixning jasadini juda ko'p xazina bilan daryo o'zaniga ko'madilar, o'zlari voris Ataulf boshchiligida Rimga qaytib kelib uni yana shipshiydon qilib talab ketadilar. Ular Rimdan janubiy Galliya va Ispaniyaga yo'l oladilar. Rim

hukumati Ataul'fning yurishiga to'sqinlik qilmaydi va uning Galliya bilan Ispaniyani bosib olishiga tan beradi. Vestgotlar 418 yili Ispaniyada Vestgot qirolligini tashkil qildilar.

Italiyaga vestgotlar bostirib kirib Rimni tor-mor qilgandan so'ng amalda g'arbiy imperiyaning umri tugagan edi. G'arbiy Rim imperiyasi tasarrufidagi o'lkalar birin-ketin uning ta'siridan chiqib keta boshlaydilar.

Xunlar va vandallar istilosi. G'arbiy Rim imperiyasining barham topishi. Bu vaqtda Sharq tomondan yana bir yangi xavf vujudga kelgan edi. Attila birlashtirgan xunlar va boshqa qabilalarning bosqinchi qo'shinlari "Qor bo'roni" kabi Yevropaga yog'ilib kiradilar, bu qo'shinlar o'zlarining qaxri qattiqligi va yaxshiyliklari bilan qit'a aholisini daxshatga soldilar. Sharqiy imperiya xukumdori Attilaga ko'p miqdorda oltin berib, xunlar hujumidan saqlanib qoladi. Shundan so'ng xunlar Galliya tuprog'igacha bostirib kiradilar. G'arbiy imperiyaning iste'dodli sarkardasi, varvarlarning urush olib borish usullaridan yaxshi xabardor bo'lgan patriksiy Aetsiy Attilaga qarshi o'zining shahar siyosatchilik mahoratini ishga solib imperiyaning azaliy dushmanlari bo'lgan vestgotlar, franklar, sarmatlar, burgundlar, saklar, alonlar va boshqa qabilalarni ham xunlarga qarshi ittifoqqa jalb qiladi. 451-yili hozirgi Fransiyaning Luarya daryosi shimolidagi markaziy rayonda joylashgan Katalauts maydonida ittifoqchilar bilan xunlar o'rtasida katta jang bo'ladi. Xunlar maydonni tashlab, o'z lagerlariga chekinishadi. Lekin xunlarga qarshi ittifoq shundan keyin ko'pga bormay tarqalib ketadi.

Attila qo'shinlari 452-yili Italiyaga bostirib kirib, uning shimoliy shaharlarini talab, dunay daryosining orqasidagi viloyatlarga qaytib ketadilar. 458-yili Attila o'lgandan so'ng unga tobe qabilalar qo'zg'olon ko'taradilar va shu tariqa xunlar ittifoqining umri bitadi.

429-yilda Ispaniyani egallagan vandallar va alonlar Gibraltar bo'g'ozi orqali shimoliy Afrikaga ko'chib o'tgan edilar. Ular 439 yili poytaxt Karfagen bo'lgan Alon-Vandal podisholigini tuzadilar.

Rim imperator saroyida partiyalar kurashi davom etayotgan bir payitda 455-yili Rimni vanallar juda qattiq taladilar. Varvarlarning Rimga qilgan bu bosqinchiligi ko'p vaqtlargacha xalq xotirasida saqlangan.

Rim o'z tarixida bu qadar vayronaga aylanmagan edi. Vandallarning Rimni vayron qilish oqibatida vujudga kelgan "vandalizm" so'zi insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni buzib yo'q qilish ma'nosini bildiradi.

476-yili german qabilalarining Rimdagi yollangan qo'shinni sarkardasi Odoakr G'arbiy Rim saltanatining so'ngi imperatori 15 yoshli Romul Avgustulni taxtdan ag'darib tashlaydi. Germanlar o'z lashkarboshilari Odoakrni imperator deb e'lon qiladilar. Ular imperator unvoni nishonini sharqiy saltanat poytaxti Konstantinapolga jo'natib yuboradilar. Shu bilan G'arbiy urunishlarga ham barham beriladi. Ilgari unga tobe bo'lgan o'lkala, viloyatlarda mustaqil podsholiklar va davlatlar qaror topadi. G'arbiy Rim imperiyasi ichidagi o'tkir qarama – qarshiliklar, varvar qabilalarining to'xtovsiz vayronalik keltiruvchi hujumlari imperiyani halokatga olib kelgan edi. G'arbiy Rim saltanatining halokati bilan insoniyat tarixidagi qadimgi davr o'z poyoniga etadi.

Tayanch iboralar: Diokletian, Konstantin, Xristian dini, Iso, Germanlar, Gotlar, Feodosiy, Kostantinapol, Varvarlar, Vandalizm, Xunlar, Ganoriy, Arkadiy, Romul Avgustul, Odakr, Atilla, Stilixon, Pontiy Pilat, Ioniy, Italiya, Ispaniya, Vizantiya.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Rim imperatorlik taxtiga Konstantinning kelishi bilan qanday o'zgarishlar yuz berdi?
2. Xristian dinini xukumron dinga aylantirilishining sabablari nimada edi?
3. Imperiya poytaxti nima uchun Rimdan Konstantinopolga ko'chiriladi?
4. IV asrda imperiyaning turli xududlarida ommaviy harakatlarni bo'lishi sabablari haqida fikr yuriting.

5. Gotlarning sharqiy Rim saltanati xududiga bostirib kirishlarining sabablari nimalardan iborat edi?

6. Nima sababdan Rim imperiyasi ikkiga bo'lindi?

7. Rim imperiyasiga gotlar, xunlar va vandallarning istilosi qanday oqibatlarga olib kelgan edi?

Glossariy

Fisk – imperiya g'aznasi.

Erariy – shaharning eski g'aznasi.

Harbiy tribun – katta qo'mondon.

Donativa – xizmatdan bo'shagan jangchilarga beriladigan maxsus tortiq, in'om.

Veteran – (lot) Qadimgi Rimda armiya xizmatini o'tab bo'lgan soldat. Ularga yer berilgan yoki pul mukofoti, shuningdek Rim fuqarosi huquqi berilgan.

Villa – (lotincha) shahar tashqarisidagi (bazzm yoki parkli) uy.

Kurator – Rimda viloyat boshqaruvi ustidan umumiy nazorat uchun imperator tomonidan tayinlangan mansabdor.

Daminant – Deokletin boshqaruvi tartiblari daminant deb atalgan.

Amlok – o'rta sharq mamlakatlarida biror shaxs yoki davlatga qarashli mulk.

Munitsipalitet – (tssm) o'z-o'zini boshqaradigan va saylab qo'yiladigan maxalliy separatistik harakat.

Separatistik harakat – (lot) davlat tartibidan ajralib chiqish.

kurator – kichik viloyatlar xokimlari.

Prokonsul – rimda viloyat noiblari

IV BO'LIM. JAHON XALQLARI ILK O'RTA ASRLARDA

22-§. Jahon tarixida o'rta asrlar davri

O'rta asrlar atamasi. O'rta asrlar atamasi tarix fanida jahon tarixining qadimgi dunyo tarixi bilan yangi tarix oraliq'idagi davrni ifodalash uchun qabul qilingan atama. O'rta asr tushunchasi XV—XVI asrlarda gumanist tarixchilar asarlarida ilk bor ishlatilgan, fanda esa bu atama XVIII asrda uzil-kesil qaror topgan. Ushbu atama dastlab G'arbiy Yevropa mamlakatlari tarixini davrlashtirishga nisbatan ishlatilgan.

O'rta asrlar tarixining davriy chegaralari turli vaqtlarda turlicha belgilanib kelgan. Ba'zi tarixchilar o'rta asrlar tarixi Konstantin Buyuk podsholik qilgan davrdan (IV asr boshlaridan) boshlanib, 1453 yilda Konstantinopolning qulashi bilan tamom bo'ladi deb hisoblaganlar. XIX asr tarixchilari o'rta asrlar tarixining davriy chegaralari 476 yil — G'arbiy Rim imperiyasi qulagan yildan boshlanib, 1492 yil Amerika kashf qilingan yil bilan tamom bo'ladi, deb hisoblaganlar.

O'rta asr Yevropasi tarixi Rim quldorlik imperiyasining qulashidan boshlanadi, bu imperiya qarama-qarshiliklar natijasida, ya'ni quldorlik xo'jaligining inqirozi, toifalar o'rtasida kurashning g'oyat keskinlashib ketganligi, Italiya va uning viloyatlarining zaiflashib ketganligi hamda iqtisodiy va siyosiy aloqalarining uzilib ketganligi natijasida, shuningdek, tashqi sharoitlar natijasida — varvarlarning ommaviy hujum qilishi natijasida quladi. Varvarlar imperiyani bosib olib, uning hududida bir qancha varvar qirolliklarni tuzgan edilar. Eramizning V-VI asrlarida tashkil topgan bu qirolliklar Yevropada keyinchalik vujudga kelgan milliy davlatlarning asosi bo'ldi.

O'rta asrlar tarixi feodal ishlab chiqarish usuli hukmron bo'lgan davr tarixi ekanligi. O'rta asrlar tarixi ming yildan ortiqroq davr tarixidir, bu davrda G'arbiy va Sharqiy Yevropa xalqlari ham, shuningdek, Osiyo va Shimoliy Afrika xalqlari ham o'zlarining ijtimoiy taraqqiyotlarida alohida bir bosqichni – feodalizmni boshlaridan kechirmoqda edilar. Feodal jamiyatning qaror topishi, uning gullashi va inqirozga yuz tutishi o'rta asrlar tarixining tub mohiyatini tashkil etadi. Feodal ishlab chiqarish usulining negizini o'sha davrdagi ishlab chiqarishning asosiy vositasi

bo'lgan yerga feodalning egalik qilishi tashkil etadi. Feodal jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi toifa dehqonlar bo'lib, ular pomeshchik, ya'ni feodal yerida yashaydilar, uning ruxsatisiz pomeste hududini tashlab chiqib ketishga xaq-huquqi bo'lmay, unga (pomeshchikka) shaxsan krepostnoy qaram holda edilar.

Krepostnoy dehqonning huquqiy ahvoli qulning ahvolidan birmuncha yaxshi edi. Quldordan farq qilib, feodal krepostnoy dehqonni o'ldirishga haqqi yo'q edi. Pul rentasiga o'tilishi bilan dehqonni yerga biriktirib qo'yish asta-sekin yo'qola bordi.

O'rta asr dehqonining iqtisodiy ahvoli qulning ahvolidan anchagina farq qilar edi. Feodal davridagi dehqon mustaqil mayda ishlab chiqaruvchi edi. Uning yer uchastkasi – chek yeri bo'lib, bu yerni unga feodal berar va bu yer otadan o'g'ilga meros bo'lib qolaverar edi: dehqonning o'z uyi, qo'rasi, ish hayvoni, juda ibtidoiy bo'lsa ham, turli xildagi dehqonchilik anjomlari bo'lar edi. Dehqon o'z xususiy xo'jaligining bo'lishi, ishlab chiqarish vositalari bilan ish ko'rishi, qo'shimcha mahsulotning biror-bir ulushini o'zida qoldirish imkoniyatiga ega bo'lishi (mahsulotning asosiy qismi feodalga renta tariqasida kelib tushar edi), o'rta asr dehqonida ishlab chiqarishdan ma'lum darajada manfaatdorlik tug'dirar edi.

O'rta asrlardagi jamiyat va davlat taraqqiyotida asosiy bosqichlarning davriy chegaralari. O'rta asrlar tarixi ikki yirik davrga bo'linadi:

1) Ilk o'rta asr – V asrning to'rtinchi choragidan boshlab taxminan XI asr o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, bu davr yangi feodal jamiyatga o'tish, yer egaligining yangi turlari (yirik yer egalari – feodallar, qaram dehqonlar toifalari) shakllanishi, G'arbiy Yevropada yangi diniy ta'limot xristianlikning keng tarqalishi, Sharqda islom dinining vujudga kelishi va tarqalishi, yirik feodal davlatlarning paydo bo'lish davridir.

2) Rivojlangan o'rta asrlar – XI asrning o'rtalaridan XV asr oxirigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu davrda yer egaligi ishlab chiqarish munosabatlarining yuksalishi, o'z-o'zini ta'minlovchi natural xo'jalikdan bozor uchun mahsulot yetishtiruvchi xo'jalikka o'tilishi, shaharlarning va hunarmandchilik sexlarining taraqqiyoti, savdoning yuksalishi, Yevropa shaharlarining senorlar hukmronligidan

ozod bo'lish uchun kurashi, erkin shaharlar, shahar respublikalar va yirik markazlashgan davlatlarning shakllanishi, toifaviy hokimiyat organlarining (parlament, General shtatlar) shakllanishi, xristian cherkovi va salib yurishlari, dunyo xalqlarining ilm-fani va madaniyati kabi jarayonlar tarixidir.

Sharqda feodal jamiyat G'arbdagi xuddi shu ijtimoiy tuzumga qaraganda ancha uzoqroq yashagan. Xatto XVIII asrning ikkinchi yarmida va butun XIX asr davomida Sharq mamlakatlarining ko'pchiligida feodal munosabatlar deyarli o'zgarmasdan, shundayligicha qolib kelavergan. Shu bilan birga, Sharq mamlakatlaridagi feodal jamiyat Yevropadagi feodal jamiyatga qaraganda bir qancha xususiyatlarga ham ega edi.

Jumladan, uning birinchi xususiyati sharq feodal jamiyati sharoitida quldorlik tuzumining anchagina sarqitlari saqlanib qolganligidir. U yoki bu Sharq mamlakatidagi mehnat ahlining deyarli anchagina qismi qullardan iborat ekanligi Sharq feodal jamiyatida muayyan quldorlik tartibning uzoq vaqt saqlanib qolganligi to'g'risida gapirishga imkon beradi. Sharq feodalizmining ikkinchi bir xususiyati – bu o'rta asrlarda Sharqda feodal yer egaligining o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lganligidir. Feodal xususiy mulkchiligi o'rta asrlarning birinchi yuz yilliklaridayoq xususiy ahamiyat kasb etgan va dehqonlarning ko'pchilik ommasi yer egalari – feodallarga qaram bo'lgan Yevropadan farq qilib, Sharqning bir qancha mamlakatlarida keyingi o'rta asrlargacha yer feodal davlat (uning tepasida turgan hukmdor) ixtiyorida bo'lgan. Davlat mulkchiligi bilan bir qatorda Sharq mamlakatlarida davlat yer egaligi hisobidan xususiy yer egaligi ham mavjud bo'lgan. Feodal yer egaligining bu ikki turi o'rtasidagi kurash O'rta asrlar Sharqining butun tarixida boshdan oxirigacha davom etib keldi. Bu tarix feodal hukmron toifalarining turli qatlamlari o'tasidagi ichki ziddiyatlarni ochib berdi, bularning har biri yerga egalik qilishning va qaram dehqonlarni tobelikda ushlab turish usulining o'ziga qulay shakllarini joriy qilish uchun kurashar edi. Dehqonlarning o'zlari ham yerga egalik qilishning shakllari uchun olib borilgan kurashga befarq qarab o'tirmadi. O'rta asrlarda Sharqda dehqonlarning bo'lib turgan ko'p sonli ommaviy harakatlari yerga egalik qilish jarayoniga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatib, xalq ommasi uchun

juda og'ir bo'lgan yer egaligi shaklini yo'q qilishga yoki hech bo'lmaganda cheklab qo'yishga va shaklini o'zgartirishga yordam berdi.

O'rta asrlar tarixi davri manbalari. Biz ushbu davrni moddiy va yozma manbalar asosida o'rganamiz. Moddiy manbalarga jahondagi ko'plab muzeylarda saqlanayotgan ashyoviy yodgorliklar, masalan: mehnat qurollari, qurol-yaroqlar, tanga pullar, idishlar; shuningdek, yer ustida saqlangan uylar, mahallalar, qal'a devorlari va minoralar, hashamatli ibodatxonalar va boshqalar kiradi.

Ushbu davrni o'rganishimizda yozma manbalarning o'rni beqiyosdir. Jumladan, arxivlarda saqlanayotgan ko'plab yozma tarixiy manbalar, yilnomalar, tarixiy asarlar, san'at asarlari o'sha davr hayotiga oid juda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishimizda yordam beradi.

Tayanch so'z va iboralar: O'rta asrlar, G'arbiy Rim imperiyasi, quldorlik jamiyati, feodal, feodal jamiyati, toifalar, krepostnoy, dehqon, pul rentasi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. "O'rta asrlar" atamasi ilk bor kimlar tomonidan ishlatilgan?
2. O'rta asrlar boshlanishining davriy chegarasi qanday voqealar bilan bog'liq?
3. Feodal jamiyatning quldorlik jamiyatidan qanday farqlari va o'xshash tomonlari mavjud?
4. O'rta asrlar tarixi qanday davrlarga bo'lib o'rganiladi?
5. Sharq feodal jamiyatining G'arb feodal jamiyatidan qanday farqli xususiyatlari bor?
6. O'rta asrlar tarixini o'rganishda qanday manbalarga asoslaniladi?

Glossariy:

Quldorlik jamiyati – insoniyat tarixida ibtidoiy jamiyat o'rniga kelgan tuzim. Quldorlik jamiyatida – quldorlar va qullar bilan ayni paytda erkin dehqonlar, hunarmandlar va boshqa ijtimoiy guruhlar ham mavjud bo'lgan. Davr o'tishi bilan bu

jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishiga to'siq bo'la boshlagan. Qullar qo'zg'olonlari quldorlikning yemirilishini tezlashtirgan.

O'rta asrlar tarixi – qadimgi dunyo tarixi bilan yangi tarix oralig'idagi davr V asr oxiridan XV asr oxirigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Feod – yer; G'arbiy Yevropada feodalizm davrida senor tomonidan harbiy xizmat evaziga, vassalga in'om qilingan yer-mulk.

Feodal – yirik yer egasi, senor.

Feodal rentasi – feodalizm davrida mavjud bo'lgan yer solig'i. Feodal rentasi uch bosqichni boshidan kechirgan: dastlab ishlab berish rentasi, barshchina, keyinchalik oziq-ovqat rentasi (natural) solig'i va nihoyat XV asrdan pul solig'iga o'tilgan.

23-§. Rim imperiyasining inqirozi. Varvar qirolliklarining tashkil topishi

Yevropada O'rta asr jamiyati murakkab bir jarayon natijasida, ya'ni ijtimoiy tashkilotning o'zidan oldin o'tgan ikki shaklining: bir tomondan, Rim imperiyasidagi quldorlik tuzumining, ikkinchi tomondan, keltlar, germanlar, slavyanlarning hamda imperiyadan shimolda boshqa qabilalarning varvarlik tuzumining bir-biri bilan qo'shilishi natijasida vujudga keldi.

Xalqlarning Buyuk ko'chishi. IV-VI asrlar Yevropa tarixiga xalqlarning buyuk ko'chishi nomi bilan kirgan. Ko'chish natijasida xalqlarning yashash hududlari keskin o'zgarib ketgan. Ushbu ko'chishga bir qator omillar sabab bo'lgan:

yangi-yangi yerlarga talabning kuchayishi;

sharqda yashovchi qudratli ko'chmanchi xunn qabilalarining G'arbga istilochilik yurishi boshlanishi;

ob-havoning keskin o'zgarishi, ekin maydonlari aksariyat qismining yaroqsiz holga kelishi.

Buyuk ko'chish natijasida german qabilalari G'arbiy Rim imperiyasini bosib oldilar. Asrlar davomida hukm surib kelgan quldorlik jamiyati barham topib, yangi jamiyat – feodal jamiyati qaror topa boshlagan. Bundan tashqari, xalqlarning buyuk ko'chishi oqibatida turli xalqlarning bir-biri bilan aralashuvi yuz berib, ularning madaniy qiyofasi ham o'zgargan.

Rim imperiyasi varvarlar tomonidan bosib olinishi arafasida. Imperiyaning inqirozi IV asr oxiri – V asr boshlarida yanada keskinlashdi. Ijtimoiy-siyosiy sohalarda ko'plab islohotlar o'tkazildi, qullarga zo'rlik qilish shakli (plantatorlarning kazarma sharoitidagi qullarini obrok to'laydigan qullarga va kolonlarga aylantirish yo'li bilan) yumshatishga harakat qilindi. Lekin shularga qaramay, Rim jamiyati quldorlikka asoslangan jamiyat holicha qolganda, shakllana olmas edi, Rim imperiyasining davlat tuzumini sindirib tashlash, ishlab chiqaruvchi kuchlarning yanada o'sishini va jamiyatning rivojlanishini ta'minlash uchun jiddiy o'zgarishlarga zarurat tug'ilgan edi. Bu juda katta ijtimoiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchlari Rim jamiyatining o'zidagi ezilgan aholi hamda varvarlar bo'ldi. Qullar,

kolonlar, shahar hunarmandlari III-V asrlar davomida o'z zolimlariga, ayrim quldorlarga va Rim quldorlik imperiyasining o'ziga qarshi qattiq kurash olib bordilar. Biroq quldorlik Rimga qarshi imperiya aholisining pastki tabaqalaridan tashqari yana bir kuch – qo'shni varvarlar ham bosh ko'tardi. Rim imperiyasining qiyin ahvolga tushib qolganligidan foydalanib, bo'sh yer va boshqa xil o'lkalar payida bo'lgan varvarlar (IV-V asrlarda bular asosan turli german qabilalari edi), keyinchalik slavyanlar va shuningdek, boshqa xalqlar viloyat ketidan viloyatni qo'lga olib boshladilarki, nihoyat, 476 yilda G'arbiy Rim imperatorlari hokimiyati butunlay yo'q bo'lib ketdi. G'arbiy Rim imperatorlari qo'lida birgina Italiya qolgan edi.

G'arbiy Rim imperiyasi hududida mayda va ancha yirik varvar qirolliklari vujudga keldi. Bu qirolliklarda yangi ijtimoiy tuzumning yaratilishi uchun (Rimdagiga qaraganda) qulayroq sharoitlar tug'ildi.

Varvarlarning ijtimoiy tuzumi. Keltlar, germanlar, slavyanlar. Italiyadan shimolda juda qadimgi vaqtda eramizning birinchi yuz yilligida juda ko'p varvar qabilalari yashagan. Bu qabilalarni uchta katta guruhga – keltlar, germanlar va slavyanlarga bo'lib o'rganish mumkin. Varvarlarning ijtimoiy tuzumi Rimnikidan butunlay farq qilardi. Ularda hali yirik ijtimoiy toifalar tarkib topmagan edi, xaqiqiy ma'nodagi davlat yo'q edi; varvarlarda urug'chilik munosabatlari xalq ijtimoiy munosabatlarning asosiy turi edi; bu qabilalar aholisining asosiy ommasi erkin kishilardan iborat edi.

Bu tuzum ibtidoiy-jamoa tuzumi bo'lib, eramizning IV-V asrlarida anchagina chirigan edi, lekin shunday bo'lishiga qaramay, urug'chilik munosabatlari ham ishlab chiqarish vositalarining ijtimoiy mulkligi (jamoa yer egaligi) ham hali butunlay yo'qolmagan edi.

Rim mana shu varvar qabilalariga qarshi yuzlarcha yil davomida kurash olib bordi. Rimning varvarlar ustidan g'alaba qilishi natijasida varvarlarning ko'pi qullarga aylantirildi. Varvarlarning shimoliy chekka o'lkasi uzoq vaqtgacha Rimga o'z quldorlik latifundiyalarini ishchi kuchi bilan ta'minlab turadigan asosiy manba bo'lib keldi.

Keltlar. Rim dastavval keltlar bilan to'qnashdi. Kelt kabilalari eramizdan oldingi birinchi ming yil o'rtalarida va ikkinchi yarmida ayniqsa G'arbiy Yevropaning ancha katta hududiga o'rnashib olgan edi. Eramizdan oldingi VI-III asrlarda ular hozirgi G'arbiy Germaniyada va Fransiyada (galliyaliklar), Ispaniyada (kelt iberlar), Irlandiyada (irlar yoki eyrlar va skotlar), Angliyada (brittlar), shuningdek, Shveytsariyada (gelvetlar) va Shimoliy Italiyada o'rnashgan edilar. Kichik Osiyoda keltlar eramizdan oldingi III asr o'rtalarida davlat tuzdilar, bu davlat Gallatiya deb ataldi.

Yuz yillar mobaynida keltlar – gallar degan nom rimliklarni dahshatga solib keldi. Eramizdan oldingi IV asr boshlarida (390 y.) gallar O'rta Italiyaga bostirib kirib, Rimgacha etib bordilar. Er. av. 121 yilda rimliklar Janubiy Gallianing bir qismini bosib oldilar, Gallianing bu qismi Narbonni Galliyasi yoki Provintsiyasi deb ataldi. Er. av. 58 yilda Yuliy Sezar butun Transalp Galliyasini bosib olishga kirishdi va 51 yilda batamom bosib oldi. Bu vaqtda keltlarni german qabilalari G'arbiy Germaniyadan ham butunlay siqib chiqardilar. Reyn keltlar bilan germanlar o'rtasidagi chegara bo'lib qoldi.

Boshqa kelt qabilalariga (masalan, Britaniya yoki Irlandiya keltlariga) qarama-qarshi o'laroq Galliya keltlarining urug'chilik tuzumi rimliklar hali ularni bosib olmasdan ilgariyoq anchagina chirigan edi. Ularda kuchli va boy urug'-qabila zodagonlari bor edi (bularni Sezar «chavandozlar» deb atagan edi), bu zodagonlar eng yaxshi yerlarni bosib olgan edilar va ularning ko'p qullari bor edi. Druidlar deb atalgan kohinlarning qudratli uyushmasi katta siyosiy ahamiyatga ega edi, bu uyushma Galliyada qabilalar o'rtasida uzluksiz ravishda chiqib turadigan janjal va nizolarni hal qilishda umum Galliya sud tribunali rolini o'ynar edi.

Rim hukmronligidan birgina Britaniya qutulib qolmadi, balki Shimoliy Galliya (keyinchalik Bretani deb nom olgan Armorika yarim oroli) ham, Shimoliy Ispaniya ham haqiqatda Rim imperiyasiga qarshi kurashdi va Rim hukmronligidan germanlar, slavyanlar va hokazolardan iborat boshqa varvar kabilalari Rimga qarshi birdaniga hujum qilgan vaqtda qutulib qoldilar.

Qadimgi germanlar. Yunonlar va rimliklar quldorlik jamiyatida yashayotganlarida germanlarda hali ibtidoiy jamoa tuzumi saqlanib turgan edi. Eramizning I-asrlariga kelib ularning bu tuzumi tez buzilib bordi.

Bir qancha Rim yozuvchilarinng asarlaridan qadimgi germanlar haqida ancha mufassal ma'lumotlarga egamiz. Yuliy Sezar o'zining "Galliya urushi haqidagi esdaliklar"ida (er. av. 50-yil atrofida yozilgan) germanlarning turmushini batafil bayon qilgan. Rim tarixchisi Tatsit germanlar haqida maxsus «Germaniya» (eramizning 100-yili atrofida yozilgan) nomli etnografik ocherk yozgan. Antik dunyo avtorlaridan Pliniy, Plutarx va boshqalar ham germanlar to'g'risida asarlar yozgan. Bularning asarlaridan bizga dastavval shu narsa ma'lum bo'ldiki, germanlar g'arbda Reyn bilan, sharqda Visla o'rtasidagi, shimolda Shimoliy dengiz bilan Baltiq dengizi o'rtasidagi, janubda Alp tog'lari bilan Dunay daryosi o'rtasidagi hududda, shuningdek, Skandinaviyada o'rnashgan. Ular ko'pdan-ko'p sharqiy va g'arbiy german qabilalariga bo'lingan (g'arbiy qabilalar bilan sharqiy qabilalar o'rtasidagi chegara Elba daryosi bo'lgan).

Germanlar mol va parranda boqar, yirtqich hayvonlarni ovlar, baliq ushlardilar. Ammo ularning asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan. Germanlar temir qazib olish va uni eritishni bilar edilar. Ularni temirni ustaxonalarda eritib, mehnat asboblari va qurol-yarog' yasar edilar. Germanlar rimliklardan ikki dalali ekishni o'rgandilar. Ikki dalali ekishga o'tish natijasida dehqonchilikda ishlab chiqarishning unumdorligi oshdi. V-VI asrlarda germanlar urug' jamoalari qo'ni-qo'shni jamoalariga aylana boshladi. Qo'rg'ondan tashqari har bir jamoa a'zosi o'z ekin yeriga ega edi.

Eramizning boshlarida germanlarda mulkiy tengsizlik kuchayib jamoalar boylar va kambag'allarga ajrala boshlaydi, jamoalarda "zodagonlar" – qabilaning sara kishilari, erkin kishilar va yarim ozod kishilar toifalari shakllanadi. Mulkiy tabaqalanishning keyingi bosqichida germanlarda konung, ya'ni zodagonlar yo'lboshchisi shakllanib, uning mavqei kuchaya boradi. Konung qabiladoshlarini shaxsiy namuna, ishonch, hurmat asosida boshqargan. Konung saylanganidan so'ng uni qalqon ustida ko'tarib olqishlashgan.

Germanlarda qabila zodagonlarining qudrati harbiy ishning avj olishiga ham asoslangan edi. Zodagonlarning drujinachilari bo'lar edi. Qo'shni german qabilalari va german bo'lmagan qabilalar bilan uzluksiz urushlar olib borish bu harbiy boshliqlar va ularning drujinachilari uchun doimiy bir kasb tusini olgan edi.

Germanlar tabiat kuchlarini – osmon, quyosh, momaqaldiroq, shamol va yerni ilohiylashtirar edilar, bu kuchlar ibtidoiy dehqon, chorvachi va ovchining hayotida eng katta ahamiyatga ega edi.

Germanlar va rimliklar. III asrning o'rtalarida, ya'ni Rim imperiyasi qattiq ijtimoiy va siyosiy inqirozni boshidan kechirib turgan vaqtda, g'arbiy german qabilalarining bir qismi – franklar, svevlar va boshqalar Reyndan, ya'ni Germaniyaning g'arbidagi Rim chegarasidan o'tdilar. Xuddi shu vaqtda II asrning ikkinchi yarmi va shu asr davomida sharqiy german qabilalari o'rtasida ham katta siljishlar bo'ldi. Eng kuchli sharqiy german qabilalaridan biri –gotlar-shimoldan janubga Dunay havzasiga tushib, Daniya hududining bir qismini bosib oldi va keyin sharq tomonga Qora dengiz bo'yiga tarqaldi. Bu yerda gotlar slavyan, sharqiy sarmat qabilalari va boshqa qabilalar orasida 150 yilcha yashadilar. Ular qora dengiz bo'yida ko'p qabilali ikkita qirollik — Vestgot qirolligi (Dunayning quyi oqimi) va Ostgot qirolligi (quyi Dnepr xavzasida) tuzdilar va shunday qilib, Sharqiy Rim imperiyasining chegaralariga juda ham yaqinlashib keldilar.

Qadimgi slavyanlar. Slavyanlar haqidagi qadimgi ma'lumotlarga ko'ra, ular I-II asrlarda venedlar nomi bilan ma'lum bo'lgan. VI asr o'rtalarida Prokopiy, Iordan va boshqalarning asarlarida uchraydi. VII asrning 2-yarmida arab muallifi Abu Malik al-Axtalning asarlarida tilga olingan. «Slavyan» so'zi eramizning VI asrida esa vizantiyalik yozuvchilar asarlarida tilga olingan. VI asr o'rtalarida yashagan vizantiyalik tarixchi Prokopiy slavyanlarni sklavinlar va antlar deb ataydi. Prokopiyning yozishicha, slavyanlar o'sha vaqtda Dunay buyida, antlar Dneprning sharqida yashaganlar. Eramizning birinchi asrlarida slavyanlar shimolda Boltiq dengizi qirg'oqlaridan tortib janubda Dunaygacha, g'arbda Dunaydan tortib to Dnepr havzasigacha va Dneprning shimoli-sharqidan tortib to Okagacha bo'lgan hududlarda keng tarqalgan edilar.

Vizantiya tarixchilari Prokopiynng (VI asrning o'rtalarida) va Mavrikiyning (VI asrning oxirida – VII asrning boshlarida) ta'riflashicha, qadimgi slavyanlardagi ijtimoiy tuzum urug'chilik asosidagi ibtidoiy-jamoa tuzumidan iborat bo'lgan, germanlardagi (va undan ilgari keltlardagi) ijtimoiy tuzum qanday xususiyatlarga ega bo'lgan bo'lsa, qadimgi slavyanlardagi ijtimoiy tuzum ham xuddi shunday xususiyatlarga ega edi. Slavyanlar ko'pdan-ko'p qabilalarga va urug'larga bo'linib yashar edilar. Urug'lar katta-katta oilalardan tashkil topgan edi. Urug' oqsoqollarini vizantiyalik mualliflar filarxlar va arxontlar deb atadilar.

Slavyanlar juda katta harbiy mahoratga ega edilar. Slavyanlar jismoniy jihatdan juda kuchli va chidamli odamlar bo'lib, har xil harbiy xiylalar o'ylab chiqarishga juda usta edilar. Slavyanlar o'yma yog'och qayiqlarni ishlatishga usta edilar, jasorat ko'rsatib, bu qayiqlarda dengizda uzoq-uzoq joylarga suzib borardilar,

Slavyanlar qadimgi zamonlardanoq dehqonchilikdan xabardor edilar, ularning asosiy mashg'uloti dehqonchilik edi. Arxeologik ma'lumotlar ularda juda katta don zahiralari, don saqlash uchun maxsus omborlari va hokazolari bo'lganligidan dalolat beradi. Mavrikiyning aytishicha, slavyanlar ayniqsa arpa va so'lini ko'p ekkanlar, eramizning dastlabki asrlaridayoq uy hayvonlari asraganlar, turli xildagi xonaki hunarlarni ham bilganlar.

Slavyanlar ham, germanlar singari antik jamiyatni yangilashda, yangi o'rta asr, feodal G'arbiy Yevropasining vujudga keltirishda kattagina rol o'ynadilar. Avvalo german qabilalarining sharqdan janubga va g'arbga siljishi ham qisman slavyanlar siquvinnng natijasi edi. So'ngra slavyan qabilalarining bir qismi german qabilalari bilan birgalikda Rim imperiyasini istilo qilishda qatnashdi.

Germanlarning G'arbiy Rim imperiyasi taqdirida tutgan o'rni. Hech qanday moddiy manfaatga asoslanmagan qullar mehnatining samarasizligi G'arbiy Rim imperiyasini tobora zaiflashtirgan. Ayni paytda olib borilgan tinimsiz istilochilik urushlari imperiyani holdan toydirgan. Bora-bora imperiya o'z chegaralarini o'zgaralar hujumidan qiyinchilik bilan himoya qilishga majbur edi. Imperiyadagi bu ahvol german qabilalarining bostirib kirishiga juda qulay sharoit yaratgan. German qabilalari bo'lgan vandallar, gotlar, franklar, angl va sakslarning qudrati tobora ortib borgan.

Kuchsizlanib qolgan G'arbiy Rim imperiyasi german qabilalari siquviga bardosh bera olmagan. German qabilalari harbiy kuchlari boshliqlaridan biri. 476 yilda Rimning so'nggi imperatori go'dak Romul Avgustulni taxtdan tushirdi. Shu tariqa G'arbiy Rim imperiyasi barham topgan.

Vandallar sobiq imperiyaga qarashli Shimoliy Afrikani, vestgotlar (g'arbiy gotlar) Ispaniyani, ostgotlar (sharqiy gotlar) Italiyani, franklar Galliyani, angl va sakslar esa Britaniyani egallab oldilar va shu joylarda o'z davlatlarini barpo etdilar.

Tayanch so'z va iboralar: G'arbiy Rim, qullar, kolonlar, varvarlar, germanlar, slavyanlar, keltlar, galliyaliklar, ieltibyerlar, irlar, eyrlar, skottlar, brittlar, gelzetlar, Gallatiya, Narbonni Galliyasi, druidlar, zodagonlar, "Galliya urushi haqidagi esdaliklar", «Germaniya», Pliniy, Plutarx, Reyn, Visla, Elba, konung, Odoakr, vandallar, vestgotlar, ostgotlar, angl va sakslar, franklar.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Rim imperiyasining inqirozi qachon boshlandi va bunga qanday jarayonlar o'z ta'sirini o'tkazdi?
2. Varvarlar haqida nimalarni bilasiz? Ularning ijtimoiy tuzumi qanday edi?
3. Keltlar qayerda yashaganlar va ularning asosiy mashg'ulotlari nima edi?
4. Germanlar davlat barpo etgunlariga qadar qanday ijtimoiy tuzumda yashaganlar?
5. Xalqlarning buyuk ko'chishining asosiy sabablari nimalardan iborat edi?
6. Qadimgi slavyanlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar kimlarning asarlarida uchraydi?
7. German qabilalarining Rim imperiyasiga bosqini qanday oqibatlariga olib keldi?

Glossariy:

Varvarlar – yunon va rimliklar tomonidan ularga nisbatan tushunarsiz tilda so'zlovchi va begona madaniyatga mansub barcha o'zga yurtliklar (germanlar va b.)ga berilgan nom. Antik davrdagi varvarlar tushunchasi xristianlar Vizantiyasi va G'arbiy Yevropada ham o'zlashib ketib, bu yerlarda «xudosiz» degan ma'noni anglatgan. Majoziy ma'noda – qo'pol, madaniyatsiz, bag'ritosh kishilar.

Germanlar – er. av. 1-asrda Shimoliy va Boltiq dengizlari oralig'ida, Reyn, Dunay, Visla daryolari bo'ylarida va Janubiy Skandinaviyada yashovchi, hind-Yevropa til guruhiga mansub qadimgi qabilalar.

Keltlar (gallar) – er. av. 1-ming yillikning 2-yarmida hozirgi Fransiya, Belgiya, Shveysariya, Germaniyaning janubiy qismi, Avstriya, Shimoliy Italiya, Shimoliy va G'arbiy Ispaniya, Britaniya orollari, Chexiya, qisman Vengriya va Bolgariya hududida yashagan qadimgi hind-Yevropa qabilalari. Yunonlar ularni galatlar, rimliklar esa gallar deb atashgan. Eng yiriklari: gelvetlar, belglar, sekvanlar, eduilar va boshqalar. Er. av. 1-asrning o'rtalariga kelib rimliklar tomonidan bo'ysundirilgan.

Slavyanlar – kelib chiqishi bir va tillari o'zaro yaqin bo'lgan Yevropa xalqlarining eng yirik guruhi. Milodiy 2-4-asrlarda german qabilalari (gotlar, gepidlar)ning janubga siljishi oqibatida ular yashagan hudud sharqiy va g'arbiy hududlarga bo'linib ketgan.

Konung – qabila boshlig'i, zodagonlarning oliy vakili. Norman qabilalarida harbiy yo'lboshchi.

Kolonlar – ijaraga yer oluvchi kishi, dehqon

Druidlar – qadimgi german qabilalarida koinlar, ruhoniylar.

24-§. Franklarda imperiyaning shakllanishi. Karolinglar

Franklar haqida. “Frank” so'zi – jasur, erkin degan ma'nolarni anglatadi. Bu atama qator german qabilalariga nisbatan qo'llaniladigan umumiy nom edi. Franklar asosan Reyn daryosining o'rta va quyi oqim bo'ylarida yashaganlar. Franklar dengiz bo'yicha (sali) va qirg'oq (ripar) franklariga bo'linganlar. Franklarning G'arbiy Rim imperiyasi bilan munosabatlari bir xilda kechmagan. Ular bir-birlari bilan ba'zan dushman, ba'zan ittifoqchi bo'lganlar. Sali franklari ancha kuchli bo'lgan. Franklarning tashqi ko'rinishi boshqa german qabilalaridan ancha farq qilgan. Franklar gotlar va langobardlar kabi hayvon terisidan emas, balki matodan kiyimbosh kiyishgan va soch-soqollarini olib yurishgan. Ularda faqat qirol oilasiga mansub kishilargina uzun soch bilan yurishlari mumkin bo'lgan.

Franklarda qirollikning tashkil topishi. Rim imperiyasi hududida tuzilgan varvar qirolliklari ichida eng kattasi va kuchlisi franklar qirolligi edi. Franklar bora-bora burgundlarni buysundirdilar. Galliyadan vestgotlarni surib chiqardilar. Italiyada langobardlarni zabt etdilar va Reynning narigi tomonida qolgan german qabilalarining hammasini deyarli o'zlariga itoat ettirdilar.

Merovinglarning boshqaruvi. 481 yil merovinglar sulolasi bo'lgan franklar qirolligi Xilperik I vafot etadi. Taxtga uning o'g'li Xlodvig (481—511) o'tiradi. Sulola nomi Xlodvigning ajdodi saliy franklariga etakchilik qilgan Merovey nomidan olingan.

Xlodvigning podsholik tarixi yepiskop Grigoriy Turskiyning «Franklar tarixi» degan kitobida batafsil bayon qilingan bo'lib, Turskiy bu kitobni ancha keyinroq, VI asrning ikkinchi yarmida yozgan. Franklar hayotida ro'y bergan katta-katta voqealar Xlodvig nomi bilan bog'langandir.



Xlodvig

Xlodvig 486 yilda butun shimoliy Galliyani istilo qildi. Rimning bu viloyati hali varvarlar tomonidan zabt etilmagan bo'lib, Rim imperiyasi inqirozidan keyin Shimoliy Galliyaning amalda qirolligi bo'lib qolgan Egidiyning vorisi Siagriy tomonidan boshqarilar edi. Bu viloyatning markazi Parij shahri edi. Suasson shahri yaqinidagi jangda Rim qo'shini franklar tomonidan tor-mor etildi. Siagriy vestgotlar qirolligi huzuriga qochdi, lekin vestgotlar qirolligi uni Xlodvigga tutib berdi. Xlodvig asirni o'ldirishga buyruq berdi.

Xlodvig davlat boshqaruvining barcha sohalarini o'z qo'lga oladi. Uning hokimiyati yer egaligiga va harbiy kuchga asoslangan edi. Davlatni o'z mulki kabi boshqargan. Xlodvig mamlakatni viloyatlarga bo'lgan. Ularni qirol tayinlaydigan graflar boshqargan. Graflar aholidan soliq yig'ib olar, jangchi guruhlariga qo'mondonlik, sudlarga rahbarlik qilardi. Qirollikning o'zi oliy sudya edi.

Xlodvig o'z podsholigining oxirgi davrida Luaraning janubiga ancha kirib borib, Goronna daryosigacha etdi. 507 yilda franklar Janubiy Galliyani bosib oldilar. Vestgotlar Pireney ortiga siqib chiqarildi. Xlodvig Burgundiyani ham bosib olishga

harakat qildi, lekin bu maqsadini amalga oshira olmadi, burgund qiroli saroyiga o'z ta'sirini o'tkazish bilangina cheklandi.

Xlodvig va zodagon franklar xristian dini ularga katta foyda keltirishini tushunardilar. Bu din tobe dehqonlarni xo'jayinlariga astoydil xizmat qilishga, ma'murlarga o'zsiz bo'ysunishga undardi. Shu sababli 496 yilda ruhoniy Taqvodor Remi (Remigiy) Reyns shahrida Xlodvigni cho'qintirdi. Varvar davlatlari ichida eng yirigi bo'lgan Frank qirolligi xristian dinini katolik shaklida birinchi bo'lib qabul qildi. Natijada Galliya va Rimdagi e'tiborli mahalliy ruhoniylar Xlodvigni va boshqa Frank qirollarini zo'r berib qullab-quvvatladilar.

Xlodvigning vorislari davrida tez-tez bo'lib turgan urushlarga qaramay, qirollikning chegaralarini kengaytirishni davom ettirdilar. 534 yilda Burgundiyaning, 536 yilda Provans viloyatini, 542 yilda Vestgotlarning Galliyadagi oxirgi yerlarini bosib oldilar.

VI asrning ikkinchi yarmida Frank qirolligi barcha varvar qirolliklari ichida eng katta qirollikka aylandi.

Yirik yer egaligining shakllanishi. Davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xlodvigning vorislari boshqaruvi paytida qirollar alohida xizmatlari evaziga jangchilar va yaqin hamkorlariga yirik yer mulklari benefitsiyalar taqdim etganlar. VI asr oxiridan franklarning chek yerlari dehqon oilasining sotishi yoki in'om etishi mumkin bo'lgan mulki – allodga aylanadi. Qirollar chiqargan yangi qonunlar yerni xususiy mulkka aylanishini tezlashtirdi. Qirol Xilperik (561-584) davrida yangi qonun chiqarilib, u o'g'il vorisi bo'lmasa, yerni avvalgidek jamoaga emas, marhumning qizi, singlisi yoki ukasiga o'tish huquqini tasdiqlaydi. Yerning xususiy mulkka aylanishi mulkiy tabaqalanishni tezlashtirib, yirik yer egaligining o'sishiga olib keldi.

Bunday tartibdan kam yerli oddiy, erkin franklar eng ko'p jabr ko'rdilar. Tabiiy ofatlar, tinimsiz urushlar, qarzga botib qolish, soliqlarni to'lay olmaslik va boshqa omillar ularni xonavayron qilgan edi. Natijada erkin frank o'ziga tegishli yerni boy qo'shnisiga arzonga sotishga majbur bo'lgan. Bundan tashqari, o'z qo'shiniga ega bo'lish huquqi bor bo'lgan graflar jangchilarga xizmati uchun yer berar edilar. Ular

o'z yerlarini kengaytirish maqsadida qashshoqlashib qolgan erkin franklardan sotib olardilar. Yerdan ajralgan sobiq erkin frank katta yer egalariga qaram krepostnoyga aylanadi. Yer egasi unga chek yer bergan. Krepostnoy endi ham o'zining chek yerida, ham katta yer egasining yerida ishlashga majbur bo'lgan. Chek yerda etishtirgan hosilning bir qismini feodalga soliq sifatida to'lagan. Shu tariqa feodal majburiyat shakllari bo'lgan barshchina va obrok vujudga kelgan.

«**Sali haqiqati**». Xlodvig davrida franklarning qadimgi urf-odatlarini va qirolning yangi farmoyishlari yozib qo'yilgan edi. Shu yozmalardan franklarning dastlabki qonunlar majmuasi – “Sali haqiqati” tuzildi (taxminan 500 yilda). To'plam franklarning asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganliklaridan dalolat beradi. Qonunga ko'ra yer ikki qismga: shaxsiy yerlar va jamoa yerlariga bo'lingan. Yaylov hamda o'rmonlardan esa hamma birgalikda foydalangan. Ayollarga yer berish yoki meros qoldirish ta'qiqlangan. “Sali haqiqati” odamlar o'rtasida tabaqalanish ro'y berganligini tasdiqlaydi. Chunonchi, qirol jangchilarining xuni oddiy erkin frank xunidan uch marta ko'p bo'lgan. Qonunga ko'ra o'ldirilgan urug' a'zosi uchun o'ldirgan urug' jamoaviylik asosida xun to'lagan.

Merovinglar hokimiyatining zaiflashuvi. «Yalqov qirollar». Katta yer egaligining o'sishi va shu bilan birga qirol yerlarining kamayib borishi hamda ilgari faqat qirolning o'zigagina tobe bo'lib, unga asosiy tabiiy resurslar berib kelgan erkin dehqonlarning ko'p qismining yo'q bo'lishi natijasida qirol hokimiyati tushkunlikka uchradi. Merovinglar sulolasi deb nom chiqargan Xlodvig sulolasi o'zaro urushlar natijasida ham zaiflashdi. Xlodvigning nevara va evaralari o'rtasida bo'lgan qirq yillik urush VI asrning 60-yillari oxiridan to 613 yilgacha davom etdi. Sulolaning ikki avlodi o'rtasida bo'lgan bu dahshatli va qonli kurashda ikki qirolicha ayniqsa katta rol uynadi: biri Avstraziya qirolini Sugibertning xotini Brungilda, ikkinchisi Neystriya qirolini Xilperikning xotini Fredegonda edi. 613 yilda butun qirollikda hokimiyat Xilperik va Fredengondaning o'g'li Xlotar II ga o'tdi.

Xlotar II hokimiyati kuchli hokimiyat bo'lmadi. Qirol hokimiyatining e'tibori Xlotar II ning o'g'li Dagobert I davrida (629-639) birmuncha oshdi. Dagobert franklar davlatining sharqdagi chegaralarini kengaytirishga urinib, slavyanlarga

qarshi yurishlar qildi. Leqin u o'lgandan keyin shunday bir davr boshlandiki, 639 yil bilan 751 yil o'rtasidagi butun bir davrni o'sha vaqtdagi kishilarning o'zlari ham «yalqov qirollar» davri deb atadilar.

VII-VIII asrlardagi Merovinglar faqat nomigagina qirol bo'lib, ular qo'lida haqiqiy hokimiyat yo'q edi. Avstraziyaning Pipinlar xonadonidan chiqqan mayordom gertsog Pipin II Geristalskiy 687 yilda Tertri yonida bo'lgan jangda raqibi Neystriya mayordomini tor-mor qilib, shu vaqtdan boshlab butun qirollikni bir o'zi idora qila boshladi. Ammo, shu bilan birga, u Meroving qirollarining nomigagina qolgan hokimiyatni saqlab keldi. Aslida esa Pipin Geristalskiy yangi sulolani boshlab bergan edi, bu sulola keyinchalik uning eng mashhur namoyandasi bo'lgan Karl Buyuk nomi bilan atalgan Karolinglar sulolasi deb ataldi.

VIII-IX asrlarda frank davlati. Karolinglarning idora qila boshlashi. VII asrning oxiri – VIII asrning boshlarida Frank davlati butunlay parchalanib ketdi. Pipin Geristalskiyning g'alaba qozongan bo'lishiga qaramay, Neystriya va Burgundiya hokimlari hali ham markaziy hokimiyatga bo'ysunmas edilar. Akvitaniya qirollikdan tamoman ajralib chiqdi. Reynning narigi tomonidagi qabilalar – allemanlar, frizlar, sakslar va bavarlar ham ajralib chiqdi. Janubi-g'arbda arablar xavf tug'dira boshladilar. Lekin yangi sulola ana shunday og'ir bir sharoitda qirollikning harbiy kuchlarini qaytadan tashkil etib, tashqi dushmanga zarba berishga muvaffaq bo'ldi.

Pipin Gernstalskiyning o'g'li Karl Martell («To'qmoq») mayordom-gertsog sifatida 715 yildan 741 yilgacha idora qildi. U g'ayratli va iste'dodli lashkarboshi edi. Reynning narigi tomonida frank davlatini tikladi. Bu qabilalarning hammasi franklarga yana hiroj to'laydigan bo'ldi.

Franklarning Karl Martell tomonidan takomillashtirilgan yangi qo'shini (yaxshi qurollangan, qisman professional otliq askarlar tashkil qilingan edi, piyoda askarlar ham uning ahamiyatini qisman saqlab qolgan edi) arablar bilan bo'lgan to'qnashishda juda yaxshi ish ko'rsatdi.

732 yil oktyabrida Karl Martell o'z qo'shini bilan Puatega yaqin joyda arablar bilan bo'lgan uch kunlik jangda g'alaba qozondi. Bu jangda erishgan g'alabasi uchun ham mayordom-gertsog «to'qmoq» degan laqab oldi.

Pipin Pakana va uning qirollik unvonini olishi. Karl Martellning taxt vorisi Pipin Pakana ham (741-768) avval faqat mayordom unvoni bilan yurdi. Meroving qirollari odatdagi tartib bilan biri o'rniga ikkinchisi kelib turdi, lekin ular davlatni idora qilishda hech biri qatnashmas edilar. Nihoyat, Pipin davlat o'zgarishi yasab, eski sulolani taxtdan tushirdi. Bu o'zgarish Rim papasining faol yordami bilan amalga oshirildi.

751 yilda Suasson shahrida frank zodagonlari yig'ilishida Pipin frank qirol deb e'lon qilindi. Oxirgi Meroving Xilderik III monastirga solindi, umrining oxirigacha shu yerda bo'ldi. Langobardlarni tor-mor qilib, Pipin papa Stefan II ga (752-757) Ravenna ekzarxatini va Rim viloyatini «hadya» qildi, ya'ni papaning o'rta Italiyadagi yerlarini ham o'z ichiga olgan juda katta bir hududda uzil-kesil mustaqil dunyoviy hukmdor bo'lib olishiga yordam berdi. Shu tariqa VIII asrning o'rtalarida Yevropada cherkov papa davlati vujudga keldi, bu davlat 1870 yilgacha va eng yangi zamonda ham saklanib qoldi.

Otasiga o'xshab Pipin ham Reynning narigi tomonida va Akvitaniyada urushlarni davom ettirdi. Uning davrida arablar Janubiy Galliyadan butunlay siqib chiqarildi. Pipin o'z siyosati bilan frank qirolligining ravnaq topishi uchun zamin tayyorladi. 768 yilda Pipin Pakana vafotidan keyin uning ikki o'g'li Karl va Karloman franklar qirol bo'lishdi. 771 yil Karlomanning vafotidan so'ng uning akasi Karl frank davlatining to'laqonli hukmdori bo'ldi.

Karl Buyuk imperiyasi. Karl Buyuk Karolinglar sulolasining eng atoqli namoyandasi edi (sulola ham uning nomi bilan atalgan).



Buyuk Karl

U 46 yil hukmronlik qildi (768—814). “Buyuk” nomi unga tarixchilar tomonidan 53 harbiy yurishga boshchilik qilib, yirik saltanat tuzgani, bu davlatda yangi qonunlar, maorif va madaniyatning rivojlanishiga e'tibor berganligi uchun berilgan. Uning ismidan “qirol”, ya'ni qirol unvoni kelib chiqqan.

Rim imperiyasi qulagandan keyin G'arbiy Yevropada Karl Buyuk davlatidek katta davlat dunyoga kelmagan edi: bu davlat franklardan tashqari o'nlab boshqa qabila va xalqlarni o'z ichiga olgan edi.

Buyuk Karlning harbiy yurishlari. Buyuk Karl 772 yilda dastlab Italiya hududida tashkil topgan Langobardlar qirolligiga qarshi yurish boshlagan. 774 yilda u langobardlar qiroli Dezideriyni butunlay tor-mor qildi. 776 yilda Italiya hududlari Franklar davlati tarkibiga qo'shib olindi. 778 yilda Ispaniyaga qarshi yurish qilgan. Bu davrda Ispaniyada arablar hukmronlik qilardi. Buyuk Karl oxir-oqibatda bu mamlakatning kichik bir viloyatini egallay oldi, xolos. Unga Ispan markasi deb nom berilib, keyinchalik bu viloyat Barselona grafligi deyilgan. Buyuk Karl sakslarni bo'sundirish uchun ko'p kuch sarflagan. Sakslar franklardan keyingi eng katta german qabilasi bo'lgan edi. Ular Reyn daryosidan Elba daryosigacha bo'lgan juda katta hududda yashar edilar. Sakslar urug' jamoalari bo'lib yashardi, lekin ularning orasidan boy va nufuzli zodagonlar ajralib chiqqan boshlagan edi. Franklar sakslarni bo'sundirmasdan turib, Boltiq dengiziga chiqqan olmasdi. Dengiz savdosidan tushadigan katta bojga ham egalik qilolmasdi. Sakslarga qarshi olib borilgan urush 30 yildan ortiq (8 marta yurish qilgan) davom etdi (772-804). 785 yilda Buyuk Karl tomonidan Saksoniya egallandi va uning qiroli Vidukind cho'qintirildi. Sakslarni bo'sundirishda Franklar davlatiga Rim cherkovi ham yordam bergan. Zodagonlarning xoinligi natijasida Karl sakslarni o'ziga itoat qildirdi. 788 yilda Bavariya ham bo'sundirildi. 796 yilda o'n yillik harbiy harakatlardan so'ng Karl avarlar hududlarini ham egalladi.

Istilolar natijasida Karl Buyuk zamonida Frank davlati juda kengayib ketdi. Uning chegaralari g'arbda Ebro daryosi, Pireneya tog'laridan Atlantika okeanigacha,

sharqda Elba va Dunay daryolari va Adriatik dengizi qirg'oqlarigacha, shimolda Friz (yoki Nemis) va Boltiq dengizlarigacha, janubda deyarli janubiy Italiyagacha bordi. Sal ilgariroq vujudga kelgan Papa davlati ham Karl Buyuk davrida haqiqatda unga bo'ysunuvchi vassal davlat bo'lib qoldi.

Buyuk Karl imperiyasi. Rim Papasi 800 yilda Rimdagi Avliyo Pyotr ibodatxonasida Buyuk Karlga imperatorlik tojini kiydirgan. Shu davrdan boshlab u rimliklar imperatori deb atala boshlangan. O'sha davrning boshqa mashhur imperiyalari – Vizantiya imperiyasi va Arab xalifaligi ham tez orada Buyuk Karl imperatorligini tan olgan. Karlning muhrida: “Yangi Rim imperiyasi” so'zlari zarb qilindi. Aslida esa franklar imperiyasi faqat nomi bilangina Rim imperiyasini eslatardi.

Buyuk Karlning farmonlari faqat yirik zodagonlar, yer egalari yilda ikki marta chaqiriladigan yig'inida qabul qilingan. Karlning doimiy poytaxti ham bo'lmagan. Uning davrida franklarda an'anaviy xalq lashkari o'rnida otliq ritsarlar qo'shini vujudga keladi. Ritsarlar bo'linmalarida faqat boy zamindorlar, ya'ni jangovar ot va qurol-aslahalar sotib olishga imkoniyati bo'lgan kishilar xizmat qilgan. Hukmdorlar ritsarlarga ot, qurol-aslahasini tartibda saqlashi, urushlar paytida oilasini ta'minlashi uchun yer-mulk in'om etgan. Bu yer-mulk feod harbiy xizmat evaziga taqdim etilib, keyinchalik merosiy mulkka aylangan. Feodning egasi feodal bo'lib qoladi.

Buyuk Karl imperiyasi ilk feodal davlat edi. Bu davlat tashkil topayotgan katta yer egalari – feodal toifasining istilo qilingan barcha hududlarida yer bosib olish va erkin odamlarni qaram dehqonlarga aylantirishlariga yordam berardi.

Qirol barcha feodallarning boshlig'i hisoblanardi. U feodallar o'rtasidagi janjallarni hal qiluvchi qozi bo'lish bilan birga mamlakatga dushman hujum qilguday bo'lsa, qo'shinga boshchilik qilardi. Qirol gertsog va graflarning senori edi. Gertsog va graflar ixtiyorida yuzlab qishloqlar, katta-katta qo'shin gurhlari bo'lardi. Gertsog unvoni avvaldan merosiy bo'lsa, graflarni imperator tayinlagan. Baronlar gertsog va graflarning vassallari bo'lib, ulardan bir pog'ona past turardi. Odatda baronlarning 20-30 tadan qishlog'i bo'lar edi. Baronlar mayda feodallarning, ya'ni ritsarlarning

senorlari hisoblanardi. Ammo ritsarlarning vassallari yo'q edi. Qirolning vassali bo'lmagan feodallar uning buyruqlarini bajarishga majbur emasdi. Qirollikda "Vassalning vassali mening vassalim emas" degan qoida mavjud edi. Karl o'z davlatining chegaralarini musthamkamlash maqsadida markalar (chegara harbiy viloyati) tuzib, ularni markgraflar boshqargan.

Imperiyaning parchalanishi. Franklar imperiyasi uzoq yashamadi. Franklar istilo qilgan qabilalar va xalqlar o'z urf-odatlarini davom ettiraverdilar va turli tillarda gaplashaverdilar. Ular faqat qurol kuchi bilangina vaqtincha birlashgan edi.

Bu davrda feodallarning mavqei yanada kuchayib borgan. Chunki Buyuk Karl bora-bora harbiy xizmatni faqat feodallar imtiyoziga aylantirgan. Shu sababli qirol jamiyatning asosiy tayanchi bo'lgan erkin franklar madadidan mahrum edi. Imperator tomonidan feodallarga immunitet yorliqlarining berilishi ularning mavqeini yanada oshirgan. Natijada ular markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'yganlar. 814 yilda Buyuk Karl vafot etgach, taxt vorislari o'rtasida o'zaro kurash avj olgan. Bu omillar markaziy hokimiyatni tobora zaiflashtirgan.

Verden shartnomasi. Oxir-oqibatda Buyuk Karlning uch nabirasi (Lotar, Lyudovik Nemis va Karl) 843 yilda Verden shahrida imperiyani bo'lib olish haqidagi shartnomani imzolaganlar. Buning natijasida imperiya amalda bir-biridan mustaqil uch hududga bo'lingan. Bular esa kelajakda Fransiya, Germaniya va Italiya kabi yirik davlatlarning shakllanishiga asos bo'lgan edi. Shu tariqa Buyuk Karl asos solgan imperiya parchalangan.

Merovinglar sulolasi: Xilderik I (457-481), sulolaning amaldagi, haqiqiy asoschisi; Xlodvig I (481-511), Xilperik I (561-584, markazi Suasson bo'lgan franklar yerining bir qismida hukm surgan); Sigebert I (561-575, Avstraziyada); Xlotar II (584-629, Neystriyada-613 y.gacha); Dagobert I (629-639); Xilderik III (743-751; Pipin Pakana tomonidan taxti egallangan). Dagobert I vorislarini «dangasa qirollar» deyishgan, hokimiyat amalda mayordomlar qo'lida bo'lgan.

Karolinglar sulolasi (Frank qirollari va imperatorlari): Pipin Pakana (751-768), Buyuk Karl (768-814 yillarda qirol; 771 yilgacha ukasi Karloman bilan birgalikda; 800-814 yillarda imperator), Lyudovik I Taqvodor (814-840 imperator).

Tayanch soʻz va iboralar: Franklar, sali franklari, ripuar franklari, Merovinglar, Karolinglar, Xilderik, Xlodvig, Taqvodor Remi, benefitsiyalar, allod, krepostnoy, “Sali haqiqati”, yalqov qirollar, Akvitaniya, allemanlar, frizlar, sakslar, bavarlar, “Toʻqmoq”, Buyuk Karl, gertsog, graf, baron, senor, vassal, marka, markgraflar.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Frank qabilalarining boshqa german qabilalaridan farqli tomonlari nimada edi?
2. Franklarda katta yer egalari qanday paydo boʻldi?
3. Franklar xristian dinini qabul qildish bilan qanday yutuqlarni qoʻlga kiritdi?
4. “Sali haqiqati” haqida qanday ma'lumotlarga ega boʻldingiz?
5. Merovinglar hokimiyatining zaiflashuviga qanday omillar sabab boʻldi?
6. Buyuk Karl davrida Frank davlatining hududi qayerlarni oʻz ichiga olgan edi?
7. Buyuk Karl imperiyasida boshqaruv tizimi qanday edi?
8. Imperiyaning parchalanib ketishiga olib kelgan sabablar nimalardan iborat?

Glossariy:

Benefitsiy – senorning oʻz vassaliga harbiy xizmati evaziga in'om etgan yer-mulk.

Senor – oʻrta asrlarda Gʻarbiy Yevropada ixtiyorida qaram dehqonlari va mayda feodal-vassallari boʻlgan yer egasi.

Vassallik – bir feodalning boshqa feodalga boʻysunish tartibi, harbiy xizmatkori.

Allod – yerga toʻla egalik qilish, meros boʻlib oʻtadigan mulk.

Tungin – franklarning yuzlik yigʻinlari boshligʻi, yuzboshi.

Gertsog – saylangan harbiy yoʻlboshchi, keyinchalik merosiy qabila boshligʻi.

Graf – qirol tayinlagan amaldor, viloyat hokimi.

Marka – chegara harbiy viloyati.

Markgraf – chegara viloyati hokimi.

Immunitet yorlig'i – feodallar yer-mulkining daxlsizligi haqidagi hujjat.

Krepostnoy – qaram dehqon.

Arxiepiskop – bosh episkop.

Ushr – dehqonlarning hosilning va urchitilgan chorvaning 1/10 qismini cherkovga berish majburiyati.

Barshchina – qaram dehonning feodal yerini ishlab berish majburiyati.

Obrok – qaram dehqonning o'ziga berilgan chek yerda etishtirgan hosilning feodalga soliq sifatida to'laydigan qismi.

Qirollik davlati – oliy hokimiyatni meros tariqasida o'z qo'lida tutuvchi hukmdor boshqaradigan davlat.

25-§. VI–XI asrlarda Vizantiya imperiyasi

Sharqiy Rim imperiyasi. G'arbiy Rim imperiyasi German qabilalari tomonidan istilo qilingandan keyin ham Rim imperiyasining Sharqiy qismi yana uzoq vaqt hukm surdi. U hatto o'zini rasmiy suratda Rim (Romeya) imperiyasi deb atadi. Lotin tili yana uzoq vaqtgacha Sharqiy imperiyasining davlat tili bo'lib qoldi. Lekin Sharqda xalq, yunon tilida gaplashardi. «Rim imperiyasi» degan nom bora-bora yo'qolib, «Vizantiya imperiyasi» degan nom yuritila boshladi (imperiyaning poytaxti qadimgi vaqtda Vizantiya deb atalgan bo'lib, 330 yilda Konstantin Buyuk unga Konstantinopol deb nom bergan edi). Ba'zi olimlar xuddi shu yilni Vizantiya imperiyasiga asos solingan yil deb hisoblaydilar. Lekin tarixchilarning ko'pchiligi Vizantiya imperiyasi 395 yilda, ya'ni Feodosiy I o'lgach, imperiya uning o'g'illari o'rtasida taqsimlanib, sharqiy yarmi Konstantinopol shahri bilan birga Arkadiyga o'tgan vaqtda tuzilgan deb hisoblaydi. Bolqon yarim orolidan va Egey dengizidagi ko'pdan-ko'p orollardan tashqari, Vizantiya imperiyasiga yana Kichik Osiyo, Suriya bilan Falastin, Misr, Mesopotamiya bilan Zakavkazening bir qismi, Qrimning janubiy qirg'oqlari kirar edi.

Imperiyaning sharqiy qismi g'arbiy qismiga qaraganda ancha mustahkam bo'lib chiqqan ekan, buning asosiy sababi shuki, undagi iqtisodiy munosabatlar g'arbiy qismidagiga qaraganda ancha taraqqiy topgan va ancha mustahkam edi. Bu yerda Misrdagi Aleksandriya, Suriyadagi Antioxiya, Kichik Osiyodagi Smirna va Efes, Bolqon yarim orolidagi Konstantinopol va Fessalonika kabi rivoj topgan savdo-sotiq markazlari bor edi. Osiyo Sharqi bilan olib borilgan qizg'in savdo ishlari uzilmadi, balki hatto kuchaydi, bu savdo Osiyoda III asrda kuchli yangi fors podsholigi – Sosoniylar podsholigi vujudga kelgandan keyin ayniqsa kuchaydi. Sharqiy Rim imperiyasida quldorlik tuzumining o'zi ham G'arbiy imperiyadagidek keskin tushkunlikka uchramadi. Buning sababi avvalo shuki, imperiyaning sharqiy viloyatlarida, ayniqsa qishloq xo'jaligida quldorlik G'arbdagidek katta rol o'ynamadi. Sharqda qullar bilan bir qatorda qul bo'lmagan toifalar, ya'ni shaharlardagi erkin

hunarmandlar va qishloqlardagi jamoachi deqonlar katta o'rin tutar edi. Bu jamoachi dehqonlar davlat dehqonlari bo'la turib, qaramlik holatiga tushib qolgan bo'lsalarda (masalan, Suriya va Misrdagi «podsho dehqonlari») har holda ularning o'z yerlari, shaxsiy xo'jaligi bor edi, shunday qilib, ular qullardan anchagina farq qilar edilar. Hiyla ko'p sonli mustaqil dehqonlar qisman qadimiy ibtidoiy tuzumni saqlab qolgan bo'lib, Kichik Osiyo va Bolqon yarim orolida istiqomat qilar edilar. Ellinizm madaniyatining o'zi ham yunon xalqining Yaqin Sharqdagi turli xalqlar bilan ko'p asrlar davomida qilgan aloqasining natijasi bo'lib, Vizantiyaning mustahkamligininig ma'lum darajada saqlanib turishiga imkon bergan sharoitlardan biri bo'ldi. Antik yunon tilidan farq qiladigan yunonlarning ellin tili Sharqdagi boshqa xalqlar tillarining ko'pgina belgilarini o'z ichiga olganligi, shahar tuzilishi o'sha qadimiy yunon shahar-davlat tuzilishining anchagina tomonlarini o'zida saqlab qolganligi, Yaqin Sharqdagi turli xalqlarning turlicha diniy e'tiqodlari aralash-quralash bo'lib ketib, sharqiy xristian diniga ham ta'siri o'tganligi, bular o'rtasida qadimdan beri savdo aloqalarining mavjudligi – mana shularning hammasi O'rta dengizning sharqiy qismida yashovchi aholini bir-biriga yaqinlashtirdi, alohida bir yunon-Vizantiya xalqining vujudga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ammo ayrim viloyatlarning etnik, maishiy, diniy tafovutlari tamoman yo'q bo'lib ketmagan edi, Vizantiyaning bundan keyingi butun bir tarixida bu narsa keskin sezilib turdi.

Sharqiy imperiyaning yuqorida qayd qilib o'tilgan xususiyatlari natijasida uning varvarlarga bo'lgan munosabatlari ham boshqacha bir harakterga ega bo'ldi. Vizantiya G'arbiy imperiyaga o'xshab varvarlar tomonidan bosib olinmadi ham, yashashdan to'xtamadi ham. Jumladan, Vizantiya german qabilalari – vestgotlar, ostgotlarning va boshqa qabilalarning hujumlariga bardosh berdi, bu qabilalar esa Vizantiyadan g'arb tomon kirib borib, u yerda o'zlarining varvarlik qirolliklarini tuzdilar. Vizantiya imperiyasida hali V-VI asrlarda ham quldorlik tuzumi saqlanib qolgan edi. VI asrda Vizantiya hatto bu tuzumni varvarlar tomonidan bosib olingan g'arbiy viloyatlarda tiklashga harakat qildi. Biroq undan keyingi VII-VIII asrlarda Vizantiya qadimgi Rimga xos bo'lgan ijtimoiy va siyosiy an'analarni o'zida saqlab, ilgariyidek «Romeya davlati»ligicha, qolib kelayotgan bo'lsada, uning ijtimoiy

tuzumi feodalizm tomon tezlashib bormoqda edi. Oqibat-natijada Vizantiya ham, «varvarlashtirilishdan» qochib qutulmadi, bu narsa Bolqon yarim oroliga juda ko'pdan-ko'p slavyan qabilalarining kelishida namoyon bo'ldi. Slavyanlar qisman Bolqon yarim orolidagi bir qancha hududlarni bosib olib, bu yerda (G'arbda bo'lgani singari Bolgariya, Serbiya, Xorvatiyani barpo qildilar), kisman Vizantiya qo'lida saqlanib qolgan hududlarga dehqon-mustamlakachi bo'lib qochib keldilar va bu yerga o'zlari bilan birga ibtidoiy-jamoa tuzumi tartiblarini olib keldilar. Shunday qilib, shuni e'tirof etish mumkinki, oqibat-natijada germanlar G'arbiy Rim imperiyasiga nisbatan qanday rol o'ynagan bo'lsalar, slavyanlar ham Vizantiyaga nisbatan (ozgina farq bilan) xuddi shunday rol o'ynadilar. U yerda ham, bu yerda ham varvarlarning kelishi quldorlik tuzumining qulashiga va ijtimoiy feodal munosabatlarning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilishiga yordam berdi.

Yustinian davrida Vizantiyaning kengayishi. Vizantiya hali G'arbdagi varvar qirolliklariga, shimoldagi slavyan qabilalariga va O'rta Sharqda yangi fors (Eron) podsholigiga keskin ravishda qarama-qarshi turuvchi quldorlik «Rim imperiyasi» mavjud bo'lgan davrda, VI asrda imperator Yustinian hukmronlik qilgan vaqtda eng katta muvaffaqiyatga erishdi.



Yustinian

Yustinian 527—565 yillarda hukmronlik qildi. U atoqli ma'mur edi, qonun chiqaruvchi edi, u imperiyaning sharqiy chegaralarinigina emas, balki g'arbiy chegaralarining ham anchagina qismini tiklagan kishi edi.

U o'zidan oldin o'tgan Feodosiy sulolasi o'rniga kelgan yangi sulolaning vakili edi.

Uning amakisi imperator Yustin I ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, illiriyalik savodsiz bir dehqon bo'lib, harbiy xizmatda shuhrat qozonganda, armiya uni imperator qilib ko'targan ekan. U Yustinianni o'ziga yordamchi qilib olgan, Yustinian amakisining aksicha rim-vizantiya ta'limini juda yaxshi bilgan.

Vizantiya varvarlarning (germanlar, slavyanlar va boshqalarning) hujumini qaytarib, o'zi ularga qarshi hujumga o'tgan bir davrda Yustinian imperatorlik qila

boshladi. Yustinian o'z oldiga imperiyaning ilgarigi g'arbiy chegaralarini tiklashni vazifa qilib qo'ydi. Ilgarigi G'arbiy imperiya hududida yaqindagina vujudga kelgan varvar qirolliklarining tarqoq va kuchsizligidan foydalanib turib, Yustinian o'z rejasini qisman amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Uning sarkardalari Velizariy va Narses Shimoliy Afrikadagi Vandal qirolligini (534 y.), Italiyadagi Ostgot qirolligini (555 y.) va Ispaniyaning janubiy qirg'og'ini (Betikann) bosib oldi.

Shunday qilib, O'rta dengiz vizantiyaliklar uchun yana erkin harakat qiladigan dengiz bo'lib qoldi. Zamondoshlar nazarida imperiya go'yo Avgust va Trayan davridagi «baxtli kunlarga» yana qaytgandek tuyular edi. Lekin yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, gotlarga qarshi olib borilgan urush natijasida butun Italiya tamomila xarob bo'ldi va bu urush imperiyaning o'zini ancha mablag' sarflashga majbur etdi.

Ikkinchi tomondan, Ispaniyani bosib olib, ularni Vizantiyaga qo'shib olishning o'zi vaqtinchalik bo'lib chiqdi. Aslida O'rta dengizning Sharqiy qismi bilan G'arbiy qismi o'rtasidagi iqtisodiy aloqa bu vaqtda to'xtab qolgan edi. G'arbiy german qirolliklari umuman olganda Vizantiyani G'arbda bosib olgan yerlarning ko'pchilik qismidan siqib chiqarishga qurbi etar edi. Shu bilan bir vaqtda Sharqning o'zida ham Vizantiyaning dushmanlari ko'p edi.

Yustinian o'z davlatining shimoliy chegaralarini qisman xunlar hujumidan, qisman slavyanlar siquvidan himoya qilishga juda zo'r berdi. Bolqon yarim orolida bir-biriga yondosh ravishda uch qator qal'alar qurildi. Ammo bu mudofaa to'siqlari slavyanlarning Bolqon yarim oroliga qarab siljishlarini tugata olmadi. Slavyanlarning ko'pi imperiya yarim orolga ittifoqchi – federatlar sifatida joylashtirishga majbur bo'ldi. Boshqalari hatto Bolqon yarim orolining janubida – Makedoniyaga va Egey dengizi bo'ylariga kolonist-yer egalari sifatida joylashtirildi. Yustinian imperiyaning Qrimning janubiy qirg'og'idagi va qisman, Zakavkazedagi yerlarini qaytarib oldi. Lekin u Mesopotamiyaning bir qismini Eron shohiga berishga va sulh tuzilganidan keyin unga katta-katta pul to'lab turishga majbur bo'ldi.

Shunday qilib, Yustinianning ulug' davlat tuzish siyosati bir qadar muvaffaqiyatli natijalar berdi, xolos. Shunday bo'lsada, uning vaqtida imperiyaning

chegaralari ancha kengaydi. Keyingi vaqtlarda Vizantiya imperiyasi bunday yutuqlarga hech bir erisha olmadi.

Yustinnanning qonun chiqarish faoliyati. Yustinian podsholik qilgan davrda Vizantiyaning ichki tarixida juda katta voqealar yuz berdi. Bu voqealardan eng avval Yustinianning qonun chiqarish sohasidagi faoliyatini ko'rsatish kerak. U o'z podsholigining boshlanish paytidayoq Rim imperatorlarining ilgari nashr qilingan hamma qonunlarini bir qilib to'plab bosib chiqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Eng atoqli huquqshunoslardan iborat ikki komissiya Tribonian rahbarligida Rim qonunlarini to'plab tartibga solish ustida juda katta ish olib bordi. Bu komissiyalarni 528 – 534 yillar mobaynida olib borgan ishi natijasida «fuqarolik huquqlari to'plami» (Corpus furis civilis) vujudga keltirildi, bu to'plam Rim imperiyasidagi butun qonunlarni yakunlovchi eng katta yuridik yodgorlik bo'ldi. To'plam to'rt qismdan iborat edi: 1) 12 tomlik Yustinian kodeksi – Rim imperatorlarining qonunlari to'plami; 2) Digestlar – bu 50 kitob bo'lib, Rim qonunlarini sharhlagan mashhur rim huquqshunoslarining asarlaridan olingan parchalarni o'z ichiga olgan edi; 3) Institutsiyalar – sudyalarning va o'quvchi-huquqshunoslar uchun qisqacha yuridik qo'llanma (bir kitob); 4) Novellalar – Yustinianning kodeksiga kirmagan yangi qonunlaridan (535 yildan to'uz podsholigining oxirigacha) iborat edi.

Yustinianning qonunlar to'plamida, bir tomondan quldorlik tuzumi alomatlari («barcha odamlar erkin kishilarga va qullarga bo'linadi») va ikkinchi tomondan, vujudga kelayotgan feodal munosabatlarning alomatlari (kolonat to'g'risidagi qonunlar qullarni cheklanmagan miqyosda bo'shatish to'g'risidagi yangi qonunlar) aks etdi. To'plamda imperator hokimiyati absolyut hokimiyat degan g'oya aniq bayon qilindi («imperator irodasi – qonun manbaidir»).

Yustinian to'plamida xususiy mulkni himoya qilishga va Rim imperiyasi bilan Vizantiya uchun xos bo'lgan oddiy tovar xo'jaligi sharoitidan kelib chiqadigan har turli mulkiy muomalalarni rasmiylashtirishga katta o'rin berildi. To'plamning keyingi ikki xususiyati (kuchli markaziy hokimiyat g'oyasi va mufassal ishlab chiqilgan xususiy mulk huquqi) bu to'plamning keyingi vaqtlarda, o'rta asrlarning ikkinchi

yarmida G'arbiy Yevropada juda ham shuhrat qozonishiga sabab bo'ldi. Yustinianning «Fuqarolik huquqlari to'plami»ni Yevropa huquqshunoslari sinchiklab o'rgandi, XII asrdan boshlab, ayniqsa XIII-XIV asrlarda G'arbiy Yevropaning turli mamlakatlarida qirollar chiqargan qonunlarda Rim qonunlaridan foydalanilganligini ko'rish mumkin.

Yustinian qonunlar to'plamini chiqarishidan maqsad quldorlik ishlab chiqarish usulining yemirilishi juda tezlashib borayotgan sharoitda quldorlik davlatini saqlab qolish edi; bu qonun jumladan, markazdagi va joylardagi hokimiyat vakillariga xalq ommasining inqilobiy chiqishlari bilan kurashda qurol bo'lib xizmat qilar edi. Ayni Yustinian dayarida Konstantinopolda va turli viloyatlarda bir necha bor katta-katta xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tgan edi. 532 yilda Konstantinopolda bo'lib o'tgan qo'zg'olon ayniqsa kuchli bo'ldi. Qo'zg'olon ko'tarilishiga eng asosiy sabab imperator amaldorlarining, ayniqsa Yustinianning erkatoyi – Konstantinopol hukmdori bo'lib turgan Ioann Kappadokiyskiyning xazinani talashi, poraxo'rliigi va shu xildagi suiste'mollari sabab bo'ldi.

«**Nika**» **qo'g'oloni**. Qo'zg'olon 532 yil 11 yanvarda Konstantinopol sirki (ippadromi) da imperator huzurida boshlandi, «Yashil» deb ataladigan sirk muxolifatchi partiyalaridan biri aholi nomidan shikoyat yozib, unda yuqori mansabdor amaldorlarni jazolash talab qilingan edi. Yustinian buni rad etib, jahl bilan ippadromni tashlab chiqib ketdi. Bunga javoban qo'zg'olon ko'tarilib ketdi. Qo'zg'olonchilar «Nika» (yunoncha – «g'alaba qozon!» demakdir) degan shior ko'tardilar. Qo'zg'olon butun poytaxt va uning atrofiga yoyildi. Yustinian nochor ahvolga tushib qoldim, deb o'ylab, u hatto Konstantinopoldan qochib ketmoqchi ham bo'ldi. Qo'zg'olon besh kun davom etib, Yustinianning sarkardasi Velizariy tomonidan dahshatli shafqatsizlik bilan bostirildi. 30 mingtacha kishi o'ldirildi.

«Nika» qo'zg'oloni qatnashchilarining tarkibi juda xilma-xil edi. Bir tomondan, unda Konstantinopolning va uning yon-atrofining xalq ommasi qatnashdi, bu omma imperiya amaldorlarining jabr-zulmiga qarshi bosh ko'targan edi. Ikkinchi tomondan, harakatning tashkilotchilari aristokratlar bo'lib, ular yangi suloladan va Yustinianning o'zining mustabid hokimiyatidan norozi edilar. Harakatda qatnashgan sirk

guruhlariniig o'zi – «yashillar» va «ko'klar» deb atalgan guruhlar sport tashkilotlari bo'lib, shu bilan bir vaqtda muhim siyosiy rol o'ynar edilar. «Ko'klar»ni Yustinian saroy ahli qo'llab-quvvatlardi, «yashillar»ning esa aristokratik muxolifatchilar orasida juda kuchli homiylari bor edi. Shu bilan bir vaqtda «ko'klar» ham, «yashillar» ham Konstantinopoldagi ancha keng demokratik tashkilotlar bilan – dimlar bilan bog'langan edi. Dimlar eski vaqtdagi shahar o'z-o'zini idora qilish boshqarmasinnng qoldig'i bo'lmish o'ziga xos tuman xalq uyushmalari bo'lib, Yustinian vaqtda hali ancha e'tibori bor edi va hukumat ham, aristokratlar muxolifati ham ular bilan hisoblashishga majbur edi.

Ma'muriy va moliyaviy zulmning kuchayishi. 532 yil voqealari Yustinianning ichki siyosatiga katta ta'sir qildi. Yustinian keyingi vaqtlarda ham xalq ommasining bosh ko'tarishidan hadiksirab yurdi. 532 yildan keyin dimlar hiyla darajada qayta tuzildi. Konstantinopolda va boshqa yirik shaharlarda politsiya hokimiyati kuchaytirildi. Shu bilan bir vaqtda Yustinian yirik senator zodagonlarga qarshi qattiq kurash olib bordi. U, magnatlarning juda ko'p yerlarini musodara qildi. Imperator farmonlar chiqarib, erkin kishilarning mahalliy katta yer egalari homiylikiga o'tishini man qildi. Kuchli ijtimoiy tayanch topish maqsadida Yustinian davlat pravoslav cherkoviga, yepiskoplar va monastirlarga har jihatdan homiylik qildi, ularga juda ko'p yerlar berdi. Eski zodagonlarga qarama-qarshi ravishda Yustinian harbiy xizmatidagi o'rta darajali toifalarga ko'proq tayandi, musodara qilingan yerlarning ko'p qismi ularga berildi.

Ma'muriy davlat apparatini mustahkamlash senator aristokratlar muxolifatiga va inqilobiy xalq, harakatiga qarshi kurashning vositalaridan biri edi. Yustinian boshqarishni qattiq, markazlashtirdi, hatto joylardagi ikkinchi darajali amaldorlar ham vazifaga imperator farmoni bilan tasdiqlanar edi. Hukumat amaldorlar o'zlarining oladigan maoshi bilan yashashlari va aholidan pora olmasliklari kerak, deb bir necha bor rasmiy e'lon qilishiga qaramay, poraxo'rlik yo'qolmadi. Shuningdek, imperatorning amaldorlar zodagonlarni va boylarni erkalatib yubormasin degan farmoni ham amalga oshmay qolib ketdi.

Yustinian hukumati davlat moliyasiga ham katta e'tibor berdi. Uning zamonida aholidan olinadigan soliqlar bir necha hissa ko'paydi. Imperator xazinasi aholidan yer, jon, hunarmandlik (hunarmandlardan) va savdo soliqlari solish yo'li bilan juda katta mablag'lar olar edi. Yustinian ipak, tuz va hokazolarga imperator monopoliyasidan keng foydalandi. Maxsus davlat ishxonalari ham bo'lib, bularda imperatorning erkak va ayol qullari ishlar edi. Saroyning zeb-ziynatlariga, ko'pdan-ko'p amaldorlarni va armiyani saqlash, dang'illama imoratlar solishga (bularni davlatning o'zi uyushtirar edi) bu mablag'larning hammasi sarf qilinar edi. Moliyaviy zulm mamlakatning iqtisodiy hayotiga juda yomon ta'sir qildi va xalq ommasining vayron bo'lib ketishiga sabab bo'ldi, hukumatning juda qattiq diktaturasi xalq ommasini g'oyaviy jihatdan ham ezar edi. Yustinian hukumati shu mahalgacha ham uncha-muncha saqlanib qolgan ma'jusiylarni ta'qib qilib, ularning falsafa maktablarini yopib qo'ydi. Hukmron pravoslav cherkovining ta'limotiga qo'shilmovchi yeretiklar juda keskin ta'qib qilindi. Bularning hammasi aholining juda keng doiralarda (ayniqsa separatchilik kayfiyatidagi chekka viloyatlarda) qattiq norozilik tug'dirdi va aholining bir qismini Eronga va boshqa qo'shni mamlakatlarga chiqib ketishiga sabab bo'ldi. Shaharlarda shaharliklarining ba'zi joylarda dehqonlarning g'alayonlari, qullarning asirlikdan qochishlari, «til biriktirishlari» tarqoq holda bo'lsada, Yustinian podsholik qilgan davrda to'xtamay davom qilib turdi, podsholikning oxirlarida esa bu narsa yanada avj olib ketdi.

Yustinian zamonidagi qurilish. Yustinian zamonida davlat mablag'larining hiyla qismi qurilish ishlariga ketdi. Yustinian yuzlab qal'a va yuzdai ko'p maydaroq istehkomlar qurdirdi. Uning zamonida juda ko'p ijtimoiy harakterdagi inshootlar ham bino qilindi – vodoprovodlar, yo'llar, hammomlar, teatrlar, har turli hukumat binolari qurildi. Bu hukumat binolari ichida saroy va ibodatxonalar katta o'rin oldi.

Ilk Vizantiya arxitekturasi orasida eng muhimi ayo Sofiya ibodatxonasi bo'lib, u Yustinian tomonidan 532 –538 yillarda qurildi, bu ayo Sofiya ibodatxonasida ilk Vizantiya arxitekturasi uslubining xususiyatlarni juda yaxshi aks etdi.



Sofiya ibodatxonasi

Ayo Sofiya ibodatxonasi asosan keyingi imperiya davridagi rim hukumat binolari tipida, ya'ni bazilika tipida qurilgan bo'lib, antik arxitektura belgilarini (ichki ustunlar), shuningdek, sharq me'morligi belgilarini (juda ko'p oltin bezaklar, binoga hashamat bergan muhtasham gumbaz va hokazolar) o'zida aks ettirdi. Ibodatxonaning ichkarisidagi koshinkor tasvirlar rang-barang sun'iy qimmatbaho toshlardan nihoyat darajada badiiy bir tarzda ishlandi. Ayo Sofiya ibodatxonasining mustahkam ishlanganligi kishini hayratda qoldiradi. Bir necha martalab zilzila bo'lishiga qaramay, bu bino hozirgi vaqtgacha saqlanib kelyapti va u jahon arxitekturasiniig ajoyib tarixiy yodgorliklaridan biridir.

VI asrda Vizantiya madaniyati. Ayo Sofiya ibodatxonasi singari mashhur yodgorlik qurilishida o'z ifodasini topgan yuksak arxitektura san'ati Vizantiyaning umumiy madaniyati o'sha davrda qanday yuksak bo'lganligini ko'rsatuvchi dalillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bunday monumental badiiy yodgorlik qurilganligining o'zi mohir usta, matematiklar, muhandislar, rassomlar bor bo'lganligini ko'rsatadi. Vizantiyaning VI asrdagi gumanitar asarlar yaratganligini bir qancha yirik olim va yozuvchilarning nomlaridan bilish mumkin, ularning asarlari bizning zamonamizgacha etib keldi. Yustinian vaqtidagi yirik tarixchi Prokopiy Kesariyskiy buning misolidir. Prokopiy Yustinianning podsholik qilishiga oid bir qancha tarixiy asarlar yaratdi, jumladan, «Urushlar tarixi» (forslar, gotlar va boshqalar bilan), «Qurilishlar», «Sirli tarix» kabi asarlar yaratdi. Prokopiy asarlarida qimmatli materiallar to'plangan, unda Vizantiyaning bir o'zining emas, hatto uning yon qo'shnilarini, jumladan, VI asrdagi slavyanlarni, ostgotlarni, vandallar va boshqalarni ham ta'rif-tavsiflab bergan. O'zining rasmiyat uchun yozgan asarlarida Yustinianning siyosatini to'la ma'qullab uni sharaflagan. Prokopiy o'zining «Sirli tarix»ida aksincha podsholik davrining sirli, qorong'i tomonlarini ochib tashlagan, ayniqsa Yustinian siyosati natijasida soliqlarning og'irlashib, xalq ommasining tobora qashshoqlashib ketganligini qayd qilgan.

Vizantiyaning VI asrda o'tgan yana bir yirik tarixchisi Agafiy edi. Uning «Yustinianning podsholik qilishi» degan asari Prokopiy asarlariga ancha muhim

qo'shimchalar kiritib, ularni to'ldiradi, tuzatadi, o'rni bilan uning bergan ma'lumotlarini tasdiqlaydi.

Vizantiyaning VI asrdagi eng yirik olimlari orasida aniq fanlar bilan shug'ullangan tibbiyot olimi Aleksandr Trallskiy va Pavel Egin kiyni, matematik-mexaniklardan Isidor Miletskiy va Anfimiy Trallskiy (bular ayo Sofiya ibodatxonasiining asosiy quruvchilari bo'lgan), geograflardan Kozma Indikoplavtni ko'rsatish mumkin, Indikoplavt asarlarida geografik noaniqliklar anchagina ko'p bo'lishiga qaramay, u Afrika va Hindiston, Qizil dengiz va Hind okeani to'g'risida bir qancha qimmatli materiallarni o'z ichiga olgan. Uning koinotga nisbatan geotsentrik qarashlari o'rta asr kishilarining geografiya to'g'risidagi tasavvurlariga (XV asr oxirlariga qadar) juda katta ta'sir ko'rsatgan.

VI asrning ikkinchi yarmida va VII asrda Vizantiyaning inqirozga uchrashi. Yustinianning podsholik qilishi sirdan qaraganda gullab-yashnayotgandek ko'rinsa ham, xalq ommasi uchun juda og'ir bo'ldi. Juda ko'p marta ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlari, ayniqsa 532 yilgi qo'zg'olon buning yorqin dalilidir. Keksa imperator (84 yoshida) o'lganda, uning vorisi, Yustin II juda og'ir ahvolda qoldi. Yustin podsholigining so'nggi yillarida soliqlar yanada ko'proq oshib ketganligiga qaramay, davlat xazinasini bo'm-bo'sh edi. Og'ir soliqlardan xonavayron bo'lgan aholining joylarda soliq to'lashdan bosh tortish hollari tez-tez yuz berib turadigan bo'ldi.

VI asrning birinchi yarmi bilan VII asrning birinchi yarmi o'rtasida Vizantiyaning ijtimoiy tuzumidagi ziddiyat ayniqsa avj olgan edi. Bu vaqtda Vizantiyadagi quldorlik tuzumining emirilayotganligi ochiq ko'rinib turgan edi, qishloq xo'jaligida, hunarmandchilikda qo'l mehnatini erkin mehnat tobora siqib chiqarayotgan edi. Shunday bo'lsa ham qulchilik tamoman tugatilmagan edi. Yangi, ancha progressiv bo'lgan feodal munosabatlar nisbatan sekinlik bilan tarkib topib kelayotgan edi va buning natijasida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi to'xtalib qolmoqda edi. Buni, masalan, Bolqon yarim orolida va Kichik Osiyo viloyatlarida bir vaqtlar juda serhosil bo'lgan yerlarning ancha ko'p qismi endilikda bo'm-bo'sh, qovjirab yotganligidan ko'rish mumkin.

Shahar kambag'allari, qullar, kolonlar va jamoachi dehqonlarning har turli xalq harakatlari Yustinian imperatorligining so'nggi yillarida tez-tez ko'tarilib, VI asr oxirlari va VII asrning birinchi yarmida bu harakat yanada kuchayib ketdi. Misr va Suriyada har turli ereslar (monofizitlar¹, nestorianlar² va hokazolar) bayrog'i ostida separatistik harakatlar yuz berdi, bundan maqsad – bu viloyatlarni Konstantinopoldan ajratish edi.

Imperiyaning tashqi ahvoli yanada og'ir edi. Imperiyaga har tarafdin ko'pdan-ko'p dushmanlar xavf solmoqda edi. Yustinian o'lgandan keyin tez orada Vizantiya qo'l ostidagi yerlar keskin suratda kamayib ketdi. 568 yilda langobardlar Italiyaning shimoliy qismini va o'rta qismining bir bo'lagini bosib oldi.

Oradan ko'p vaqt o'tmasdan, VI asrning 80-yillari boshida Ispaniyadagi yerlar ham qo'ldan ketdi. Bolqon yarim oroliga VI asrning ikkinchi yarmida va VII asrning boshlarida slavyanlar bir necha marta juda ko'plab kirib, Peloponnesgacha borib etdi. Dunayda imperator qo'shinlari avarlardan zarba edi. Eronliklar VII asrning boshlaridan to o'rtasigacha sharqiy viloyatlarni birin-ketin bosib olib, ba'zan Konstantinopolning o'ziga ham xavf soldi.

Yustinian sulolasi 602 yilda saroy tuntarishi natijasida taxtdan tushdi. Bu sulolaning oxirgi vakili imperator Mavrikiy shu saroy o'zgarishi vaqtida besh o'g'li bilan birgalikda o'ldirildi. Imperiya imperator Irakliy vaqtida (610-641) bir qadar mustahkamlanib olgandek bo'ldi. Irakliy eronliklarga zarba berib, ulardan Suriya, Falastin va Misrni qaytarib oldi. Biroq oradan ko'p vaqt o'tmay, VII asrning 30-yillarida 40-yillarning boshlarida Vizantiya bu muhim viloyatlarni ikkinchi marta bu safar abadiyga qo'ldan berib qo'ydi, ularni arablar bosib oldi.

Irakliyning vorislari davrida Vizantiya hududi yana ham qisqarib ketdi, Arablar bosib olgan shimoliy Afrika ham uzil-kesil qo'ldan ketdi. Bolqon yarim orolida 679 yilda slavyanlarning kuchli Bolgariya davlati vujudga keldi, Dolmatsiyani va yarim orolning shimoli-g'arbidagi Illiriyani turli slavyan qabilalar – serb va xorvatlar bosib oldi. Imperiyaning o'zida VIII asrning boshlarida Yustinian zamonidagi hududning ko'p deganda uchdan bir qismi qoldi. «Tiklangan» buyuk Rim

imperiya Bolqon yarim orolining janubiy qismi, janubiy Italiyaning bir qismi, Qrimning janubiy qismi, Kichik Osiyo va Arxipelag orollari qoldi, xolos.

VII asrdagi alg'ov-dalg'ov vaqtida Vizantiya o'zgarishlarni boshidan kechirdi, bu o'zgarishlarda uning ijtimoiy va siyosiy jihatdan yanada rivojlanishining xususiyatlari bor edi, Dastavval, imperiya endi ilgari gidek yunon-rim imperiyasi bo'lmasdan, asosan bir jinsli yunon imperiyasi bo'ldi. Faqat yunon tili rasmiy davlat tili bo'lib qoldi. Imperiyaning asosiy diqqati bu vaqtda butunlay Bolqon yarim oroli bilan Kichik Osiyoga qaratildi. Aleksandriya va Antioxiya qo'ldan ketgandan keyin Konstantinopolning iqtisodiy va siyosiy e'tibori oshdi. Shu bilan birga imperiya hududiga avarlarning, birinchi navbatda, slavyanlarning ko'plab ko'chib kelib o'rnatuvi Vizantiya imperiyasidagi ijtimoiy tuzumning demokratlashuviga yordam berdi, quldorlik munosabatlarining yo'qolib borish jarayonini tezlashtirdi.

«Dehqonchilik qonuni». Vizantiyadagi kelgindi slavyan dehqon aholining ahvoli «Dehqonchilik qonuni»da juda yaxshi ta'riflangan bu manba VIII asrga oiddir, lekin unda VII asrdagi agrar munosabatlar ham aks etgan. Ushbu manbaga qarab fikr yuritilganda, bu dehqonlar erkin aholi bo'lib, ularning o'z ekinzorlari, tokzorlari va bog'lari bo'lgan. Dehqonlarning xo'jaligida dehqonchilikning o'zidan tashqari, chorvachilik ham katta rol o'ynagan. Har bir dehqonning yer uchastkasi ekinzor, tokzor yoki bog'dan iborat bo'lib, uning o'z xususiy mulki hisoblangan, lekin unda jamoa yer egaligining alomatlari ochiq ko'rinib turar edi. Uchastka «ulush», «qur'a» deb atalgan. Bu narsa yerlarning taqsimlanganligidan dalolat beradi. Qonunda, dastlabki taqsim noto'g'ri qilingan bo'lsa, yerni qayta taqsimlash ham nazarda tutilgan. «Dehqonchilik qonuni»da dalalardan ekin yig'ishtirib olingandan keyin yerlarning hammasi ochiq o'tloqqa aylantirilib, unda butun qishloq chorvasining boqilishi ham pisanda qilingan. Egasi tashlab ketgan taqdnda yer jamoaga topshirilishi kerak edi. Qishloqning asosiy aholisi, ya'nn qo'shni chilik jamosining to'la huquqli a'zosi bo'lgan dehqonlardan tashqari, «Dehqonchilik qonuni»da yana kambag'al dehqonlar to'g'risida ham gapiriladi, bu kambag'al dehqonlar qisman katta yer egalaridan, qisman esa jamoachi dehqonlarning o'zidan yer uchastkalarini hosilning yarmisini berish sharti bilan (teng sherikka) ijaraga olardilar.

Deqqonlarning yana bir toifasi tilga olinadi, bular katta er egalariga maxsus ushr (mortita) to'lar edilar. Aftidan, bular ham ijarachi-deqqonlar bo'lganlar-u, lekin ularning ahvoli yerni teng sherikka olgan deqonlar ahvolidan yaxshiroq bo'lgan. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, ularning ham bir vaqtlar o'z yerlari bo'lgan, biroq keyinchalik yirik yer egalariga qaram bo'lib qolganlar. Nihoyat, «Dehqonchilik qonuni»da aytilishicha, yer egalarining yerlarida ishlash uchun yollangan batraklar, qishloq xo'jalik ishchilari (mistotlar) guruhi bo'lgan.

Shunday qilib, «Dehqonchilik qonuni» jamoaning tabaqalarga ajrala boshlaganligidan, jamoa a'zolarinnng o'z yonidagi katta dunyoviy yer egalari yoki cherkov-monastir yer egalariga qaram bo'la boshlaganligidan ham dalolat beradi.

Slavyanlar imperiyani xuddi muhtoj narsasiga—juda ko'p erkin dehqonlarga ega qildilar. Vizantiyada tushkunlikka yuz tutgan va umri tugab qolgan quldorlik tuzumi o'rniga, bu erkin dehqonlar zaminida yangi feodal munosabatlar rivojlana olar edi.

Slavyanlarning o'rta asr Vizantiyasi tarixidagi asosiy roli ana shundan iborat. Son jihatidan ko'paygan, iqtisodiy jihatdan mustahkamlangan, jamoalarga uyushgan Vizantiya dehqonlari VIII-IX asrlarda ishlab chiqarish kuchlarini muvaffaqiyatli rivojlantirdi, mamlakatni g'alla bilan, dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, tokchilik mahsulotlari bilan to'la ta'minlab turdi. Shu bilan bir vaqtda hukumat dehqonlardan muntazam ravishda yer solig'i olib turar edi. Bu narsa davlat moliyasini ancha tartibga soldi. Nihoyat, dehqonlar Vizantiya barpo etilayotgan yangi qo'shin uchun manba bo'lib xizmat qildi, imperiya ulardan uning eng xavfli dushmani bo'lgan Arab xalifaligiga qarshi kurashda foydalandi.

Isavrlar sulolasining idora qilishi. VIII asrning boshlarida ham Vizantiyaning xalqaro ahvoli boyagidek juda og'ir edi. Arablar Kichik Osiyoga bostirib kirdilar. Ular Kipr va Rodos orollarini bosib oldilar. Arab qo'shinlari Konstantinopol yaqiniga kelib uni deyarli butun bir yilgacha (717-718) qamal qilib turdilar, Lekin arablar Konstantinopolni ololmadilar. Konstantinopolning qulay strategik mavqei, vizantiyaliklarning «yunonlar o'ti», deb atalgan o'tni ishlatishi, imperatorga ittifoqchilari bolgarlarning yordam berishi natijasida, arablar katta talafot ko'rib, chekinishga majbur bo'ldilar. Yangi saylangan imperator Lev III Isavr iste'dodli

tashkilotchi va qobiliyatli oliy qo'mondon bo'lib chiqdi. U, Suriya bilan chegaradosh Isavriya viloyatidan chiqqan bo'lib, yangi Isavrlar sulolasiga asos solgandir. Isavrlar sulolasi Vizantiyani butun bir yuz yil davomida (717-802) idora qildi. Lev III (717-740) va unga yordamchi bo'lib, keyin uning o'rniga imperator bo'lgan Konstantin V (740-775) arablarga qarshi kurashda katta tajriba orttirgan harbiylar edi. Lev III imperator bo'lgandan keyin harbiy ishga katta e'tibor berdi. VII asrda, Irakliy va uning vorislari davridayoq Vizantiya hukumati yollanma qo'shinlarga qo'shimcha ravishda mahalliy lashkarlar to'plashni qisman amalga oshirgan, bu mahalliy lashkarlar mahalliy mablag'lar hisobidan ta'minlanardi. Lev III zamonida bu harbiy reforma yanada rivoj topdi, Vizantiya qo'shini ma'lum chegarani qo'riqlab turgan, mahalliy lashkarlardan tuzilib, butunlay territorial harakterga ega bo'lib qoldi. Endi butun imperiya femlarga – harbiy okruglarga bo'lib yuborildi. Bularga stratiglar–voevodalar boshliq. qilib tayinlangan, harbiy hokimiyatgina emas, balki fuqarolik hokimiyati ham o'sha voevodalar qo'lida bo'lgan. Ularning yordamchilari ofitsyerlar – turmarxlar bo'ldi. Oddiy zobitlar – stratiotlar – ham dehqon va ham umr bo'yi xizmat qiladigan askar edi. Ularning yer uchastkasi bo'lib bu uchastkadan ular o'z oilalarining kuchi bilan foydalanardilar, qisman boshqa dehqonlarga ijaraga berardilar. Ular shu yer orqasidan kun kechirardilar. Harbiy xizmat o'taganlari uchun stratiotlar odatdagi soliqlarning bir qismidan ozod qilindi. Dehqon lashkarlardan iborat bu yangi qo'shinni isavriyali imperatorlar faqat imperiyaning yuqorida ko'rsatib o'tilgan «varvarlashuvi» tufayli, hammadan burun slavyanlar orqali «varvarlashuvi» tufayligina vujudga keltira oldi.

Lekin yangi tipdagi qo'shin vujudga keltirilishi muhim ijtimoiy oqibatlariga olib keldi. Pullik maosh olish bilan bir qatorda yana yer ham olgan stratig va turmarxlar haqiqatda tashkil topayotgan harbiy-feodal tabaqaning vakillari edi. Stratiotlarning ijtimoiy qiyofasi ham juda xilma-xil edi. Ularning bir qismi (piyoda askarlar) dehqonlardan iborat bo'lsa, ikkinchi qismi (otliq askarlar) esa mayda pomesteli ritsar tipidagi askarlardan iborat edi. Shunday qilib, VIII asrda Vizantiyada ham yirik ham mayda feodallar soni tez ko'payib bordi. Yangi feodallar qullarni yerga birkirib qo'yib, ularni krepostnoy dehqonlarga aylantirardilar, shu bilan bir vaqtda jamoachi-

dehqonlarning bir qismi, ayniqsa, chek yeri kamligidan harbiy xizmatni o'tay olmaydigan qismi krepostnoylarga aylana bordi. Ersiz dehqonlar yangi harbiy yer egalari yerlariga ko'chib kelib, ularga qaram bo'lib qolardilar. Harbiy xizmat o'tovchi kishilar pomestelarning bir qismini eski senator zodagonlarning yangidan musodara qilingan yerlaridan oldi; ko'p yer harbiylarga Vizantiya pravoslav cherkovidan o'tdi.

Butga qarshi kurash va uning ijtimoiy mohiyati. Cherkov yerlarining keng ko'lamda sekulyarizatsiya qilishi (davlat mulkiga aylantirilishi) Isavr imperatorlarining nomi bilan borg'angandir. Isavriyalik imperatorlar o'z zamondoshlaridan «butga qarshi kurashuvchilar» degan laqab oldi. Ular butga sig'inishga qarshi farmonlar chiqardilar, ularning buyrug'i bilan ikonalar ibodatxonalardan olib chiqildi va ularning bir qismi yo'q qilib tashlandi. Cherkov buni asos qilib imperatorni butga qarshi bid'atda aybladi. Lekin isavriyalik imperatorlarning siyosati ular taxtga chiqmasdan ilgari Vizantiyada boshlangan diniy janjallar doirasidan hiyla chetga chiqib ketdi. Imperatorlardan Lev III, Konstantin V va ularning vorislari aynan katta cherkov-monastir yer egaligiga qarshi kurash qizib ketgan bir paytda butga cho'qinishga qarshi chiqdilar. Butga qarshi kurash o'ziga xos bir bahona bo'lib, shu bahona bilan hukumat eng yirik monastirlarni yopib qo'ydi va cherkov-monastir mulklarini musodara qildi. Monastirlarning g'azna ixtiyoriga olingan yerlari Vizantiyaning tashkil topayotgan ritsarlariga benefitsiy qilib taqsimlab berildi. Monastirlarning yerlaridan harbiy xizmat uchun beriladigan bunday yerlar Vizantiyada alohida bir atama bilan xaristikiy («ehson», «xayr-saxovat») deb atalgan, bu esa ma'no jihatidan lotincha – «benefitsiy» so'ziga to'g'ri keladi.

Foma Slavyan qo'zg'oloni. Isavriyalik imperatorlarning harbiy islohati yaxshi natija berdi. Imperatorlar katta mablag' sarflamasdan (Suriya va Misr qo'ldan ketishi orqasida imperiya birmuncha vaqtgacha moliyaviy qiyinchiliklarga uchragan) katta harbiy kuchga ega bo'la oldi. Fem qo'shinlari o'z okruglarini arablardan juda yaxshi himoya qildi. Vizantiya hukumati sal-pal kattaroq ko'lamda hujum operatsiyasi olib borishga hali jur'at etolmadi. Lekin hukumatning siyosati cherkov guruhi o'rtasida katta norozilik turg'dirdi. Yangi sulola obro'sining kuchayishidan

norozil bo'lgan dunyoviy zodagonlarning bir qismi ham cherkov guruhiga qo'shildi. Butga qarshi kurash tarafdorlari bilan butga cho'qinish tarafdorlari o'rtasidagi kurash bir necha o'n yilga cho'zildi va ba'zan bu kurash juda keskin tus oldi. Lekin xalq ommasi o'rtasida ham norozilik kuchayib bormokda edi. Feodalizmning taraqqiy etib borishi ekspluatatsiyaning yangi formalarini vujudga keltira boshladi. Feodal yer egasining qo'shniligi erkin dehqon jamoalarini krepostnoylashtirish xavfi ostida qoldirgan edi. IX asrning boshlarida arablar xavfi kamaygandan keyin, stratiot – dehqonlarning ahvoli juda ham yomonlasha boshladi. Yangi «qudratli odamlar» – dinatlar yoki (slavyanlar ataganidek) «vlastellar» – jamoaga qarashli ekin ekiladigan yerlarni va yaylovlarni tap tortmay hayosizlarcha bosib olib, stratiotlarni esa o'z krepostnoylariga aylantira boshladilar.

Xalq noroziligining kuchayishi zaminida 821 yilda (Isavrlar sulolasidan keyin) Kichik Osiyoda yana katta qo'zg'olon ko'tarilgan, bu quzg'olon Foma Slavyan qo'zg'oloni deb nom oldi. 821 yil qo'zg'oloni qatnashchilarining tarkibi juda xilma-xildir. Unda erkin jamoachi-deqqonlar, krepostnoylarga aylantirilayotgan stratiotlar, haqiqatda krepostnoyga aylantirilgan mayda qaram-ijarachilar – pariklar qatnashdi. Bu harakatga Kichik Osiyoda juda ko'p bo'lgan pavlikianlar, imperiyaning sharqiy viloyatlarida avj olib kelayotgan diniy harakat ham qo'shildi. Qo'zg'olonga boshchilik qilgan Foma Slavyan² o'zini imperator deb e'lon qildi. Arablarning yordami bilan Foma Antioxiyada imperatorlik tojini kiyib, keyin tarafdorlari bilan birgalikda Konstantinopolga qarab yo'l oldi. U, Vizantiya flotining rahbarlarini o'z tomoniga og'dirib olishga muvaffaq bo'lib, poytaxtni qamal qilishga ham kirishgan edi. Lekin Fomaning siyosati etarli darajada izchil siyosat emas edi. U hech qanday ijtimoiy islohatlar o'tkazmadi, hatto xalq bo'ynidagi og'ir soliqlarni ham yengillashtirmadi. Haqiqatda u xalq harakatidan foydalanib, o'zining eng yaqin tarafdorlari bilan birlikda hokimiyatni o'z qo'liga olmoqchi bo'lgan edi, xolos. Uning Vizantiya dushmani arablar bilan bo'lgan do'stona aloqalari ham shubha tug'dirardi. Nihoyat, 823 yilda Foma Konstantinopol bo'sag'asida mag'lubiyatga uchragan va asir tushib, qatl qilindi.

Muvaffaqiyatsizlikka uchraganligiga va sulola kurashiga aylanib ketganligiga qaramay, Foma Slavyan qo'zg'olonining shu tomoni muhimdirki, unda feodal ekspluatatsiyasining yangi formalariga qarshi kurashgan keng xalq, ommasi qatnashdi. Shunisi xarakterliki, Foma halok bo'lgandan keyin ham, umumiy rahbarlikdan mahrum bo'lgan dehqonlardan va shahar kambag'allaridan iborat ayrim otryadlar uzoq, vaqtgacha, hatto 825 yilgacha qarshilik ko'rsatishni davom ettiraverdilar. IX asrning 20-yillaridagi harakatning siyosiy oqibatlari ham diqqatga sazovordir. Butga qarshi kurashuvchi guruh bilan butga sig'inuvchi guruh, xalq harakatining kuchayishidan, xususan pavlikianlar harakatidan qo'rquvga tushib, bu qo'zg'olondan keyin tez vaqt ichida bir-biri bilan yarashib ketdi. 843 yilda butga sig'inish rasmiy suratda tiklandi. Cherkov sekulyarizatsiya qilingan monastir yerlarini qaytarib ololmagan bo'lsa-da, u bilan davlat o'rtasidagi munosabat yana do'stona munosabatga aylanib ketdi. Cherkov-monastir yer egaligi asta-sekin yana o'sa boshladi, lekin bu o'sish butga qarshi kurashdan oldingi davrdagiday keng ko'lam ololmadi.

Makedoniyaliklar sulolasi vaqtida Vizantiya. IX asrning yarmidan to XI asrning yarmigacha Vizantiyani Makedoniyaliklar sulolasi idora qildi. Vasiliy I Makedonlik bu sulolaning birinchi namoyandasidir (867-886). X asrda bu suloladan bir necha mashhur imperator chiqdi, o'z zamonining atoqli olimi va yozuvchisi Konstantin VII Bagryanorodniy (912-959), mashhur harbiy sarkardalar – Nikifor Foka (963-969), Ioann Simisxiy (969-976) va Vasiliy II Bolgaroboytsa (976- 1025) ana shular jumlasidandir.

Makedoniyaliklar sulolasi idora qilgan vaqtga kelib, Konstantinopol juda katta savdo markaziga aylandi va Yevropa bilan Osiyo o'rtasidagi savdoda asosiy vositachilik rolini o'ynadi. Arab, rus-slavyan, italyanlarning savdo-sotiqdari Konstantinopolga kelib to'planib, uning juda katta shuhrat qozonishiga va jonlanishiga sabab bo'ldi. Vizantiya imperatori tashqi savdodan shunday katta daromad oldiki, IX va X asrlarda G'arbiy Yevropadagi qirol va imperatorlardan birortasi ham bunday daromad olmas edi. Shu bilan birga IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab arablar xavfi Vizantiya uchun qo'rqinchli bo'lmay qoldi. Arab

xalifaligi bu vaktida ayrim-ayrim mustaqil davlatlarga bo'linib ketgan edi. Vizantiya o'zi endi arablar Sharqiga qarshi hujumga o'tishga molik bo'lib qolgan edi.

Makedoniyaliklar sulolasi vaqtida imperiyaning hududi yana kengaydi. Sharqda arablardan Krit, Kipr orollari, Antioxiya shahri bilan birga Suriyaning katta bir qismi tortib olindi; g'arbda, ya'ni Italiyada imperiya Apuliya bilan Sitsiliyani birmuncha vatstga qaytarib oldi. Shu bilan bar vaqtda Vizantiya slavyan davlatlariga qarshi qattiq kurash olib bordi. X-XI asrlarda Vizantiya bilan Bolgariya o'rtasidagi dushmanlik munosabatlari juda ham keskinlashib ketdi. XI asrning boshlarida Vizantiya Bolgariya podsholigini butunlay bosib oldi. Imperiyaning Bolqon yarim orolidagi chegaralarni yana shimolda Dunaygacha, shimoli-g'arbda Adriatika dengizi qirg'og'igacha etgan. Serb qabilalari ham bir oz vaqtgacha Vizantiyaga tobe bo'lib qoldi.

Vizantiya va Kiev Rusi. Makedoniyaliklar sulolasi vaqtida Vizantiya bilan Rus o'rtasidagi munosabatlar totuvlashdi. Qizg'in savdo munosabatlari («varyaglardan yunonlarga boradigan buyuk suv yo'li»), mustahkamlangan madaniy aloqa (ruslarning 988 yil atrofida yunonlardan xristianlikni qabul qilishi, shu munosabat bilan Vizantiya ilm-ma'rifatining Rusga kirib kelishi), umumiy dushmanlarga – pecheneglar, xazarlar va polovetslarga qarshi birgalakda kurash olib borilishi natijasida Vizantiya bilan Rus o'rtasida X asrning ikkinchi yarmida do'stona munosabatlar o'rnatildi. Bu do'stlik munosabatlari kamdan-kam hollardagina (masalan, 1043 yilda) dushmanlik harakatlari tufayli uzilib turdi. Konstantinopol patriarxi Rus cherkovi boshlig'ini Kiev metropolitini tayinlash huquqini da'vo qildi. Biroq Rusning cherkov yo'li bilan Vizantiyaga bo'lgan qaramligini Yaroslav I rus popi Illarionni 1051 yilda Kiev metropoliti qilib tayinlash bilan ancha bo'shashtirdi.

Rus cherkovi Konstantinopol cherkovining hukmronligidan 1448 yilda uzil-kesil qutulib oldi. Rus metropolitlari, hatto yunonlardan bo'lganida ham rus cherkovini mustaqil idora qilar va odatda olisdagi Konstantinopol patriarxidan ko'ra Rusning buyuk knyazi irodasi bilan ko'proq hisoblashardi.

Cherkovlarning ajralib ketishi. XI asr o'rtalarida Vizantiya cherkovining hayotida ikkinchi bir muhim voqea – Rim papasi bilan ajrashish yuz berdi. Bir tomondan, Konstantinopolning Italiya bilan aloqasi susayib ketishi, ikkinchi tomondan, G'arbda Rim papalari siyosiy qudratining kuchayishi shunday oqibatlariga olib keldiki, o'sha vaqtgacha yagona bo'lib kelgan xristian cherkovi g'arbiy-katolik va sharqiy-provaslavga ajralib ketdi. Bu vaqtga kelib ularning diniy marosimlari, toat-ibodat tili va boshqarnsh tuzumining o'zi ham (g'arbda – papa va. kardinallar, Sharkda – poytaxt shahar Konstantinopolning patriarxi boshchiligidagi patriarxlar) ancha o'zgarib ketdi. Cherkovlardagi ajralnsh 1054 yilda, Rim papasining legatlari, ya'ni elchilari yunon cherkovini rim cherkovi bilan aloqa qilishini rad etib, Konstantinopolni tashlab chiqib ketgan paytdan boshlandi. Bunga javoban Konstantinopol patriarxi Rim cherkovi bilan uning boshlig'i papaga la'nat o'qidi.

IX-XI asrlarda Vizantiya feodalizmi. Makedoniyaliklar sulolasi vaqtida Vizantiyaning feodallashuv jarayoni tez avj olib bordi. Erkin dehqonlarning soni shu qadar tez kamayib bordiki, mamlakat mudofaa qobiliyatining pasayishidan, shuningdek, aholidan tushadigan soliq, mablag'larining kamayishidan ko'rqib, imperatorlarning o'zlari ham tashvishga tusha boshladilar. Dinatlar tomonidan dehdon yerlarining bosib olinishiga qarshi X asrning birinchi yarmida imperatorlar bir necha marta farmonlar – novellalar (922, 934 va 947 yillardagi novellalar) chiqardi. Imperator Vasiliy II bir nechta yangi farmon chiqardi. Uning novellalaridan birida (996) katta yer egalaridan jamoachi-startiotlardan ilgari tortib olingan hamma yerlarni dehqonlarga qaytarib berish talab qilindi. Biroq, bu farmon hamda shu kabi boshqa farmonlar yaxshi bajarilmadi. Feodal zodagonlar shu qadar kuchayib ketgan ediki, 1057 yilda makedoniyaliklar sulolasining o'rnini olgan va Kichik Osiyodagi zodagon yirik yer egalaridan chiqqan Komninlar sulolasi erkin dehqonlariing qolgan-qutganlarini ham feodallarga yem qilib berishga har tomonlama ko'maklashdi. Komninlar ayrim-ayrim qishloqlarnigina emas, balki butun-butun okruglarni katta yer egalarining proniyasiga (aynan tarjima qilganda: ramhnamoligiga, vasiylikiga) berdi. Bu esa uzlariga tobe aholini bevosita krepostnoyga aylaitirish yo'lidagi tadbir edi. Proniar-imunist davlat soliqlarining bir (qismini o'z foydasiga yig'ib olish huquqiga

ega bo'ldi. Qo'l ostidagi aholini uning o'zi sud qilar edi. Bu yerlar asta-sekin feodalning nasldan-naslga o'tadigan xususiy mulki bo'lib qoldi.

Komninlar vaqtida katta cherkov yer egaligi makedoniyaliklar sulolasi vaqtidagiga qaraganda kengroq ko'lamda qayta vujudga kela boshladi. XI-XII asrlarda vizantiyalik erkin dehqonlarning, jamoachi-komiturlarning soni juda ham kamayib ketdi. Feodalning yerida dehqonchilik qilib, unga obrok – feodal rentasi to'lovchi krepostnoy dehqonlar – pariklar Vizantiya qishloqlarida ko'pchilikni tashkil etadigan bo'lib qoldi.

Shu bilan birga Vizantiya pomestelarida hali birmuncha qullar (dullar) ham bor edi. Ular asosan hovli ichidagi har xil ishlarni qilish bilan birga, ulardan qishloq xo'jalik ishlarida, ayniqsa sug'orish, yo'l qurilishi ishlarida, tosh konlarida va shu kabilarda ham foydalanardilar.

IX-XI asrlarda Vizantiya madaniyati. Vizantiya o'zining ko'p asrli hayoti davrida boy va rang-barang madaniyat yaratdi, bu madaniyat janubiy slavyanlarga va Rusga katta ta'sir kursatadi. Hali VI asrdayoq o'zining ilk namunalarini bergan Vizantiya arxitekturasi keyingi asrlarda ham rivojlanishda davom etib, monumental Vizantiya ibodatxonalari tipini bunyod qildiki, bu tipdagi ibodatxona namunalari XI asrdagi qadimgi rus yodgorliklari uchun eng yaxshi namuna bo'lib xizmat qilgandir.

Shuni aytish kerakki, Vizantiyada qurilish texnikasi: g'isht qilish, juda ajoyib ohak qorishmasi tayyorlash, g'isht terish san'ati, monumental qubbalar, ulug'vor gumbazlar va shu kabilar yaratish texnikasi o'z zamonasi uchun juda yuksak darajada edi.

Vizantiyada IX-XI asrlarda rassomlik – devorga rasm solish ham, koshinkorlik tasvirlari ham zo'r berib rivojlana bordi; rassomlikning bu shakllari Vizantiyada tobora qat'iy tus olib va uslublashib bordi.

Vizantiyada badiiy hunarmandchilik ham yuksak darajada rivoj topdi. Qimmatbaho ipak gazlama, kimxob, gilam to'qish keng tarqalgan; zargarlik badiiy kulolchilik, shisha buyumlar yasash, sir (emal) tayyorlash ayniqsa taraqqiy etgan edi. Vizantiya har xil qurol-yarog' ishlash, kemasozlik, konchilik va hokazolar bilan don chiqargan edi.

Fan sohasida IX-XI asrlardagi Vizantiya olimlariga shu narsa xoski, ular qadimgi dunyo klassik avtorlarining asarlarini muttasil o'rgandilar, ularni to'playdilar, bu materiallardan har xil temalarda to'plamlar tuzdilar.

Klassik avtorlarning asarlarini to'plagan va ular asosida asarlar yozgan olimlardan biri yuqorida aytib o'tilgan imperator Konstantin VII Bagryanorodniy bo'lib, uning bir nechta asari – “Imperiyani idora qilish to'g'risida”, “Marosimlar to'g'risida” va “Femlar to'g'risida” degan asarlari hozirgacha saqlanib kelmoqda. Konstantin VII asarlarining qiymati shundan iboratki, ular Vizantiya bilan qo'shni bo'lgan mamlakatlar va xalqlar to'g'risida, shu jumladan, slavyanlar va xususan ruslar to'g'risida ko'p material beradi.

Konstantin VII dan ilgari esa o'z zamonasining eng atoqli to'plovchisi, bibliofili va entsiklopedisti patriarx Fotiy bo'lib (820-891), u o'zidan keyin “Miriobiblion” deb ataladigan to'plam qoldirgan, bu to'plamga 300 ga yaqin ocherk kirgan, bular qadimgi yunon avtorlarining asarlaridan ko'chirma bo'lib, ularning har qaysisiga tegishli sharhlar berilgan.

Vizantiyada yilnoma yozish juda rivoj topdi. VI-IX asrlardagi eng atoqli voqeanavislar Ioann Malala, Feofan va Georgiy Amartoldir, ularning asarlari ko'proq slavyan tiliga tarjima qilingan bo'lib bu asarlar Kiev davridagi yilnomachilarga ham ma'lum edi. Vizantiyaning ayrim davrlari tarixiga oid o'ziga xos monografiyalar yozgan Vizantiya tarixchilaridan biri Anna Komninani ko'rsatish mumkin. U yozgan “Aleksiada”da o'zining otasi Aleksey I Komnin podsholik qilgan davr va salib yurishlarni ta'riflagan yana bir tarixchi Nikita Akominatdir. Uning “Romeyalar tarixi” (ya'ni vizantiyaliklar tarixi) 1118 yildan 1206 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Vizantiyani fojiali oqibatlariga olib kelgan to'rtinchi salb yurishini Akominat ayniqsa yorqin ta'riflagan.

Vizantiya adabiy yodgorliklardan juda ko'p diniy asarlar qoldirgan; asarlarda o'rta asr Vizantiyasining turmush-maishatiga oid yorqin materiallar juda ko'p.

Vizantiyada dunyoviy adabiyot: qissalar, dostonlar, satirik (hajviy) asarlar ham bo'lgan. «Filokratis» sarlavhali satira (X asrning ikkinchi yarmi) yunon-rim shoiri Lukiang (er. av. II asr) taqlid qilib yozilgan. Ma'jusiy bilan xristianin o'rtasidagi

dialog formasida yozilgan bu hajviy asarda pravoslav ruhoniylariga, monaxlarga qarshi juda keskin so'zlar aytilgan. Mamlakatning siyosiy hayotiga aralashganliklari qattiq qoralanadi. XI asrning boshlarida maydonga kelib ayniqsa zo'r shuhrat qozongan «Digenis Akrit haqidagi qissa» dostoni butun Yaqin Sharqda keng tarqalgandir, uning tarjimalari qadimgi Rusning yozma yodgorliklari ichida ham ko'p uchraydi. «Digenis Akrit haqidagi qissa» ba'zi xislatlari bilan G'arbiy Yevropaning feodal eposlariga («Roland haqida qo'shiq» va boshqalarga), qisman rus xalq dostonlariga o'xshab ketadi. Unda Vizantiya xalqining o'z tashqi dushmanlariga qarshi olib borgan qahramonona kurashi ham she'riy formada tasvirlangan. Aleksandr Makedonskiy-Iskandar Zulqarnaynning Sharqqa, jumladan Hindistonga qilgan yurishlari to'g'risidagi «Aleksandriya» degan hikoyaning har xil variantlari xalq ichida keng tarqalgan edi, ulardagi folklor materiallarning manbai qisman Vizantiyadan va qisman Sharqdan olingan edi.

Tayanch so'z va iboralar: Vizantiy, Sharqiy Rim imperiyasi, Sofiya ibotadxonasi, Nika qo'zg'oloni, butparastlik, makedoniyaliklar sulolasi, Foma slayan, nestorinlar, pavlikan, monofizitlar.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Vizantiya imperiyasining Sharqiy Rim imperiyasidan ustun tomonlari nimalarda ko'rinadi.?
2. Yustinianning islohotchilik siyosatining mohiyatini tushuntirib bering?
3. Nika qo'zg'olonining yengilish sabablarini eslang?
4. Butparastlikka qarshi harakatning asosiy sababi nimada edi?
5. 1054 yildagi cherkovlarning ajralib ketishi qanday oqibatlariga olib keldi?
6. Vizantiya imperiyasidagi diniy sektalar (monofizitlar, nestorianlar, pavlikanlar) haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?

Glossariy:

Vizantiy – Bosfor bo'g'ozining Yevropa sohilidagi yunon polisi. Taxminan er. av. 660 yilda asos solingan. Milodiy 330-yillarda Sharqiy Rim imperiyasining poytaxtiga aylangan. Keyinchalik uning o'rnida Konstantinopol shahri barpo etilgan, 1453 yildan Istanbul deb ataladi.

Butparastlik – but, sanam, salib, ikonaga sig'inish odati. Fetishizm, majusiylilik kabi ibtidoiy dinlarga xos. Butparastlar butni, sanamni xudolar qiyofasi, timsoli deb bilganlar. Majusiylidagi butparastlik odati xristianlik, buddizm kabi dinlarda ham saqlanib qolgan. Buning turli ko'rinishi VI asrlarda Vizantiya imperiyasida ham yaqqol namoyon bo'lgan.

Patriarx - (yun. pater – ota va archo–boshqaraman) – cherkov ierarxiyasida oliy unvon. Xristian cherkovidagi Rim, Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus yepiskoplarida shu unvon bo'lgan.

26-§. O'rta asrlarning ilk davrida Hindiston va Xitoy

Hindistonda Gupta davlati. IV asrning boshlarida Hindiston bir necha o'nlab mayda va yirikroq davlatlardan iborat bo'lib, bu davlatlar tepasida kichik-kichik podsholar – rojalar turar edi, ular hukumron tabaqalarga–braxmanlar tabaqasiga (koxinlarga) va kshatriylar tabakasiga (harbiy zodagonlarga) suyanar edi. 320 yilda shimoliy Hindistonning shunday rojalaridan biri Chandragupta I (320-340 yy.) tevarak-atrofidagi podsholarni o'ziga bo'ysundirib, Gang daryosi xavzasida katta bir davlat tuzdi, bu davlat Gupta davlati deb atalib, VI asrning boshlarigacha yashadi. Chandragupta I ning vorislari zamonida, ulardan ayniqsa Samudragupta (340-380 yy.) va Chandragupta II (380-414 yy.) o'zlarining istilolari bilan mashxur edilar. – Gupta davlati Gang daryosining quyi oqimini ham, to uning dengizga quyiladigan joyigacha, shuningdek Dekan yassi tog'larining bir qismidan to Narbad daryosigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olar edi. Gupta davlatining poytaxti Pataliputra shahri edi.

Gupta podsholari Sosoniylar Eroni bilan qizg'in savdo-sotiq olib bordi va madaniy aloqa qildi. Ular Hindistonning, shimoliy chegaralarini O'rta Osiyolik qabilalarning hujum xavfidan uzoq vaqtgacha saqladi. Gupta davrida Hindiston iqtisodiy va madaniy jihatdan juda yuksaldi. Xozirgi Hindistonda eng keng tarqalgan hinduizm dinining vujudga kelishi ham o'sha davr bilan bog'langandir.

Gupta davrida Hindistonning ijtimoiy tuzumi. Gupta davrida Hindistonning ijtimoiy tuzumi asosan hali quldorlik xarakterini saqlab qolgan edi. Qullar turli irrigatsiya va qurilish ishlarida, qishloq xo'jaligida hamda ko'pdan-ko'p xizmatkor sifatida uy-ro'zg'or ishlarida keng foydalanilar edi. Qullar bozori keng yo'lga qo'yilganicha davom etmoqda edi. Qullar Osiyodangina emas, xattoki Afrikadan ham keltirilar edi. Hind jamiyatida quldorlikka xos alomatlarining mavjudligi axolining kastalarga (tabakalarga) qarab bo'linishida ham namoyon bo'lgan edi, bu bo'linish Gupta davrida ham saqlanib, yanada rivojlanmoqda edi. Qadimiy kastalarning to'rtta asosiy turi – braxmanlar (koxinlar), kshatriylar (jangchilar), vayshiyalar (dehqonlar, xunarmandlar, savdogarlar) va shudralar (sobiq qullarning va xar toifadagi qaram

kishilarning eng past tabaqasi bo'lib, bular «kishi xazar kiladigan» ishlarni bajaruvchi kishilar edi) – hali juda qadim zamonlarda tarkib topgan xind jamiyati sotsial tarkibi turli bosqichlarini ifoda etadi. Braxmanlar va kshatriyalar kohin va harbiy tabaqalarga aylanib ketdilar, davlat hokimiyati ularning qo'lida edi, shu bilan birga ular juda ko'p qullari bo'lgan eng yirik yer egalari edilar. Ikkinchi bir o'rtacha va past darajadagi kastalar vaqt o'tishi bilan maydalashib bordilar. Gupta davrida kastalarning miqdori bir necha o'n turdan oshdi. Jamiyatniig shudraga oid eng tuban kastasi “xazarli kishilar” deb atalar edi, chunki ular oliy kasta vakillariga yaqinlashsa, bu oliy zotlarni go'yo qaram qiladi deb xisoblanardi.

Eng past kastalarning xaq-xuquqsizligi, xo'rlanishi quldorlik tuzumining mafkurasini eng yorqin ifodasi edi, quldorlik tuzumi davrida kishilar bir tomondan, to'la xuquqli, erkin quldor – hukmdorlarga, ikkinchi tomondan. butunlay xaq-xuquqsiz, xo'rlangan, qullarga yoki shularga o'xshab ketadigan kishilarga bo'lingan edi.

Ammo Xindistondagi quldorlik tuzumining yana bir xarakterli xususiyati shu ediki, rivojlangan quldorchilik va zo'rligining quldorlik tuzumi bilan bir qatorda g'oyat katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan jamoa dehqonchiligi ham doim mavjud, bo'lib, yashab kelmoqda edi. Qishloq jamoasi quldorlik tuzumi davrida ham, keyinchalik borib feodalizm davrida ham xind jamiyatining quyi sotsial-iqtisodiy yacheykasi bo'lib xizmat qildi, bu jamiyat shu yacheyka ustiga qurilgan edi.

Har bir qishloqning tepasida oksoqol va yana bir necha mansabdor kishi turar edi. Qishloq jamoasi bir necha o'n yoki bir necha yuz oiladan iborat bo'lib, hunarmandilikning qishloq xo'jaligi bilan ko'shilishiga asoslangan boshlang'ich ishlab chiqarish yacheykasini tashkil qilar edi. Bu oila jamoalari xonaki sanoatga asoslangan bo'lib, unda qo'lda to'qish, qo'lda yigirish, qo'l kuchi bilan yer ishlash usuli alohida bir tarzda bir-biriga qo'shib ketgan edi, – bunday qo'shilish bu jamoalarning har qaysisini o'ziga mustaqil bir tusga kiritib qo'ygan edi. Gupta podsholarining iqtisodiy qudrati birinchi navbatda xuddi ana shu behisob dehqon jamoalarini zo'rlik qilishga asoslangan edi.

Biroq Gupta davri quldorlik tuzumining tushkunlikka yuz tuta boshlaganligi bilan tavsiflanadi. Quldorlik tuzumi zamirida feodal tuzumi belgilari tashkil topayotgan edi. G'arbiy Yevropa va Arab xalifaligi mamlakatlarida ko'rganimizdek, feodal jamiyatining negizi bo'lgan juda ko'p sonli jamoa dehqonchiligining mavjudligi xind jamiyatiga quldorlik tuzumidan feodal tuzumiga o'tishni yengillashtirdi. Gupta davrida qulchilik tugatilib, feodalizm qurila boshlaganligini bir qancha faktlardan ko'rish mumkin. Qullar tez-tez erkin qo'yib yuboriladigan va muayyan xizmatlarni o'tash sharti bilan ularga uncha katta bo'lmagan yerlar ajratib beriladigan bo'ldi. Podsho xo'jaligidagi yerlarning hammasida ham qullar ishlamas edi, bu yerlarning talay qismi hosilning bir qismini podsho xo'jaligiga topshirish sharti bilan ijaraga berilar edi. Mayda ijarachilikka o'tilishiga sabab, manbalarning ko'rsatishicha, qullarning yetishmasligi edi. Shu bilan bir vaqtda qishloq, jamoasining o'z ichida muhim jarayonlar yuz bermoqda edi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va ishlab chiqarish qurollarining takomillashishi natijasida kichikroq oilaning kuchi bilan ham xo'jalik yuritish mumkin bo'lib qoldi. Katta oilalar mayda-mayda oilalarga bo'linib ketdi katta oilaga qarashli chek yerlar ham parchalanib ketdi; bunda to'ng'ich o'g'ilga ukalariga qaraganda yer ko'proq ajratib berilar edi. Oddiy jamoachilarning bir qismi xonavayron bo'lib, jamoaning ancha mulkdor a'zolariga qaram xoliga tushib qolar edi. Jamoa ichida zo'rlik qiluvchi qatlam bunyodga kelar edi, bularning juda ko'p mol-hayvonlari va mehnat qurollari bo'lib, xonavayron bo'lgan jamoachilarni zo'rlik qilar edilar. Bularning hammasi oqibat-natijada feodal qaramligi munosabatlarining o'rnatilishiga olib kelar edi.

Gupta davlatining tugashi. Xarsha davlati. Gupta davlati VI asrning boshlariga kelib tugadi. U V asrdayoq tushkunlikka uchray boshlagan bo'lib, buning asosiy sababi iqtisodiy ahvolining og'irligida edi. Hukumron toifalar xaddan tashqari zeb-ziynat ichida yashadi; dehqonlarga og'ir soliqlar solindi, ular o'zlari yetishtirgan hosilning ko'p qisminn soliqda to'lashga majbur edi, aholi davlat foydasiga uzluksiz ravishda turli xil ishlarni bajarishga majbur qilindi – mana shularning hammasi xind dehqonlarini xoldan ketkazdi va qishloq jamoalari xo'jaligini vayron qildi. Mehnatkashlar o'rtasida norozilik tug'ilganligi alomatlari Gupta zamonidan qolgan

adabiy yodgorliklarda ko'p uchraydi. Gupta podsholigiga uzil-kesil zarba bergan narsa ko'chmanchi eftalitlar, ya'ni oq xunnlarning bostirib kirishi bo'ldi, ular V asrning oxiri – VI asrning boshlarida Shimoliy chegarani yorib o'tib, Shimoliy Hindistonning ko'pgina shahar va qishloqlarini nixoyatda vayron va xarob qilib tashladi. 530 yilda oq xunlar podsho Guptaning vassali roja Yasodxarma tomonidan tor-mor qilindi.

Xunnlarni yenggandan keyin, Yasodxarma Gupta sulolasiga itoat qilishdan bosh tortib, o'zi maxaraja unvonini oldi. Lekin unga Gupta davlati hududining faqat bir qismigina bo'ysundi.

VII asrning boshlarida Xarsha (606-647) davlati birmuncha vaqtgacha yuksalib bordi. Xarsha Kanauja knyazligining rojasi edi, so'ngra u butun Shimoliy Hindistonni o'ziga buysundirdi. Xarsha davlati Gang daryosi vodiysi buylab Sharqiy Panjobdan to Bengaliya qo'ltig'igacha bo'lgan hududnini o'z ichiga oldi. Markaziy Hindistonning knyazlari ham Xarshaga vassal qaramlikda edi, hammasi bo'lib 40 tacha knyaz unga qaram edi. Xarsha imperiyasi uzoq umr kuradi. Uning hokimiyati feodallashuv jarayonining kuchayishi, o'z vassallari – rojalar qudratinng tobora ortib borishi natijasida zaiflashdi; bu rojalar pirovardida butunlay mustaqil bo'lib olib, markazga itoat qilib qo'ydilar. Xarsha vafotidan keyin uning davlati parchalanib ketdi. Uzoq vaqtgacha Hindiston chet el bosqinchilariga qarshilik ko'rsata olmaydigan tarqoq bir mamlakat bo'lib keldi. Kanauj shaxri xali VIII-X asrlarda ham Shimoliy Hindistonning poytaxtlik ahamiyatini saqlab qolgan edi, ammo uning maxarajlari mana shu yuz yilliklar davomida Hindistonga doimiy ravishda hujum qilib kelayotgan tashqi dushmanlarning shimolda yashovchi turli xildagi qabilalarning boskinini qaytarish o'rniga, ko'proq Hindistonning ichidagi o'z rakobatchilariga karshi kurash olib borish bilan ovora bo'ldilar.

Hindistonga arab va turklarning kirib kelishi. Dehli sultonliginiig tuzilishi. VII asrning oxirida Eron va Afg'onistonni bosib olganlaridan keyin arablar Hindistonga bevosita qo'shni bo'lib qoldi. Bundan tashkari, Hindistonga arablar dengiz bilan, ya'ni Fors qultig'i bilan borib Xind okeanidan ham hujum qila olar edi. 712 yilda Umaviylarning sarkardalaridan biri Muhammad ibn Qosim, Basradan suzib borib,

Hindistondagi Sind mamlakatini bosib oldi. Lekin oradan bir necha o'n yil o'tgach, arablar Hindistondan butunlay siqib chiqarildi. Islom dinining targ'ib qilishga xindlar dushmanlik nazari bilan qaradi, chunki islom dinini ular chet ellik bosqinchi va talonchilar dini deb hisobladi.

Arablar hujumi faqat XI asrning ikkinchi yarmidagina qaytadan boshlandi, bu safargi hujum ilgarigi hujumdan qattiq bo'ldi. Bu hujum uchun eng asosiy zamin tug'dirib bergan narsa shu bo'ldiki, kuchli va urushqoq, turk-eron davlati – G'aznaviylar davlati vujudga kelgan edi (bu davlatning nomi poytaxt bo'lmish G'azna shaxrining nomidan olingan edi). Sulton Maxmud G'aznaviy (998-1030) sharqiy Eron va Afg'oniston yerlarini, 1017 yildan e'tiboran esa Amudaryoning narigi tomonidagi yerlarni, ya'ni Buxoroni ham o'z qo'l ostiga kiritib oldi.

Podsholik davri mobaynida u, shimoliy Hindistonga o'n etti marta yurish qildi. Hindiston shaharlari g'aznaviylar tomonidan nihoyat darajada qattiq talandi. Maxmud G'aznaviy bu yurishlardan shimolga o'n minglab erkak va ayollarni asir qilib xaydab ketdi, mamlakatni, ayniqsa xind ibodatxonalarini talab, karvon-karvon oltin, kumush va qimmatbaxo toshlar olib ketdi. G'azna shahri muxtasham binolar bilan bezaldi, bu binolarning ko'pini Hindiston ustalari solgan edi. 1030 yilda Maxmud G'aznaviy o'lgan vaqtda uning imperiyasi Amudaryo qirg'oqlaridan tortib to Gang daryosigacha borgan, butun Xind daryosi xavzasini ham o'z ichiga olgan edi. Lekin uning poytaxti Hindistondan tashqarida edi. Hindiston Maxmud G'aznaviy uchun bo'ysundirilgan bir viloyatgina edi. Shunday bo'lsada, Hindistonning shimoliga juda ko'p Xurosonliklar, turk va afg'onlar borib o'rnashdi. Shimoli-Sharqiy Hindiston (hozirgi Pokiston) axolisining bir qismi islom dinini qabul qilib, bora-bora istilochilar bilan aralashib ketdi.

XII asr oxirlarida Hindistonga G'azna istilochilari ikkinchi marta hujum qildi. 1175 yilda G'azna-hokimi Muhammad Guriy Panjobga bostirib kirib, uni egallagach, sharqqa qarab siljishni davom zttirdi. 90 yillarda u Jamna bilan Gang daryolari o'rtasidagi butun yerlarni, so'ngra esa Bengaliyani bosib oldi, Guriy vafotidan (1206 yildan) keyin uning noibi Qutbiddin Oybek G'aznadan ajralib chiqib, Hindistonning shimolida (hozirgi Hindiston respublikasining poytaxti Dehlini markaz qilib)

mustaqil davlat tuzdi. Yangi davlat poytaxt shaharning nomi bilan Dehli sultonligi deb yuritiladigan bo'ldi.

Hind madaniyati. Gupta davlati davridagi madaniyat avvalo, klassik monumental arxitekturaning rivojlanishi bilan tavsiflanadi, bu davrda juda ko'p ibodatxona va saroylar qurilgan edi. Gupta davrida kurilgan binolarning ko'pi keyinchalik xorijiy istilochilarning Hindistonga qilgan hujumlari natijasida vayron qilib tashlangan edi. Lekin har-holda o'sha davrdan saqlanib qolgan ba'zi bir binolarga qarab ularning juda moxirlik bilan qurilganligi to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin. Masalan, bahaybat yaxlit toshlarning ichini g'or qilib o'yib ishlangan Ellara va Ajanta ibodatxonalarini o'shanday kurilishlar jumlasidandir. Ibodatxonalar ichida qadimiy hind va budda afsonalaridan olib ishlangan xaykallar benixoya ko'p bo'lib, bularda kishilarning shakllari ifoda etilgan. Bu shaklar o'zining go'zalligi va ulug'vorligi bilan kishini xayratda koldiradi. Ibodatxona devorlari xilma-xil suratlar bilan bezatilgan. Gupta davridagi rassomlar va ustalar metallga pardoz berishda yuksak san'at cho'qqilarini egalladilar. Er. av. IV asrning oxiri va V asrning boshlarida quyma temirdan ishlangan ustun xozirga qadar Dehlida saqlanib kelmoqda, u qariyb bir yarim ming yil davomida ochiqlikda jazirama quyosh va yomg'irlar ostida qolib kelishiga qaramay, uni xatto zang ham bosgan emas. Gupta davrida hind fani katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bir qancha xind munajjimlarining nomi Hindistondagina emas, uning tashqarisida ham mashxur edi. Bular orasida V-VI asrlarda yashagan, yunon fani va astronomiyasi bilan tanish bo'lgan Aryabxata, Varahamixira va Braxmagupta ayniksa ajralib turadi. Hindistonda bu davrda tibbiyot, ayniqsa o't-giyoxlar bilan davolash juda rivoj topgan edi.

Adabiyot, poeziya va drama soxasida Gupta davri o'zidan keyingi ko'pgina avlodlar uchun taqlid bo'lib xizmat kiladigan juda yuksak namunalarini qoldirdi. IV asr oxiri va V asrning birinchi yarmida o'tgan hind shoiri Kalidasaning asarlari ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'ldi. Kalidasa qahramonlik mavzularida bir nechta doston hamda mifologik va tarixiy temalarda ko'p dramalar yozdi. «Alqishlangan Shakuntala» dramasi ayniqsa katta dong qozondi, bu asarda nixoyatda nazokatli va shu bilan bir vaqtda o'z yo'lida uchragan juda og'ir mashaqqatli to'siqlarni yenga

olgan jo'shqin jasoratli oddiy xind ayolining ajoyib obrazi berilgan. Bu asar G'arbiy Yevropaga 1789 yilda ma'lum bo'lishi bilanoq qadimiy hind adabiyotiga juda katta qiziqish uyg'otdi. Kalidasa o'z qahramonlarini qisman klassik kitob tilida – sanskritda, qisman turli maxalliy laxjalarda gapirtiradi, bu esa usha davrdagi Hindiston aholisining etnik jixatdan xilma-xil bo'lganini ko'rsatadi. Kalidasaning asarlari hozirgi vaqtda dunyodagi asosiy tillarning hammasiga tarjima qilingan.

Gupta zamonida hindlarning hukumron dini braxmanizm bo'lib, bu din uchta asosiy ma'bud – Braxma, Vishnu va Shiva bor, deb ta'lim berish bilan birga, juda ko'p boshqa ma'budlar ham bor, der edi; bu ma'budlar tabiat kuchlarining barcha turli-tuman shakl va ko'rinishlarining ifodasi edi, odamlar, xayvonlar, o'simliklar, xar xil jonsiz narsalar — sanamlar va xokazolar iloxiylashtiriladi edi. Braxmanizmning dabdabali marosimlari va kuchli koxinlari bo'lib, bu koxinlar nasldan-naslga o'tadigan aloxida bir tabaqa edi. Biroq, braxmanizm bilan bir qatorda uning o'z ichidan boshqa bir din-buddizm ham paydo bo'lib, ko'p tarafdor orttirdi (bu din eramizdan oldingi V asrdayoq paydo bo'lgan edi), bir vaqtlar buddizm eng qadimgi din bo'lmish braxmanlar dinini xatto yengayotgandek ham bo'lib ko'ringan edi. Gupta podsholarining ko'pi buddizmga homiylik qildi. Biroq, pirovardida, braxmanizm yengib chikdi, lekin shu bilan birga u yangi tus – hinduizm tusini oldi. VI va VII asrlarda uzil-kesil tashkil topgan hinduizm o'zining ko'pdan-ko'p eski majusiy ma'budalarini batamom saqlab koldi. Lekin shu bilan birga u buddizmdagi diniy falsafaning ba'zi jihatlarni uning yomonlikka qarshilik qilmaslik, tarki dunyo qilish, kishi o'lgandan keyin jonning boshqa kishi yoki boshqa narsaga o'tishiga ishonish va xokazolar to'g'risidagi ta'limotini ham o'ziga singdirib oldi. Buddizm dini Hindiston tashqarisida–Xitoyda, Xindi-Xitoyda, Indoneziya, shuningdek, Mo'g'ulistonda, Tibetda va qisman O'rta Osiyoda (Turkistonda) keng tarqaldi.

Feodal munosabatlarning yanada rivojlanishi. VI-VII asrlarda Hindistonda feodal munosabatlar yanada rivojlandi. Feodallashuv jarayonining tezlashuvida Shimoliy Hindistonning (Gupta podsholari davlati qulagandan keyin va ikkinchi marta Xarsha davlati tugagandan keyin) siyosiy jixatdan parchalanib ketishi katta rol o'ynadi. O'nlab mayda knyazliklar vujudga keldi, bu knyazliklarning knyazlari yirik

yer egalari edi, ular qishloq jamoalarini o'zlariga buysundirib oldilar. Buyuk knyazlar — maxarajalar va vassal knyazlar, ularga qaram knyazlar - rojalar bo'lar edi. Unisida ham, bunisida ham ularga qaram professional jangchilar bo'lib, ularga harbiy xizmat utaganliklari uchun yerlar in'om qilinar edi. Jamna bilan Gang daryolari o'rtasida bu xildagi hind ritsarlari ayniqsa ko'p edi, shimoldan hujum qilib bostirib kirish xavfi bu yerda ancha kuchli edi, bu yerlarda vujudga kelgan juda ko'p sonli ritsarlar tabaqasni rajputlar (aynan tarjimai «shox farzandlari») degan nom oldilar. Borib-borib rajputlar qadimiy harbiy tabaqa bo'lgan kshatriylar bilan aralashib ketdi.

Feodal yer egaligining rivojlanishida xind ibodatxonalari ancha katta rol o'nadi. Hind koxinlari juda katta yerlarga ega edilar, ularning qo'llab-quvvatlashiga muxtoj bo'lgan knyazlar juda ko'plab yer ulashib berganligi uchun bu yerlar keyingi yuz yilliklarda yanada ko'payib bordi. Ba'zi ibodatxonalarnng 1000, xatto 1500 qishlog'i bo'lar edi. Jamoachi dehqonlar hosilning katta qismini ibodatxonalarga to'lar edilar va ibodatxona ularni sud qilish xuquqiga ega edi.

Xitoyda Tan imperiyasining rivojlanishi. Tan imperiyasi Xitoyda 300 yilga yaqin, ya'ni 618 yildan 907 yilgacha yashadi. Uning poytaxti Chan'an (hozirgi Sian) shaxri edi. Bu juda katta shahar edi, VIII asrda Chan'an axolisi 1 milliondan ko'p edi. Imperiyaning ikkinchi poytaxti Loyan shaxri bo'lib, u ham juda katta savdo markazi edi. Bu sulolannng eng kuchli imperatori Li Yuanning vorisi Li-Shi-min yoki Taytszun (626—649) edi. Bir necha urushlar natijasida Li-Shi-min imperiya chegaralarini ancha kengaytirib oldi. Imperatorga qaram, vassal yerlarni qo'shib xisoblaganda, Xitoyning hududi Shimolda Amur va Xingangacha, janubda Hindiston va Siyomgacha, sharqda Koreyagacha (Taytszun Koreyani ham bosib olishga uringan edi), g'arbda O'rta Osiyoning sharqiy chegaralarigacha borardi. Li-Shi-min zamonidagi bu juda katta imperiya imperatorning markazdagi va joylardagi juda ko'p amaldorlari tomonidan idora qilinadigan murakkab bir byurokratik monarxiya tusini oldi.

Li-Shi-min davrida amaldorlar uchun maxsus unvonlar joriy qilindi. Amaldorlarning hammasi to'qqiz darajaga bo'lindi, xar bir darajaga ma'lum xajmda pomestelar belgilandi, bu pomestelar maosh o'rniga berilar edi. Markaziy idora oltita

maxkama palatasidan yoki vazirlikdan (amallar vazirligi, solik, vazirligi, harbiy vazirlik, jinoiy ishlarni ko'radigan sud vazirligi, jamoat ishlari vazirligi, marosim ishlari vazirligidan) iborat bo'lib, uzil-kesil rasmiylashdi. Joylarga ayrim katta-katta viloyatlar tepasida turuvchi gubernatorlar tayinlandi. Viloyatlar – okruglarga, okruglar – uezdlar, uezdlar – bo'lislarga, bo'lislar – qishloqlarga bo'lingan edi. Boshqaruvning eng quyi xalqasi hamma bir-biriga kafil bo'lgan besh xonadon birlashmasidan iborat edi.

Tan sulolasi davrida davlat feodal chek yer tizimi uzil-kesil qaror topdi. Xukumat tomonidan yerga egalik kilish xuquqlari tekshirishdan o'tkaeildi, shu bilan birga davlatga qarashli yerlar fondi ancha oshirildi, bu yerlarga davlat dehqonlari ekin ekar edi, ularga ko'pdan-ko'p soliqlar solinar va majburiyatlar yuklanar edi. O'ziga berilgan chek yer uchun dehqonlar don tarzida soliq to'lashi va buyumlari tarzida soliq to'lashi va bundam tashqari, yiliga 20-50 kun davlat foydasiga og'ir barshchina ado etishi kerak edi. Yerlarning ancha ko'p qismi sekin-asta yirik amaldor zodagonlar quliga o'tdi: ayrim eng katta amaldorlar qo'lidagi yer bir dehqon oilasi qo'lidagi yerdan ko'p baravar ortiq bo'lar edi. VIII asrning 20- va 30-yillarida Tan imperiyasi qonunlarining yagona majmuasi tuzildi, u ijtimoiy xayot va davlat xayotining xilma-xil tomonlarini o'z ichiga olgan oltita aloxida kodeksdan iborat edi.

Tan imperiyasi VII asrning ikkinchi yarmida va VIII asrda Taytszunning vorislari zamonida Osiyodagi eng katta davlat bo'lib qolaverdi. Bu vorislar ichida eng ko'zga ko'ringani buddizm homiysi imperatritsa. U Sze-Tyan yoki Uxou (656-705) bo'ldi. VII-VIII asrlarda Xitoy Arab xalifaligi, Hindiston, Siyom va Vetnam bilan qizg'in tashqi savdo olib bordi. Bir kancha katta-katta karvon yo'llari (bular orasida Chanandan O'rta Osiyoga olib boradigan yo'l-«Ipak yo'li» ayniqsa katta ahamiyatga ega edi). Xitoyni Shimoliy, G'arbiy va Janubiy Osiyodagi turli mamlakatlar bilan bog'lar edi. Bundan tashqari Xitoy sohillaridan Janubi-Sharqiy Osiyo va Hindistonga boradigan dengiz yo'lining ham ahamiyati katta edi. Biroq VIII - asrdayoq, Tan imperiyasi chuqur inqirozga uchradi. Soliqlar, o'lponlardan, xar xil davlat majburiyatlari o'tashdan ezilgan dehqonlar qashshoqlashib, juda og'ir kun kechirishga majbur edi. Ochlik natijasida tez-tez bo'lib turgan epidemiyalardan yuz

minglab dehqonlar qirilib ketdi. Dehqonlarning chek yerlari kamayib bordi, chunki chek yerlarni «kuchli xonadonlar»- katta-katta er egalari, davlat amaldorlari, sudxurlar doim o'z qo'llariga kirgizib olmoqda edilar (yilnomalarda obrazli qilib aytilganidek, «yutib yubormoqda edilar»). Davlat dehqonlari sonining kamayishi natijasida davlat xazinasiga tushadigan daromadlar ham kamaydi. Dehqonlarning bir qismi xususiy shaxslarga qaram bo'lib qolayotgan edi, bu shaxslar o'z daromadlarini mana shu dehqonlardan olar edilar. Shu ahvolni xisobga olib, xukumat 780 yilda soliq tizimini isloxot qildi. Loyixaning sobiq avtorlari Yan Yanning yangi konuniga binoan soliqlar chek yeri bo'lgan dehqonlardangina olinib qolmasdan, shu bilan birga xususiy yer egalardan va davlat yerlarini vaqtincha ijaraga olgan shaxslardan ham yig'ib olinadigan bo'ldi, ammo mana shu yer egalari va ijarachilar ularning yerlarida yashab, ularga krepostnoy karamlikda bo'lgan dehqonlar uchun ham solik, to'lashlari lozim edi. Vujudga kelgan bu yangi vaziyatni, ya'ni davlat dehqonlarning bir qismi feodalning krepostnoyi yoki qaram kishisiga aylanganligini tan olib, xukumat «kuchli shaxslar» tomonidan chek yerlarning «yutib yuborilishiga» qarshi kurashni ataylab susaytirdi, bu xol butun chek yer tizimining inqirozi kuchayganligidan dalolat berar edi.

Feodallashuv jarayoni maxalliy yerdor zodagonlarni kuchaytirdi va imperatorning gubernatorlari bilan harbiy boshliqlarining o'zida ham markazga tobe bo'lmaslikka intilish kayfiyatini tug'dirdi. Bosh qo'mondon An-Lu-shan qo'zg'oloni Tan sulolasi tarixida burilish nuqtasi bo'ldi. U 785 yilda 120 ming kishilik qo'shinni o'ziga ergashtirib, imperatorga qarshi bosh ko'tardi. U 786 yilda ikkala poytaxtni - Chanan va Loyanni ham bosib olishga muvaffaq bo'ldi. Imperator qochdi, bu qo'zg'olon kelgusi yildagina yollangan varvarlar, asosan, uyg'urlar yordami bilan bostirildi. An Lu-shan qo'zg'olonidan keyin Janubiy Xitoydagi gubernatorlar qo'zgonlari bo'ldi, bu qo'zg'olonlarni ham imperator juda katta kuch sarf qilib zo'rg'a bostirdi.

Xuan Chao qo'zg'oloni. Dehqonlarning xaddan tashqari og'ir xayoti IX asrning ikkinchi yarmida ularning katta qo'zg'oloni ko'tarilishiga sabab bo'ldi, bu qo'zg'olon 875 yildai 884 yilgacha davom etdi. Qo'zg'olonga ilgari chakana

tuzfurosh bo'lgan va keyin imperator gvardiyasida soldat bo'lib xizmat qilgan Xuan Chao boshchilik qildi. 875-884 yillardagi xitoy dehqonlari qo'zg'olonining kishini xayratda qoldiradigan tomoni shuki, u uzoq vaqt davom etdi, qo'zg'olonida juda ko'p kishi qatnashdi, qo'zgonchilar g'oyat katta kuch-g'ayrat va tadbirlik ko'rsatdilar. Bu qo'zg'olon umuman olganda rejalashtirilmagan harakat bo'lsada, bir qadar uyushgan harakat edi va shu uyushganligi natijasida ma'lum vaqtgacha katta-katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Qo'zg'olon Shandun va Xebey degan shimoliy viloyatlardan boshlandi. Keyin u Markaziy Xitoydagi Xenan viloyatiga tarqaldi. Qo'zg'olonning birinchi yilidayoq Xuan Chao qo'l ostida 100 mingga yaqin qurollangan dehqon bor edi. 879 yilda Xuan Chao Janubiy Xitoyga yurish qildi, u yerda eng boy port bo'lgan Kantonni oldi. Qo'zgonchilar bu yerda juda ko'p ajnabiy savdogarlarning hamma tovarlarini bosib oldi. Biroq o'z soldatlari orasida epidemiya tarqala boshlaganligi sababli Xuan Chao shimolga, Yantszi daryosi ortiga chekinishga majbur bo'ldi. Epidemiya oqibatlariga qaramay, Xuan Chaoning qo'shini tobora ko'payib, 880 yilda uning soni 250-300 ming kishiga etdi. 880 yilda Xuan Chao Loyan ustiga yurish qildi. O'z vaqt ichida Chan'anni bosib oldi va o'zini imperator deb e'lon qildi. «Dehqonlar imperatori»ning ijtimoiy dasturini uning bosh vaziri o'z gapida ifodalab berdi, u «Da Sining (Xuan Chao uzini Da Si degan nom bilan imperator deb e'lon qildi) oddiy xalqqa roxat va farog'atli xayot baxsh etishdan boshqa muddaosi yuq» dedi. Xuan Chao Chan'anda ikki yarim yil turdi. 884 yilda Tan sulolasining imperatori uyg'urlar, tangutlar va shimoli-g'arbda yashovchi boshqa ko'chmanchilardan iborat varvar to'dalarining yordami bilan poytaxtga qaytib keldi. Saxroyi varvarlar xitoylik dehqonlarini shafqatsizlik bilan qirdi. Bu qonxur yirtqichlarga xalq «kora quzg'unlar» deb nom berdi. Xuan Chaoning o'zi esa Chan'andan qochib ketishga majbur bo'ldi va keyingi yili Xenan viloyatida halok bo'ldi (o'zini-o'zi o'ldirdi).

Tan sulolasining tugashi. Imperator xizmatidagi feodal-amaldor zodagonlarga suyangan Tan sulolasi xaqiqatda dehqonlarning qudratli harakati natijasida ag'darildi. Bu sulolaning imperatorlari qo'zg'olon bostirilgandan keyin yana bir oz vaqtgacha mamlakatni idora qildi. Biroq ularning hokimiyati endi butun Xitoyga yoyilmas edi.

X asrning boshlarida shimolda sharqidan qabilalari ittifoqining katta bir davlati tuzildi, bu qabilalar Manchjuriyani, Mo'g'ulistonning va Shimoliy Xitoyning bir qismini bosib olgan edi.

Tayanch so'z va iboralar: radja, kasta, braxmanlik, savdo, xonlik ma'muriy boshqaruv tizimi

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ilk o'rta asrlarda Hindistondagi ijtimoiy tuzumning Yevropadagi holat bilan o'xshashlik tomonlarini aniqlang?
2. Guptalar davridagi madaniy yuksalishning asosiy sabablarini ta'riflang?
3. Xitoyni markazlashtirish uchun Tan imperiyasining olib borgan ichik siyosatini izohlang?
4. Xuan Chao qo'zg'olonining harakatlantiruvchi kuchlari kimlar edi?

Glossariy:

Ajanta — Hindistonning g'arbidagi shaharcha nomi bilan yuritiluvchi me'moriy majmua. Avrangoboddan shimoliy.-sharkda, Mahorashtra shtatida. Ajanta Vagxora daryosi yoqasidagi tosh qoyalarga yasalgan 29 Budda ibodatxonalaridan iborat (mil. av. II-asr- milodiy VII-asr). Jami 29 ta g'or ichiga zal ishlangan. Ajanta majmuasi qadimgi xalq me'morligi uslubida yaratilgan. Ajantaning keyingi qurilgan qismlari haykallar va devoriy rasmlar bilan bezatilgan. Ularda tantanali shodiyonalar va xalq san'ati aks ettirilgan. San'atkorlar haykaltaroshlik va rassomlik asarlariga xalq badiiy ijodiga xos realistlik ruh va go'zallik bera olganlar.

Bo'lis – o'rta asrlarda ma'muriy-hududiy birlikni aks ettiruvchi tushuncha bo'lib, bugungi kundagi tuman atamasiga mos keladi.

Rajputlar – o'rta asrlarda Hindistondagi harbiy kasta-tabaqa; hozirgi Shimoliy Hindistondagi kasta. Rajputlar ajdodlari milodiy. 1-ming yillik o'rtalarida, asosan,

Rojasthon hududida yashaganlar. Rajputlar o'zlarini qadimgi hind qahramonlari va shohlari – kshatriylarning avlodi deb hisoblaydilar.

27-§. IX-XI asrlarda Ispaniya

Ispaniya vestgotlar davrida. Vestgotlar, svevlar va vandallar V asrda Ispaniyani egallagan edilar. Vestgotlar ilk bor Ispaniya zaminiga 414 yili kirib keldilar. Ular va svevlar Ispaniyada o'rnashib qolgan bo'lsalar, vandallar esa yana yo'lda davom etib Shimoliy Afrika tomon yo'l oladilar.

Vestgotlar qiroli Eyrix (466-488 yillar) davrida Ispaniya Vestgotlar davlati tarkibiga qo'shib olingan edi. U Ispaniyadan tashqari Shimolda Luara daryosigacha g'arbda Biskay ko'rfazi, Sharqda O'rta Yer dengizi va Rona daryosigacha bo'lgan butun Janubiy Galliyani egallagan edi. Ispaniyada vestgotlar davlati to VIII asrgacha yashab keldi.

Vestgotlar Ispaniyasining xo'jalik taraqqiyoti Rim davri keyingi bosqichi va varvarlar tartiblarining uyg'unlashuvi sharoitida bordi. Bu davrda Ispaniyada ishlab chiqaruvchilarning asosiy ommasini qullar va kolonlar tashkil etardilar.

Mamlakatning haqiqiy birligiga erishilmagan, binobarin vestgotlar xristianlikning arian yo'nalishini qo'llab-quvvatlab keyin bo'lsalar, ayni vaqtda aholining katta qismi katolik yo'nalishiga e'tiqod qilardilar. Shuning uchun ham Ispaniya tarixida 589 yil alohida o'rin tutadi. Chunki, qiroli va vestgot zodagonlari shu yili ilgari e'tiqod qilgan diniy yo'nalishdan voz kechib katolik dinini qabul qiladilar.

Bu xodisa vestgot qirolligini jipslashishi va barqaror qolishiga ko'maklashgan ediki, zero endilikda bu qirollik butun Pireneya yarim orolini egallab qolmasdan, o'ziga Fransiyaning janubidagi Septimaniyani ham qo'shib olgan edi.

VIII asr boshlariga kelib vestgot aslzodalari va Ispan - Rim yuqori tabaqasi mamlakatning yagona imtiyozli guruhini Oliy tabaqasini tashkil qilar edi.

Yuqori tabaqa ichida alohida guruhlar bo'lib, lekin ular har doim ham urug', qon-qarindoshlik aloqalari bilan cheklanib qolmasdilar. Jamiyatning yuqori tabaqasiga cherkov ma'muriyati ham kirar edi. Arxiyepiskoplar va yepiskoplar qirollikning boshqaruvi va davlat apparatida salmoqli rol

o'ynasalarda, lekin davlat diniy shaklda (teokratik) emasdi. Aksincha, qirol va uning maslahatchilari ruhoniyyat ustidan rahbarlikni amalga oshirar edilar.

Biroq mamlakatda monarxiya tuzumini unchalik kuchli deb bo'lmas edi. Zero, qirol zodagonlar tomonidan shu toifa vakillari orasidan saylanar, bu esa garchi ba'zi qirollar hayotlik chog'laridayoq o'z o'g'illarini boshqaruvga jalb qilgan va ularga taxtni voris qilib qoldirishga intilgan bo'lsalarda, taxtni meros qilib qoldirish haqida qat'iy qonun mavjud emas edi. Bunday holat hukmron doiralar boshqa vakillarning noroziligini keltirib chiqarar, taxt vorisligi masalasi doim yuqori tabaqalar turli guruhlarini taxt uchun kurashlariga undar edi.

Qirolning zaifligi shuningdek armiyaning qoniqarsiz holatda ekanligi bilan ham izohlanar edi. Nazariy jihatdan qurol ishlatishga qodir bo'lgan barcha ozod erkaklar qirolning farmoni bilan harbiy xizmatga tayyor bo'lishlari, lekin bu keyinroq G'arbiy Yevropada tarqalgan, vassallik munosabatlarida ko'zda tutilgan xizmatning o'sha shakllari emasdi. Bu yerda har bir odam qirol bilan bevosita muomala holatida bo'lib, unga bo'ysunishi joiz edi.

VII asr oxiriga kelib muayyan darajada ko'zga ko'ringan armiyani shakllantirish yo'lida ko'pgina qiyinchiliklarga duch keldilar. Vestgotlar imperiyasining zaifligi, qabilalarni siyosiy birlik deb biluvchi german kontseptsiyasi ildizlari bilan bog'liq bo'lib, binobarin vestgotlar bu kontseptsiyani qo'llash butunlay noqulay bo'lgan Ispaniyada joriy qilishga uringan edilar.

Boshqaruvning davlatchilikka qadar bo'lgan tizimlarining sarqitlari V-VI asrlarda qo'shinlarda muayyan ahamiyatga ega edi. Vestgotlar qirolligi mavjudligini birinchi bosqichida erkin gotlardan tarkib topgan qo'shin qirollarni tayinlash, urush va tinchlik masalalarini hal qilishga ta'sir ko'rsatib, bir qator hollarda mustaqil siyosiy rol o'ynab keldi.

Jangchilar urush vaqtida qo'lga kiritilgan o'ljalari va harbiy yurishda ishtirok etishdan bo'yin tovlagan kishilardan olinadigan jarimaning bir qismiga

egalik huquqini saqlab qoldilar. Biroq, qo'shinda german xalq lashkarlariga begona bo'lgan jihatlar birmuncha erta ko'zga tashlana boshladi.

VI asrdan xalq lashkarlari yig'ini uchun qullardan tayinlangan maxsus mansabdorlar belgilangan edi. Agar vestgot qirolligining dastlabki yuz yilligida harbiy xizmat faqat germanlarning burchi hisoblangan bo'lsa, VI asr boshlarida esa, harbiy yurishlarda shuningdek, gal-rimliklar va ispan-rimliklar ishtirok eta boradilar.

Gotlar Ispaniyasida muntazam armiya asoslari mavjud bo'lib, ba'zi shahar va qal'alarda muntazam gornizonlar joylashgan edi. Ba'zi hollarda rim odati bo'yicha jangchilar davlatdan maosh - annon olardilar.

VII asr oxiriga kelib harbiy tizimda tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Harbiy yurishga jo'nab ketar ekanlar yirik yer egalari o'z drujinalarini va shuningdek, qaram kishilar va ozod kishilarni o'zlari bilan olib borishlari kerak edi. Erkin kishi yurishga yo graf yoki, o'zining sen'ori qomondonligi ostida kirar edi.

Soliqlar nafaqat yer egalaridan, balki begonalar yeridan foydalanuvchilar, cherkovdan, xususiy shaxslardan olingan soliq to'lashdan kliriklar (cherkov xodimi) ham ozod qilingan. Yaxudiyalar alohida soliq to'laganlar, agar ular xristianlikni qabul qilsalar, bu soliqni to'lashdan ozod qilinardilar. Vestgotlar qirolligining so'nggi davrlarida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi va feodallashgan magnatlarning qarshilik ko'rsatishi tufayli soliq olish tobora qiyinlashib bordi.

Vestgotlar soliq tizimi gotlar Ispaniyasida so'nggi rim davlatchiligi elimentlarining saqlanganligi yorqin namunasi bo'lib xizmat qildi. Albatta, bu tizimda sotsial strukturadagi o'zgarishlar va feodallashuv jarayoni bilan bog'liq ravishda o'zgarishlar yuz bergan edi. Vestgotlar huquqi Eyrix qonunlaridan boshlaboq rim huquqining kuchli ta'sirida bo'lib keldi. Qirollik hokimiyati urug'chilik tuzumi boshqaruvi tizimining sarqitlarini zo'r berib tugatishga intilardi.

Umuman olganda, vestgotlar davlati mustahkam emas ediki, bu esa uni arablar tomonidan istilo qilinishini engillashtirdi. Arablar qo'shinining bevosita bostirib kirishiga toju-taxt uchun kurashlar bahona bo'lgan, zero hokimiyat uchun kurash bu gal fuqarolar urishiga aylanib ketgan edi.

Shunday qilib vestgotlar qirolligining zaifligini ikki asosiy sabab bilan: 1) hukmron tabaqa orasida taxt vorisi masalalarida birlikning yo'qligi; 2) jamiyatning keng qatlamlarida yuqori tabaqa vakillari foydalanayotgan imtiyozlardan norozilik va armiyaning ishonchsizligi bilan izohlash mumkin.

Ispaniyada arablar bosqini. 711-714 yillardagi arablar bosqini Ispaniyada vestgotlar davlatini barbod qildi. Ispaniya deyarli to'liq tarzda Arab xalifaligi tarkibiga kirdi. Arablarning birinchi guruhi Tariq ibn Ziyodning qo'shinlari katta qiyinchiliklarsiz vestgotlar davlati poytaxti Toledoni ishg'ol qildilar va bu yerda qishlab qolishga qaror qildilar. Shu yili oktyar oyida 700 otliqdan iborat otryadga Kordova ham taslim bo'ldi.

Faqatgina 718 yili Asturiya tog'larida Ispaniyaning eng shimoliy chekkasida Vestgot-Ispan xristian qirolligi tashkil qilindi. Ispaniyada o'rnashib olgan arablar Old Osiyoning birinchi rivojlangan, madaniyatli mamlakatlar va xalqlar bilan aloqalarni saqlab qoldilar. Arablar tomonidan egallangan Ispaniya hududlarida yangi qishloq xo'jalik ekinlari: guruch, xurmo, anor va qand lavlagi ekish yo'lga qo'yila boshladi. Metalga ishlov berish va to'qimachilik, xunarmandchilik yaxshilandi. Tog' - kon ishlari rivojlandi. Sug'orma dehqonchilik keng qo'llanila bordi, uzumchilik kengaydi. Qo'y boqish va ipak yetishtirish keng yoyildi.

Ispaniyada o'rnashib qolgan arablar va barbarlar uzoq xalifalikka qaramlik va bosib olingan yerlardan olinadigan daromadlarni xalifa bilan bo'lishish zarurligidan aziyat chekardilar. 743 yili barbarlar qabilalari Ispaniyada xalifaga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Bundan Asturiya qirolligi foydalanib, o'z chegaralarini Duero daryosigacha uzaytirdilar. Ummaviylar sulolasi barham topganidan so'ng (750 yil) Xalifalik taxtiga Abbosiylar kelganidan so'ng, Ummaviylardan biri Ispaniyaga qochadi va bu yerda mustaqil Kordova

amirligiga asos soladi. Ummaviylar Ispaniyada 756 yildan 1031 yilgacha hukmrolik qiladilar.

Kordova amirligi xalifa Abduraxmon III davrida (912-961 yillar) eng yuqori siyosiy qudratiga erishdi. Abduraxmon boshqaruvining dastlabki 20 yili nafaqat al-Andalusning birligini tiklanishi bilan balki Ispaniya shimolidagi xristian qirolliklari – Leon va Navarra bilan kurashda muvaffaqiyatlari bilan ham ko'zga tashlanadi. Bu davlatlarning kuchsizligi qandaydir darajada Korollinglar imperiyasini parchalanishi bilan, balki bu davlatlar hukmdorlarini oldingi hukmdorlarga nipsbatan kamroq layoqatli bo'lganlik bilan izohlanishi mumkin. Nima bo'lganda ham, Abdurahmonning 920-924 yillardagi harbiy ekspeditsiyalari musulmon hududlariga xristianlarning hujumlariga barham bergan edi. Biroq, musulmonlarning ta'siri Ramira II Leonskiy (932-950 yillar) boshqaruvi davrida to'xtatib qo'yildi.

Leon hukmdori Ramiro uchun ayniqsa, 939 yil muvaffaqiyatli bo'ldi. Kichik bo'lsa ham bu yili Abduraxmonga berilgan zarba uning obro'sini bir muncha tushiradi. Ramiro o'z muvaffaqiyatidan foydalanib, xristianlarni Salamonka atroflariga ko'chirtiradi. Lekin o'sha zaxoti Kastiliyaning Leonni o'z davlatiga qo'shib yuborishga qaratilgan hujumlarini qaytarish bilan shug'ullanishiga to'g'ri keldi va tez orada Abduraxmon o'z harbiy salohiyati va siyosiy ta'sirini tiklab oladi.

Remironing 950 yili o'limidan so'ng o'zaro ichki urushlar xristian davlatlarini anchagina zaiflashtiradi. 951-961 yillarda Abduraxmon hokimiyati va ta'siri misli ko'rilmagan darajada kuchayadi. Abduraxmon va uning vorislarni gegemonligini (yoki syuzereniteti) Leon, Navarra qirloligi, qirollari va Kastiliya, Barselona graflari tan oladilar. Tan olish ham shunchaki nomiga bo'lmay, har yili soliq to'lash bilan mustahkamlangan bo'lib, soliq to'lashdan bosh tortish esa jazo ekspeditsiyalari uyushtirilishiga sabab bo'lardi. Shunday qilib, 960 yildan boshlab to X asr oxiriga qadar arab-musalmonlarning Pireney yarim oroli ustidan nazorati har doimgidan ko'p darajada bo'ldi.

929 yili Kordova arablar hukmronligidagi Ispaniyaning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi uchun qadimgi davridayoq asos solingan va vestgotlar qirolligi davrida ham ham saqlanib kelgan shaharlar (Sevilya, Kordova, Valensiya, Grenada, Toledo)larning o'sishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Kordovada X asrda 113 ming uy bo'lgan. Kordova xalifalari qullardan (mamlyuklar va g'ulomlar) doimiy armiya tuzdilar. Qullar qul savdogarlari tomonidan Ispaniyaga keltirilar, ularning ko'pchilik qismi slavyanlardan yoki Sharqiy Yevropaning boshqa qabilalari va elatlaridan tarkib topgan edi.

Arablar Ispaniasining ma'muriy tuzilishi. Arablar Pireney yarim orolidagi o'zlarining mulklarini "al-Andalus" deb atardilar. Bu atama "Vandalisiya" so'zining buzilgan shakli bo'lib, u ham o'z navbatida "vandallar" so'zidan kelib chiqqan.

Arablar uchun Al-Andalus Pireney yarim orolining shimolidan Marokashga to Markaziy Osiyo, Panjobgacha bo'lgan hududlarni egallagan ulkan imperiyaning birgina viloyati (xatto viloyatning bir qismi) bo'lib saltanatni xalifa ("voris", o'rinbosar) boshqarardi. Xalifa Muhammad dunyoviy hokimiyatining vaqtinchalik vorisi sanalgan.

Muhammadning dastlabki to'rt vorisi 632-661 yillarda imperiyani boshqarganlar. 661 yildan xalifalik Makkaning quraysh qabilasining bir tarmog'i Ummaviy sulosali hokimiyati ostida bo'ladi. Ummaviy xalifalar Damashqni o'zlarining poytaxti qilib belgiladilar.

Al-Andalusdagi Ummaviylar davlati avtokratiya shaklida bo'lib, hokimiyat amir yoki xalifa qo'lida to'plangan edi, lekin u istagan vaqtida masalan al-Hakam II kabi boshqaruvning katta qismi ma'suliyatini yoki xatto siyosat ustidan umumiy nazoratni istagan kishisining zimmasiga yuklashi mumkin edi.

Odatda hukmdor qoshida xojib deb nomlangan bosh vazir lavozimi mavjud bo'lib, u taxminan sharqiy yerlardagi vazirlar kabi vakolatlarga ega edi.

Al-Andalus 21 viloyatdan iborat bo'lib, har bir viloyatni gubernator yoki vali boshqarar edi. Musalmon bo'lmaganlarga ma'lum darajada muxtoriyat berilgan.

Qo'shinda yollanma askarlardan birinchi bo'lib, al-Hakam I (796-822) foydalangan bo'lib, ularning soni yildan - yil ortib boradi. Ularning ko'pchiligi sobiq qullardan bo'lgan franklar va slavyanlardan iborat bo'lgan, keyinroq yollanganlar orasida shimoliy afrika barbarlari va negrlar paydo bo'lishdi.

Tayanch iboralar: vestgotlar, svevlar va vandallar, annon, kliriklar, Eyrix qonunlari, Toledo, Tariq ibn Ziyod, al-Andalus, Vandalisiya, xalifa.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ispaniyada Vestgotlar davri o'zining qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?
2. Ispaniyada Arablar bosqinining ichki asosiy sabablari nimalardan iborat deb o'ylaysiz?
3. Kordova xalifaligida boshqaruvning o'ziga xos qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?
4. Arablar Ispaniyasining ma'muriy tuzilishini ta'riflab bering.
5. Al-Andalus viloyatda musulmon bo'lmaganlarga qanday imkoniyatlar berilgan?
6. O'rta asr Ispan davlatlarining shakllanish jarayoni qanday kechgan edi?

Glossariy:

Annon – jangchilarga beriladigan maosh.

Gidalgo – zodagonlar, mulkdorlar, katta yer egalari.

Rikos – ombres – zodagonlarning oliy tabaqasi, qioldan mustaqil urush olib borish va shu yo'l bilan ko'p yer-mulklar bosib olishi mumkin bo'lgan feodallar.

Infensonlar - Oliy zodagonlarga nisbatan kichikroq, qirolga bevosita vassal bo'lgan feodallar.

Kavalero – ritsarlar, otliq jangchilar, o'z xizmatlari uchun ma'lum imtiyozlarga ega bo'luvchilar.

28-§. IX-XI asrlarda Germaniya va Italiya

Germaniya imperiyasining tashkil topishi. Germaniya Karolinglar imperiyasi tarkibidan uning parchalanib ketganidan so'ng ajralib chiqdi. Reyn daryosining shimolida joylashgan viloyatlar Verdan shartnomasiga (843 yil) ko'ra Karl Buyukning nevaralaridan biri Lyudovik nemisga tegadi.

Germaniyaning o'rta asrlardagi tarixi ilgari Rim imperiyasi tarkibiga kirgan va keyin esa varvarlar bosqiniga uchragan G'arbiy Yevropa mamlakatlari tarixidan ko'p jihatdan farq qilardi. Germaniya hududi Rim imperiyasi tarkibiga kirmagani bois uning rivojlanishiga Rim tartiblarining ta'siri sezilarli darajada bo'lmagan. Germaniyada X-XI asrlarda G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlariga nisbatan (Italiyadan tashqari) hali ko'p jihatidan ijtimoiy – iqtisodiy shart sharoitlar davlat markazlashishi uchun unchalik qulay shart sharoitlar yetilmagan edi.

X asr boshlariga kelib, Germaniya tarkibiga quyidagi gersogliklar kirardi: (qabilaviy gersogliklar deb ataluvchi) Saksoniya va Tyuringiya (Reyn va Elba irmoqlari oralig'ida), Frankoniya (Mayn va Reynning o'rta oqimi bo'ylab), Shvabiya (Dunay va Reynning yuqori oqimi bo'ylab). Ulardan har birini muayyan german qabilasi egallagan edi. X asrning birinchi yarmida ularga yana Reynning g'arbida joylashgan Lotaringiya, 1032- yilda esa Burgundiya qirolligi ham qo'shib olingan edi. Saksoniyadan shimoli – g'arbda ko'hna viloyat frizlar yurti (Friziya yoki Frislandiya) joylashgan edi. Bu barcha gertsogliklar bir biridan aholisining qabilaviy tarkibi, tili va iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishi darajasi bo'yicha katta farq qilishar edi.

X asr boshlarida Saksoniya sulolasining (919-1024) birinchi vakili qirol Genrix I Qushboz (919-936 yil) davrida barcha german gertsogliklari yagona qirollikni tashkil qiladilar. Bu qirollik Tevton qirolligi deb atalardi. Qirollik nomi eramizdan avvalgi II asrdagi qadimgi german qabilalari - tevtonlarning nomlanishidan kelib chiqqan bo'lib, "Tevtonlar" so'zidan nemislar nomi

“Teutschen yoki Denschen” va bundan esa hozirgi Germaniyaning “Denschland” nomlanishi ham kelib chiqqan.

IX asr oxirida vengr qabilalari Pannoniyani egallab, bu yerdan G'arbiy Yevropaga hujumlar uyushtira boshlaydilar. Genrix I Qushboz vengr qabilalariga qarshi kurash olib boradi. Uning davrida harbiy islohot o'tkaziladi. U yangi otliq qo'shin va Saksoniya, Tyurengiya chegarasida bir qancha mustahkamlangan burglar barpo qiladi. Germaniya gersoglarining birlashgan kuchlari 933- yili vengrlar ustidan ulkan g'alabaga erishadilar.

German (Tevton) qirolligi o'zining vujudga kelgan vaqtdan boshlab, polab slavyanlariga qarshi istilochilik siyosatini boshlagan edi. Genrix Qushboz o'z qo'shinlari yordamida avval mustahkamlangan qal'a Braniborni ishg'ol qiladi va lujitsa serblari erida Meysen qal'asiga asos soladi. Slavyanlar yerlariga nisbatan istilochilik siyosati Otton I davrida ham davom etadi. Elba daryosi ortidagi yerlarning istilo qilinishi, Elba va uning irmoqlari havzasida markalar-chegara viloyatlarini tashkil qilinishiga olib keldi. Bu markalarda Otton I sobiq slavyan knyazlarining mulklarini o'zining vassallariga bo'lib berdiki, bodrichlar, lyutichlar va lujitse serblari qabilalariga mansub mahalliy aholi ularga barshchina o'tashi, soliqlar to'lashi lozim edi. Markalar hududlarida xristianlik tarqatildi va yepiskoplik va monastirliklar tashkil etildi.

Qirollik hokimiyati X asr boshlarida unchalik mustahkam emasligi bois Genrix Qushbozning vorisi Otton I (936-973) cherkov feodallaridan o'ziga tayanch izlashga intiladi. U ularning boshqaruviga katta-katta yerlarni taqdim etadi. Bu yerlar asosan Reyn daryosi bo'ylab savdo yo'li bo'yidagi aholi zich bo'lgan Germaniyaning g'arbiy qismida yastanib yotardi. Bu yerda qisman Rim davrlaridan saqlanib kelayotgan va ko'pchilik shaharlar joylashgan edi. Ruhoniyat qirolga otryadlar yetkazib berishi, xatto yurishlarda ularga bosh bo'lib borishi, armiya uchun oziq-ovqat yetkazib turishi eki qasrning katta zaxiralaridan qirol mulozimlari va qo'shinini boqishga majbur edi. Qirolga ruhoniyatning xizmati foydali, chunki yepiskopning vafot etishi bilan uning

oilasi va farzadlari bo'lmaganligi bois yerlari va daromadlari qirol tasarrufiga o'tib ketardi.

Otton 1 yepiskop va abbatlarning hokimiyatini ularning daxlsizlik huquqlarini (immunitet huquqlari) kengaytirish yo'li bilan kuchaytirdi. Oliy ruhoniyat qirol xizmatiga o'tar ekan, feodal axloqiy normalarini o'zlashtirib olardi. Cherkovning katta amaldorlari (prelatlar) yirik sen'orlardek yashardilar. Yerlar va qasrlar ustidan boshqaruvga kirishar ekan, yepiskop qirolga vassallik qasamyodini ado etar va undan xassa va uzuk bilan investitura qabul qilib olardi.

German qirol cherkov poytaxti bo'lgan Rimni egallashga intiladi. U Germaniyaning o'zini ichida ruhoniyat ustidan o'z hukmronligini mustahkamlash maqsadida papa ustidan hokimiyatga ega bo'lishdan manfaatdor edi. Italiyani bosib olishga bo'lgan intilish yana shu bilan izohlanar ediki, janubiy Germaniyaning ko'p feodallari Pipin Kichkina va Karl Buyuk yurishlari davridanoq Shimoliy Italiyada (Lombardiya) o'zlariga qaram bo'lgan yer-mulklarga ega edilar.

Otton 1 italyan gertsoglarining qirollik tituli uchun baxslariga aralashib qo'shin bilan Alpdan o'tib Lombardiya ko'hna poytaxti Paviyada temir toj kiyadi.. Shundan keyin u Rimga yo'l oladi. Bu vaqtda papalik ham Yevropaning katta qismidagi qirollik hokimiyati singari zaiflashgan edi. Papalar muqaddas Petr votchinasini senyorlarga taqsimlab bergandilar. Rimning yirik imeniy egalari papalik taxtiga o'z qarindoshlarini, ayniqsa kichik o'g'illarini olib kelib o'tkaza boradilar. Senyorlar urug'lari o'rtasida shavqatsiz o'zaro kurash kelib chiqadi. Ba'zi papalarni dushmanlar ag'darib tashlagan bo'lsalar, boshqalari esa o'zlari qotilliklarda qatnashadilar. X asr oxirida xatto bir o'lgan papani ham sud qilishgan: uning murdasini qabrdan kovlab olib sudyalarni oldiga keltirib tashlaganlar va so'ng Tibr daryosiga uloqtirganlar. X asrda papalardan birini chavaqlab ketsalar yana boshqasi qamoqda bo'g'ib o'ldiriladi. Uchinchisi esa o'zining ikki raqibini o'ldiradi, uning o'zini esa o'ldirib Kapitoliydagi imperator saroyi ostonasiga tashlab ketishgan

Dunyoviy kishilar papa bo'lib olardilar, xatto senyorlardan biri papalik taxtiga o'zining 12 yashar o'g'lini yetaklab kelgan ekan.

Rimga kirib kelar ekan, Otton cherkovni tiklashga va unga muqaddas Petr yerlarini qaytarib berishga va'da beradi. Buning uchun Petr unga imperatorlik tojini kiydirishi kerak edi (962 yil). Yangi imperator cherkovning homiysi sifatida unda tartib o'rnatmoqchi bo'ladi. U papalarni odat bo'yicha saylanishini talab qiladi, biroq bunda ular imperator yoki uning vakiliga qasamyod qilishlaridan oldin papalik unvonini olmasliklari kerakligi shart qilib qo'yilgan edi. Bu Karl Buyukdan keyin 150 yil o'tib "Muqaddas Rim imperiyasi"ning tiklanishi edi. Endilikda imperiya hududi uchdan bir qismiga kichik bo'lib, uning tarkibiga Fransiya kirmagandi .

Tarkibiga siyosiy va iqtisodiy tarqoqlikning turli darajalarida bo'lgan. turli elatlar kirgan Germaniya imperiyasi yagona markazga ega emas edi. Ko'plab german feodallari yangi yerlar va daromadlarga ega bo'ldilar. Biroq, German imperatorlarining Shimoliy va O'rta Italiya ustidan hukmronligi muayyan darajada nomigagina bo'lib, Otton I va uning vorislarini Janubiy Italiyani bosib olishga bo'lgan urinishlari chippakka chiqadi.

Har bir taxtga chiqqan imperator imperatorlik tojini va Italiya ustidan hokimiyatni yangi istilochilik yurishlari bilan qo'lga kiritishi lozim edi. German qirollari to'rt yuz yil mobaynida Otton yo'lini qaytarganlar. Ulardan deyarli har biri vassallar yig'ib "Rim yurishini" uyushtirgan. Saroy mulozimlari va qo'shinlar Sharqiy Alp orqali Italiya tomon yo'l olardilar. German qirollari Italiya qirolligini ishg'ol etgach, Rimga toj kiyishga shoshilardi. O'sha davr taomiliga ko'ra imperatorni "Rim xalqi" tomonidan saylanishi talab qilinardi, bu xalq esa Rim shahri fuqarolari hisoblanardi. Biroq, Rim fuqarolari ko'p hollarda Rim darvozalarini "varvarlar" – german jangchilariga berkitib qo'yar yoki qo'shinlar Rim devorlari oldiga yetib kelganlarida qo'zg'olon ko'tarar edilar.

Imperatorlar cherkovni yomon xulqu, suiste'molliklaridan tozalashni o'zlarining burchlari sanashar, shuning uchun o'zlariga munosib bo'lib ko'rinmagan papalarni o'z xohishlariga ko'ra almashtirganlar. Frankoniya sulolasiga mansub kuchli

imperator Genrix III (taxminan 1050-yil) o'zidan oldingi papadan lavozim sotib olgan papani taxtdan tushiradi va uning ikki raqibini jazoga hukm qiladi. Shundan keyin u papa taxtiga birin ketin uch german episkopini o'tkazadi. Imperator papani tayinlash huquqini doimiy saqlab turmoqchi edi. Lekin uning o'limidan keyin taxtga chiqqan o'g'li Genrix IV ning yoshligi tufayli vaziyat o'zgaradi. Buning ustiga papa saroyida va papa taxtida cherkovning jamiyat ustidan mavqeini yuqori ko'tarish niyati bilan yashovchi serg'ayrat kishilar paydo bo'ldilar. Papalikda va butun cherkov tartiblarida yirik o'zgarishlar yuz beradi.

Italiya yurishlari oqibatida Germaniyaning mutlaqo tinka madori quriydi. German imperatorlari hokimiyatini kuchsizlanishi aslida X asr oxirida boshlangan edi. Bu davrda german imperatorlari Sharqdagi tashqi siyosatlarida mag'lubiyatga uchradilar. Lyutich va bodrichlardan iborat slavyan qabilalari X asr oxiri va XI asr boshlarida o'z yerlarini deyarli qaytarib oladilar. Nemis ruhoniylari tomonidan asos solingan cherkovlar va mustahkamlangan punktlar (burchlar)ni yo'q qila borib, Elbaning so'l qirg'og'ida bir qator mulklarga ega bo'ladilar. Otton I davrida buned qilingan markalar va yepiskopliklar tizimi XI asr o'rtalarida slavyan qabilalarining qattiq qarshiligi oqibatida tor mor qilindi. Lyutichlar 1055-yili german taxtidagi yangi Frankoniya sulolasi vakili – Genrix III ni (1039-1056 yillar) og'ir mag'lubiyatga uchratadilar. Genrix III ning Vengr qirolligini istilo qilishga urinishlari ham chippakka chiqadi, Chexiyanigina u nomiga imperiyaga qaram qilishga muvaffaq bo'lgan edi.

IX-XI asrlarda Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlari. Germaniya uchun bu davr feodal munosabatlari rivojlanishining past sur'atlari xarakterlidir.

Dehqonlar jamoasi to'lig'icha yirik yer egalari hokimiyati ostiga tushib qolgan qishloqlar bilan bir qatorda mayda feodallar istiqomat qiladigan, aholisining bir qismi qaram qilingan qishloqlar ham mavjud bo'lgani holda hali tamomila erkin dehqonlardan tarkib topgan jamoalar ham anchagina topilardi.

Sharqiy Frank davlatida (Germaniyada) IX asrda yer ishlashning uch dalali tizimi tarqaladi. Dehqonning chek yeri gufa deb atalar, gufa va tomorqali hovliga ega

bo'lish (mans deb ataluvchi) erkin dehqonga jamoaga qarashli o'rmon, yaylov to'qay va suvlardan foydalanish huquqini beradi. Germaniyaning xo'jalik hayotida don yetishtirish ustuvor bo'lib nemis dehqonlari shuningdek, bog'dorchilik va polizchilik bilan ham shug'ullanardilar. Vinochilik Reyn bo'yi viloyatlari va Janubi- g'arbda tarqalgan edi. Janubiy Germaniyada, Shvabiya va Bavariyaning tog'lik rayonlarida chorvachilik keng yoyilgan edi.

Ozod dehqonlar prekaristlarga aylanib o'zlarining chek yerlariga egalikdan maxrum etilsalar-da lekin unda o'z xo'jaliklarini yuritishni davom ettiraverardilar. Dehqonlar ommasini qaram qilish darajasi G'rabiy Frank davlati (Fransiya)dagiga qaraganda pastroq bo'lib qaram dehqonlarning barshchinasi yiliga 6 xaftadan oshmas, prekoristlar esa asosan oziq-ovqat pul solig'ini to'laganlar.

Benefitsial tizimning vujudga kelishiga qaramay Germaniyada hali feodal ierarxiya yuzaga kelmagan, martabalar merosiyligi (masalan: graflik martabasi) mavjud emasdi. Nemis feodallari yer jihatidan qaram bo'lgan, lekin shaxsan ozod bo'lgan dehqonlarni sud qilish, shuningdek o'z sudlarida yirik jinoiy ishlar (o't qo'yish, qotillik)ni ko'rishga xaqlari bo'lmagan. X asr boshlariga kelib nemis feodallari shaxsan ozod bo'lmagan dehqonlarnigina sud qilish huquqiga ega bo'lgan edilar.

1073-yili Saksoniyada qo'zg'olon avj olib ketadi. Saksoniyada X-XI asrlarda feodallarning turli guruhlari dehqonlarning chek yerlari va ulardan keladigan daromadlari uchun o'zaro kurash olib boradilar. Qirollik hokimiyati daromadlarning bir qismini o'z qo'liga olishga intilib bu kurashga aralashadi. Qirol Genrix IV (1056-1106) Saksoniyani qirolning shaxsiy mulkiga (domeniga) aylantirishga qaror qiladi. Yirik sakson feodallari Genrix IV ning siyosatidan norozi edilarki, buning asosiy sababi qirol ministeriallarining (lotincha ministerium so'zidan - mansab) Saksoniyada mustahkamlangan harbiy punktlar-burglar qura boshlashlari, sakson feodallari mulklarini to'g'ridan - to'g'ri musodara qilinishi edi. Qirol ministeriallari bu yerda ozod dehqonlarni barshchina o'tashga va yaylovlardan foydalanganliklari uchun soliq to'lashga majbur qila boshlaydilar.

Yirik sakson zamindorlari Genrixga qarshi fitna tayyorlaydilar. Sobiq Bavariyalik gertsog, sakson feodallari yetakchisi Otton Nordgeymskiy ozod dehqonlarga quyidagi so'zlar bilan murojaat qiladi: "Qirol sizdan siz ega bo'lgandan ham ko'prog'ini, hamma narsangizni tortib olib kelgindi odamlar foydasiga sizning mulkingizni sovurib tug'ilishdan mutlaqo ozod bo'lgan sizlarni hech kim tanimagan kishilarga qul bo'lishni ravo ko'rmoqda". Genrix IV ning ko'p sonli garnizonlarini ta'minlab turishga majbur bo'lgan dehqonlar qo'zg'olon ko'tardilar. Erkin dehqonlar asoratga solinishga qarshi, qaram dehqonlar esa barshchinani kuchaytirilishiga va majburiy natural soliqlarga qarshi kurashdilar.

Solnomachilarning ta'kidlashicha 1074- yilning boshida aholining barcha tabaqalari qo'zg'olonga qo'shilgan. Voqealar umumgerman ahamiyatiga ega bo'lgan edi. Qirol qo'zg'olonni bostirishga erishadi. Itoatsizlardan qattiq o'ch olib u qo'zg'olonda ishtirok etgan feodallarning yer mulklarini musodara qilib, o'zlarini Saksoniyadan badarg'a qiladi.

Papalar va imperatorlarning investitura uchun kurashi. Klyuniychilik harakati va Grigoriy VII islohotlari. Katolik cherkovi XI asr o'rtalarida alohida bir xolatda edi. Bir tomondan cherkov o'z ta'sirini qariyb butun G'arbiy Yevropaga yoygan bo'lib, cherkovning Yevropadagi turli mamlakatlarda juda ko'p yerlari bor edi. Ularni Rim papasi bir markazdan turib boshqarar edi. Katolik cherkovining mafkurachilari IX asrdayoq cherkov (papa) hokimiyati dunyoviy hokimiyatdan (imperator, qirol hokimiyatidan) yuqori turardi deb bayon qilgan edilar. Lekin aslida haqiqatda papalik bunday hokimiyatga ega emasdi. Papalar odatda Rim ruhoniylari va Rim dunyoviy zodagonlari tomonidan saylanar edi. Papa saylovining qat'iy bir tartibi yo'qligi oqibatida bu saylovlar uzluksiz urushlarga aylanib ketar va bu narsa imperatorlarning Rim kuriyasi ishlariga aralashishiga imkon berar edi. Katolik cherkovining yerlari ko'p bo'lsada, lekin bu yerlar dunyoviy hokimiyatning leni deb hisoblanardi. Germaniyada esa imperatorlarning dunyoviy vassallari qo'lidagi yerlardan ko'ra cherkov yerlari ko'proq imperator ixtiyorida edi ("Otton I ning yepiskoplik tizimi").

Cherkov doiralarida bir harakat vujudga keldiki, bu harakat papaning cherkov ustidan bo'lgan hokimiyatini kuchaytirishni va cherkovning o'zini dunyoviy hokimiyatdan mustaqilligini oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Bu kayfiyatlarning ifodachisi Klyuniy monastirining monaxlari bo'lib, bu monastir Burgundiya (Fransiya tarkibiga kirgan qismida, Makon shahriga yaqin bir joyda) eng katta monastir edi. Klyuniy monaxlari XI-XII asrlarda Germaniya, Fransiya, Italiyada o'nlab monastirlar ochib, alohida monastirlar federatsiyasini tuzadilar, bu federatsiya papaning homiyliги ostida edi. Klyuniychilardan biri Gildebrand nomli toskaniyalik italyan bir guruh maslakdoshlari bilan birgalikda 25 yil davomida bir necha papa davrida rahbarlik mavqeida bo'lib keladi. Pirovardida Gilderandning o'zi papalik taxtiga chiqib, Grigoriy VII (1073-1085 yil) degan nom oladi. Grigoriy VII mustahkam irodali, murosasiz, qaysar, mutaasib kishi bo'lib, u papalar o'z hukmi bilan qirollar va imperatorlarni taxtdan tushurishlari mumkin deb hisoblardi.

Grigoriy VII katolitsizmni markazlashtirish va jipslashtirishga yordam beruvchi bir qancha muhim islohotlar o'tkazadi. 1059- yili papa saylashni yangi tartibi joriy qilinib, unga ko'ra endi papalarni faqat kardinallargina saylashi kerak edi. Kardinallarning saylov yig'ilishi konklav deb atalar edi. Yangi saylov tarkibiga ko'ra imperator va dunyoviy feodallarning papa saylovlarida ishtirok etishlari mutloqo mumkin emasdi. Birgina shuning o'ziyoq papalikning dunyoviy hokimiyatni mensimasligini ko'rsatdi. 1060- yilgi islohot esa ruhoniylarning o'zini intizomga chorlash maqsadida o'tkazildi. Bunga ko'ra, selibat ya'ni, barcha ruhoniylarni shu jumladan monaxlar va yepiskoprlarni uylanmasligi majburiyligi, belgilandi. Ruhoniylarning uylanishini ta'qiqlash cherkov yerlarini daxlsiz qilib qo'yardi, chunki uylangan yepiskoplar, odatda, mulkini o'z bolalariga qoldirishga harakat qilar edilar. Grigoriy VII nihoyat 1075- yili yangi saylangan yepiskopga yoki abbatga uzuk va hasa shaklida imperator tomonidan berilib kelgan dunyoviy investiturani bekor qilish to'g'risida dekret chiqardi.

Shu vaqtdan e'tiboran investiturani ya'ni ruhoniylarni vazifaga tayinlash yorlig'ini – faqat papaning o'zigina beradigan bo'ldi.

Genrix IVning bosh ko'tarib chiqishi. Rim cherkovining yuqorida aytib o'tilgan islohotlaridan dastlabki ikkitasini amalga oshirishga imperator Genrix IVning yoshligi ham katta imkon bergan edi. Zero, Genrix III o'lgan yili u endigina 6 yoshga to'lgan edi. Imperatorlarning yoshligidan imperiyadagi knyazlar foydalanib qoladilar, oqibatda Germaniyada XI asr 50-60-yillarida siyosiy tartibsizlik hukm surgan edi. Shuning uchun papalik uzoq vaqtgacha imperator hokimiyati bilan hisoblashmadi. Ammo, Rim kuriyasi investituraga oid uchinchi islohotga kirishgan paytda endilikda balog'at yoshiga yetgan Genrix IV bunga qattiq norozilik bildiradi. Vormsda 1076- yilning boshlarida bo'lgan German yepiskoplari va zodagonlarining yuqori tabaqalar qatnashgan cherkov yig'ilishida imperatorning talabi bilan Grigoriy VII papalikdan tushiriladi. Bunga javoban Grigoriy VII ham Fransiya va Italiya yepiskoplarini Rimdagi yig'ilishda Genrix IVning o'zini taxtdan tushirilgan deb e'lon qiladi. Shunday qilib, papa bilan imperator o'rtasida uzoq davom etgan kurash boshlanadi. Genrix IV sakslar ustidan g'alaba qozongach, o'zini Grigoriy VII ga nisbatan ham hujum siyosati yuritish uchun yetarli kuchga egaman deb hisoblagan edi.

Kanossa. Ammo imperatorning papaga qarshi kurash olib borishi oson bo'lmadi, chunki imperatorning tarafdorlari ko'p bo'lishi bilan bir qatorda dushmanlari ham oz emasdi: yirik feodallarning ko'pchiligi shu jumladan saks feodallari, monarxlik qiluvchi ruhoniylarning ko'pchiligi italyan va qisman nemis yepiskoplari, Italiya shaharlarining bir qanchasi unga dushman edilar. Imperatorning papaga qarshi kurashi feodallarga qo'l kelib imperatorga qarshi

yana isyon ko'tarish uchun bahona bo'ldi.

Shundan keyin Genrix IV juda ham og'ir ahvolga tushib qoladi unda papa bilan murosaga kelishdan boshqa chora qolmaydi. Imperator 1077- yili Italiyaga kelib bir nechta mulozimlari bilan 25- yanvar kuni Kanossa qasri (Toskanada)ga boradi. Grigoriy VII o'sha vaqtda shu qasrda edi



Genrix IV va Rim papasi
Grigoriy VII Kanossada

Tavba tazarru qiluvchi gunohkor libosida yalang oyoq holda imperator uch kungacha Kanossa darvozasi oldida turdi.

Shundan keyingina uni papa o'z huzuriga kiritdi va uning gunohini bir qancha pisandalar bilan avf etdi.

Biroq Kanossa imperator bilan papa o'rtasida mustahkam tinchlik o'rnatilgan olmadi. Genrix IV feodallar lageridagi kelishmovchiliklaridan foydalanib, oradan ko'p vaqt o'tmasdan papaga qarshi kurash boshlaydi. Grigoriy VII feodallarga darhol yangi imperator saylab olishni taklif qiladi. Yangi saylangan Rudolf Shvabskiy Genrix IV ga qarshi urush boshlaydi, biroq ko'p o'tmay janglardan birida halok bo'ladi (1080 yili). Shundan keyin Genrix IV hujumga o'tadi katta qo'shin bilan u Italiyaga bostirib kirib 1084- yili Rimni egallaydi. Qamal holatiga tushib qolgan Grigoriy VII ga uning vasallari bo'lgan Sitsiliya normanlari yordamga keladilar papa ular bilan Italiyaning Janubiga Salerno shahriga qochishga muvaffaq bo'ladi, lekin ko'p o'tmasdan 1085- yilda o'sha yerda o'ladi. Grigoriy VII o'z vorislariga imperator bilan kurashni davom ettirishni vasiyat qilgan edi.

Vorms konkordati. Investitura uchun kurash XI asr oxiri XII asr boshlarida ham davom etadi. Genrix IV ga qarshi Grigoriy VII ning vorislari o'z o'g'li Genrix V ni qarshi qo'ydilar. Lekin u otasining o'rniga imperator bo'lib olgandan so'ng u ham investiturdan vos kechishni xohlamadi. Genrix V o'z qirolligining oxirgi yillaridagina to'g'rirog'i 1122- yili papa Kallist o'rtasida Vorms konkordati deb nom olgan kelishuv shartnomasi imzolandi.

Kelishuvga binoan yepiskoplar ruhoniylar tomonidan saylanadigan bo'ldi. Shu bilan birga Germaniyada saylovlar imperatorning o'zi yoki uning vakillari

ishtirokida o'tkaziladigan bo'ldi. Burgundiya va Italiyada esa yepiskop saylashda imperatorning ishtirok etishi ko'zda tutilmadi. Imperator papa bilan bo'lgan kurash vaqtida undan tortib olingan cherkov mulkini qaytarib berishga va'da qildi. Konkordatga muvofiq, investituraning o'zi ikki qismga bo'lindi – bir qismi cherkov investiturasini (uzuk va hassadan iborat), bo'lib, buni papa beradigan bo'ldi, ikkinchi qismi dunyoviy investitura (saltanat hassasidan iborat) bo'lib, uni imperator beradigan bo'ldi, imperator shu bilan o'zining yepiskoplar ustidan senorligini ta'kidladi.

Biroq konkordat umuman olganda imperatoridan ko'ra papalarga ko'proq foydali bo'ldi. Avvalo, imperator hokimiyatining yepiskoplarga ta'siri kamaydi. Cherkov yerlaridan imperatorga to'lanadigan soliqlar kamaytirilib, dunyoviy lenchilarning majburiyatlariga tenglashtirildi. Vorms konkordati oqibatida Germaniyadagi cherkov feodallari kuchaydilar, ular ham o'ziga xos muayyan hudud knyazlarga aylandilar. Bu esa keyinchalik imperatorlarning feodal tarqoqlikka qarshi kurashini qiyinlashtirar edi.

Tayanch so'z va iboralar: Karolinglar, Verden shartnomasi, varvarlar boskini, Tevton qirolligi, burglar, markalar, yepiskoplik, monastirlar, barshchina, cherkov feodallari, abbatlar, prelatlar, immunitet huquqlari, muqaddas Petr yerlari, "rim xalqi", papa, uch dalali tizim, gufa, saksoniya kuzgaloni, klyuniychilik harakati, Otton I ning yepiskoplik tizimi, konklav, selibat, investitura, kardinal, konossa, Vorms konkordati.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Genrix I Qushboz davridagi qirollik nima uchun Tevton qirolligi deb atalgan?

2. Otton I ning din sohasidagi siyosatini sharhlab bering.
3. Rim papasi bilan German imperatorlari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil eting.
4. Genrix IIIning Sharqdagi siyosati qanday oqibatlariga olib kelgan edi?
5. Germaniyada feodal munosabatlar rivojining sur'atlari IX – XI asrlarda nima uchun yuqori bo'lmaganligini izohlang.
6. Saksoniyadagi 1073- yil qo'zg'olonining sababalari nimalardan iborat edi?
7. Papalar bilan imperatorlarning investitura uchun kurashi qanday oqibatlariga olib kelganligini izohlang.

Glossariy:

Burg – mustahkamlangan punkt, qal'a, keyinroq shahar bo'lgan.

Marka – chegara viloyatlari.

Provia - armiyani oziq – ovqat bilan ta'minlash.

Immunitet huquqi – dahlsizlik huquqi.

Prelatlar - cherkovning yirik amaldorlari.

Investitura – cherkov amaldorlarini tayinlash huquqi.

Votchina - feodallarning merosiy mulki.

Barshchina - qaram dehqonlarning haftaning muayyan kunida sen'or uchun ishlab berish majburiyati.

Kardinallar- katolik cherkovining papadan keyingi eng yuqori mansabdagi ruhoniysi.

Normanlar-Skandinaviyadan Sitsiliyaga 1000- yillar atrofida borib joylashganlar. XI asr 30-40 yillarida ular Sitsiliyada va Apennin janubida gersoglik barpo qildilar, keyinchalik u qirollikka aylanib ketdi.

29-§. IX-XI asrlarda Angliya

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari. Britaniya oroli I asr oxiridan IV asr oxiriga qadar 300 yil mobaynida Rim imperiyasining (shimoliy qismidan tashqari) provinsiyasi bo'lgan edi. Rimliklar bu chekka viloyatda shaharlar va qal'alar qurganlar, Biroq bu yerda rimlik aholi kamchilikni tashkil etgan edi. Britaniya Galliya yoki Ispaniyadek romanlashishga ulgurmadi.

Taxminan 400- yili Italiya himoyasi uchun Britaniyadan Rim qo'shinlari olib chiqib ketiladi, shu bilan bu viloyatning Rim bilan aloqalari uzilib qolgan edi.

V asr boshlaridan boshlab Britaniya hududlariga Elba va Reyn daryosi oralig'i va Yutlandiya yarim orolida yashovchi sakslar, angllar, yutlarning german qabilalari ommaviy ravishda bostirib kela boshladilar. Ang-sakslar kelt aholisining katta qismini qirib tashladilar. Omon qolgan keltlar Britaniyadan siqib chiqarilganlaridan keyin Galliyadagi Armorika yarim oroliga ko'chib kelib, o'rnashadilar. Bu yarim orol keyinchalik Bretan nomini oladi. Keltlarning bir qismi qullarga va angl-sakslarga soliq to'lashga majbur bo'lgan qaram kishilarga aylantiriladi.

Sakslar tomonidan ishg'ol qilingan Britaniya hududida VI asr oxiri VII asr boshlariga kelib, bir qancha angl-saks qirolliklari: shimolda - Nortumbriya, mamlakat markazida - Mersiya, eng chekka janubi-sharqda – Kent, orolning janubiy va janubi-sharqiy qismida Uesseks, Sesseks va Esseks, sharqda – Sharqiy Angliya tashkil topadi. Ang-sakslar tomonidan egallangan Britaniya hududi pirovardida Angliyaga aylanib, unda deyarli Rim odatlari va Rim hukmronlagining qoldiqlari yo'qolib ketadi.

Keltlar yashaydigan Irlandiya XII asr ikkinchi yarmiga qadar to'liq mustaqillikni saqlab keldi. O'z mustaqilliklarini Britaniya g'arbidagi tog'lik kelt viloyatlari (Uels va Kornuoll) va shimolda Shotlandiya saqlab qola oldilar. Letlar va uillar (keltlar - uelsliklar) odatdagidek go'yo begona yerda yashaganliklari uchun barshchina majburiyatini o'tar, natural obrok solig'ini yetkazib berar edilar. Anglo-saks qirolliklarining keltlar Uelsi bilan chegaradosh bo'lgan g'arbiy

viloyatlaridagi keltlar garchi qirol foydasiga soliq to'lasalarda, o'z yerlari va ozodliklarini saqlab qolgan edilar.

VII asr davomida va VIII arning birinchi yarmida shimoliy qirolliklar – Nortumbriya va Mersiya asosiy rol o'ynagan bo'lsalar VIII asr o'rtalaridan boshlab yetakchilik janubiy qirolliklardan biriga – Uesseksga o'tdi. (uning poytaxti Vinchestr shahri edi). Uesseks qirollari janubiy Sesseks, Esseks va Kentni o'ziga bo'ysundirdilar, keyin IX asr boshlarida esa Mersiya va Nortumbriyani bosib oldilar.

Shunday qilib butun mamlakatni birlashtirish Uesseks qirolli Ekbert (802-829) tomonidan 829-yillarda amalga oshirildi. Angl – sakslar orasiga VI asrdan boshlab xristianlik tarqala boshladi. Bir qancha vaqtgacha ikkita xristian cherkovi – V asrda tashkil topgan va sharqiy yunon cherkovlari bilan tashkiliy aloqada bo'lgan Irlandiya cherkovi bilan papa tomonidan Rimdan yuborilgan missionerlar tashkil etgan Rim cherkovi o'rtasida kurash bordi. Pirovardida Rim cherkovining ta'siri g'olib chiqdi, buning sababi qisman angl–sakslar bilan orollardagi keltlar o'rtasidagi ziddiyatlar bo'lsa, asosan Rim cherkovining ko'proq markazlashganligi bo'lib, angl – saks qirollari uning yepiskoplaridan e'tiborli siyosiy kuch sifatida foydalanishlari mumkin edi.

Daniyaliklar istilosi va unga qarshi kurash. Alfred Buyuk. Birlashgan angl – saks qirolligi tashkil topgan kundan boshlabok daniyaliklarga qarshi kurash boshlashga majbur bo'ladi. Daniyaliklar deganda Angliyada faqat Skandinaviyadan Yutlandiya yarim oroliga ko'chib kelib kelib o'rnashib, bu yerda IX asrda kuchli qirollik tuzgan daniyaliklarni o'zinigina emas balki yana skandinav – norvejlar ham ko'zda tutilar edi. Skandinav – normanlarning Yevropa qit'asiga – Fransiyaga va Janubiy Italiyaga qilgan hujumlaridan ham Britaniya orollariga qilgan hujumlari dahshatliroq bo'lgan edi. Ular Irlandiyaga, Shotlandiya va Angliyaga bir necha asr mobaynida dahshatli hujumlar qilib turdilar. Umuman olganda daniyaliklar – skandinavlarining Angliyaga qilgan hujumlari qariyb 300- yil (VIII asrning II yarmidan XI asr o'rtalarigacha) davom etgan edi.

Angliya qirolli Ekbert daniyaliklarning Angliyaga qilgan hujumlaridan birini qaytaradi. Biroq Ekbertdan so'ng 842-yili ular yana orol ichkarisiga bostirib kirib

Londonga o't qo'yadilar. 866-yilga kelib esa mamlakat butun shimoli-sharqiy qirg'og'ini bosib oladilar.

Angliyada Alfred Buyuk boshqaruvi. Qirol Alfred Buyukning qirollik davri (871-900 yy.) angl – sakslarning daniyaliklarga qarshi eng qattik kurashgan davrlaridan biri bo'lgan edi. Alfred Buyukdan oldingi qirol Eitelred I daniyaliklarga qarshi kurashda halok bo'ladi. Alfred Buyuk taxtga chiqqan vaqtda mamlakatning ahvoli nihoyatda og'ir bo'lib u daniyaliklar siquviga dosh berolmay avvaliga mamlakatning janubiga qochib borib, u yerda dushmanga qarshi asosan partizanlik otryadlari vositasida kurash olib boradi.

Faqat keyinroq Alfred Buyuk muntazam urushga o'tib 879-yilga kelganda daniyaliklarni Temza daryosining shimol tomoniga uloqtirib tashlashga erishadi. Shu yili daniyaliklar bilan sulh tuziladi. Unga ko'ra Angliyaning janubiy-g'arbiy qismi angl-sakslarga, shimoli-sharqiy qismi esa daniyaliklarga qarashli bo'ldi. Alfred Buyuk daniyaliklarga qarshi kurashda qisman eski umumiy xalq lashkarlariga tayangan bo'lsa, qisman harbiy – feodal tipidagi yer egalardan iborat yangi feodal qo'shinning kuchaytirilishini quvvatladi.

Shu asnoda Angliyada ritsarlar vujudga kela boshladi. Qirol Alfred Buyuk daniyaliklarga qarshi burglar – qal'alar qurib, ularni ishonchli harbiy otryadlar bilan ta'minlaydi va dengiz bo'yini dushmandan muhofaza qilish uchun harbiy flot qurish ishlarini boshlab yuboradi. U Angliya tarixida birinchi marta aholidan doimiy soliq yig'ishni boshlab yuboradi. Bu soliq “daniyaliklar puli”, ya'ni daniyalik istilochilarga qarshi kurash uchun yig'iladigan soliq deb ataldi. Alfred Buyuk ilmu-ma'rifatni davlat rivojlanishidagi rolini yaxshi anglaydigan kishi bo'lib, uning o'zi ham lotin tilini yaxshi bilganligi manbalarda keltiriladi.

U o'zining qirollik yillarida ilm ahlini hurmatini o'rniga qo'yishga intilib, ularni erkin ijod qilishi ustidan homiylik ishini izchil amalga oshiradi. Bu bejizga emas edi albatta, chunki alg'ov – dalg'ov urush yillarida Angliyadagi ta'lim, ma'rifat darajasi keskin pasayib ketgan edi. Angliya maktablari garchi ilgari namunaviy bo'lib kelgan bo'lsalar, endilikda inglizlar o'z arboblarni ma'lumotlarini oshirishga Yevropaga yubora boshlagandilar.

IX asr oxirlarida Alfred Buyuk kuyunib shunday degani manbalarda keltiriladi: “Ilgarilari chet elliklar donishmandlik va ustozlarni bizning mamlakatimizdan izlashar edi, endi esa biz o’zimiz xorijliklarga murojaat qilishga majburmiz. Hamma narsa shu qadar orqaga ketganki, ba’zi bir ruhoniyyat vakillarigina zo’rg’a diniy kitoblarnigina tushunadilar, lotin tilidagi xatlarni ingliz tiliga tarjima qila oladilar”. Alfred Buyuk asosan ajnabiy olimlar yordamida qimmatli qo’lyozmalarni tiklashga harakat qiladi va tarix, falsafani o’rganish uchun rahbariyat va u boshchiligidagi ilmiy jamoani shakllantiradi.

Uning davrida ba’zi lotin mualliflarining asarlari angl-saks tiliga tarjima qilinib, mamlakatda yuz bergan eng muhim voqealarning muntazam yilnomasi yozib borildi. Bundan tashqari Alfred Buyuk savodli, yetuk diniy mutaxassislar tayyorlash ishlariga katta e’tibor berdi. U Kent, Uesseks va Mersiyaning qadimgi qonunlarini to’plashni, unga ancha keyin “Alfred haqiqati” nomida chiqarilgan qonunlarni qo’shib bitta to’plam qilib chiqarishni buyuradi.

Shunday qilib, daniyaliklarning siquvi Alfred Buyuk va uning vorislari davrida to’xtatildi. Alfred Buyuk vorislari London shahrini qaytarib olib, daniyaliklarni shimoli-sharq tomon uzoqqa uloqtirib tashladilar.

Biroq daniyaliklar uncha ko’p vaqt o’tmasdan X asr oxiri XI asr boshlarida yanada katta kuch bilan Angliyaga hujum qilib keladilar. Angliya daniyaliklarning bu safar Daniyani o’zidan boshlagan dahshatli hujumlarini qaytara olmay, ko’p o’tmasdan o’z mustaqilligini yo’qotadi. Angliya daniyalik hukmdor Kanut Datskiy tuzgan ulkan imperiya tarkibiga kiritildi. Kanut Datskiy (1017-1035) tuzgan Shimoliy davlatga Daniyaning o’zi, Norvegiya, Shvetsiya, Angliya va Shotlandiya kirardi. Endilikda Angliya Daniyaga juda katta soliqlar to’lab turishga majbur bo’ldi. Daniya zodagonlari Angliyaning janubidan juda ko’p yerlar oladilar.

Kanut Datskiy o’lganidan keyin uning mo’rt, ko’p qabilali davlati ko’p o’tmasdan parchalanib ketadi. Daniya qiroli tasarrufida faqat Daniya qoladi. Angliyada Eduard Ispovednik (1042-1066 - yillar) taxtga chiqib o’zining angl-saks sulolasini tiklaydi. Biroq, angl-saks zodagonlarining bir qismi daniyaliklarga moyil bo’lgani bois, uning hokimiyati anchagina zaif edi. Eduard

boshchiligidagi zodagonlarning ikkinchi qismi fransuz - norman gersogi Vilgelm bilan ittifoq tuzishga intiladilar. Eduard o'lganidan keyin zodagonlar Uesseks gersogi Garoldni qirol etib sayladilar. Biroq Fransiyadagi Vilgelm Normandskiy "Eduard vasiyati"ni pesh qilib taxtni zo'rlik bilan olishga qaror qiladi va 1066 - yili o'zining katta qo'shini bilan Angliyaga bostirib kelib, Gastings shahri yaqinida qirol Garold qo'shinini tor-mor qiladi va London tomon yo'l olib 1066 - yil 25 - dekabr kuni Londonni egallab, o'zini Uilyam nomi bilan Angliya qiroli deb e'lon qiladi. Bu voqea Angliya tarixida angl-saks davriga xotima yasadi.

Angl-sakslarning ijtimoiy tuzumi. Feodallashuv jarayoni. Ko'plab "haqiqat"larga ya'ni, VII-VIII asrlardagi turli angl-saks qirollarining qonunlar to'plamlariga asoslanib, angl-sakslarning ijtimoiy tuzumi ko'p jihatdan franklarning "Sali haqiqati" da tasvirlangan ijtimoiy tuzumga o'xshash ekanligini tasavvur qilish mumkin. Angl-sakslarda ham franklardagi kabi aholining asosiy qismi erkin kishilardan – kyorllardan iborat bo'lgan. Kyorllar gayda deb atalgan katta yerlarga ega bo'lishgan. (ba'zi qirolliklarda har bir kyorl oilasiga tegishli chek yerning miqdori 50 gektar (120 akr) bo'lgan). Kyorlning vergeldi 200 shilling edi. Zodagon – erlning vergeldi dastlab 400 shilling bo'lgan bo'lsa, keyinchalik 1200 shillingga yetib boradi. Kyorllardan tashqari "Haqiqatlar"da yana letlar yoki uillar kabi toiflar tilga olinadi. Bular franklardagi litlarga o'xshab ketadigan yarim erkin kishilar edi. Ularning o'z yerlari bo'lmay, erllarning yerlarini ma'lum majburiyat evaziga ishlab berar edilar. Letlar va uillarning vergeldi 80 shilling atrofida bo'lgan. Zodagon angl-sakslarning, erllarning va hatto ba'zi boy kyorllarning qullari bo'lib, qullarning bir qismi hovli xizmatkori bo'lib, bir qismi esa dehqonchilik bilan shug'ullanib, egalariga obrok solig'i to'laganlar.

Angl-saks jamiyatida jamoa va boshqa mahalliy boshqaruv organlari juda ko'p edi. Bularning asosiysi qishloq - tun bo'lib, uning asosiy organi muntazam suratda chaqirilib turadigan – galimot - qishloq yig'ini edi. Galimot - qishloq oqsoqoli (tunqerefa) ni saylardi. Qishloq tasarrufida yer-suv bo'lib, qishloq

jamoalarining vakillari oyda bir marotaba yuzboshilar yig'ilishiga to'planishgan. Yuzboshilar yig'ilishlaridan yuqori o'rinda har bir graflikning xalq majlisi bo'lib, bu majlislar tarixiy jihatdan qabilaviy qirolliklar (folknot) davridan saqlanib qolgan edi. Qirol vakili – graflikning rasmiy boshlig'i - sherif o'z faoliyatida graflikning bu kengashi bilan hisoblashib turishi lozim edi, bu kengashda mahalliy zodagonlar hal qiluvchi ta'sirga ega edilar. Nihoyat, qirol huzurida vitenegemot - (“donolar kengashi”) butun birlashgan qirollik zodagonlarning kengashi chaqirilib turar edi. Bu kengash qirol hokimiyatini juda ham cheklab qo'yardi. U qonunlarni tasdiqlardi va mamlakatning oliy sud organi bo'lib, qirollarni saylash va biror gunoh qilib qo'ygudek bo'lsa, taxtdan tushirish huquqiga ham ega edi.

VIII-IX va ayniqsa, X asrlarda angl-sakslarning patriarhal jamoa tartiblari tobora inqirozga uchray boshlaydi. Garchi, hali kuchli bo'lgan qishloq jamoasi bilan bir qatorda katta aristokratik yer egaligi kuchayib bordi. Qirol maxsus yorliqlar berib, erna dunyoviy zodagonlarga va cherkovga hususiy mulk qilib bera boshladi. An'anaviy qonun-qoidalarga asoslangan yer mulkiga: ya'ni jamoalarning, dehqonlarning yer mulkiga (folklend) muqobil tarzda mamlakatda pomeschiklar mulki (boklend) ,yerga qirol yorlig'i bok yoki book asosida egalik qilish tobora kuchayib boradi, qirol yerni feodallarning xususiy mulki bo'lishini e'tirof etishi bilan birga boklend egaloriga ko'pincha yana bir qancha imtiyozlar va immunitetlar, jumladan mahalliy dehqon aholisini sud qilish va ulardan soliq yig'ish huquqlarini ham beradi.

Feodallashuv jarayonni chuqurlashib borishi bilan dehqonlarning chek yerlari tobora maydalashib barardi. Katta dehqon oilasining ilgarigi o'rtacha chek yeri - gayda o'rniga IX-X asrlarda hamma joyda dehqonlarning miqdor jihatidan ancha kam bo'lgan yangi chek yeri - virgata uchraydi.

Angliya dehqonlarining ahvoliga feodallashuvning kuchayishidan tashqari daniyaliklarning hujumlari ham nihoyatda yomon ta'sir qilardi. Daniyaliklarning hujumlari vaqtida dehqonlarning xo'jaligi tamomila vayron bo'lib ketardi. Dehqonlar qal'alar (burglar), ko'priklar va yo'llar qurish, harbiy xizmatni o'tash,

lashkarlar safida turib qo'riqchilik qilishga juda ko'p vaqt sarf etishga majbur bo'lib, bundan tashqari katta miqdorda "daniyaliklar puli" solig'ini to'lashardi. Nihoyat, daniyaliklarga qarshi kurash yillarida ko'p ritsarlar vujudga kelib, ularni ta'minlash ham dehqonlar zimmasiga tushardi.

Shu asnoda zaiflashib borayotgan dehqon jamoalari zodagonlarning homiyiligiga o'tishga majbur bo'ldilar. Angliyada kommendatsiya VII-VIII asrlarga oid esdaliklarda ham uchrasa-da, lekin bu narsa IX-X asrlarda ayniqsa ko'payganligi qayd qilinadi. Alfredning nevarasi qirol Etelstan 930- yili har bir erkin kishi o'zi uchun bir xo'jayin (angl-sakscha "lord", bu termin fransuzcha sen'or degan terminga to'g'ri keladi) topib olishi to'g'risida Fransiya'dagi Karl II Yaltiroq bosh farmoniga aynan o'xshagan farmon chiqaradi. Dehqonlarning o'z yonidagi katta yer egasiga bo'lgan qaramligini davlat immunitet tarzida rasmiylashtiradi. Qirol lordlarga o'z atrofidagi aholini sud qilish va undan tegishli sud bojlarini olish huquqini beradi. Bunday sud qilishi huquqi soka deb, xususiy sud qilingan dehqonlar sokmenlar deb atalardi.

Katta yer egalari lordlar - manorlar deb atalgan. Ular o'z pomestlarida qisman qullar va krepostnoylar mehnatidan foydalanganlar. 1000-yilga oid "Ayrim shaxslarning burchlari" (Reestitudinrs singularum personrum) deb nomlangan manbada dehqonlarning turli guruhlari haqida ma'lumotlar keltiriladi, biroq ilgari kyorllar degan nom o'rniga endi genitlar, geburlar degan nomlar uchraydi; genitlar xususiy yer egasi bo'lib qisman qirolga, qisman yonidagi lordlarga soliq to'lab turadigan erkin dehqonlar edi. Geburlarning esa o'z yeri bo'lmay feodalning yerida dehqonchilik qilib unga yil bo'yi haftada 3-4 kun og'ir barshchina majburiyatini o'tab beruvchi va bundan tashqari lordga mol, g'alla, pul shaklida turli hil soliqlar to'laydigan dehqonlar edi. Manbada kam yerli dehqonlarning yana bir kassetlar (kottylerlar) deb atalgan yana bir guruhi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ularning kichik bir parcha yerlari va kulbalari bo'lib, bular evaziga uncha katta bo'lmagan barshchina majburiyatini o'taganlar.

Lekin shuni ta'kidlash lozimki, angl-sakslarda feodallashtirish jarayoni normanlar istilosi vaqtida hali tugallanmagan bo'lib, dehqonlarning har holda

yarmi erkin jamoa a'zosi bo'lib, ularning yirik yer egalari - lordlar bilan bo'lgan munosabatlari hali batamom krepostnoylik munosabatlari shaklini olmagan bo'lib, balki bu homiylik munosabatlari edi xolos. Hatto krepostnoylashtirilgan dehqonlar – geburlarni ahvoli har yerda turlicha bo'lib, bir qancha joylarda ular qaram kishilarga o'xshasalarda, ammo ularni chinakam krepostnoylar deb bo'lmasdi. Daniyaliklar o'rnashib olgan shimoli-sharqiy Angliyada erkin dehqonlar hali juda ko'p bo'lib, skandinavlar jamiyatining ancha keng taraqqiy etishi, shimoli-sharqiy Angliyadagi daniya-skandinaviyalik aholida urug'chilik tuzumi belgilarining saqlanib qolishi natijasida, shunday holat yuzaga keldiki, hatto daniyaliklardan mustaqil janubi-sharqdagi angl-saks dehqonlari ilgarigi erkinliklaridan butunlay mahrum bo'lgan bir vaqtda ham “daniyaliklar mintaqasidagi” dehqonlar o'z mustaqilliklarini bir muncha saqlab qolgan edilar.

Tayanch so'z va iboralar: Romanlashish, angl-saks istilosi, letlar, uillar, obrok, xristianlik, yepiskop, skandinav normandlar, daniyalik-skandinavlar, ritsarlar, “daniyaliklar puli”, “Alfred haqiqati”, “Eduard vasiyati”, kerl. vergeld, shilling, uillar, tun, galimot, folllknot, sherif, vitenegemot, folklend, boklend, virgata, soka, sokmen, “Ayrim shaxslarning burchlari”, genitlar, geburlar, “daniyaliklar mintaqasi”, lordlar.

Mustahkamlash uchun savollar:

1.Sakslar tomonidan ishg'ol qilingan Britaniyada VI asr oxiri VII boshlarida qanday qirolliklar tashkil topgan edi?

2.Angl-saks qirolliklari qachon va kim tomonidan yagona qirollikka birlashtirildi?

3.Daniyaliklar – skandinavlarining Angliyaga qilgan istilochilik yurishlari nima uchun qariyb 300 yil davom etganliklari haqida fikr yuriting.

4.Alfred Buyukning Angliya tarixidagi rolini izohlab bering.

5. Daniya qiroli Kanut Datskiyni Angliyani to'liq bo'ysundirishining sababalari nimalardan iborat edi?

6. Angliyada IX-XI asrlarda ijtimoiy tuzumda bo'lgan o'zgarishlarning o'ziga xos jihatlarini izohlab bering.

Glossariy:

Vergeld – xun puli, o'ldirilgan shaxs uchun o'ldirgan shaxs tomonidan uning qarindoshlariga to'lanadigan to'lov;

Galimot – qishloq yig'ini;

Virgata – gaydaning to'rtidan bir qismiga teng bo'lgan yer.

Kommendatsiya – o'ziga sen'or topib olish.

30-§. Fransiya IX-XI asrlarda

Fransiya davlatiga asos solinishi. Eramizning 843- yili tuzilgan Verden shartnomasi Fransiyaning mustaqil davlat sifatida tashkil topishining muqaddimasi bo'lib xizmat qiladi. Uning sharqiy chegaralari Rona, Sona, Maas, Shelda daryolari bo'ylariga yetib borar, uning shimoliy chegaralari Shimoliy dengizga, g'arbiy chegaralari esa Atlantika okeaniga tutashgan, janubda G'arbiy Frank qirolligi Pireney yarim oroliga yetib borgan edi. Bu vaqtda G'arbiy-Frank qirolligining barcha hududlari emas, faqatgina uning shimoliy qismigina Fransiya deb atalgan.

880- yildayoq bu hududdan mustaqil Burgund qirolligi ajralib chiqadi. Vengrlarning talonchilik hujumlariga birgalikda kurashish zaruriyati uni Germaniya bilan yaqinlashtiradi. Ayni vaqtda normandlarning hujumlari Burgundiyaning shimoliy hududlarini shikastlayotganligi ularni Nestriya bilan birlashtirar edi. IX asr oxirlarida bu shimoliy viloyatlar Nestriyaga o'tadilar. Fransiya bilan qolgan burgund hududlarini qo'shib olinishi bir necha asrlarga cho'zilgan.

IX asrlar Akvitanিয়া amalda yana mustaqil bo'lib oladi. So'nggi Korolinglarga Galliyada faqat birgina Neystriya tegadi. X asrda uning ko'pgina kulfatlarni boshdan kechirishiga to'g'ri keladi. Nemis va fransuz Karolinglari o'rtasida o'zaro urushlar deyarli uzluksiz kechganligi ma'lum. Bundan tashqari normanlarni to'xtovsiz hujumlari mamlakatga ko'plab kulfatlar keltirardi. Ular bilan shafqatsiz kurashda kuchsizlangan va hokimiyatni yo'qotgan g'arbiy Karolinglarga qarama-qarshi o'laroq boy Parij graflari maydonga chiqqan boradilar. 885-886- yillarda normanlar 10 oy davomida Parijni qamal qiladilar, lekin uni ishg'ol eta olmadilar. Graf Parijskiy Ed, Robert Zo'ning o'g'li (birinchi graf Parijskiy) shahar mudofaasini yaxshi tashkil qiladi va normanlarning hujumini qaytaradi. X asr boshlarida (911- yili) so'nggi Karolinglardan biri Karl Anqov quyi Sena bo'yidagi yerlarni bu hududda Normandiya knyazligini tashkil qilgan norman yo'l boshchisi gertsog Rollonga bo'shatib berishga majbur bo'ladi. Yangi knyazlik rasman Karolinglarga vassal qaramlikda bo'lsa ham, lekin amalda ulardan mutloqo mustaqil bo'lib, mudom Parijni o'zini ham bosib olishga xavf solardi.

X asr davomida taxt uchun Rebertinlar xonadoni bilan (Parijskiy graflari bilan) so'nggi Karolinglar xonadoni o'rtasida kurash bordi. Robortinlardan ba'zilari qirol etib saylangan vaqtlar ham bo'lardi, lekin ularni taxtda yana Karolinglar almashtirar edilar.

Galliyani istilo qilgan franklar IX asr o'rtalariga kelibq uning hududdida yashagan gal-rim elati bilan qo'shilishib ketgan edi. 842- yili Karl yaltiroqbosh va Lyudovik nemislar o'zaro tuzgan "Strasburg qasamyodi" deb ataladigan shartnomaning matni guvohlik beradiki, tillarning uzoq vaqt davomida aralashib ketishi jarayonida gal-rim elatining tili ustuvor bo'lib chiqdi. U o'zining tuzilishi va asosiy leksik fondini saqlab qolgani holda, ayni vaqtda franklar tili hisobiga boyidi.

Karl Buyuk imperiyasi parchalangandan so'ng bo'lajak Fransiya hududida bir-biriga yaqin ikki elat janubiy fransuz (provansal) va shimoliy fransuz elatlari shakllandilar. Bu ikki elatdan pirovardida yagona fransuz millati shakllanadi. Feodalashuv jarayoni Fransiya tarixida IX asr o'rtalaridan XI asrga qadar vaqtda davom etdi Endilikda vassallik majburiyatlari boshiga tushmagan juda kam yer qolgan edi.

X-XI asrlarga kelib benefetsiy o'zining yuqori rivojlanish darajasiga erishib feodga aylandi. Feodal mulklari vaqtinchalik emas merosiy edilar. Feod harbiy yoki davlat xizmatini o'tash sharti bilan berilardi. Sen'or o'z vassaliga mulkni alohida urf vositasida topshirar edi: odatga ko'ra sen'or unga bayroq bilan xanjar, uzuk yoki qo'lqop taqdim etardi. Bu odat investitura deb atalardi. Bunga ko'ra vassal o'zini sen'or hokimiyatiga topshirib, Injilga qo'l qo'ygan holda unga doim sodiq bo'lishga qasam ichardi. Vassalning vafot etishi bilan feod uning o'g'li yoki boshqa eng yaqin merosxo'riga, bu yangi feod egasining ilgarigi vassalik xizmatini o'tashi bilan meros bo'lib o'tardi. Sen'ordan feod olgan vassalning majburiyatlari juda ham turli tuman edi. Vassal avvalo sen'or uchun moddiy jihatdan javobgar edi, ya'ni agar sen'or asrga tushib qolsa uni asirlikdan sotib olish uchun pul berishi, sen'or talabi bilan urushga borishi, uning sudida ishtirok etishi, sen'orning katta o'g'liga ritsar unvonini berishi vaqtida, katta qizini erga berayotgan vaqtida va boshqa paytlarda moddiy yordam

ko'rsatishi lozim edi. Harbiy xizmat qal'alarni himoya qilish va katta yurishlarda ishtirok etishdan iborat bo'lardi.

Vassal o'z sen'orining sharafini ham himoya qilishi kerak edi. Sen'or sha'ni, obro'-e'tiboriga ta'sir qiladigan qandaydir yomon gap eshitgudek bo'lsa, vassal darhol o'z xo'jayinini ogoh etishga majbur edi. Nihoyat, ular o'zaro bir-birlariga sodiqlik haqida qasamyod qabul qilardilar. Suveren o'z vassallarini boshqa kuchliroq mulk egalari hujumidan, dehqonlar qo'zg'olonlaridan himoya qilar edi. Ritsar o'z qishlog'ida dehqonlar qo'zg'olon ko'tarsa, u sen'orga chopar yuborar, sen'or esa o'z otryadi bilan darhol unga yordamga yetib kelardi. Bu axloqiy majburiyatlarga har doim ham qattiq rioya qilinmasada, har holda ularning buzilishi jamoatchilik fikri bilan qoralanar, tartibga solinardi.

Cherkov o'zining ulkan mulkdordagi mulklarini himoya qilish uchun ko'p sonli harbiylarga vassalik xizmati shartlari bilan taqsimlab berardi. Yepiskop yoki abbat huddi graf yoki gertsog kabi sen'or hisoblanar, ko'p hollarda o'z vassallari va xizmatchilaridan iborat qurolli otryadlarga boshchilik qilardi.

Davlatdagi barcha yerlarning oliy egasi qirol bo'lib, unga feod olgan yirik dunyoviy va diniy feodallar-graflar, gersoglar, yepiskoplar, arxiyepiskoplar, katta monastirlarning abbatlari bo'ysunardilar. Yirik feodallarga (graflar va gertsoglarga) ularga nisbatan bir muncha kichikroq feodallar - aslida o'z mulklarida to'la hokimiyat egasi bo'lgan baronlar vikontlar bo'ysunardilar. Baronlarga ko'p sonli mayda feodallar – ritsarlar bo'ysunar edilar. Ritsarlar bilan feodallar pog'onasi yakunlanar, ularga bir qishloq yoki qishloqning bir qismi yoki mustahkamlangan uy mulk qilib berilardi. Ritsarlik xizmati shaxsiy xarakterga ega bo'lib, u urushga yakka o'zi yoki uncha ko'p bo'lmagan xizmatchi yarog'bardorlari bilan kirardi.

Ritsarlar doim otliq bo'lib harbiy xizmat o'taganlar. Shuning uchun ritsar so'zi ham otliq (nemischa Ritter) ma'nosini bildiradi. Haqiqiy ritsarning ajratib turadigan jihati bu uning to'la qurollanganligida bo'lib, uning qo'lida to'g'ri ogir qilich, uzun nayza, bo'lardi. U katta qalqonini to'sib, uzini boshidan oyog'igacha ximoya qila olardi. Ritsarning badanini temir xalqalardan to'qilgan to'r sovut saqlab turardi. Ular keyinchalik to'r sovut o'rniga uzun po'lat sovut kiyadigan bo'lishdi. Og'ir

qurollangan ritsarlar IX asrda jiddiy harbiy kuch bo'lgan edilar. Vil'gel'm Istilochining yurishlarida ular normanlarga ustunlikni va fransuzlarga hali bunday qurollanishga o'tmagan angl-sakslar ustidan ustunlikni ta'minlagan edilar.

Ritsarlar-baronlar va vikontlarning vassali, baronlar va vikontlar esa graflar va gersoglarning vassali ayni vaqtda ritsarlarning sen'ori, graf va gertsoglar-qirolning vassali va ayni vaqtda baron va vikontlarning sen'orlari hisoblanardilar.

Yirik feodallar tanga pul zarb qilish va o'zlari egalik qiluvchi hududlari doirasida sud qilish huquqiga ham ega edilar. Fransiyada IX asr oxirida turli joylarda zarb qilingan 200 dan ortiq tanga pullar muomalada bo'lganligi qayd qilinadi. Yirik feodallar amalda urush e'lon qilish, sulh tuzish huquqiga ega edilar. Katta feodallargersog va graflar qirolni faqat "tenglarning birinchisi" xolos deb hisoblar va o'z naslnasablarini qirolnikidan past emas deb bilardilar. Fransuz qirolligi 14 ta katta-katta feodal mulklardan iborat edi. Yirik feodallarning ba'zilari qirol taxtini egallab olish payida bo'lib, xatto unga qarshi urush qilardilar. Fransuz qirol XI asrga qadar o'z vassallari-Normandiya, Burgundiya, Akvitaniya gertsoglaridan taqqoslab bo'lmaydigan darajada kuchsiz edilar. Bu gersoglar o'zlari istagan vaqtlaridagina qirolga itoat etardilar. Parij shahri ostonalarining o'zida ham qirol bilan kurashgan feodallarning qasrlari odamlarda vahima uyg'otib turardiki, binobarin qirol choparlarining Parijdan Orleanga xavfsiz o'tib kelishlari mushkul edi.

Fransiyaning siyosiy va ma'muriy jihatdan tarqoqligi. X-XI asrlarda Fransiyaning butun hududini nafaqat juda ham katta yoki birmuncha yirik gersoglik va grafliklarga, balki son-sanoqsiz mayda va juda ham kichik feodal mulklarga bo'linib ketishi sodir bo'ladi. Fef (feod-er mulk) larning murakkab ierarxiyasi yuzaga keladi, o'zaro vassallik aloqalari rasmiylashadi. Natijada yangi siyosiy struktura-merovinglar va karolinglar qirollik xonadoni a'zolari o'rtasida hududning alohida qismlarga taqsimlanishiga nisbatan boshqa xarakterga ega bo'lgan feodal tarqoqlik yuzaga keladi.

Shimolda don xo'jaligi rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlarning mavjudligi feodal munosabatlarni nafaqat birmuncha darajada, balki yanada to'liq taraqqiy topishini belgilab berar edi. IX asr oxiri- X asr boshida feodal mulkchilikning oliy

shakli-yerlarning ierarxiyasida muayyan o'rin tutuvchi, uning egasiga bu bilan vassallik munosabatlarida muayyan o'rindan xabar beruvchi merosiy yer mulkchiligi, feod qaror topadi. Har bir graflik turli hajmdagi ko'plab feodlarga parchalanib ketgan edi. Qirol faqatgina o'zining bevosita vassallarini: o'z domenidagi gersoglar, graflar va ritsarlarning sen'ori edi xolos. O'sha vaqtda "vassalimning vassali-mening vassalim emas" degan feodal ahloqiy normasi amal qilar edi.

O'zining fransuz aholisi uchun tushunarsiz bo'lgan tili bilan Kelt Bretani to XV asrga qadar amalda mutloqo mustaqil gertsoglik bo'lgan edi. Normandiya Sena daryosining quyi havzasi hududida X asr boshlarida tashkil topa boshlaydi. Normand gersog va baronlari tezda shimoliy Fransiya elatlari tilini (normand dialekti) va fransuz feodal muassasalarini qabul qiladilar. Ular X va XI asrlar davomida La-Mansh bo'ylaridagi mulklarini g'arbda Bretanga va sharqda deyarli Sommaga qadar kengaytiradilar. Janubda Men grafligini o'zlariga bo'ysundirib deyarli Luara daryosiga qadar hududlarni egallagan edilar. Zero Normandiya Bretan bilan birga Shimoliy Fransiyaning qariyb yarmini tashkil qilardi. Bundan tashqari normand gersoglari Senaning quyi oqimi hududlarini egallagan holda Parij va uni o'rab turgan Il-de-frans tomonidan dengizga chiqishni to'sib qo'ygan bo'lib Il-de fransdan sharqda Shampan grafligi, janubi sharqda Burgund gersogligi joylashgan edi. Kapetinglar yerlari (Sena daryosini o'rta oqimi, Luara daryosi o'rta oqimidagi yerlar, yirik ikkita shahar-qal'alar Parij va Orlean bilan) shimol, sharq va janubi-sharqdan yirik feodal knyazliklar tomonidan siqib qo'yilgandek edi.

Parijdan sharq va shimoldagina bir qadar mayda, katta qismi cherkovlarga tegishli bo'lgan mulklar: Bove, Lan Nuaylon, Reyms, Shalon-na marne va boshqalar, eng shimoli-sharqda amalda mustaqil, ayni vaqtda chegaradagi dengiz bo'yida joylashgan-Flandriya grafligi joylashgan edilar.

Qirol hokimiyati uchun X-XI asrlarda ko'proq xavfli siyosiy dushman Normandiya gertsogi bo'lib qolmoqda edi. Normandiyaning janubiy chegaralari dastlabki Kapetinglarni anchagina tinkasini quritgan qattiq va uzoq davom etgan kurashlar natijasida o'rnatiladi. Bu vaqtda ular xatto Parij va Orlean orasidagi yerlarni to'liq egallamagan edilar.

Mamlakatning boshqa qismlarida geografik, etnik va til jihatdan Janubning ajralib qolganligi qadimda va franklar davrida ham yaqqol namoyon bo'lgan edi. X-XII asrlarda bu holat yana ham kuchaydi.

Feodal munosabatlari Janubda shimoldagiga nisbatan yorqin va tugallangan ko'rinishga ega bo'la olmadilar. Janubda dehqonlarning ko'pgina yirik va mayda allodlari (merosiy mulklari) saqlanib qolgan edi. Shuning uchun mulkiy qaramlik u yerda o'zining to'la rivojiga eta olmadi. Markaziy massiv tog'lik viloyatlarda va ayniqsa Savenna tog'larida chorvachilik bilan shug'ullanuvchi erkin jamoalar saqlanib qolgan edi. Shaharlarning erta rivojlanishi shaharlar keng okruglarida feodal munosabatlarni erta yemirilishiga yordam beradi. Bu borada Fransuz janubiy shaharlari ko'p jihatdan shimoliy Italiya shahar respublikalarini eslatardi.

Janubning o'z mahalliy sulolalari mavjud bo'lib, u yerda Kapetinglar haqida kam biladiganlar tez-tez uchrab turardi. Akvitaniya gersoglari o'zlarini qirollar bilan teng ko'rar, Gaskon gersoglari o'z mulklarini "qirollik" deb atar va Kapetinglar bilan har qanday aloqalarni inkor etardilar. Shuningdek Akvitaniya gersoglari kabi ular ham mutlaqo mustaqil tashqi siyosat olib borardilar.

Burgundiya provansal tili kabi o'zining tiliga ega bo'lgan alohida elat yuzaga kelmadi. Karolinglar imperiyasini parchalanishi jarayonida Burgundiya ikki qismga ajraladi. Sena va Luara bo'yidagi viloyatlar Shimoliy Fransiya tarkibiga kiradilar va fransuz qiroliga vassallik qaramligida bo'lgan Burgundiya gersogligini tashkil qiladilar. Unda shimoliy fransuz tilining burgund shevasi hukmronlik qilardi. Qolgan barcha viloyatlar (bo'lajak Fransh-Konte, Savoyya, Define, Pravans, Ronaning o'ng qirg'og'i va bo'lajak Shveytsariyaning g'arbiy qismi) avvaliga Lotar davlatining bir qismi bo'lib qoladilar, keyin esa 1032-1034- yillarda nomiga Rim-German imperiyasi tarkibiga kirgan ikkita Burgund qirolligini tashkil qiladilar. XII asr boshlarida provans tilli viloyat-Provans Burgundiya dan ajraladi. Rona daryosining o'ng qirg'og'idagi viloyatlar til jihatidan bir xil emasdilar. Forezda, Lionne va Vivarda provans tilida gaplashilsa, Lionning sharqiy qismida shimoliy fransuz tili dialektida so'zlashilardi. Fransh-Konte, Savoyya, Dofine va alp viloyatlari o'z dialektlariga ega

bo'lib, ular odatda ba'zan fransuz- provansal deb ataluvchi janubi-sharqiy dialektlarning alohida guruhiga ajratiladi.

Shunday qilib Burgundiya til jihatidan juda ham o'ziga xos hududni namoyon qiladiki, bu yerda ikki fransuz elati: shimoliy va provansal tillari dialekti ajralib tursa, qisman ular qorishib ketgan edi. Siyosiy jihatdan Burgundiyaning anchagina qismi nafaqat mustaqil, balki boshqa davlat-Karl Buyuk imperiyasiga ham kirar, u XI-XII asrlarda amalda uning tarkibida mutloqo mustaqil holatni egallab kelgan edi. Burgund gersogligi haqida gapiradigan bo'lsak, u yerda 1031- yildan burgund gersoglari sulolasi sifatida Kapetinglarning kichik tarmog'i uzil-kesil qaror topdiki, bu gersoglikni Shimoliy Fransiya tarkibida saqlanishiga muayyan darajada imkoniyat yaratgan edi.

IX-XI asrlarda Fransiyaning iqtisodiy tuzumi. Bu davrda xo'jalikda markaziy o'rinni feodal pomeste egallardi. Erkin dehqonlar hammasining asosiy qismi qaram qilinadi. Bunda dehqonlar jamoasi yo'q bo'lib ketmaydi, balki u feodal hokimiyatiga bo'ysundiriladi ya'ni qaram holiga keltiriladi.

Fransiyadagi bevosita ishlab chiqaruvchilarning og'ir majburiyatlari to'g'risida ko'plab yozma yodgorliklar darak beradilar.

Xo'jayin yerlarining haydaladigan maydonlari dehqonlarning yerlari o'rtasida yotar, bu yerlar ham dehqonlar xo'jaligi doirasiga tortilgan bo'lib, zero xo'jalik yerlari bilan dehqonlar yeri aralashib ketgan, ularda o'sha-o'sha odamlarning o'zlari ishlar, ekin ekishda okrugning barcha ishlovchilari uchun bir xil tartib ya'ni bir xil uch dalali almashlab ekish tartibi joriy qilingan edi. Uch dalali almashlab ekish ikki dalali almashlab ekishga nisbatan oldinga qarab tashlangan qadam bo'ldi. Ikki dalali almashlab ekishda ekin maydonlari bir yoki ikki ekin ekilgandan so'ng yaylov qilib tashlab qo'yilar edi. Almashlab ekishning birinchi tartibi tobora yangidan yangi qo'riq yerlarni o'zlashtirishni talab qilardi. Kuzda dehqonlar va xo'jayin yerlari butunlay aralashib ketardi. Hosil yig'ib-terib olingandan so'ng mashoq yig'ilar, undan keyin esa ekin maydonlari dehqonlar va xo'jayin chorva mollari uchun umumiy yaylovga aylanardi.

Bu davrda Fransiyada asosiy feodal solig'i ishlab berish solig'i bo'lib, dehqon feodal yerida o'z xo'jaligini yuritar ekan, buning evaziga barshchinani ishlab berishi shart edi. Bundan tashqari u xo'jayin uyiga o'rmondan o'tin, qurilish uchun tosh olib kelib berishi, qorishma tayyorlab berishi, g'isht teruvchilik qilishi, yo'llar va ko'priklarni tuzatishi lozim edi. Barshchina dehqon ishlab beradigan ish kuni soni bilan belgilanar edi. Bunda u o'zining xo'kizidan va qishloq xo'jalik ish qurollaridan foydalanardi. Dehqonga beriladigan chek yer uning tassarufida bo'lgan xo'kizlar miqdori bilan belgilangan.

Dehqonlar obrok solig'ini natura shaklida to'laganlar. Dehqonlarning dalalaridan g'allaning bir qismi xo'jayin foydasiga ketardi. Dehqonlar o'z hosillari dalada yomg'irda, shamolda yotgan bo'lsa ham avvalo soliqni xo'jayin xovlisiga eltib berishlari zarur edi. Dehqon xo'jayinga o'z tomorqasida yetishtirilgan cho'chqa, tovuq, tuxum va boshqa maxsulotlarning bir qismini berardi. Xo'jayin har bir oiladan har yilgi aloxida soliq olishi mumkin bo'lib, Fransiyada bunday soliq talya (taille-belgi) deb atalgan. Qaram dehqon agar o'z qizini boshqa okruglik dehqonga turmushga beradigan bo'lsa ham soliq to'lagan.

Fransiyada dehqonlar ommasining oz qismini shaxsan erkin dehqonlar – villanlar tashkil qilar, ular feodalga yer jihatdan qaram bo'lsalarda, lekin shaxsiy erkinliklari tufayli majburiyatlar o'tamasdilar.

Feodal solig'i uzluksiz ravishda ko'payib borish tendentsiyasiga ega edi. X asr oxirida sen'orlar banalitetlar deb nom olgan huquqqa ega bo'ladilar. Banalitet feodalning donni yanchish, non yopish va uzumni ezib suvini olish bilan bog'liq monopol huquqi bo'lib, bunda dehqon agar feodal banalitet huquqiga ega bo'lgan taqdirda, agar non yopadigan bo'lsa faqat xo'jayinning pechida yopishi, don yanchadigan bo'lsa faqat xo'jayinning tegirmonida yanchishi va uzumni xo'jayin presidan chiqarishi lozim edi.

Bularni barchasi uchun dehqon qo'shimcha soliq to'lashga majbur edi.

O'zining biriktirilgan yeridan qaram dehqon ketib qolgudek bo'lsa, xo'jayin uni ta'qib qilish huquqiga ham ega edi. Qaram dehqon ketib qolar ekan, ko'pincha cherkov odami bo'lib olar, yoki boshqa sen'or yeridan himoya qidirar edi. Xo'jayin

uni qidirib topgandan so'ng esa majburiy tarzda joyiga qaytarib olib kelishi mumkin edi. Qaram dehqonlarning qochib ketishi birinchi salib yurishlari vaqtida ayniqsa dehqonlar tomonidan to'la ozod bo'lish umidida boshlangan, biroq uning ishtirokchilarini ko'pchiligini halokati bilan yakuniga yetgan kambag'allar yurishi (1096- yil) deb nomlangan salib yurishi davrida ulkan ko'lamlarga ega bo'ladi.

997-yili Normandiya gersogligi hududida dehqonlar qo'zg'oloni ko'tariladi. Bu qo'zg'olon Gilom Jyumskiyning yilnomasida batafsil tasvirlab berilgan. Yilnomachining yozishicha qo'zg'olon ko'targan dehqonlar Normandiyaning turi grafliklariga o'z odamlarini yuborib, o'z maqsadlarini- o'z xohishlariga ko'ra yashashlarini, o'sha vaqtga qadar o'rnatilgan qonunlarning taqiqlariga qaramasdan o'rmon ne'matlaridan, suvdan o'zlari istaganicha foydalanish talablarini bildirganlar.

Gersog dehqonlarning bu harakatlari haqida xabar topgach, o'sha zahoti ularga qarshi graf Raulning katta qo'shinlarini yuboradi. Qo'zg'olon bostiriladi. Boshqalarga ibrat bo'lsin uchun ko'plab dehqonlarning qo'l va oyoqlari kesilib o'z yerlariga jo'natiladi.

Ko'pchilik dehqonlar bu vaqtlarda tovuq katagi kabi kichik xaroba kulbalarda yashardilar. Usti poxol bilan yopilgan bu kulbalarning derazasi bo'lmas, tepasida ozgina yorug' tushadigan va tutun chiqib ketadigan tuynugi bo'lardi.

Dehqonlar doimo feodallarning yerida band bo'lganligidan o'z yerlarini durust ishlay olmas edilar. Hosil juda past bo'lardi. Salgina sovuq va qurg'oqchilikdan ham ekinlar nobud bo'lardi. Natijada bir necha oy va bir necha yilga cho'zilgan dahshatli ocharchilik boshlanardi. Odamlar dastlab bor mollari va parandalarini yeb tamomlardilar, keyin esa ochdan o'lib ketmaslik uchun o't-o'lanlarni va daraxt ildizlarini erdilar. Dahshatli ocharchilikda xatto odamxo'rlik hodisalari bo'lib turgani haqida yilnomalarda qayd etilgan.

Bu ocharchilik yillari ortidan tinka madori qurigan minglab odamlarni hayotiga zomin bo'luvchi yuqumli kasalliklar – epidemiyalar tarkalar ular butun – butun qishloqlar aholisini qirib yuborar edi.

IX-XI asrlarda Fransiyaning siyosiy tuzumi. Fransiya bu davrda iqtisodiy jihatdan bir - biridan ajralib qolgan va siyosiy mustaqil feodal mulklar – grafliklar va

gersogliklarni mujassamlashtirgan edi. Natural xo'jalikning to'la hukmronligi sharoitida feodallar o'zlarini o'z yerlarining mutloq xo'jayinlari deb xis etardilar.

Bu davrda Fransiyada eng kuchli feodal mulklar Fransiyaning shimolidagi Normandiya, Normandiyadan shimoli sharqda joylashgan Flandriya grafligi va bundan keyingi Fransiya tarixida juda katta rol o'ynagan Normandiyaning janub tomonida joylashgan Anju grafligi edi. XII asr o'rtalarida Anju graflari Angliya qirollari bo'lishardi. Anjudan g'arb tomonda etnik tarkibiga ko'ra (kelt) aholisining Fransiyaning boshqa qismlaridan farq qiluvchi Bretan gertsogligi joylashgan edi. Sharqda o'zining yarmarkalari bilan erta mashhur bo'lgan Shampagne grafligi mavjud bo'lib, uning janubiy tomonida Burgundiya gertsogligi yotardi: Luara daryosining quyi oqimi janubrog'ida Puatu grafligi, uning yana ham janubroq tomonida ulkan Akvitanija gertsogligi bo'lib, Akvitanianing sharq tomonida esa Tuluza grafligi joylashgan edi.

Fransiyada qirollik taxti 987- yilga qadar Karolinglar sulolasi qo'lida bo'lib keldi. 987-yilda taxtga graf Gugo Kapetning chiqishi bilan Fransiyada Karolinglar sulolasi barham topadi. Kapetinglarning dastlabki vakillari uchun o'z hokimiyatlarini mustahkamlashga yuz yildan oshiq vaqt sarflashlariga to'g'ri kelgan edi. Zero, dastlabki Kapetinglardan birining pul uchun Normandiya baroniga harbiy xizmatga yollangani, yana boshqa bir mahal o'z mulklaridan o'tib ketayotgan italyan savdogarlarini talagani ma'lum. O'sha vaqtlarda qirolning hatto o'z domenidagi ahvoli ham shunday edi.

Kapetinglarning birinchi namoyondalarini real hokimiyatlari juda ham sezilarsiz bo'lib, amalda ularning bevosita mulklari (qirol domeni) joylashgan katta bo'lmagan hududlar bilan ya'ni xonavayron bo'lgan Sena va Luara daryosi o'rta oqimidagi ko'lami jihatidan katta bo'lmagan yerlar bilan chegaralanardi. Qirol domeni shimoldan janubga tomon cho'zilgan Il-de-Frans deb nomlangan tor uzunchoq yer bo'lib, u normannlarning hujumlarida Shimoliy Fransiyani mudofaa qilishda sezilarli rol o'ynagan Orlean va Parij kabi markazlarni o'z ichiga olardi. Biroq bu unga katta bo'lmagan hududlar doirasida ham birinchi Kapetinglar to'la xo'jayin bo'lishmagan. Il-de-Fransda yashagan boshqa feodallar o'zlarining mustahkam qasrlariga tayanib

ularning hokimiyatiga bo'ysunishni istamaganlar, katta yo'llarda qaroqchilik qilganlar. Qirol hokimiyati jihoyatda zaif edi.

Feodallar avvaliga yog'ochdan, XI asrdan boshlab esa toshdan qurilgan mustahkamlangan qasrlarda yashardilar. Baland tosh devorlar (balandligi 60m gacha) butun qasrni o'rab turardi. Qasr odatda suv to'ldirilgan keng xandaq bilan o'rab olingan bo'lardi. Darvoza oldida xandaq ustida ko'tarma ko'prik bo'lib, kechalari va dushman hujum qilgan vaqtlarda ko'prikni ko'tarib zanjirlab qo'yardilar. Trevoga xabari bo'lgani hamono feodal askarlari darhol devor va qorovulxonadagi joylarga chiqib olardilar.

Feodallar o'rtasida o'zaro urushlar turli sabab va arzimas bahonalar bilan bo'lib turardi. Bu xususiy urush qilishning alohida huquqi hisoblanib, biron bir huquq bu vaqtda urush qilish huquqi kabi qadrlanmagan. Har bir mulkdor huquqda o'ziga teng bo'lganga urush e'lon qilishi mumkin edi. Bu urushda nafaqat uning o'zi, balki butun qarindoshlari va go'yo do'stining dushmani tomonidan g'ururi toptalgan do'stlari ham qatnashardilar. Shunday qilib, mayda mulkdorlarning xunrezligi ko'pincha butun viloyatlarni qamrab olgan urushlarning sababi bo'lib qolardi. Fransuz qirollari qonuniy yo'l bilan bu urushlarni cheklashga uringanlar: bunday urushlarda qatnasha oladigan shaxslar va urushda qatnashish huquqini beradigan qarindoshlik darajalari belgilangan. Muddatlar ko'rsatib berilganki, ulardan oldin urush harakatlarini boshlash mumkin emasdi. Bunday muddatlar "qirq kunliklar" deb atalgan. Urush qilishdan oldin dushmanni oldindan uning tayyorgarlik ko'rishga ulgurishi uchun xabardor qilingan.

Feodallar o'rtasida muntazam ravishda bo'lib turadigan urushlar avvalo ularning o'z mulklarini kengaytirish va soliqlarni ko'paytirishga bo'lgan intilishi bilan kelib chiqardi.

Harbiy xizmatga feodallar yoshlikdanoq tayyorgarlik ko'rishgan. Feodallarning o'g'illari avvalo otda yurish, qurol bilan muomala qilishga o'rgatilgan, shundan keyin ular o'z sen'orlari oldiga yo'l olganlar, ular qurolbardorlari bilan harbiy yurishlarda ishtirok etganlar. Feodalning 15 yoshli bolasi ot ulovlar mahkamasining boshlig'i-

miroxo'r, ritsarning qurolbordori bo'lishi, jangda ritsarning oti oldida uning qolqonini ushlab, zaxira qurol-yarog'larni ko'tarib yurishi joiz edi.

18-20 yoshda o'spirin-feodalga ritsarlik unvoni berilgan, Ritsarlik unvoni berish marosimida unga otliqlar etigining poshnasiga taqiladigan temir tepkilar va qilich taqdim etilgan. Marosimga ritsarlik unvoni olayotganning qarindoshlari va taklif qilingan mehmonlar ishtirok etishgan. Ritsarlarni harbiy xizmatga o'qitish bu bilan tugamagan. U urush vaqtida ham tinglik vaqtida ham davom ettirilgan. Ov va harbiy mashklar ritsarlar hayotining ajralmas qismi bo'lib, qirollar, imperatorlar va yirik feodallar muntazam ravishda musobaqalar- turnirlar uyushtirishardi, ularda ko'plab tomoshabinlar oldida jang aslaxalari kiygan turnir qatnashchilari maydonning ikki tomoniga ajralib, so'ngra ular hakamning ishorasi bilan bir birining qarshisiga ot choptirib kelar, turnir uchun ishlangan to'mtoq nayza bilan muxolifini urib tushirishga harakat qilardilar. XI asrda Fransiyada harbiy o'yinlar va o'quv janglaridan kurashning alohida ko'rinishi vujudga keladi. Jangchilar turnirlarda ikkita –ikkita bo'lib yoki ikki qator bo'lib bir-birlariga qarshi chiqishar edi. Bunday musobaqalar oqibatida ko'pincha qatnashchilarning ba'zilari qattiq shikastlanar, hatto halok bo'lardi. Odatda, musobaqa g'olibiga mag'lub bo'lgan muxolifning oti va qurol aslaxasi mukofot qilib berilar edi. Ko'pgina kambag'al ritsarlar musobaqalarda o'zlariga anchagina pul ishlab olib, bir qasrdan ikkinchisiga, turnirdan - turnirga o'tar edilar. Turnir musabaqalari katta ziyofatlar bilan yakunlanar edi.

Ritsarlar davri Fransiyasi uchun siyosiy tarqoqlik xarakterli bo'lib, davlat mustaqil viloyatlardan, viloyatlar esa-deyarli mustaqil bo'lgan katta imeniyealardan iborat edi. Bunda viloyat hukmdorlari va imeniya egalari o'z ustilaridan oliy hokimiyatni his qilmagan holda, huddi hukmdor qiroldek farmon chiqarar, odamlarni sud qilar va urushlar olib borardilar. Qirol tashqi dushmanlar bilan kurash vaqtida birlashtiruvchi markaz sifatida maydonga chiqardi.

Qirollik domenidan tashqarida birinchi kapetinglarning hokimiyati amalda bo'lmay, feodallar o'z qasrlarida o'zlarini mutloqo mustaqil va jazodan tashqarida his qilardilar. Qasrni bir hujum bilan qo'lga kiritish o'ta mushkul bo'lgani uchun qamal qiluvchilar bu yerda oylab qolib ketishlariga to'g'ri kelardi.

Tayanch so'z va iboralar: Karl Buyuk imperiyasi, G'arbiy frank qirolligi, Robertinglar, "Strasburg qasamyodi", provansal, benefitsiy, feod, injil, investitura, vassallik, ritsar, suveren, senor, graflar, gertsoglar, baronlar, vikontlar, "tenglarning birinchisi", fef, talya, villanlar, banalitetlar huquqi, kapetinglar, qirol domeni, turnirlar, qirq kunliklar.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Feodallar boshda nima uchun Buyuk Karl hokimiyatini mustahkamlab, keyinchalik uni qo'llamay qo'ydilar? Buyuk Karl imperiyasining bo'linib ketish sabablari nimadan iborat?

2. Qanday davlatlarni tarqoq davlatlar deyiladi?

Feodal o'z mulkida xuddi davlat hokimi singari hukm surganligini isbotlab bering.

3. Fransiyada sen'orlar va vassallarning vazifalari nimadan iborat edi?

4. Feodal pog'onasi kimga va nima uchun kerak bo'ldi?

5. X-XI asrlarda qirol hokimiyati uchun nima sababdan Normandiya gersogi xavfli dushman bo'lib qolayotgan edi?

6. X asr oxirida sen'orlar ega bo'lgan banalitetlar deb atalgan huquqning mohiyati nimadan iborat?

7. Nima uchun o'rta asrlarda hosilsizlik va ocharchilik tez-tez sodir bo'lib turgan? Qishloq xo'jalik texnikasi nima uchun sekin taraqqiy qilgani haqida fikr yuriting.

8. IX-XI asrlarda Fransiyaning siyosiy tuzumini o'ziga xos jihatlarini ajratib ko'rsating.

Glossariy:

Fef (feod) – merosiy yer-mulklar.

Iyerarxiya – feodallar pog'onasi.

Domen – qirol oilasiga tegishli mulk.

Provansal – janubiy fransuz elati, tili.

Pomeste – feodalga tegishli yer-mulklar.

Imenie-feodallarning qo'rg'onli yer uchastkasi.

Baron (lot)- o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada qirolni bevosita vassali.

Graf (nemischa) – o'rta asrlar boshida g'arbiy Yevropada qirol nomidan graflikda hokimlik qiluvchi mansabdor.

Gersog (nemis) – qadimiy germanlarda qabila harbiy boshlig'i, o'rta asrlarda yirik feodal.

Monastir- xristian ibodatxonasi.

Abbat – cherkov mansabdori.

Yepiskop –(yun) – xristian cherkovlarda oliy martabali shaxs, cherkovga qarashli ma'muriy hududiy birlik boshlig'i.

Arxiyepiskop – (yun) – katta yepiskop.

Ritsar – kichik feodal, otliq jangchi.

31-§. VI–XI asrlarda slavyan xalqlarining ijtimoiy ahvoli va ularda ilk davlatlarning vujudga kelishi

Bolgariya davlatining vujudga kelishi. VII asrda Bolqon yarim orolining shimoli-sharqida vujudga kelgan Bolgariya davlati o'z taraqqiyotida ikki bosqichni bosib o'tdi. Dastlab, ya'ni VII asrning birinchi yarmida Dunayning janubida yashovchi Dunay bo'yi slavyanlari deb atalgan yettita slavyan qabilasining katta bir ittifoqi vujudga keldi; aftidan, yana bir slavyan qabilasi – Dunayning shimolida Transilvaniya chegaralarida yashagan shimolliklar (severyanlar) qabilasi ham bular bilan bog'langan bo'lsa kerak. Slavyanlarning Dunay ittifoqi Bolqon yarim orolining narigi cheti bilan berigi chetidagi dushmanlarga – shimolda avarlarga va janubda Vizantiyaga qarshi qattiq kurash olib bordi.

Taxminan huddi shu vaqtlarda, ya'ni VII asrning birinchi yarmida Dunayga Azov bo'yidan yangi qabila – bolgarlar keldi; bular slavyanlar bo'lmay, tiliga qaraganda qandaydir bir ilk turk yoki prototurk qabilalariga mansub edi. Bolgarlarning Dunay bo'yiga, so'ngra esa bevosita Bolqon yarim oroli hududiga kelib joylashuvi Dunay bo'yi slavyanlari ittifoqining bundan keyingi rivojida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Bolgar xoni Asparux Dunay ittifoqining knyazlari bilan maxsus shartnomalar tuzib (bu shartnomaga muvofiq bolgarlar bilan slavyanlarga tegishli hududlar ajratib beriladigan bo'lgan edi), o'z drujlnnasi va fuqarolarining bir qismi bilan birlikda 679-yilda (yoki yana boshqa bir taxminga qaraganda 681- yilda) Bolqon yarim orolining Dunaydan janubdagi hududiga ko'chib kelib joylashdi. O'sha vaqtda yuz bergan vaziyatga qaraganda, bolgarlar bu yerga istilochi sifatida emas, balki umumiy dushman - avarlar va vizantiyaliklarga qarshi kurashda Dunay slavyanlariga ittifoqchi bo'lib keldilar. Ammo bu ittifoqda kelgindi bolgar qabilalari slavyanlardan ustun bo'lib olganligi uchun mamlakat ham bolgarlar nomi bilan ataladigan bo'ldi.

Asparux Vizantiya imperatori Konstantin IV bilan bolgarlar va slavyanlar uchun foydali shartnoma tuzishga muvaffaq bo'ldi, bu shartnomaga muvofiq, Vizantiya imperiyasi Bolqondan kattagina bir qism yerni birlashgan «varvarlar»ga beradigan bo'ldi, Asparux yangi bolgar-slavyan davlatining bosh knyazi bo'ldi, unga bu yerda qolgan mahalliy slavyan knyazlari bo'ysunardilar. Slavyan aholisi Asparux va uning urug'i Dulo foydasiga xiroj to'lashi lozim edi. Yangi davlatning poytaxti avvaliga Pliska shahri, keyinchalik esa Preslava shahari bo'ldi.

VIII asrda Asparuxning vorisi davrida bolgarlar endi Vizantiyaning ichki ishlariga aralashadigan bo'lib qoldi. Bolqon tog' tizmalarining janubidan yangi yerlar oldi. VIII va IX asrlar davomida slavyanlar bilan bolgarlar juda tez yaqinlashib ketdilar, bolgarlar slavyanlardan deqonchilikni, hunarmandchilikni, slavyan dini va urf-odatlarini, hattoki tilini ham o'zlashtirib oldilar. Feodal munosabatlar tarkib topa borgan sari yerli slavyan va kelgindi bolgar zodagonlari bitta hukmron toifa bo'lib qo'shilib ketdi.

IX asrda Bolgariyaning yuksalishi. IX asrning boshlaridayoq Bolgariya juda katta bir davlatga aylandi. Qudratli xon Krum hukmronlik qilgan vaqtda (802-815) Bolgariya podsholigi tarkibiga hozirgi Bolgariyadan tashqari, yana hozirgi Ruminiya hamda Vengriyaning katta bir qismi (Tisa daryosining janubidagi qismi) kirgan edi. Krum zamonida Bolgariyaning yerlari g'arbda Sava va Tisa daryolari bo'ylab bevosita Karl Buyuk imperiyasi bilan chegaradosh edi. Bolgariya IX asrning ikkinchi yarmida knyaz Boris (852-888) zamonida ham kengayib bordi. Boris zamonida bolgarlar (sharqdan kelganlarning avlodlari ham, mahalliy slavyan aholisi ham) Vizantiyadan xristianlikni qabul qildi. IX asrda dastlab bir-biriga yot bo'lgan ikki etnik birlashma – bolgarlar va slavyanlar bir-biri bilan shu qadar yaqinlashib ketdiki, «bolgarin» degan nom vizantiyaliklar bilan ruslar nazarida haqiqiy slavyan degan ma'noga ega bo'lib qoldi. Son jihatidan birmuncha ozchilikni tashkil etgan kelgindi bolgarlar mahalliy aholiga aralashib ketib, slavyan tilini to'la o'zlashtirib oldi. Xristianlikning qabul qilinishi ikkala qabila elementining bu qo'shilish jarayoni huddi g'oyaviy jihatdan tugalladi.

Podsho Simeon zamonida Bolgariya. Bolgariya podsholigi podsho Simeon Buyuk (883-927) davrida juda qudratli podsholikka aylandi. Uning davrida Bolgariyaning Bolqon yarim orolidagi yerlari shu qadar kengayib ketdiki, u bamisoli umumbolqon davlati bo'lib qolgan edi. Vizantiyaning qo'lida yarim orolning faqat janubiy qismlarigina, Egey dengizi qirg'oqlari, Makedoniyaning bir qismi (Solun shahari bilan) va Frakiyaning bir qismigina qoldi. Lekin Simeon bu viloyatlarga ham tahdid solib, Bolqon yarim orolining hammasini, shu jumladan Vizantiya poytaxti Kopstantinopolning o'zini ham bosib olmoqchi bo'ldi. Simeon «Sargrad»ga bir necha marta yurish qildi va uni bosib olishga urindi. Lekin u o'zining bu maqsadini amalga oshirolmadi, chunki Konstantinopol yaxshilab mustahkamlangan va strategiya jihatidan juda qulay o'rinda joylashgan edi, Simeonda esa zarur dengiz floti yo'q edi. Bundan taishqari bolgarlar yarim orolning narigi yonida vizantiyaliklarning ittifoqchisi vengrlar bilan urush olib borayotgan edi.

Tsargradni egallay olmasa ham, 919 -yilda Simeon «barcha bolgarlar va yunonlarning podshosi va hokimi» degan dabdabali unvon oldi va, shunday qilib, u o'zini Vizantiya imperatori bilan baravar deb hisobladi. Shu narsa diqqatga sazovorki, Vizantiya saroyidagilar ham Bolgariya podshosi bilan hisoblashishga majbur edilar. Konstantinopol saroyida bo'ladigan qabul marosimlarida bolgariya elchilari boshqa elchilar orasida, jumladan, Muqaddas Rim imperiyasining elchilari orasida ham birinchi o'rinda turardi. Simeonning o'g'li, bo'lg'usi podsho Pyotr Vizantiya malikasiga, Vizantiya imperatorining nevarasiga uylandi. Preslavlga yunon malikasi bilan birga juda ko'p yunonlar ko'chib keldi. Preslavlda Vizantiya loyihalari asosida vizantiyalik va bolgarlik ustalar yordamida saroylar, ibodatxonalar, g'ishtin shahar devorlari qurila boshladi. Bolgar saroy ahli, har bir jihatdan dabdabali Vizantiya saroyiga o'xshashga harakat qilardi.

Yoshligida Vizantiya saroyida tarbiya olgan va o'sha zamonning juda ham o'qimishli kishisi bo'lgan Simeon o'zining Preslavdagi saroyida slavyan adabiy markazini tashkil qildi. Uning o'zi ham bir nechta adabiy asar yozdi. Uning buyrug'i bilan Vizantiyada chiqqan diniy-falsafiy va adabiy-tarixiy termalardagi har turli

to'plamlardan juda ko'pi («Izmaragd», «Zlatostruy» va boshqalar) slavyan tiliga tarjima qilindi.

Ilk bolgar yozuvchilari X asrda o'zlarining original asarlarini yaratdilar. Bulardan eng ko'p tarqalgani Ioann Ekzarxning «Shestodnev» degan kitobi shuningdek. Monax Xrabrning «Slavyan tili to'g'risidagi mulohazalar» degan kitobidir. Xrabr slavyan tilining yer yuzida keng tarqalganligi va bu til orqali yunon va lotin tili singari hamma narsani ifoda etish mumkinligini isbotlaydi. Simeon zamonida xat-savod xalq ommasi o'rtasida keng tarqaldi. X asrga oid manbalarda ko'rsatilishicha, kitobxonlik Bolgariyaning shaharlaridagina emas, balki qishloqlarida ham sevimli mashg'ulot bo'lib qolgan. Keyincha, XI-XII asrlarda bolgar-slavyan adabiyoti Rusga ham keng tarqalib, qadimgi rus adabiyotining hiyla taraqqiy etishiga yordam berdi.

Podsho Simeondan keyin Bolgariya. Simeon o'lgandan keyin Bolgariya tushkunlikka yuz tutdi, Simeon istilo qilib olgan yerlarning katta bir qismi Bolgariya qo'lidan ketib, qo'shnilar qo'lga o'tdi. Bolgariya hisobiga ayniqsa Vizantiya kuchaydi. Shu bilan bir vaqtda Bolgariyaning qolgan hududi ham mahalliy bolgar feodallari-boyarlari hokimiyatining kuchayishi natijasida siyosiy birligini yo'qotib bordi. Bolgariya g'irt tarqoq feodal davlatga aylanib bordi; podsho hokimiyati ham tobora zaiflashdi. Shu bilan bir vaqtda Bolgariyadagi dehqon xalq ommasining ahvoli ham juda og'irlashib bordi. Simeon zamonidayoq bolgar dehqonlari og'ir davlat soliqlari va uzluksiz urushlar natijasida xonavayron bo'lgan edi. Iqtisodiy jihatdan zaiflashgan bu dehqonlar tez orada dunyoviy va cherkov yer egalari asoratiga tushib, krepostnoylashib bordi. Ko'pincha davlat soliqlari shu qadar og'ir bo'ldiki, erkin bolgar dehqonlari davlatga kamroq soliq to'lash uchun o'z yerlarini tashlab, feodallar yeriga o'ta boshladilar. Biroq bu bilan ular mana shu feodallarning krepostnoyiga aylanardilar. Vizantiyadagi krepostnoy dehqonlar singari Bolgariyada ham ularni pariklar deb atashardi.

Bogomillik. Boyar-feodallar ekspluatatsiyasidan ezilgan dehqonlar ommasining noroziligi keng suratda avj olgan yeretiklik harakatida – bogomillikda o'zining yorqin ifodasini topdi. Bogomillik dastlab podsho Simeon zamonidayoq paydo

bo'lgan edi. Bogomillik X asrning o'rtalarida ayniqsa keng tarqalgandi. Bogomillar degan nom, ba'zi talqinlarga ko'ra, bogomillarning dastlabki jamoasi tepasida turgan Bogomil yoki Bogumil degan nomning otidan kelib chiqqan; yana boshqa bir talqinga ko'ra, bu so'z xudoga xush, keladigan degan ma'noni anglatadi, bu nom mazhab tomonidan qabul qilingan bo'lib, bu bilan bogomillar o'zlarini xudoga yaqin ekanliklarini va bogomillarning fikricha, yaxshi ishlarga xizmat qilmasdan yomon — gunoh ishlarga xizmat qiladigan rasmiy davlat pravoslav cherkovi tarafdorlariga qarama-qarshi o'laroq o'zlarini odil qilib ko'rsatmoqchi bo'lganlar Vizantiyadagi pavlikanlar singari, bogomillar dunyoga dualistik nuqtai nazardan qaraganlar. Ularning fikricha, olamda bir-biriga qarama-qarshi ikkita asos: yaxshilik – xudo va yomonlik – shayton hamma vaqt kurashib kelgan va kurashib kelmoqda ekan. Bogomillar: davlat cherkovi og'izda xudoga xizmat qilgandek bo'lib, amalda esa shaytonga xizmat qiladi, derdilar. Ijtimoiy zulm to'g'risidagi, avj olib kelayotgan iqtisodiy tengsizlik va ekspluatatsiya to'g'risidagi tasavvurlarini bogomillar o'zlaricha ana shu xilda tushuntirar edilar.

Bogomillar davlat pravoslav cherkovini inkor etdilar va cherkov yer egaligiga qarshi chiqdilar. Ular krepostnoylik huquqi muqaddas kitobga ham to'g'ri kelmaydi, deb targ'ib qildilar. Bogomillar harbiy xizmat o'tashni gunoh deb hisobladilar va podsho soliqlarini to'lashdan bosh tortdilar. Ular o'zini-o'zi idora qiladigan va jamoa mulkiga birgalashib egalik qiladigan patriarxal mahalliy jamoalarni feodal davlatga qarshi qo'yidilar. Ularning o'zlarining maxsus demokratiya cherkov tashkiloti bo'lib, ularga saylab qo'yiladigan xalq oqsoqollari boshchilik qilar edi. Bogomillarning o'z adabiyoti – taqiqlangan kitoblar deb ataladigan kitoblari ham bor edi, bu kitoblarda ular rasmiy pravoslav cherkovini qattiq qoralardilar.

Bogomillar hukumat tomonidan juda qattiq ta'qib qilinardilar. O'z vatanida quzg'in qilingan bogomillik Bolqon yarim orolidagi boshqa mamlakatlarga – Serbiya, Bosniya, Dalmatsiyaga, Vizantiyaning Bolqondagi viloyatlariga keng tarqaldi. Keyinchalik borib bogomillik G'arbiy Yevropadagina emas, balki Sharqiy Yevropadagi har xil yeretik harakatlarning (g'arbda katarlar va albigoylar, Pskov va Novgorodda – strigolniklar va h.k.) avj olishga ta'sir ko'rsatdi.

Birinchi Bolgariya podsholigining tugashi. Vizantiya Bolgariyadagi ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishidan foydalanib, X asrning o'rtalaridan qat'iy hujumga o'tdi. Bir vaqtlar Vizantiya Kiyev knyazi Svyatoslavni yordamga chaqirgan edi. Svyatoslav Bolgariyaga ikki marta (968-969 va 969-971 yillarda) yurish qildi, bu yurishlar natijasida Dunayda o'z hokimiyatini o'rnatdi. Svyatoslav bolgar feodallarini tor-mor keltirib, Filippopol ustiga yurish qilib, qurolini Vizantiyaning o'ziga qarshi qaratganda (shuni aytish kerakki, uning qo'shinida bolgarlar ham bor edi) Ioann Simisxiy katta qo'shin bilan unga qarshi chiqdi hamda rus va bolgarlarni orqaga shimolga siqib chiqardi; keyinchalik u Svyatoslavni Bolgariyaning o'zidan ham siqib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Svyatoslav chiqib ketgandan keyin Simisxiy Bolgariya podsholigining katta qismini — sharqiy Bolgariya deb ataladigan qismini Preslavdagi poytaxti bilan birga ishg'ol qilib, uni Vizantiyaga qo'shib oldi. Istilo qilinmay qolgan G'arbiy Bolgariyani markazi Oxrid shahari bilan Vasiliy II Bolgaroboytsa (Bolgarkesar) o'ziga bo'ysundirdi (Bolgaroboytsa – bolgarcha «bolgarlar qotili» degandir); Vasiliy II bu laqabni bolgarlarga qilgan shafqatsizligi uchun olgan edi. U 1014- yilda o'zi uchun muvaffaqiyatli tugagan jangdan keyin asir olingan 15 ming bolgarning ko'zini o'yishga buyruq berdi. Bolgar podsholigi 1018 yilda batamom tugadi. Shu vaqtdan boshlab Bolgariya uzoq vaqtgacha deyarli XII asrning oxirigacha Vizantiya asoratiga tushib qoldi.

Bolqon yarim orolidagi serb qabilalari. VI-XI asrlarda Bolqon yarim orolining shimoli-g'arbiy qismida turli serb qabilalari o'rnashgan bo'lib, bular serblarga, xorvatlarga va slovenlarga bo'linar edi. Serb qabilalarining azaldan yashab kelgan yerlari Adriatika dengizi, Istriya daryolardan: Drava, Dunay va Morava hamda Shar-Planina tog' mavzesi o'rtasidagi keng hududdan iborat edi.

Tog' tizmalari bilan bo'lingan serb aholisi uzoq vaqtgacha kichik-kichik hududiy birlashmalar shaklida yashar edi, bu birlashmalar jupa deb atalar edi. Hududiy birlashmalar urug'chilik ittifoqlari bilan chatishib ketgan edi. Urug'larga bo'linishning asosiy formasi qabila bo'lib, u kichik-kichik qarindoshliklarga bo'linardi. Bular esa o'z navbatida patriarxal oilalarga bo'linar edi. Sharqiy serb qabilalarida xonadon jamoasi, ya'ni bo'linmasdan umumiy bir xo'jalik olib boruvchi

katta oila ayniqsa keng tarqalgan edi. Bu xonadon qabilasi «to'da», «buyuk to'da» deb atalardi. Bunday qabilaning bo'lganligini hali XIX asrning ikkinchi yarmida o'z ko'zi bilan ko'rganlarning bu haqdagi yozuvlari tasdiqlaydi.

Bora-bora serb jamiyatida anchagina ijtimoiy tabaqalanish yuz berdi. Manbalarda VIII-X asrlardayoq serblarda qullar bo'lganligi tilga olinadi. Xalq majlislariga («sborlari» yoki «sborlari»ga) to'planib turadigan erkin jamoalar tepasida jupanlar, jupa boshliqlari turardi, bular knyaz deb ham atalardi. Jupanlar orasidan sekin-sekin buyuk jupanlar paydo bo'ldi va ular qo'shni qabilaviy guruhlarini birlashtirib, davlat tuzishga urinib, birmuncha muvaffaqiyat qozondilar. Qo'shni davlatlar – Vizantiya, Vengriya va Bolgariya serb qabilalarini o'zlariga bo'ysundirib olishga harakat qildi, serb qabilalari bu davlatlarga qarshi kurash olib bordi, bu kurash serblarda davlatning tashkil topishini tezlatdi.

Serbiya va Xorvatiya davlatlarining tashkil topishi. Serb qabilalarida davlat bir emas, bir necha markazda tashkil topdi. Serb qabilalarining birinchi eng katta birlashmasini sharqiy serblar knyazi Vlastimir (836-843) tuzdi. Vlastimir qo'l ostidagi yerlar tarkibiga sharqiy serblarning asosiy hududi bo'lgan Rashkadan tashqari, Bosniyaning Rashka daryosi g'arbidagi katta bir qismi ham kirdi. Vlastimirning avlodlaridan biri Cheslav Klonimirovich (932-960) dastlab Bolgariya podshosi Simeonning odami bo'lib idora qildi. Biroq keyinchalik, Simeon o'lgandan keyin u, bolgarlar hokimiyatidan qutulib, mustaqil knyaz bo'lib olishga va o'z qo'l ostidagi yerlarni G'arb bilan Sharqda anchagina (to Dunaygacha) kengaytirishga muvaffaq bo'ldi.

Vlastimir bilan bir vaqtda Bela degan knyaz ham g'arbiy serblarni birlashtirishga harakat qildi; u keyin Vlastimir bilan siyosiy ittifoq tuzdi.

IX asrning o'rtalarida xorvatlar franklardan qutulib, ular ham o'z mustaqil davlatini tuzdi; bu davlatni ularning o'z jupanlari idora qildi (bu jupanlardan eng mashhuri Trpimir bo'lib, u 839-864- yillarda idora qildi). X asrning boshlarida (chamasi 925- yillarda) buyuk jupan Tomislav (910-930) zamonida Xorvatiya knyazligi qirollikka aylandi. Bu qirollik tarkibiga Xorvatiyaning o'z yerlari va Dalmatsiya kirdi. Biroq dengiz bo'yidagi Dalmatsiya shaharlarini XI asrning ikkinchi

yarmida Venetsiya bosib oldi. XII asrning boshlarida (1102- yildan boshlab) Xorvatiya Vengriyaga qo'shib olindi, u bir necha yuz yilgacha (XV asrgacha) Vengriya tarkibida qolib keldi.

Serbiya davlatining o'zida IX asrda gegemonlik birmuncha vaqtgacha g'arbiy serb (diokleya) knyazlari qo'liga o'tdi. Bular ichida eng katta knyazlar Mixail (1051-1081) va Bodin (1081-1101) edi. Bodin qo'l ostidagi yerlar tarkibiga Zeta (hozirgi Chernogoriya), Bosniya, Gertsogovina hamda Sharqiy Serbiyaning bir qismi kirar edi. Biroq XII asrda yana Sharqiy Serbiya knyazlari kuchaya boshladi. Ulardan biri, Vizantiyaga vassal qaramlikda bo'lgan buyuk jupan Stefan Nemanya (1165-1195) XII asrning 60- va 70- yillarida sharqiy serb qabilalarini ham, g'arbiy serb qabilalarini ham o'ziga bo'ysundirdi. 1190- yilda Stefan Nemanya Vizantiya hokimiyatidan butunlay qutulishga muvaffaq bo'ldi. Shundan keyin tez orada Serbiya qirollik deb e'lon qilindi. XIII-XIV asrlarda Serbiya qirolligi, Bolqon yarim orolidagi eng yirik davlatlardan biri bo'lib qoldi.

Tayanch so'z va iboralar: avarlar, jupan, boyar, bolgarlar, serblar

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Slavyan xalqlar, ularning joylashuvi, davlatchilikning vujudga kelishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Slavyan xalqlari hayotida feodal munosabatlarni rivojlanishi jarayoniga izoh bering.
3. Bolgar podsholigi yuksalgan davri nimalarda ko'rinadi?
4. Bogomillik qanday harakat?

32-§.VI – XI asrlarda arablar

Arablarining ilk oʻrta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti ham xuddi Yevropa xalqlari hayoti singari koʻchmanchi qabilalarning oʻtroqlashuvi jarayonining boshlanishi bilan tavsiflanadi. Ilk oʻrta asrlardagi arablar tarixi odatda uch davrga: 1) Makka-Madina davriga – Islom dini paydo boʻlmasdan ilgarigi Arabiston va islom dinining paydo boʻlish davriga (VI-VII asrlar); 2) Damashq (Suriya) davriga – Ummaviylar sulolasining idora qilish davriga (661-750) va 3) Bagʻdod (Eron – Mesopotamiya) davriga – Abbosiylar sulolasining idora qilish davriga (750-1055) boʻlinadi; Abbosiylar sulolasining idora qilish davri xalifaliklarning turklar tomonidan bosib olinishi bilan tugadi.

Arab xalifaligining turli siyosiy markazlari bilan bogʻliq boʻlgan bu uchta xronologik davriga arab feodalizmining rivojlanishi ham asosan muvofiq keladi. Birinchi davrda arab jamiyatida feodallasuv jarayoni endi boshlanayotganligi namoyon boʻladi. Ikkinchi va xususan uchinchi davrda Yevropa feodalizmidan jiddiy farq qiluvchi bir qancha tomonlari boʻlgan arab feodalizmining harakterli xususiyatlari tarkib topdi.

Islom dini paydo boʻlmasdan ilgarigi Arabiston. Hududi jihatdan Yevropaning toʻrtidan bir qismiga teng keladigan juda katta yarim orol boʻlmish Arabiston yarim orolining koʻp qismi suvsiz choʻl va sahrolardan iboratdir, ammo dehqonchilik qilish mumkin boʻlgan yeri ozginadir. Shuning uchun Arabiston aholisining ozchilik qismigina oʻtroq hayot kechirar va dehqonchilik bilan shugʻullanar edi. Arablarining koʻpchiligi esa koʻchmanchi – badaviylardan iborat boʻlib, qoʻy, echki va tuya boqar edi. Arabistonning dehqonchilik uchun eng qulay boʻlgan oʻlkasi janubi-gʻarbiy viloyat, Yaman yoki «baxtli Arabiston» boʻlib, bu yerda qadim zamonlardayoq muttasil ravishda birining oʻrnini ikkinchisi olib kelgan bir necha yirik quldorlik davlati bor edi. Hijozning (yarim orolning Qizil dengiz boʻylab choʻzilib ketgan qismining) esa faqat ayrim xududlarida dehqonchilik qilish mumkin edi. Yarim orolning eng katta qismi - Najd sugʻoriladigan yerlari juda kam boʻlgan gʻoyat katta yassi togʻlikdan iborat bir joy boʻlib, faqat chorvachilikka ixtisoslashgan edi..

VI-VII asrlardagi arablarning ijtimoiy tuzumida hali urug'chilik belgilari kuchli edi. Arablar – ko'chmanchi (badaviy) arablar ham, o'troq arablar ham – juda ko'p urug' va qabilalarga bo'lingan edi. Xun olish bor edi. Urug'ning mukldor a'zolari qarindoshlariga iqtisodiy jihatdan yordam berishi lozim edi. Har bir qabilaning o'z diniy marosimi bor edi. Qabila va urug'larning boshida shayx, malik va saidlar turib, hokimiyat faqat shularning qo'lida edi. Biroq urug'chilik tuzumining yemirilish alomatlari ro'y bera boshlagan edi. Urug'-qabila zodagonlari eng yaxshi yaylovlarni va dehqonchilik uchun yaroqli yerlarni – vohalarni (bunday yerlarning o'zi oz edi) o'z qo'liga kirgizib olmoqda edilar. Mulkdor oilalarining ko'pdan-ko'p mollari, shuningdek, qullari bo'lar edi. Shayx va saidlar shu oilalardan chiqar edi. Urushda qo'lga kiritilgan o'ljalarning eng ko'p qismi bularga ajratilar edi. Arablarda urug'-qabila zodagonlaridan tashqari, ya'ni qabila-urug' boshliqlari va oqsoqollaridan tashqari, yana shaharli savdogar-sudxo'rlardan iborat boshqa bir yuqori tabaqa ham avj olib bordi, bu tabaqa ham muayyan bir qabila va urug'ga kirgan bo'lib, odatda badaviy qabilalarning boshliqlari bilan qattiq bog'langan edi. O'rta dengizdan Hindistonga boradigan muhim savdo yo'li qadimdan Arabistondan o'tar edi. Hijoz orqali shimoldan janubga katta savdo yo'li o'tar edi. Shu savdo yo'lida ilk vaqtlardayoq katta-katta savdo shoxobchalari, Makka, Yasrib va boshqalar vujudga keldi. Makka shahri ayniqsa katta ahamiyatga ega edi. Arablar o'rtasida juda dong'i ketgan ibodatxona bo'lmish Ka'ba va undagi muqaddas qora tosh (xajari asvad) shu Makkada edi. Makkada shu Ka'ba atrofida har yili katta yarmarka bo'lib turar edi. Makkaning savdogar-sudxo'rlardan iborat bo'lgan yuqori tabaqasi savdodan katta-katta foyda ko'rar edi. Ular qullarni ekspluatatsiya qilish va qul olib sotish bilan ham shug'ullanar edilar. Shahardagi mayda hunarmandlar ham shu savdogar-sudxo'rlardan hamma vaqt qarzdor bo'lib, iqtisodiy jihatdan ularga qaram edi.

VI asrning oxiri – VII asrning boshlarida arablar qattiq iqtisodiy va ijtimoiy inqirozga uchradi. Yarim orolning aholisi ko'payib, yer yetishmay qoldi. Oddiy arablar uchun ham katta madad bo'lib kelgan karvon savdosi ham tushkunlikka uchradi. VI asrda eronlar bilan habashlar o'rtasida bo'lgan va uzoq-uzoq vaqt davom

etgan urushlar natijasida Yaman deyarli butunlay xarob va vayron bo'ldi. Shimoldan janubga va janubdan shimolga tovar olib borish juda ham kamayib ketdi.

Eroniylar Hindistonga boradigan va o'zlari uchun foydali bo'lgan boshqa bir yo'lga, ya'ni Tigr (Dajla) va Evfrat (Frot) daryolari bo'ylab Fors qo'ltig'iga boradigan yo'lga homiylik qilardilar.


Ana shunday sharoitda arablarda toifalarning tashkil topish jarayoni tezlashib ketdi. Arab shaharlarida aholining quyi tabaqalari o'z ahvolidan norozi edi, ular sudxo'r boylarga nafratlanib qarar edi, bu norozilikni va nafratlanib qarashni dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq qabilalardagi va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi qabilalardagi oddiy omma ham quvvatladi, bu qabilalar ham erga muhtoj edi va o'z urug' qabilasidagi feodallasha boshlagan zodagonlardan jabr-zulm ko'rmoqda edi.

Arab xalq ommasining ijtimoiy noroziligi g'oyaviy tarzida, yangi din - islom dinining vujudga kelishida ifodalanadi.

Islom dinining paydo bo'lishi. Muhammad va uning jamoasi. Muhammad (570-632) quraysh qabilasiga mansub bo'lgan xonadondan chiqqan. Bu qabila Makkada hukmron qabila edi. Muhammad dastlab cho'pon bo'lib, keyin badavlat Xodichaga uylanish orqasida savdogar jamoasiga qo'shiladi. U har doim alol savdo tarafdori bo'lib, sudxo'rlikni juda qattiq qoralagan. Muhammad din targ'ibotchisi («payg'ambar») sifatida 610- yillarda maydonga chiqdi. Sudxo'rlikni qoralashdan tashqari, u har bir kishidan kambag'allarga yordam berishni, o'z daromadining o'ndan bir qismini kambag'allarni boqish uchun ajratishni talab qildi. Shu bilan birga urug'lar o'rtasidagi o'zaro urush janjallarni to'xtatishni ham talab qildi, urug'larning bir-biridan qasos olishiga, urug' va qabilalarning tor qon-qardoshlik doirasida biqinib yotishiga qarshi chiqdi. Arab jamiyatining bundan buyoqdagi rivojlanishiga g'ov bo'lib qolgan urug'chilik tuzumining tor doirasiga qarshi olib borilgan bu kurash Muhammadning ko'p xudolikdan qaytib, bitta xudoga Oллоhga sig'inish kerak, degan asosiy diniy talabida ifodalandi. Islom ta'limotida Muxammaddan oldingi barcha payg'ambarlar haqiqiy deb tan olindi. Bu esa o'z navbatida yarim

orolda yashaydigan juda ko'p nasroniy, yaxudiy xalqarning o'zaro ittifoqini shakllantirish mumkin edi.

Muhammad vujudga keltirgan yangi dinning beshta asosiy qoidasida, ya'ni; 1) bitta xudoga – ollohga ishonish, 2) har kuni albatta besh vaqt namozni tark qilmaslik, 3) yilda bir marta ramazon oyida ro'za tutish, 4) zakot (kambag'allarga ushur) berish va 5) haj qilishdan iborat. Shu bilan birga yangi din dastlabki vaqtlarda xalq ommasining kayfiyati bilan hisoblashishga har holda majbur bo'ldi. Zakotning farz qilib qo'yilishi va sudxo'rlikning birmuncha cheklanishi buning yorqin dalilidir.



MAKKA. MASJID AL-HAROM

Islomda Baytulloh (Allohning uyi), Baytul Harom (Muqaddas uy), Qur'onda esa al-Masjid al-Harom (Muqaddas masjid) deb nomlangan. Arablar uni, shakliga qarab, Ka'ba deb atashgan.

Qurayshlar «payg'ambarning» o'zini va uning barcha izdoshlarini o'ldirmoqchi bo'lishdi. Muhammad Makkadan qo'shni Yatrib shahriga qochib ketishga majbur bo'ldi; Yasrib o'sha vaqtda Makka bilan raqobat qilar edi. Bu voqea eramizning 622 yilida yuz berdi.

Muhammadning Yasribga ko'chishi(arabchasiga «hijrat») islom tarixida bir era bo'lib, musulmonlar o'z yil hisobini mana shu eradan boshladi. Shundan keyin Yasrib shahri Madinat-un-Nabi, ya'ni «payg'ambar shahri» deb atala boshladi. Madinada Muhammad mo'minlar – «Olloh bandalari»ning katta jamoasi (ummasi)ni tuzdi Madinadalik davrida ham Muhammad bilan Makka o'rtasida nihoyatda dushmanlik munosabati davom etdi. Madinaga hamda ittifoqchi badaviy qabilalarga suyanib turib, payg'ambar Muhammad qurol kuchi bilan makkaliklarni o'z hokimiyatiga bo'ysundirdi. Makka zodogonlari oxir-oqibatda yon berishga majbur

Dastlabki vaqtlarda Makkadagi quraysh qabilasi ba'zi vakillari Muhammadga juda ham dushmanlik ko'zi bilan qaradi. Muhammad Makkaning azaldan beri davom etib kelayotgan urf-odatlarining ildiziga bolta urayotgandek, Ka'baning ahamiyatini gumon ostida qoldirayotgandek tuyulgan edi.

bo'ldi. Makka zodogonlari islom dinini va Muhammadning e'tiborini tan oldi. Lekin Muhammad ham (628 yildagi Xudaybiya sulxiga muvofiq) Makkaning diniy ustunligini, Ka'baning va undagi qora toshning muqaddasligini e'tirof etib, har bir musulmon Makkaga haj qilishi shart, deb e'lon qilishga majbur bo'ldi. Bu bilan Muhammadning yangi diniy tashkiloti quraysh zodagonlarining siyosiy ta'sirini ham tan oldi. Haqiqatda, arablarda turli arab qabilalarini bitta qilib birlashtirgan davlat dini tashkil topa boshladi. Makka zodagonlari va badaviy qabilalarining boshliqlari bu yangi davlatda o'zlarining hukmronlik mavqeini kengroq, umum Arabiston doirasida mustahkamlab olish imkoniga ega bo'ldi. Muhammad vafot etgandan keyin, oradan ko'p o'tmay, islom vayron ostiga birlashgan arab qabilalari Arabiston yarim orolidan tashqariga chiqib, Vizantiya, Eron yerlarini istilo qila boshladi.

Dastlabki xalifalar zamonida arablarning istilolari. Muhammadning eng yaqin vorislari – xalifalar – arab harbiy jamoasining saylab qo'yiladigan boshliqlari bo'lib, ular diniy, harbiy va fuqarolik hokimiyatini o'z qo'llariga olgan edilar. 632-661 yillar davrida birin-ketin Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali xalifalar sifatida idora qildi. Bular ichida ikkinchi xalifaning – Umarning (634-644) idora davri juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Xalifa Umar hukumronligi zamonida arablar Suriyani, Falastinni, Misrni, Eronni bosib oldilar. Arablar bu davrda bir qancha ajoyib g'alabalarni ko'lga kiritdi. Ular Suriyada (636 y.) Yormiq daryosi bo'yida Quddus yonida (638 y.) vizantiyaliklarni, Qadisiya (637 y.) va Nexavan (642 y.) shaharlari yonida qadimiy Ekbatanlar yaqinida eronliklarni tor-mor keltirdi. Arablarning g'alaba qozonishiga shu narsa katta yordam berdiki, o'sha vaqtda har ikkala katta davlat – Vizantiya ham Eron ham bir-biri bilan uzoq urush qilib, holdan ketgan edi, bu ikkala mamlakatning ham o'z ichida keskin ijtimoiy ziddiyatlar hukm surar edi. Arablar esa harbiy ishda katta afzalliklarga ega edi. Ularning asosiy ommasi erkin kishilardan iborat bo'lib, bular urug'chilik aloqalarini ma'lum darajada saqlab qolgandi, ammo shu bilan birga ular juda katta umumarab siyosiy tashkilotiga birlashgan edi. Ko'chmanchi badaviy qabilalar birinchi darajali yengil suvoriylar bilan dong chiqardi, ular o'zlarining shiddatlili bilan dushmanning piyoda askarini daxshatga solar va uning beso'naqay otliq qismlari ustiga zo'r muvaffaqiyat bilan bostirib kelar

edi. Arablar birlashtiruvchi mafkuralarini bayroq qilib chiqardilar. Er va boshqa xil o'ljalar uchun olib borilayotgan urushga «Ollah yo'lidagi» muqaddas urush ro'y berar, bunga arablar juda katta e'tibor qilganlar.

Arablarning Vizantiya va Eron bilan bo'lgan dastlabki to'qnashishlaridayoq katta muvaffaqiyatlarga erishuvi ularni ruhlantirib, yangi istilolar qilishga niqtadi. Suriya, Misr va boshqa mamlakatlardagi ezilgan ommaning bir qismi arablarga diniy zulmdan, krepostnoylik jabr-jafosi va moliyaviy zulmdan qutqaruvchilar deb qaradi. Arablar o'z istilolarida odatda asosan mahalliy boylarning mol-mulklarini bosib olardi. Hukmronliklarining dastlabki vaqtlarida xalqni soliq bilan uncha qiynamadi. Ular bo'ysundirilgan aholiga diniy erkinlik va bir qadar siyosiy avtonomiya berdi, idora qilish funksiyasini ko'pincha mahalliy diniy jamoalarning boshliqlariga topshirdi. Ammo shu bilan birga ular turli yengilliklar berib, aholini musulmonlikni qabul qilishga qiziqitirdi. Islom dinini qabul qilganlar, arablarning o'zi singari, barcha soliqlardan ozod qilindi.

Arablar istilo qilgan mamlakatlarida mahalliy aholiga aralashmay, alohida harbiy koloniyalarga bo'linib yashadi. Ularning hayotida harbiy patriarxal soddalik birmuncha vaqtgacha saqlanib qoldi.

Mestopotamiyadagi Kufa, Basra va boshqalar, shuningdek Misrdagi Fustat keyinchalik Kohira) arablar tomonidan bunyod etilgan harbiy markazlarning eng yiriklaridan edi.

Nifoqning boshlanishi. Biroq arablar tomonidan bosib olingan mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan eng taraqqiy topgan qismida yashashga arab zodagonlari oradan ko'p vaqt o'tmay mahalliy aristokratiya ta'siriga berilib ketdi. Bu ta'sir savdo yaxshi rivoj topgan boy mamlakat bo'lmish Suriyada ayniqsa kuchli bo'ldi. Arablarning harbiy boshliqlari bu yerda yashab turib, Suriyadagi yuqori toifaning zeb-ziynatli hayotini tez o'zlashtirib oldi. Suriyadagi katta yer egalaridan va quldorlardan o'rnak olib, ularning o'zi ham yerlarni batamom xususiy mulk qilib tortib ola boshladi, qullar asray boshladi, bog'-rog'lar va pomestelar barpo qilib, saroylar qura boshladi. Bunday arablar uchun «Madina qarilari»ning oddiy patriarxal xayoti maroqsiz va eskirib qolganday ko'rinardi. Suriyadagi arab aristokratiyasiga,

ya'ni ota-bobolarining rasm-odatlaridan kechib, «kofirlar»ning yangi tartiblarini o'zlashtirib olgan arab aristokratayasiga Madina hamda Mesopotamiya va Misr harbiy demokratiyasi yomon ko'z bilan qarardi.

Muhammadning vorislaridan uchinchi – xalifa Usmon (644-656) Makka zodagonlarining odami bo'lib, shu bilan bir vaqtda uni Suriya arablari ham qo'llab-quvvatlar edi. Suriya noibi amir Muoviya Usmonning yaqin qarindoshi edi. Usmon fitnachilar tomonidan o'ldirildi. Uning o'rnini Ali egalladi. Ali Muhammadning kuyovi bo'lib, uning qizi – Fotimaga uylangan edi. Ali Madinadagi demokratik belgilarga va Mesopotamiyadagi arab harbiy koloniyalariga suyanishga harakat qildi. Muoviya va uni qurshab turgan suriya-arab zodagonlari bu yangi xalifaga qarshi bosh ko'tardi. 661 yilda Ali bir xorijiy tomonidan o'ldirilgandan keyin, Muoviya o'zini xalifa deb e'lon qildi, lekin u Makkaga ham, Madinaga ham bormay, Damashqda qoldi. Ana shu tarzda xalifalik tarixining yangi davri boshlandi. Arablar siyosiy hayotining markazi arab shaharlaridan Suriyaga ko'chirildi.

Ummaviylar xalifaligi. Damashq xalifaligi 90 yilcha (661-750) davom etdi. Shu vaqt ichida xalifalik o'z yerlarini nihoyat darajada kengaytirdi. VIII asrning boshlarida Shimoliy Afrikaning butun qirg'og'i bosib olindi. 711-714 yillarda arablar Pireneya yarim orolini istilo qildilar. Muoviyaning o'zi Konstantinopolga ikki marta, 669 va 680 yillarda yurish qildi. 717-718 yillarda arablar uchinchi marta Konstantinopol ostonasiga kelib, uni butun bir yil qamal qilib turdi. Sharqda esa arab lashkarboshilari O'rta Osiyoning ichkarisigacha kirib borib, Xivani, Buxoroni ishg'ol qildi, Afg'onistonni va Hindistonning shimoli-g'arbiy qismini to Hind daryosiga qadar bo'lgan yerlarni istilo qildi. Armaniston bilan Gruziya ham ummaviylar xalifaligi tarkibiga kirar edi. Xalifalikning chegaralari g'arbda Atlantika okeanigacha, sharqda Xitoy bilan Hindiston chegaralarigacha borib yetdi va shunday qilib, qadimgi buyuk monarxiyalarning – Aleksandr Makedonskiy monarxiyasi yoki Avgust va Trayan zamonlaridagi Rim imperiyasi monarxiyasining hududidan ham oshib ketdi.

Muoviya Ummaviylar sulolasiga asos soldi. Ularga juda ko'p yerlari va juda ko'p qullari bo'lgan saroy ahli ham ergashdi. Xalifa ilgarigidek, islom dinining boshlig'i bo'lib qolaverdi. Umaviylar zamonida ma'muriy islohotlar o'tkazildi. Shu

narsa harakterliki, endi faqat «kofirlar» emas, balki musulmonlar ham soliq to'laydigan bo'ldi. Uch xil soliq asosiy soliq hisoblanar edi; 1) x i r o j - yer solig'i, 2) j u z ' ya - jon boshi solig'i (bu soliq avvaliga faqat g'ayri musulmonlardan olinar edi, keyinchalik borib musulmonlardan ham olinadigan bo'ldi) va 3) z a k o t - majburiy to'lanadigan ushur, bu soliq ham bevosita xalifaning o'ziga kelib tushar edi.

Sud va boshqa ma'muriy ishlar arab tilida olib boriladigan bo'ldi. Arab qonunlari kodeksi vujudga keltirildi. Bu kodeksga Qur'on asos qilib olindi. Arablarning hammasi ham yangi tartiblarni tan olavermadi. Mo'min musulmonlar olami Ummaviylar zamonida bir-biriga dushman bo'lgan bir nechta qismiga bo'linib ketdi. Xalifa homiylik qilgan oqim musulmonlikda rasmiy hukmron oqim deb hisoblandi. Bu sodiq musulmonlar sunniylar deb ataldi, sunniylar degan so'z «Sunnat» so'zidan olingandir. Lekin arablarning bir qismi Sunnatni tan olmadi. Bunday musulmonlar shialar, ya'ni maslagidan qaytganlar, nifoqchilar deb ataldi. Shialar Misr, Eron va Mesopotamiyada ko'p edi. Bularga o'ldirilgan Alining urug'-aymog'lari homiylik qilardi.

Nihoyat, demokratik harakterdagi yana bir mazhab-xorijiyalar bo'lib, bular sunniylarni ham, shialarni ham, ummaviylarni ham, Alilarni (Ali avlodlarini) ham tan olmadi. Xorijiyalar yerni baravar taqsimlashni talab qildilar. Keyinchalik xorijiylik ham mayda-chuyda mazhablarga bo'linib ketdi. Hukmron toifalarning manfaatlari nuqtai nazaridan olib qaralganda ham ummaviylarning ijtimoiy bazasi ancha mukammal emas edi. Asosan Suriya-Arab zodagonlari bilan bog'langan ummaviylarning manfaatlari sharqiy viloyatlarga yot edi. Mesopotamiya arablari Damashqda doim qarshi kayfiyatda bo'lib keldi. Fors (Eron) feodal belgilari ham umaviylarga uncha bo'ysunmas edi. 747- yilda sharqiy Eron yoki Xuroson dehqonlari harakatiga Abu-Muslim boshchilik qildi, u yerli jamoatchi dehqonlarning ahvolini yaxshilash maqsadida ummaviylarga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Qo'zg'olon keng tus oldi va kattagina siyosiy oqibatlariga olib keldi. Eron va Mesopotamiya feodallari birlashib turib, 750 yilda ummaviylarni ag'dardi, bunda ular Abu Muslim boshliq xalq-dehqon harakatidan foydalandilar. Xalifalik taxtini Abul Abbos Saffoh egalladi, u Muhammadning o'ziga Mesopotamiyadagi harbiy-arab oilasiga mansub bo'lgan bu

xalifa Muhammadga qarindoshman deb da'vo qildi. Abbosning buyrug'i bilan Ummaviylar xonadoniga mansub bo'lgan hamma shaxzodalar qirib tashlandi. Bu shaxzodalardan Abdurahmon ismli bittasigina o'limdan qutulib qoldi. U uzoq Ispaniyaga qochib borib, u yerda oradan ko'p vaqt o'tmay o'zini mustaqil amir deb e'lon qildi (756 yil).

Abu Muslimni ham Abbos qo'lga tushirib, turmaga tashladi, bir necha yildan keyin u halok bo'ldi.

Abbos yangi sulolaga – Abbosiylar sulolasiga asos soldi, bu sulola 750-yildan 1055-yilgacha idora qildi. Xalifalikning poytaxti Abbosdan keyingi xalifa Mansur davrida –762 yilda qurilgan Bag'dod shahri bo'ldi. Shunday qilib arablar siyosiy xayotining markazi Suriyadan Mesopotamiyaga ko'chirildi.

Abbosiylar xalifaligi. Abbosiylar zamonida arab davlati juda ham taraqqiy topdi. Bag'dod xalifaligi VIII-IX asrlarda ayniqsa kuchli edi. Bu vaqtda – Bag'dodni barpo etgan Mansur (754-775), Karl Buyukka zamondosh bo'lib, u bilan do'stona diplomatik aloqa qilgan Xorun ar-Rashid (786-809), arab ilm-faniga zo'r berib homiylik qilgan Al-Ma'mun (813-833) kabi qudratli xalifalar idora qildi. Abbosiylarning qolgan davri Mutadid zamonida (892-902) tugadi. Xalifalik ana shu vaqtdan boshlab tushkunlikka yuz tutdi.

Abbosiylar davlatida Eronning ta'siri kuchli edi. Bu ta'sir vazirlik (buyuk vazir xalifaning birinchi vaziri) unvonining joriy qilinishida ham, soliq solishda eron usullarining o'zlashtirilishida (yer kadastrlarining eronlardagiga o'xshab tuzilishida) ham xalifalik ma'muriy jihatdan viloyatlarga bo'linib, ularga gubernatorlar – amirlar boshliq qilib qo'yilishida ham namoyon bo'ldi (bu gubernator-amirlar to'la hokimiyatga ega bo'lishlari bilan qadim Eron va ilk o'rta asrlardagi sosoniylarning satraplarini eslatar edi).

Eronning feodallasgan zodagonlari xalifalikni idora qilishda faol qatnashdi. Buyuk vazirlik lavozimiga odatda eroniylardan tayinlanar edi va bu lavozim nasldan-naslga o'tar edi (masalan, mashxur Barmoqiylar familiyasi). Xalifaning juda ko'p (160 000 kishiga yaqin) doimiy qo'shini bo'lib, bu qo'shinning ko'pchiligi turli varvar otryadlaridan iborat edi, IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa asosan turk

otryadlaridan iborat bo'ldi. Xalifaning qo'shini katta siyosiy ahamiyatga ega edi, bu qo'shin harbiy ishga yoshligidan boshlab o'rgatilgan qullardan tuzilgan edi.

Xalifalik xo'jalik ishlarining turli sohalariga ham katta e'tibor berdi, bu borada ham qisman, Eron, qisman Mesopotamiya an'analardan foydalandi. Chunonchi, maxsus pochta mahkamasi bo'lib, bu mahkama pochta ishlari, katta yo'llarni tartibga solish bilan shug'ullandi, bu yo'llar tekislandi, suv bilan ta'min qilindi, unda har bir muayyan masofada maxsus musofirxona, karvon saroylar tashkil qilindi. Abbosiylar zamonida dalalarni sun'iy sug'orish tizimi g'oyat avj oldi. Buning uchun turli katta-kichiklikdagi yer osti va yer usti kanallari qurildi. Irrigatsiya qurilishlari to'xtovsiz davom etdi va bu ish bilan hukumatning maxsus mahkamasi shug'ullandi.

Abbosiylarning poytaxti – Bag'dod juda katta bir shahar bo'lib, unda xalifaga va uning odamlariga qarashli juda ko'p saroy va bog'lar bor edi. Shahar doira shaklida bo'lib, uning atrofi ikki qator devor bilan o'ralgan edi. Bu shahar zodagonlar shahri, xalifaning qarorgohi va uning ma'muriy poytaxti bo'lish bilan birga juda katta bir hunarmandchilik, ayniqsa savdo markazi ham edi. Bag'dod bozorlariga uzoq-uzoq mamlakatlardan savdogarlar kelar edi – bu yerda vizantiyaliklar, xitoylar, hindlar, malayyaliklar, Shimoliy, G'arbiy va xatto Markaziy Afrikada yashovchi kishilarni ham uchratish mumkin edi.

Xalifalikning iqtisodiy yuksalishi. Abbosiylar davrida Old va O'rta Osiyoning, shuningdek, Shimoliy Afrikaning juda keng hududida ma'lum vaqtgacha tinchlik va xavfsizlik qaror topishi natijasida xalifalik iqtisodiy jihatdan g'oyat taraqqiy topdi. Markaziy hukumat irrigatsiya tizimiga muttasil e'tibor berishi natijasida, bu davrda, dehqonchilik sohasida katta yutuqlarga erishildi. Sholi, paxta va shafron keng tarqalgan qishloq xo'jalik ekinlari edi. Bog'dorchilik va gulchilik sanoat ahamiyatiga ega bo'ldi. Juda keng atirgul plantatsiyalari parfimeriya (atir, upa-enliklar) uchun maxsus essentsiya berar edi. Arablar qimmatbaho nasldor ot va qo'ylar urchitardilar. Arablarning hunarmandlik buyumlari ham katta shuhrat qozondi. Bu yerda yung, ipak va ip gazlamalar, yaxshi navli po'lat va qurol (mashxur damashq xolati), shisha va oynadan yasalgan buyumlar, zargarlik va attorlik buyumlari ishlab chiqarilardi. IX-X asrlarda xalifalikning iqtisodida keng ko'lam olgan ichki savdo va ayniqsa

tashqi, xalqaro savdo juda katta o'rin tutar edi. Arab savdogarlari yiroq shimolgacha – yuqori Volgagacha va hatto Baltika dengizi qirg'oqlarigacha borib savdo qilardilar. Uzoq Sharqda ular Xitoy, Hindiston va Indoneziyada doimiy suratda savdo qilardilar. Arablar Yaqin Sharqda – Levantda (Yaqin Sharqni Yevropaliklar keyingi vaqtlarda Levant deb yurita boshlagan edilar), ayniqsa qizg'in savdo olib bordilar. Suriya, Misr, Kichik Osiyo arablar savdosining asosiy rayonlari bo'lib, arablar bu yerlarda Vizantiya savdogarlari bilan raqobat qilardilar va tovarlarini shu yerlardan G'arbiy Yevropaga olib borardilar. Arablar savdosida qul savdosi katta o'rin tutardi, bu qullar asosan, osiyolik, afrikalik va bir qismi Yevropaliklardan iborat edi.

Arab feodalizmi. Bag'dod xalifaligi davrida arablarda feodal munosabatlar uzil-kesil qaror topdi. Xalifalikka qarashli mamlakatlarda ekspluatatsiya qilinuvchi asosiy toifa jamoatchi dehqonlar edi. Biroq, arablardagi feodalizmning o'ziga xos xususiyatlari bor edi. Jamoatchi dehqonlarning ko'pchiligi xalifaning yerlarida yashab, feodal rentani bevosita davlatning o'ziga to'lar edi. Arab qonunlariga muvofiq butun yer xalifaga qarashli bo'lib, xalifa bu yerning biror qismini o'z xizmatkorlariga vaqtinchagina berar edi. Shu tufayli xalifalikda katta yer egaligining nasldan-naslga o'tishi o'rta asr Yevropasidagi kabi qat'iy emas edi. Birorta a'yon o'lgandan keyin, uning mol-mulki odatda xalifa xazinasiga o'tar edi. Bu mol-mulki o'lganning vorisiga (yoki vorislariga) berish-bermaslik xalifaning xohish va iltifotigagina bog'liq edi. Ikkinchi tomondan odatda xalifada ham, uning zodagonlarida ham feodal Yevropasida bo'lgani singari, barshchinali, ya'ni ishlab beradigan rentali pomestelari yo'q edi. Bunda zodagon xo'jaligidagi ish kuchini odatda qullar tashkil etar edi. Qaram dehqonlar esa barshchinada ishlamas edilar, faqat maxsulot bilan yoki pul bilan renta to'lar edilar, xolos.

Shunga qaramasdan, Bag'dod xalifaligi zamonida feodal mulkchiligi sezilarli darajada rivojlanib bordi. Iqto – harbiy xizmat o'taganligi uchun beriladigan chek yer bo'lib, G'arbiy Yevropa benefitsiyalariga o'xshab ketadi, m u l k – in'om qilingan va asta-sekin nasldan-naslga meros bo'lib qoladigan er-mulklar, q i s s a va boshqa imtiyozli yerlar g'aznaga soliq to'lashdan ozod qilingan bo'lib, bular o'sib kelayotgan feodal xususiy er egaligining formalari edi. Yerlarning ma'lum qismi –

vaqf yerlar – maschitlarga berilar edi. Xalifaning davlat feodal mulkchiligini qisqartirish hisobidan yirik va o'rta darajadagi xususiy er egaligining o'sishi arab feodalizmi rivojlanishining karakterli hodisalaridan biri bo'lib, bu hol xalifalikka qarashli juda katta hududni tashkil etgan turli xil mamlakat va o'lkalardagi yerli feodallarning ajralib chiqish va separatistik kayfiyatlarining tobora avj olishida ancha katta ahamiyat kasb etdi.

Arab feodalizmining yana bir xususiyati – qulchilik belgilarining ancha saqlanib qolganligi edi. Arablarda Bag'dod xalifaligi davrida ham qullar juda ko'p edi. Qullar eng og'ir ishlarda: irrigatsiya inshootlari qurishda, tog' va ruda konlarida, paxta dalalarida va shunga o'xshash ishlarda juda ko'plab ishlatilar edi. Afrikadan keltirilgan qora tanli qullar ayniqsa ko'p edi. Qora tanli qullarni arablar zanjilar deb atardilar, zangi degan so'z Zanzibar orolining nomidan olingandi. Oq tanli qullardan esa juda ko'plab uy xizmatkorlari, xaram kanizaklari, raqqos va raqqosa, ashulachi, akrobat va shunga o'xshashlar sifatida foydalanilar edi. Xalifalarning saroy gvardiyasi ham shu oq tanli qullardan tashkil etilardi.

Xalq qo'zg'olonlari. Arablar hukmronligining ilk davrida ancha yengil tortgan xalifalik mehnatkash aholisining ahvoli keyinchalik og'irlasha boshladi. Dehqonlar qisman natura shaklida (maxsulot bilan) va qisman pul shaklida katta-katta soliqlar to'lardi, bu esa mayda ishlab chiqaruvchi – dehqon yoki hunarmandning deyarli hamma qo'shimcha mahsulotini yamlab ketar edida, natijada ularning o'zlari juda ham achinarli holda kun kechirar edi. Amaldorlarning o'zboshimchaligi va jabr-zulmi, dehqonlarning huquqsizligi va ximoyasizligi, ularni haqiqatda yarim qul holiga solib qo'ygan edi. Xalifalikda qullarning ahvoli esa nihoyat darajada og'ir edi. Ularni haddan tashqari va oshiyona suratda ekspluatatsiya qilardilar. Mehnatkashlar ommasining-dehqonlar, shahar kambag'allari va qullarning qattiq ekspluatatsiya qilinishiga javoban feodallarga va ularning manfaatini himoya qiluvchi xalifaga qarshi bir necha marta qo'zg'olon ko'tarildi.

Bag'dod xalifaligi davridagi xalq qo'zg'olonlari kishini hayratda qoldiradigan darajada katta qo'zg'olonlar bo'lib, ba'zan butun-butun tumanlarni va hatto viloyatlarni o'z ichiga olardi. Bu qo'zg'olonlar odatdan tashqari uzoq davom etardi

va juda ham qattiq bo'lardi. Chunonchi, Mansur xalifa o'lgandan keyin, oradan ko'p vaqt o'tmay, O'rta Osiyoda dehqonlarning katta qo'zg'oloni ko'tarildi. U 776 yilda boshlanib, 783 yilda tamom bo'ldi. Bu qo'zg'olonga Marv shahri atrofidan chiqqan Muqanna («chodir yopingan odam») laqabli Hoshim ibn Hakim degan bir kishi boshchilik qildi. Bu qo'zg'olonda mazdakiylar mazhabining ta'siri aks etdi, mazdakiylar mol-mulkiing o'rtada bo'lishini va hayotning noz-ne'matlaridan foydalanishda hamma teng bo'lishini talab qilar edi. IX asrning boshida Ozarbayjonda ham dehqonlarning ikkinchi bir katta qo'zg'oloni ko'tarildi, u keyin Eronga va Zakavkazening boshqa joylariga ham tarqaldi. Bu qo'zg'olonga Bobek degan bir kishi bosh bo'lib, u ham erkin jamoa tartiblarining tiklanishini talab qildi. Bu qo'zg'olon 20 yildan ortiqroq davom etdi (815-837).

IX asrning oxiri X asrning boshlarida xalifalikning janubida dehqonlar harakati ko'tarildi, bu harakatga Karmat degan odam bosh bo'lib, u uzini «paygambar» deb e'lon qildi. Uning atrofiga juda ko'plab qochoq dehqon va kullar kelib to'plandi, quzg'olonchilar katta qal'a qurdilar, bu qal'ani xalifa qo'shnilari ololmadi.

Oxir natijada karmatchilar Fors qo'ltig'i qirg'oqlarida uziga xos bir dehqonlar respublikasini tuzishga muvaffaq bo'ldi, bu respublika X asrning oxirigacha umr ko'rdi.

Karmatchilar harakati bilan bir vaqtda Basra atrofida qul zanjilarning juda katta quzg'oloni bo'lib, bu quzg'olon 14 yil (869-883) davom etdi. Zanjilarga shia Ali ibn Muhammad bosh bo'lib, u uzini xalifa deb e'lon qildi. Zanjilar qo'zg'olonini bostirish uchun xukumat ularga karshi juda katta qo'shin yuborishga majbur bo'ldi.

Xalifalikning yemirilishi. Keng ko'lam olgan xalq harakatlari xalifalikni larzaga keltirib, ko'p vaqtgacha uning birligini buzib qo'ydi. Biroq xalifalikning parchalanishiga boshqa sabablar ham bor edi. Xalifalik turli mamlakatlarni o'z ichiga olgan bo'lib, turli-tuman xalqlarning murakkab bir konglomeratidan iborat ediki, bulardan ba'zilari o'tmishda o'zining erkin tarixiga ega edi; shuning uchun ham bu xalqlar o'z mustaqilligini tiklashga intilar edilar; ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi natijasida mahalliy aloqalar mustahkamlanib borgan sari bu intilish kuchayib borardi. Shu bilan birga xalifalik hokimiyati tobora zaiflashib bormoqda

edi. Feodallashuv jarayoni Sharqda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, feodalizm taraqqiyotining ilk davrida G'arbda qanday natijalarga olib kelgan bo'lsa, bu yerda ham xuddi shunday natijalarga olib keldi. Mahalliy yerdor zodagonlar markaziy hukumat zarariga kuchayib bordi va ajralishga intildi. Amirlar, ya'ni viloyatlarning gubernatorlari mahalliy feodal-yer egalariiga suyanib turib, o'zlarining mahalliy sulolalarini vujudga keltira boshladilar. Xalifalik amaldorlari tomonidan markazlashtirilgan yer rentasi solig'ining to'planishiga qarshi ko'tarilgan dehqon qo'zg'olonlaridan mahalliy zodagonlar o'zlarining seperatistik maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalanar edilar.

Xalifalik haqiqatda VIII asrdayoq parchalana boshlagan edi. 756 yilda Qurdoba amirligi ajralib chiqqandan keyin (929 yildan boshlab u xalifalikka aylandi) VIII asrning oxiri – IX asrning boshlarida Marokash bilan Tunis ajralib chiqdi, IX asrning o'rtalarida Misr mustaqil bo'lib qoldi (bu yerda avvaliga tulunlar, keyinchalik X asrda Alining avlodlari — Fotimiylar idora qila boshlab, ular 969 yildan e'tiboran Misrni mustaqil Qohira xalifaligiga aylantirdi). IX va X asrlarda Eron ajralib chiqdi, avval sharqiy Eron (Xuroson), keyin esa g'arbiy Eron ham ajralib chiqdi. Amudaryoning bu tomonidagi Movarounnahr deb atalgan joyda Somoniylar davlati tuzildi, uning markazi Buxoro shahri bo'ldi, bu davlat X asrning boshidan qariyb oxirigacha yashadi. Frotida mustaqil bir davlat – Movsul sultonligi tuzildi. X asr o'rtalarida Sharqiy Eron yerlari va Afg'onistonning bir qismi qo'shilib, eron-turklardan iborat kuchli G'aznaviylar davlati vujudga keldi, bu davlatning poytaxti G'azna shahri bo'ldi. X asrning o'rtalariga kelib xalifaning qo'l ostida Arabiston va Mesopotamiyaniig Bag'dod atrofidagi bir qismigina qoldi. 945 yilda Erondagi shia feodal xonadonlaridan biri bulgan Buiylar xonadoni Bog'dodni bosib olib, xalifalikning qolgan yerlarini uzoq vaqtgacha idora qildi.

1055 yilda Bag'dodni saljuqiy-turklar bosib oldi. Turklarning boshlig'i To'g'rubek sulton deb e'lon qilindi. Shundan keyin xalifalar qo'lida faqat diniy hokimiyatgina qoldi. Mana shunday xalifalar Bag'dodda uzoq vaqtgacha, mo'g'ullar istilosigacha, ya'ni 1258 yilgacha yashab keldi.

Arab madaniyati. Xalifalikning arab madaniyati o'z zamonasi uchun juda yuksak madaniyat bo'lib, G'arbiy Yevropa o'rta asr jamiyatiga katta ta'sir ko'rsatgan edi. Arab tilida olib borilgani va vujudga keltirilishida arablar katta rol o'ynaganligi sababli arab madaniyati deb atalgan bu madaniyatning ancha qismi xalifalik tarkibidagi ko'p xalqlarniki edi. Arab sivilizatsiyasining turli sohalarida Gretsiya-Suriya (Vizantiya), Eron (Fors), Kavkazorti(Ozarbayjon), O'rta Osiyo, Hindistonning ta'siri bor edi.

Shu narsa diqqatlidirki, vizantiyaliklar singari, arablar ham antik an'anani davom ettirdilar, yunon klassiklarining asarlarini qunt bilan o'rgandilar va arab tiliga tarjima qildilar. Aristotel, Gippokrat, Ptolemey, Evklid asarlarini arab olimlari yaxshi bilar edilar, Yevropaliklar Aristotelning asarlari bilan dastlab arabchadan lotin tiliga tarjima qilingan nusxalar orqali tanishdilar. Turli xalifaliklarning poytaxtlarida – Bag'dod, Qurdoba va Qohirada – o'rta asr Yevropasidagi universitetlarga o'xshagan oliy maktablar bo'lib, bularda qur'ondan va musulmonlarning diniy kitoblaridan tashqari dunyoviy ilmlar ham qunt bilan o'rganilardi, yuz minglab kitoblarni o'z ichiga olgan katta-katta kutubxonalar (Qurdoba, Qoxira va boshqa joylardagi kutubxonalar) g'oyat katta bilim xazinasini edi. Bag'dod, Damashq va Samarqandda katta-katta rasadxonalar bor edi. Arab astronomlari juda ko'p yangi yulduzlarni topdilar va yulduzlar osmonining juda qimmatli kartasini tuzdilar.

Arab madaniyatining o'ziga xos xususiyati shu ediki, unda aniq fanlar juda taraqqiy topgan edi. Arablar meditsina sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishgan edilar, ular tirik organizmni bilish yo'li bilan tekshirib, odam tanasining anatomiyasini juda yaxshi bilib oldilar. Arab meditsina darsliklari G'arbiy Yevropada butun o'rta asr davomida o'qildi. Faqat Sharqdagina emas, balki butun Yevropaga dong'i ketgan mashhur vrach va fiziolog Abu Ali ibn Sino (930–1037) Somoniylar davlatida yashadi. Ibn Sino meditsina, fizika va falsafaga oid 100 ga yaqin kitob yozgan. Uning eng asosiy asari «Tibbiyot qonuni» latin tiliga tarjima qilindi, bu kitob o'rta asr Yevropasi vrachlari uchun qariyb XVI asrga qadar dasturilamal bo'lib xizmat qildi.

Matematika soxasida arablar geometriya va trigonometriyani rivojlantirdilar. Ular algebrani rivojlantirish borasida ko'p ishlar qildilar va xind raqam sistemasini mukammallashtirib, unga «0» (nol) alomatini qo'shdilarki, buning natijasida raqamlar bilan xar qanday katta sonni ham ifodalashga imkon turildi.

Arablar juda yaxshi sayyoh edilar. Eng ko'zga ko'ringan arab sayyohi, geografi va tarixchisi Mas'udiy bo'lib (956-yilda vafot etgan), u xalifalikning hamma viloyatlarini aylanib chiqqan edi. Eronga, Suriyaga, shuningdek, Xindiston bilan Xitoyga ham borgan edi. U o'z sayoxatlarining natijasini «Oltin bo'stonlar» degan umumiy bir nom bilan chiqqan kitoblarida bayon qildi. Ko'pgina arab sayyohlari – Ibn Dast, Ibn Fadlan va boshqalar – slavyan mamlakatlariga borganlar va slavyanlar to'g'risida, xususan IX va X asrlardagi sharqiy rus slavyanlar to'g'risida qiziq ma'lumotlar yozib qoldirganlar.

IX asrning oxiri – X asrning boshlarida yashagan arab tarixchilari orasida ayniqsa mashxuri Tabariy bo'lib (923 yilda vafot etgan) u «payg'ambarlar va podsholar tarixi»ni, ya'ni xalifalar tarixini yozgan edi, bu tarix 915- yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Arablar nafis adabiyot soxasida mashxur asarlar yaratdilar. «Ming bir kecha» nomli mashxur kitob XII asrda uzil-kesil vujudga keldi. Bu asar arab-musulmonlar olamidagi turli xalqlar yaratgan g'oyat ko'p ertak va qissalar yig'indisidan iborat bo'lib, bu ertak va qissalarning manbalari qisman qadimgi dunyo xalqlarining folkloriga (O'rta podsholik davridagi Misr ertaklariga va boshqalarga) borib taqaladi. Lekin «Ming bir kecha»ning vujudga kelishida VI asrdayoq to'plangan Eron ertaklari ayniqsa katta ahamiyat kasb etdi.

Eron-arab eposining eng yirik yodgorliklaridan biri shoir Abul-Qosim Firdavsiyning (935-1020) qaxramonlik dostoni «Shoxnoma» bo'lib, u chamasi 1000 yillarda yozilgan. Doston arab tilida emas, balki fors tilida yozilgan. Unda 60000 she'r bor, buni yozish uchun Firdavsiy juda boy xalq ogzaki ertaklaridan foydalangan, bu ertaklarga adabiy jixatdan juda nozik sayqal bergan.

Arab san'ati. Arab san'atida asosiy o'rinni arxitektura egallaydi. Arablar monumental binolar: machitlar, saroylar, maqbaralar, hammomlar va boshqa jamoat

binolari qurganlar. Arab arxitekturasining eng qadimgi yodgorliklaridan biri Quddusdagi Umar machiti deb atalgan machit bo'lib, u Ummaviylar davrida 688 yilda qurilgan. Bu machit qubbalari juda baland, nixoyatda salmoqdor sakkiz burchakli qilib ishlangan. Unda Vizantiyaning monumental uslubi aks etib turadi. Ammo arablar odatda, yengil, xushbichim binolar qurardilar. Bu binolarning xarakterli tomoni shu ediki, ularning minora va minorachalari ko'rkam, xushbichim, ustunlari ingichkadan kelgan toqi ravoqlarining naqshi ancha jo'n bo'lar edi. Arab binolarini yanada ko'rkam qilib bezab turgan narsa – uning devorlariga juda moxirlik bilan rang-barang qilib o'simliklar, qisman hayvonlar olamiga oid motivlardagi g'alati naqshlar, shuningdek, har xil geometrik chiziq va figuralardir. Xaddan tashqari sipo, ammo o'zining nihoyatda nozik san'atkorona ishlanganligi bilan kishini xayratda qoldiradigan juda zinnatli naqsh solish – arab rassomchiligining xarakterli xususiyatidir. Qo'lyozmalar, kitob muqovalari, zastavkalar, kontsovkalar va shu kabilar mana shu xildagi rasmlar bilan bezatilar edi. Turmush xayotidan olingan xilma-xil mavzudagi ajoyib miniatyuralar ham qo'lyozmalarga bezak bo'lib xizmat qilar edi. Arablarda katta xajmli surat bosish uncha rivojlanmagan edi. Buning sabablaridan biri shu ediki, Qur'on musulmonlarning ko'p xudolikka («butparastlik») qaytishidan qo'rqib kishilar va hayvonlarning suratlarini solishni taqiqlagan edi.

Tayanch so'z va iboralar: Islom, Qur'on, Ka'ba, xalifa, xorijiyalar, Ummaviylar, Abbosiylar, sunnat, xiroj, juz'ya, zakot, shialar, iqto'.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Islomdan avval arablardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol qanday bo'lgan?
2. Islomning paydo bo'lishi va yoyilishi arablar hayotiga qanday o'zgarishlarni olib keldi?
3. Arablarning dastlabki istilochilik yurishlari natijasini yoritib bering.
4. Xalifalikdagi iqtisodiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlarini aytib o'ting.

Glossariy

Xalifa (arab. — o'rinbosar, noib) — musulmon jamoasi va musulmon davlatining diniy hamda dunyoviy boshlig'i. Xalifa Muhammad payg'ambar (sav)ning o'rinbosari, ummaviylar davridan boshlab esa Allohning yerdagi noibi hisoblangan. Muhammad (sav)dan keyingi to'rt X. (Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon, Ali)ni xulafoi roshidin, ya'ni to'g'ri yo'ldan boruvchi xalifalar deb atashgan. Abbosiylar, fotimiylar sulolasidan bo'lgan hukmdorlar xalifa nomi bilan atalgan.

Xiroj, xaraj (arab.) — Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda davlat tomonidan undirilgan yer solig'i. Xiroj ilk Xalifalik hududida «jizya» atamasining sinonimi sifatida qo'llanilib, musulmon bo'lmagan aholi bilan bir qatorda yer, suvga ega bo'lgan musulmonlardan ham undirilgan. Xiroj O'rta Osiyoda VII-asrda arablar tomonidan joriy qilingan.

Zakot (arab. — tozalanish, sadaqa be-rish) — mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, xayr-ehson. Islomning 5 asosiy talablaridan biri. Shariatta muvofiq, muayyan boylikka ega bo'lgan katta yoshdagi musulmon zakot beradi. zakot miqdori mablag'larning 1G`40 ulushi (2,5%)ga teng.

Shialik (arab. — guruh, tarafdorlar) — islomdagi 2 asosiy yo'nalishdan biri. O'zining tarqalishi va tarafdorlarining miqdori jihatidan sunniylikdan keyingi o'rinda turadi. Jahondagi barcha musulmonlarning taxminan 7% shialikkka mansub (2004). Shialik VII-asr o'rtalarida islom jamoasi ichida oliy hokimiyat masalasida paydo bo'lgan ixtilof natijasida vujudga kelgan. Shia so'zining to'liq shakli «shi'at Ali» («Ali partiyasi») bo'lib, bu nom Ali ibn Abu Tolib va uning av-lodlariga ergashganlarga nisbatan berilgan.

Qur'on (arab. — o'qimoq, qiroat qilmoq) — musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Islom e'tiqodiga ko'ra, Qur'on vahiy orqali Muhammad payg'ambarga 610—632 yillar davomida nozil qilingan. Islom tarixiga oid manbalarda keltirilishicha, 610 yilda Muhammad payg'ambar 40 yoshda Makka shahri yaqinidagi Hiro g'orida chuqur tafakkurga berilib o'tirgan bir paytda Jabroil farishta «Iqra'» («O'qi») deb boshlanuvchi «Alaq» surasining avvalgi 5 oyatini keltirdi. Bu jarayon Makkada 13 yil, Madinada 10 yil, hammasi bo'lib 23 yil davom etgan. Qur'onning nozil qilinishi islom aqidasi bo'yicha ramazon oyining 27-kuniga

o'tar kechasi yuz bergan.

33-§. VI-XI asrlarda G'arbiy Yevropada ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar

Yerga egalik qilish shakllari. X—XI asrlarga kelib Garbiy Yevropa mamlakatlarining ko'pchiligida yerga egalik qilishning yangi tartibi shakllanib yakunlandi. Bu tartibning xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat edi: yirik yer egaligi hukm surar va unda deqonlar yerdan foydalanar edi, dehqonlar ishlab chiqarish vositalariga bog'langan edi (dehqonlar chek yerga biriktirilgan edi), turli iqtisodiy yo'llar bilan majbur qilish hukm surar edi (buni majburiy krepostnoy mehnat — barshchina juda yaqqol ko'rsatib turadi), natural xo'jalik hukm surar edi, qishlok xo'jalik va hunarmandchilik texnikasi past va qoloq edi. Rim imperiyasi istilo qilingan vaqtda varvarlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarning darajasi qanday bo'lgan bo'lsa, G'arbiy Yevropa jamiyatinnng ishlab chiqaruvchi kuchlari X asrda unga qaraganda ancha o'sgan edi. Bu vaqtda qishloq xo'jaligining rivojini ko'rsatadigan asosiy narsa uch dalali ekishning tarkalishi edi. Uch dalali tizim Karolinglar davridagi (IX asr) hujjatlarda ham tilga olinadi, X—XI asrlarda bu tizim Yevropadagi boshqa mamlakatlarga tarqaldi. Biroq keyingi vaqtlarda XII—XIII asrlarda ham bu tizim ikki dalali tizimni, ba'zi joylarda asa hatto yerni partov qilish tizimini ham butunlay siqib chiqara olmadi. O'rta asrlar Yevropasida qishloq xo'jaligining yutuqlarini ko'rsatadigan ikkichi narsa uzumzorchiilik, bogdorchilik, polizchilikning rivojlanganligi edi. Karl Buyukning mashhur «Pomestelar to'g'risidagi kapitulyariy»sining ayrim moddalariga bunga juda ravshan dalildir. XI va XII asrlarda Angliya, Fransiya va Italiyada agronom yozuvchilar bo'lib, ularning hosilni oshirish masalalari to'g'risida yozgan maxsus traktatlari saqlanib qolgan. Hosilni oshirish yer haydashnining sifatiga bog'liq edi. Shuning uchun X va XI asrlarda er haydashga kattiq e'tibor berilar edi. Agar bahorgi ekin uchun er odatda bir marta (don sepish oldidan) haydalsa, kuzgi ekin uchun (bu asosiy ekin edi) yer ikki marta, ba'zan hatto uch marta haydalar edi.

Shunday qilib, G'arbiy Yevropaning ishlab chiqaruvchi kuchlari Rim imperiyasi davrining oxirgi asrlaridagiga va xalqlarning Buyuk ko'chishi davri deb atalgan davrdagiga nisbatan ancha o'sdi. Yevropada aholining o'zi ham juda tez ko'paydi. XI

asrda yangi yerlar o'zlashtirish kerak bo'lib qoldi. Xuddi shu maqsad bilan Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida o'rmonlarning daraxtlarni zo'r berib yiqitish boshlandi. Yangi ishlab chiqarish usuli o'zidagi barcha ijtimoiy ziddiyatlarga va juda qattiq zo'rlik hukm surishiga karamasdan Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy jixatdan rivojlanishini ta'minlab, ishlab chiqarishning asta-sekin kengayib borishiga imkon berdi. Biroq o'rta asrlarning bu ilk davrida ishlab chiqaruvchi kuchlar har holda juda sekin o'sdi. Varvarlar Yevropasining nihoyat, uch dalali tizimni o'zlashtirib olishi uchun besh yuz yil vaqt ketdi.

Feodal pomestesining tuzilishi. Feodal pomestesi — votchina (senoriya) odatda bir qishloqqa to'g'ri kelib, ba'zan bir necha qishloqdan iborat bo'lar edi, kamdan-kam hollardagina qishloqning bir qismini tashkil qilar edi, pomeste mazkur davrda asosiy xo'jalik ijtimoiy va siyosiy tayanch edi. Karolinglar zamonidan qolgan hujjatlardan ma'lum bo'lishicha IX asrdagi singari, bu davrda ham krepostnoy dehqonlar o'zining chek yerida dehqonchilik qilar edi va bu yer evaziga xo'jayinning yerini ekib berar yoki pomeschikka qisman mahsulot tarzida, qisman pul tarzida renta to'lar edi. Kisman XI asrdayoq ba'zi joylarda natural rentalar (barshchina shaklidagi ishlab berish rentasi yoki natura shaklidagi mahsulot rentasi) o'rniga pul to'lash, (pul rentasi) joriy qilina boshladi.

Krepostnoy dehqonlar hayotining o'zida ham o'zgarishlar yuz. berdi. Karolinglar zamoniga oid hujjatlarga qarab hukm chiqarganda qullar bilan ilgarigi erkin kishilardan chiqqan qaram dehqonlar IX asrga keliboq umumiy krepostnoylar ommasi bo'lib qo'shilib ketgan edi, Biroq krepostnoy dehqonlarning bir qismi bir oz yengilroq ahvolda bo'lib, bir qismi keyingi asrlarda ham ularga qaraganda og'irroq va huquqsizroq ahvolda edi. Masalan, Fransiyada X-XI asrlarda dehqonlar ikki toifaga: servlarga («servaj») va villanlarga bo'lingan edi. Servlarning ahvolidagi huquqiy jihatdan hali ba'zi qullik alomatlarini saqlanib kolgan edi. Hujayini rozilik bermasa, servning uylanishiga haqqi yo'q edi. Feodal servdan maxsus jon (bosh) solig'i olar edi. Servning o'z mol-mulkini birovga vasiyat qilib qoldirishga haqqi yo'q edi. Serv o'lgandan keyin uning mol-mulki xujayinning qo'lga o'tar edi, xujayin bu mol-mulkni merosxo'rga berib, undan haq tarzida bir bosh yaxshi mol olar

edi. Villanlarning ahvoli bir oz durustroq edi. Ular shaxsan erkin hisoblanar edi, lekin er masalasida qaram, tutqun edi. Ularning bajaradigan majburiyat va to'lovlari yer bilan boglangan bo'lib, odatda muayyan bir tarzda belgilab qo'yilgan soliq edi. Ammo haqiqiy hayotiga kelganda servlar bilan vilanlar bir-biridan uncha farq qilmas edi. Ular ham, bular ham mustaqil xo'jalik yuritar edi, ularning ham, bularning ham oilasi, uy-joyi, moli va har turli oddiy kishloq; xo'jalik asboblari, yeri bor edi. Bu jihatdan villanlar ham, servlar qam qadimgi qullik zamonidagi qullarga qaraganda butunlay boshqacha edi. Lekin shunday bo'lsada, villan ham feodal-pomeshchik tomonidan juda qattiq zo'rlik qilinar edi, servga qaraganda villan miqdor jihatidagina kamroq zo'rlik qilinar edi, xolos. Eng muhimi shuki, villan ham erga biriktirilgan bo'lib, unda hech qanday shaxsiy erkinlik yo'q edi.

Krepostnoy dehqonlarnng feodallarga qarshi kurashi. X— XI asrlarda dehqonlar orasida ma'lum darajada mulkiy tengsizlik paydo bo'la boshladi, dehqonlar mulkdor va kambag'al dehqonlarga ajrala boshladi. Biroq natural xo'jalik hukm surib turgan, butun qishlokli feodal-pomeshchik qattiq ezib turgan, feodallarning o'zaro urushlari natijasida qishloq tez-tez harob bo'lib turgan bir sharoitda bu farq ham hali keskip tus olmagan edi. Hatto dehqonlar krepostnoylarga aylantirilganidan keyin ham qishloqda jamoa-marka ilgarigidek katta ahamiyatga ega bo'ldi, u dehqonlarni jipslashtirib, feodallar zo'rligining eng og'ir formalariga qarshi dehqonlarning birgalashib kurashishiga imkon berdi. Feodallar zulmidan toqati toq bo'lgan krepostnoylar o'z xujayinlariga qarshi qo'zgonlar ko'tardilar. Krepostnoy dehqonlarning feodal-pomeshchiklarga qarshi eng dastlabki bosh ko'tarib chiqishlari X va XI asrlardayam fransuz yilnomalarida aks ettirilgandir. Yilnomachilar dehqonlarning dastlabki harakatlari yaxshiyona suratda shafqatsizlik bilan bostirilganini ko'rsatib o'tdilar. Chunonchi, 996- yilda Normandiya gertsogi Richardning yerlarida dehqonlar yig'ilishlar uyushtirib, bu yig'ilishlarda bundan buyon xujayinlarga bo'ysunmasdan, «erkin» yashaylik deb qarorlar chiqara boshlaganlar. Buni eshitgach, gertsog shubhali dehqonlardan bir necha o'ntasini tutib keltirib, «qolganlariga ibrat uchun» ularning oyoq-qo'llarini chopib tashlashni buyurgan. XI asrning 20- yillarida Bretonda deqonlar keng harakat ko'tardilar, bu

harakatni ham mahalliy feodallar qonga botirdi. Germaniyada 841—842 yillar bilan 1073—1075 yillarda bo'lib o'tgan Sakson dehqonlarining ikkita qo'zgoloni (bu haqda yuqorida aytib o'tilgan edi) erkin jamoatchi dehqonlarning krepostnoyga aylantirilishiga karshi olib borgan kurashini yorqin ko'rsatadi. Janubiy Angliyada ham normanlar istilosidan sal oldin XI asr o'rtalarida xuddi shu singari dehqonlar harakati bo'lib o'tgan edi.

Feodallar aligarxiyasi. Votchina-senoriya siyosiy jihatdan kichkina bir davlatga o'xshagan narsa edi. Bu davlatning hokimiyati senorning o'zi — pomeste egasi, yirik mahalliy feodal bo'lib, u mahalliy aholini sud qilar, qatl etar va afv qilar edi, atrofidagi o'ziga o'xshash pomeschik-hokimlar bilan urush olib borar edi. Lekin uning o'zi ham odatda o'zidan kattaroq - bir senorga qaram bo'lib, uning vassali edi. Bu katta feodal-senor ham o'zidan kattaroq bir senorga qaram bo'lishi mumkin edi va hokazo. Bu qaramlik munosabatlari tizmasi qirolning o'zigacha tizilib borar edi, shunday qilib, qirol butun feodal aligarxiyasining boshlig'i edi. Dunyoviy feodallardan tashqari ruhoniy feodallar: papalar, arxiyepiskoplar, yepiskoplar, abbatlar va shu kabilar ham mavjud edi. Feodallar aligarxiyasi odatda yuqori va quyi tabaqalarga bo'linardi. Qirol va unga tobe bo'lgan yirik hududiy knyazlar, gertsoglar va graflar («tojdor feodallar») feodallarning yuqori tabaqasi edi. Ular urush olib borish, o'z pullarini zarb qilish huquqiga ega edilar; sud va qonun chiqarish ishlari tamoman ularning qo'lida edi. Ulardan keyingi o'rinda bir nechta (ba'zan "esa bir necha o'n) imeniesi bo'lgan baronlar turar edi. Ba'zi mamlakatlarda, masalan, Angliyada baronlarning ham gertsog yoki graflik unvoni bor edi. Ritsarlarning yaroqbardorlari bo'lib, bular ham asta-sekin kichik ritsarga aylanib bordi. Feodallarning mana shu tabaqalarining hammasi bir bo'lib turib, imtiyozli tabaqa—dvoryanlar tabaqasini tashkil qildi, bu dvoryanlar krepostnoy dehqonlar ommasidan, shuningdek o'sha davrda feodallarga qaram bo'lgan shaharliklardan yuqori turar edi.

Vassallik-lenlik munosabatlari. Feodalning yer-mulki — feod yoki len bitta pomestedan, bir nechta pomestedan, butun boshliq bir knyazlik hatto qirollikdan ham iborat bo'lishi mumkin edi (o'rta asrlarda vassal qirolliklar ko'p edi). Lekin har bir feodalning quyidagicha o'ziga xos xususiyatlari bor edi: 1) feod, hammadan burun,

«past» dehqonlarga xos majburiyatlarni o'tash bilan bog'liq bo'lgan dehqon mulkidan farq qilib, dvoryan mulki, «asl» mulk edi; 2) feod, odatda muayyan bir xizmatni, birinchi navbatda, harbiy xizmatni o'tash bilan bog'langan edi; 3) feod—yuqori senorga vassal tobelikdagi karam mulkdir, ya'ni alloddan farq qiladi, allod X—XI asrlarda juda ham uchrar edi 4) feod — nasldan-naslga meros bo'lib o'tadigan mulk edi (u o'zidan oldingi benefitsiydan shu bilan farq qilar ediki, benefitsiy harbiylarning er mulki edi-yu, lekin nasldan-naslga meros bo'lib o'tmas edi).

Vassallarning asosiy majburiyatlari harbiy xizmatni o'tashdan iborat edi, bu xizmat odatda yiliga 40 kun belgilanar edi. Harbiy xizmatdan tashqari, vassallar o'z senorlari foydasiga yana ba'zi xizmatlarini ham bajarardi, senor boshqa vassallarni sud qilganda sudda qatnashar yoki uning saroyida saroy ahli bo'lib xizmat qilar edi. Bulardan tashqari vassal o'z senoriga ma'lum miqdorda pul ham to'lab turar edi. Bu to'lovlardan eng kattasi nasliy (poshlina) boj edi, bu nasliy boj relef deb atalib, ba'zan juda katta summadan iborat bo'lar edi. Angliyada baronlardan olinadigan relef, masalan, 1 ming funt sterlingga yetar edi. Butun mamlakatdagi feodallar toifasini bir butun qilib bog'lagan shartnoma tizimi maxsus marosimlar shaklida muqaddaslashtirilar edi.

Feodallarning qasrlari va ularning tuzilishi. X—XI asrlarda G'arbiy Yevropaning hammayog'i qasrlar bilan qoplana boshladi. Qasr feodalga ham turar joy, ham qal'a bo'lib xizmat qilar edi.



Feodal qasri XI asr

Dastlabki paytlarda kasrlar yog'ochdan qurilar edi. Hali IX asrda bu odatdagi ikki qavatli yog'och minora edi. Uning yuqori qavatida feodal o'z oilasi bilan yashardi, pastki qavatida xizmatkorlar turardi hamda har xil oziq-ovqat va boshqa narsalar saqlanadigan

omborxonalar joylashgan edi. Qasrning, atrofi xandaqlar bilan o'ralgan bo'lib, uning ustiga ko'prik qurilgan edi; ko'prik ko'tarilib, tushirilib turilar edi, mobodo xavf-xatar tug'ilsa dushman yaqinlashib qolgan taqdirda ko'prik ko'tarib quyilardi. Fransiyada normanlarning hujumlari, Germaniyada vengrlarning hujumlari, Italiyada

arablarning hujumlari shunday qasrlar qurishga majbur qilib kuygan edi; kurilish texnikasi oddiy, hajmi u qadar katta emas edi. Vaqtlar o'tishi bilan X asrdayoqq qasrlar toshdan qilina boshladi. Qasr qurish uchun baland qoyali joylar tanlanardi. Endi u bir necha qavat (4—5 qavat) qilib qurilar va atrofi bir qator yoki ikki qator tosh devor bilan o'rab olinar edi. Xandaqlar juda murakkab va boshi-uchini hech kim bilmaydigan qilib qurilar edi.

Bunday qasrni o'q otadigan qurolsiz birgina hujum bilan olib bo'lmas edi, qamal qiluvchi tomon qasrni olish uchun uni har tomondan o'rab olib, uning ichidagilarni ochlikdan tinkasini quritib, ahir taslim bo'lishga majbur qilish yo'lini mo'ljallar edilar.



Germaniyadagi feodal qasri


Feodal qasrni qurayotganda u ham tashqi dushmanni (tashqaridan qilingan bunday hujumlar vaqtda, hatto qo'shni qishloq aholisining bir qismi ham u yerga yashirina olardi), ham shu bilan bir vaqtda o'zining raqibi — qo'shni feodalni (u bilan janjal va o'zaro urushlar bo'lib turar edi) nazarda tutar edi. Shu bilan birga, u qo'shni qishloqlardan baland turar, bu esa krepostnoy dehqonlar ommasini ustidan feodallar toifasining harbiy-siyosiy hukmronligini yaqqol ko'rsatuvchi bir nishona edi. Agar u yoki bu qishloqda biror bir to'polon yuz berib qolgudek bo'lsa, qasrdan jazo otryadlari yuborilar edi. Feodalning. o'zi esa butun bir qishloq okrugining dehqonlar ommasini feodalga qarshi ko'tarilib qattiq zo'rlik qilinganligi uchun o'ch olishmoqchi bo'lsa, qasrdan chiqmasdan ichida bekinnb yotar edi.

Ritsarlarnng qurol-yaroqlari. O'rta asr feodali o'tsiz temir qurol sopi krest shaklida og'ir qilich va uzun og'ir nayza bilan qurollangan edi. Bundan tashqari gurzi va oybolta qo'llanar edi, lekin ular juda tez iste'moldan qoldi. Ammo buning o'rniga ritsar mudofaa vositalariga ko'proq e'tibor bera boshladi. U avvalgi charm sovut o'rniga temir halqalardan to'qilgan tur sovut yoki uzun po'lat sovut kiyadigan bo'ldi; ritsar qurol-yarog'ining eng muhim qismi ustiga temir plastin-kalar qoplangan yotoch qalqon edi. Ritsar boshiga temir dubulg'a va yuzini saqlash uchun metalldan

ishlangan yupqa niqob-sipor kiyardi, uni ko'tarib yoki tushirib qo'yish mumkin edi. Ritsarning urushda minib yuradigan oti metall yopqich bilan yopilar edi. Oqibat natijada jangga shay bo'lib, otga mahkam o'rnashib olgan ritsar go'yoki jonli temir qal'aga o'xshardi. Bunday ogir va qo'poldan-qo'pol qurollanib olgan ritsar uchun dushmanning o'q-yoyi ham, gurzisi ham pisand emas edi. Ammo ritsar bu xilda qurollanganligi uchun qo'lloqashib bemalol harakat qila olmasdi. U otdan yiqitilsa, o'zining qurol-bardorining yordamisiz otlarga mina olmas edi.

Har holda dehqon piyoda qo'shinlari uchun ritsar juda dahshatli kuch bo'lib, dehqonlar ularning oldida ojiz bir banda edilar.

Tez orada shaharliklar ritsarlarni tor-mor qila oladigan vositalarni topdilar, bunda ular, bir tomondan, o'zlarining anchagina harakatchanligidan va jipsligidan, ikkinchi tomondan, dehqon qo'shinlariga qaraganda yaxshi qurollanganliklaridan foydalandilar. XII—XIII asrlarda G'arbiy Yevropaning turli mamlakatlarida shahar aholilari ritsarlarga bir necha bor zarbalar berganlar. Biroq XIV va undan keyingi asrlarda porox va o'q otuvchi qurolning kashf qilinishi hamda takomillashtirilishi o'rta asrning namunali harbiy kuchi bo'lib kelgan ritsarlikka bardam berdi.



Ritsarlar yurishlari

Feodallar anarxiyasi. har turli majburiyat, qasamyodlarning juda ko'p bo'lishiga, bir-biriga homiylik qilish va sodiq xizmat qilishiga, juda ko'p va'dalar berishiga qaramay, feodallar dunyosi juda ham notinch edi. Aslini olganda, butun ilk o'rta asr doimiy o'zaro urushlar, to'xtovsiz davom etib turgan katta va kichik ichki urushlar, vassallarning o'z senorlariga qarshi uzluksiz isyon ko'tarish davri edi.

Qirol hokimiyati uzoq vaqtgacha feodallarning bu anarxiyasini bartaraf qilish u yoqda tursin, hatto cheklashga ham butunlay ojizlik qildi. Ruhoniylar feodallarning

urushlariga xotima berishga yoki ularga, loqal, bir qadar chek qo'yishga harakat qildi.

O'rta asr Yevropasi tarixida XI asr. G'arbiy Yevropa tarixida XI asr burilish asri bo'ldi. Bu asrda Yevropaning juda ko'p mamlakatlarida feodal munosabatlar uzil-kesil rasmiylashdi. Xatto feodalizm hiyla sekin sur'atlar bilan rivojlangan mamlakatlarda (Angliya, Germaniya, Skandinaviya va harbiy slavyan mamlakatlari) ham XI asrda feodallashish jarayoni chuqur ijtimoiy o'zgarishlarga olib keldi. Shu sababli bu mamlakatlarda ishlab chiqarishning feodal usuli, bir tomondan, jamiyatning feodal katta yer egalariga va ikkinchi tomondan, ularga qaram bo'lgan krepostnoylar va yarim krepostnoylarga bo'lanishi hukumron ijtimoiy xodisalarga aylandi. Ammo XI asrda feodal Yevropasi taraqqiyotida yana boshqa muhim bir jarayon ham boshlandi. Bu esa hunarmandilik va savdo-sotiqning markazi sifatida, xususiy mulkchilikning va qishloqdagidan tamomila boshqacha ishlab chiqarish munosabatlarining yangi formalari to'plangan manzilgoh sifatida shaharlarning paydo bo'lishidir. Bu esa ko'pgina shaharlarning vujudga kelishida va o'sha damgacha, asosan, ma'muriy yoki sof harbiy manzil vazifasini o'tab kelgan ko'hna markazlarning jonlanishida namoyon bo'ldi. Shu paytdan e'tiboran shahar ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili bo'lib qoldi. XI asr oxiriga kelib Yevropada Sharqqa tomon salib yurishlari boshlandi. Salib yurishlari G'arbiy Yevropani tanholik holatidan chiqarib, uning iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyotini tezlashtirishga ancha ta'sir ko'rsatdi.

Ilk o'rta asr davrida hunarmandilik va savdo. Ilk o'rta asr biqiq natural xo'jalik hukumronligi bilan farq qilardi. Darxaqiqat, ilk o'rta asr zamonidagi G'arbiy Yevropa ekonomikasini tasvirlovchi eng yaqqol xujjatlar (Karolinglar davriyodgorliklari) o'sha ilk o'rta asr qishlog'ini xuddi ana shunday xususiyatlar bilan ko'rsatadi. Dehqonlar pomeschik-feodal foydasiga barshchina o'taydilar, unga obrokni ko'proq natura bilan to'laydilar. Dehqon xujaligi etishtirgan maxsulotlar odatda, senor qo'rasining extiyojlariga sarflanardi. Buyuk Karl o'zining «Pomeste (er-mulk)lar to'g'risidagi kapitulyariy»sida buni juda yaxshi ifodalab bergan edi. Dehqonlar ozuqa maxsulotlaridan tashqari, feodalga hunarmandilik buyumlari ham

yetkazib berishlari kerak edi. Sen-Jermen monastirining IX asrdagi ma'lumotida dehqonlar temirchilik to'quvchilik va boshqa hunarmandilik yo'li bilan ishlab chiqargan buyumlarini monastirga berishga majburdirlar, deyiladi. Karolinglarning yodgornomalarida ko'rsatilishicha, hunarmandilik qishloq xo'jaligidan xali ajralib chiqmagan. Bu yerda dehqon bilan xunarmandning xar ikkalasi xali bir odamday bo'lgan.

Biroq Buyuk Karl zamonidayoq moxir xunarmandlar mavjud bo'lib, ular endi qishloq xujaligida band qilinmagan, ulardan faqat mutaxassislar sifatida foydalanilgan. Xar bir qirollikning pomestesida kerakli bo'lgan yigirmalab ana shunday hunarmandlar (temirchilar, zargarlar, duradgorlar, ko'nchilar, chilangarlar va boshqalar) «Pomeste tug'risidagi kapitulyariy»da sanab ko'rsatiladi. Ammo qo'ralarda mehnat qiluvchi ana shunday xunarmandlarning mavjudligi hali hunarmandilikning qishloq xo'jaligidan batamom ajralib chiqqanligini ko'rsatmaydi. Xunarmandlar pomestega birlashtirilgan, unga bog'lab qo'yilgan, ular ishlab chiqargan maxsulotlar esa feodalning ehtiyojini qondirishga ketadi va shuning uchun u tovar sifatida bozorga chiqarib sotilmaydi. Shunday qilib, qo'ra hunarmandiligi natural xo'jalik turlaridan biriga aylanib qoldi. G'arbiy Yevropada doimiy suratda shug'ullanuvchi shahar hunarmandiligi paydo bo'lishidan oldin, bu hunarmandilik o'tkinchi bir davrni boshidan kechirgan, ya'ni G'arbiy Yevropaning elma-el kezib yuruvchi sayyor xunarmandlari (duradgorlar, tosh teruvchilar, kosiblar, mashinachilar va boshqalar) bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurib, pomeshchiklarga va qisman dehqonlarga xizmat ko'rsatganlar. Sayyor xunarmandlar ko'pincha aslida dehqonlar bo'lib, ular yig'im-terim paytida qishloqqa qaytib kelib, dalada o'z oila a'zolari bilan birgalikda ishlardilar. Bu hunarmandlar ko'pincha Italiyadan yoki Yaqin Sharqdan kelgan ajnabiylar (yunonlar, suriyaliklar, arablar, yahudiylar va boshqalar)dan iborat bo'lardi.

Ilk o'rta asr eamonidagi mol ayirboshlash (savdo qilish) pomestelarning yoki dehqonlarning ehtiyojlarini qondirgandan keyin ortib qolgan mahsulotlarni bozorga chiqarib sotishdan iborat bo'lardi. «Pomestelar to'g'risidagi kapitulyariy»da va Karolinglar davrining boshqa ba'zi hujjatlarida bozorlar bo'lganligi ko'proq eslatib

o'tiladi. Ilk o'rta asr davrida cherkov va monastirlar huzurida an'anaviy yarmarkalar bo'lardi. Ammo bu savdo joylarida, har holda, mahalliy sotuvchilar kam bo'lardi. Asosiy savdogarlar: lombardiyaliklar, yahudiylar, suriyaliklar, arablar, vizantiyaliklardan iborat kelgindi savdogarlar edi. Bu ajnabiy savdogarlar odatda feodal qasrlari va qo'rg'onlariga doimo tashrif buyurib, ular bu qasr va qo'rg'onlarda ziynat buyumlari (xususan oltin va kumush bezaklar, qimmatbaho toshlar), ipak gazlamalar, qo'lda otadigan qurol-yaroq va Sharq hunarmandchiligining boshqa ba'zi buyumlari, shuningdek Sharq shirinliklari va dorivorlarini olib kelib sotardilar. Bunday ayirboshlash ishlab chiqarishning tub mohiyatiga hali sira qo'l tegizmagan edi. Pomeste va dehqon qishlog'i o'z xo'jaligining maqsad va vazifalariga ko'ra hali, asosan, natural xo'jalikligicha qolib kelmoqda edi. Mayda er-mulk-qishloq «jamoalari»ning biqiq holda yashashi ilk o'rta asr ekonomikasining eng xarakterli va o'ziga xos xususiyatlaridan biri edi.

Hunarmandchilikning qishloq xo'jaligidan ajralib chiqishi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, avvalo, dalalardagi dehqonchilikning serhosil bo'lishi, shuningdek hunarmandchilik texnikasining rivoj topa borishi tufayli hunarmandchilik asta-sekin alohida bir kasbga, kishilar ayrim guruhining asosiy mashg'ulotiga aylandi. Endilikda hunarmand o'z vaqtini butunlay hunarga sarflaydigan bo'ldi. U qishloq bilan aloqasini butkul uzib, ishlab chiqarish sharoitlari (xom ashyosi bor va ishlangan molni bozorga chiqarib sotish imkoniyati, hayoti va mol-mulki ma'lum darajada xavf-xatarsiz hamda aloqa yo'llari qulay bo'lgan va hokazo) eng qo'l keladigan yangi, doimiy joyga ko'chib bordi. X—XI asrlarda Yevropada turli hunarlar orasidan mustaqil kasb bo'lib ajralib chiqqan ikkita hunar: temir buyumlar yasash (tug'ilib kelayotgan metallurgiya) va movut to'qish (jun gazlamalar ishlash) ayniqsa katta ahamiyat kasb etgan edi. Temir asboblari qishloq xo'jaligida ham (omoch tishi, plug, mix belkurak va hokazo), shuningdek harbiy ishda ham (temir qalqon, qilich, nayza, dubulg'a va shunga qxshash ritsarlik qurol-yarog'lari) talab qilinardi. Movut to'qishning o'sib borishi Yevropada ancha noqulay (va shu bilan birga qimmatbaho) mo'ynadan tikilgan kiyimni, qisman esa sifati jihatidan sovuq mavsumga uncha to'g'ri kelmaydigan zig'ir tolasidan tikilgan

kiyimni siqib chiqargan jundan tikilgan kiyimning rasm bo'lishi bilan bog'liqdir. «Qo'y zig'irpoyadan g'olib chiqdi», degan xalq maqollaridan biri bu iqtisodiy faktni ana shu tariqa ifodalagan edi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish kuchlari o'sganligidan dalolat beruvchi qo'ychilikning rivoj topishi yangi sanoatni mustahkamlash uchun zaruriy asos bo'ldi. Germaniyaning Reyn va Yuqori Dunay bo'yi okruglari metallurgiya sanoati ilk taraqqiy etgan rayonlardan biri bo'ldi. Flandriya, Frislandiya va Shimoliy Italiya movut to'qish sanoatining eng ko'hna o'choqlari deb hisoblanadi. Qishloq xo'jaligidan ancha burun ajralib chiqqan boshqa hunarlar orasida kulolchilik ko'nchilik (egar-jabduq yasash va poyabzalchilik) va turli xildagi binokorlik (mohirona g'isht terish, duradgorchilik tomga tunuka-cherepitsa yotqizish va hokazo) bo'lgan.

O'zining maxsus ishlab chiqarishida band bo'lgan hunarmand o'qigan, malakali master bo'lishi kerak edi. Bunday hunarmandchilik bozor orqali iste'molchiga xizmat qilishni maqsad qilib qo'yar edi (lekin dastlabki paytlarda bu yerda ham yakka buyurtmachilarga ishlash hodisalari yo'q emas edi). Shu tariqa, hunarmand mayda mol ishlab chiqaruvchiga aylandi. Pirovardida, u dehqonchilik bilan aloqasini uzib, faqat shahar hunarmandigina bo'lib qoldi.

Hunarmandilikning rivojlanishi va uning qishloq xo'jaligidan ajralib chiqishi asosida Yevropada o'rta asr shahari maydonga keldi.

Shaharlarning kelib chiqishi. XI asrdan oldin ham Yevropada shaharlar bor edi. Shaharlarning ko'pchiligi Rim davridan o'rta asrga meros bo'lib qolgan. Italiyada, Fransiyada, Angliyada, G'arbiy va Janubiy Germaniyada, shuningdeq Ispaniyada bunday shaharlar oz emas edi, chunonchi: Italiyada — Rim, Florensiya, Milan, Neapol, Fransiyada — Parij, Lion, Marsel, Bordo, Angliyada — London, Vinchester va Yorq Germaniyada — Aaxen, Trir, Maynts, Augsburg, Regensburg, Ispaniyada — Barselona va Saragosa va hokazo. Biroq bu shaharlar ilk o'rta asr davrida sanoat ishlab chiqarishi va savdo-sotiq markazlari bo'lmagan. Bular dunyoviy va ruhoniylar feodallarning rezidentsiyalari yoki qal'alari bo'lgan. Feodallarning mulozimlari yoki xizmatkorlari bo'lib xizmat qilmagan shaharliklar, dehqonlar singari, odatda, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ko'hna Rim shahri

hududining o'zida qisman aholi o'rnashgan edi. Hunarmandchilikning rivojlanishi va uning qishloq xo'jaligidan ajralib chiqishi bilan eski Rim shaharlari gavjumlashdi va ko'plab yangi shaharlar paydo bo'ldi.

Dehqonlarning feodallar zo'rligiga qarshilik ko'rsatishining tobora o'sib borishi shaharlarning rivojlanishiga katta yordam qildi. Pomeschchiklarnilg er-mulklaridan qochib ketgan krepostnoylar vujudga kela boshlagan shaharlarning dastlabki mehnatkash aholisini tashkil qildilar.

Yangi shaharlar turli joylarda: feodallarning qasrlari tevaragida (chunonchi, hozirgi G'arbiy Yevropa shaharlarining nomlarida tez-tez uchrab turadigan — «burg» qo'shimchasi — Strasburg, Augsburg, Freyburg, Gamburg, Brandenburg va hokazo), monastirlar tevaragida (bunday shaharlarning nomi odatda «sankt», «san», «sen» («svyatoy») so'zlari bilan boshlanadi, masalan, Sen-Jermen, Sent-Albans, Sankt-Gallen, Sant-Yago va b.), ba'zan daryolardan kechib o'tiladigan qulay joylarda (Angliyada Oksford va Kembridj, Germaniyada Mayn daryosi bo'yidagi Frankfurt va Odra daryosi bo'yidagi Frankfurt shaharlari, Niderlandiyada Bryugge («ko'prik» shahari va hokazo) vujudga keldi.

Iqtisodiy markaz bo'lgan shaharning, vaqt o'tishi bilan, atrofdagi aholi uchun ahamiyati tobora ortib bordi. Shahar hunarmandlari shahar bozoriga muntazam kelib turadigan dehqonlarni o'z sanoat buyumlari bilan ta'minlab turardilar. Shaharliklar esa, dehqonlardan qishloq xo'jalik xom ashyosi sotib olardi. Shunday qilib, shahar bilan qishloq o'rtasidagi mehnat taqsimoti doimo davom qilib turadigan uzviy bir holat kasb etdi. Hunarmandchilik va savdo-sotiq markazi bo'lgan shahar qishloqni savdo oborotiga tortib, unda ham tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga yordam qildi.

Xalqaro savdoning rivojlanishi. XI asrga kelib shaharlar faqat qo'shni qishloqlar bilangina savdo-sotiq qilmay, balki ularning ko'plari ancha keng savdo-sotiq aloqalari ham bog'ladilar. Bu shaharlar bir-birovlari bilan zo'r berib aloqa qilishlaridan tashqari, Vizantiya va Arab Sharqining ayrim savdo markalari bilan ham savdo-sotiq aloqalari bog'ladilar. O'rta dengiz bo'yida katta savdo-sotiq ishlari olib borgan shaharlar orasida ayniqsa Italiyaning Genuya, Amalfi, Piza, Venetsiya singari

shaharlari alohida ajralib turardi. Venetsiya bilan Genuya avvalroq katta savdo floti qurdilar. Bu shaharlarning aholisi tez o'sib bordi. Bu shaharlarda boy savdogarlarning yuqori tabaqasi maydonga kelib, u hokimiyatni o'z qo'liga kiritib oldi. Sharq bilan savdo-sotiq qilishda janubiy Fransiya shaharlari: Marsel, Arl, Narbonna ham qatnashdilar. Kataloniya markazi Barselona shahari O'rta dengiz bo'yi savdosida faol rol o'ynadi.

O'rta dengiz bo'yidan tashqari, XI asrda Yevropa savdosining ikkinchi bir joyi — Shimoliy dengiz bo'yida markazi Niderlandiya bo'lgan mamlakat ham ajralib chiqdi. Agar italyan, janubiy fransuz va Kataloniya savdogarlari savdo-sotiqda asosan vositachilik rolini o'ynagan bo'lsalar (italyan, fransuz va ispan savdogarlari Sharqdan kelgan tovarlarni sotib olib, so'ngra ularni Yevropa mamlakatlariga olib borib pullardilar), Niderlandiya, shimoliy fransuz va Reyn bo'yidagi nemis savdogarlari, shuningdeq Shimoliy Italiya shaharlari keng xalqaro savdo-sotiq olib borish uchun hunarmandilik mahsuloti ishlab chiqaradigan maxsus bazalariga ega edilar. Niderlandiyada va Germaniyada — Rent, Bryugge, Ipr, Arras, Bryussel, Kyoln shaharlari, Italiyada — Milan va Florensiya shaharlari bu masalada yetakchilik rolini o'ynadilar. Ammo Shimoliy dengiz va Baltika dengizi bo'yidagi shaharlarga nisbatan O'rta dengiz bo'yi shaharlari bu ilk davrda, ya'ni X—XI va hattoki XII asrlarda savdo-sotiq ishlarida hukumron vaziyatni egallagan edilar. Sharqdan keladigan mahsulotlar qimmatbaxo tovarlar bo'lib, ularning bir qismini yuqori sifatli buyum sifatida Yaqin Sharq mamlakatlari yetkazib turardi va u mahalda G'arbiy Yevropa bu buyumlarni ishlab chiqara bilmasdi.

Qishloq ahvalidagi o'zgarishlar. Shaharning qishlog'i bilan olib borgan savdo-sotiq aloqalari dehqonlar bilan feodallar o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirib yubordi. Dehqonlar qo'lida pul paydo bo'ldi. Hamisha talabi va ehtiyoji o'sib borgan senor pulga doimo muhtojlik sezib, dehqonlarga obroknig qisman pul bilan to'lattirishga harakat qildi. Dehqonlarni pul bilan obrok to'lashga ko'chirish kelajakda krepostnoylarning asta-sekin, shaxsiy ozod bo'lishga olib keldi.

Ammo XI asrda bu jarayon endigina boshlangan edi, Feodallarning pul rentasi haqidagi talabiga dehqonlar ko'pincha yana bir ortiqcha daxmaza deb qarardilar.

Qishloqning ishlab chiqaruvchi kuchlari bir qadar yutuqqa erishgan bo'lishiga qaramay, bu ishlab chiqaruvchi kuchlar hamon past darajada qolib kelmoqda edi. Shaharning qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji qiyinchilik bilan qondirilardi. Qishloq aholisi sonining o'sib borishi qo'shimcha yerlarga ehtiyojni yanada oshirardi. Ilgari daraxtzorlar hamda shox-shabbalardan tozalangan va haydalib ekin ekiladigan yerlar endi yetishmay qoldi. Qishloqda yer yetishmasligi sezilmoqda edi.

Shu munosabat bilan G'arbiy Yevropada yangi yerlarni o'zlashtirish (boshqa yerlarga kuchib borib uni egallash) keng tus oldi. XI asrda o'rmonlardagi daraxtlarni kesib yer ochish va bo'sh yotgan yerlarni ishga solish Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida dolzarb vazifa bo'lib qoldi. Bungacha xalq ko'chib borib o'rnashmagan yoki kam o'rnashgan «taqir» yerlarda yangi qishloq va ovullar paydo bo'ldi. O'z daromadlarini oshirishdan manfaatdor bo'lgan feodallar bu «ichki kolonizatsiya»ga homiylik qiladilar. Yangi yerlarga ko'chib borib o'rnashgan odamlar, ba'zan, olis yerlardan qochib kelgan krepostnoylar bo'lib, maxalliy feodallar xali ochilmagan quruq yerlarga joylashtirish uchun ularni bajonu dil qabul qilib olardilar.

«Ichki yerlarni o'zlashtirish» ba'zi hollarda «tashqi yerlarni o'zlashtirish» ga aylanadi. Shu jumladan, Yevropa dehqonlarining birinchi salib yurishlarida qatnashishi bir qism G'arbiy Yevropa dehqonlarining sharqda yerga ega bo'lib olish va ayni zamonda, krepostnoy qaramlikdan ozod bo'lish kabi ba'zi orzu-umidlar bilan bog'langan edi. Kolonizatsiya payti X—XI asrlarda Pireney yarim orolidagi ispaniyalik xristian xalqlarning arablarga — mavrlarga qarshi olib borgan kurashida yaqqol namoyon bo'ldi. Elba daryosining orqa tomonidagi slavyan yerlari territoriyasini nemislar tomonidan kolonizatsiya qilish ham X—XI asrlarda boshlangan edi.

Tayanch so'z va iboralar: feodal irerexiyasi, kapitulyariy, ritsar, serv, villan, burglar, hunarmandchilik va savdo, natural xo'jalik.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ilk o'rta asrlar davrining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
2. O'rta asr shaharlarining turlarini ajratib bering.
3. Ritsar madaniyati tushunchasiga ta'rif bering.
4. Yirik er egalari turmush tarzini qanday tasavvur qilasiz?
5. Savdo yo'llari va ularni o'zlashtirish uchun olib borilgan kurashlarni eslang.

Glossariy:

Votchina —XIII—XV5 aslarda yer egaligining hukmron shakli.

Vassallik (lot. vassalus — vassal, vassus — xizmatkor) — o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada feodallar bir toifasi — vassallarning boshqasi — senorlardan shaxsiy qaramlik munosabatlari tizimi. Vassalik odatda, senordan feod olib, evaziga muayyan majburiyatlarni o'z xojasini qo'riqlashi va uning moddiy manfaatlarini himoya qilishi, bir yilda qirq kun harbiy xizmat o'tashi yoki o'z qaramog'idagi mulki miqdoriga qarab otryad yuborishi, shuningdek ayrim vaqtda pul yordami berishi lozim bo'lgan. Biroq vassalli ko'pincha bu majburiyatlarni bajarmay, o'z egasi — senoriga qarshi ham turgan. Oliy senor (syuzeren) vassaliga aylangan yirik feodallarning ham o'z navbatida vassallari bo'lgan

V BO'LIM. RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA JAHON MAMLAKATLARI

34-§. Salib yurishlari va ularning ahamiyati

Salib yurishlarining sabablari va shart sharoitlari. XI asr oxirlariga kelib Yevropada yangi davlatlari tashkil topib, ular o'z ma'muriy tuzilmasiga ega bo'ldi. Mazkur davlatlarda yangi turdagi tashqi siyosat tamoyillari shakllandi. Lekin tashqi siyosatni belgilab beruvchi ichki omillar ham mavjud ediki, ular umumYevropa xarakteriga ega edi. Salib yurishlarining sabablarini qisman XI asrning ikkinchi yarmida Yaqin Sharqda yuz bergan o'zgarishlardan, qisman feodal G'arbiy Yevropaning o'zidagi umumiy iqtisodiy taraqqiyot va keskin ijtimoiy ziddiyatlardan qidirmoq kerak.

Ilk o'rta asrlarning so'nggi davrlarida Sharqda Yevropa feodallarining agressiv tashqi siyosat olib borishlari uchun juda qulay bir vaziyat shakllangan edi. Arab xalifalari o'rtasidagi o'azro urushlar natijasida Bag'dod xalifaligi zaiflashdi, 1055-yilga kelib esa ma'muriy jihatdan batamom tarqaldi. Boshqa yirik davlat — Komninlar zamonidagi Vizantiya ham og'ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. Bolqon yarim oroliga bostirib kirgan pecheneglar Vizantiya imperiyasiga shimol tomondan hujum boshlagan edilar. Sitsiliya normanlari g'arbdan Vizantiyaga xavf solmoqda edilar. Ammo saljuq turklari Vizantiya uchun ayniqsa xavfli edilar, ular Kichik Osiyoning katta bir qismini bosib olgan va ayni zamonda, Konstantinopolga qo'shni bo'lgan Nika shahrini o'zlariga poytaxt qilib olgan edilar. 1071- yilda turklar Mantsinkert shahari yonida vizantiyaliklarni qattiq mag'lubiyatga uchratdilar. Yangi imperator Aleksey Komnii (1081- yildan idora qila boshlagan edi) garchi turklarning bir necha hamlasini to'xtatgan bo'lsada, lekin har holda, imperiyaning ahvolini mustahkam deya olmasdi. XI asrning 80- va 90- yillarida u turklarga qarshi yordam berishni so'rab papaga va Germaniya imeratoriga bir necha bor murojaat etdi. Ilgari yakkayu-yagona bo'lgan xristian cherkovi 1054 yildan e'tiboran ikkita raqib qismga — sharqiy (pravoslav) va g'arbiy (katolik) cherkovlarga qat'iy ajralib ketgan bo'lsa ham, Aleksey Komnin siyosiy maqsadlarni ko'zda tutib, papa boshchiligida bu

cherkovlarni hatto qaytadan birlashtirishga ham tayyor edi. Shunday qilib, Sharqning ikki eng yirik davlati—Arab xalifaligi bilan Vizantiya imperiyasi — salibchilarga biror-bir jiddiy to'sqinlik ko'rsatishdan ojiz edilar. Buning ustiga, ulardan biri (Vizantiya hatto Yevropa feodallarini Sharq mojarolariga aralashishga da'vat etdi. Turklarga kelsak, XI asrning 80 va 90- yillariga keliboq ularning nomustahkam harbiy-qabila ittifoqi tarqalib keta boshlagan edi. Feodallashib borayotgan ayrim turk bekliklari g'arb feodallarining hujumini to'xtata olmadilar.

Ammo salib yurishlarining, jumladan, birinchi salib yurishining asosiy sababi, axir-pirovardi, G'arbiy Yevropaning o'zidagi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashib ketganligi edi. XI asrda mayda ritsarlarning ko'pchiligiga yer yetishmas edi. Savdosotiq va shaharlarning rivojlanishi natijasida ehtiyojlarning o'sib borishi munosabati bilan feodallarning dehqonlardan oladigan daromadlari ular uchun kifoya qilmaydigan bo'lib qoldi. Juda ko'p ritsarlar yerdan butkul mahrum qilingan edilar, chunki feodallarga qarashli yer-mulk va daromadlar (feod) odatda katta o'g'ilga berilar edi va kichik aka-ukalar esa otadan qolgan merosdan biror narsa olishga haqlari yo'q edi. Sharqdagi yerlarni bosib olish maqsadida u yerlarga yurishlar qilish bunday ritsarlarning mushkul ahvoldan chiqishlarining birdan-bir yo'li edi. Yirik feodallar (knyazlar va baronlar) o'zaro mojaro va ixtiloflarning oldini olish uchun ritsarlarning diqqat-e'tiborini boshqa narsalarga jalb etish muhimroq edi.

XI asr oxiri — XII asr boshida salib yurishidagi g'oyat muhim masala— dehqonlar masalasi edi. Dehqonlar dastlabki paytlarda Sharqqa bajonu dil yul oldilar. Krepostnoy qaramlikdan xalos bo'lish, qarzlarni tugatish, Sharqdan yer olish umidi (shuni aytish kerakki, dehqonlarning geografik tasavvuri tamomila hayoliy, amalga oshmaydigan bir tasavvur edi) o'n minglab kishilarnng tug'ilib o'sgan shahar va qishloqlarini tashlab, uzoq yurtlarga ketishga majbur etdi va ularning ko'plari bu joylarda och-yalang'och qolib, sarson bo'ldilar. Dunyoviy va ruhoniylar feodallar dehqonlarning Sharqqa qiladigan yurishini vujudga kelgan og'ir axvoldan qutulishning o'ziga xos bir yo'li deb bilardilar. Bu narsa tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bilan feodal-krepostniklik tuzumi keng tarqalayotgan va feodal zo'rliги kuchayib borayotgan bir sharoitda Yevropada dehqonlar urushining to'g'ridan-to'g'ri

boshlanib ketish xavfidan hukumron toifani qutqargan bo'lardi. Ko'pdan-ko'p monaxlar va boshqa daydi voizxonlar dehqonlar orasida targ'ibot yurgizib, ularni Sharqqa yurishdek «ezgu ishda» qatnashishga da'vat etardilar. Biroq dehqonlar masalaning mohiyatiga darhol tushunib yetmagan bo'lsalar-da, lekin oqibat-natijada, ular bunday yurishlarning maqsadini angladilar. Sharqqa qilingan dastlabki ikki yurishda dehqonlar ko'pchilikni tashkil qilgan bo'lsalar, uchinchi yurishdan boshlab ular qatnashmay qo'yidilar. Bundan keyingi salib yurishlarining hammasida faqat feodallarnng o'zlari qatnashdilar. Yevropa qirollari, eng yirik feodallar (graflar va baronlar), shuningdek, ko'pdan-ko'p ritsarlar Yaqin Sharqda, faqat Arab Sharqidagina emas, balki Vizantiyada ham yangi feodal davlatlar barpo etish masalasini ochiqdan-ochiq ko'zlay boshladilar. Quddus va Falastin masalasi, keyinchalik ularning rejalarida ikkinchi darajali masala bo'lib qolgan edi.

- Italiya shaharlari, ayniqsa ulardan ikkitasi — Genuya bilan Venetsiya — salib yurishlarida juda faol qatnashdilar. Bu shaharlarning floti salibchilarni Sharqqa tashib olib bordi, salib lashkarlarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab turdi. Bosib olingan hududlarni taqsimlashda bu har ikki shahar qatnashib, birinchi galda Sharqning portlari va bozorlarini o'zlariga monopoliya qilib olishga harakat qildilar. Lekin shunga qaramay, shaharlar salib yurishlarida harakatga keltiruvchi asosiy kuch emas edi.

Sharqqa qilingan salib yurishlarini «muqaddas urushlar» deb e'lon qilgan katolik cherkovi, tabiiy, bu yurishlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanshiga intildi.

Bu vaqtga kelib papalik zo'r qudrata ega bo'ldi. Dunyoviy hokimiyat bilan olib borilgan to'qnashuvlarda papa imperatorning o'zini bir necha marta maglubiyatga uchratdi. Salib yurishlari papalikka ko'pgina real foydalar keltirishi: parchalanib ketgan feodal Yevropasiga siyosiy jixatdan rahbarlik qilishi, sharqiy «sxizmatiklar»ni, ya'ni sharqiy pravoslav cherkovining ajralib ketgan xristianlarini Rimga buysundirish uchun, katolik ruhoniylari katolik mazhabiga o'tkazishni orzu qilgan Sharq musulmonlari orasidagi missionerlik faoliyati uchun juda katta ikonalar to'plashi mumkin edi. Ana shu vajdan, papa Urban II 1095- yilning kuzida Janubiy Fransiyaning Klermon shahrida ko'p kishilik cherkov yig'inini to'plab, unda so'zga

chiqib «kofirlar»ga qarshi kurashmoq uchun Sharqqa jo'nab ketishga da'vat etdi. Urbaning asosiy da'vati «Iso payg'ambar qabrini» xristianlarga qaytarib olib berish va «muqaddas» Falastinni xalos qilishdan iborat edi. Papa salib qatnashchilarining gunohidan kechishni va'da qildi, shuningdek, u Sharqda salibchilarni kutayotgan boy o'lja haqida ham ochiqdan-ochiq aytdi. Yig'inda qisman fransuz, qisman boshqa mamlakatlardan kelgan minglab ritsarlar hozir bo'ldilar. Feodallarning ko'pdan-ko'p yig'inlarini o'tkazish faktining o'zi shu narsani yaqqol ko'rsatadiki, papa bosh ko'tarib chiqmasdan ancha burun ritsarlar orasida keng targ'ibot olib borilgan va ularning bir qismini Falastinga salib yurishi o'tkazish rejasidan manfaatdor qilishga ulgurilgan. Papaning bu chiqishi ancha ilgari tayyorgarlik ko'rila boshlagan ishni tashkiliy va mafkura jihatdan rasmiylashtirishdan iborat bo'ldi, xolos.

Salib yurishlari deganda Yevropa feodallarining XI asr oxiridan to XIII asr oxirigacha uzoq vaqt davomida Yaqin Sharqda — Suriyada, Falastinda, Misrda, Bolqon yarim orolida, Kipr orolida va boshqa joylarda olib borgan harbiy-mustamlakachilik ekspeditsiyalari ko'zda tutiladi.



Salibchilar

Tashqi jihatdan bu ekspeditsiyalar diniy ruhdagi ekspeditsiyalar edi, chunki katolik cherkovi bu kurashni — «butning - yarim oyga» qarshi, xristianlikning — islomga qarshi kurashidir, deb e'lon qilgan edi; yurishlardan muddao Falastinni «kofirlar» dan xalos kilish va xristianlar e'tiqodicha, Kuddusdagi «Iso payg'ambar qabri»ni xristianlarga qaytarib olib berishdir deb, rasmiy e'lon etildi. Haqiqatda esa, bu bosqinchilik yurishlaridan iborat bo'lib, ularda Yevropalik baronlar va ritsarlar hech tap tortmay, Sharqning shaharlarini taladilar, butun-butun knyazlik (beklik) va qirolliklarni bosib oldilar, o'zlari uchun feodal rentasining yangi soliq tulovchilarini qo'lga kiritdilar. Ammo salib yurishlarida, feodallardan tashqari, jamiyatning boshqa sinflari, jumladan, dehqonlar ham qatnashdilar. Bu hol salib yurishlariga endi yalpi, ommaviy tus berdi. Zamondoshlarga butun Yevropa harakatga kelganday, xalqlarning qandaydir yangi buyuk hijrati yuz berganday bo'lib ko'rindi.

Birinchi salib yurishi. Salib yurishlarining boshlanishi 1096- yilga to'g'ri keldi. 1096 -yilning bahorida Shimoliy va Sharqiy Fransiyaning qisman G'arbiy Germaniyaning dehqonlar ommasi salib yurishi uchun yo'lga tushdi. Dehqonlarga monax Pyotr Amenskiy (Pyotr Pustiniik) va kichik mulkdor ritsar Valter Golyak boshchilik qildilar. Dehqonlar olomoni yomon uyushtirilgan, naridan-beri qurollantirilgan, oziq-ovqat mahsulotlari bilan muntazam ta'minlanib turilmas edi. Salibchi dehqonlar tarkibida o'g'irlik va talonchilik qilishdan manfaatdor bo'lgan betayin, sayoq elementlar ham kam emas edi. Bu hol salibchilar «kofirlar» istiqomat qiladigan yerlarga etib bormasdan oq ma'lum bo'lib qoldi. Jumladan, salibchilar Reyn daryosi buyidagi shaharlardan o'tib keta turib, u yerlarda (Kyolnda, Mayntsa va boshqa shaharlarda) talon-tarojlik uyushtirdilar. Keyin ular Vengriya va Bolgariya singari mamlakatlar orqali o'tib, bu yerlarda ham talonchilikni davom ettirdilar. Salibchilar olomoni Konstantinopolga kelib kirgach, imperator ularning tartibsizlik ko'rsatishi va zo'ravonlik qilishidan xavfsirab, ularni Kichik Osiyo sohiliga jo'natib yuborishga shoshildi. Kichik Osiyo sohilida salibchilar olomoni tez orada turk qushiniga to'qnash keldi va u salibchilarning ko'pchilik qismin qirib tashladi. Shunday qilib, salibchilarning Sharqda qilgan yurishi batamom mag'lubiyatga uchradi.

1096 -yilning kuzida ritsarlar, asosan fransuz va italyan ritsarlari, qisman G'arbiy Germaniya ritsarlari jo'nab ketdilar. Bu yurishga Quyi Lotaringiya gertsogi Gotfrid Bulonskiy boshchilik qilib, uzi bilan birga Sharqda ikkita ukasi — Bolduin bilan Evstafiyni olib ketdi, Shimoliy fransuz feodallariga Normandiya grafi Robert hamda Flandriya grafi Robert boshchilik qildilar, janubiy fransuz feodallari Tuluziya grafi Raymundni o'zlariga yulboshchi qilib oldilar. Janubiy fransuz yepiskoplaridan biri, papa tomonidan cherkov vakili (legati) qilib tayinlangan yepiskop Ademar ham ularga hamroh bo'ldi. Tarentiya gertsogi Boemund janubiy Italiya feodallariga boshchilik qildi, jiyani graf Tankred unga hamrohlik qildi.

Ritsarlar ham Sharqda Konstantinopol orqali ketgan bo'lsalar-da, lekin turli yo'llar bilan bordilar. Ba'zilar Pyotr Amenskiy rahbarligidagi dehqonlar otryadlari bosib o'tgan eski yo'ldan, ya'ni Reyn-Dunay daryolari bo'yidan bordilar. Boshqa

otryadlar Shimoliy Italiya orqali o'tib, so'ngra Bolqon yarim orolidan Adriatika dengizi sohili bo'ylab ketdilar. Uchinchi otryadlar, butun Italiyani bosib o'tib, keyin Kalabriyadan kemalarga tushib Bolqon yarim oroliga qarab ketdilar va bu yerdan Konstantinopolga bordilar. Birinchi yurishda jami bo'lib 30-40 mingtacha ritsar qatnashdi. Ammo ular huzurida ko'pgina yarog'bardorlar, xizmatkorlar, har qanaqangi savdogarlar bor edi; birinchi salib yurishidan omon qolgan dehqon lashkarlari ham ritsarlarga kelib qo'shildilar.

1097- yil bahoridagina Konstantinopolga batamom yig'ilib bo'lgan feodal-salibchilar Vizantiya imperatoriga qasamyod qilishdan bosh tortib, uzoq vaqtgacha qaysarlik qilib yurdilar. Salibchilar Sharqda turklardan urushib olinadigan yerlarni Vizantiyaga beramiz, deb imperator oldida va'da berishni sira istamas edilar. Nihoyat ritsarlar zimdan va'dalarining ustidan chiqishni o'ylamasalarda, har qalay qasamyod qildilar.

Shundan keyingina, 1097- yil yozida, ritsarlar lashkari Kichik Osiyoga o'tkazib yuborildi. Bu yerda salibchilar Dorileya yonida bo'lgan jangda turklarni majaqlab tashladilar, shundan keyin ular janubi-sharqqa, Falastin tomonga qarab ketdilar. Chidab bo'lmaydigan jazirama issiqda tog'lik yo'llardan o'tish ular uchun g'oyat mashaqqatli bo'ldi. Salib qatnashchilarining ko'plari yo'lda halok bo'ldi. Agar salibchilar Shimoliy Suriya chegarasida ittifoqchilarga duch kelmaganlarida, bu yurish tamomila barbod bo'lgan bo'lur edi. Bu ittifoqchilar armanlar bo'lib chikdi. Kichik Armaniston deb atalgan o'lka (Kilikiyada) salibchilar yordamidan manfaatdor edi, chunki u Vizantiya bilan ham, turklar bilan ham g'oyat darajada dushmanlik munosabatida edi. Yevropa feodallaridan biri — Balduin (Gotfridning ukasi) tez orada Edessa knyazi, boshqasi— Suriya bilan Mesopotamiya chegarasidagi Armanistonning knyazi bo'lib oldi. Salibchilarning Edessani bosib olishi strategiya jixatidan muhim edi, chunki Edessa Suriya bilan Falastinni shimol tomondan turklar hujumidan qo'riqlab turardi.

1098- yil yozida salibchilar «Sharq poytaxti»— Antioxiyani bosib oldilar, Boemund Tarenskiy Antioxiyaga



Kuddus kamali

knyaz bo'lib oldi. Uchinchi yirik feodal — Raymund Tuluzskiyga Tripoli o'lkasi (Antioxiyaning janubida) tegdi. Nihoyat, 1099 yil yozida salibchilar Quddusga yetib bordilar.

1099- yilning 15- iyulida ular Quddusni qo'lga kiritdilar. Salibchilar shaharni qattiq taladilar va aholisining katta qismini, musulmonlarni ham, xristianlarni ham ayamay vahshiylarcha qirib tashladilar. Bu istilolar natijasida salibchilar O'rta dengizning butun sharqiy sohilini, ya'ni ilgarigi Finikiya, Suriya va Falastinni egalladilar. Quddus, Antioxiya, Tripoli, Edessa, Tir, Sidon, Akra shaharlari ularning qo'lga o'tdi. Salibchilarning shimoldan janubga tomon tor mintaqa bo'lib cho'zilib ketgan mulklarining uzunligi 1200 km ga etar edi.

Quddus qirolligi. Salibchilar bosib olingan hududlarda o'z davlatlarini tuzdilar. Bu davlat Quddus qirolligi deb ataldi. Bu davlatga dastlab Gotfrid Bulonskiy qirol qilib saylandi, ammo Quddus qirolligi Balduinning vorislari zamonida (1100—1118) qat'iy rasmiylashdi. Balduin Edessa knyazligini Balduin Burshekiy degan boshqa feodalga berdi.

Quddus qirolligi o'ziga xos «namunali» feodal davlati edi. Yevropaning hech bir joyda, Sharqdagidek, feodal erarxiyasi printsipli bu qadar izchillik bilan amalga oshirilmagan edi. Falastinni bevosita idora etgan Quddus qirolligidan tashqari, shu qirollikning vassal davlatlari sifatida yana uchta yirik knyazlik: Antioxiya knyazligi, Tripoli va Edessa grafliklari bor edi. Bularning har biri ma'lum miqdorda - baronliklarga, baronliklar esa o'z navbatida ritsarlik lenlarga bo'lingan edi.

Quddus qirollikda maxsus tartib shakllantirilib, u kichik feodallarning o'z senor-baronlariga va baron ham knyazlarning qirolga nisbatan bo'lgan munosabatlarini yo'lga solib turadigan bo'ldi. Bu konstitutsiya Quddus assizlari deb nom oldi. Assizlarda ritsarning bir yilda necha kun urushda xizmat qilib berishi belgilangan edi. Feodallarning meros qoldirish tartiblari belgilandi. Assizlarga muvofiq qirol hokimiyati saylab qo'yiladigan va cheklangan hokimiyat edi. Qirolni eng katta

feodallar kengashi saylar edi, bu kengash Oliy palata deyilardi. Oliy palata, ayni zamonda, feodallarning da'vo va baxslarini tekshirib hal etuvchi oliy sud hisoblanardi. Knyaz va baronlarning bu palatasidan tashqari, qirol o'ziga birorta ham muhim qaror qabul qila olmasdi.

Quddus qirolligidagi barcha yer-mulklar harbiy xarakterga ega bo'lib, ya'ni feodallardan iborat edi. Shunday qilib Yevropaliklar Sharqda feodal munosabatlar ko'zga yaqqol tashlanadigan, klassik shakldagi davlat barpo etdilar.

Biroq Sharqda barpo etilgan yangi davlat mustahkam emas edi. Qirol hokimiyati zaif edi. Ritsarlar o'zboshimcha va intizomsiz edilar. Mahalliy aholi zolim «franklar»ni yomon ko'rardi (Sharqda barcha Yevropaliklarni fransuzlar nomi bilan ana shunday deb atardilar).



Falastindagi salibchilar qasri

Ritsarlar hatto qishloqlarda mahalliy aholi orasida yashamas ham edilar. Ular shaharlarda, qisman yangidan qurilgan qaslarda istiqomat qilib, hech qanday ro'zg'or (xo'jalik) yuritmasdilar va faqat dehqonlardan olinadigan pul rentasi bilangina tirikchilik o'tkazardilar. G'arbning katolik ruhoniylari kattagina yer-mulklarga ega bo'ldilar. Quddusning lotin (katolik) patriarxi qirollikda qirol dan keyin ikkinchi shaxs hisoblanardi. Salibchilarning istilolari natijasida Italiya shaharlari katta-katta foydalar ko'rdi. Genuyaliklar bilan venetsiyaliklar Suriya va Falastindagi butun savdo-sotiq ishlarini o'z qo'llariga kiritib olib, arablar bilan vizantiyaliklarni ikkinchi o'ringa surib quydilar. Shahar atrofidagi yer-mulklarning bir qismini ham ana shu genuyaliklar bilan venetsiyaliklar oldilar. Feodallarning aksincha, Italiya shaharliklari o'z qo'llariga kiritib olgan yerlarda xo'jalik bilan shug'ullanadigan bo'ldi. Shaharliklar bu yerlarda eng qimmatli ekinlar (paxta, shakar qamishi, zaytun o'simligi va x. k.) plantatsiyalari barpo etib, ko'proq ishchi kuchi sifatida qullardan foydalanardilar.

Diniy-ritsarlik ordenlari. Salibchilar Sharqda mudofaani tashkil qilish, uchun o'ziga xos doimiy qo'shin tuzishga majbur bo'ldilar.

1099—1100 yillarda birinchi salib yurishi tamom bo'lgandan keyin ritsarlarning bir qismi Yevropaga qaytib ketdi. Falastinda hammasi bo'lib bir necha ming ritsar qoldi, xolos. Shundan keyin bu ritsarlarga yordam tariqasida diniy-ritsarlik ordenlari barpo etildi. Bular ayni bir vaqtda ham monaxlar, ham ritsarlar bo'lib xizmat qildilar. Ularning maxsus monaxlik ustavi va ayni zamonda, alohida diniy va harbiy boshliqlari — ordenlarning magistrarlari bor edi. Ordenlar bevosita papaga bo'ysunardi. «Ritsar-birodarlar» ritsarlik yaroq-aslahalari ustidan alohida monaxlik plashlari — mantiyalari kiyib yurardilar. Ammo qolganlari chinakam ritsarlar bo'lib, ular odatda harbiy ta'lim ko'rgan, ajoyib chavandoz hamda qilich va nayzani mohirona ishlata biladigan kishilar edi. Odatda bu odamlar ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan ko'proq ritsarlar oilasiga mansub shaxslar edi.



Tampliyerlar ordeni
ritsari

Falastinda va Yevropaning turli mamlakatlarida ordenlarni yer-mulklarni bo'lib, ular shu yer-mulklardan keladigan daromadlar hisobiga yashardilar. Sharqda uchta orden tashkil etildi. 1119 -yilda birinchi bo'lib tampliyerlar yoki ibodatxona ahllari (fransuzcha temple—ibodatxona degan fransuz ordeni tashkil, bo'ldi, chunki orden binosi, rivoyatlarga ko'ra, qachonlardir podsho Salomonning qadimiy yahudiylar ibodatxonasi joylashgan hududlarda bo'lgan.

Tampliyerlar ordeni tashkil bo'lgandan keyin, tez orada shunga o'xshash, gospitalyerlar yoki ionnitlar (o'z homiysi avliyo Ioann sharafiga) degan italyan ordeni bunyodga keldi. Dastlabki paytlarda gospitalyerlar haqiqatan o'z oldilariga ziyoratchilar davolanadigan gospitallarda — kasalxonalarda xizmat qilishni maqsad qilib qo'ygan edilar. Keyinroq 1190- yilda nemislarning uchinchi bir ordeni ta'sis etilib, u Nemis yoki Tevton ordeni deb ataldi. Bu orden boshqa ordenlardan ancha keyinrok, barpo etilib, u Falastinda uncha uzoq turmadi. XIII asr boshida Tevton ordeni Yevropaga ko'chib o'tib, quyi Visla daryosi qirg'oqini o'ziga makon qilib tanlab oldi, polyak feodallari mahalliy «majusiylar»ga — prusslarga qarshi kurashish

uchun Tevton ordenni bu yerga taklif etgan edilar. Tevton ordeni Prussiyani istilo etib va shuning oqibatida «Tevton» ordeni degan nom o'rniga «Pruss» ordeni degan nom olib, u Boltiq bo'yida anchagina badavlat davlatga aylandi va keyinchalik Polsha qirolligining o'zining mustaqilligiga jiddiy xavf tug'dira boshladi.

Salib yurishlarida Yevropa qirollarining ishtiroki. Quddus qirolligi diniy-ritsarlik ordenlari tarzidagi qo'shimcha kuchga ega bo'lishiga qaramay, uning ahvoli juda nochor edi. XII asrning 30—40- yillarida Quddus qirolligi eng kuchli qirollikka aylangan edi. Ammo 1144- yilga kelib uning yerlarining anchagina kismini (Kichik Armaniston va Edessani) turklar bosib oldi. Quddus qiroli turklarga qarshi Yevropadan yordam berish uchun yangi ritsarlarni chaqirishni so'rab papaga murojaat qildi. Unga javoban, 1147—1149 yillarda ikkinchi salib yurishi uyushtirildi. Ikkinchi salib yurishida fransuz qiroli Lyudovik VII va german imperatori Konrad III ham qatnashdilar. Lekin yurishga tortilgan harbiy kuchlar ancha ko'p bo'lishiga qaramay, bu yurish butunlay muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. Salibchilar Quddusga xavf solayotgan Damashqni qo'lga olmoqchi bo'ldilaru, lekin uddasidan chiqa olmadilar. Quddus qirolligining ahvoli yaxshilanmadi. XII asrning ikkinchi yarmida uning ahvoli yana battar yomonlashdi. Salibchilar Quddus shaharining o'zini qo'ldan boy berib qo'ydilar. Kurdlardan chiqqan sulton Salohiddin boshliq turklar 1187- yilda Quddusni bosib oldi. Salohiddin (1171—1193) markazi Misr bo'lgan katta davlat barpo etdi. U butun Misrni, Suriyaning bir qismini, Mesopotamiyaning bir qismini egalladi va Quddus qirolligini batamom tugatishga harakat qildi.

Salohiddinga qarshi Yevropada yangi, uchinchi salib yurishi (1189—1192) tashkil qilindi. Uchinchi salib yurishi keng o'ylanilgan tadbir edi. Bunda Yevropaning uchta davlati: fransuz, ingliz va german davlatlari qatnashdi. German imperatori bu vaqtgacha Italiyada ko'pgina urushlar olib borgan, Shtaufenlar sulolasiga mansub bo'lgan mashhur Fridrix I Barbarossa edi. Ammo Barbarossa Suriyaning tog'idan oqib o'tadigan daryosidan kechib o'tish paytida 1190- yilda suvga g'arq bo'lganligi uchun Falastingacha yetib bora olmadi. Qioldan judo bo'lgan nemis otryadlarining katta qismi Yevropaga qaytib ketdi. Boshqa ikki qirol — fransuz qiroli Filipp II Avgust bilan ingliz qiroli Richard I Sheryurak bir-birlariga

azaldan dushman edilar. Ular Falastinga u qadar hamjihatlik bilan harakat qilmadilar. Har ikki qirolning biri ikkinchisiga ishonmasdi.

Richard I Sharqdagi urushda ancha faollik ko'rsatdi. U avvalo katta Kipr orolini bosib ola bildi, shundan so'ng ingliz qo'shinlari fransuz qo'shinlari bilan birgalikda O'rta dengiz sohilidagi muhim Akra qal'asini qamal qildilar (1191- y.). Akra ittifoqchilar tomonidan olindi. Lekin, shundan so'ng, Filipp II Avgust Falastinni tashlab o'z yurti — Fransiyaga qaytib ketdi. Richard Falastinda yana bir yil turib qoldi. Yaffa yonidagi jangda (1192- yil avgust) Richard Salohiddinga jiddiy zarba berdi. Lekin Quddusni olishga muvassar bo'lolmadi. U Saloxiddin bilan shartnoma tuza oldi. Bu shartnomaga ko'ra Yevropalik ziyoratchilar xristianlarning muqaddas shaharlari hisoblangan Quddus, Vifleem, Nazaret va boshqa joylarga bemalol boradigan bo'ldilar.

Uchinchi salib yurishining eng muhim natijasi, yuqorida eslatib o'tilganidek, Kipr orolining G'arbiy Yevropaliklar tomonidan istilo etilishi bo'ldi. Keyinchalik Quddus qirol o'z saroy ahllari bilan birga Akradan bu erga ko'chib keldi. Salibchilarning barcha yer-mulklari ichida Kipr qirolligi eng mustahkam qirollik bo'lib chiqdi. Bu qirollik XV asrning ikkinchi yarmigacha, ya'ni 250 yil yashadi.

To'rtinchi salib yurishi. Kichik Osiyo shimolidagi imperiyaning bir qismi Trapezund mustaqil bo'lib qolaverdi. Bolqon yarim orolida Epir mustabidligi (knyazligi), Latin Amerikasi nazaridan tashqarida qoldi.

Vizantiyaning istilo etilmagan uchta hududidagi eng yirik Nikeya imperiyasining imperatori Mixail VIII Paleolog latinlar zulmi ostida yashagan yunonlarning xayrixoxligiga tayanib, 1261- yilda Konstantinopolni bosib oldi va u yerdan salibchilarni haydab yubordi. Vizantiya imperiyasi ana shu tariqa qaytadan tiklandi. Lekin qaytadan tiklangan Vizantiya endi kuchsizlanib qolgan davlat edi. To'rtinchi salib yurishi Vizantiyani yo'q qildi. Vizantiya qayta tiklangandan keyin uning Bolqon yarim orolidagi va Kichik Osiyoning kambar qismidagi mulklarining ancha-munchasi cheklanib qolgan edi. To'rtinchi salib yurishi boshlanishidan burunroq, Vizantiyaga qaram holda yashagan bolgarlar 1186— 1187 yillarda uning

zulmidan xalos bo'lgan edilar; Serbiya mulklari ham taxminan shu vaqtlarda Vizantiyadan ajralib chiqqan edi.

So'nggi salib yurishlari. Hammasi bo'lib sakkiz marta salib yurishlari bo'ldi. Lekin dastlabki to'rtta salib yurishi eng muhim deb xisoblanadi. Keyingi to'rtta salib yurishida kishilar uncha ko'p qatnashmagan, shuningdek, umumYevropa xarakteriga ega bo'lmagan yurishlar edi. Bu yurishlarda ayrim podsholar va alohida mamlakatlar ishtirok etgan edi. Beshinchi yurish (1217—1221)ning shunisi qiziqki, uning tashkilotchilari to'rtinchi yurish qatnashchilarining dastlabki rejasini qandaydir amalga oshirmoqchi bo'ldilar. Beshinchi salib yurishi qatnashchilari dastlab Falastinda urush harakatlari olib bordilar, keyin ular bu urush harakatlarini Misrga ko'chirdilar. Salibchilar Misrda Damietta shaxrini bosib oldilar, lekin keyin muvaffaqiyatsizlikka uchrash natijasida qilari qo'lga kiritgan Nil vodiysining bir qismini bo'shatib chiqishga majbur bo'ldilar. Falastinda urush harakatlari olib borilgan dastlabki bosqichda Vengriya qiroli Andrey II katta rol o'ynadi.

Oltinchi yurish (1228—1229) Fridrix I Barbarossaning nevarasi—Fridrix II Shtaufening Sharqqa qilgan yurishi edi. Ammo bu safar ham biror-bir arzigulik keng urush harakatlari olib borilgani yo'q. Fridrix II kuch ishlatib emas, balki ko'proq diplomatik yo'l bilan Quddusni va boshqa ba'zi bir shaharlarni qaytarib olishga muvassar bo'ldi. Ammo tez orada (1244- yilda) turklar Quddusni yana qaytarib oldilar va xristianlar uni endi batamom aqlan chiqardilar.

Yettinchi va sakkizinchi salib yurishlari fransuz qiroli Lyudovik IX tomonidan uyushtirilib, ular fransuzlarning Shimoliy Afrikadagi ta'sirini mustahkamlamoqchi bo'lgan edilar. Lyudovik IX ham ettinchi yurishda (1248—1254) Misrga hujum qildi, lekin bu hujum yana muvaffaqiyatsiz chiqdi. Uning o'zi asir tushib qoldi va bu asirlikdan qutulish uchun katta haq to'lashi lozim bo'ldi. Fransuzlarning bundan keyingi (1250- yildan boshlab) qilgan urush harakatlari ham hech qanday natija bermadi.

Sakkizinchi yurishda (1269—1270) Lyudovik Tunis shahrini qamal qilish uchun zo'r berib kuch to'pladi, bundan muddao Afrikada urush harakatlarini yanada davom ettirish uchun tayanch bazasiga ega bo'lish edi. Ammo Tunisni qamal qilish

paytida fransuzlar lagerida o'lat kasali boshlanib, ko'plar qatorida qirolning o'zi ham halok bo'ldi. Bu yurish Yevropaliklarning so'ngi yirik harbiy ekspeditsiyasi bo'lib, u salibchilik harakati bayrog'i ostida Yaqin Sharqdagi musulmonlar joylashgan hududlarni bosib olishni maqsad qilib qo'ygan edi. Shundan keyin Sharqqa qilinadigan yurishlar to'xtadi. Salibchilarning er-mulklari birin-ketin qisqarib, turklar qo'liga o'ta boshladi. 1268- yilda turklar Antioxiyani, 1289- yilda — Tripolini, 1291- yilda — Akrani oldi. XV asrning ikkinchi yarmida Kipr oroli venetsiyaliklar qo'liga o'tdi.

Salib yurishlarining ahamiyati. Harbiy ekspeditsiyalar sifatidagi salib yurishlari batamom muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. Yevropa feodallari Sharqda mustahkam davlat barpo eta olmadilar. Istilo qilingan deyarli barcha hududlarni qoldirib ketishga to'g'ri keldi. Ritsarlar Sharqni tashlab chiqib ketdilar. Bir qancha sabablar shunga majbur etdiki, Yevropa feodallarida yangi salib yurishlari uyushtirish ishtiyoqi qolmadi. XIII asr oxiriga kelib, Yevropada siyosiy vaziyat tamomila o'zgardi. Vujudga kelgan milliy davlatlar bir-birlari bilan shiddatli va uzoq davom etgan urushlar boshlab yubordilar; ritsarlar o'z harbiy hunarlarini Yevropaning o'zida ham qo'llanish imkoniga ega bo'ldilar. Ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi va tovar-pul munosabatlarining yanada rivojlanishi bilan ritsarlar o'z dehqonlarini ishlatib katta-katta daromadlar oladigan bo'ldilar, ritsarlarning bir qismi (masalan, Angliyada) qishloq xo'jaligi bilan tunu kun shug'ullana boshladi. Yaqin Sharq aksincha, bu vaqtda salibchilar tomonidan talangan va xarob etilgan edi. XIII asrda mug'ullarning O'rta Osiyoga bostirib kirishi Yaqin Sharqning ahvolini yana battarroq yomonlashtirib, Hindiston va Xitoy bilan savdo-sotiq aloqalarini qiyinlashtirib qo'ydi. Shunday qilib, G'arbiy Yevropa feodallari nazarida Sharq ham o'zining avvalgi jalb qiluvchi kuchini yo'qotib qo'ygan edi. Salib yurishlari bu feodallarning havasini keltirmaydigan bo'ldi.

Harbiy muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, har qalay, salib yurishlarining G'arbiy Yevropa taraqqiyoti uchun ahamiyati g'oyat katta bo'ldi. Avvalo, salib yurishlari O'rta dengiz bo'yi mamlakatlarida Yevropa savdo-sotig'ining rivojlanishiga yordam berdi. Bu salib yurishlari natijasida arab va vizantiyalik

savdogarlarning Yaqin Sharqdagi savdo monopoliyasi qattiq zarbaga uchradi va bu yerlarda Italiya, janubiy Fransiya va sharqiy Ispan (Kataloniya) shaharlari gegemoniyasi o'rnatildi. Endilikda bu shaharlar Sharq bilan Yevropaning qolgan qismi o'rtasida vositachilik rolini o'ynaydigan bo'ldi. Salib yurishlari vaqtida G'arbiy Yevropaning Sharq bilan savdo-sotiq aloqalari muntazam bir yo'lga tushgan edi. Levantiya savdosi (Yevropada uni shunday deb atardilar) G'arbiy Yevropa ekonomikasining uzviy bir qismi bo'lib qolgan edi. Salib yurishlarining boshlarida Sharqdan keltiriladigan tovarlar miqdori shu yurishlar oxiriga kelib o'n marta ko'paydi.



Falastindagi salibchilar qasri

Venetsiya bilan Genuya O'rta dengizning sharqiy yarmigacha, to Shimoliy Qora dengiz sohiligacha kirib bordilar va u yerlarda ko'pdan-ko'p savdo faktoriyalari barpo qildilar. So'ngra, salib yurishlar Yevropaliklarning Sharqning sanoat va qishloq xo'jalik texnikasi bilan tanishishlariga imkon berdi.

Yevropaliklar shu davr ichida Sharq to'qimachilik va metallurgiya ishlab chiqarishining, bo'yoqchilik ishining, atir-upa va dorivorlar tayyorlash ishining ko'pgina usullarini o'rgandilar, shuningdek, grechixa, shafran (za'far), sholi va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini Yevropaga olib ketdilar.

Sharq maishiy masalada Yevropaliklarga katta ta'sir ko'rsatdi. Ritsarlar Sharqning nozik odatlarini, saroy mulozamat («nazokati») qoidalarini o'zlashtirib oldilar, o'zlarining badan, yuz, sochlarini yaxshilab parvarish qiladigan bo'ldilar. Vannalarda va yaxshi jihozlangan hammomlarda yuvinish odat tusiga kirdi. Ritsarlik qasrlarida va shahar xonadonlarida Sharqdan keltirilgan ajoyib yangi shaxmat o'yini paydo bo'ldi.

Sharq bilan yaqin aloqa qilish natijasida Yevropaliklarning saviyasi sezilarli darajada kengaydi. Sharqda madaniy xalqlar bor ekanligini ilgari ular xayollariga ham keltirmagan edilar. Dag'al diniy fanatizm (mutaassiblik) mafkurasini qurol qilib

olib, salib yurishlar boshlagan ko'pgina g'arbiy Yevropalik feodallar va savdogarlar Sharq hayoti bilan tanishganlaridan keyin, boshqa dinlarga ancha-muncha yo'l qo'yadigan bo'ldilar. Yevropaliklar xristian dinini musulmon dini bilan taqqoslab ko'rib, xristian dinining o'ziga va xususan salib yurishlari davrida o'rta asr papaligi tomonidan bevosita amalda qo'llanilgan teokratik g'oyaga nisbatan ba'zi bir tanqidiy andisha va mulohazalarga kela bildilar.

Ammo salib yurishlarining G'arbiy Yevropaga ko'rsatgan ta'siri haqida gapirilar ekan, Arablar Sharqining madaniyati salib yurishlaridan tashqari, boshqacha yo'llar bilan, jumladan, Ispaniya orqali Yevropaga o'tib kirganligini ham unutmaslik kerak. Ispaniya arablari yoki mavrlar G'arbiy Yevropani arab madaniyatining bir qancha juda muhim tomonlari bilan tanishtirgan edilar. Vizantiyaning butun o'rta asr davomida Italiya, ayniqsa Venetsiya orqali ko'rsatgan ta'siri bilinib turardi. Ikkinchi tomondan, G'arbiy Yevropaning o'zi XI—XIII asrlar davrida o'zining ishlab chiqaruvchi kuchlarining o'sishi jarayonida yangi ijtimoiy, siyosiy va madaniy formalar yaratdiki, salib yurishlari bu formalarning rivojlanishiga faqat bilvosita ta'sir kursatishi mumkin edi, xolos. Chunonchi, dehqonlarning krepostnoy qaramlikdan ozod bo'lishi, markazlashgan davlatlarning rivojlanishi, shaharlarning ravnaq topishi Yevropadagi tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos jarayonidan boshqa narsa emas edi. Salib yurishlari keyingi o'rta asr Yevropasi hayotidagi bu eng muhim xodisalarning rivojini tezlatdi, xolos.

Tayanch so'z va iboralar: mahorat huquqi, salib yurishi, diniy ritsarlik ordenlari, assizlar, Lotin imperiyasi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Salib yurishlarining shart-sharoitlari qanday kashfiyotlarda ko'rinadi?
2. Diniy ritsarlik ordenlarining ustavi va faoliyat mazmuni nimalardan iborat?
3. Bolalar salib yurishini tashkil qilishdan maqsadi nima edi?
4. Yevropa qirollarining salib yurishlaridagi ishtirokini izohlab bering.

5. Salib yurishlari haqida qanday manbaalar, hujjatli va badiiy filmlar va asarlarni bilasiz?

Glossariy:

Ritsarlar (nem, Ritter, dastlab — chavandoz) — oʻrta asrlarda Gʻarbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarida imtiyozli ijtimoiy qatlam.

Mahorat (lot. major — katta) — koʻchmas mulk (yer, uy-joy va b.)ni meros qoldirish tizimi. Bunga koʻra, yer-mulkka egalik qilish huquqi eng katta oʻgʻilga yoki yoshi ulugʻ qarindoshga oʻtgan.

Orden (lot. ordo — qator, daraja) — Birinchi salib yurishidan keyin Quddus qirolligida ritsarlar alohida kiyim bosh kiyib, boʻyinlariga qimmatbaho metalldan yasalgan krest taqib yurishgan, bu ularning muayyan ritsarlik tashkiloti (ordeni)ga tegishlilikini bildirib turgan.

Tevton ordeni - tevtonlar qadimgi german qabilalari. Nemis ordeni — katolik diniy-ritsarlik harbiy tashkiloti.

35-§. XI - XV asrlarda Fransiya

G'arbiy Yevropada siyosiy markazlashishning boshlanishi. XI asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran shaharlarning va tovar pul xo'jaligining rivojlanishi zaminida G'arbiy Yevropada siyosiy markazlashish jarayoni boshlandi. Parchalanib ketgan davlatlarni birlashtirish, qirol hokimiyatini mustahkamlash va kuchaytirish jarayoni yuzaga keldi. "Tenglar o'rtasida birinchisi"gina bo'lgan qirollikdan iborat shaklsiz feodal monarxiyasi asta-sekin, ancha markazlashgan va tartibga tushgan toifaviy monarxiyaga aylanib, XV-XVI asrlarda esa mutlaqo monarxiyaga o'tdi.

G'arbiy Yevropaning ikkita mamlakatida – Angliyada va Fransiyada markazlashgan davlatlar juda tez tarkib topdi. Bu mamlakatlarda siyosiy markazlashish jarayoni, asosan XIII - XV asrlardayoq tugallanadi.

Fransiyada ham, Angliyada ham birlashish jarayoniga qulaylik tug'dirgan tarixiy shart-sharoit, avvalo, har ikkala mamlakatdagi sanoat, savdo-sotiq sohasida, shaharlar va ichki bozorning tashkil topishida iqtisodiy rivojlanish jadallik bilan borishi bo'ldi. Mamlakatni turli rayonlari bilan bog'langan yirik shaharlarning, jumladan, Parij va London shaharlarining ertaroq vujudga kelishi siyosiy jihatdan markazlashishni ayniqsa engillashtirdi. U yoki bu mamlakatda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi zaminida kuchli uchinchi toifa – shaharliklar maydonga keldi. Aholining barcha guruhlari orasida shaharliklar tarqoq feodal monarxiyasini tepaga chiqarishga va mamlakatda mustahkam "qirollik osoyishtaligi"ni ta'minlashga qurbi etadigan markazlashgan qirollikka aylantirishdan juda manfaatdor edilar.

XI-XIII asrlarda Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti. XI, XII va XIII asrlarning ikkinchi yarmida Fransiyada ishlab chiqaruvchi kuchlarning juda tez rivojlanganligi ko'rildi. Dehqonchilik ancha o'sdi. Yerning bir qismi bir juft xo'kiz qo'shilgan g'ildiraksiz yengil plug bilan yaxshilab xaydalar edi. Bug'doy, javdar, suli, arpa va boshqa boshqali ekinlar hosili ko'payib, ekilgan urug'likka qaraganda besh va hatto olti hissa ortiq g'alla yig'ib olinadigan bo'ldi. Bog'dorchilik, polizlarning o'sishi bilan ozuqa mahsulotlari - non, go'sht, sabzavot va boshqalarga,

shuningdek, turli qishloq xo'jalik xomashyosiga (jun, zig'ir, teri va xakazolarga) bo'lgan talab ko'paydi. Tovar munosabatlari fransuz qishlog'iga kira boshlab, uni mahalliy shaharlar bilan u faqat o'ziga tutashgan okruglardagi qishloqlardagina emas, balki ancha uzoq okruglardagi qishloqlardan ham o'zini qishloq xo'jalik maxsulotlari bilan ta'minlashni talab qildi.

XI-XIII asrlarda Fransiya shaharlari katta yuksalishni boshidan kechirdi. Janubdagi shaharlarning ko'pchiligi, shu jumladan, ko'pgina ko'xna Rim shaharlari, ancha katta sanoat markazlariga aylanibgina qolmay, balki ular Italiya va Yaqin Sharq (Levant) bilan ham qizg'in savdo-sotiq olib bordilar. Bular orasida Marsel, Tuluza, Mopele, Narbonna alohida ajralib turardi. Ayni zamonda shimolda va shimoliy-sharqda Amen, Suasson, Lan, Sanlis, Bove, Ruan, Reyms, Trua va boshqa ko'pgina shaharlar o'sib chiqdilar va sanoatning muhim markazlariga aylandilar. Bu shaharlarda movut va kanop gazlamalari etishtirilardi, mo'yna ishlanardi, temir, qalayi, kumush, emal boshqalardan turli metall buyumlar tayyorlanardi. Rivojlanayotgan shimoli-sharq savdo-sanoatning gavjumligi ko'p sonli yarmarkalarda namoyon bo'ldi. Shamapanning turli shaharlarida -Truada, Provenda, Brida, Lanida va boshqa joylarda deyarli butun yil bo'yi savdo-sotiq qilinar edi. Umuman, savdo oborotlarining miqyosi va tashqi savdoda ishtirok etish jihatdan Fransiyaning shimoli-sharqiy viloyatlari janubiy shaharlariga qaraganda hali orqada edilar. Ammo, ikkinchi tomondan, shimoldagi xunarmandchilik ishlab chiqarishi janubdagiga nisbatan kamroq rivojlangan edi. Shimoli-sharqning savdo-sotiq munosabatlari qisman xalqaro ayirboshlash (Germaniya, Niderlandiya, Shimoliy Italiya bilan savdo-sotiq qilish), qisman shimoli-sharqiy viloyatlar o'rtasidagi ichki ayirboshlash xarakteriga ega edi, shuning o'zi bilan Sharqiy Fransiyaning keng ichki bozoriga asos solindi. Ana shu ichki bozor zaminida kelajakda umumfransuz milliy bozori vujudga kelishi lozim edi. Parij ko'proq savdo va sanoat markazi ahamiyatiga molik bo'lib, bunga faqat shimoliy va shimoli-sharqiy viloyatlargina emas, balki shimoli-g'arbiy va g'arbiy rayonlar ham yaqinlasha boshladilar. Qirollik poytaxtining Sena, Marva va Luara singari buyuk daryo havzasida joylashganligi uni shakllanayotgan milliy, iqtisodiy, til va madaniy aloqalarning tabiiy markaziga

aylantirdi. XI-XIII asrlarda Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyotida nimalar muhim rol o'ynadi.

Birinchi Kapetinglarning idora qilishi. Birinchi Kapetinglar hokimiyati dastlab tamomila zaif edi. X va XI asrlarda Fransiya va G'arbiy Yevropaning eng tarqoq monarxiyalardan biri edi. Qirol bu yerda knyaz-feodallaridan birining, hattoki kuchli bo'lmagan knyaz-feodalning oddiygina o'rnini egallardi. Ko'pgina qo'shni yirik feodallar o'zaro raqibligi, cherkovning, keyinroq esa shaharlarning Kapetinglarni qo'llab-quvvatlashi, bu sulola vakillarining ustalik qilib, ohista siyosat yurgizishi qo'ldan chiqarmay, balki uni nasldan-naslga meros qilib qoldirish imkonini berdi. Qirol o'zining merosiy domenida - Il de Frans gertsogligida ozmi-ko'pmi xo'jayin edi. Bu nisbatan kambag'al mintaqaga bo'lib, shimoldan janubga qarab cho'zilib ketgan va ammo ikkita kattagina shaharni –Parij bilan Orleanni o'z ichiga olgan edi, shu bilan birga, bu territoriyaga boshqa mulklar ham suqilib kirgan edi.

Qirol domeni (yurti) territoriyasi Fransiyadagi ikki muhim daryoning, ya'ni Sena bilan Luara daryosining o'rta oqim bo'ylaridagi yerlarni o'z ichiga olsa-da, lekin bu daryolarning mansablari, quyi va yuqori oqimlari bo'ylaridagi joylar boshqa feodallarga qarashli edi. Qirol domenini halqa qilib o'rab olgan eng yirik feodal knyazlik mulklari quyidagilar edi: shimolda-Flandriya grafligi, Normandiya gertsogligi va Akvitanিয়া gertsogligi, janubda –Overn grafligi va so'ngra Tuluza (Lagedok) grafligi bor edi, sharqda-Shampan grafligi va Burgundiya gertsogligi bor edi. Bu eng yirik gertsoglik va grafliklardan tashqari kichik miqyosda o'nlab boshqa mustaqil feodallar yerlari ham bor edi. Bu yirik gertsoglik va grafliklardan tashqari, kichik miqyosda o'nlab boshqa mustaqil feodal yerlari ham bor edi. Hatto qirol o'ziga qarashli domenda ham mahalliy baronlarga qarshi qattiq kurash olib borardi. Qirol Parijdan Orleanga borganida uni ko'pdan-ko'p qurolli mulozimlar albatta kuzatib borishlar kerak edi. Hokimiyatni otadan o'g'ilga meros qilib qoldirish odatini saqlamoq uchun Kapetinglar asrlar davomida va hatto XII asrning birinchi yarmida ham qirol valiahdiga o'zi hayot vaqtidayoq toj kiygizish urf-odatini bajarar edi. “Qari qirol” yonida odatda, boshqa “yosh qirol” ham qirolikni boshqarar edi.

Qirol hokimiyatining kuchaya boshlashi. XII asrning birinchi yarmidagina Lyudovik XI va Lyudovik XII hukmronlik qilgan davrda qirol hokimiyati bir qadar yuksala boshladi. Lyudovik VI Semiz (1108-1137) deyarli butun o'ttiz yillik hukmronlik davrini o'z domenidagi baronlarga qarshi kurash bilan o'tkazib, pirovardi ularni o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Shimoliy Fransiyada sanoat shaharlarining gurillab o'sishi muhim siyosiy natijalarga ega bo'ldi. Fransiyaning bu qismida yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, shaharlar kommuna huquqini olish uchun zo'r berib va qattiq harakat qildilar. Lyudovik VI boshida ikkilanib, shahar harakatiga nisbatan darhol qulay mavqeini egallamadi. Ammo Lyudovik VII davrida (1137-1180), ayniqsa undan keyingi qirol-Filipp II Avgust davridayoq qirollik hokimiyati shaharlarning mahalliy feodallarga qarshi olib borgan kurashida shu shaharlarni qat'iy qo'llab-quvvatladi.

Lyudovik VII davrida qirol sulolaviy nikoh yo'li bilan janubi-g'arbdagi juda katta gertsoglikni-Akvitaniyani qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Ammo, tez orada qirol Eleonora Akvitanskaya bilan ajrashganidan keyin bu katta siyosiy yutuq puchga chiqdi. Buning ustiga Eleonoraga tezda uylanib olgan ingliz qirol Genrix II Plantagenet xavfli raqibiga aylandi. XII asr o'rtalarida Fransiyaning deyarli butun g'arbi (ayni zamonda Anju graflari bo'lgan) ingliz Plantagentlari qo'lga o'tdi; Plantagentlar mulkiga Anju, Bretan, Akvitaniya, Gaskon, Overninning bir qismi, Turen, Puatu, Men, shuningdek, Fransiyaning shimolidagi Normandiya gertsogligi kirar edi. Fransuz mulklariga ega bo'lgan Plantagenetlar Fransiya qirolining vassallari hisoblanardilar. Ammo bu vassallarning mulklari qirol domenidan bir necha marta kattaroq edi.

Lyudovik VII ikkinchi salib yurishda qatnashdi, lekin bu yurish unga kam foyda keltirdi. Lekin qirol yo'q vaqtida mamlakatni idora qilib turgan abbat Sugeriy ham mahalliy baronlarga qarshi muvaffaqiyatli kurashni davom ettirdi.

Shaharlarning feodallariga qarshi olib borgan kurashlarida Sugeriy ham bu shaharlarni zo'r berib qo'llab-quvvatladi. Nixoyat, savdo bojlari ko'payib borganligi tufayli, shuningdek, qirol yer-mulklaridan keladigan daromadlarning ortib borishi

natijasida o'sib borgan qirollik moliya ishlarini g'oyat zo'r qobiliyat egasi bo'lgan Suveriy tartibga tushirdi.

Fillip II Avgust. Lyudovik VII ning o'g'li Fillip II Avgust (1180-1223) o'z hukmronligi ostida fransuz yerlarini birlashtirish siyosatini izchillik bilan olib borib, bu ishda porloq yutuqlarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Fillip qirollik domenida joylashgan fransuz shaharlariga ham, boshqa knyaz-feodallarga qarashli territoriyadagi shaharlarga ham homiylik ko'rsatdi. Fillip II o'zi hukmronlik qilgan davrning boshlaridayoq shimoldagi Pikardiyani va Vermanduani qirollik domeniga qo'shib olgan edi. Uning Plantagentlar bilan bundan keyingi olib borgan kurashi katta g'alaba bilan tamom bo'ldi. XII asr boshlarida Fillip II fransuz mulklarining ko'pchiligi: Normandiya, Anju, Turen, Puatening bir qismi (1204-1214)ni Plantagentlardan tortib oldi. Fransuzlarning ingliz quroli Ioann Yersizni (1241- yil iyulining boshida Larosh O'Muan yonidagi jangda) va uning ittifoqchilari-Flandriya grafini va german feodallarini (o'sha 214- yilining oxirida Buvin) mag'lubiyatga uchratgan 1214- yil hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Buvin yonidagi ikkinchi jangda-erkin fransuz komunallaridan tashkil topgan shahar lashkarlari katta ahamiyat kasb etdi, bu bilan qirol hokimiyatining shaharlar bilan tuzgan ittifoqi ochiq-oydin namoyish qilindi.

Yuqorida nomi aytib o'tilgan mulklar qo'lga kiritilishi natijasida Fillip II La-Manshga va Atlantika okeaniga bemalol chiqadigan bo'ldi; eng muhim ikki daryo-Sena bilan Luara mansablari endilikda tamomila fransuz qiroliga qaraydigan bo'ldi. Qisqa muddat ichida qirol domeni territoriyasi bir necha marta ko'paydi.

Fillip II davrida boshqa muhim mulklar: qirol domenining g'arbidagi Blua va uning janubidagi Overnning bir qismi, Fransiyaning eng janubidagi Langekdokning sharqiy qismi (Tuluza garfligiga qarashli mulklardan tortib olingan qismi) ham qo'shib olindi. Sharqiy Langedok Fillip II qirolligining oxiridayoq qo'shib olingan edi. Bu mahalda qirolning o'g'li shahzoda Lyudovik (bo'lg'usi lyudovik VIII) papa Innokentiy III ning da'vati bilan, eretik albigoylarga qarshi salib yurishida qatnashgan edi.

Fillip II Avgustning boshqaruv islohoti. Fillip II davrida qirol domeniga ko'p miqdorda yerlar qo'shib olinishi munosabati bilan muhim ma'muriy islohot o'tkazildi. Qirolikka qarashli barcha mulklar balya deb ataluvchi teng ma'muriy okruglarga bo'linib, ularga qirollik gubernatorlari-balyalar boshliq qilib qo'yildi. Balyalar o'z funktsiyalari jihatidan Buyuk Karlning graflarini eslatardilar. Balyalar qaramog'ida sud, soliqlar yig'ish, lashkarlar chaqirish ishlari bo'lardi. Balyalar odatda qisqa muddatga va saroyga yaqin turgan kishilardan tayinlanib, ular mahalliy provintsial zodagonlarga qavm-qarindosh bo'lmasligi yoki biror masalada ular bilan yaqin munosabat bog'lamasligi shart edi. Janubda, Langedokda balyalar o'rniga seneshallar tayinlandi. Seneshallarning balyalardan farqi shunda ediki, seneshallar mahalliy dvoryanlar orasidan chiqqan amaldorlar edi. Qirol hokimiyatining janubdagi ta'siri tabiiy shimol, g'arb va xususan, qirollik markazidagiga qaraganda zaifroq edi.

Lyudovik IX Avliyo va uning sud-ma'muriy sohadagi islohotlari. Lyudovik VIII qisqa vaqt qirollik qilganidan keyin Filipp II ning nabirasi Sharqqa ilingan so'nggi salib yurishlarining tashkilotchisi Lyudovik IX Avliyo Fransiyada uzoq vaqt hukmronlik qildi. Lyudovik IX (1226-1270) taxtga chiqqanida endigina 11 yoshga to'lgan bola edi. Yangidan qo'shib olingan yerlarining feodal zodagonlari va qirollik taxtiga sof vasallik munosabatlarini saqlab qolgan mustaqil knyaz-feodallar qirollikni yana parchalab yuborish maqsadida yosh qirolidan foydalanmoqchi bo'ldilar. Biroq, Lyudovik IX ning onasi, koroleva regat Blanka Kastilskaya saroy bilan aloqador feodallarini bir qismiga, mayda ritserlardan iborat qirollik vasallariga va shaharlarning ko'magiga tayanib, feodal zodagonlar isyonini bostirdi. Voyaga yetgan Lyudovik IX qirol hokimiyatini yanada mustahkamlab, umuman buvasi Filipp II ning siyosatini davom ettirdi.

Lyudovik IX davrida Puatuning janubiy qismi va Tuluza shahari bilan G'arbiy Langedok qo'shib olindi. Qirol 1259- yilda Angliya bilan Fransiya o'rtasida tinchlik shartnomasi tuzdi, bu shartnoma Fransiya uchun foydali edi. Bu tinchlik shartnomasiga muvofiq, (bu Parij tinchlik shartnomasi deb atalar edi) ingliz qirol shimolda va shimoli-g'arbda ilgariroq o'z qo'lidan boy bergan viloyatlardan - Normandiya, Anju va boshqalardan qat'iy voz kechib, o'z ixtiyorida faqat

Akvitaniyani, shunda ham fransuz qiroliga vasallik huquqi bilangina saqlab qoldi. Ammo Lyudovik IX qirolligidagi eng muhim narsa hududlar qo'shib olishgina emas, balki ma'muriy sud va moliya islohotlaridir.

Lyudovik IX davrida Fransiya idora qiluvchi markaziy boshqarma tashkil topdi. Qirollik kengashi yoki qirollik kuryasi XIII asrda feodallarning s'ezdidan markaziy byurokratik muassasaga aylanib, so'ng u bir qancha boshqarma (vedomstvo) larga bo'linib ketdi. Kichik qirollik kengashi yoki "tor doiradagi kengash" ajralib chiqib, u qirolning va uning eng yaqin amaldorlarining kantsler, konnetabl va markazlashtirish siyosatiga tortilgan, qirolga yaqin turgan oz sonli feodallarning doimiy ish ko'ruvchi kengashiga aylandi. Sud ishlarini yurgizuvchi qirollik kuryasining boshqa qismi alohida muassasa bo'lib qoldi. Bu so'nggi muassasa Parlament (aynan: "sud maxmadonalari" kengashi) degan maxsus nom oldi. Nihoyat, soliq daromadlari ustidan qaraydigan alohida hisoblash palatasi kuryadan ajralib chiqdi.

Qirol amaldorlarining, ayniqsa sud boshqarmasidagi amaldorlarning katta bir qismi universitetlarda "Rim huquqi" dan ta'lim olgan shaxslar bo'lib, ko'pincha ular pastki tabaqadan chiqqan, lekin baland martabaga erishganliklari uchun butkul qirolga xizmat qilishga tayyor turgan va unga sodiq kishilar edi. Odatda ularni legistlar deb atardilar. Legistlar ko'pincha shaharliklar orasidan chiqar edi. Qirol hokimiyatining shaharlar bilan ittifoqi ana shu vaqtda yana bir marta isbotlandi.

Qirol janjalli masalalar chiqqan paytda ularni hal etish uchun nafaqat qirollik sudiga murojaat etishga feodallarni majbur etib, o'z domenida yakkama-yakka olishuvlarni man etdi. Janjal chiqqan kun bilan urush boshlanishi o'rtasida 40 kunlik muhlat belgilanib, shu orada kuchsiz tomon qirolni huquqi ancha cheklab qo'yildi. Lyudovik IX ning sud islohoti ham muhim ahmiyatga ega bo'ldi. Qirol sudi butun qirollik domeniga hali qo'shib olinmagan hududlarning fuqarosi ham shikoyat bilan murojaat qila olardi. Ba'zi sud ishlari (o't qo'yish, soxta tanga-chaqa chiqarish, xotin-qizlarni o'g'irlash va h.k.) albatta qirol sudida ko'rilishi kerak edi.

Qirollikni moliya tizimi. Lyudovik IX tanga zarb qilishda feodallar bilan raqobat qildi. U boshqa gertsog va graflarning tanga-chaqa pulining shu gertsog va

graflarning mulklarida o'zlariniki bilan bab-baravar yurg'izilishiga monelik qilmaslikka o'z vassallarini majbur etdi. Natijada eng salmoqli qirollik tanga-chaqa puli odatda feodallarning yomon sifatli pullarini siqib chiqarar edi. XIII asr o'ratlarida qirol byudjeti juda o'sdi. Savdo-sotiqdan, sanoatdan va qirollik yer mulklaridan (savdo-sotiq, iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlardagi) keladigan daromadlarning tobora ko'payib borishidan tashqari, Lyudovik IX xazinani boyitish maqsadida feodallarning tanho yerlaridan ustalik bilan foydalandi. Lyudovik IX zamonida yirik feodallardan undiriladigan vassallik to'lovi yuqori darajada oshdi. Qirol o'z vassallaridan ko'p daromad olgani singari, shahar-kommunalaridan ham o'shanchalik ko'p daromad olardi. Fransuz cherkovi sifatida qirolga katta-katta mablag' to'lardi. Lyudovik IX davrida bevosita qirol xazinaga kelib tushadigan salib solig'i davlatning doimo olib turadigan solig'i rolini o'ynadi.

Umuman Lyudovik IX-davrida qirollik daromadlarining o'sishi o'sha zamonda Fransiyaning xo'jalik jihatdan yuksala borganligini ochiqdan-ochiq ko'rsatar edi. Pul xo'jaligining rivojlana boshlashi, shaharlar, sanoat va savdo-sotiqning o'sishi oqibatida mamlakatning siyosiy jihatdan markazlashuvi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarining taraqqiy qilishiga ijobiy ta'sir etdi.

Dehqonlar harakati. XIII asrda Fransiyada qishloqning ahvolidagi ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar yuz berdi. Mamlakatda shaharlarning o'sishi va tovar xo'jaligi rivojlana boshlashi munosabati bilan krepostnoy dehqonlarning bir qismi (servlar) feodallar tomonidan pul oborotiga ko'chirildi. Bu masala salib yurishlari dehqonlarini ozod qilishga birinchi sababchi bo'lib, ancha katta ahamiyat kasb etdi. Salib yurishlariga ketayotib va bunda odatda pulga muhtojlik sezgan feodal o'z krepostnoylariga pul to'lab ozodlikka chiqishni yoki shu pul evaziga loaqal eng og'ir krepostnoylik majburiyatlardan qutilishni taklif etar edi. Natural majburiyatlarni ana shu tariqa pul bilan ayirboshlash dehqonlarni shaxsan ozod bo'lishiga yordam qildi va bu hol esa progressiv xarakterga ega bo'ldi. Ammo XII asrda va XIII asrning birinchi yarmida bu jarayon Fransiyada hali yetarli darajada keng tarqalmagan edi. Barshchinada ishlatiladigan va natural obrok yig'ib oladigan krepostnoylik tuzumi feodal ekspluatatsiyaning ustun formasi bo'lib qolaverdi. Ikkinchi tomondan,

dehqonlar tovar-pul xo'jaligiga hali yetarli darajada tortilmaganliklari sababli obrokn pul bilan to'lashga o'tishning o'zi bir vaqtda dehqonlarga og'irlik qilardi. Qirol xazinasiga to'lanadigan to'lovlar va jumladan, salib yurishlari bilan aloqador nohaq soliqlar (salib yurishi soligini to'lash, qirol Lyudovik IX ni asirlikdan qutqarish uchun pul yig'ish va x.k.) dehqonlar gardaniga og'ir yuk bo'lib tushdi.


XIII asrning o'rtalarida fransuz qishlog'idagi dehqonlar ommasi ahvolining yomonlasha borishi zaminida ko'plab har qanday mahalliy janjallar va dehqonlarining senorlarga qarshi chiqishlari yuz berib turdi. Dehqonlarning bu chiqishlari ba'zan ancha keng tus olib, butun-butun viloyatlarni o'z ichiga olgan ommaviy g'alayonlarga aylanib ketaverdi. Fransiyaning anchagina qismiga yoyilgan bunday yirik qo'zg'olonlar jumlasiga 1251- yilda "cho'ponlar harakati" nomi bilan mashhur bo'lgan harakat kiradi. Mafkura jihatdan bu harakat salib yurishlari bilan aloqador edi. Dehqonlar orasida targ'ibot olib borilib, ularning o'zlarini salib yurishida, jumladan, qirol Lyudovik IX ni asirlikdan qutqarishga qatnashishga da'vat qilinardi. Dehqonlar yangi salib yurishining tashkilotchisi sayyor va'zgo'y "vengriyalik muallim" Yakov nomli kishi bo'lib, u o'zining xalqqa qilgan va'zlarida sen'orning "oddiy xalqqa" ko'rsatgan adolatsizliklari va zo'ravonliklari to'g'risidagi ijtimoiy mavzu ham to'xtalib o'tardi. Ko'p sonli dehqonlar olomoni Parijga to'planib, so'ngra u yerdan janubga tomon yo'l oladi, senorlarning yo'lda uchragan qo'ralarini poymol qiladi va ulardagi mol-mulkn bosib oladi. Qo'zg'olonchilarni Orlean va Tur shaharlaridagi kambag'allar qo'llab-quvvatladilar. Qo'zg'olonchilarning soni tez o'sib bordi, ba'zi voqeanavislarning aytishicha, qo'zg'olonchilarning soni 100 ming kishigacha etgan. Biroq, yomon uyushtirilgan, harbiy ishda tajribasi bo'lmagan, oxirgi maqsadning nimaligiga tushunib etmagan va uzoq yurishning marshrutini yaxshi bilmagan dehqonlar o'zlari qo'lga kiritgan yutuqlarni mustahkamlay olmadilar va harakat tezda barbod bo'ldi. Dehqonlarning ayrim to'dalari yo'lda oziq-ovqat va boshqa qiyinchiliklarga duch kelib, yana o'z yurtlariga qaytib ketdilar. Qo'zg'olonchilarning qolgan otryadlarini hukumat va feodallarning shaxsiy harbiy kuchlari tor-mor keltirdilar. Harakat qatnashchilarining ko'plari qirib tashlandi yoki qo'lga tushirildi, harakat boshlig'i Yakov Vengerskiyning o'zi ham halok bo'ldi.

Filipp IV Chiroyli va uning Bonifatsiy VIII bilan to'qnashuvi. Lyudovik IX ning nevarasi Filipp II Chiroyli (1285-1314) Kapetinglar sulolasining uchinchi yirik vakili edi. Filipp IV o'z qirolligining boshlarida boy Shampan grafligini, Ispaniya bilan chegaradosh bo'lgan Navarra qiroligini va Fransiyaning janubi-sharqidagi Lione (Lion viloyati bilan Lion shahari)ni qirollik domeniga qo'shib oldi. Shundan keyin, Filipp IV qirollik qilgan davrining boshidan to oxirigacha o'sha zamondagi Shimoli-G'arbiy Yevropaning sanoat o'lkasi hisoblangan Flandriyani egallashga harakat qildi. "Flandriya problemi" xullas, batamom hal bo'lmasdan qoldi. Kurtra yonidagi jangda ("shtor jangi") Gent va Bryuge hunarmandlari bilan Flandriya dehqonlari 1302 -yilda fransuz ritsarlarini qattiq mag'lubiyatga uchratdilar. Biroq, bu muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, qirol qo'shinlari 1305- yilda Lilla yonidagi jangda flamandliklarga zarba berganlaridan so'ng, G'arbiy Flandriyaning bir qismi va uning bir qancha sanoat shaharlari qirol domeniga qo'shib olindi.

Filipp IV davrida "mustaqil" vassal knyazliklar soni tamomila oz qoldi. Flandriya grafligidan tashqari, faqat burgundiya, Bretan, Akvitaniya gertsogliklari (Akvitaniya inglizlar qarmog'ida edi) va Burgundiya grafligi (Sobiq Burgundiya qirolligining shimoliy qismi) hali qo'shib olinmagan edi.

Flandriya urushi vaqtida harajatlarning g'oyatda ko'payib ketganligi, shuningdek, qirol saroyida ortiqcha isrofgarchiliklarga yo'l qo'yilganligi tufayli XIV asr boshlarida Filipp IV ning moliyaviy ishlari tamomila izdan chiqib ketdi. Qirol har qanday yo'llar bilan daromadlarini ko'paytirmoqchi bo'ldi. U shaharlardan pul qarz olib, odatda uni qaytarmasdi; talonchilik maqsadida yahudiylarni mamlakatdan haydab yuborib, nohaq soliqlar olib bo'lganidan so'ng yana ularni mamlakatga kiritardi; u tanga-chaqani buzib, buning oqibatida fransuz savdosini izidan chiqarib yubordi, qirollikka qarashli yer-mulklardagi dehqonlarni katta haq to'lash evaziga ozodlikka chiqishga majbur etar edilar. Qirolning soliq yig'uvchilari qo'shib olingan viloyatlarni hammasida izg'ib yurganlari uchun keng aholi ommasi ularni juda yomon ko'rar edi. Nihoyat, Filipp IV katolik cherkovi manfaatlariga jiddiy putur etkazdi, bungacha katolik cherkovi soliq tarzida emas, balki o'ziga xos "in'om" yoki yordam tariqasida qirolga ma'lum miqdorda pul to'lab kelardi. Endilikda Filipp IV

ruhoniylarning ham muntazam sur'atda soliqlar to'lashlarini talab etdi. Qirolga papa Bonifatsiy VIII (1294-1303) keskin qarshi chiqdi. Bonifatsiy VIII Grigoriy Bonifatsiy VII va Innokentiy III lar singari teokratik g'oyalarga juda qattiq berilgan odam edi. Ruhoniylarning qirolga biror-bir soliq to'lashini papa man etdi va bundan tashqari, graf Flandriyskiy Filipp IVga 1302- yilda uch toifaning ruhoniylar, dvoryanlar va shaharliklarning vakillarini chaqirib ularga qirol bilan papa o'rtasidagi janjalni muhokama qilishni taklif etdi. General shtatlar (bu yig'ilish ana shunday deb atalgan) papaning Fransiyaning ichki ishlarning aralashish haqidagi da'vosini (Fransuz ruhoniylari ham shunga kirgan edi) qoralab chiqdi.



Fransiyada General shtatlar

Jamoatchilik ko'magiga tayangan Filipp IV, papalikka qarshi zo'ravonlik tadbirlarini qo'llashga o'tdi. Papaning Fransiyaga yuborgan legati (vakili), qirol buyrug'iga muvofiq qamoqqa olindi. Rimning o'zidagi to's-to'polonlardan foydalangan Filipp IV Rimga o'z ishonchli vakili Nogareni yubordi.

Nogare papa bilan adovatlashib yurgan Rim baronlari guruhini kuchaytirdi. Bonifatsiy VIII Rimdan ketib Anan'idagi o'z xonadonining qasriga borganida, Nogare qurolli otryadi bilan bu qasrga kirib oldi. Haqiqatda papa bir qancha vaqt qamoqqa tushib qoldi. Bu voqealardan keyin, keksayib qolgan Bonifatsiy VIII vafot etdi. Papaning o'limidan keyin, Filipp IV ning taz'iyiqi ostida Kliment V nomini qabul qilgan bardolik (fransuz) arxiepiskop papalikka saylandi. Kliment V Rimda istiqomat qilishni hohlamadi, U Rimda yangi qo'zg'olonlar chiqishidan xavfsiradi, shu sababli u o'z rezidentsiyasini Fransiyaga ko'chirdi. Dastlab u Lionda o'rnashdi, keyin Avin'on shahariga ko'chib keldi, bu yerda papalar deyarli 70 yil davomida (1309-1378) istiqomat qilishdi va bu davr tarixda "papalarning Avin'on tutqunligi davri" deb ataladi

Shunday qilib, ilgari vaqtlarda feodal qirollari va imperatorlarini osonlikcha yengil kelgan papalar bu safar milliy elementlarga tayangan vaqt milliy siyosatni o'tkazgan fransuz qirolli bilan kurashda tamomila muvaffaqiyatsizlikka uchradilar.

Filipp IV ning zo'rligi bilan 1309- yilda boy Tampliyerlar ordeni tugatildi, qirol bu ordendan juda katta pul qarz olgan edi. Eretiklikda ayblangan orden fransuz hukumatining taz'iyi bilan sud javobgarligiga tortildi. Yuzlab ritsarlar-monarxlar gulxanlarda kuydirildi, barcha yer-mulklar, ko'pdan-ko'p uylar va juda ko'p pul mablag'lari tortib olinib, qirol xazinasiga topshirildi.

General shtatlar. Qirolning papa bilan qilgan mojarosi munosabati bilan birinchi marta chaqirilgan General shtatlar, keyin Filipp IV davrida 1308- va 1313-1314- yillarda yig'ildi. Doimo moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirgan Filipp IV, har safar yangi soliqlar uchun rozilik berishni shtatlarga taklif qilardi. Yangi soliqlarni tasdiqlash funksiyasi XIV asrning birinchi yarmida Filipp IV ning vorislari davrida General shtatlarining bundan keyingi faoliyati uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

General shtatlar tuzilishii natijasida Fransiyaning davlat taraqqiyoti olg'a qarab bir qadam tashladi, chunki qirolni aholining keng va eng nufuzli tabaqalari bilan bog'lovchi yangi muhim organ paydo bo'ldi. General shtatlarga boy shaharliklardan vakillar tortilishi ayniqsa muhim edi. Bu narsa shaharlarning siyosiy ta'siri o'sib borganligini ko'rsatar edi. General shtatlar endilikda butun mamlakat miqyosida qirol hokimiyatining shaharlar bilan tuzgan ittifoqining yangi formasi edi. Qirol uchinchi toifaga tayanib, o'z moliya ishlarini mustahkamlay oldi va qaysar feodallarni yana ko'proq cheklab qo'ydi. Dastlabki tarqoq feodal monarxiyasi o'z o'rnini markazlashgan toifaviy monarxiyaga bo'shatib berdi. Bu monarxiyani boshqarish mamlakatdagi uchta rasmiy toifa vakillarining majlisi, shu jumladan, yangidan shakllanib kelayotgan burjuaziya vakillari ham ishtirok etdi.

Yuz yillik urushning boshlanishi sabalari va oqibatlari. 1337- yildan 1453- yilga goh to'xtab, goh davom etgan ikki yirik, ancha markazlashib ulgurgan feodal davlatlar Angliya va Fransiya o'rtasida insoniyat tarixida eng uzoq davom etgan urushdir. Urush boshlanishiga ko'plab yirik sabablar mavjud edi, biroq bahona esa Filipp ning xotin tomonidan nabira bo'lmish ingliz qirolu Eduard III ning fransuz taxtiga qilgan da'vosi bo'ldi. Ammo qadimiy franklardan saqlanib kelayotgan

qonunnoma “Sali haqiqati” ga ko’ra xotin tomondan voris qoldirish mumkin emasligini fransuz yuristlari dalil qilib ko’rsatdi va ingliz qirol davosini tan olmadi.

Urushning yirik janglari 1346- yil yil Shimoliy-sharqiy Fransiyadagi Kresi ostonalarida, 1347-yili Kale portida, 1356- yil Puate atrofida yirik janglarda g’alaba inglizlar tomonida bo’ldi. Hatto Fransuz qirol Ioan Rahmdil asir olindi. Ketma-ket mag’lubiyatlar ingliz qurolli otryadlarining deyarli Parijgacha bostirib kirishi, mamlakat ichida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hamda siyosiy tanglikni keltirib chiqardi. Fransiyadagi tanglik natijasida aholi noroziligi kuchayib, 1358- yil Bove okrugida yirik qo’zg’olon ko’tarildi. Bu qo’zg’alonga Giliom Kal boshchilik qildi. Ammo yetarli darajada uyushmaslik, dehqonlarning aniq va ravshan dasturga ega emasligi mag’lubiyatning asosiy sababi bo’ldi.

Fransiyaning inglizlardan xalos etishda dovyurak, dehqon qizi Janna Darkning (1412-1431) xizmati katta bo’ldi. U erkak kiyimini kiyib, qishloqdoshlari bilan qirol Karl VII oldiga bordi va o’zining takliflarini berdi. Qirol uni xizmatga qabul qildi. Dastlabki g’alaba Orlean shahrini inglizlardan ozod qilinishi bo’ldi, bu g’alabasi uchun Janna Darkka “Orlean qizi” nomi berildi. Ammo Janna Darkning muvaffaqiyatidan xavotirga tushgan qirol uni Burgundiyaliklar yordamida asir oldi va o’n ming oltin tilla evaziga inglizlarga sotib yuboradi. Ingliz hukumati uni sehrgarlikda ayblashdi. Sudni amalga oshirgan yepiskop Kashon Janna Darkni 1431-yil 30- mayda gulxanda kuydirish hukmini chiqardi va shu kuni hukm amalga oshirildi. Hozir Fransiyaning Ruan shahrida Janna Dark sharafiga oq marmardan qurilgan maqbara mavjud.

Janna Dark halok bo’lsa-da, u boshlagan millat va davlat ozodligi uchun kurash o’zining samarasini berdi. Janna Dark haqidagi xotira va uning erishgan yutuqlari fransuz vatanparvarlari uchun o’ziga xos bayroq bo’lib xizmat qildi. Ikki davlat o’rtasidagi urush harakatlari 1453- yil rasmiy sulh shartnomasi tuzilmagan bo’lsa-da, ammo to’xtatildi.

Lyudovik XI ning o'g'li Karl VIII (1483-1498) musaqilligini hamon saqlab qolayotgan Bretan gertsogligini 1491-yil qo'shib oldi. Fransiyaning Kopetinglar davrida boshlanib, Valua davrida tamom bo'lgan siyosiy markazlashishdagi uzoqqa cho'zilgan jarayon nihoyasiga etdi.



100 yillik urush
Orlaen uchun kurash

XVI asr oxiriga kelib Fransiya Yevropadagi eng katta va eng markazlashgan qirolliklardan biriga aylandi.

Yuz yillik urush Fransiyaning siyosiy markazlashuvida muhim rol o'ynadi, tinchlikni naqadar muhim ne'mat ekanligini tushinib yetdi. Fransuz markazlashgan davlatini vujudga kelishi bilan bir vaqtda fransuz millati ham tarkib topa bordi. Ayrim tarqoq feodal mulklardan yagona fransuz qirolligini umumiy hududi tashkil topdi. Viloyatlardagi turli sheva va dialektlar bilan bir qatorda Parij dialekti asosida rivojlangan yagona fransuz adabiy tili vujudga keldi.

O'rta asrlar oxiriga kelganda "Fransuz" so'zining asl ma'nosi o'zgardi. Chunki shu asrlarga qadar u faqat "Fransiyaning shimoliy aholisi" degan tor ma'nodagi tushunchani bildirar edi. XV asrdan fransuz aholisini qaysi viloyatda tug'ilgan va yashaganligidan qat'i nazar, fransuz qirolligining har bir aholisi fransuz deb ataladigan bo'ldi.

Tayanch so'z va iboralar: G'arbiy Yevropa, siyosiy tarqoqlik, Angliya, Fransiya, monarxiya, Italiya, Yaqin Sharq, Levant, Ruan, Reyms, Trua, Germaniya, Niderlandiya, Sena, Marva va Luara, knyaz-feodal, Lyudovik VI Semiz, Anju, Bretan, Akvitanিয়া, Gaskon, Overn, Turen, Puatu, Genrix II Plantagenet, Filipp II Avgust, yeretik, salib, Lyudovik IX Avliyo, Parlament, Legistlar, servlar, Filipp IV, Bonifatsiy VIII, papa, Genaral shtatlar, Avinon tutquni, Sali haqiqati, Eduard III, Yuz yillik urush, Janna Dark, Karl VII, Karl VIII, Kale, Pua'te, millat, dialekt,

sheva, Bretan, Valua, markazlashgan davlat, Orelon, Janna Dark, kopetinglar, legat nogori, Innokentiy III .

Mustahkamlash uchun savollar:

1. XI asrda Fransiyada shaharlarni o'sishi nima bilan bog'liq edi?
2. Toifaviy monarxiyaning shakllanish nimanining natijasi bo'ldi?
3. Fransiyada markazlashuv jarayoni qo'shni davlatlarga nisbatan tez bo'lganlaigi asosiy omillar nimalardan iborat?
4. Kopetinglar davrida Fransiyaning ichki va tashqi siyosati?
5. Filipp II Avgustning markazlashtirish siyosati va uning oqibati?
6. Lyudovik IX Avliyoning sud-ma'muriy sohadagi islohotlari va uning natijalari?
7. Dunyoviy va diniy hukumatlar o'rtasidagi kurash va uning oqibati?
8. General shtatlarning vujudga kelishi va uning Fransiya taraqqiyotidagi o'rni?
9. Yuz yillik urushning kelib chiqish sabablari?
10. Janna Dark jasorati va uning jahon tarixidagi o'rni?

Glossariy:

Domen – Fransiyada o'rta asrlarda hukumdorga tegishli yerlar.

Salib yurishlari – 1096-1270 yillarda Xristian dunyosining musulmon dunyosiga bosqinchilik yurishi. Bunda Fransiya qirollari ham ishtirok etgan.

Legistlar - lotincha lex-qonun huquqidan kelib chiqqan. Ular universitetlarni bitirgan qirolni sodiq huquqshunoslaridir.

Serv – Fransiyada krepostnoy dehqonlarni bir qismi shunday atalgan.

General shtatlar – Fransiyada Filipp IV (1285-1315) davrida toifalardan iborat davlatning muhim masalasi yuzasidan qarorlar chiqarish uchun tuzolgan yig'in. Ushbu tashkilot 1302-1789 yillar oralig'ida mavjud bo'lgan.

Yuz yillik urush – Angliyani Fransiya bosqini bilan boshlangan 1337-1453 yillarda to'xtab – to'xtab davom etgan urush. Olimlar hisob-kitoblariga ko'ra hozirga

qadar 16 mingdan ortiq katta-kichik urushlar bo'lib turgan, shundan eng uzoq vaqt davom etgani ham aynan shu yuz yillik urushdir. Tarixda bundan tashqari butun XVIII asrni qamrab olgan ikkinchi yuz yillik urushi ham bo'lgan. Urush harakatlari asosan Fransiya hududida bo'lgan. Urushda Fransiya g'alabaga erishgan.

36-§. XI - XV asrlarda Angliya

Angliyaga Normandlar bosqini. Angliyaga 1066-yil 15-oktyabrda Normandiya gertsogi Vilgelm 15 ming kishilik ritsarlardan iborat qo'shin bilan bostirib kirdi. Uzoq janglardan so'ng shu yilning 25-dekabrda Vilgelm I nomi bilan Angliya qirolini deb e'lon qilindi. Yangi qirolni tan olmaganlar yerlari musodara qilinib, o'zlari o'z yurtidan badarg'a qilindi. Normandlar istilosiga qarshi Angliya shimolida ikki qo'zg'olon (1068- va 1071-yillarda) shafqatsizlik bilan bostirildi. Bu bilan fransuz-normand hokimiyati uzil-kesil mustahkamlandi.

Vilgelm tomonidan 1086-yili yer egaligining hajmini aniqlash maqsadida aholini ro'yxatga olish o'tkazildi. Bu xalq orasida "Dahshatli sud kitobi" nomini oldi. Qirol hokimiyatining kuchayishi ingliz savdogarlarini yaxshi foyda olishiga imkon yaratdi. Ingliz savdogarlarga normandiya va Flandriya bilan savdo-sotiq qilish imkoniyati yaratildi. Flandriyaga ko'p miqdorda jun-tovar tashila boshlandi. Jun kelajakda butun ingliz xalq ho'jaligining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Vilgelm I ning vorislari Genrix I (1100-1135) va Genrix II) (1154-1189) davrida ko'plab sohalarda, jumladan, sud sohasida islohot o'tkazildi. 13-14 asrlarda ingliz maslahatchilari sudi asta-sekin rivojlanib bordi. Maslahatchi guvohlar ayblanuvchini qoralaydigan yoki oqlaydigan hukm chiqaruvchi maslahatchilarga, maxsus sud hakami a'zolariga aylandilar.



Genrix II Plantaget

Genrix II vorislari Richard I Sheryurak (1189-1199) va Ioan Yersiz (1199-1216) davrida qirol hokimiyati zaiflashib qoldi.

1215- yilning yozida Ioan Ersizga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Eng yirik baronlar qo'zg'olonga rahbarlik qildilar. Ammo qo'zg'olonga ko'pgina ritsarlar, Shuningdek London shaxri ham qo'shildi. Qirol Ioan Qo'zg'olonchilarga asir tushadi va 1215- yilning 15- iyunida Buyuk Erkinlik xartiyasiga imzo chekishga majbur bo'ladi. Xartiya lotin tilida tuzilgan 63 moddadan iborat katta siyosiy hujjat edi.

Ushbu hujjat asosan baronlar va feodallar manfaatiga ko'proq xizmat qilsa-da o'sha davr qonunchiligi uchun ancha ilgari ketish holati deb baholash mumkin.

XIII asrda Angliyaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi. Aynan shu asrda Angliyada movutsozlik rivojlandi, bu o'z navbatida junga bo'lgan talabni orttirib, qo'ychilikni rivojlanishiga zamin yaratdi. Angliyada dehqonchilikni rivojlanishi natijasida bug'doy yetishtirishda katta muvaffaqiyatga erishdi, hatto Yevropa bozorlariga eksport qilish imkoniyatini berdi. Demak, bu nafaqat ichki bozorni balki tashqi bozorni ham rivojlanishiga olib keldi.

XIII asrlarda Angliya shaharlari soni XI asrga nisbatan 50 foizdan ortiqqa ko'paydi. Shu davr ichida shahar aholisi 5 foizdan 15 foizga ortdi.

Angliyada Parlamentning shakllanishi. Ioan Yersiz Buyuk erkinlik xartiyasiga imzo chekkani bilan uni bajarishni umuman xohlamas edi. Chunki bu hujjat qisman bo'lsa-da qirollar hokimiyatini cheklar edi. Natijada hokimiyat uchun kurashlar avj olishi natijasida 1265-yil mamlaktda parlament joriy etildi. Parlamentni joriy qilishda kelib chiqishi asli fransuz bo'lgan, inglizlar orasida katta mavqega ega Simon de Manfor katta ahamiyat kasb etdi. Qirol Eduard I davridan parlament (1295- yildan) muntazam chaqirib turiladigan bo'ldi. 1297-yildan parlamentga soliqlarni tasdiqlash huquqi berildi. Qirol Eduard III (1327-1377) davrida parlament deyarli har yili chaqirilgan. 1343 -yildan boshlab parlament ikki palataga bo'lindi. Yuqori palata lordlar palatasi deb atalib, u ruhoniy lordlar, arxiyepiskoplar, yepiskoplar, eng yirik monastirlarning abbatlari va baronlardan iborat bo'lgan. Pastki yoki Umum palata esa grafliklarning vakillari bo'lgan ritsarlar va shaharliklardan iborat bo'lgan.

Jon solig'i. Yuz yillik urushdagi muvaffaqiyatsizliklar munosabati bilan XIV asrning 60- va70- yillarida Angliyaning ahvoli mushkullashdi. Yomenlar yurishlarda qatnashishganligi tufayli ingliz feodallari Kresi va Puate yonida erishgan ajoyib g'alabalar zamoni tugab, endi ular birin-ketin mag'lubiyatga uchray boshladilar. Fransiyadan o'ljalar kelish o'rniga, urush endi yangidan-yangi xarajatlar qilishni talab qilardi. Ingliz hukumati parlamentdan soliqlarni oshirishni so'rashga majbur bo'ladi. 1377- yilda, yangi qirol Richard II (Eduard III ning nevarasi) idora qila

boshlagan dastlabki yilda parlament jon solig'i joriy qildi. Bunday soliq Angliyada ilgari hech qachon bo'lmagan edi. 14 yoshli va undan yuqori har bir erkak va ayol, mulkiy ahvolidan qat'i nazar, bu soliqni to'lashga majbur edi. Qarilar va o'smirlar ko'p bo'lgan katta oilalarda yangi soliq yig'indisi katta summani tashkil qilar edi. Jon solig'i dehqonlar ommasi gardaniga og'ir yuk bo'lib tushdi. Bu soliq qishloqda o'ziga qarshi chuqur qahr-g'azab qo'zg'ab, ingliz dehqonlarini 1381- yilgi qo'zg'olonga yetaklagan so'nggi bahona bo'ldi.

Viklef va lollardlar. Qo'zg'olondan avvalgi yillarda ingliz qishlog'ida va'zxonlar paydo bo'lib, ular o'zlarini «faqir poplar» deb atardilar. Bular ingliz cherkovining mashhur reformatori Jon Viklefning shogirdlari edilar. Pop va Oksford universitetining professori Jon Viklef (1320-1384) XIV asrning 60-70- yillarida cherkovni reforma qilish kerak, degan talab bilan chiqdi. Cherkov papasiz yashay olmaydi va papa hokimiyati qirollik hokimiyatidan yuqori turishi lozim degan o'rta asr katolizmi ta'limotini J.Viklef rad qildi. Papa Angliyadan hiroj olish uchun hech qanaqa haq-huquqqa ega emasligini Viklef isbotlab berdi. «Qirol qirollikni papa nomidan emas, balki bevosita xudoyi taolo nomidan o'z qo'lida tutib turadi» - derdi Viklef o'sha zamondagi feodal huquqini o'zicha talqin qilib. So'ngra u, cherkovning g'oyat katta yer boyliklariga qarshi chiqib, cherkov yerlarini sekulyarivatsiya qilish (davlat ixtiyoriga olish) to'g'risida hukumatga tavsiyanoma berdi. Viklef diniy marosimlarni dabdabali qilib o'tkazishga qarshi chiqib, ibodat mahalida va'zxonlikni kuchaytirishni tavsiya etdi. U tavitrotni ingliz tiliga tarjima qilib, ibodatni ham milliy, ham ingliz tilida qilishni zarur deb hisobladi (o'rta asrlar davrida Yevropaning hamma yerida qabul qilinganidek, cherkovlarda faqat lotin tilida ibodat qilinardi).

Viklefning chiqishi mafkura jihatdan katta ahamiyatga ega bo'ldi. Viklef XVI asrda Yevropada yuz bergan Yevropa reformatsiyasi muxlislaridan biri edi. Ammo uning traktat (ilmiy asar)lari siyosiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etdi. Yuz yillik urush mahalida Angliya papalikka nisbatan g'oyat dushmanlik munosabatlarida bo'ldi, bu vaqtda fransuz qirollari ta'sirida bo'lgan Avinon papalari Angliyaga qarshi fransuz hukumatiga har qanaqa qilib bo'lsa ham yordam berardilar. Viklefning papalikka qarshi qilgan va'zlari va yozgan adabiy asarlari shuning uchun ham ayniqsa

aktual edi. XIV asr o'rtasida, Eduard III qirolligi davrida parlament maxsus nizom qabul qilib, unda sud-cherkov ishlari yuzasidan papaga shikoyat arizasi bilan murojaat etish man etildi. 70-yillarda ingliz hukumati nihoyat papaga hiroj to'lashdan voz kechdi, holbuki bu hiroj Rimga Ioann Yersiz zamonidan buyon to'lab kelinar edi. Urush olib borish uchun mablag'ga muhtoj bo'lgan hukumat cherkov yerlarini sekulyarizatsiya qilishga tayyor edi. Qirollikdagi barcha yerlarning taxminan uchdan bir qismini tashkil etgan ingliz cherkovining g'oyat ulkan mulklariga dvoryanlar (lordlar ham, ritsarlar ham) ko'pdan havas qilib kelardilar.

Viklef islohoti London shahari aholisi orasida ham zo'r shuhrat qozondi. Cherkov diniy marosimlari soddalashtirilishi va arzonlashtirilishi kerak hamda cherkov biror-bir ajnabiy kuchga qaram bo'lmagan mustahkam milliy tashkilotga aylanishi lozim, degan Viklefning chaqiriqlari Londonda, shuningdek boshqa joylarda xususan Angliyaning eng rivojlangan janubida va janubi-sharqida unga ergashgan bir guruh muxlislarni keltirib chiqardi.

Viklefning Angliyadagi muxlislari lolardlar deb atalardi. Uning eng demokratik kayfiyatdagi shogirdlaridan, chunonchi "faqir poplar" deb atalganlari, Viklef hali hayotlik mahalidayoq uning islohotchilik ta'limotiga qat'iy, keskinlik tus bergan edilar. U "faqir poplar" krepostnoylikka keskin qarshi chiqqan edilar. Ular qishloqma-qishloq yurib, dehqonlar orasida targ'ibot olib bordilar. Oliy tabaqa boy ruhoniylarga qarshi, shuningdek, dunyoviy feodallar (lordlar)ga qarshi qattiq hujum toshini yog'dirib, va'zxonlar, modomiki "xudovandi karim barcha kishilarni teng qilib yaratgan ekan, yer-suv barchanikidir", degan ishonchni kambag'al dehqonlar ko'nglida mustahkamladilar.

«Odamato yer haydab, Momohavo esa charx yigirgan paytlarida kim dvoryan bo'lgan, axir?» degan so'zlar qishloqlarda tez-tez qaytarilardi. Ana shunday xalq va'zxonlaridan biri bo'lgan Jon Boll feodallarga keskin hujumlar qilishda ayniqsa ajralib turardi. «Mening aziz do'stlarim, - derdi Boll dehqonlarga murojaat etarkan, - hamma narsa umumniki bo'lmasdan turib, na kassal, na lord va kishilar o'rtasidagi barcha tafovutlar yo'q qilinmasdan turib, lordlarning bizning ustimizdan xo'jayinligi bartaraf etilmasdan turib, Angliyadagi ishlar yaxshi bo'lib ketmaydi».

Kenterberiy arxiyepiskopining buyrug'iga binoan Jon Boll avaxtaga tashlandi. 1381-yilda qo'zg'olon qilgan dehqonlar uni qamoqdan ozod qildilar. Jon Boll qo'zg'olon rahbarlaridan biri bo'lib qoldi.

Uot Tayler qo'zg'oloni. Tarixga Uot Tayler qo'zg'oloni nomi bilan kirgan qo'zg'olon 1381-yil may oyining oxirida janubi-sharqiy Esseks grafligida boshlandi. Dehqonlar bu yerda jon solig'i yig'uvchilarni haydab yubordilar va ulardan ba'zilarini o'ldirdilar. Shundan keyii villanlar manor egalariga qarshi ko'tarildilar. Qo'zg'olon Esseksdan qo'shni grafliklarga-Kent, Sefolk, Norfolk va boshqa grafliklarga ko'chdi. Qisqa bir fursat ichida qo'zg'olon Angliya grafliklarining katta bir qismiga yoyildi. Dehqonlar dunyoviy va ruhoniy lordlarga qarashli manorlarni yakson qildilar, ulardagi g'alla, chorva mollari va boshqa mol-mulklarni bosib oldilar, manor arxivlarida saqlangan barshchinaga va obrok majburiyatlariga doir ro'yxatlarni (ular rentali deb atalardi) yondirib tashladilar. Ba'zi shaharlar qo'zg'olonchi dehqonlar tomoniga o'tdilar. Qo'zg'olonchilar Kentda graflikning asosiy shahri bo'lgan Kenterberini qo'lga kiritdilar. Shuningdek, Medston va Dartford shaharlari ham qo'zg'olonchilar tarafini oldilar. Kentning o'zida rahbar topilib, u Kent, Esseks grafliklari va boshqa qo'shni grafliklarning dehqonlar ommasini bir oz vaqtgacha birlashtirdi va bu dehqonlar ommasini Londonga boshlab bordi. Uning nomi Uot Tayler edi. («Tayler» so'zi inglizcha - «tunukasoz» demakdir. Bundan chiqadiki, u hunarmand bo'lgan bo'lsa ajab emas). Shak-shubhasiz, Tayler ilgari soldat bo'lgan, negaki, u harbiy ishni yaxshi bilardi. Uning tarjimai holi haqida batafsilroq ma'lumot yo'q.

Uot Tayler g'ayratli rahbar bo'lib chiqdi. U qirolidan dehqonlar talabini qondirishga erishmoq uchun qo'zg'olonchilarni qirollik poytaxti -Londonga olib borishga qaror berdi. Londonga borishning o'zini u to'g'ri deb o'yladi va bu chora tez amalga oshirildi. Tayler Jon Boll, Jek Strou (aftidan, mayda ritsar bo'lsa kerak) va boshqa yordamchilari bilan birgalikda 11-iyunda kentliklarni poytaxtga boshladi, lekin unga janub tomondan bordi. Ayni zamonda ular bilan shartlashib qo'ygan Esseks dehqonlarining rahbarlari Londonga shimoli-sharq tomondan yaqinlashib keldilar.

London shahari ma'murlari dehqonlarning London ko'prigidan o'tib, shahar darvozasi orqali London Sitisiga kirishlariga monelik qilmadilar.

Uch kun mobaynida, ya'ni 1381-yilning 13, 14- va 15-iyun kunlari qo'zg'olonchi dehqonlar Angliya poytaxtining xo'jayinlari bo'lib oldilar. Qirollik ministrларining ba'zilari -ular orasida qirollik kantsleri Simon Sedberi (u Kenterberi arxiyepiskopi ham edi) va lord-xazinachi Xeyls-qatl qilindilar. Londondagi turmalarning hammasi ag'dar-to'ntar qilindi. Qo'zg'olonchilar London sudining asosiy arxivini bosib olib, uni o'tda yoqib yubordilar. Yirik binolardan qirolning amakisi, Lankasterskiy gertsogining saroyi vayron qilib tashlandi (qirol Richard II yosh bo'lganligi tufayli gertsog Lakkasterskiy vaqtincha regentlik vazifa sini bajarar edi).

Mayl-Endek va Smitfildek dasturlari. Dehqonlarning qirol bilan bo'lgan ikki uchrashuvida (14- va 15- iyun) qo'zg'olonchilarning talablari bayon qilingan ikki petitsiya (talabnoma) taqdim etildi. Ulardan biri ancha mo'tadil hisoblangan Mayl-Endek (yoki Esseks) petitsiyasi edi. Bu petitsiya to'rt moddadan iborat edi: 1) krepostnoy huquq: (villanlik) ni bekor yilish; 2) qo'zg'olonchilarga avf berish, 3) barcha mamlakatda savdo-sotiq qilishga erkinlik berish va 4) 1 akr umumiy hajmidagi yer uchun 4 pens miqdorida ijara haqi belgilash.

Bu dastur Angliyadagi eng badavlat dehqonlarning manfaatlarini aks ettirar edi. Ikkinchi Smitfildek (yoki Kent) dasturida-ancha qat'iy talablar bayon etilgan edi. Dehqonlar o'zlariga cherkov yerlari fondidanyer berilishini, jamoaga qarashli yer-suvlardan erkin foydalanishni va barcha toifaviy tafovutlarning yo'q qilinishini talab qilgan edilar. Ikkinchi petitsiya kentlik kam erli eng kambag'al dehqonlarning ehtiyojlarini ravshan aks ettirgan edi.

Hukumat boshda yon berdi. 14-iyunda qirolning muhri bosilgan yuzlab yorliqlar tayyorlanib, dehqon jamoalariga tarqatildi. Esseks dehqonlari yorliqlarni olib, qanoat hosil qilgach, shu kuni kechqurun Londondan chiqib ketdilar. Ammo kentliklar qolib, yuqorida ko'rsatib o'tilgan ikkinchi petitsiyani tayyorlay boshladilar. Dehqonlarning saflarida parokandalik boshlanganini payqagan ma'murlar, qat'iyroq harakat qilishga kirishdilar. Dehqonlarning qirol bilan Smitfiyada ikkinchi marta uchrashuv mahalida

(15- iyun) ularning rahbari Uot Tayler xoinona o'ldirildi. Rahbarsiz qolgan Kent dehqonlarining otryadlari Londondan haydab yuborildi. Bu vaqtga kelib, ahvol osoyishtaroq bo'lgan grafliklardan Londonga kelib kirgan ritsar otryadlari yetarli darajada qo'shin tashkil etdilarki, hukumat bu qo'shinni qo'zg'olonni bostirishga yubora olardi.

Shundan so'ng qirollikning boshqa hamma joylarida qo'zg'olon bostirildi. Londondan jo'natilgan jazo ekspeditsiyalari butun yoz bo'yi qo'zg'olon qatnashchilarini ayovsizlik bilan qattiq jazoladilar.

Uot Tayler qo'zg'olonining tarixiy ahamiyati. O'rta asr davridagi barcha dehqonlar harakati singari 1381- yilgi qo'zg'olon ham muvaffaqiyatsizlik bilan tamom bo'ldi. Bunga sabab, odatdagi uyushqoqsizlik, kuchlarning bo'linib ketganligi, dasturning yetarli darajada aniq bo'lmaganligi va qo'pol taktik xatolarga yo'l qo'yilishi bo'ldi. Ingliz dehqonlari (Jakeriya qatnashchilari bo'lgan fransuz dehqonlari masalasida yuqorida aytib o'tilganidek) qirol bizning tarafimizni oladi, deb soddadillik bilan ishonardilar. Dehqonlar o'zlarni eng yomon ko'rgan amaldorlarning adabini berib, hatto o'z hukumatlarini tuzishga intilib ham ko'rmadilar. Shaharning plebey elementlari dehqonlar qo'zg'oloniga yordam berdilar, lekin plebey elementlarning o'zlari zaif bo'lganliklari tufayli, qo'zg'olonga boshchilik qilib, uni g'alabaga olib bora olmadilar.

1381- yilgi qo'zg'olon mag'lubiyatga uchragan bo'lishiga qaramay, u ingliz dehqonining bundan keyingi taqdiriga har holda katta ta'sir ko'rsatdi.

Qo'zg'olon ancha katta va qudratli qo'zg'olon bo'ldi, bu qo'zg'olondan keyin esa pomeshchiklarga barshchinani jiddiy suratda qaytadan tiklash haqida o'ylashga endi to'g'ri kelmadi. 1382- yilda va undan keyingi yillarda ayrim grafliklardagi dehqonlar feodallarga qarshi qaytadan qo'zg'olon ko'tarishga urindilar. Lordlar yon berishga majbur bo'ldilar. Shu sababli, 1381- yildan keyin kommutatsiya jarayoni yanada kuchaydi. Qulchilik tobora ko'proq rivojlanib, unda barshchina keraksiz bo'lib qoldi va u, axir pirovardi, krepostniklikning bekor qilinishiga yordam berdi. «Angliyada krepostnoy qaramlik haqiqatda XIV asrning oxirida yo'q bo'ldi, - deb yozgan edi Marke «Kapital»da, aholining juda katta ko'pchiligi u vaqtda va XV asrda

yanada ko'proq mustaqil xo'jalik yurgizuvchi erkin dehqonlardan (garchi ularning mulki har qanday feodal niqobi ostiga olingan bo'lsa ham) iborat edi».

XV asrda Angliyaning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti. XV asr mobaynida Angliyada feodalizmning yemirilishi yanada zo'raydi. Mamlakatning umumiy xo'jaligida sanoatning ahamiyati kuchaydi. Angliyada movut sanoati ayniqsa katta yutuqlarga erishdi. Angliyada yuqori sifatli movut navi yetishtirilib, uning bir qismi chet ellarga ko'plab chiqariladigan bo'ldi. Jun yigirish va to'qish, shaharlardan tashqari, kustarchilik kasbi formasida qishloqlarga ham keng tarqaldi, kustarchilik kasbi bilan shug'ullanuvchi odamlar olib sotarlar, ya'ni «movutfurushlar» uchun ishlardilar. Ingliz eksportida jun avvalgidek katta o'rin egallashda davom etgani bilan birga, XV asrda qishloq joylaridan ham har qanaqangi dag'al jun movutlar ko'plab tashqariga chiqarilardi va bu dag'al movutlarga Flandriyada yana boshqatdan ishlov berilardi.

XV asrda ingliz savdogarlari turli dengizlarda o'z savdo-sotiq ishlarini keng yoya boshladilar. Shu munosabat bilan ingliz kemasozligi zo'r berib rivojlana bordi. Dengizlarning narigi tomonlariga borib savdo qiluvchi yirik savdogarlarning bir qismi XV asrning 70 - yillarida savdogar-avantiyuristlarning birinchi dengiz savdo kompaniyasini tuzdi. Bu savdo kompaniyasi, avvalo La-Mansh va Shimoliy dengizdagi movut savdosini o'z qo'liga monopoliya qilib oldi.

XV asrda ingliz feodallari sinfi ikki qismga: odatda xo'jalik bilan o'zi shug'ullanmagan va o'zining domenini ijaraga bergan yirik feodal dvoryanlarga va yollanma mehnatni ekspluatatsiya qilgan, g'alla va jun bilan savdo-sotiq qilgan, o'z farzandlarini hunar va savdo-sotiqqa o'rgatish maqsadida shaharga jo'natgan ritsar va jentelmenlardan iborat o'rta va mayda dvoryanlarga keskin bo'linib ketdi. Kelgusida mayda yer-mulkka egalik qiluvchi dvoryanlar (jentri)ning ota-bobolari bo'lgan dvoryanlarning bu qismi xo'jalik yurgizish usuli jihatidan burjuaziyaga yaqin turib, u nikoh yo'li bilan shu burjuaziyaga ko'pincha qarindosh-urug' bo'lib ketgan edi.

Lankastyerlar sulolasi davrida Angliya. Eski feodal aristokratiyasi XV asr mobaynida hukmron toifa hisoblanar edi. Uning ko'pincha an'anaviy to'lovlar tarzida yerlardan oladigan daromadlari o'smay, balki pulning asta-sekin qadri ketishi bilan

ular amalda kamayib borganligidan, aristokratiya davlat mansablarini bosib olish yo'li bilan o'z zararlarining o'rnini qoplashga harakat qildi. Bu aristokratiya Fransiya bilan olib borilgan Yuz yillik urushdan ham katta umidvor edi. Aristokratiya Fransiyada yangi yerlar va har qanaqangi harbiy o'ljalar olishga ishongan edi. 1399-yilda Plantagenetlar o'rniga kelgan yangi Lankastyerlar sulolasi, aristokratik siyosatning quroliga aylandi.

Plantagenetlar sulolasining so'nggi (katta avlod) vakili bo'lgan qirol Richard II ni o'zining tog'avachchasi, Lankaster gertsogi Genrixni taxtdan ag'darib, o'ziga Genrix IV deb nom oldi (1399-1413). Richard qasrga qamaldi va tez orada halok bo'ldi. Yangi sulola o'zining taxtdagi mavqeini mustahkamlash uchun feodal aristokratiyasiga va ingliz cherkovi yepiskoplariga xushomadgo'ylik qildi.

Lankastyerlar cherkov yerlarini musodara qilish rejasini bir chetga yig'ishtirib qo'yib, lordlarni qattiq ta'qib qildilar va ulardan bir necha yuzlab kishilar yeretiklikda ayblanib, gulxanlarda yoqib yuborildi. Genrix V Fransiyadagi urushni keng miqyosda boshqatdan boshlab yubordi, bu urush uning vorisi Genrix VI davrida ham davom ettirildi. Dastlabki paytda Lankastyerlar urushni muvaffaqiyatli olib bordilar. Ammo bundan keyingi harbiy muvaffaqiyatsizliklar hukumatning ahvolini yanada battarroq mushkullashtirdi. Holbuki, urush ilk o'rta asr zamonidagi siyosiy munosabatlar manzarasini go'yo yangilaganday, shaxsiy hokimiyatning o'ziga xos takrorlanishi bo'lib chiqdi. Yirik feodallarga qaram bo'lib qolgan Lankastyerlar, urush mahalida feodal zodagonlarning o'z tevarak-atroflariga yana vassallar to'plash, kayerlar qurish, o'z drujinalariga ega bo'lish (ba'zan bu drujinalar soni bir necha ming kishigacha etardi) hollariga barmoq orasidan qaradilar. Lankastyerlar o'rta va mayda dvoryanlardan hamda shahar burjuaziyasidan iborat progressivroq «o'rta sinflar»ning manfaatlariga ziyon keltiruvchi siyosatni amalga oshirar ekanlar, biroq ular yirik feodallarning ham talab-ehtiyojlarini qondira olmadilar. Yuz yillik urush oqibatida boy berildi. Shuning o'zi bilan zodagonlarning «dengiz orqasidan» yangi yer-mulklar olish haqidagi orzu-umidlari puchga chiqdi. Shundan keyin baronlar Angliyaning o'zidagi yer-mulklarini qaytadan taqsimlashga kirishdilar. Aristokratiya orasida qattiq va uzoqqa cho'zilgan o'zaro urush kelib chiqdiki,

zamondoshlar uni ikki Gul urushi deb atadilar. Qizil gul Lankastyerlar sulolasining emblemasi edi. Ularning raqiblari bo'lgan York sulolasi vakillarining gerbida Oq gul tasviri bor edi.

Jek Ked qo'zg'oloni. Lankastyerlar siyosatidan, jumladan, soliqlarning o'sib borishidan, ular ma'muriyatining suiste'mollaridan, yuz yillik urushdagi muvaffaqiyatsizliklardan va Angliya savdosining izdan chiqishidan bo'lgan norozilik Angliyaning eng taraqqiy etgan dengiz sohili grafliklaridan biri bo'lgan Kent grafliğida xalq harakatining ancha keng avj olishida ifodalanadi.

Gertsog York vassallaridan biri bo'lgan Jek Ked boshchiligida 1450- yilda Kentda qo'zg'olon bo'ldi. Kentning ko'pgina mayda dehqonlari, shuningdek, shaharliklarning bir qismi qo'zg'olonda ishtirok etdi. Ammo harakatga asosan ritsarlar rahbarlik qildi. Qo'zg'olonchilar (1450- yil 2- iyun) Londonga kelib, unda hukumat oldiga bir qancha talablar qo'yishdi. Bu talablar, asosan, qirolning telba maslahatchilarini saroydan uzoqlashtirish, markaziy va mahalliy idora ishini tartibga solish, lordlarning joylarda o'zboshimchalik qilishiga, zulm o'tkazishiga chek qo'yish talablaridan iborat edi. Qo'zg'olonchilarning 1450- yildagi ijtimoiy talablari orasida ishchilar to'g'risidagi nizomlarni bekor qilish talabi borligi diqqatga sazovordir (bunda Eduard III bilan Richard II ning qonunchiligi ko'zda tutilgan bo'lib, bu qonunchilik XV asrda ham hali rasmiy ravishda bekor qilinmagan edi). Bu talab harakatga eng mazlum elementlar, ya'ni batraklar, kambag'al dehqonlar va shaharlardagi xalfalar ham qatnashganligini ko'rsatdi. Qo'yilgan talablar orasida, shuningdek, gertsog Yorkskiyning qirollik kengashiga kiritish talabi ham bor edi. 1381- yilgi qo'zg'olon paytidagi singari, hukumat dastlab yon berishga majbur bo'ldi. Lekin harakat qatnashchilari o'zlariga berilgan va'dalardan so'ng London shahrini tashlab chiqib ketadilar, qirol qo'shinlari bo'lsa chekingan qo'zg'olonchilarga hujum qildilar va ularni kaltaklay boshladilar. Ked qolgan o'z tarafdorlari bilan birgalikda bir oz vaqt kurashni davom ettirdi. Ammo qirol soldatlari bilan to'qnashuv paytida Ked shu yili 12 -iyunda yarador qilinib, so'ng asir qilib olindi. Uni Londonga olib borayotganlarida yo'lda vafot etadi.

Qizil va Oq gul urushi. Xalq ommasining Lankastyerlar sulolasiga bo'lgan nafratidan foydalangan gertsog Yorkskiy tarafdorlari mumkin qadar tezroq hokimiyatni o'z qo'llariga olishga intildilar. Genrix VI betoblighi sababli 1455- yilda Richard Yorkskiy qirollik regenti deb e'lon qilindi. Biroq Lankastyerlarning muxlislari (qoloq g'arb va janubi-g'arb ularning asosiy tayanch joylari edi) tez orada Richard Yorkskiy regentlik vazifasidan chetlatdilar. Xuddi shu yili Lankastyerlarning Yorklarga qarshi boshlagan urushida dastlab Lankastyerlar tarafdorlarining qo'li baland keldi. Boy berilgan janglardan birida, 1460- yilda Richard Yorkskiy o'ldirildi. Richard Yorkskiyning boshi tanasidan judo qilinib, qog'oz toj kiydirilgan kallasi York shahrining qo'rg'on devorlaridan biriga osib qo'yildi. Ammo o'ldirilgan Richard Yorkskiyning o'g'li Eduard Yorklar to'dasiga boshchilik qildi, u lankastyerlarni 1461- yilda ikki marta mag'lubiyatga uchratib, Londonni bosib oldi va o'zini Eduard IV nomi bilan qirol deb e'lon etdi. Genrix VI esa Tauer zindoniga qamab qo'yildi.

York sulolasi davrida ichki va tashqi siyosat. York sulolasi hokimiyatni uzoq muddatga o'z qo'lga o'tkazib olishga muvaffaq bo'ldi. 1470-1471 yillarda Lankastyerlar o'z tomonlariga o'tgan yirik feodal graf Uorvik ko'magida hokimiyat tepasiga Genrix VI ni qaytadan tiklamoqchi bo'ldilar. Ammo Eduard IV tez orada koalitsiyani tor-mor etib, taxtni o'ziga qaytarib oldi. Genrix VI yana Tauer zindoniga qamaldi va shu yerda o'ldirildi. Eduard IV York (1461-1483) mustabid idora qildi. U lankaster zodagonlariga qarashli barcha mulklarni musodara etib, o'z qo'lida juda katta yer fondi to'pladi. Bu fondan yer-mulklar ulashish yo'li bilan u o'ziga tobe yangi zodagonlarni vujudga keltirdi. Bu zodagonlarning ko'pchiligi o'rta va mayda dvoryanlar orasidan chiqqan edi. Eduard IV ingliz savdosining rivojlanishini rag'batlantirib (ingliz savdo flotiga homiylik qilish, savdogar-avantiyuristlarning va boshqalarning chet ellar bilan savdo-sotiq qiluvchi kompaniyasaga yordam berish) ayni zamonda, burjuaziyaga andishasizlik bilan do'q va po'pisa qilib undan tortiq, qarz tariqasida (lekin qarzini hech qachon to'lamasdan) katta pullar olardi va h. k. Eduard IV parlamentni onda-sonda va istar-istamas chaqirardi. Biroq tez orada Yorklarning o'z oilalari ichida kurash boshlanib ketdi. Eduard IV vafot etgandan

keyin uning ukasi Richard III hoqimiyatni bosib oldi va o'zinnig ikkita jiyanini (Eduard IV ning bolalarini) o'ldirdi. Bu voqea yorklar ichida mojaro chiqishiga bahona bo'ldi. Eduard IV oilasining tarafdorlari Lankastyerlarning qolgan odamlari bilan birlashib, Richard III ni hokimiyat tepasidan ag'dardilar.

Qat'iy jang 1485- yil 22 -avgustda Bosvort degan joy yaqinida bo'ldi. Richard III jangda mag'lub bo'ldi, Genrix Tyudor g'olib chiqdi. Lapkastyerlar sulolasiga qarindosh bo'lgan Genrix Tyudor shu yerning o'zidayoq Genrix VII nomi bilan qirol deb e'lon etildi. U Eduard IV ning qizi Elizaveta Yorkka uylandi, shunday qilib, dushmanlashib yuruvchi har ikkala feodal guruhini birlashtirdi.

XV asrning ikkinchi yarmidagi feodallar to's-to'poloni Angliyaning siyosiy taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. «Angliyaning baxtiga, - deb yozgan edi mutafakkirladan biri, - Qizil va Oq gullar urushlarida eski feodal baronlar bir-birovlarini qirib tashlagan edilar». Ularning o'rnini burjuaziya bilan aloqador bo'lgan o'rta dvoryan qatlamlaridan chiqqan va o'z xo'jaligini yangi, chinakamga burjuacha metodlar bilan yurgizuvchi yangi dvoryanlar egalladi. Tyudorlar ana shu yangi dvoryanlarga tayanib, qirollik hokimiyatining obro'-e'tiborini mustahkamladilar. Tyudorlar zamonida Angliyadagi qirollik hokimiyati uzil-kesil absolyutizm shaklini qabul qildi.

Ingliz millatining tarkib topa boshlashi. XIV-XV asrlarda Angliyada ingliz millatining tarkib topa boshlashi uchun shart-sharoit vujudga kelmoqda edi. Hudud va iqtisod umumiyliigi ana shu vaqtlarda endi yetarlicha aniq namoyon bo'ldi.

XIV-XV asrlarda Angliyada keng milliy bozor tashkil topib London mamlakatdagi savdo-sotiq oborotlarining kattagina qismini o'ziga jalb qilgan edi. XIV-XV asrlarda ingliz adabiy tilining rivoji katta yutuqlarni qo'lga kiritgan edi; ingliz adabiyoti jahonga nom chiqargan bir qancha ajoyib asarlar berdi.

1066- yilgi normandlar istilosidan boshlab, avvalgi paytda ingliz jamiyatining turli milliy tarkib aks ettirgan ikki tildan foydalanib kelindi. Qirol saroy zodagonlarining katta bir qismi fransuz tilida so'zlashardilar. Aholining asosiy ommasi -dehqonlar va shaharliklar, o'rta va mayda feodallar ingliz tilida gaplashardilar. Ingliz tili yana bir qancha lahja (sheva)larga bo'lingan bo'lib, ular

orasida London shevasi yetakchi sheva edi. Qonunlar (farmonlar) fransuz tilida tuzilardi, yuristlar sud ishlarida ana shu fransuz tilidan foydalanardilar, maktablarda dars berishda fransuz tili lotin tili bilan birgalikda qo'llanilardi.

Aholi ko'pchiligining tili bo'lgan ingliz tili fransuz tilini xonadon hayotidan ham, jamiyat hayotidan ham asta-sekin siqib chiqardi. 1258- yildayoq qirol Genrix III Angliya aholisiga ingliz tilida (london shevasida) bayonnoma bilan murojaat qilishi lozim bo'ldi. 1362-yilda Eduard III London shaharining petitsiyasiga javoban, «fransuz tili uncha ma'lum bo'lmaganligi» tufayli, sudlardagi ishlar ingliz tilida olib borilsin, deb qaror chiqardi. XIV asrning ikkkichi yarmida Angliyada eng yirik asarlar paydo bo'lib, ularda London shevasi asosida rivojlangan ingliz tili o'ziga xos barcha lug'aviy-grammatik xususiyatlari bilan milliy adabiy til sifatida maydonga chiqdi.

Viklefnig inglizcha asarlaridan tashqari, mashhur shoir Jefri-Choserning (1340-1400) asarlari, xususan uning XIV asr oxirida (90- yillar) yozilgan «Kenterberi hikoyalari» ingliz adabiy tilining shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi. «Kenterberi hikoyalari» optimizm, nozik yumor, xalq ommasiga xayrixohlik bildirish va hokim feodallar sinflari vakillarini esa satirik , masxara qilish ruhi bilan sug'orilgan. "Choser ijodi Renessans (yoki Uyg'onish) davri yangi madaniyatining vujudga kelishidan iborat bo'lib, bu yangi madaniyat Angliyada Italiyaning Uyg'onish davri madaniyati bilan deyarli bir vaqtda ravnaq topdi.

XV asrdagi ingliz madaniyatni rivojlantirishda Vilyam Kekston (1422-1491) katta ahamiyat kasb etdi. Kekston savdogar, tarjimon, matbaachi va noshir bo'lgan edi. Angliyada kitob chop etish shu odam nomi bilan bog'langan (1477 yildan). Kekston 100 ta kitob bosib chiqargan, bu kitoblarning ko'pchiligi ingliz tilida edi. Shular orasida Choserning "Kenterberi hikoyalari", lotin klassiklari Sitseron, Ovidiy va Vergiliyning inglizcha tarjimalari, Ezop masalalari va boshqalar bor edi.

Tayanch soʻz va iboralar: Angliya, Normandlar, Vilgelm I, Genrix I, Genrix II, Richard I Sheryurak, Ioan Yersiz, baron, feodal, Buyuk erkinlik xartiyasi, ega Simon de Manfor, parlament, soliq, Dahshatli sud kitobi, jon soligʻi, Uot Tayler, Viklef, lollardlar, Oksford, universitet, Jon Boll, Jek Strou, Mayl-End, Smitfild, Plantagenet, Oq va qizil gul, York, Tauer, Konterberi, adabiy til.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. X – XI asrlarda Angliyaning iqtisodiy va siyosiy ahvoli qanday edi?
2. Normandlar bosqini va uning oqibatini koʻrsating?
3. “Dahshatli sud kitobi” va uning oʻsha davr tarixini oʻrganish muhim manba sifatida?
4. “Buyuk erkinlik xartiyasi”ning mazmuni va uning mamlakat taraqqiyotidagi oʻrni?
5. Angliya Parlamenti va uning rivojlanish jarayoni?
6. Parlament va General shtatlar umumiy va xususiy jihatlari nimalardan iborat?
7. Uot Tayler qoʻzgʻolonining natijalarini ayting?
8. Oq va qizil gullar urushi nimaning natijasida kelib chiqqan?
9. Jek Ked qoʻzgʻolonining ketirib chiqargan sabablar nimalardan iborat edi?
10. Ingliz adabiy tili va millati shakllanishini tarixiy ildizlari?

Glossariy:

Daxshatli sud kitobi – Vilgelm tomonidan 1086- yili er egaligining hajmini aniqlash maqsadida aholini roʻyhatga olish oʻtkazildi va bu xalq orasida shunday nom oldi.

Parlament – (fransuzcha gapirmoq maʼnosini anglatadi) hokimiyat uchun kurashlarni avj olishi natijasida 1265- yil mamlakatda joriy etildi, inglizlar orasida katta mavqega ega fransuz Simon de Manfor katta ahamiyat kasb etdi.

Jon solig'i – 1377- yilda, qirol Richard II joriy qildi. Bunday soliq Angliyada ilgari hech qachon bo'lmagan edi. 14 yoshli va undan yuqori har bir erkak va ayol, mulkiy ahvolidan qati nazar, bu soliqni to'lashga majbur etilgan.

Qizil va Oq gul urushi – 1455-1485 yillarda Angliya taxt uchun ikki sulola Lankastyerlar va Yorklar o'rtasidagi kurash nunday ramziy nom olgan. Urush Lankastyerlarning g'alabasi bilan tugagan.

37-§. XI–XV asrlarda Germaniya davlatchiligining rivojlanishi

Germaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti. XII—XIII asrlarda Germaniyada ham ishlab chiqarish kuchlari ko'zga ko'rinarli darajada o'sdi. O'rmonlarni qisqartirish hisobiga va botqoqlik joylarni quritish yo'li bilan ekin maydonlarini kengaytirish ma'nosida ham, qishloq xo'jalik qurol-asboblarini takomillashtirish (ya'ni qishloq xo'jaligida pluglarni yaxshilash, temir asboblar sonini ko'paytirish, dalalarni o'g'itlash va h, k.) ma'nosida ham dehqonchilik katta-katta yutuqlarga erishgan edi. Oddiy g'alla— javdar, suli, arpa, ba'zan bug'doy bilan bir qatorda madaniy-texnika ekinlari: zig'ir, nasha, vayda rivojlana boshladi. Polizchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, xmelchilik (urug'i pivo pishirishda ishlatiladigan o'simlik) kengaydi.

Ayni zamonda Germaniyada shaharlarning rivojlanishi, xususan bu asrlarda juda avj oldi. Reyn va Dunay daryolari buylaridagi eski va yangi shaharlar gavjum sanoat markazlariga aylanib, qisman Germaniyaning ichki viloyatlari bilan, qisman qo'shni mamlakatlar — Fransiya, Niderlandiya, Italiya, Vengriya, Bolqon mamlakatlari bilan katta savdo-sotiq ishlari olib bordilar. Movut to'qish, surp ishlash, metallsozlik, mo'ynachilik, turli xil qurol-yarog'lar ishlash nemis hunarmandlik sexlarining asosiy mashg'uloti hisoblanardi. Reyn daryosi bo'yidagi Kyoln va Boris, Mayn daryosi buyidagi Frankfurt, Yuqori Dunay hududidagi Ulm, Nyurnberg, Augsburg bu davrdagi nemis shaharlarini sanoat jihatdan rivojlantirishda yetakchi o'rin tutdilar.

Biroq mamlakatda tovar xo'jaligi rivojlana boshlashiga qaramay, XII—XIII asrlarda Germaniya har qalay tarqoq feodal mamlakat bo'lib qolmoqda edi. Gertsogliklar ham boshqa dunyoviy va ruhoniy knyazliklar soni ko'paymoqda edi. Imperator boshqa yirik feodallar orasida syuzeren, ya'ni oliy senor bo'lib qolmoqda edi. Yirik feodallar bu vaqtda uzil-kesil voris territorial knyazlarga aylanib bormokda edilar. Mahalliy tovar aloqalarining rivojlanishi ularning mahalliy hokimi sifatidagi rolini kuchaytirardi. Markaziy qirollik-imperatorlik hokimiyati esa shaharlar bilan zaif bog'langan edi. Fransiya va Angliyada shaharlarning qirol hokimiyati bilan siyosiy ittifoqi bor edi. Germaniyada esa shaharlarning qirol

hokimiyati bilan bunday siyosiy ittifoqi yuzaga kelmadi. Germaniya qirollari, jumladan, shaharlarning mahalliy feodallarga qarshi olib borgan kurashida shaharlarga biror-bir jiddiy ko'mak berganlari yo'q. Qisman bunga sabab shuki, nemis shaharlari siyosiy sahnaga keyinroq kelib chiqdi. Bir qancha hollarda ichki savdoga nisbatan tashqi, qisman tranzit savdo-sotiqning ustunligi ham bu yerda ma'lum ahamiyat kasb etdi. Ammo Germaniya qirol hokimiyatining shaharlar bilan ittifoqining yo'qligiga asosiy sabab — German imperatorlarining agressiv tashqi siyosat olib borishlari edi. Italiyadagi urushlar, boy italyan shaharlarining ekspluatatsiya qilinishi, «dunyoga hokim bo'lish» planlari, Sharqiy Yevropadagi va Yaqin Sharqdagi bosqinchiliklar — hammasi qirollar-imperatorlarni Germaniyadagi ichki siyosat vazifalaridan chetga chalg'itib, ularni nemis shaharlari takdiriga befarq karaydigan qilib qo'ydi. Ayni vaqtda tugalmas urushlar imperatorlarni yirik feodallarga (knyaz va ritsarlarga) butkul qaram qilib qo'ydi. Chunki imperatorning g'arbiy resurslari shu yirik feodallarning o'z gardanlaridagi vassallik majburiyatlarini bajarishlariga butunlay bog'liq edi. Shtaufenlar uchinchi german sulolasining tarixi (1138—1254 yillar) german imperatorlari yuritgan tashqi bosqinchilik siyosati Germaniyaning ichki siyosati bobida naqadar halokatli oqibatlarga olib kelganligini ayniqsa yaqqol ko'rsatib beradi.

Shtaufenlar sulolasi qirollari islohotlari. Konrad III (1138—1152) ikkinchi salib yurishida qatnashgan edi. U o'z hukmronligining qolgan vaqtini Velflar bilan kurashga bag'ishladi. Genrix Mag'urning o'g'li Genrix Sherning yoshligidan foydalangan (Genrix Mag'rur 1139- yilda vafot etdi) Konrad Velflardan Bavariyani tortib olib, ularga faqat Saksoniyani qoldirdi. Konradning taxt vorisi Fridrix I Barbarossa davrida Shtaufenlar sulolasi eng zo'r qudratga ega bo'ldi.

Fridrix I Barbarossa 38 yil imperatorlik qildi (1152-1190). U shafqatsiz, tajovuzkor, g'oyat shuhratparast va makkor siyosatchi edi. Fridrix Bavariyani Velflarga qaytarib berib, ularni tinchitgach, salib yurishlari natijasida boyigan Italiyaga o'zining butun diqqat-e'tiborini qaratdi.



Fridrix I Barbarossa

Rim shaharliklarining demokratik rahbari bo'lib, Rim respublikasiga asos solishga harakat qilgan (1143-yilda) va papani dunyoviy hokimiyatdan mahrum qilmoqchi bo'lgan Arnold Breshianskiyni Fridrix I dabdurustdan papaga tutib berdi.

Arnold Breshianskiy papa zindoniga tashlandi, uning jasadi esa gulxanda kuydirildi (1155 y.). Rim respublikasi tugatildi.

Barbarossa 1158- yilning 11- noyabrida Rankal vodiysida (Pyachentsa shahriga yaqin joyda) katta seym chaqirib, unga Italiyaning barcha eng yirik feodallarini va Italiya shaharlarining vakillarini taklif etdi. Ana shu seymda Rankal qarorlari deb atalgan qarorlar qabul qilinib, ular imperatorning Italiyadagi hokimiyatini cheklanmagan hokimiyatga aylantirdi.

1167- yilda Barbarossa Italiyaga yana katta qo'shin tortib kelib, Rimni oldi. Papa Aleksandr III qochib ketishga majbur bo'ldi. Imperator Lombardiya shaharlarini tinchitmoqchi bo'ldi, lekin to'satdan boshlangan o'lat kasali uning qo'shinlarining safini xarob etdi (25 ming kishi o'ldi) va shundan keyin u Germaniyaga qaytishga majbur bo'ldi. Barbarossaning uzoq vaqt bo'lmaganligidan foydalangan Lombardiya ligasi, u bilan yangidan to'qnashmoq uchun yetarli darajada harbiy kuchlarni tayyorlay oldi.

1174—1175 yillarda Barbarossa yana Italiyada paydo bo'ldi, lekin bu safar uning unchalik omadi kelmadi. 1176- yil bahorida Lenyano degan joyda (Milandan sal uzoqroq) u liga qo'shinlari tomonidan batamom mag'lubiyatta uchratildi. Qizig'i shundaki, nemis ritsarlarini yenggan qo'shinning bir qisminigina italiyalik ritsarlar, asosiy qismini esa Milanning va Lombardiyadagi boshqa shaharlarning hunarmandlari va xalfalari tashkil qilar edi. Lenyano yonidagi mag'lubiyat Fridrix I ni Lombardiya shaharlariga yon berishga majbur etdi. Haqiqatda Shimoliy Italiyada

Shtaufenlar kelmasdan avvalgi ahvol qaytadan tiklandi. Shaharlar erkin kommuna huquqini oldilar, bu erkin kommunalar o'z syuzereni sifatida imperatorning oliy hokimiyatini tan oldilar, xolos. Ayni zamonda Fridrix I papa davlatining ishlariga har qanaqangi aralashuvidan voz kechib, papaga ham yon berishga majbur bo'ldi.

Fridrix Barbarossa va Velflar. Barbarossaning 1176-yili mag'lubiyatga uchrashining sabablaridan biri — imperatorning eng yirik vassali Genrix Sher Velfning Italiyaga yordamchi qo'shin olib borish haqidagi iltimosini rad qilishi bo'ldi. Vassallik majburiyatlarini bajarmaganligi uchun Genrix Velf feodallar sudiga tortilgan edi. Biroq Genrix Sher imperatorga buysunishdan bosh tortib, imperator va un qo'llab-quvvatlagan knyazlar bilan urush boshladi, knyazlarning uzaro urushi ikki yil (1178—1180) davom qilib, Velflarning yengilishi bilan tamom bo'ldi. Genrix Sher taslim bo'lishi kerak edi. Knyazlar sudi Genrix Sherni Germaniyadan haydab yuborish va uni barcha tanho yerlardan mahrum qilish haqida hukm chiqardi. Keyinchalik Genrix Sher Germaniyaga qaytib keldi va imperator uning ayblarini qisman kechdi. Unga Germaniyada qolish ruxsat etilib, Saksoniya yerlarining bir qismi (Braushvey gertsogligi) qaytarib berildi. Ammo Saksoniya yerlarining katta bir qismi boshqa knyazlar urtasida bulingan edi. Velflar ustidan g'alaba qozonishi Barbarossaning katta yutug'i bo'ldi. Bu g'alaba hatto eng yirik feodal ham imperator oldidagi o'z vassallik majburiyatlariga panja orasidan befarq qarashi mumkin emasligini ko'rsatdi. Aks holda u albatta jazoga tortilar edi. Ammo, ikkinchi tomondan, imperatorning Velflar ustidan qozongan g'alabasi Velflar urug'ining kuch-qudratiga havasi kelib yurgan boshqa feodallarning bergan yordami tufayligina qo'lga kiritildi. Barbarossa boshqa-biror bir antifeodal kuchlarga tayangani yo'q, Aksincha, Fridrix uzining Italiyaga nisbatan yuritgan siyosatida shaharlarning batamom raqibi ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, Barbarossa Germaniya shaharlariga ham nafrat nazari bilan qaradi. Saksoniyani taqsimlash va bu o'lkani bir nechta yirik feodalga o'tkazishning o'zi feodal tarqoqlikning batamom tantana qilganligini ko'rsatdi.

Barbarossaning Sitsiliyaga nisbatan tutgan siyosati. Fridrix Barbarossa o'z imperatorligining oxirida yana Italiya ishlariga qaytdi. 1186- yili u o'z o'g'li Genrix

VI ni Sitsiliya taxtining voris malikasi Konstantsiyaga uylantirdi. Fridrix I Barbarossa 1190- yilda o'zi qatnashgan uchinchi salib yurishi mahalida vafot etdi. Keyinchalik, XIX asrning nemis millatchilik adabiyotida va XX asrning fashist tarixchilari asarlarida Fridrix Barbarossa siymosi o'ta ketgan darajada ideallashtirib ko'rsatildi. Uning siyosiy kuch-qudrati har taraflama mubolaralashtirildi, uning olib borgan urushlari va o'ylagan harbiy fikr-niyatlariga «dunyoviy siyosat» xususiyatlari atayin qo'shib qo'yildi. 1940-yili Gitler sharqqa yurish rejasini «Barbarossa plani» («Barbarossa Fall») deb atagan edi.

Fridrix P Shtaufen. Fridrix II (1212—1250) Shtaufenlar xonadonining ikkinchi eng ko'zga ko'ringan vakili edi. Yarim nemis, yarim italyan bo'lgan Fridrix turli-tuman madaniy ta'sirlarga berilgan edi. Arab-Vizantiya ta'siri unda ayniqsa kuchli edi. Uning saroyida arab, vizantiyalik va yahudiy olimlari to'plangan edi. Uning o'zi arab va yunon tillarini bilardi, lotincha traktatlar va italyanacha she'rlar yozardi. Uning Pilermodagi saroyi o'zining zeb-ziynati va hayot uslubi jihatidan Sharqdagi arab sultonlarini saroylarini eslatib turardi. Sharq musiqasi va raqslari, sharq adabiyoti va poeziyasi, sharq arxitekturasi imperator tomonidan har taraflama rag'batlantirilardi. «Monaxlar ulamolarning fitna-fasodlari va kirdikorlariga qarshi kurashadigan va ularning shu fitna-fasodlaridan cho'chimaydigan» Sharq siyosiy tuzumining afzalliklari haqida Fridrix II har doim maqtanib so'zlardi. Sharqdagi arab-turk hokimlarining ba'zilari Fridrixning shaxsiy do'stlari edi. Fridrix II ning siyosati, avvalo, Sitsiliya qirolligini markazlashgan byurokratik monarxiyaga aylantirishdan iborat edi. 1231- yilda Fridrix Sitsiliya qirolligining konstitutsiyasini matbuotda e'lon qildi.

Nemis ritsarlarining bosqinchilik yurishlari. Nemis feodlari asosan sharq yerlarini istilo qilishni maqsad qilgan edilar. Ayniqsa Elba daryosining o'ng tomonida va Boltiq dengizi qirg'oqlarida yashagan g'arbiy slavyanlar — vagralar, obodritlar, lyutichlar, pomoryanlar va boshqalar yerlari istilo ob'ekti bo'lib qoldi. Ular istilo qilgan yerlarida o'zlarining markgrafligini shakllantirdilar. Xususan, Brapdenburg markgrafligi Urta Elba bo'yida eng yirik german mulki bo'lib qoldi. Lyutichlar degan slavyan qabilasining yerlari Brandenburg markgrafligining

tuzilishiga asos bo'ldi. Yirik german feodali Albrext Medved Askaniya (1170- yilda vafot etgan) lyutichlarga qarshi qilingan gorishga boshchilik qildi. Albrextning o'g'li va nevarasi davrida Brandenburg markgrafligi to Oder daryosiga cho'zilib borgan bo'lib, u Lujitsk slavyanlari hududining bir qismini (Lujitsk va Meyssen markalari) qam o'z ichiga olgan edi. Taxminan 1244- yilda slavyanlarning shpreva (Shpreva daryosi Jy so'ngroq nemislar ataganlaridek, Shpreva daryosi so'zidan) qabilasi yerida Berlin shahari barpo etilib, keyin u Brandenburg poytaxti bo'lib qoldi.

Nemis feodallarining Boltiq bo'yini istilo qilishlari. Nemislarning Baltika bo'yiga kirishlari XII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan edi. 1201- yili nemislar Riga shahrini barpo etdilar, so'ng u Baltika –bo'yida nemis kolonizatsiyasini tayanch manzili bo'lib soldi. Lapa Innokentiy III majusiy livlarga, kurlarga va ularning qo'shinlariga qarshi maxsus salib yurishi e'lon qildi. Livoniyani istilo qilish uchun, shuningdek, Livoniya yoki qilichbardorlar Orderi (chunki ritsarlar plashiga qilich tasviri solingan edi) deb atalgan alohida orden ham ta'sis etildi.

Ganza va Shvabiya savdo ittifoqlari. XIV asr o'rtalariga kelib Shimoliy Germaniya shaharlari sudratli Ganza ittifoqiga birlashdilar. Ganza ittifoqi iqtisodiy ittifoq bo'libgina qolmay, u siyosiy ittifoq ham edi. Lyubekda ittifoqqa kirgan shaharlardagi vakillarning vaqt-vaqti bilan s'ezdlari bo'lib turardi. Ganza savdosini o'z nazorati ostiga olishga uringan Daniya qiroliga Ganza jiddiy zarba etkaza boshladi. Ganza shaharlarining Daniya bilan olib borgan uch yillik urushini bartaraf etgan 1370-yilgi Shtral-zund sulh Shartnomasiga ko'ra, Daniya qiroliga Ganza ittifoqining ishlariga biror yo'l bilan aralashishdan voz kechdi va Daniya bo'g'ozlarida Ganzaga qarashli tovarlardan undiriladigan savdo bojlarini ancha kamaytirdi. Amalda Daniya bug'ozlari Ganza ittifoqi tomonidan monopoliya qilindi. Ganza shaharlari bilan savdo qiladigan mamlakatlar — Angliya, Shvetsiya, Rossiya va boshqalar xususiy savdo-sotiq, ishlari-Shimoliy shaharlarning ittifoqidan tashqari, XIII—XV asrlarda Germaniyada janubiy va g'arbiy shaharlarning yirik ittifoqlari bor edi. Shvabiya ittifoqi- Yuqori Dunay daryosi viloyatida joylashgan qariyb 90 ta shaharni o'z ichiga olgan edi. Ularning tepasida sanoati (movut, surp, ip gazlama to'qish va metallurgiya sanoati, qurol-yarog' ishlab chiqarish) ancha-muncha

rivojlangan markazlar — Augsburg, Ulm va Nyurnberg shaharlari turardi. Bu shaharlar esa Italiya savdosi bilan chambarchas borlangan edi. Venetsiyada katta nemis saroyi bo'lib, nemis mollari bilan savdo-sotiq qilish ishlarining hammasi shu saroyga to'plangan edi. G'arbdagi Reyn ittifoqi sanoat va ayni zamonda savdo shaharlarining ham xuddi shunday ittifoqi edi. Reyn daryosi bo'yida joylashgan va movut to'qish hamda metall ishlab chiqarishning rivojlanganligi bilan farq qilgan Kyoln, Boris, Strasburg va boshqa shaharlar shu Reyn ittifoqiga kirgan edilar. Bu shaharlar Niderlandiya, Fransiya va Italiya bilan qizg'in savdo olib bordilar.

Tayanch iboralar: gertsogliklar, Shtaufenlar, Konrad III , Fridrix I Barbarossa, Genrix Sher Velf, Braushvey gertsogligi, markgraf, Shtral-zund sulhi, legati, kapitula.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. XI - XII asrda Germaniyaning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining asosiy omillari?
2. Fridrix I Barbarossa va uning Italiya bosqini va uning natijasi?
3. Germaniya va Papalik o'rtasidagi munosabatlar?
4. Salib rishlari va uning Germaniyaga ta'siri?
5. Fridrix II ning markazlashtirish siyosati va uning oqibati?
6. Germaniyani Boltiqbo'yi xudulariga bosqinchilik yurishlari va uning natijasi?
7. Dunyoviy va diniy feodallar o'rtasidagi kurash va uning oqibati?
8. Vorms Konkordati va uning tarixiy ahamiyatini yoritib bering?
9. Germaniya - Chexiya munosabatlari va uning ijobiy va salbiy jihatlari?
10. Sigizmund islohotlari va uning natijasi?

Glossariy:

Xmelchilik - urug'i pivo pishirishda ishlatiladigan o'simlik.

Salib yurishlari – bunda Germaniya qiroli Fridrix II barbarossa ishtirok etgan.

Legati - reyxstagda papa vakili shunday nomlangan.

Kapitula - dunyoviy ritsarlar, boy ruhoniy ritsar, magistr kengashi shunday atalgan.

Meyyerlar – sobiq krepostnoy dehqonlar.

Kurfyuristlar – Germaniyada imperator saylash huquqiga ega saylovchi - knyazlar shunday atalgan.

38-§. XI – XV asrlarda Chexiyada siyosiy kurashlar

XI – XIII asrlarda Chexiyaning ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyoti. O'rta asrlarda Chexiya –Bogemiya davlati deb ham atalardi. X – XI asrlarda bir muncha taraqqiy topgan Chexiya davlati XI – XIII asrlarga kelib, feodal mamlakatga aylandi. Qirol drujinachilari lexlar va vladikalarning eski zodagon oilalari bilan birlashib, feodal tipdagi katta va birmuncha mayda yer egalariga aylandi. Lexlar va vladikalar mamlakatdagi yerlarning kattagina qismini bosib oladilar. Ularning yer-mulklarida krepostnoylar birinchi navbatda qo'liga yer berilgan qullardan tashkil topgan krepostnoylar, ya'ni otroklar yoki erksiz dehqonlar ishlardilar. Feodallar dehqon aholisini sud qilish maqsadida qirolidan jinoyatchilardan tashqari jinoyatlar uchun juda katta huquq olardilar. Chexiyada **oliy tabaqa** feodallar, panlar, **jupanlar**, ya'ni qabila boshliqlari nomidan kelib chiqqan.

Quyi tabaqa feodallar esa - vladikalar (ya'ni ular dastlabki paytlarda vladika deb, katta patriarxal oilalarni aytganlar) deb ataldi (2-chizma). Chexiyada panlar – baronlar va vladikalar – ritsarlar imtiyozli toifa – shlyaxtani tashkil qilganlar.

X – XI asrlarda Chexiyada sobiq erkin jamoachi dehqonlardan kelib chiqqan qaram dehqonlar qullardan tashkil topgan krepostnoylarga kelib qo'shildilar. Bunday qaram dehqonlar boshqacha qilib aytganda - sidlyaklar degan nom bilan atalardi.

Keyinchalik sedlyaklar pomestyelarni tashlab ketish huquqidan mahrum bo'lganlar. Ular muayyan belgilab qo'yilgan barshchina va obrok haqi to'lardilar. Biroq, XIII asrning oxirigacha va XIV asrlarda ham Chexiyada erkin dehqonlar - dedichlar tabaqasi hali saqlanib qolgan edi.

Dedichlar vorislik huquqiga ko'ra feodallarga qaram edilar. Ular jamoatchilik tartib qoidalarini saqlab qolgan va sud bo'yicha feodallarga bo'ysunganlar, ammo bu sudga ularning qilgan barcha mayda gunohlari va ayb

ishlari kirmagan. Yuqoridagi huquqqa ko'ra dedichlar o'zlariga qarashli yerlarning merosxo'rlari hisoblanardilar.

Feodal muayyan miqdorda haq to'lamay turib, ularni o'tirgan yerlaridan haydab yubora olmasdi. Bu tabaqadagi dehqonlarning majburiyatlari muhim bo'lib, ular urf – odat bo'yicha belgilab berilgan, hamda chinakam krepostnoy dehqonlar o'taydigan majburiyatlardan yengil edi. Ammo, XIII – XIV asrlarga kelib dedichlar soni birmuncha kamayadi. Yirik yer egalari va ruhoniylar yer egalari dedichlarning jamoa yerlarini tortib olib qo'yadilar.

Chexiyada nemis kolonizatsiyasi. Chexiya qirollari va imperiya. (Chexiya korllari 6-chizmada aks etgan). O'rta asrlarda Chexiyaning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotida nemis kolonizatsiyasi juda katta rol o'ynadi. XII va ayniqsa, XIII asrda Chexiya qirollari va chex panlari o'z daromadlarini ko'paytirish maqsadida german kolonistlarini, ya'ni nemis dehqonlari va hunarmandlarini o'z mulklariga keng jalb etdilar. Bir vaqtning o'zida Chexiya qirollari xizmatga taklif etgan va ulardan yirik yer – mulklari olgan german feodallari ham Chexiyaga kirib kela boshladilar. Nemis monastirlari Chexiyada katta kolonizatorlik faoliyatini olib bordilar. Ko'pgina nemis dehqonlari Chexiya qishloqlariga ham ko'chib kelib joylashdilar. Chexiyada nemis kolonizatsiyasi, o'z xarakteri jihatidan boshqa slavyan yerlaridagi nemis kolonizatsiyasidan ancha farq qilardi. Chexlarning rivojlangan feodal davlatiga to'qnash kelgan nemislar bu yerga asta – sekin tinch yo'l bilan kirdilar va asosan Chexiya shaharlariga kelib joylashdilar.

Nemis kolonizatsiyasi natijasida chex panlarining daromadlari birmuncha oshdi. Nemis kolonistlari Chexiyaning bir qancha joylarida eng yaxshi yerlarni olib, katta boylikka ega bo'ldilar va ular o'zlari bilan birga ma'lum xo'jalik tajribasiga ega bo'lgan, birmuncha takomillashgan texnikani olib keldilar. Bu texnikani kelajakda mahalliy chex aholisi ham o'rganib oldi. Nemis hunarmandlari va konchilari Chexiyaga ko'chib kelib mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga, jumladan konchilik ashlarining rivoj topishiga ham turtki bo'ldilar. Umuman, nemis kolonizatsiyasi Chexiyaning

iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda chex xalqi boshiga katta mushkullik keltirdi. Ajnabiy kolonizatsiya oqibatida Chexiyada milliy zulm avj oldi. Natijada, chexiya mahalliy aholisi, asosan shaharliklar va duhqonlar azob-uqubat chekdilar.

Shaharlarga kelib joylashgan nemis savdogarlari va hunarmandlari mahalliy chex aholisiga, ya'ni chex hunarmandlari va mayda savdogarlariga qaraganda imtiyozliroq holatda kun kechirardilar. Nemis kolonistlarining qishloqlarga quyondak oqib kelishi natijasida, kam erli chex dehqonlari sonining ortib va pomeschiklarga to'lanadigan feodal to'lovlarning ko'payishiga sabab bo'ldi. Pomeschiklar feodallar tasarruf qiladigan yerlardan undiriladigan daromadlarini kolonistlarning yerlaridan undiriladigan daromadlar darajasiga etkazishga intildilar. Tili va an'analari jihatidan erli chex aholisidan tubdan farq qilgan kelgindi nemis feodallarining mahalliy pomeschiklar bilan qo'shilishi, chex dehqoni uchun feodal – krepostniklik og'ir zulmini yanada kuchaytirib yubordi. Chexiyada nemis kolonizatsiya jarayoni natijasida ikki xalq vujudga keldi, bular orasida kelgindi nemis xalqi mahalliy chexlarga qaraganda ancha imtiyozli ahvolda kun kechirardi. Aniqki, bunday ziddiyatli ahvol chexlar noroziligini tug'dirmay iloji yo'q edi. Chexiyada feodalizm, yanada rivojlanishi va tovar pul munosabatlari o'sishi bilan, shaharlarda milliy chex elementlari tarkib topishi va qishloqlarda ijtimoiy munosabatlar keskinlashishi bilan bu norozilib ortib, rivojlanib siyosiy harakatlarga olib keldi.

Germaniya imperiyasi tizimida Chexiya (Bogemiya) qirolligi ham ziddiyatli ahvolni boshidan kechirardi. Chexiya korollari imperatorning vassallari edilar. Germaniyada imperatorlik hokimiyati tushkunlikka uchrashi bilan Chexiya qirollari imperiyaning boshqa yirik knyazlariga o'xshash, aslida mustaqil hokimlarga aylandilar.

Fridrix II Shtaufen davrida va XIII asrning II yarmidagi hokimiyatsizlik davrida Bogemiya qirollarining ahvoli birmuncha yaxshi bo'ldi. Bu vaqtda Chexiya koroli knyaz – kurfyurst huquqini oldi. Uning o'zi chex panlari seymi tomonidan saylanib, ichki idora ishlarida to'la mustaqillikka ega bo'ldi.

Chexiya qirolli saroyida va chex panlarining saroylarida germanlashish alomatlari kuzatildi. Chex feodallari va saroy a'yonlari chex xalqidan shu darajada begonalashdilar, XIII asrda Chexiyaga kelib ketgan ajnabiylar Chexiya to'g'risida u ikki millatli mamlakatdir deb yozadilar. Chex feodallari va saroy a'yonlari nemis tilini o'rganib, nemis tilida so'zlashib, nemis kiyimini kiyib yuradigan bo'ldilar. Ammo, shaharliklar – meshchanlar va dehqonlardan iborat oddiy xalq chex tilida gaplashib, o'zining eski urf – odatlarini va milliy qiyofasini saqlab qolishga harakat qildilar.

Biroq, Chexiya va Germaniya ittifoqining yana bir salbiy tomoni bor edi. Chexiya qirollari ichki german o'zaro urushlari va fitnalariga tortilgan edilar. Chexiya qirollarining o'zlari imperatorlik toj – taxtiga da'vogarlik qilar edilar. Gohida ular boshqa german feodallari bilan birgalikda yoxud slavyan xalqlariga qarshi, yoki slavyanlarga qon - qardosh va ittifoq bo'lgan xalqlarga qarshi urushlarda qatnashdilar.

Chexiyaning eng yirik qirollaridan biri bo'lgan **Pshemisl II** (1253 – 1278 yillar) ning hukmronlik yillarida Chexiya qirolligini ko'p qirrali juda keng davlatga aylandi. U Avstriya, Shtiriya, Karintiya va Kraynani egallab, to Adriatika dengizining janubigacha siljib bordi. O'rta asrlarda bu yerlarning bir qismi slavyanlarga bir qismi nemislarga qarashli edi. U boshqa german feodallari bilan birgalikda 1254- yilda prusslar bilan litvaliklarga qarshi salib yurishida qatnashdi. Shuning uchun keyinchalik Prussiya poytaxti bo'lib qolgan Kenigsberg (Qirol tog'i) shahri qirol **Pshemisl II** sharafiga ana shunday deb atalgan edi.

Pshemisl II germaniya imperatorligiga o'z nomzodini qo'ygan edi. Imperiya knyazlari boshqa bir nomzodni – **Rudolf Gabsburgni** imperator qilib saylagandan keyin **Pshemisl II** imperatorga len qasamini berishdan bosh tortdi. Bu esa uni Gabsburglar va boshqa german knyazlari bilan urush qilishga olib keldi. Urush Pshemisl IIning mag'lubiyati bilan tugadi va u Chexiyadan tashqari barcha mulklarini qo'ldan boy berdi. Xuddi shu vaqtdan

boshlab boy berilgan mulklar Gabsburglar mulkiga aylandi va bu hol Chexiyaning o'zidagi qirol hokimiyatining obro' – e'tiborini tushirib yubordi.

Lyuksemburglar sulolasining idora qilinishi. Karl I (IV) davri. Sotsial va milliy ziddiyatlarning keskinlashishi. Pshemislar sulolasi 1306- yilda barham topdi. Chex panlari 3 yil davom etgan urushdan so'ng nemis knyazi **Ioann** (chexcha Yan) **Lyuksemburgskiy**ni qirol qilib sayladilar. Panlar tomonidan saylangan yangi qirol panlarga yon bosdi, ularning toifaviy imtiyozlarini kafolatlovchi yorliq berdi. Chexiyada 1310- yildan e'tiboran yepiskoplar, panlar va ritsarlar shlyaxtasidan iborat seym, chexcha – snem muntazam chaqirilib turiladigan bo'ldi.

Shaharliklar (meshchanlar) ning vakillari s'yezd'larga har doim ham taklif qilinavermasdi. Shaharliklarning manfaatlariga taalluqli masalalar muhokama qilingandagina shaharliklarning vakillari seymga qo'yilardi. Qirol Yan Lyuksemburgskiy Chexiyada kam yashaydi. U Fransiya manfaatlarini ko'zlab, fransuz feodallari bilan birgalikda inglizlarga qarshi Kresi shahri yonida jang qiladi va 1346- yilda vafot etadi.. Xulosa shuki, yangi ajnabiy sulola qirolining idorasi Chexiyaning siyosiy jihatdan markazlashuvini mustahkamlashda hech narsa bermadi. Aksincha, panlar allegarxiyasi kuchaydi, g'arbiy german knyazining chex xalqi manfaatlariga mutlaqo yot bo'lgan siyosati uchun ana shu xalqqa qon yutishga to'g'ri keldi.

Yan Lyuksemburgskiyning o'g'li Karl I (1346 – 1378) Chexiyada karol hokimiyatining obro' – e'tiborini ko'tara oldi. Uni Germaniyada Karl IV – deb atardilar. Imperator sifatida german knyazligiga qaram bo'lgan Karl I Chexiyada o'zining vorislik mulklarini imkon qadar kengaytirishga harakat qildi. Uning hukmronlik davrida Chexiya hududiga Sileziya, Brandenburg, Saksoniyaning bir qismi ya'ni, Lujetsiya boshqa qo'shni yerlar kirar edi. U chex feodallari, chex shaharliklari, ko'proq Praga shahri bilan yaqinlashishga harakat qildi. Karl qirol bo'lib olgandan so'ng o'sib borayotgan chex sanoati va savdosini rivojlantirib, ilgari faqat nemislar foydalanib kelgan imtiyozlarni endi chexlarga ham berdi. Karl davrida Praga har tomonlama rivojlandi. Pragaga ko'chib

kelib joylashgan chex hunarmandlari hisobiga Praga atrofida Novaya Mesto degan yangi chex qishlog'i paydo bo'ldi. Pragaga o'zini – o'zi idora qilishi uchun huquq berildi. Poytaxt hashamatli binolar bilan obodonlashtirildi. Karl I o'z davrida qurdirgan ba'zi hashamatli binolar hozirgacha saqlanib kelinmoqda. Masalan, Karl shteyn qasri, Korlov mosti – bu ko'prik Vltava daryosi sohiliga solingan katta tosh ko'prikdir.

Chexiya XIV asr o'rtasidan boshlab siyosiy jihatdan yuksala bordi. Bu asosan mamlakatning iqtisodiy yutuqlarida o'z aksini topdi. XIV asrga kelib Chexiya iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin oldi. Ularning kumush konlari, movut to'qishi, surp sanoatining rivojlanganligi, qishloq xo'jaligidagi yutuqlari bunga yorqin misoldir. Chexiyada dehqonchilikdan tashqari baliqchilik, bog'dorchilik, xo'jaliklari, uzumchilik, zig'ir, nasha, xmel yetishtirishi, bularning hammasi Chexiyaga Yevropadagi boy mamlakatlardan biridir degan shuhrat keltirdi. Chexiya qiroli olgan cheksiz daromadlarni Germaniyaning birorta ham badavlat knyazi ololmasdi. XIV asrda esa Praga yirik savdo markaziga aylandi. Chexiyaning ko'pgina shaharlari masalan, Brno, Plzen, Xeb, Kutna Gora, u bilan juda yaqindan aloqa o'rnatdilar.

Chexiya XIV asr o'rtalaridan boshlab, Germaniya, Polsha, Vengriya, Quyi Dunay bo'yi mamlakatlari, Janubi-G'arbiy Rus bilan keng xalqaro savdo aloqalari olib bordi. Chexiyada savdo-pul xo'jaligi tobora o'sib, u qishloqlarni ham qamrab olgan edi. Chexiyada ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va tovar aloqalarining kengayishi jamiyatda eski feodal xo'jalik formalarini yemirib, ijtimoiy ziddiyatlarning avj olishiga olib keldi. Chex feodallari o'z ixtiyorlaridagi krepostnoy sedlyaklarni nemis huquqi deb ataluvchi huquqqa ko'chirdilar. Nemis huquqiga ko'ra, dehqonlar oshirilgan pul rentasi to'lashlari lozim edi, chunki dehqon rentani ozgina kechikib to'laydigan bo'lsa, katta yer egasi bo'lgan feodal uni har doim haydab yubora olardi. Panlarning siqig'i ostida dehqon-dedichlar ham nemis huquqiga ko'chirildi. Ularning chex huquqi o'rniga nemis huquqiga ko'chirilishi dehqon-dedichlar ahvolining yanada

yomonlashuviga olib keldi. Chunki, ular voris yerlaridan, deyarli xususiy yer egalaridan “ozod etiluvchi selyaklar”ga o’xshab huquqsiz arendatorlarga aylanib qoldilar. Bu paytda pul xo’jaligi sharoitlarida XIV asrdagi Chexiya qishlog’i juda tabaqalashgan qishloq bo’lib qoldi. Qishloqni kam yerli dehqonlarning ko’pchiligi, ya’ni podsosedka deb ataluvchi dehqonlar va butunlay yersiz kambag’al dehqonlar, ya’ni xalupnik deb ataluvchi dehqonlar tashkil etar edi. Ularning bazilaridan qisman batraklar sifatida foydalanilgan, boshqalari hech qanaqa ish topa olmay qashshoqlikda kun kechiradilar. Ba’zi bir kambag’allargina shaharlarga ishga joylashishga muyassar bo’lardilar.

Shunday qilib, chex dehqonlarining ahvoli, ayniqsa XIV asrning ikkinchi yarmida va XV asr boshlarida tobora og’irlashdi. Og’ir arenda, krepostnoylik, sudxo’rlik dehqonlarning yersizligi – natijasida chex mahalliy aholisini qiyin ahvolga tushirdi. Chexiyaning ba’zi aholisi zich qishloqlarini nochor ahvolga solib qo’ydi. XV asr boshlariga kelib, shaharda ham ijtimoiy ziddiyatlar tobora keskinlashdi. Nemislardan iborat bo’lgan shahar patriatsiati sanoatining asosiy tarmoqlarini va savdoni, shuningdek, shahar idorasini, hattoki, Chexiya poytaxti Pragani ham o’z qo’liga kiritib oldi. Sexlarga qisman birlashgan, qisman yolg’iz o’zi kosiblik qiluvchi o’rta darajadagi hunarmand-chexning mustahkam oyoqqa turgan nemis masteri yoki nemis savdogari bilan ana shunday sharoitda raqobat qilishi juda qiyin edi. Chexiyadagi sex tuzumining xususiyati shunda ediki, u G’arb mamlakatlaridagiga nisabatan kechroq paydo bo’lgan va bu sexlarda odamlar juda ko’p emas edi. Bunga sabab Chexiya shaharlarida hukmronlik qilgan nemis patriatsiatlarining ko’pincha qarshi harakat qilishi bo’ldi. Chex qishloqlaridagi singari Chexiya shaharlarida ham eng kambag’al hunarmandlar, qora ishchilar, qishloqlardan kelgan turli tuman kelgindilardan iborat juda ko’p faqir-fuqaro to’da bo’lib yurardi.

Chexiyada g’oyat darajada keskinlashib ketgan ijtimoiy ziddiyatlar ochiqdan – ochiq mahalliy aholi orasiga yoyilib, milliy tusga kira boshladi. Chex dehqonlari, o’rta va mayda darajadagi shaharliklar, shuningdek, quyi ritsarlar (zemanlar) asosan badavlat nemis sinflarini o’zlarining sinfiy dushmanlari deb

bilardilar. Chunki, Chexiyadagi nemislar bu vaqtga kelib siyosat maydonida juda katta rol o'ynar edilar.

Chexiya va papalik. Yan Gus rahbarligidagi guschilarning harakati.

XIV asrning oxiri XV asr boshlariga kelib Chexiyada yaa bir ziddiyat katolik cherkovining o'sib boruvchi zulmi va ekspluatatsiyasi edi. Yuz yillik urush mahalida papalik o'z yig'implarining asosiy og'irligini Sharqiy Yevropaga, Germaniya, Chexiya, Polsha va Vengriyaga yuklagan edi. Papa saroyiga turli ko'rinishdagi to'lovlarni Chexiya ayniqsa ko'p miqdorda to'lashi lozim edi. Papaning indulgentsiya sotib yuruvchi odamlari Chexiyada ko'payib ketgan edi. Indulgentsiya Papa yorlig'i bo'lib, bu yorliqlarni pulga sotib olgan kishilarning "gunohidan o'tilardi". Oliy tabaqa chex ruhoniylari shaxslarini tayinlab qo'yilganligi uchun papa juda ko'p miqdorda boylik orttirardi. Chexiyadan yig'ilgan cherkov disyatinalarining katta qismi papa xazinasiga kelib tushardi. Ayni zamonda Chexiyadagi ruhoniylarning anchagina qismi chexlardan chiqqan odamlar emas, balki Chexiyadagi yer-mulklarga egalik qiluvchi kelgindi nemis ruhoniylari va monarxlarni tashkil qiladi. XIV asrning oxiri XV asrda chexlar tomonidan olib borilgan navbatdagi inqilobi kurashning o'ziga xos va murakkb jihati ana shundan kelib chiqqan edi. Demokratik va chex ijtimoiy kuchlarining: shaharliklar, dehqonlar va qisman ritsarlarning nafrati ayni vaqtda ham chex feodal - krepostnoylik tuzumiga qarshi qaratilgan edi. G'oyaviy jihatdan bu ziddiyatlar keng reformatsion harakatda o'z ifodasini topdi. Bu harakatlar Chexiyada ajnabiy zulmining ko'p darajada mujassam timsoli bo'lgan o'rta asr katolik cherkoviga ham qarshi qaratilgan edi.

Chex demoratik ijtimoiy kuch namoyondasi Yan Gusdir.



Yan Gus

Xo'sh Yan Gus kim edi? U ruhoniyy va Praga universiteti professori bo'lgan. Gus dehqon oilasidan kelib chiqqan, 1369-yilda Gusinets degan joyda tug'ilgan. Praga universitetining talabasi bo'lgan Yan Gus 1398- yilda universitet professori, 1402 - yilda esa uning rektori bo'ldi.

Yan Gusning tashkilotchiligi sababli Chexiya qiroli Vatslav 1409- yilda Praga universitetining ustavini o'zgartirib, professorlik darajasini olgan chexlarga universitetni idora qilishda rahbarlik rolini topshirdi. Yan Gusning zamondoshi, ham ustozing ingliz reformatori Jon Viklefning ta'siri ostida uning diniy va ijtimoiy, siyosiy qarashlari ancha rivoj topdi. Biroq, bir qancha masalalarda u ustozing Jon Viklefdan o'zib ketdi. Gusning papalik bilan munosabatlari keskinlashib, murosasiz tus oldi. U mahalliy chex aholisini indulgentsiya bilan savdo qilishga qarshi chorladi. Oliy tabaqa katolik ruhoniylarining buzg'unchiliklariga qarshi, cherkov yer egaligining g'oyat darajada keng tomir yoyishiga qarshi chiqdi. Cherkov ruhoniylarining turli – tuman xurofiy urf-odatlarini qoraladi. U toat-ibodatni ona tilida, chex tilida ado etilishini talab qildi. Eng qisqa vaqt ichidagi reforma sifatida Yan Gus cherkov yerlarini tortib olib, ulardan davlat ehtiyojlari uchun foydalanishni hukumatga tavsiya etdi.

Gus ruhoniylarni alohida, ya'ni dinga ishonuvchi oddiy odamlarga nisbatan imtiyozli toifaga aylantirishga qarshi norozilik bildirib, ruhoniylarni ham, shuningdek, shahar aholisini ham "har ikkala noz-ne'mat bilan", non va vino bilan dilini poklashni, cho'qintirishni qattiq turib talab qildi. Bu keyinchalik Yan Gus tarafdorlarining shioriga aylandi. Gus bevosita ijtimoiy masalalarga ham o'z munosabatini bildirdi. Biroq, u revolyutsioner emas edi va shu sababli u mavjud feodal tuzumni yemirib tashlashga da'vat etmadi. U asosan krepostnoylikning eng og'ir reformalarini yumshatishga chaqirish bilangina cheklandi. Shu tariqa Yan Gus panlarni o'z hukmronliklarini suiste'mol qilmay

“kambag’allarga mehr-shafqatli bo’lishga va kambag’allarni adolat bilan idora qilishga da’vat etdi” .

U qirollik sudlarida bevosita ishtirok etib, qirollik sudlari da kambag’allarga zulm qilishga qarshi norozilik bildirdi. U o’z ma’ruzalarida va yozma nutqlarida panlar tomonidan o’lib ketgan dehqonlarning mol- mulkini talon taroj qilish, o’lgandan keyingi yig’imlarni qoralagan edi. Yan Gus “haqqoniyat yengadi” degan iborani juda yaxshi ko’rar edi. Bu shior bilan Yan Gus mehnatkashlar ommasining porloq kelajagiga bo’lgan o’z ishonchini ifodalardi. O’zi shu dehqonlar orasidan kelib chiqqanligi uchun, u dehqonlar hayotini yaxshi bilardi. Yan Gus umrining oxirigicha qishloq dehqonlari bilan bog’lanib qoldi. U chex tilida va’zxonlik qilardi. Uning ma’ruzalarini xat savodi yo’q dehqonlar, kambag’allar ham tushunardi chunki, u voqealarni kundalik hayotdan olib o’z g’oyalarini targ’ib qilgan. Chex kambag’allari va dehqonlari “**mistr Gus**”ning ma’ruzalarini jon quloqlari bilan tinglashardi.

Gusning bundan faoliyati dastlab Praga arxiyepiskopini, so’ngra esa papani unga qarshi qo’zg’atdi. Gusning ma’ruzalarini tinglash man etildi. U professorlik va rektorlik lavozimlaridan mahrum etilib, 1412- yilda Pragani tashlab ketishga majbur bo’ldi. U ereslik – shakkoklikda ayblanib, 1414- yilda Konstant sobori sudiga chaqirildi. Imperator Sigizmund Gusni shaxsan muxofaza qilib, unga qo’riqlov yorlig’i berdi. Gus o’zi aytganidek, “xaloyiq oldida haqiqatni ochib bermoq uchun” ya’ni cherkov sabori oldida o’z ta’limotining haq ta’limot ekanligini himoya qilmoq uchun Konstantsga jo’nadi. Ayni paytda uning obro’-e’tibori papaning obro’ – e’tiboridan baland edi. Biroq Konstantsiga kelishi bilan Yan Gus darhol qamoqqa olindi. Yepiskoplar sabori uning gapini ham eshitishni istamasdan, uning yeretik sifatida o’tda kuydirish to’g’risida hukm chiqardilar. Imperator Sigizmund o’z so’zidan xoinona qaytib Gusga yordam berishni istamadi. 1415- yilning 6-iyulida Yan Gus Konstants maydonlaridan birida olovda kuydirildi. Chexiya xalqi 6 iyul kunini o’z milliy qahramonlari “Yan Gus xotirasi kuni” deb esga olishadi.

Biroq Yan Gusning o'lishi Chexiyada chuqur g'azab uyg'otdi. Uning o'limi haqida Chexiya va Moraviya ruhoniylari yozma norozilik bildirdilar. Chexiyada kotolitsizmdan ommaviy ravishda qaytish hodisalari yuz berdi. Vujudga kelgan "yeretiklik jamoalari" Gusning cherkov va jamiyatni reforma qilish haqidagi g'oyalarini amalga oshirishga da'vat etib, Gus ta'limotini chuqurlashtira va revolyutsionerlashtira bordilar. Shu munosabat bilan 1419- yil 30- iyulda Pragada shaharliklarning qo'zg'olonlari bo'ldi. Praga va uning atrofidagi shaharlarning polebeylar ommasi 1419- yilga Praga qo'zg'olonining aktiv kuchi bo'ldi. Bu qo'zg'olonga kambag'allar orasidan chiqqan Praga ruhoniysi Yan Jelivskiy boshchilik qildi. Qo'zg'olon natijasida qirol Vatslav amalda taxtdan ag'darib tashlandi. Vatslav Pragadan qochib ketdi va tez orada o'sha yiliyoq vafot etdi.

Vatslav o'limidan so'ng uning o'rniga ukasi imperator Sigizmund Chexiya taxtiga vorislik qilishi lozim edi. Yan Gusning o'ldirilishida Sigizmundning qabih yo'l tutganligi va uning nemis feodallari bilan aloqa qilganligi tufayli chexlar xatto uning nomini ham eshitgilari kelmadi. Na panlar, na shlyaxta, na shaharliklar Sigizmundga itoat etishni istamasdilar. Qishloqlarda cherkov va dunyoviy nemis katta yer egalari harakat boshlanib ketdi. Chexiya 1419- yilning avgustidan e'tiboran Germaniya bilan aloqasini uzib, mustaqil davlat bo'lib oldi.

Guschilar harakati deb nom olgan urushlar Buyuk Chexiya dehqonlari urushlarining harakatga keltiruvchi kuchlari juda keng va turli-tuman edi. Eng boshidan boshlab guschilar harakatida bir-biriga qarama-qarshi ikki qanot paydo bo'ldi: 1) chashniklar yoki podoboylarning mo'tadil partiyasi - guschilarning shoirlaridan biri - har ikkala noz ne'mat, ya'ni non va vino bilan dilni poklash bo'lib, bunga panlarning, yirik ritsarlarning va shaharliklarning asosan Praga shahrining vakillari kirgan edi. 2) taboriylarning ular Tabor yoki Favoradagi harbiy lageri nomidan olingan radikal demokratik partiyasi bo'lib, uni xonavayron bo'lgan ritsarlar, kambag'al hunarmandlar va dehqonlar tashkil qilardilar. Chashniklarning "to'rtta modda" deb atalgan programmasi Chexiyada toat - ibodat chex tilida ado etiladigan milliy guschilar cherkovini qaror toptirishni va cherkov mol mulkini tortib

olib hukumat ixtiyoriga berilishini talab qilardi. Chashniklar boshqa hech qanday ijtimoiy va siyosiy reforma qilishni ilgari surmadilar.

Guschilarning urushlari. Chashniklar manarxiyani saqlab qolishga harakat qildilar. Ular Lyuksenburglar sulolasi bilan aloqani uzib, Polsha, Litva valiahdi **Sigizmundni** Chexiya qirollining regenti sifatida Pragaga taklif etdilar. Sigizmund Litva knyazi Vitovning jiyani edi. Ba'zi manbalarda Sigizmundni **Jigimont** deb tilga olingan. Keyinroq chashniklarning yirik rahbarlaridan biri bo'lgan pan Yuriy (chex tilida – Yirji) Podebrad qirol regenti bo'lib oldi. XV asrning 20-yillariga kelib chashniklar Praga polibeylari oppozitsiyasi bilan kelisha olmay qolishdi. Pragada oppozitsion demokratik harakatning o'sishidan cho'chigan chashniklar Praga demokratiyasining rahbari Yan Jilevskiyni o'ldirishga shoshildilar. 1422-yilning 9-marti kuni uni aldab ratushaga chiqarib, qamoqqa oladilar. Uni shu erning o'zidayoq o'limga hukm qiladilar hamda ratusha binosida qatl etdilar.

Guschilarning boshqa lageri, ya'ni taboriylar ham o'z programmalarida “Praganing to'rtta moddasi”ni tan olib, bu moddalarning mazmunini keng talqin etdilar va ularga o'zlarining talablarini kiritdilar. Siyosiy sohada taboriylar “qirolsiz davlat qurish”, ya'ni respublika tarafdori edilar. Taboriylarning asosiy ijtimoiy talabi - krepostnoy huquqini bekor qilish va yerni jamoa mulkiga aylantirish, ya'ni yerni mehnatkash dehqonlarga berishdan iborat edi. Taboriylar feodal-pomishchiklarning zulmini katta gunoh, ya'ni “o'lim darajasidagi gunoh” deb qarardilar. Keyinchalik Yan Jijka (1360-1424) taboriylarga siyosiy rahbarlik qildi. U 1410 yilgi Gryunvald jangida ishtirok etgan qobiliyatli sarkarda, ritsar edi. Yan Jijka 1424 yilda vafot etganidan keyin sobiq ruhoniy Prokop Vilikiy – Katta uning vorisi bo'lib qoldi. Prokop Malenkiy – Kichkina uning yordamchisi edi.

Pikartlar va o'ta taboriylar to'liq mol-mulkka va davlatni yo'qotishga chaqirar edilar, ularning ba'zilari xatto ateizmga yaqinlashib qolgan edilar. Iso payg'ambar haqida o'ta taboriylar o'zgacha fikrda edilar, ular Isoni oddiy odam deb hisoblaganlar. Xudo – der edilar ular, faqat insonning aqlli, vijdonli

insonlarning dilida mavjuddir deb ta'kidlaganlar. O'ta taboriylarning lideri **Martin Guska** edi. Ammo, Jijka o'ta sektantlarning faoliyati umumiy ishga halal beradi deb hisoblab, ularni 1421- yilidayoq Tabordan uzoqlashtirgan edi. Jijkaning bu ishi albatta revolyutsion lager kuchlariga katta zarar etkazdi.

Guschilar nemis ritsarlariga qaqshatqich zarba berdilar. 1420-1431 yillarda imperator bilan papa guschilarga qarshi 5 marta salib yurishi uyushtirdi, biroq, bu yurishlarning barchasi muvaffaqiyat qozona olmadi. Yan Jijka 1420- yilning 14- iyulida Praganing Vitkova hozirgi Jijka tog'i etagida salib yurishi qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. Uning bu g'alabasi keyingi harakatlarga qanot bag'ishladi. 1421 -yilda seymi Sigizmund Chexiya toju-taxtidan mahrum qilinadi. Ayniqsa, nemis kechuvi yonidagi ikkinchi salb jangida salibchilar ustidan katta g'alaba qozondilar. 1424-yil yozida Jijka Malishova shahri yonida salibchilarni engib, nemis kolonizatsiyasining asosiy markazi bo'lgan Kutenburg – Kutna gora shahrini bosib oldi. Bu uchinchi salib jangida Yan Jijka ko'zi ko'r holda qo'shinlarga qo'mondonlik qildi va g'alabaga erishdi. Bu jangdan so'ng u Moraviyaga ketdi va shu yerda u o'lat kasalligiga chalinib vafot etdi. Uning vorisi Prokop Katta to'rtinchi salib kurashni davom ettirib, 1426- yilda Ust-Laba shahrida nemis ritsar qo'shinining 15 mingga yaqin askarini tor-mor keltirdi.

Ularning yutuqlari nemis feodallariga xavotirga solardi. Guschilarning salobatigina nemis ritsarlarining tumtaraqay qochishlari uchun kifoya edi. Taboriylar 1427-yili Saksoniya, Brandenburg, Boltiq bo'yi Prussiyaga kirib bordilar, 1431-yil Plzen shahrining janubi – g'arbida joylashgan Domajlits shahri yonidagi jangda salibchilar beshinchi yurishining daf etilishi guschilarning nemis feodallari ustidan qozongan oxirgi g'alabasi edi. Papa Evgeniy IV bilan imperator Sigizmund guschilarga qarshi qilinadigan yangi hujumdan voz kechib, guschilar orasiga nizo solib, chashniklarni esa o'z taraflariga og'dirishni reja qilgan edilar. Ular bu maqsadlariga erishdilar ham lekin, revolyutsiya bundan buyon chuqurlasha bormoqda edi.

1433-yilda Pragada Praga kompaktatlari nomi ostida alohida kelishuv bitimi tuzildi. Shundan keyin chashniklar nemis feodallariga qarshi kurashni to'xtatib, taboriylarga qarshi kurashish uchun nemis feodallari bilan birlashdilar. 1434- yili Lipani, (manbalarda bu joy - Chexiya kechuvi deb ham tilga olinadi) oldidagi jangda chashniklar endi nemislar bilan birgalikda taboriylarga qarshi kurashdilar va taboriylar engildilar, har ikkala Prokop esa o'ldirildi.

1452- yilgacha Taboriylar kurashni davom ettirdilar, Tabor shahri chashniklar tomonidan qo'lga olindi va vayron qilib tashlandi.

Chashniklar imperator Sigizmundni qirol deb tan oldilar. 1447- yili Sigizmund vafot etadi, Chexiya taxti Gasburglardan birining o'g'liga turmushga chiqqan qizining o'g'li, ya'ni Sigizmundning nevarasi qo'lga o'tdi. Bu juda yosh qirol bo'lganligi sababli butun hokimiyat panlar qo'lga o'tdi. Keyinroq 1458-1871- yillarda Chexiya taxtini chashniklar to'dasining liderlaridan biri bo'lgan Yuriy (Yirji) Podebrad egalladi. Podebrad vafot etganidan keyin chexlarni Yagellanlarning polyak sulolasiga mansub odamlar bir oz vaqt idora qilib turdi. Bu sulolaning so'nggi vakili 1526- yilda qazo qildi. Bu vaqtga kelib katta kuchga ega bo'lgan turklar Chexiyaga xavf solayotgan edi. Shuning uchun chex panlari taxtni yana Gabsburglar qo'lga topshirishga qaror qiladilar. Shunday qilib, Chexiya yana Germaniya imperiyasi qo'li ostiga o'tadi.

Guschilar harakati Chexiya tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'rta asrlarda eng yirik dehqonlar harakati, ajnabiy nemis hukmronligiga qarshi keng avj olgan milliy harakat va ilk cherkov reformatsiyasi o'rta asr katolik cherkoviga qarshi qaratilgan qo'zg'olon guschilarning urushlarida bir butun bo'lib chirmashib ketdi. Guschilarning urushlari Chexiyada nemislar zo'ravonligiga zarba berib, ularning bundan keyin mamlakatga kirib kelishini to'xtatdi. Bu urushlar Chexiyaning Germaniya imperiyasidan uzoq muddatgacha, aytish mumkinki, 100 yildan ortiq mustaqil siyosiy ahvolga erishuvini ta'minladi. Ammo, Chexiya keyinchalik yana imperiya tarkibiga kirdi, biroq endi ma'lum shartnomalar asosida kirdi. XVII asrning I yarmidagi O'ttiz yillik

urushgina Chexiyani uzoq vaqtgacha istilo etilgan viloyatga aylantirib qo'ydi. Tarixda guschilar harakati Chexiyaning milliy ozodlik harakati nomini oldi.

Chex adabiyoti va madaniyati asosan XVI-XVII asrlarda katta yutuqlarga erishdi. Yan Gus chex grammatikasini yozdi. Chex tili orfografiyasini yaratdi, chex xalqi hozirgacha shu grammatika va orfografiyadan foydalanib kelmoqda. Yan Gusning chex tilida bosilgan asarlari hozirgi zamon chex adabiy tiliga asos qilib olindi. Guschilar harakatiga oid: pamfletlar, satiralar, harbiy- revolyutsion gimnlar, qo'shiqlar yozib qoldirilgan. Chex yozuvchilaridan biri Pyotr Xelchitskiy (1390-1460) edi. U XV asrning 50 yillarida guschilar orasida "chex brodarlari" deb atalgan oqimning yirik g'oyaviy yozuvchilaridan biri edi. Xelchitskiy o'z asarlarida katolik cherkovi va feodal – krepostnoylik tuzumini tanqid qiladi. U har qanday davlatni gunoh deb hisoblab, zo'ravonlikni rad etgan, urushni, sudda qatnashishni, soliqlar to'lashni qoralagan edi. Xelchitskiy va uning tarafdorlari xalq orasida ma'orifni taraqqiy qildirishga jiddiy e'tibor berar edi. Ular maktablar ochadilar, pedagogik masalalar bilan shug'ullanadilar. Ulardan keyin mashxur chex pedagogi, yangi pedagogikaning yaratuvchisi Yan Amos Komenskiy (1592 - 1670) yetishib chiqqanligi tarixdan bizga ma'lum.

Milliy harakat sifatida muvaffaqiyat qozongan guschilar harakati dehqonlar qo'zg'oloni sifatida mag'lubiyatga uchradi. Dehqonlar bilan boshqa demokratik tabaqalarning manfaatlarini ifodalagan taboriylar yer bilan yakson qilindi. Shu bilan birga Chexiyada feodal krepostnoylik rejimini tugatish masalasi hal etilmay qolib ketdi. 1474 va 1487- yillardagi seymlar panlarning roziligini olmay turib, dehqonlarning pomesteylaridan "chiqib ketishi"ni man qiluvchi qonunlar qabul qilishdi. O'z pomesteylaridan qochib ketgan krepostnoylarga va ularni yangi joylarda qabul qilganlarga jazo choralari belgilandi. 1497-yilgi seymda Chexiyadagi oliy davlat mansablarini faqat dvoryanlar toifasiga mansub shaxslargina egallashlari mumkin degan qaror qabul qilindi. XV asr oxiridan boshlab meshchanlarning seymdagi vakillari kamaytirildi va birgina Praga shahari deputatlarigina kiradigan bo'lib qoldi.

Tayanch so'z va iboralar: Dedichlar, guschilar harakati, erkin dehqonlar, Chexiya Belgiyasi, pomestey, panlar, seym, chex brodarlari, chashnik, gabsburg, taboriylar, batrak, reformatsiya, Praga kompaktati, podobo'y, polebey.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. O'rta asrlarda Chexiya – Chexiya Bogemiya deb ham atalardi, nima uchun?
2. Chexiyada panoshlar va zemanlar deb kimlarni ataganlar?
3. Chexiyada erkin dehqonlar tabaqasi nima deb atalgan?
4. Pshemislar sulolasi nechanchi yilda barham topdi?
5. Chexiya XIV asr o'rtalaridan boshlab, qaysi davlatlar bilan keng xalqaro savdo aloqalari olib bordi?
6. XIV asrdagi Chexiya qishloqlarida qanday tabaqalar mavjud bo'gan?
7. Yuriy (Yirji) Podebrad kim edi?
8. 1433- yilda Pragada qanday kelishuv bitimi imzolandi?
9. Yan Gus rahbarligidagi guschilar harakatining mohiyati nimadan iborat edi?

Glossariy:

Panoshlar va zemanlar - ya'ni, mayda ritsarlar – degan ma'noni anglatadi.

Panlar yoki jupanlar – qabila boshliqlari.

Otroklar – erksiz dehqonlar.

Sedlyaklar – qaram dehqonlar.

Shlyaxta “lexi” - zodagon urug’lar.

Podsosedka – kam yerli dehqon.

Xalupnik – butunlay yersiz, kambag’al dehqon.

39-§. XI – XV asrlarda Ispaniya va Portugaliya

Ispaniya rekonkistasining mohiyati. Arablarning Ispaniyaga kirishi.

Arablarning Ispaniya bilan uzoq olib borgan kurashi Ispaniya davlatining tashkil topishiga zamin yaratdi. Bu davrdagi Pireneya yarim oroli tarixi rekonkista jarayoni bilan to'liq bog'liq. **Rekonkista** deb – Ispaniyaning Pireneya yarim orolini arablardan qaytarib olishiga aytilgan. Ispan xalqlarining arab-marvlarga qarshi olib borgan ozodlik kurashi bo'lgan keng ma'nodagi rekonkista – bu harakat VIII asrdan boshlab, to arablar yarim orolni istilo qilganlaridan keyin, ya'ni VIII asrdan XIII asr oxirigacha davom etdi. XV asr oxirida esa arablar Ispaniyadagi so'nggi yirik mulki hisoblangan Granada qo'ldan boy berildi.

Biz rekonkista haqida fikr yuritish ekanmiz, bevosita Ispaniyaning XI-XIII asr davrlarini ko'z oldimizga keltirishimiz kerak. XI-XIII asrlar davomida ispan xalqlari katta kuch bilan Pireneya yarim orolining janubiga tomon siljib borganlar.



Kordoba masjidi

Arablar hukmronligi Ispaniyada X asrda eng kuchli davri edi. Bu vaqtda Kordova amirligi Kordova xalifaligiga aylantirilgan edi. Ispan arablariga-mavrlariga yarim oroldan tashqari, Shimoliy Afrikadagi barbar qabilalari ham bo'ysunar edilar. Arablar Sharqning yuksak madaniyatini o'zlashtirgan holda Ispaniyada sun'iy sug'orish ishlarini keng ma'noda qo'lladilar. Ular yarim orolda yangi yerlarni o'zlashtirdilar va qimmatli qishloq xo'jalik ekinlarini joriy qildilar: sholi, shakar qamish, tut daraxti, apelsin, limon va boshqa maxsulotlarni etishtirdilar (1-chizma). Arablar davrida hunarmandchilik barq urib rivojlandi: metall, charm, junga ishlov berish, ipak, oyna va zargarlik buyumlari ishlab chiqarish yuksak darajada takomillashtirilgan edi (2-chizma). Kordova xalifaligi Shimoliy Afrika orqali Sharqdagi barcha musulmon mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini yaxshi rivojlantirgan edi. Ispan arablari Yevropaning turli

mamlakatlari bilan ayniqsa, Fransiya, Italiya, shuningdek, Vizantiya bilan savdo-sotiq olib borardilar (3-chizma). Aytish mumkin, Rimliklar davrida mavjud bo'lgan, vestgotlar davrida rivojlangan Ispaniya shaharlari arablar davriga kelib yirik sanoat markazlariga aylandi: Andaluziya shaharlari, Ispaniyaning janubidagi – Kordova, Sevilya, Granada, Valensiya shaharlarini kiritish mumkin (4-chizma). XI asrga kelib xalifalikning poytaxt shahri hisoblangan Kordova - Yevropaning eng yirik shaharlari qatoridan joy oldi.

Kordovaning 500 mingga yaqin aholisi bo'lgan. Ispaniya hayotida arablarning ajoyib arxetikturasi alohida o'rin egallaydi. Arablar Ispaniyada juda mustahkam yodgorliklar qurib qoldirganlarki, bu yodgorliklar hozirgacha saqlanib turibdi: VIII asrda qurilgan Kordova masjidi, Granadadagi XIII asrda bunyod etilgan Algambra saroyi, yana XIII asrga oid Skvilyandagi Alkasar qasri Ispaniyada arab madaniyati yuksak bo'lganligidan dalolat beradi (5-chizma).

XI asr o'rtalarida xalifalik yirik va qisman mayda bo'lgan 23 ta feodal davlatlarga bo'linib ketdi, ularning ba'zilari shahar respublikalaridan iborat edi. Ayni zamonda Ispaniyadagi arab feodalizmi mahalliy aholi uchun g'oyatda og'ir bo'ldi. Feodal ekspluatatsiyasi kuchaya bordi, milliy zulm va huquqiy tengsizlik zo'raydi. Ispaniyaning xristian aholisiga zo'rlik bilan musulmon dinini qabul qildirildi.

Xalifalikning aksariyat aholisi arab bo'lmagan xalqlardan iborat edi. Mavrlar Ispaniyada juda ozchilikni tashkil etar edilar. Pireneya yarim orolining istilo qilingan xalqlari qisman arab tilini o'rganib olgan – mosarablar, ba'zilari esa musulmon dinini qabul qilgan – renegatoslar bo'lsalar-da, lekin ular marvlarga kelgindi, istilochi va zolim deb qarardilar. IX-XI asrlar davomida vestgotlar davlatining poytaxti bo'lgan Toledo shahri arablarga taslim bo'lmadi, aholisi Kordova xalifaligiga qarshi shiddatli qo'zg'olonlar ko'tardi. Hali shimolda Asturiya – Oviedo, Navarra, Ispan markasi territoriyalari arablar tomonidan ishg'ol qilinmagan edi. U yerlarni bir paytlar Karl Buyuk ishg'ol etgan edi. Marvlarga hujum esa xuddi ana shu yerdan boshlandi. Rekonkista

bundan buyon keng milliy – ozodlik harakatiga aylanib, unda tarkib topayotgan ispan xalqlarining turli xil sinflari: feodallar ham dehqonlar ham qatnashdilar.

Rekonkista ispan xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot shart-sharoitlari taqozosi bilan kelib chiqqan zaruriy qonuniy jarayondir. Tog'-toshlarga surib chiqarilgan, dehqonchilik uchun zarur bo'lgan yer maydonlaridan mahrum etilgan, O'rta Dengizdan kesib qo'yilgan ispanlar bir zamonlar o'z avlodlari istiqomat qilib, so'ng arablar tomonidan istilo qilingan va siqib chiqarilgan janubga tomon siljib borishga majbur bo'ldilar. Aks holda o'z ishlab chiqaruvchi kuchlarining kelgusidagi o'sishidan va o'z millatlarining ravnaq topishidan voz kechishlari lozim edi.

Rekonkistaning asosiy bosqichlari. Rekonkistaning asosiy bosqichlari quyidagilardir. Asturiya qirolligi VIII – IX asrlarda yarim orolning butun shimoliga va shimoli-g'arbga o'z ta'sirini yoydi. X asr boshlarida asturiyaliklar janub tomon siljib bordilar. Leon shahri ularning asosiy markazi edi. Butun Asturiya qirolligi Leon nomi bilan Leon qirolligi deb ataldi. X asrning ikkinchi yarmida XI asr boshlarda Leon janub tomon kengayib, Duero daryosi havzasigacha etdi. Bu yerda qasr-qal'alar-burglari bo'lgan chegara oblast tashkil topdi.

Ana shu qasrlar nomidan kelib chiqib, yangi mamlakat **Kastiliya** deb ataldi. Bu nom lotincha nom asosida mustahkamlangan punkt, ya'ni kastleum degan ma'noni bildiradi. Bu davrga kelib Burgos shahri Kastiliyaning asosiy shahridan biri hisoblandi.



Rekonkista avj olmoqda

Leon qiroli Kastiliyaning ham qiroli deb ataladi (1037-yilda). Kastiliyaliklar Taxo daryosi havzasiga yurish qilib uni XI asrning ikkinchi yarmida bosib oldilar. 1085-yili qiroli **Alfons VI** Taledo shahrini ishg'ol qildi. Bu territoriya Yangi Kastliya deb atala boshlandi. 1086 yilda qiroli **Alfons VI** Zallik shahriga yaqin joyda arablarning zarbasiga uchradi.

Shimoli-sharqda joylashgan Navarra qirolligi IX asrda juda katta ahamiyatga ega edi. Ayniqsa, uning janubida katta siyosiy o'zgarishlar yuz berdi. IX asr oxirida Ispaniya markasidan yangi mustaqil mulk Aragon grafligi ajralib chiqdi va qirollikka aylandi. Aragonlar 1118- yili arablardan Saragossa shahrini tortib oldilar va uni poytaxt deb e'lon qildilar. 1138-yili Aragon Ispaniya markasi bilan birlashdi, Ispaniya markasi bu vaqtda **Kataloniya yoki Barselona grafligi** degan yangi nom bilan yuritilardi. Bu vaqtlarda Barselona grafligi uzoq vaqtlargacha Fransuz qirolligi hududiga kirardi. Nihoyat yarim orolning janubida Portugaliya janubga tomon cho'zilib ketgan edi. Dastlab bu ham graflik bo'lgan edi, taxminan 1095 yillarda tashkil topgan edi. 1116- yilga kelib u ham qirollikka aylandi. Portugaliyaning poytaxti dastlab, Duero daryosining mansabidagi Onorto shahri edi. Keyinchalik 1147- yildan –Taxo daryosining mansabidagi Lissabon shahri poytaxt bo'lib qoldi. Endilikda Leon qiroli hokimiyatidan xalos bo'lgan Portugaliya qiroli Rim papasiga qaram bo'lib qoldi.

Shunday qilib XII asr boshlariga kelganda Perineya yarim orolida uning taxminan yarmini egallagan to'rtta xristian davlati: Kastiliya Navarra, Aragon va Portugaliya bor edi. XI asr oxiri XII asrda rekonkistaning eng avjga chiqqan davri edi. Kastiliya xalq eposida xuddi ana shu davr o'z aksini topgan. Xalq eposining qahramoni mashhur Sid Kampeador edi. Sid Kampeador qanday shaxs edi? Sidning tarixiy timsoli chinakkam shaxs - Kastiliya qiroliga xizmat qilgan yirik ritsar Rodrigo Dias bo'lgan. U 1106- yilda vafot etgan. Sid arablardan katta shahar Valensiyani vaqtincha bosib olishga muyassar bo'lgan.

Xristianlar bilan musulmonlar diniy masalada ba'zan bir-birlari bilan ishlari bo'lmasdi, rekonkista jarayonida ular bir-birovlariga nafrat ko'zi bilan qaraydigan bo'ldilar. Mavrlar shimoliy Afrikaliklarni va boshqa musulmon qabilalarni o'zlariga yordamga chaqirdilar. 1086-yili Ispaniyaga G'arbiy Sahroyi Kabirdan almuraviylar, 1125-yili Atlas tog'laridan (Sharqiy Morokkoda) almug'alar keldilar. Ispaniyaliklarga yordam berish uchun Fransiya,

Angliya, Germaniya va Italiyadan ritsarlar kelishdi. Bu janglarda faol ishtirok etgan qahramonlarga Sant-Yago, Alkantara, Kalatrava ordenlari tasis etildi.

XII asrda kastiyaliklar arablar Andaluziyasiga bostirib kirdilar. 1212-yilda esa Las Navas de Tolos yonida hal qiluvchi jang bo'ldi. Bu jangda Kastiliya (Alfons VIII), Navarra va Aragon qirollari ittifoqchilari sifatida urush qildilar. Barbarlar, negrlar va Shimoliy-g'arbiy Afrikaning boshqa qabilalari marvlar tomonidan turib janglarda ishtirok etdilar. Arablar qattiq mag'lubiyatga uchrab o'zlarining barcha boy lagerlarini g'oliblarga o'lja qilib qoldirib chiqib ketdilar.

Kastiliya tez orada Andaluziya bilan Mursiyani egalladi. U 1236-yili Kordovani, 1248-yili Sevilyani qo'lga kiritdi. Qisqa vaqtlar ichida Aragon Valensiyani va Balear orollarini bosib oldi.

XIII-XV asrlarda Pireniya yarim orolidagi davlatlar. Navarra va Portugaliya. Kastiliya qirolligi, Aragon federatsiyasi. Navarra va Portugaliya yarim oroldagi to'rtta xristian davlatlari edi. Ular alohida-alohida rivojlandilar. Navarrada Fransuzlar ta'siri kuchli edi.

XV asrda Portugaliya katta dengiz flotiga ega bo'lgan savdo-sotiq qila oladigan mamlakatlardan biri edi. Atlantika okeani sohili bo'ylab uzun tor polosada joylashgan Portugaliya har tomonlama jadal rivojlandi. Yarim oroldagi marvlar bilan olib borilgan kurash Portugaliyani Shimoliy Afrikadagi arablar bilan urushlar qilishga ham tortdi. Portugaliyaliklarning Shimoliy Afrikadagi mulki bo'lmish Seuta, keyin portugaliyaliklarning XV asrlardagi geografik kashfiyotlarida katta rol o'ynadi. Ammo O'rta Er dengizi sohilidagi mamlakatlar bilan Angliya, Niderlandiya kabi mamlakatlar bilan olib borilgan tashqi savdo - sotiq aloqalari Portugaliyani Pireneya yarim orolidagi boshqa davlatlardan ajratib qo'ydi. Rekonkista Portugaliyani boshqa davlatlar bilan bog'lash lozimdek ko'rinsa-da, lekin Portugaliya o'zining mustaqilligini saqlab keldi.

Kastiliya va Aragon Pireneya yarim orolining ikkita asosiy davlati bo'lib, ular yagona qirollikka birlashdilar. Kastiliya qirolligi orolda eng katta hududni egallagan edi. Yarim oroldagi hududning deyarli 5/3 qismi uning

hissasiga to'g'ri kelardi. Rekonkistada ham Kastiliya eng faol ishtirok etgan edi. **Kastiliya tili** keyinchalik **Ispan milliy tiliga** asos bo'ldi.

O'rta asrlarda Kastiliyaning urushqoq dvoryanlari katta ta'sirga ega edilar. Arablar bilan kurashda qatnashgan dvoryanlarning ertaroq toifa bo'lib tarkib topishiga dvoryanlar ko'pchiligining bevosita qirol bilan aloqa o'rnatishiga yordam berdi. Kastiliyada katolik cherkovi ham juda katta ta'sirga ega bo'lgan. Rekonkista jarayonida kastiliya cherkovi juda katta er oldi. Hunarmandlar va mayda savdogarlardan iborat bo'lgan shaharliklar asrlar davomida muntazam harbiy xizmat o'tardilar. Kastiliya shaharlari shaharlarning alohida harbiy ittifoqlariga – ermandilarga birlashdilar. Kastiliya dehqonlari ham rekonkistada juda faol qatnashganliklari sababli krepostnoy qaramlikdan ertaroq xalos bo'ldilar. Kastiliya feodallari dehqonlar bilan hisoblashishga va ularga yon berishga majbur bo'ldilar. Eski va Yanki Kastiliyaning dehqonlari asosan erkin jamoatchilardan iborat – begetriyalar bo'lib, feodallar homiyligida kun ko'rardilar va obrok to'lardilar.

Korteslar o'z faoliyatini 1118-yildayoq ingliz parlamenti va Fransuz shtatlaridar ancha oldin boshlagan edi. Shu bilan birga uchinchi toifa vakillari qatoriga shaharliklar, dehqonlarning ham ba'zi vakillari kirgandi.

XIII asrning ikkinchi yarmida **qirol Alfons X** (1252-1284) "**Yetti qism**" deb atalgan qonunlar to'plamini chiqardi. Bu qonunlar Rim huquqi g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, o'rta asr Yevropasidagi qonunlarning birinchi umumlashtiruvchi to'plami edi. Alfons X o'zidan oldin Salamanka shahrida ta'sis etilgan universitetga homiylik qilib, davlat mablag'lari hisobiga observatoriya – rasadxona qurdirtdi. Alfons X davrida qirol hokimiyatining obro'- e'tibori ortdi. Biroq, feodallar hali tinib tinchimagan, ular hali ham o'zlarining imtiyozlariga yopishib olgan edilar.

Yuz yillik urush inglizlarning ittifoqchisi bo'lgan qirol Pedro I Zolim (1350-1369) XIV asrda feodallar bilan kurash olib borib juda ko'p feodallarni qatl ettirgan. Ularning mol-mulklarini musodara ettirdi. Kastiliya grandalari fransuz feodallarining ko'magiga tayanib, Pedroni yengdilar va taxtga uning raqibi

Genrix II Trastamarani o'tkazadilar U 1369 - yil yildan boshlab yangi sulolaga asos soladi. XV asrning ikkinchi yarmiga kelganda Kastiliyada qirol hokimiyatining obro'si tushib ketgani kuzatiladi. Bunga misol Genrix IV (1454-1474) ni ko'rsatish mumkin. Uning hukmronlik yillarida feodal o'zaro urush-janjallari avj olgan. Zodagonlar qirolning qizi Xuanning taxt vorisligi huquqini tan olmaydilar va qirolning singlisi malika Izabellaning nomzodini qo'llab-quvvatlaydilar. Zodagonlarning maqsadi, kelajakda Izabellani o'zlari tarafiga og'dirib, undan itoatli qirol sifatida foydalanmoqchi edilar.

Aragon, Pireneya yarim orolidagi eng kichik territoriyani egallagan edi. Ammo O'rta Yer dengizida Aragonning ko'p mulklari: Sitsiliya, Sardiniya, Neapol qirolligi, Balear orollari bor edi va katta dengiz davlati hisoblanar edi. Aragon dehqonlari krepostnoy qaramlikda yashar edilar. Aragon feodallari o'z dehqonlariga o'lim jazosini berish huquqiga ega edi. Ko'p feodallariga ega bo'lgan Aragon korteslari qirolni to'la nazorat qilardi. Aragon korteslari dam olgan vaqtlarida qirolning ishlarini kuzatib borish uchun alohida "deputatsiya" nomli komissiya belgilab qo'yilardi. Aragon dvoryanlarini maxsus saylab qo'yilgan sudya, ya'ni Buyuk xustisiya sudi sud qilardi. Buyuk xustisiya sudining hukmini bekor qilishga qirolning ham haqqi yo'q edi. Aragon dvoryanlari qirolga qarshi urush e'lon qilib, urush olib borar va hatto chet el fuqaroligiga o'tib keta olardilar. Aragon zodagonlarining erkinligi "Uniya imtiyozlari" deb atalgan muboraknomada o'z aksini topgan.

Kastiliyaning Aragon bilan birlashuvi. Kastiliya va Aragonning birlashuvi uchun bir qancha sabablar mavjud edi. Ularning kelib chiqishi, tili, e'tiqodi, uzoq yillar mobaynida o'z ozodliklari uchun arablarga qarshi birgalikda kurashib kelganliklari, iqtisodiy jihatdan o'zaro aloqa qilgan Kastiliya va Aragon birlashish uchun yetarli tarixiy shart-sharoitlarga ega edilar.

Ayniqsa tovar – pul munosabatlarining rivojlanishi iqtisodiy jihatdan qandaydir o'zaro bir birini to'ldiruvchi har ikkala mamlakatning - quruqlikdagi Kastiliya va O'rta Er dengizi bilan bog'langan Aragonning birlashishini zarur vazifa qilib qo'ydi. Kastiliya va Aragonda keskinlashgan sinfiy kurash,

rekonkistaning tamom bo'lmaganligi har ikkala mamlakat feodallarini ikki qirollikni yagona Ispaniya davlatiga birlashtirish to'g'risida bir bitimga kelishga majbur etdi. Bu davlat o'rtasidagi ittifoq – uniya sulola nikohi qilish yo'li bilan amalga oshirildi. Malika Izobella Kastilskaya 1469-yili shahzoda Ferdenand Aragonskiyga turmushga chiqdi. 1474-yili Izabella Kastiliya karalevasi bo'lib oldi. 1479- yili Ferdenand Aragon taxtga o'tirdi. Birlashgan ikki mamlakatning har biri o'zining qonunlari, urf-odatlar va alohida-alohida karteslarini saqlab qoldi. Shunday qilib, mamlakat ikki tarafdin boshqarildi. Bir tomondan Malika Izabella Kastilskaya, ikkinchi tomondan shahzoda Ferdenand Aragonskiy o'z xohishlaricha boshqardilar. Shunday bo'lsa ham yagona Ispaniyani vujudga keltirish uchun asos solingan edi. Kastiliyada ham Aragonda ham qirol hokimiyati mustahkamlana bordi. Birlashish Ferdenand bilan Izabellaning ichki va tashqi siyosatlarida ijobiy aks etdi.

Izabella Kastiliyadagi savdo-sotiq va sanoatni jonlantirish uchun bir qancha iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirdi. U mamlakatning qimmatbaho metallarini saqlab qolishga harakat qildi. Mamlakatga tashqaridan mol olib kelishdan ko'ra, tashqariga mol chiqarishni to'g'ri yo'lga qo'ydi. Mamlakat ichkarisida faol savdo balansini ta'minladi. U chet ellarga oziq-ovqat mahsulotlari va xom ashyo: jun, g'alla va boshqalarni chiqarishni man qildi. U, jun Ispaniyaning o'zida qayta ishlanmog'i kerak, - deb qat'iy buyurdi. Izabella mashhur Xristofor Kolumbga homiylik qilib, buyuk geografik kashfiyotlarga ko'mak berdi. Uning homiyligida Xristofor Kolumb Hindistonga boradigan "g'arbiy yo'l" ni axtarib, Ispaniya kemalarida sayohatga jo'nab ketdi. Xristofor Kolumbning sayohatlari Ispaniya uchun Yangi Dunyodagi juda ko'p mustamlaka mulklarni bosib olish imkonini yaratib berdi.

Ferdinand va Izabela Ispaniyasi tez orada buyuk davlatga aylandi. 1492-yili ular Granadani istilo qildilar. 1512- yil Ispaniya Navarrani o'ziga qo'shib oldi. Deyarli barcha Pireney yarim oroli Ispaniyaga birlashtirildi. Ferdenand bilan Izabella Ispaniyani Yevropaning eng yirik davlatlari bilan siyosiy ittifoqlar birlashishiga sababchi bo'lgan muhim sulola nikohlarini amalga

oshirdilar. Ularning o'zaro nikohidan tug'ilgan to'ng'ich qizi Ekaterina Tyudorlar xonadoniga mansub ingliz shahzodasiga turmushga chiqdi. Kichik malika Xuanna Gabsburglarning avstrogerman xonadoniga mansub shahzodalarning biri bilan turmush qurdi. Ispaniya esa Yevropa xalqaro siyosatining muhim omili bo'la oldi.

Tayanch so'z va iboralar: Rekonkista, kastleum, epos, Ispan markasi, mosarab, renegatos, vestgot, Algambra saroyi, Alkasar qasri, ermandi, begetriya, Atlas tog'lari, Deputatsiya, xustisiya, Uniya imtiyozlari.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Rekonkistaning mohiyatini ayting.
2. Rekonkista nechanchi asrdan boshlangan edi?
3. Kordova amirligi Kordova xalifaligiga nechanchi asrda aylantirilgan?
4. Rekonkistaning asosiy bosqichlarini ayting.
5. Kastleum qanday ma'noni bildiradi?
6. Rodrigo Dias haqida nimalar bilasiz?
7. Aragonlar qachon arablardan Saragossa shahrini tortib oldilar va uni poytaxt deb e'lon qildilar?
8. Ispan milliy tili haqida nimalar bilasiz?
9. "Deputatsiya" komissiyasi qanday vazifani bajargan.

Glossariy:

Rekonkista – qaytarib olish degan ma'noni bildiradi. Ya'ni, Pireniya yarim orolining arablardan qaytarib olinishi tarixiy adabiyotlarda rekonkista deb atalgan.

Ermandilar – alohida harbiy ittifoq birlashmasi.

Korteslar – umumtoifa vakillari, ya'ni shahar va qishloq jamoalarining siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan umumtoifa vakillaridir.

Begetriyalar – erkin jamoatchi dehqonlar, ular dvoryanlar homiyligida kun ko'rganlar.

Buyuk xustisiya sudi – maxsus saylab qo'yilgan sudya.

Uniya imtiyozlari – aragon zadagonlarining erkinliklari aks ettirilgan "muboraknoma".

40-§. Usmoniylar davlati va uning istilolari

Usmon davlatining tashkil topishi va Kichik Osiyoda hamda Bolqon yarim orolida turk istilolari. Salib yurishlari davrida Kichik Osiyoda Rum sultonligi nomi ostida yashagan saljuq turklari davlati XIII asr boshlariga kelib 10 ta qismga bo'linib ketdi. O'g'uz turklarining O'rta Osiyodan Kichik Osiyoga ko'chib kelishi va ularning bundan keyin saljuq turklari (XIII asr o'rtalaridayoq) bilan aralashib ketishi natijasida Kichik Osiyoda XIII asr oxiri XIV asr boshlarida yangi davlat tashkil bo'ldi. Soni jihatidan xam, o'zining harbiy tashkiloti jihatidan ham ancha-muncha uyushqoq bo'lgan ko'chmanchi o'g'uz turklari yangi hukumatda etakchi rol o'ynadilar. Dastlabki vaqtlarda Erto'grul o'g'uz turklarining rahbari bo'lib, u Vizantiya imperiyasi bilan qo'shni Sakare daryosi bo'yida kichik bir feodal mulkiga egalik qilardi.



Usmoniylar davlati asoschisi

Erto'g'rulning o'g'li va taxt vorisi Usmon (1282—1326 yy.) Vizantiyaga qarshi urush boshlab, uning Kichik Osiyodagi mulklarining ko'pchiligini, shu jumladan, Brusu (yoki Bursu) shaharini xam bosib oldi.

Brusu shaharini Usmon o'zining poytaxti qilib oldi. Vafotidan bir oz burunroq Usmon Kichik Osiyodagi boshqa amirliklarni o'ziga itoat qildirdi. Yangi turk xalqi tarkib topgan Kichik Osiyodagi barcha turklar umuman uning nomi bilan ataladigan bo'ldi (Usmon turklari, aslida turli qabilalar birlashmasidan iborat bo'lgan saljuq turklaridan farq qilardi). Vizantiyaning zaiflashib qolganligidan va Bolqon yarim orolidagi boshqa davlatlarniyag parchalanib ketganligidan foydalangan usmon turklari XIV asrda dastlab Kichik Osiyoda, keyin esa Bolqon yarim orolida ham keng istilochilik harakatlarini boshladilar. XIV asrdagi deyarli beto'xtov olib borilgan urushlari sharoitida turklarda professional qo'shin tarkib topa boshladi.

Usmonning taxt vorisi Urxon davrida (1326—1359 y.-) turklar orasida xalq lashkari tipidagi muntazam qo'shinlardan tashqari, yanicharlardan iborat professional piyoda askarlarning doimiy otryadlari ham bor edi. Yanicharlar safiga asir qilib olingan va zo'rlab islom diniga kiritilgan yoshlardan terib olinardi, shuningdek, sipohiylerden iborat o'ziga xos otliq askarlar ham bo'lardi. Sipohiylerga ko'rsatgan harbiy xizmatlari badaliga yer in'om qilinardi, ya'ni G'arbiy Yevropadagiga o'xshagan o'ziga xos harbiy benefitsiya ulashilardi. Turklar vizantiyaliklarning tajribasidan o'rganib, jang paytlarida qamal qilish ishiga katta e'tibor berardilar (devor teshadigan qurol, qamal minoralari va boshqalarni ishlatardilar). XIV asr oxirida va XV asrda turklar o'q otadigan qurol ishlata boshladilar, jumladan, ko'p miqdorda zambarak otishni qo'lladilar. Esh Turkiya davlatida feodallasha boruvchi urug'-qabila zodagonlari asosiy rahbarlik rolini o'ynab, ular oddiy ko'chmanchi-jangchilar otryadlariga boshchilik qilardilar. Saqlanib qolgan patriarxal-qabilachilik munosabatlari usmon qo'shinini ma'lum darajada birlashtirdi va barqaror bir qo'shinga aylantirdi. Boshqa ko'chmanchilarning qo'shinlari singari, usmonlar qo'shinli ham shiddatliliigi va chaqqonliigi bilan ajralib turardi, bu qo'shin o'troq aholini, ayniqsa shaharlarni talashdan manfaatdor edi.

Vizantiyaning istilo qilingan hududlarini o'zlariga mulk qilib olgan ko'chmanchi zodagonlar bora-bora feodal tipidagi o'troq yer egalariga aylanib, tobe etilgan yunon-vizantiyaliklarni va slavyan aholisi ustidan hukmronlik qildilar. Oddiy turklarga ham yer ulashib berildi, boshda ko'proq o'tloqlar, ular o'troq holga ko'chib dehqonchilik qila boshlaganlaridan so'ng esa haydab eknn ekiladigan yerlar ham beriladigan bo'ldi. Harbiy sohada erishilgan yutuqlar va ancha hududlarning qo'shib olinishi turk feodallarini yangidan yangi istilolarga undadi, xususan, qo'shni davlatlar, ya'ni Vizantiya va Bolqon yarim orolidagi boshqa davlatlar parchalangan holatda qolib kelaverdilar, ularning o'zaro munosabatlari esa avvalgicha dushmanlik munosabatida qolaverdi, shuning natijasida ularning bosqinchilarga zarba berishga qurbilari yetmas edi. Urxon 1331- yili Nikey shahrini, keyin esa Vizantiyaning Kichik Osiyodagi boshqa barcha mulklarini istilo qilgandan so'ng, Yevropada istilolar qilishga kirishdi. 1354- yili u Gallipol shahrini bosib oldi. So'ngra turklar Frakiyaga bostirib kirdilar.

Endi Urxon u tomonga ikkita yurish qildi. Bu viloyatlar bundan keyingi sulton, ya'ni Murod I davrida (1359—1389) istilo etildi. Murod I 1361- yili Frakiyaliklarning asosiy shahri — Adrianopolni bosib oldi, u Brusu o'rniga Turkiyaning yangi poytaxti bo'lib qoldi.

Turk jangchilari Bolqon yarim orolida g'oyat shafqatsizlik bilan ish ko'rdilar. Ular tinch aholini taladilar va o'ldirdilar. aholining ko'pchiligi qullarga aylantirilib, Sharqdagi qul bozorlarida sotildi, qadimgi unumdor Frakiyaning bosib olinishi sultonga harbiy-feodal yer egaligini yana kengaytirish imkonini berdi. Turklarning o'zlari ham, shuningdek turli xil turklashgan xalqlar yoki islom dinini qabul qilgan gayri turk vakillari ham katta yer egalari aylana bordilar. Bu odamlarning aksariyat qismi Bolqon yarim orolining o'zidagi turli mamlakatlarga mansub bo'lib, ular fotihlar tomoniga o'tgan xoin feodallar edi. Turk dehqonlarining katta bir qismi ham Kichik Osiyodan bu yerga ko'chirib keltirildi; Bolqon yarim orolidagi tobe etilgan mahalliy aholidan tortib olingan yer-maydonlari ana shu ko'chirib kelingan dehqonlarga ulashib berildi.

1371- yili serblar, bolgarlar, valaxlar va vengrlar koalitsiyasi Murodga qarshilik ko'rsatmoqchi bo'ldi. Ammo, Ittifoqchilar Mariia daryosi buyidagi jangda yengildilar. Shundan keyin Janubiy Serbiya sulton qo'l ostiga o'tdi. Vizantiya imperatori uning vassali bo'lib qoldi.

Kosovo maydonidagi jang. Serbiya qirolligining tamom bo'linishi. 1389- yil 15- iyunda Kosovo maydonida (Janubiy Serbiyada yangi katta jang bo'ldi. Bundan oldin turklar ustidan qisman g'alaba qozongan Serbiya qiroli Lazar 80000 ming kishilik katta qo'shin to'pladi, bu qo'shinda serblardan tashqari, bosniyaliklar va vengrlar ham bor edi. Sulton Murod boshchiligidagi turklar Lazarning kuchlaridan uch martadan ortiqroq kuch bilan Serbiya ustiga yurish qildilar. Bir yosh serb jonidan kechib sulton yotgan chodirning ichiga kirib, uni o'ldirdi. Ammo bu vaziyatni o'zgartirmadi. Murodning o'g'li shahzoda Boyazid yangi Sulton deb e'lon qilindi va u ulkan turk armiyasiga qo'mondonlik qilishni o'z zimmasiga oldi. Turklar tomonida askariy kuchlar ustun bo'lganligi natijasida serblar va ularning ittifoqchilari zo'r matonat ko'rsatishlariga qaramasdan, tor-mor etildilar. Qirol Lazar asir qilib olindi

va sulton Murodning o'limi uchun u qatl etildi. Shundan keyin Serbiya hududining katta bir qismi qo'shib olindi. Shimoliy Dunay bo'yi Serbiyasi (u Podunaviya deb ataladi) ning qolgan kichik qismini serb knyazlari sultonning vassallari qo'lida bir oz vaqt idora qildilar. Ammo 1459- yilga kelib bu so'nggi serb hududi ham turklar tomonidan istili qilindi va turk mulklariga kiritildi.

Anqara jangi. 1402- yil 20 iyulda Temur va usmonli turk sultoni Boyazid I Yildirim qo'shinlari o'rtasida Anqara yonida bo'lib o'tgan ulkan jangda Amir Temurning taxminan 200 ming, Turkiya sultonining 160 ming askari qatnashgan. Ushbu jangning sodir bo'lishiga asosan quyidagi omillar sabab bo'lgan: Iroq, Shom, Dashti Qipchoq, Xuroson, Hindiston, Jeta singari mamlakatlarni o'ziga itoat ettirishga muvaffaq bo'lgan Amir Temur o'z saltanatining janubi-g'arbiy hududlariga yaqin joylashgan Bolqon yarim oroli va Kichik Osiyoda barpo etilgan qudratli Usmonlilar davlatining kuchayib ketayotganligidan xavotirda edi, chunki G'arbiy Yevropa ritsarlaridan tashkil topgan katta armiyani tor-mor etgan, Bolqon davlatlarini egallagan usmoniy turklar Amir Temurga taalluqli viloyatlarga ham tahdid sola boshlagan edi. Amir Temur o'z qo'shini bilan Sharqiy Anadolu sarhadlariga 1386- yilda qadam qo'ygan va Arzinjon shahri yaqinida turklarning katta harbiy kuchlarini mag'lub etgan. 1395- yil Amir Temur bu o'lkalarga ikkinchi bor yurish qiladi, Sivosni qo'lga kiritadi.

Amir Temur Anqara jangiga qariyb ikki yildan ortiq tayyorlanadi: 1399- yilda Rumba yuzlanadi va Boyazid tomonidan fath qilingan Kamoh qal'asini qamal qiladi. Kamoh fath etilgach, ko'p fursat o'tmay Amir Temur Anqarani qamal qiladi. Uning bu harakati aslida taktik tadbir bo'lib, tajribali sarkardaning asosiy maqsadi Boyazidni asosiy kuchlarini shahar mudofaasiga tashlashga majbur etib, so'ng unga qaqshatqich zarba berish edi. To'qat shahri yonida asosiy harbiy kuchlari bilan turgan Boyazid I Sohibqiron askarlarining Anqarani muhosara qilganligidan xabar topadi va qamaldagilarga ko'mak berishga oshiqadi. Amir Temur Anqara qamalini bekor qiladi va raqibini kutib olish taraddudini ko'radi. Qo'shin qismlarini janggohning (Chibukobod degan yerda) qulay yerlariga joylashtiradi. Lashkargoh atrofida xandaklar qazilib, xavfsizlik choralarini ko'riladi. Natijada Boyazid I qo'shini o'zi

uchun o'ta noqulay shart-sharoitda jangga kirishga majbur bo'ladi. Sulton qo'shini ayniqsa, suv tanqisligi tufayli vujudga kelgan tashnalikdan qattiq azob chekadi.

Boyazid I Rum va Fransiya mamlakatlaridan jamlangan cherikiga tartib berib, jangga hozir bo'lib turdi. Qo'shinning o'ng qanoti — burang'arda serb knyazi Stefan (Boyazid I ning qaynisi) 20 ming kishilik farangliklar bilan, chap qanoti — juvangarda esa Musulmon (Sulaymon) Chalabiy (Boyazid I ning o'g'li) Rum lashkari bilan saf tortib turdi. Sulton Boyazid I ning o'zi qo'shin markazida qolib, uch og'li Muso, Iso va Mustafolarni chag'davul (qo'shin orti)ga qo'ydi. Jang Mironshoh mirzo qo'l ostidagi barang'arning dushman juvang'ariga qilgan shiddatli hujumi bilan boshlandi. Boyazid I qismi amir Jahonshoh va amir Qora Usmon rahbarligidagi Geydar tomonidan qilingan hujumga bardosh bera olmay jang maydonini tashlab qochadi. Boyazid I qo'shini saflarida paydo bo'lgan sarosimalikni payqagan Amir Temur barcha amirzodalar, umarolar, no'yonlarning birgalikda dushmanga hujum qilishlariga hukm qiladi. Shiddatli to'qnashuv uzoq va keskin davom etadi. Nihoyat, Amir Temur kuchlarining qisuviga bardoshi qolmagan sulton askarlari chekina boshlaydi. Boyazid I qo'mondonligidagi jangchilar so'nggi damgacha qarshilik ko'rsatadilar. Yanicharlar bitta qolmay qirib tashlangandan so'ng Boyazid I va uning ikkinchi o'gli Musoni Amir Temur tomonidan 1388 yili Chig'atoy ulusi xonligiga ko'tarilgan Sulton Mahmudxon ibn Suyurgatmishxon asir oladi. Amir Temur tomonidan Boyazid I qo'shinining tor-mor etilishi Usmonli turk saltanatining ma'lum muddatga zaiflashishiga sabab bo'ldi. Konstantinopolning turklar tasarrufiga kirishini hamda ularning Markaziy va G'arbiy Yevropaga qilmoqchi bo'lgan yurishlarini birmuncha fursatga orqaga surdi.

Konstantinopolning ishg'ol qilinishi Konstantinopol 1453- yil

29-mayda turklar tomonidan bosib olindi. So'nggi Vizantiya imperatori Konstantin XI (1448—1453) edi. Sulton Murod II ning taxt vorisi — Sulton Muhammad (Mexmed II) (1451—1481) Konstantinopolni zabt etishga erishdi. Konstantin XI ixtiyorida arzimagan miqdorda harbiy kuchlar 10 mingdan kamroq kishi bo'lib, bu kuchlar ham yollangan askarlardan, ko'proq genuyalik soldatlardan tashkil topgan edi. Muhammadning 200 ming askari bo'lib, uning 15 mingini

tanlangan yanicharlar tashkil qilardi. Konstantinopol qamali ikki oycha davom etdi. Qamalda qolganlar dengiz orqali bir oz vaqt madad qo'shinlari, qurol-yarog' va oziq-ovqat olib turdilar. Konstantinopolni quruqlikdan ham, dengizdan ham o'rab olish uchun Muhammad II yollangan maxsus yog'och to'shamalar yordamida turk kemalarini Oltin Shohga sudrab olib o'tishni buyurdi, chunki gavanga kirish yo'li ulkan zanjirlar bilan to'sib quyilganligi sababli, unga boshqacha yo'l bilan o'tib kirishning iloji yo'q edi. Imperator Konstantin o'ldirildi, shahar himoyachilarining ko'pchiligi qirib tashlandi. Istilochilar Vizantiya poytaxtini bearmon taladilar. Ammo Konstantinopolni Usmoniylar imperiyasining poytaxti qilishga qaror berilgani uchun, sulton shahar binolariga ziyon-zaxmat yetkazilmasin, deb buyruq berdi. Yustinian zamonidan qolgan mashhur yodgorlik, ya'ni ayo Sofiya sobori saqlab qoldirildi, lekin keyin u «Ayo Sofiya» nomi ostida sultonlikning asosiy masjidiga aylantirildi. Konstantinopol yangi nom — Stambul nomini oldi. Shu tariqa G'arbiy Rim imperiyasi qulagandan keyin, oradan ming yil o'tgach, Sharqiy Rim imperiyasi ham quladi.

Tayanch so'z va iboralar: Kichik Osiyo, saljuq turklari, o'g'uz turklari, yanicharlar, harbiy islohot, Kosovo jangi, Anqara jangi, Konstantinopolning qulashi

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Kichik Osiyoning geografik sharoiti va aholisi tarkibi qanday edi.
2. Urxon olib borgan islohotlarning asosiy mohiyati qanday maqsadlarga qaratilgan
3. Usmoniylarning G'arbiy Yevropa hududlariga bostirib kirishiga qanday sabablar ta'sir qilgan
4. Anqara jangida Amir Temur Boyazidga qarshi qanday harbiy usullarni qo'llagan edi
5. Konstantinopol uchun bo'lib o'tgan jangning tarixiy ahamiyatini ko'rsatib bering

6. Vizantiya imperiyasining qulashi Usmoniylarning keyingi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti uchun qanday oqibatlarga olib keldi.

Glossariy:

Istanbul - Turkiyadagi eng katta shahar, Istanbul elining ma'muriy markazi. Istanbul Bosfor bo'g'ozining past-baland sohillarida joylashgan. Bo'g'oz shaharni ikkiga — Osiyo (kichikroq qismi) va Yevropa qismiga bo'lib turadi. Yevropa qismi Oltin Shox qo'ltig'i sohillarida joylashgan. Istanbulga er. av. 660- yilda Vizantiya shahri sifatida asos solingan. 330-yildan Rim imperatori Konstantin nomi bilan atalgan. 395- yilgacha Rim imperiyasi tarkibida, 395—1453 yillar Vizantiya poytaxti. 1453 - yilda Istanbul turklar tasarrufiga o'tgan va Usmonli turklar saltanatining poytaxtiga aylantirilgan

Kichik osiyo yarim oroli - Osiyoning g'arbiy qismidagi yarim orol. Kora, Marmar, Egey va O'rta dengizlar hamda ularni birlashtirib turgan bo'g'ozlar bilan chegaralangan.

41-§. O'rta asrlarda Amerika va Afrika xalqlari

Amerikaning tub aholisi va ularning mashg'ulotlari. Amerikaning tub aholisi hindular deb ataladi. Bu aholi hozir ham mavjud. Ularning ajdodlari bir necha o'n ming yillar avval Osiyodan Bering bo'g'ozi orqali Amerikaga kelib qolgan. Hindular o'rta asrlarda ham urug'chilik tuzumida yashar edilar. Ko'pdan-ko'p hindu xalqlari orasida mayya, atisek va ink xalqlari xo'jalik hamda madaniy jihatdan boshqalardan ustun edilar. Aholining ko'pchilik qismi ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanishgan. Biroq Shimoliy Amerikaning janubida, Markaziy va Janubiy Amerika qirlari hamda tog'larida dehqonchilik ham rivojlangan. Dehqonlar toshboltalarda o'rmon kesib, daraxtlarni yoqib, yer ochishgan. Yerni yog'och so'qalar bilan ag'darib yumshatishgan. Ilgari paytlarda Yevropaliklarga ma'lum bo'lmagan makkajo'xori, kartoshka, kungaboqar, pomidor, kakao, tamaki kabi ekinlarni yetishtirishgan.

Qit'aning kattagina qismida hayvonlarni ishga o'rgatishni bilishgan. Amerikada otlar yo'q edi. Faqat shimolda itlarni, lamaga o'xshash tuyalarni qo'lga o'rgata boshlashgan. Parrandalardan kurka va o'rdaklarni boqishgan.

Hindular temir asbob-uskunalar, omoch, g'ildirak, o'tochar qurollar nimaligini bilishmagan. Ular mehnat qurollarini yog'och, tosh va jez (bronza)dan yasalar edilar.

Mayyalar. Markaziy Amerikaning Yukatan yarim orolida, qalin chakalakzorlar orasida mayyalar yashardi. Yerlar jamoalarga tegishli edi. Jamoalar o'zlariga qarashli oilalarga o'rmondan tozalangan yerlarni foydalanish uchun berardi. Milodning birinchi ming yilligida mayyalarda shahar-davlatlar vujudga keldi. Har bir shaharga „Ulug' inson" hukmdorlik qilardi. Hokimiyat nasldan-naslga meros bo'lib o'tgan. Zodagonlar shahar markazidagi tosh qasrlarda, „past odamlar" -dehqonlar va hunarmandlar esa shahar atrofidagi tomi qamishdan yasalgan kulbalarda yashar edilar.

Yangi eraning boshlarida mayya xalqida yozuv vujudga keldi. XVIII—XX-asrlarda topilgan 4 ta mayya qabilalariga oid yozma yodgorlik Drezden, Parij, Madrid, va Nyu-York shaharlarida saqlanadi. Ular milodiy I asrga mansub.



Mayya pirmaidasi

Shuningdek, mayya shaharlari xarobalarida toshlarga yozilgan, biroq ataylab shikast yetkazilgan bir qancha toshbitiklar ham aniqlangan. Mayya yozuvi XVI-asrgacha, ispan cherkovi ta'qiqlaguncha amalda bo'lgan. Mayya yozuvida harf yoki bo'g'inni ifodalovchi (fonetik), butun bir so'zni bildiruvchi (ideografik), shuningdek, o'qilmasada, so'z ma'nosini tushuntiruvchi (ochqich) belgilar qo'llangan. Hammasi bo'lib 300 ga yaqin belgi aniqlangan. Ieroglifik matnlar tili talaffuz, so'zlar tarkibi, grammatik jihatlardan XVI—XVII-asrlardagi mayya so'zlashuv tilidan farq qilgan. Mayya kitoblari maxsus usul va vositalar bilan tayyorlangan, har ikki tomoniga ohak surtilgan qog'oz tasmalariga cho'tka bilan yozilgan. Mayya yozuvini o'qib o'rganish harakati XIX-asr o'rtalarida boshlangan bo'lsada, qog'ozga va toshga yozilgan matnlar hozirgacha to'liq tarjima qilinmagan. Kohinlar qilqalam bilan ierogliflarni qog'ozga tushirishardi. Shuningdek, ular qasrlarning devorlari va ustunlariga surat harflarni o'yib, duo, oyat, afsona va tarixiy voqealarni ham yozib qoldirishardi.

Kohinlar jamoa a'zolariga dala ishlarining muddatlarini belgilab berishardi. Dehqonchilik ehtiyojlari uchun taqvim zarur edi. Mayya hindulari taqvimlari qadimgi xalqlarning eng aniq taqvimlaridan hisoblanadi. Matematika muvaffaqiyatlari ham shu bilan bog'liq. Mayyalar dunyoda birinchi bo'lib, „0“ raqamini ishlata boshlashgan. Mayya shaharlaridan astronomik rasadxonalar topilgan. Kohinlar sayyoralarning quyosh atrofida aylanish vaqtlarini hisoblab chiqqanlar. Ular quyosh va Oy tutilishlarini oldindan bashorat qila olganlar. Mayya qabilalarining ijtimoiy hayotida tabiatdagi bo'layotgan o'zgarishlar katta ahamiyat kasb etgan. Arxitektura-me'morchilikda ham mayyalar ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan edilar. Ular yuksak

poydevorlarda va sun'iy tepaliklarda zinali piramidalar shaklida qasrlar va ibodatxonalar qurishgan. Mayyalar binolarni derazasiz qurishgan. Xonalarga yorug'lik darvozalarning tirqishlaridan tushgan. Shaharlar orasida tarashlangan toshlardan yo'llar yotqizilgan.

Attseklar. XIII asrda Meksikaga shimoldan attseklar ko'chib kelganlar. Ko'l o'rtasidagi orollarda (1325 yil) Tenochtitlan shahrini bunyod qilganlar. Orollarni dambalar bilan birlashtirishgan. Shaharni kesib o'tgan to'g'ri ko'chalar va kanallar yoqasida ibodatxonalar hamda qasrlar qurishgan. Vaqt o'tishi bilan attseklar qo'shni qabilalarni o'zlariga bo'ysundirganlar, ularni og'ir xiroj to'lashga majbur etganlar. Attseklar barcha zarur narsalarni o'zlariga qaram qishloqlardan olardilar. Urush vaqtlarida 150 mingga yaqin jangchidan iborat qo'shin tuzilardi. Attseklar hunarmandchilikda katta yutuqlarga erishganlar. o'ymakor-zargarlar oltin, kumushdan bezaklar yasashgan. Javohir toshlarni mohirona tarashlaganlar. Kamalakdek tovlanuvchi tovus patlaridan gazlama va kashtalar to'qishgan.

Poytaxtda oddiy attseklar va zodagonlar uchun alohida-alohida maktablar bor edi. Oddiy maktablarda dehqonchilik, hunarmandchilik va harbiy ishlar o'rgatilardi. Zodagonlarning bolalariga tarix, din, yozuv, o'qish, hisob, astronomiya fanlari, nazm, notiqlik san'ati o'rgatilardi. Shoirlar qasidalar, dostonlar, tabiat haqida she'rlar yozishardi. Har yili poytaxtda shoir-qo'shiqchilarning aytishuvlari o'tkazilib, g'oliblar mukofotlanardi.

1427-yilda atsteklar Teskoko va Tlakopan shahar-davlatlari bilan ittifoq tuzib butun vodiya aholisini, keyinchalik esa Markaziy Meksikani o'zlariga bo'ysundirganlar. 1519 — 21 yillarda atsteklar ispanlar tomonidan zabt etilgan. Atsteklar Mexiko vodiysiga kelgan paytlarida ular urug'-qabilachilik tuzumi hukmron edi. Atsteklarga 2 yo'l boshchi va 20 urug oqsoqolidan iborat kengash rahbarlik qilgan. XV - asrga kelib atsteklarning ilk davlati vujudga kelgan. Savdo rivojlangan, hunarmandchilik ajralib chiqib boshlagan. Ispanlar kelguniga qadar atsteklar temirni bilmaganlar, lekin oltin, kumush, mis va jezni quya bilganlar. Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari jo'xori, paxta, kakao, tamaki bo'lgan. Itdan boshqa uy

hayvonlari bo'lmagan. Atsteklarning piktografik xati, yuksak san'ati, quyosh taqvimini bo'lgan.

Inklar. Inklar davlati XII asrda tashkil topgan. Inklar qo'shni qabilalarni zabt etganlar. Davlat tepasida cheklanmagan hukmdor - Oliy Inka turardi. Oliy Inkaning yaqin qarindoshi bo'lgan erkaklar o'zlarini „Quyosh o'g'illari" deb atashardi. Bunga inklarning quyoshni bosh xudo deb hisoblashlari sabab bo'lgan. „Quyosh o'g'illari" davlatda yuqori lavozimlarni egallaganlar. Bo'ysundirilgan davlatlar xalqlari ularga to'la itoat etib, inklar tilida gaplashishgan va inklarning qonunlari, rasm-rusumlari asosida yashashgan. Aholi jamoa bo'lib yashar, har bir jamoa dehqon oilalaridan iborat edi. Hokimiyat ruxsatisiz jamoa a'zosi qishloqdan tashqariga chiqolmasdi. Ular yetishtirgan hosilning bir bo'lagi kohinlarga, ikkinchi qismi - Oliy Inkaga, uchinchi qismi jamoa a'zolariga qolgan. Davlat omborlaridan jangchilar va amaldorlarga, qahatchilik yillarida esa zoriqqanlarga ham oziq-ovqat berilgan. Barcha fuqaro buyurilgan joylarda, dalada, qurilishda yoki qo'shinda xizmat qilishi kerak edi. Jangchilar va jamoat ishlariga yuborilgan odamlarning oilalarini jamoa boqardi.

Ulkan mamlakatning barcha qismlari o'rtasida pochta aloqasi mavjud edi. Yo'lning ma'lum bir qismida navbatchilik qiladigan, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan choparlar joylardan xabarlarini poytaxtga keltirib turishardi. „Quyosh o'g'illari"ning bolalari maxsus maktablarda o'qishardi. Hali yozuv yo'q paytlarda bolalar inklar dini, boshqarish tartiblari, qonunlari va urf-odatlarini haqidagi ma'lumotlarni yodlab o'rganishardi. Me'morlar ibodatxonalar, qasrlar, qal'alar qurishardi. Inklarning asosiy qal'asi - Kusko baland qoyalikka qurilgan. Bu qal'a shaharlar bilan yerosti yo'llari orqali birlashtirilgan bo'lgan.

Inklar me'morligi va san'ati deganda, odatda, Peru, Boliviya, Ekvador va Chilining shimolda yashagan qadimgi xalqlarning san'ati ko'zda tutiladi. Milodiy avvalgi I ming yillikda bu yerlarda qudratli sug'orish tizimi mavjud bo'lgan, xom g'ishtdan binolar qurilib (devorlarining qalinligi 30 sm. dan 12 m gacha), ularning tashqarisi bo'rtma naqshlar bilan bezalgan, ichkarisi suvalgan, ba'zan bo'yab bezatilgan. Xarsang toshdan mudofaa inshootlari qurilgan, yirik toshlardan yo'nib

ishlangan binolar ham bor (masalan Perudagi Saksauaman qal'asining devoridagi toshlardan biri 150 t dan ortiq). Kuskodagi asosiy Quyosh ibodatxonasi mashhur. U 3 qavat tosh devordan iborat bo'lib, devorlar o'z vaqtida balandligining yarmigacha oltin bilan qoplangan. Devorlarga bo'rttirib ishlangan haykallar (masalan, Tiauanakodagi «Quyosh darvozasi»), yirik tosh haykallar, sopol va metall idishlardagi turli afsonaviy shakllar, idishlarga ishlangan rasmlar (jang lavhalari, afsonaviy mavzular) xalq amaliy san'ati ancha rivoj topganini ko'rsatadi. Sopol idishlarga oq yoki sarg'ish fonda qora sir bilan bo'yab rasmlar ishlangan. Keyingi davrlarga mansub rasmlarda hayvonlar, o'simlik va mevalar aks ettirilgan. Oltin, kumush, mis, jez, qo'rg'oshindan har xil idish, bezak buyumlari tayyorlangan. Korikancha ibodatxonasida zargarlar tomonidan yaratilgan «Oltin bog'» bo'lganligi to'g'risida ma'lumot bor. «Oltin bog'»-da turli o'simlik, meva, qush, hayvon va kishilarning shakllari oltin va kumushdan tayyorlangan (bularning hammasi keyinchalik istilochilar tomonidan o'zlashtirilib, yo'qotib yuborilgan). Iqlimning quruqligi tufayli saqlanib qolgan mato parchalarida rang-barang murakkab tasvirlar mohirona to'qilgan, tikilgan.

Afrika xalqlari hayoti. Afrikaning tropik o'rmonlarida pigmeylar, bushmenlar kabi turli qabilalar yashashardi. Ular ovchilik bilan shug'ullanishgan. Nayza, kamon va o'q-yoy bu qabilalarning asosiy qurollari edi. Qarindosh-urug'larning kichik-kichik guruhlari chaylalarda yoki shox-shabbalar ostidagi ayvonlarda istiqomat qilishardi. Janubiy Sahroyi Kabir ko'chmanchilari chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Suvga serob o'lkalar xalqlari esa dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Ular yerni temir uchli so'qa bilan ag'darishgan. So'qa mahalliy tuproqqa moslashtirilgan ish quroli edi. Tariq, sholi, paxta va shakarqamish yetishtirish qishloq xo'jaligi tarmoqlaridan edi. Afrikaliklar qadim zamonlardayoq sopol o'choqlarda temir eritishni bilishgan. Hunarmandlar mehnat qurollari, qurol-aslaha, idish-tovoq, gazlama, shisha va charm buyumlar yasas edilar.

Niger va Senegal daryolari orasidagi pasttekislikda g'arbiy Sudan joylashgan edi. Niger daryosi sohillarida g'arbiy Sudanning asosiy shaharlari - Tombuktu, Gao,

Janna qad ko'targandi. G'arbiy Sudanning janubida juda ko'p oltin konlari bo'lgan. G'arbiy Sudan orqali Gvineya ko'rfazidan o'rta Yer dengizi sohillarigacha eng muhim savdo yo'llari o'tgan. Dehqonlar Sahroyi Kabir chegarasida yashovchi ko'chmanchilar bilan savdo-sotiq qilishardi. Ko'chmanchilar mahalliy aholiga zarur bo'lgan tuz, teri va chorva mollarini bug'doy hamda hunarmandchilik buyumlariga ayirboshlar edilar.

Afrikaning eng qadimiy davlatlaridan biri Gana edi. Oltin va tuz savdosi bu davlatga juda katta daromad keltirgan. Gana kamonchilar va suvoriylardan iborat qo'shinga ega bo'lgan.

XI asr oxirida arablarning Marokash sultonligi Gana poytaxtini bosib olgan va vayron qilgan. Gana shohi sultonga xiroj to'lab turishga majbur etilgan. Zodagonlari islom dinini qabul qilgan. Tez orada mustaqillikka erishgan Ganani keyinchalik Mali davlati o'ziga tobe etgan. Yevropaliklar kirib kelmasdan ilgari ham (XV asrlargacha) Ganada qishloq xo'jaligi va madaniyat rivojlangan. Qit'aning ayrim joylari bilan savdo-sotiq qilingan. Ganaga dastlab portugallar kelib, juda ko'p oltin (oltin ko'pligi uchun bu yer Oltin Qirg'oq deyila boshlangan) va qul olib ketgan.

O'rta asrlar Afrikasining yana bir rivojlangan davlatlaridan biri Mali hisoblanadi. Mazkur davlat o'rta asrlarda G'arbiy Sudanda Senegal va Niger daryolari yuqori havzasida mavjud bo'lgan ilk bor al-Ya'qubiy (IX asr) tomonidan Mallal nomi bilan qayd etilgan. XIII-asrning 1 - choragigacha Gana davlatiga qaram bo'lgan. XIV-asrning 1-choragida (Mali davlatining eng ravnaq topgan davri) Mali hududi Atlantika okeanidan Adrar-Iforas platosigacha cho'zilgan. Bu davr uchun Mali davlatining batafsil bayonini arab tarixchilari ul-Umariy va Ibn Battuta asarlarida uchratish mumkin. Malida ilk mulkdorlik munosabatlari hukmron bo'lgan; qulchilik ham mavjud edi. Mali iqtisodida Shimoliy Afrika va Misr bilan karvon savdosi muhim o'rin egallagan; asosan, oltin va qullar chiqarilgan, chetdan esa tuz va hunarmandlik buyumlari keltirilgan. Kuchli qo'shini bo'lgan Mali hukmdori karvon yo'llari va oltin qazib oladigan qo'shni yurtlarni bosib olgan. Hukmdor va uning yaqinlari islom dinini qabul qilishgan. Shundan so'ng Mali shaharlariga Shimoliy Afrikadan kelgan musulmon savdogarlari joylasha boshlagan. Mali aholisi jamoa

bo'lib yashardi. Jamoa oqsoqollari yerlarni jamoaga bo'lib berar, ularning mehnatini boshqarib, harbiy yurishlarda jangchilarga qo'mondonlik qilishardi. Mali hukmdori bosib olingan viloyatlarga qo'shin boshliqlari va qarindosh-urug'laridan noiblar tayinlardi, jangchilariga yerlar in'om qilar, jangchilar aholidan soliq undirardi. Shu tariqa Malida yer egaligi tartiboti qaror topa borgan. Vaqt o'tishi bilan Mali kuchsizlana boshladi. Bunga viloyatlarning mustaqillikka intilishlari, taxt uchun kurashning avj olganligi sabab bo'ldi. o'zaro nifoqlardan foydalangan qo'shni davlatlar mamlakatni bosib olib, vayron qildi. XV asrda Mali butunlay inqirozga uchradi.

Mana shu davrda Songai davlati mustahkamlandi. Mamlakat zodagonlari 500 dan 1000 gacha tobe aholisi bo'lgan qishloqlarga egalik qilishardi. Tobe aholi yer-mulk egasiga obrok, davlatga esa soliq to'lashardi. Ozod jamoa a'zolari ham zodagonlarga qaram bo'lib qolishardi. XVI asr o'rtalarida Songai zaiflasha boshlagan. Hukmdorning oliy martabalarni egallagan qarindoshlari taxtni egallash uchun fitna uyush-tirar edilar. Shaharlardagi musulmon zodagonlar (qozilar, ruhoniylar, savdogarlar) hukmdor bilan deyarli hisoblashmay qo'ygan edi. Ichki janjal va nizolar davlatni zaiflashtirgan.

Afrikaning eng rivojlangan davlat birlashmasi Sundan hududlarida ham shakllangan edi. Sudan hududida tosh davridan odam yashay boshlagan. Mamlakatning katta qismi (qadimda Kush mamlakati, 7-asrdan Nubiya) da qadimgi misrliklarga yaqin bo'lgan som-xom va kushit qabilalari istiqomat qilganligi ma'lum. Er. av. 2-ming yillikda janubdan kelgan negroid qabilalar ularga qo'shilib ketgan. Er. av. XVI— XII-asrlarda Sudan Misrga tobe bo'lgan. Milodiy 6asrda xristianlik tarqala boshladi. VII asrga kelib, Sudanda Aloa, Mukurra va Nobatiya xristian davlatlari paydo bo'ldi. VII asr o'rtalaridan arablar kirib kela boshladi. Natijada mamlakat shimoli va g'arbiy hududlarida islom dini va arab madaniyati tarqaldi. XIV asr oxiri — XIV asr boshlarida musulmon davlatlari (Darfur, Sennar sultonliklari va b.) vujudga keldi.

Afrika xalqlari madaniyati. Afrika xalqlarida ko'pgina qadimiy afsona va ertaklar saqlanib qolgan. Ular qimmatli tarixiy manbalar bo'lib ham xizmat qiladi.

Ayniqsa, g'arbiy Sudan xalqlari madaniyati rivojlandi. Islom qabul qilinganidan keyin bu yerda arab mamlakatlari me'morlari masjidlar, saroylar, qasrlar, jamoat binolari (kasalxona, hammom, istirohat bog'lari va boshqalar) qurganlar. Musulmon maktab, madrasalari ishga tushirilgan. Tombuktu madrasasida ilohiyot bilan birga tarix, fiqh (qonunchilik), matematika, astronomiya ham o'qitilgan. Afrikaliklar sarfatda katta muvaffaqiyatlarga erishganlar. Yog'och va jezdan yasalgan haykallar va niqoblar ifodaviyligi bilan kishilarni hayratga solgan. Benindagi shoh saroyi zallari va galereyalarida podsholaru a'yonlarning jez lavhalarga ishlangan bo'rtma rasmlari topilgan. Bu lavhalarda ov, urush, saroy hayoti sahnalari aks ettirilgan. Sudanda milodiy 6-asrning 2-yarmida xristianlik tarqalishi bilan me'moriy uslubi va devoriy rasmlari kopt san'atiga yaqin bo'lgan cherkovlar qurilgan.

Tayanch so'z va iboralar: Mayyalar, atsteklar, inklar, konkistadorlar, Kusko, Tenochtitlan, Mali, Sudan.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Amerika hududlaridagi eng qadimgi xalqlarning mashg'ulotlari nimalar edi?
2. Amerikadagi o'rta asrlarda qurilgan shaharlarning o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?
3. Qadimgi Afrika davlatlari tarixini o'rganuvchi qanday manbaalarni bilasiz?
4. Gana va Mali davlatlarini ma'muriy boshqarish qanday tashkil etilgan?
5. O'rta asrlar Afrika madaniyatining asosiy rivojlangan sohalarini ta'riflab bering.

Glossariy:

Hindular — Amerikaning tub aholisi (eskimoslar va aleutlardan tashqari). Eng yirik xalqlari — kechua, aymara, atsteklar, mayya, guarani, araukanlar va b. Qit'ani kashf etgan Kolumb bu yerni Osiyoning bir bo'lagi — Hindiston, aholini esa hindular

deb o'ylagan. Kolumbning xatosi aniqlangandan keyin ham qit'a Vest-Indiya (G'arbiy Hindiston), tub aholi Amerika indoslari deb nomlanib kelingan.

Tenochtitlan (Tenochtitlan)- atsteklar davlati poytaxti (14—16-asrlar). Rivoyatlarga ko'ra, Teskoko ko'lining g'arbiy qismidagi orolda 1325- y. barpo etilgan. Shahar xarobasi maydoni 1000 ga ni tashkil etgan. Tenochtitlanni ko'plab kanallar kesib o'tgan, shahar ko'tarma ko'priklari bo'lgan 3 ta damba yordamida quruqlik bilan bog'langan. Shahar 4 qism — Kuepopan, Teopan, Moyotlan va Astakalkoga, ular esa o'z navbatida har biri 5 kvartal (mahalla)ga bo'lingan. Tenochtitlan markazida mahobatli ibodatxonalar (bosh ibodatxonaning balandligi 30 metr), hukmdorlar va zodagonlar saroylari joylashgan. Meksika ispan bosqinchilari tomonidan bosib olinayotgan vaqtda Tenochtitlan butkul vayron qilingan (1521) va uning xarobalari o'rnida Mexiko shahriga asos solingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
Qadimgi dunyo tarixi bo'yicha asosiy adabiyotlar

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
2. Авдиев В.И. Қадимги шарқ тарихи. – Т., 1964.
3. Античная Греция. Под. ред. Е. С. Голубцовой. – М., 1983.
4. Античная цивилизация. Под. ред. В. Д. Блаватского. – М., 1973.
5. Арутюнян Н. Биайнили (Урарту). – Ереван, 1970.
6. Бойназаров Ф. Антик дунё. – Т., 1989.
7. Геродот. История. – М., 1972.
8. Глускина Л. Н. Проблемы социально- экологической истории Афин в IV в. до н. э. – Л., 1975, 1980.
9. Дандамаев М.А, Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. – М., 1980.
10. Доватур А. И. Рабство в Аттике в IV-V вв. до н. э. – Л: ЛГУ, 1980.
11. Древние китайцы в эпоху централизованных империй. – М.,1983.
12. Дьяконов И.М. Урартские письма и документы. – М. – Л., 1963.
13. Иофан Н.А. Культура Древней Японии. – М., 1974.
14. История древней Греции. Под. ред. В. И. Кузищина. – М., 1986.
15. История древнего мира // Под ред. В.И. Кузищина. – М., 1979.
16. История древнего мира // Под ред. И.М. Дьяконова, В.Д. Нероновой, И. С.Свенцитской. – М.,1983.
17. Қадимги дунё тарихи. Й.С. Крушков таҳрири остида. II қисм. –Т., 1975.
- 18.Крюков М.В., Переломов Л.С., Сафронов М.В., Чебоксаров Н.Н. Ладынин И.А. и др. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. – М., 2005.
- 19.Лысенко В.Г. Опыт введения в буддизм: ранняя буддийская философия. Учебное пособие. – М., 1994.
- 20.Мэликишвили Г.А. Урартские клинообразные надписи. – М., 1960.

21. Олденбург С.Ф. Культура Индии. – М., 1991.
22. Пиотровский Б.Б. Ванское царство (Урарту). – М., 1959.
23. Ражабов Р. Қадимги дунё тарихи. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2009.
24. Редер Д. Г., Черкасова Е.А. Қадимги дунё тарихи. 1-қисм. Ю.С. Крушкол тахрири остида. – Т., 1974.
25. Серебряков И.Д. Очерки древнеиндийской литературы. – М., 1971.
26. Словарь античности. – М., 1989.
27. Гиёсов Т. Қадимги Ҳиндистон тарихи. – Т., 2008.
28. Три великих сказания древней Индии. – М., 1978.
29. Тюляев И.С. Искусство Индии. – М., 1983.
30. Фрай Р. Наследие Ирана. – М., 1972.
31. Хинс В. Государство Элам. – М., 1977.
32. Шарма Р.Ш. Древнеиндийское общество. – М., 1989.
33. Юан К.Е. Мифы древнего Китая. М., 1987.
34. История первобытного общества. Учеб. для студентов вузов по спец: “История” В.Р. Алексеев, А.И. Першиц. – М.: АСТ, Астрель, 2007.
35. История древнего Востока. / учеб. пособие для студ. высш. учебных заведений. / В.И. Кузищин, С. Кучера; под ред. В.И. Кузищина. – М.: “Издательский центр Академия”, 2007.
36. Васильев Л.С. История Востока. В 2 т. Учебник. / Л.С. Васильев – 4-е изд., испр. и доп. – М.: Высш. шк., 2005.
37. История Востока. Т.1. Восток в древности. – М., 1997.
38. История древнего Востока: от ранних государственных образований до древних империй. – М., 2004.
39. Древний Восток. Учебное пособие для вузов / Руководитель проекта А.О. Чубарьян. М.; АСТ, Астрель, 2007.
40. Дэвид Р. Древний Египет (энциклопедический справочник) М.; Вече, Университет Манчестера, 2008.

41. Крол А. Египет первых фараонов: Хеб-Сед и становление древнеегипетского государства. М.: Рудомино, 2005.
42. Колум П. Великие мифы народов мира. – М.: Центрполиграф, 2007.
43. Матье М.Э. Искусство древнего Египта. – СПб., 2001.
44. Морэ А. Нил и египетская цивилизация. – М: Центрполиграф., 2007.
45. Тураев Б.А. Египетская литература. – СПб., 2000.
46. Емельянов В.В. Древний Шумер. Очерки культуры. – СПб., 2003.
47. Гуляев В.И. Шумер. Вавилон. Ассирия: 500 лет истории. 2-е изд. – М.: Алтейя, 2005.
48. История Израиля и Иудеи. (общественная и политическая жизнь). – М.:Крафт+, 2004.
49. Дубнов С.М. Краткая история евреев. – М., 1996.
50. Тибергер Ф. Царь Соломон. – М.: Центрполиграф, 2005
51. Гюиз Ф. Древняя Персия. – М.: Вече, 2007.
52. Крюкова В.Ю. Зороастризм. СПб.:Азбука-классика: Петербургское Востоковедение, 2005.
53. Альбедиль М.Ф. Забытая цивилизация в долине Инда. – СПб., 1991.
54. Альбедиль М.Ф. Индия, беспредельная мудрость. 2-изд. – М.:Алтейя, 2005
55. Уиллер М. Древний Индостан: раннеиндийская цивилизация. – М., Центрполиграф, 2005.
56. Бонгард-Левин Г.М. Древнеиндийская цивилизация: история, религия, философия, эпос, литература, наука, встреча культур. – М., Восточная литература, 2007.
57. Вигасин А.А. Древняя Индия: от источника к истории. – М.: Восточная литература, 2007.
58. Индийская мифология (Индийский пантеон. Героический эпос. Обычаи и ритуалы. Ведическая культура. Жертвоприношения. Праздники.): энциклопедия. – М.: Эксмо, СПб, Мидгард, 2006.
59. Тюлина Е.В. Гаруда - пурана. Человек и мир. – М., 2005.

60. Васильев К.В. Истоки китайской цивилизации. – М.: Изд. фирма “Восточная литература” РАН, 1998.
61. Грэхй Д.Г. История Древнего Китая. – М.: Центрполиграф, 2006.
62. История Китая /Учебник. /Под редакцией А.В.Меликсетова.-4-е изд.–М.: Изд-во МГУ, 2007.
63. История Древней Греции / В.С.Сергеев: под ред.проф.Э.Д.Фролова. / Изд-е испр. доп.-М.: АСТ.:СПб, Полигон, 2007.
64. Древняя Греция;учеб.пособие для вузов / Российская академия наук, Государственный ун-т гуманитарных наук: Научно-образоват. центр по истории; С.В.Новиков, Л.Л.Селиванова, А.В.Стрелков; рук-ль проекта А.О.Чубарьян. М.; Астрель, АСТ: Хранитель, 2006.
65. Квеннел М. Гомеровская Греция: быт, религия, культура. – М. Центр полиграф,2005.
66. Бюттен А.М. Классическая Греция. – М.: Вече, 2006.
67. Меланченко И.В. Афинская демократия. –М.: Крафт+, 2007.
68. Волков А.В. Спарта:со щитом или на щите. – М.:Крафт+, 2005.
69. Догерти П. Александр Великий. Смерть бога. – М.:АСТ Москва:Транзиткнига, 2005.
70. Шифман И. Ш. Александр Македонский. – СПб:Изд-во СПбГУ, 2007.
71. Джеймс П. Римская цивилизация. – М.: Гранд,Фаир-Пресс,2000.
72. Роббер Ж.Н.Этрусски. – М.:Вече, 2007.
73. Зелинский Ф.Ф. Римская республика. – СПб: Алтейя, 2002.
74. Хоуэлл Г. Древний Рим. – М.: Эксмо, 2006.
75. Голдсуорси А. Юлий Цезарь (полководец,император,легенда) – М.: Эксмо, 2007.
76. Неродо Ж. П. Август. – М.: Молодая гвардия, 2003.
77. Радхакришнан С. Индийская философия. Т.1-2. – М., 1956, 1957.

О'рта asrlar tarixi bo'yicha asosiy adabiyotlar

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
2. Агибалова Е.В., Донской Г.М. История средних веков. – М., 1992.
3. Алексеев С.В. Славянская Европа V- VI века.– М.: Вече, 2008.
4. Альфан Л. Великие империи варваров:от великого переселения народов до тюркских завоеваний XI века. –М.: ВЕЧЕ.;СПб,Евразия, 2006.
5. Бадак А.Н., Войнич И.Е., Волчѣк Н.М. История средних веков. – Минск: Харвест, 2000.
6. Бадур Н.В. Повседневная жизнь викингов в IX-XI века. – М.: Молодая гвардия, 2007.
7. Беренстен В. Империя Великих Моголов. – М.: АСТ, Астрель, 2005.
8. Бойцов М., Шукуров Р. История средних веков. – М., 1995.
9. Буданова В.П. Варварский мир эпохи Великого переселения народов. – М.: Наука, 2000.
- 10.Вемирная история. Энциклопедия. Под общ. ред. В.Макаровича и др. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2003.
- 11.Виоле-ле-Дюк Э.Э. Жизнь и развлечения в средние века. СПб,Евразия, Историческая литература, 2003.
12. Мимо Г. История крестовых походов. – М, «Апетета».., 1999.
13. Гиббон Э. Упадок и разрушение римской империи. – М.: Центрполиграф, 2005.
14. Гийу А. Византийская цивилизация. Екатеринбург: У-Фактория, 2005.
- 15.Гимбутас М. Славяне.Сыны Перуна. –М.: Центрполиграф, 2007.
16. Горелов М. Датское и нормандское завоевание Англии в XI веке. – СПб: Алтейя. Историческая книга, 2007.
- 17.Делорм Ж. Цивилизация Возрождения. – Екатеринбург: У-Фактория, 2006.
- 18.Доманин А.А. Монгольская империя Чингизидов: Чингисхан и его преемники. – М.: Центрполиграф, 2007.

19. Жаҳон тарихининг муҳим саналари (энг қадимги даврлардан бугунги кунгача). – Т.: Ўзбекистон, 2011.
20. Ислам классический. Энциклопедия. – М.: Эксмо, СПб: Мидгард, 2005.
21. Кенингсбергер Г.Г. Средневековая Европа 400 -1500 годы. – Москва, 2001.
22. Ле Гофф. Цивилизация средневекового Запада. – Екатеринбург: У-Фактория, 2005.
23. Нефёдов С. История средних веков. – М.: Владос, 1996.
24. Перну Р. Крестоносцы. – М.: Вече, 2006.
25. Райс Т.Т. Византия: быт, религия, культура. – М.: Центрполиграф, 2006.
26. Ревуненкова Н.В. Протестантизм. – СПб: Питер, 2007.
27. Семенов В. Ф. Ўрта асрлар тарихи. Педагогика институтлари учун. – Т.: Ўқитувчи, 1973.
28. Смирнов М.Ю. Реформация и протестантизм: словарь. – СПб.: Изд-во СПбГУ., 2005.
29. Средние века / Под ред. В.П.Будановой. – М.: ОЛИСС., Эксмо, 2006.
30. Годд М. Варвары- древние германцы: быт, религия, культура. – М.: Центрполиграф, 2005.
31. Томпсон Э.А. Гунны: грозные воины степей. – М.: Центрполиграф, 2008.
32. Удальцова З. В., Карпов С.П. История средних веков. Т. 1-2. – М.: Высшая школа, 1991.
33. Уколова В. И. Поздний Рим. Пять портретов. – М., 1992.
34. Уоллес-Хедрилл Д.М. Варварский Запад; Раннее Средневековье, 400-1000. – СПб, Евразия, 2002.
35. Фильштинский И. М. История арабов и Халифата (750-1517). – М.: Муравей-гайд, 2001.
36. Хорри К. Что такое ислам: история и действительность. – СПб., Амфора, 2008.
37. Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. 2-нашри. – Т.:

Академия, 2002.

38. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000—2006.

39. Қурбонғалиева Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1991.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Булкин И. Тайны смерти великих людей. Рипол классик. – М., 2004.

2. Ляхова К. Тайны великих авантюристов. Рипол классик. М., 2004.

3. Варакин А. Зданович Л. Тайны исчезнувших цивилизаций. – М., 2004.

4. 100 великих авантюристов. Автор- составитель. Мурамов И.А. – М.: Вече, 2009.

5. Игорь Можейко. (Кир Булычев). 7 и 37 чудес света. От Эллады до Китая. – М.: Вече, 2005.